

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI**  
**OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**  
**MIRZO ULUG'BEK NOMIDAGI O'ZBEKISTON MILLIY**  
**UNIVERSITETI**

**LA'LIXON MUHAMMADJONOVA**

**AMALIY ETIKA VA ESTETIKA**

**O'quv qo'llanma**

**Toshkent**

**2020**

## **Amaliy etika va estetika. O'quv qo'llanma.– “Universitet”, 2020 y**

**Muallif: La'lixon Muhammadjonova**

### **ANNOTATSIYA**

Jamiyatdagi har bir inson yakka xolda, tashqarida yashamaydi. U odamlar orasida o'sadi, ulg'ayadi, xayot kechiradi, uning butun xayoti va faoliyati davomida har – hil toifadagi ko'plab insonlar bilan muloqotda bo'ladi. Bu insonning kundalik xayotiy ehtiyojlarini qondirish zaruratidan kelib chiqadi. Demak doimo axloqiy va estetik munosabatda bo'ladi

Buning uchun esa Amaliy etika va estetikaning umumiy qonuniyatlari, nazariyasi, amaliy ahamiyatini o'rganish, bilish va unga amal qilish davr talabi xisoblanadi.

“Amaliy etika va estetika” o'quv qo'llanmasi barcha sohani o'zlashtiruvchi bo'lajak mutaxassislarni axloqiy va estetik jihatdan tarbiyalashga oid masalalarni ilmiy va amaliy jihatdan yoritishga yordam beradi.

O'quv qo'llanma falsafa(soha turlari) 5A120501 magistrleri uchun mo'ljallangan

### **АННОТАЦИЯ**

Не все в обществе живут одни, на улице. Он растет, взрослеет, живет среди людей, взаимодействует со многими разными категориями людей на протяжении своей жизни и карьеры. Это связано с необходимостью удовлетворения повседневных жизненных потребностей человека. Так что всегда есть моральные и эстетические отношения.

Для этого изучение, знание и применение общих законов, теории и практического значения практической этики и эстетики является требованием времени.

Учебник «Прикладная этика и эстетика» помогает обеспечить научное и практическое освещение вопросов, связанных с нравственным и эстетическим воспитанием будущих специалистов во всех областях.

Учебник предназначен для магистров философии (виды специальностей) 5A120501.

### **ANNOTATION**

Not everyone in society lives alone on the street. He grows up, matures, lives among people, interacts with many different categories of people throughout his life and career. This is due to the need to meet the daily life needs of a person. So there is always a moral and aesthetic relationship.

The textbook "Applied Ethics and Aesthetics" helps to provide scientific and practical coverage of issues related to the moral and aesthetic education of future specialists in all areas.

The textbook is intended for masters of philosophy (types of specialties) 5A120501.

**Taqrizchilar:** f.f.d.M.Qaxxorova; f.f.n, dotsent D.Qodirova

*O'quv qo'llanma Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti Ijtimoiy fanlar fakulteti ilmiy-uslubiy kengashi qarori bilan (2020 yil 19.12.№.4 bayonnoma) nashrga tavsiya etildi.*

## KIRISH

O'z ma'naviy hayoti va kelajagini qurayotgan har bir davlat milliy ezgulik, odamiylik, halollik, fidoiylilik, olijanoblik, mehr-oqibat, vijdoniylilik, adolat singari axloqiy qadriyatlarga murojaat qiladi. Bu fazilatlar esa jamiyat, jamoat va oila muhitida shakllanadi. Oila muqaddasdir. Oilaning tinchligi bu jamiyat tinchligidir. Birinchi Prezident Islom Karimov "Yuksak ma'naviyat engilmas kuch" asarida oilaga shunday ta'rif beradi : "Har qaysi millatning o'ziga xos ma'naviyatini shakllantirish va yuksaltirishda, hech shubhasiz, oilaning o'rni va ta'siri beqiyosdir, chunki insonning eng sof va pokiza tuyg'ulari, ilk hayotiy tushuncha va tasavvurlari birinchi galda oila bag'rida shakllanadi. Bolani xarakterini, tabiati va dunyoqarashini belgilaydigan ma'naviy mezon va qarashlar – yaxshilik va ezgulik, olijanoblik va mehr – oqibat, or – nomus va andisha kabi muqaddas tushunchalarning poydevori oila sharoitida qaror topishi tabiiydir."<sup>1</sup>

Darhaqiqat axloqsiz ma'naviyatni tasavvur etib bo'lmaganidek, ma'naviyatsiz axloq esa yovuzlikka aylanadi.

Mazkur o'quv qo'llanmada amaliy etika va estetikaning inson hayotidagi o'rni, axloqiy va estetik tushunchalarning zamonaviy komil insonni shakllantirishdagi ahamiyati, axloq va nafosatning global muammolariga doir o'ziga xos fikrlar bayon etilgan.

Shu bois o'quv qo'llanma amaliy axloq va estetikaning inson faoliyati bilan bog'liqligini ilmiy talqin etish, ularni nazariy jihatdan o'rganish, ma'naviy jarayonlarni axloqiylashtirish, shaxsning estetik didini shakllantirish muammolarini metodologik jihatdan tadqiq etishni o'zining asosiy maqsadi qilib belgilaydi. Ana shu maqsad:

- axloqiy va estetik tushunchalarni ilmiy va nazariy o'rganish;
- insonparvarlik, erkparvarlik, vatanparvarlik, millatparvarlik, fidoiylilik, ziyolilik, mehnatsevarlik, tinchlikparvarlik kabi axloqiy tamoyillarning amaliy-axloqiy mohiyatini tushuntirib berish;
- Estetik ong, estetik idroq, estetik tuyg'u qabilarini tushuntirib berish;
- jamiyatning axloqiy va estetik talablarini ilmiy asoslash hamda ma'naviy yuksalishning axloqiy va estetik mohiyatiga doir masalalarni tizimli yondoshuv asosida o'rganish;
- globallashuv jarayonida yuzaga keladigan ma'naviy tanazzullar, global muammolar, insonning begonalashuvining axloqqa ta'siri kabi masalalarni yoritishni asosiy vazifalar qilib belgilaydi.

Etika va estetikaning umumnazariy masalalarini ilmiy jihatdan o'rganishga qaratilgan mazkur o'quv qo'llanma axloq va nafosatning shaxs kamolotidagi ayrim

---

<sup>1</sup> Karimov I. A. Yuksak ma'naviyat yengilmas kuch. T., Ma'naviyat, 2008. 52-b.

masalalarni oydinlashtiradi hamda inson tarbiyasida yuksak axloqiy sifatlarni qaror toptirishga, didini yuksaltirishga xizmat qiladi, degan umiddamiz.

## **AMALIY ETIKANING TABIATI**

### **REJA:**

1. Amaliy etika – axloqning kelib chiqishi, mohiyati taraqqiyoti hamda oila va jamiyatdagi axloqiy munosabatlarni o'rganadigan qadimiy falsafiy fan ekanligi.
2. Amaliy etikaning predmeti va tabiati.
3. Normativ axloq. Axloqiy majburiyat.
4. Axloqiy va amaliy bilim tuzilmalari.

Barcha davrlarda insonlar o'rtasidagi axloqiy munosabatlar siyosiy, huquqiy, iqtisodiy mezonlar asosida boshqarilgan. Ayniqsa, sharq xalqlarida, xususan xalqimizning insoniy munosabatlar asosini axloq va axloqiylik tashkil etgan: siyosiy, huquqiy, iqtisodiy munosabatlar zaminida ham axloqiy mezonlar ustunlik qiladi.

Axloq – ma'naviyatning amalda namoyon bo'lishidir. Ilm, bilim, dunyoqarash, idrok va iymon insonning xulq-atvorida o'ziga xos tarzda aks etadi. Insoniylik ma'naviyati esa axloqiy fazilatlar orqali namoyon bo'ladi. Axloq – insof va adolat, iymoniylik va halollik, mehr va muruvvat, sahovatpeshalik va bag'rikenglik, rahmdillik va muruvvatlilik, mehribonlik va g'amhurlik singari ma'naviy tushunchalarini insonning hayotiy faoliyatida yuzaga chiqaradigan ma'naviy hodisadir. Bu borada faylasuf olim E.Yusupovning «Axloq ijtimoiy munosabatlar zaminida alohida shaxs sifatida mavjud bo'lgan insonlarning o'z-o'zini idora qilish shakllari va me'yori, o'zaro muloqot va munosabatlarda ularga xos bo'lgan ma'naviy kamolot darajasining namoyon bo'lishidir»-degan fikri diqqatga sazovor.<sup>1</sup> Chunki axloq yo'q joyda inson ijtimoiy shaxs sifatida shakllanmaydi, faqat axloq zaminidagina insonlarda xayotning mazmuni va maqsadi, jamiyat oldidagi burchi va mas'uliyati va boshqa axloqiy tushunchalar va normalarga muayyan munosabat shakllanadi.

Bu axloq soxasidagi yangi tendentsiya bo'lib, u XX asrning oxiridan tez rivojlana boshladi va etika soxasida yangi axloqiy tur xisoblanadi. Bu fan inson xayotining turli soxalarini qamrab oladi. Amaliy axloq, bioetika, ekologik axloq, iqtisodiy, siyosiy, media axloq, fan va ta'lim axloqi, kompyutor axloqi, biznes, korporativ axloq, tashkilot va ma'muriy axloq kabi turlarni o'z ichiga oladi.

---

<sup>1</sup> Yusupov E. Inson kamolotining ma'naviy asoslari. T., Universitet, 1998, 38-b.

Odamlar jamoasida ijtimoiy munosabatlar murakkablashib borishi natijasida u yoki bu axloq normalari, qoidalarini insonning kundalik hayotidagi real sohalarga tatbiqan muayyanlashtirish ehtiyoji tug'ildi. Shu tariqa etika sohasida amaliy tadqiqotlar paydo bo'la boshladi, amaliy etikaning turli yo'nalishlari: siyosiy etika, jurnalist etikasi, biznes etikasi va h.k. shakllandi. Etikaning eski muammolarini yangidan tadqiq qilish, hayot (uning paydo bo'lishi, uni quvvatlash va uzaytirish) va o'lim bilan bog'liq ko'pgina an'anaviy muammolarni qayta ko'rishga qattiq ehtiyoj tug'ildi. Hozirgi zamon amaliy etikasi mana shu masalalar bilan shug'ullanadi. Bugungi kunda amaliy etika kasalxonalar va tug'ruqxonalarga, biznes va siyosat sohalariga kirib kelmoqda, tabiatga munosabat, hayvonlarning huquqlarini himoya qilish, ochlikka qarshi kurash muammolari bilan bevosita shug'ullanmoqda.

Etika aynan amaliy muammolar sohasida dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Xo'sh, buning sabablari nimada?

Asosiy sabablari – inson bilimlari texnologik imkoniyatlarining o'sishida. Masalan, genetika vujudga kelgan paytdan boshlab ilgari insoniyat oldida hech qachon tug'ilmagan savollar paydo bo'ldi: sun'iy usulda tuqqan ma'qulmi? Jamiyat irsiy injeneriya vositalari yordamida hayvonlar va odamlarni yaratishga harakat qilishi kerakmi?

Kompyuter texnologiyalari paydo bo'lishi bilan insonlar o'rniga robotlardan foydalanish hamda robotlarga odamlarning munosabati muammolari ko'ndalang bo'ldi. Shuningdek jahon oziq-ovqat va xom ashyo resurslarini taqsimlash, aholining o'sishi singari muammolar ham mavjud. Shuning uchun ham etikaga bo'lgan qiziqish tobora ortib bormoqda.

Yana bir sabab – tabiiy muhitga insonning aralashishi natijasida global halokatlarning xavfining kuchayishi. Mazkur muammo noan'naviy echimlar topishni talab qiladi. Yangi muammolar, muammolarning yangi ko'lamini yangicha echimlarni taqozo etadi.

Amaliy etika, so'zning keng ma'nosida, etika tushunchalari va nazariyalarini muayyan, murakkab va ko'pincha juda dramatik vaziyatlarga tatbiq etish demakdir. Unga kazuistika («casus» - tasodif so'zidan), ya'ni cheksiz tasodiflar yoki pretsedentlarni ko'rib chiqish deb qarash ham mumkin. Ammo unga yanada kengroq - chuqur falsafiy ma'noga ega bo'lgan va inson haqida tubdan yangicha tasavvurlarni shakllantiradigan yangi yo'nalish deb qarash uchun barcha asoslar mavjud.

Amaliy etika deganda, tor ma'noda, amaliyot ta'sirida yuzaga kelgan va amaliy etikaning alohida turlari (siyosiy etika, ekoetika, bioetika, jurnalist etikasi va sh.k.) paydo bo'lishiga olib kelgan hodisa tushuniladi. Bioetika, klassik tibbiyot etikasidan farq qiluvchi yangi yo'nalish sifatida, XX asrning ikkinchi yarmida paydo bo'ldi va jadal rivojlana boshladi.

Odamlar jamoasida ijtimoiy munosabatlar murakkablashib borishi natijasida u yoki bu axloq normalari, qoidalarini insonning kundalik hayotidagi real sohalarga tatbiqan muayyanlashtirish ehtiyoji tug'ildi. Shu tariqa etika sohasida amaliy tadqiqotlar paydo bo'la boshladi.

Amaliy etikaning predmeti – bu maxsus xususiyatga ega bo'lgan axloqiy muammolar ( o'lim jazosi, ehtonaziya, transplontatsiya, ksenotransplontatsiya, odam savdosi, qurol savdosi) Bu muammolar inson xayotiga bog'liq bo'lib, uning xayotini chegarasini belgilab beruvchi axloqiy munosabatlarning shakllarini o'rgatadi.

Amaliy etika fani o'z mohiyatiga ko'ra insonga tashqaridan baho beradi, unga “bu – fazilat, bu esa illat”, deb insonning mavjud xislatlarini taxlil qilib ko'rsatadi. Bu fan mavjud dalillarni qiyosiy o'rganib, ularga jamiyatda qabul qilingan me'yorlardan kelib chiqib baho beradi.

Axloqiy dilemma – bu inson oldiga tanlovni qo'yadi, masalan, insonni xayotini saqlab qolish uchun qonunni buzish xolati yoki shifokorning abort qilish, oyoq yoki qo'lni tez kesib tashlash xolatlarida “vazifangizni bajaring” va “zarar qilmang” tamoyillari o'rtasida ziddiyatlar paydo bo'ladi.

Jamiyatdagi xar bir inson yakka xolda, tashqarida yashamaydi. U odamlar orasida o'sadi, ulg'ayadi, xayot kechiradi, uning butun xayoti va faoliyati davomida xar – hil toifadagi ko'plab insonlar bilan muloqotda bo'ladi. Bu insonning kundalik xayotiy extiyojlarini qondirish zaruratidan kelib chiqadi.

Jamoa bo'lib yashash jamiyatda qabul qilingan urf – odat, an'ana va qonun – qoidalarga amal qilishni talab etadi. Ana shu jarayonda inson va jamiyat o'rtasida yuzaga keladigan ob'ektiv aloqadorlik, ya'ni ijtimoiy munosabat – xulq atvor, odob, xatti – harakat, printsip va normalarning majmuasi axloqning mazmun mohiyatini tashkil etadi. Binobarin, axloqning manbai jamiyat extiyoji va manfaatlaridan iborat.

Amaliy etika fani o'z mohiyatiga ko'ra insonga tashqaridan baho beradi, unga “bu – fazilat, bu esa illat”, deb insonning mavjud xislatlarini taxlil qilib ko'rsatadi. Bu fan mavjud dalillarni qiyosiy o'rganib, ularga jamiyatda qabul qilingan me'yorlardan kelib chiqib baho beradi.

Amaliy etika axloqning kelib chiqishi va mohiyatini, kishining jamiyatdagi axloqiy munosabatlarini o'rganadi. «Axloq» so'zi arabchadan olingan bo'lib, insonning muomala va ruhiy xususiyatlari majmuini, fe'lini, tabiatini anglatadigan «xulq» so'zining ko'plik shaklidir. «Axloq» iborasi ikki xil ma'noga ega: umumiy tushuncha sifatida u fanning tadqiqot ob'ektini anglatga, muayyan tushuncha sifatida inson fe'l-atvori va xatti-harakatining eng qamrovli qismini bildiradi.

Axloq inson va jamiyat o'rtasidagi ob'ektiv aloqadorlik tufayli kelib chiqadigan, shaxsiy va umumiy manfaatlarini muvofiqlashtirib turish asosida har bir

shaxsning xayoti va faoliyatini boshqaradigan, tartibga soladigan muayyan xulq atvor, odob, xatti-harakat printsip va normalarning majmuidir.

Axloqni umumiy tushuncha sifatida olib, uni doira shaklida aks ettiradigan bo'lsak, doiraning eng kichik qismini odob, undan kattaroq qismini - xulq, eng qamrovli qismini axloq egallaydi.

Milliy mustaqillikni mustaxkamlash jarayonida amaliy etikaning jamiyat ijtimoiy-ma'naviy hayotidagi o'rni. Vatanparvar, millatparvar, halol shaxsni – zamonaviy barkamol insonni voyaga etkazish va XXI asrda umumjahoniy miqyosda axloqiy muhitni yaratishga hizmat qilish amaliy etika fanining eng dolzarb vazifalaridan ekanligi haqida ma'lumot berish.

Amaliy etikaning oldida yangi demokratik va huquqiy davlat barpo etishga kirishgan mamlakatimiz fuqarolarining, ayniqsa, yoshlarning axloqiy darajasiga mas'ullik va har tomonlama kamol topgan zamon kishisi tarbiyasini nazariy asoslashdek ulkan vazifalar turibdi. Ularni faqat qadimiy va har doim zamonaviy bo'lib kelgan axloqqa yangicha yondashuvlar asosidagina amalga oshirsa bo'ladi.

Yangicha yondashuvlardan biri - amaliy etikada milliy g'oya va mustaqillik mafkurasiga e'tiborni kuchaytirish bilan bog'liq. Chunki zamonaviy komil inson an'anaviy axloqiy qadriyatlar bilan yo'g'rilgan yangicha mafkuramizni o'zida mujassam etgan, milliy g'oyani o'z ruhiy olamiga singdirgan etuk shaxs bo'lmog'i lozim. Uning qalbida axloq mafkuraviylikni va mafkura axloqiylikni uyg'unlashtirgan ma'naviy hodisalarga aylanmog'i kerak. Chunki mafkura bir yoqlama, mahdud, o'ta siyosiyashtirilgan g'oyalar tizimi emas, u ham xuddi axloq kabi, axloq bilan yonma-yon turib, insonni yuksak ma'naviy parvozlarga da'vat etuvchi botiniy kuchdir.

Inson ma'naviyatida bir qator jihatlar va xususiyatlar mujassam: hayo va andisha, vafo va sadoqat, himmat va sahovat, mehr va shafqat, vijdon va oriyat, o'ktamlik va zakiylik, muloyimlik va kamtarinlik kabi insoniy fazilatlar ma'naviyatning axloqiy asosi hisoblanadi. Bu asoslarni faylasuf Abdulla Sher tomonidan talqin etilgan axloqning odob, xulq kabi ma'naviy doirada amal qilishi va «Axloq – jamiyat, zamon, ba'zan umumbashariy ahamiyatga ega, insoniyat tarixi uchun namuna bo'la oladigan ijobiy xatti-harakatlar yig'indisi, insoniy kamolot darajasini belgilovchi ma'naviy hodisa»<sup>1</sup>, ekanligi bilan izoxlash mumkin.

Axloqiy qadriyatlarga rioya qilishni har bir shaxs o'zidan boshlashi kerak. Eng asosiy narsa axloqiy qadriyatlarni bilish emas, balki ularga amal qilishdir. Shaxsning faoliyatiga nisbatan axloqiy bahoni jamoatchilik beradi. Zero, axloqlilik – shaxs faoliyatining jamoatchilik belgilagan ma'naviy mezonlariga mos kelishidir.

<sup>1</sup>Abdulla Sher. Axloqshunoslik Darslik. T. O'zbekiston Faylasuflari Milliy jamiyati, 2010. 6-b.

Barcha axloqiy xatti- harakatlar tahliliga ma'naviy asos bo'lgan iymon, vijdon esa inson hayotining ichki ruhiy qonunidir. Axloq muammolari tahlilida inson ko'proq shu ichki qonunga tayanib ish ko'radi.

Amaliy etika keng ma'noda etikaning alohida turidir, chunki u axloq muammolari haqida yangicha tushuncha beradi, mazkur muammolarga yangicha yondashuvlarni amalga oshiradi.

Har bir insonga tegishli bo'lgan dolzarb muammolarni tadqiq qilish jarayonida etika tamomila boshqa fanga aylanib boradi. Odamlar o'rtasidagi munosabatlarning qonunlari, etikaning muammolari doirasi o'zgardi – endilikda u ijtimoiy va siyosiy masalalardan ham ko'ra ko'proq tibbiyot, biologiya va ekologiya masalalari bilan qiziqmoqda.

Etika aynan amaliy muammolar sohasida dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Xo'sh, buning sabablari nimada?

Asosiy sabablari – inson bilimlari texnologik imkoniyatlarining o'sishida. Masalan, genetika vujudga kelgan paytdan boshlab ilgari insoniyat oldida hech qachon tug'ilmagan savollar paydo bo'ldi: sun'iy usulda tuqqan ma'qulmi? Jamiyat irsiy injeneriya vositalari yordamida hayvonlar va odamlarni yaratishga harakat qilishi kerakmi?

Kompyuter texnologiyalari paydo bo'lishi bilan insonlar o'rniga robotlardan foydalanish hamda robotlarga odamlarning munosabati muammolari ko'ndalang bo'ldi. Shuningdek jahon oziq-ovqat va xom ashyo resurslarini taqsimlash, aholining o'sishi singari muammolar ham mavjud. Shuning uchun ham etikaga bo'lgan qiziqish tobora ortib bormoqda.

Yana bir sabab – tabiiy muhitga insonning aralashishi natijasida global halokatlar xavfining kuchayishi. Mazkur muammo noan'naviy echimlar topishni talab qiladi. Yangi muammolar, muammolarning yangi ko'lamini yangicha echimlarni taqozo etadi.

Amaliy etika, so'zi keng ma'noda, etika tushunchalari va nazariyalarini muayyan, murakkab va ko'pincha juda dramatik vaziyatlarga tatbiq etish demakdir. Unga kazuistika («casus» - tasodif so'zidan), ya'ni cheksiz tasodiflar yoki pretsedentlarni ko'rib chiqish deb qarash ham mumkin.

Ammo unga yanada kengroq - chuqur falsafiy ma'noga ega bo'lgan va inson haqida tubdan yangicha tasavvurlarni shakllantiradigan yangi yo'nalish deb qarash uchun barcha asoslar mavjud.

Amaliy etika fani o'z mohiyatiga ko'ra insonga tashqaridan baho beradi, unga “bu – fazilat, bu esa illat”, deb insonning mavjud xislatlarini taxlil qilib ko'rsatadi. Bu fan mavjud dalillarni qiyosiy o'rganib, ularga jamiyatda qabul qilingan me'yorlardan kelib chiqib baho beradi.

Amaliy etika axloqning kelib chiqishi va mohiyatini, kishining jamiyatdagi axloqiy munosabatlarini o'rganadi. Amaliy etika keng ma'noda etikaning alohida turidir, chunki u axloq muammolari haqida yangicha tushuncha beradi, mazkur muammolarga yangicha yondashuvlarni amalga oshiradi. Har bir insonga tegishli bo'lgan dolzarb muammolarni tadqiq qilish jarayonida etika tamomila boshqa fanga aylanib boradi. Odamlar o'rtasidagi munosabatlarning qonunlari, etikaning muammolari doirasi o'zgardi – endilikda u ijtimoiy va siyosiy masalalardan ham ko'ra ko'proq tibbiyot, biologiya va ekologiya masalalari bilan qiziqmoqda.

Axloq inson va jamiyat o'rtasidagi ob'ektiv aloqadorlik tufayli kelib chiqadigan, shaxsiy va umumiy manfaatlarni muvofiqlashtirib turish asosida har bir shaxsning xayoti va faoliyatini boshqaradigan, tartibga soladigan muayyan xulq atvor, odob, xatti – xarakat printsip va normalarning majmuidir.

“Axloq” so'zi arabchadan olingan bo'lib, insonning muomala va ruhiy xususiyatlari majmuini, fe'lini, tabiatini anglatadigan «xulq» so'zining ko'plik shaklidir. “Axloq” iborasi ikki xil ma'noga ega: umumiy tushuncha sifatida u fanning tadqiqot ob'ektini anglatga, muayyan tushuncha sifatida inson fe'l-atvori va xatti-harakatining eng qamrovli qismini bildiradi.

Odob - inson haqida yoqimli taassurot uyg'otadigan, lekin jamoa, jamiyat va insoniyat hayotida burilish yasaydigan darajada muhim ahamiyatga ega bo'lmaydigan, milliy urf-odatlarga asoslangan chiroyli xatti-harakatlarni o'z ichiga oladi.

Xulq - oila, jamoa, mahalla-ko'y miqyosida ahamiyatli bo'lgan, ammo jamiyat va insoniyat hayotiga sezilarli ta'sir ko'rsatmaydigan yoqimli insoniy xatti-harakatlarning majmui.

Axloq - jamiyat, zamon, ba'zan umumbashariy ahamiyatga ega, insoniyat tarixi uchun namuna bo'la oladigan ijobiy xatti-harakatlar yig'indisi, insoniy kamolot darajasini belgilovchi ma'naviy hodisa.

#### *Amaliy etikaning boshqa ijtimoiy fanlar bilan aloqadorligi*

Axloq va axloqiylik o'z-o'zidan yuzaga keladigan jarayon emas. Bu jarayon kengqamrovli bo'lib, o'zida bir qator ijtimoiy–ma'naviy ko'rinishini mujassam etadi, ma'naviyat tizimidagi sohalar bilan yaqindan aloqada bo'ladi. Qo'yida anashularning ayrimlariga to'xtalamiz.

Amaliy etika va estetika. Amaliy etika boshqa ijtimoiy va falsafiy fanlar bilan o'zaro aloqadorlikda rivojlanib kelmoqda. Ayniqsa, uning estetika bilan aloqasi qadimiy va o'ziga xos. Avvalo, insonning har bir xatti-harakati va niyati ham axloqiylikka, ham nafosatga tegishli bo'ladi, ya'ni muayyan ijobiy faoliyat ham ezgulik (ichki guzallik), ham nafosat (tashqi guzallik) xususiyatlarini mujassam qiladi.

Estetik baholar hamisha axloqiy tushuncha va intilishlar bilan bog'lanib ketadi. Umuman olganda, guzallik mavj urib turgan narsa axloqiy jixatdan ham boy bo'ladi, axloqiy jixatdan puch narsa xunuk bo'ladi. Axloqiy – ma'naviy tasavvurlar hech qanday xis-tuyg'uga ega bo'lmagan umumiy muloxazalar, mavxumiy g'oyalar, tushunchalar shaklida ham ifoda etilishi mumkin. Xolbuki estetika doirasi ko'rinib va eshitib turgan olamdan iborat Axloqiy katigoriyalar va baxolarni tabiat xodisalariga nisbatan ishlatib bo'lmaydi, xolbuki jonli va jonsiz tabiatning bari – estetika uchun tabiiy va zaruriy doiradir. Estetika va amaliy etika bir biri bilan yaqin o'zaro bog'liq bo'lsada xar qaysisi mustaqil fandir Insonning xatti-harakati va niyati ko'pincha ham axloqiylikka, ham nafosatga tegishli bo'ladi, ya'ni muayyan ijobiy faoliyat ham ezgulik, ham nafosat xususiyatlarini o'zida birvarakay mujassam qiladi. Shu sababli «Avesto», «Injil» va «Quron» kabi muqaddas kitoblarda, Suqrot, Aflotun, Forobiy singari qadimgi faylasuflar ta'limotlarida axloqiylikni-ichki guzallik, nafosatni-tashqi guzallik tarzida talqin etganlar. Bundan tashqari, ko'rib o'tganimizdek, san'at estetikaning asosiy tadqiqot ob'ektlaridan hisoblanadi. Har bir san'at asarida esa axloqning dolzarb muammolari ko'tariladi va ijodkor eng yuksak axloqiy darajani badiiy qiyofalar orqali in'ikos ettiradi. Bu in'ikos bevosita ijobiy qahramonlar qiyofasida amalga oshsa, bilvosita salbiy voqea-hodisalarga muallif nuqtai nazari orqali ro'y berishi mumkin. Ya'ni biror bir badiiy asarda ijobiy qahramonlar, umuman, bo'lmaydi, lekin undagi voqea-hodisalarga ijodkor o'z zamonasi erishgan axloqiy yuksaklikdan turib baho beradi. Shu bois mutlaqo axloqsiz tarzdagi badiiy asarning bo'lishi mumkin emas. Demak, estetika o'rganayotgan har bir badiiy asar ma'lum ma'noda axloqshunoslik nuqtai nazaridan ham tadqiq etilayotgan bo'ladi Biroq, bunday yaqinlik, yuqorida aytganimizdek, aslo aynanlikni anglatmaydi. Bu ikkala fanning tadqiqot ob'ektlari orasidagi farqni birinchi bo'lib buyuk Arastu nazariy jihatdan isbotlab bergan edi; u, ezgulik faqat harakatda, guzallik esa, harakatsiz ham namoyon bo'ladi, degan fikrni bildiradi. Darhaqiqat, axloqiylik faqat insonning xatti-harakati, qilmishi orqali yuzaga keladi; odam toki harakatsiz ekan, biz uning na yaxshiligini, na yomonligini bilamiz; muayayn xatti-harakat sodir qilinganidan keyingina biz uni yo ezgulik, yo yovuzlik, yo yaxshilik, yo yomonlik sifatida baholaymiz. Guzallik esa, o'zini harakatsiz ham namoyon etaveradi.

Amaliy etika va dinshunoslik. Amaliy etikaning dinshunoslik bilan aloqasi shundaki, har ikkala fan ham bir xil muammo - axloqiy mezon muammosini hal etishga qaratilgan. Chunki umumjahoniy dinlar vujudga kelguniga qadar mavjud bo'lgan ma'lum urf-odatlar va qadriyatlar muayyan diniy qonun-qoidalarga, muqaddas diniy kitoblarga katta ta'sir ko'rsatgan. Ayni paytda, dinlar ham axloqqa ana shunday ta'sir o'tkazganlar.

Har qanday diniy ta'limotlar jamiyat taraqqiyotining muayyan bosqichida ob'ektiv, sub'ektiv ehtiyojlar va zaruriyatlar asosida kelib chiqadi. Qur'on, hadislar, shariat qoidalari, islom huquqi asoslarida oldinga surilgan barcha g'oyalar zaminida ruhiy poklanish, iymon, vijdon, e'tiqod bilan bog'liq bo'lgan dunyoviy muammolar o'rta qo'yilgan. Jamiyat hayoti va shaxsiy hayotdagi barcha muammolarni hal etish uchun inson o'zi ruhan, vijdonan pok, iymonli, halol, e'tiqodli bo'lishi kerak degan g'oya islom dinining mohiyatda yuksak o'rin egallaydi. Chunonchi, inson eng oliy qadriyat sifatida qat'iy muhofaza etiladi.

Din o'zining ijtimoiy ta'siri va kuchi jihatidan har qanday mafkuradan ustun turadi. Dinga ehtiyoj ma'naviy kamolotga bo'lgan ehtiyojning bir ko'rinishidir. Dinsiz jamiyat ma'naviy jihatdan zaif va qashshoq bo'ladi. Birinchi Prezident I.A.Karimovning ta'kidlashicha: “ Ollohning o'zi bizga buyurgan komil inson bo'lish, halollik va adolat bilan hayot kechirish kabi olijanob fazilatlarining ma'no – mazmunini nafaqat chuqur anglash, balki anashunday xususiyatlarga ega bo'lish, ularga amal qilib yashash – odamzotning ma'naviy boyligini belgilab beradigan asosiy mezon, desak, hech qanday xato bo'lmaydi.”<sup>1</sup>

Shuni unutmaslik kerakki, din siyosat emas, balki ma'naviy hodisadir. Dinni qurol qilib, o'z siyosiy maqsadlariga erishishga intilayotgan “korchalonlar”ning yovuz qilmishlariga hech qaysi davr hayrixox bo'lgan emas. Din insonni axloqiylashtirishning vositasi tarzida ish ko'radi. Demak, diniy taqvo bilan axloqiy talabning ildizi bir. Har ikki holatda ham vijdon ko'zga ko'rinmaydigan boshqaruvchi muruvvat sifatida namoyon bo'ladi. Bu – botiniy ko'rinish. Zohiriy ko'rinish esa shar'iy hukmlar va huquqiy qonunlarda o'z aksini topadi. Biz komil inson tarbiyasi degan iboralarni ko'p uchratamiz. Diniy ta'limotlarda komillik timsoli sifatida Haq nazarda tutiladi. Insonning kamolotga erishuvi Haqqa talpinishidir, Hujjatul Islom Imom Abu Homid G'azzoliy «Kimyoi saodat» asarida yozadilar: «Inson farishta va hayvon orasidagi maxluqdir. Hayvon rivojlanmaydi, chunki uning kamolot quvvati yo'q. Farishta ham rivojlanmaydi, chunki uning o'zi pok ilohiy nurdan iborat, Chunki insonlardagina rivojlanish, ruhiy kamolot hislati mavjud».<sup>2</sup>

Shu tariqa, komil insonning o'ziga xos axloq qoidasi ishlab chiqilgan bo'lib, bu sifatlarga ega bo'lish har bir odamning orzu – armoni deb qaralgan. Yana shuni ta'kidlash lozimki, o'rta asrlardagi yaxshi axloq, komil inson haqidagi tushunchalar nisbiy xususiyatga ega. Ammo masala qanday qo'yilishidan qat'iy nazar, komil inson haqidagi g'oyalar katta ijtimoiy – axloqiy ahamiyatga ega bo'ladi.

Amaliy etika va huquqshunoslik. Amaliy etikaning huquqshunoslik bilan aloqasi uzoq tarixga ega. Ma'lumki, juda ko'p hollarda axloq me'yorlari bilan huquq

<sup>1</sup> Karimov I. A. Yuksak ma'naviyat yengilmas kuch. T., Ma'naviyat, 2008. 25-b.

<sup>2</sup> Komilov N. Komil inson haqida to'rt risola. T., O'zbekiston. 1997. 172-b.

me'yorlari mohiyatan va mazmunan bir xil bo'ladi. Shunga ko'ra, axloqni jamoatchilik asosidagi huquq, huquqni esa qonuniylashtirilgan axloq deb atash mumkin. Axloqiy talab huquqiy qonun-qoidalarda o'z aksini topadi, deyish bilan biz axloq va huquqning mustahkam aloqaga ega ekanini tasdiqlab turibmiz. Zero, aslida ham shunday. Ma'naviy kamolot yuksaklikka, ilg'or rivojlanishga intilishdir, jamiyat taraqqiyotiga, tenglik, teng huquqlilik, ozodlik, adolat, inson qadr-qimmati, haq- huquqini himoya qilishga intilishdir.

Inson dunyoga ma'lum bir maqsad bilan kelmaydi. U o'zligini idrok etgandan so'ng hayotdan yashashdan ma'no izlaydi va bu narsa uning hayotining mazmunini tashkil etadi. Inson hayotda yashar ekan, u doimo komillikka qarab intiladi. Komil inson bo'lib etishishida esa axloqiy, estetik va huquqiy tarbiyaga katta ahamiyat kasb etadi. Huquqiy tarbiya doirasiga tortilgan har bir shaxsning umumiy madaniyati, ya'ni uning siyosiy, axloqiy, diniy, ilmiy, falsafiy salohiyatlarini inobatga olingan holda olib borilganda, mazkur faoliyat ancha samarali bo'ladi. Huquqni bilish va u haqdagi tasavvurlar kishiga odatda huquqqa zid narsani qonuniy narsadan farqlashida, voqea-hodisani huquqiy jihatdan to'g'ri baholashida va uning ehtimol bo'lgan huquqiy oqibatlarini tasavvur etishida yordam beradi. Insonning hayotiy tajribasi huquq haqidagi tasavvurlarning muhim manbai hisoblanadi. Huquqshunos olim A. Saidovning fikricha: "Voyaga etmaganlar o'zlari kuzatib boradigan huquqiy faktlarga nafaqat ularning qo'llanish amaliyoti nuqtai nazaridan baho berishadi. Agar bunday amaliyot huquqda yozib qo'yilganiga nisbatan farq qiladigan bo'lsa, unda bu yoshlarda huquqiy ko'rsatmalarning shunchaki rasmiy narsa ekanligi to'g'risidagi tasavvurlarni, "ha, qonun – boshqayu, hayot butunlay boshqa" degan fikrni hosil qilish mumkin".<sup>1</sup>

Qonunga munosabat va huquqqa qo'yiladigan talab, huquqiy va axloqiy me'yorlar ijtimoiy hayotning umumiy ta'siri ostida shakllanadi. Ko'pgina yoshlarning jinoyati hulq-atvor qoidalarini, shu bilan birga huquqiy javobgarlik tamoyillari, uning harakteri va miqdorini bilmaslik bilan bog'liq. Masalan, ko'pgina voyaga etmaganlar orasida shunday bir qarash borki, unga ko'ra bunday bolalarning jinoyatlari uchun ularning o'zlari emas, balki, avvalo ota-onalari, tarbiyachilari va mahalla-kuy hamda jamoatchilik javob berishadi. Aksariyat xolatlarda ota-onalar o'z farzandlarining noma'qul ishlari va jinoyatlarini berkitishga harakat qiladilar, aksincha farzandlari "qobil farzand", farishtaday pokiza bola ekanligini isbotlashga urinadilar. Bunday yolg'on va xaspo'shlash esa pirovardida yomon oqibatlariga olib kelishi haqida ko'p marta eshitganmiz.

Huquqiy tarbiya ma'naviy tarbiya jarayonida singdirib boriladi. Axloq ma'naviyatning asosini tashkil etadi. Inson axloqiy jarayonlarda bevosita yoki

<sup>1</sup> Saidov A. Huquqiy madaniyat nazariyasi. T., 1998. 198-b.

bilvosita ravishda rioya etadi. Tabiiyki, huquqiy tarbiya ham axloq mezonlari bilan hamohanglikda olib borilsa, o'ylangan maqsadga etishish mumkin.

Fuqarolik jamiyati – ijtimoiy hayotning davlat ta'siri va aralashuvidan, ma'muriy tazyiqlardan xoli bo'lgan hamda insonlarining hususiy turmush sohasini tashkil etuvchi munosabatlar majmuidir. Fuqarolik jamiyati chuqur ma'naviy, yuksak madaniyatga ega bo'lgan munosabatlar zahiriga tayanadi. Bu jamiyatning ma'naviy hayotida bir narsa ustuvorlik qiladi, ya'ni inson benihoya darajada ulug'lanadi, umumisoniy qadriyatlar e'zozlanadi, ular mo''tabar va muqaddas sanaladi. Bunda insonning qadr– qimmat, mehr–oqibat, axloqiy poklik, adolatparvarlik va insonparvarlik kabi oliy qadriyatlar insonlar o'rtasidagi munosabatlarni belgilovchi mezondir.

Sharq madaniy hayotida hamma vaqt axloq huquqqa nisbatan ustuvor ahamiyatga ega bo'lib kelgan. Shu sababli ham axloqiy etuklikning davlat, jamiyat, millat birligidagi o'rni va ahamiyati doim ortib boravergan. Bu esa insonlarning axloqiy birligi tobora barqaror va mustahkam bo'lishiga olib kelgan. Manfaatlar birligi, umumiyliigi ham insonlar o'rtasidagi munosabatlar axloqiy qadriyatlarga qanchalik ko'p tayanishiga bog'liq.

Muayyan jamiyatdagi huquqiy qonun-qoidalar o'sha mintaqa xalqlari tomonidan asrlar mobaynida ishlab chiqilgan axloqiy aqidalar, tamoyillar, me'yorlar, shuningdek, nisbatan umumiylik xususiyatiga ega bo'lgan urf-odatlar zahirida vujudga keladi. Ko'rinib turibdiki, axloq bilan huquq, garchand, bir ildizga ega bo'lsa-da, ularning jamiyat axloqiy hayotini boshqaruv usuli har xil: axloq asosan tushuntirish, pand-o'gitlar vositasida ish ko'rsa, huquq majburiy usul, jazo choralari orqali ish olib boradi.

Amaliy etika va san'at. Axloq bilan san'atning o'zaro aloqalari haqida gap ketganda, avvalo, san'at mohiyatan shaxsning xis-tuyg'ulariga ta'sir ko'rsatishga qodir bo'lgan muhim jarayon ekanligini hisobga olish darkor. San'at insonning xis-siyotlari va tuyg'ular olamiga kirib boradi. Shuning uchun bo'lsa kerak, san'at barcha davrlarda insonga hamroh bo'lib kelgan. San'at keng ma'noli tushunchadir. Zero, san'at inson mehnati, aql-idroki, shuuri bilan yaratilgan, vujudga kelgan, ijod qilingan narsalardir. San'at inson faoliyatining ijodkorlik turini anglatib, har bir san'at asarida shaxsning o'ziga xos iste'dodi namoyon bo'ladi. Va nihoyat, san'at insonning mahorati bilan chambarchas bog'liqdir. San'at, keng ma'noda, badiiy qadriyatlar, ularni yaratish (badiiy ijod qilish) va iste'mol (badiiy idrok etish) jarayonlarini ham qamrab oladi. Nafosatshunos E.Umarovning ta'kidiga ko'ra, "San'at va axloq o'zaro munosabatlari estetikada o'zak masalalardan biri bo'lib, bu masalaga uch uslubda yondoshiladi. Birinchisi- «axloqiylik» uslubi deyiladi. Bu uslub Ovrupo nafosatshunosligidagi yunonlar, jumladan Aflotun, yangi davrda esa Russo va L.N.Tolstoy ijodida kengroq va chuqurroq ishlab chiqilgan.

“Axloqiylik”ning mohiyati shundaki, uning targ’ibotchilari tarixan turli davrlarda yashaganiga qaramay, badiiy ijodni axloq-odobga bo’ysundirish, ezgulikni san’atning birdan-bir va eng oliy maqsadi sifatida targ’ib etishdir.”<sup>1</sup>

San’at va axloqning bosh mavzui inson hisoblanadi. San’at insonning maqsad-manfaatlari, fikr-mulohazalari, his-tuyg’ulari, ichki kechinmalari nuqtai nazaridan aks ettirsa, axloq inson ijtimoiy aloqalari va munosabatlarining mag’ziga singib ketadi. Hayotda axloq-odobga aloqador bo’lmagan biror voqea-hodisa sodir bo’lmaydi. Insonlarning o’zaro munosabatlari va muomalalari axloqning bevosita ob’ekti bo’lib xizmat qiladi. Har bir haqiqiy san’at asarida asosiy ziddiyat sifatida ezgulik bilan yovuzlikning kurashi aks etadi, insonparvarlik, haqiqatguylik, to’g’rilik, adolat, muhabbat, sadoqat singari fazilatlar tarannum etiladi, taqdir, o’lim va o’lmaslik, hayotning mazmuni, baxtga erishish singari muammolar o’rtaga tashlanadi. Axloqiy ideal muammosi esa har bir badiiy asarning shohtomiri hisoblanadi. Zero, Navoiydagi Farhod bilan Shirin, Qodiriyning Otabek bilan Kumushi, Shekspirning Romeo bilan Julettasi yuksak axloqiy ideallarni namoyon etishi bilan umumbashariy ahamiyatga ega. Bundan tashqari, so’z san’atida, ta’bir joiz bo’lsa, o’ziga xos «axloqiy janrlar» mavjud. Ularni xalq og’zaki ijodida ham, yozma adabiyotda ham uchratish mumkin: maqol, matal, hikmatlar, hikoyatlar, rivoyat, masal, pandnoma va h.k. shular jumlasidandir.

Birinchi Prezident I.A.Karimov o’z asarida shunday fikr berib o’tadilar “Insonni, uning ma’naviy olamini kashf etadigan yana bir qudratli vosita borki, u ham bo’lsa, so’z san’ati, badiiy adabiyotdir. Adabiyotning insonshunoslik deb, shoir va yozuvchilarning esa inson ruhining muhandislari”<sup>2</sup> deb ta’rif beradi Umuman olganda, axloqsiz badiiy asarning bo’lishi mumkin emas, barcha san’at asarlari uchun axloqiylik muhim asos hisoblanadi. Ayni paytda san’at Amaliy etika targ’ibotchisi, axloqiy tarbiyaning eng qulay vositasi sifatida ham namoyon bo’ladi. Bejiz Birinchi Prezidentimiz I.A.Karimov o’z asarlarida san’at va madaniyatga quyidagi bahoni bermadilar: “ San’at va madaniyatdek qudratli kuch orqali inson qalbiga yo’l topish haqida so’z yuritar ekanmiz, hammamiz yaxshi tushunamizki, har qaysi iste’dod egasi o’ziga xos bir olam, shu sababli ijod ahliga qandaydir aql o’rgatish, eng asosiysi, ularni boshqarishga urinish mumkin emas. Lekin bu hayotda ularni birlashtiradigan, yangi ijodiy marralar sari ilxomlantiradigan muqaddas tushunchalar borki, ular Vatan va xalq manfaati, ezgulik va insoniylik tamoyillari bilan uzviy bog’liqdir. Agarki har qaysi ijodkor o’z asarida ana shu o’lmas g’oyalarni bosh maqsad qilib qo’ysa, ularni badiiy mahorat bilan ifoda eta olsa, hech shubhasiz, adabiyot ham, madaniyat va san’at ham tom ma’noda ma’naviy

<sup>1</sup> Umarov E. Estetika. T., O‘zbekiston. 1995. 159-b.

<sup>2</sup> Karimov I. A. Yuksak ma’naviyat yengilmas kuch. T., Ma’naviyat, 2008. 136 - b.

yuksalishga hizmat qilib, o'zining ijtimoiy vazifasini to'liq ado etishga erishgan bo'ladi."<sup>1</sup>

Amaliy etika va mafkura. O'zbekiston mustaqillikka erishgach, milliy istiqlol mafkurasini yaratishga zarurati tug'ildi. Zero, har qanday jamiyatning o'z mafkurasini bo'lmog'i lozim. Chunki, "Mafkura bir ijtimoiy guruh yoki millatning tub manfaatlarini nazariy asoslovchi va himoya qiluvchi falsafiy, siyosiy, huquqiy, axloqiy, diniy, guzallikka doir, badiiy qarashlarning butin bir tizimiga mafkura deyiladi"<sup>2</sup>. Mafkurasiz jamiyat, ijtimoiy guruh yoki millat bo'lishi mumkin emas. Mustaqil O'zbekistonning mafkurasini milliy istiqlol mafkurasidir. Bu mafkuraning mazmuni iqtisodiy, ijtimoiy – siyosiy, madaniy - ma'rifiy hayotning barcha sohalariga singib ketgan. Muayn maqsadni ifoda etuvchi har qanday mafkura insonlar ongiga singib, e'tiqodi mohiyatini belgilab, amaliy faoliyatiga asos bo'lgandagina katta ijtimoiy kuchga aylanadi. Axloq bilan mafkuraning aloqasi ham jamiyat hayotida juda katta ahamiyatga ega. Ma'lumki, har bir mafkura muayyan g'oyalar va qarashlar tizimidan iborat bo'ladi. Rasmona mafkurani axloqiy g'oyalarsiz tasavvur qilish qiyin. Lekin g'oya hech qachon o'z-o'zicha, shunchaki mavjud bo'lmaydi. U albatta insonda in'ikos topadi va muayyanlashadi.

Inson kamoloti hech vaqt mafkurasiz voqe bo'lmaydi. Inson tarbiyasiga oid har bir tadbir ma'lum maqsadlar bilan bog'langan. Bu maqsadlarning yo'nalishi jamiyat, millat, jamoa, ijtimoiy–siyosiy kuchlar mafkurasini bilan belgilanadi.

Yuksak axloqiylikka asoslangan milliy mafkuramiz jamiyatimizda vatanparvarlik, millatparvarlik, ziyolilik tamoyillarini ustuvor bilib, har bir fuqaroni buyuk davlat yaratishda ishtirok etishga chorlaydi. umumbashariy ma'naviy qadriyatlarni e'zozlashga, boshqa millatlar va elatlarga hurmat bilan qarashga chaqiradi, tenglar ichida teng bo'lish g'oyasini ilgari suradi. Bu mafkura xalqimiz ma'naviy mezonlarga, uning ezgulik va farovonlik haqidagi ideallariga, erksevarlik, tinchliksevarlik tamoyillariga mos keladi. Shuning uchun ham har vaqt mafkuraga ehtiyoj seziladi.

Amaliy etika va pedagogika. Amaliy etika pedagogika bilan ham chambarchas aloqada. Pedagogikadagi shaxsni shakllantirish, tarbiyalash, ta'lim berish jarayonlarini pand-nasihatlarsiz, odobnoma darslarisiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Shu bois Amaliy etika o'zining nazariy va, ayniqsa, amaliy jihatlari bilan pedagogikaning asosi hisoblanadi.

Amaliy etikaning yana bir muhim jihati bilim, ilm, malaka, iste'dod va qobiliyat bo'lib, ular ham muayyan axloqiy kamolot zaminida shakllanadi. Ba'zi bir qarashlarga ko'ra, axloqning fanga aloqasi yo'q. Bunday qarashlarni to'g'ri deb

<sup>1</sup> 'Osha manba 158 -6.

<sup>2</sup> A.Ibrohimov. X.Sultonov, N. Jurayev. Vatan tuyg'usi. T., O'zbekiston. 1996. 117-b.

bo'lmaydi. Chunki etika predmeti, tadqiqot doirasi, qonuniyatlari, kategoriyalari va tamoyillari unga fan maqomini berish uchun daxl qilmaydi.

Ma'naviy-axloqiy fazilatlarga ega bo'lmagan kishilar ilm-fanni o'rganishga ham, halol mehnat qilishga ham, odamlarga foydasi tegadigan kasb-hunarni egallashga ham rag'bat qilmaydilar. Shu sababli jamiyat taraqqiyotning barcha bosqichlarida avvalo o'sib kelayotgan yosh avlodni tarbiyalab, ularga ta'lim berish davlatning asosiy vazifalaridan hisoblanadi. O'zbek milliy ta'limshunosligidagi ta'lim – tarbiya ishlari tizimida ham axloq – odob tarbiyasi ustuvor ahamiyatga ega bo'lgan.

Ma'rifatparvar alloma Abdulla Avloniy fikricha: “Ilm dunyoning izzati, oxiratning sharofatidir. Ilm inson uchun g'oyat muqaddas bir fazilatdur, zeroki ilm bizga o'z ahvolimizni, harakatimizni oyna kabi ko'rsatur, zehnimizni, fikrimizni qilich kabi o'tkir qilur, ilmsiz odam mevasiz daraxt kabidur”.<sup>1</sup> Alloma ilmning nazariy ahamiyatini ko'rsatibgina qolmasdan, balki amaliy faoliyat uchun hayotiy zaruriyat ekanligini ham ta'kidlab o'tadi. Jumladan, “Ilm bizni jaholat qorong'usidan qutqarur, madaniyat, ma'rifat dunyosiga chiqarur, yomon fe'llardan, buzuq ishlardan qaytarur, yaxshi xulq, odob sohibi qilur. Butun hayotimiz, salomatligimiz, saodatimiz, sarvatimiz, maishatimiz, himmatimiz, g'ayratimiz, dunyo va oxiratimiz ilmga bog'lidur”.<sup>2</sup>

Har bir davrning ehtiyojlari ham, ijtimoiy, iqtisodiy taraqqiyoti ham ilmiy tafakkur salohiyati darajasi bilan belgilanadi. Ma'lum muammoni xal etish imkoniyatlarini inson o'z aql zakovati, bilimi, kuchi va irodasi bilan aniqlaydi. Faylasuf Abdulla Sher fan bilan axloqning o'zaro aloqadorligi haqida “Ba'zilar bizga, fan-mutlaq ob'ektiv hodisa, u mohiyatan holis, shunga ko'ra, uni axloqqa bu qadar bo'ysundirish nojoiz, deb e'tiroz bildirishlari ham mumkin. Biroq, fanni odamlar, turli hissiyot, ehtiroslarga moyil, turli axloqiy fazilatlar, hatto illatlarga ega bo'lgan kishilar yaratishini yodga olsak, bunday e'tirozlarning o'zi nojoiz ekanligiga ishonch hosil qilamiz. Zero har bir olimning ma'naviy-axloqiy holati, uning o'z kashfiyotida qay darjadadir aks etmasligi mumkin emas.

Birinchi Prezident I.A.Karimov ham shunday deydi: “Ta'limni tarbiyadan, tarbiyani esa ta'limdan ajratib bo'lmaydi – bu sharqona qarash, sharqona hayot falsafasi”<sup>3</sup>.

Xullas, fan ham bevosita, ham bilvosita axloq bilan bog'liq va aynan shu bog'liqlik tabiiy-texnikaviy fanlarni insoniylashtirish vazifasini bajaradi”,- degan g'oyatda o'rinli fikrni bildiradi. Shunday ekan bilim, ilm, iste'dod, tajriba asosida shakllangan ma'naviyat inson faoliyatiga o'ziga xos yo'nalish, imkoniyat beradi.

<sup>1</sup> Odob bo'stoni va axloq gulistoni. T., Ma'naviyat. 1994. 10-b.

<sup>2</sup> Avloniy A. Tanlangan asarlar. 2 tomlik. 2 T. T., Ma'naviyat. 1998. 48-b.

<sup>3</sup> Karimov I. A. Yuksak ma'naviyat yengilmas kuch. T., Ma'naviyat, 2008. 62-6.

Insonning mehnati jarayonida erishgan kasbi, malakasi, inson miyasida chuqur o'rin olgan tushunchalari amaliy imkoniyatlarga asos bo'ladigan ma'naviyatdir. Bularning barchasini amaliy etikaning meyorlari orqali tarbiyalash bilan erishish mumkin.

Amaliy etika va ruhshunoslik. Qadimdayoq amaliy etikaning ruhshunoslik bilan aloqasi alohida ahamiyatga ega bo'lgan. Zotan, bu ikkala fan kishilar xatti-harakati, fe'l-atvori va mayl-istaklarini o'rganadi. Lekin bu o'rganish ikki xil nuqtai nazardan olib boriladi: ruhshunoslik u yoki bu xatti-harakat, fe'l-atvor, sababiy asoslarning ruhiy tabiati va shakllanish shart-sharoitlarini ochib beradi, Amaliy etika esa ruhshunoslik tadqiq etgan hodisalarning axloqiy ahamiyatini tushuntiradi.

Amaliy etika va sotsiologiya. Amaliy etikaning sotsiologiya bilan aloqasi o'ziga xos. Bu ikkala fan inson faoliyatini boshqarishning ijtimoiy murvatlaridan bo'lmish axloqni o'rganadi. Lekin amaliy etikaning miqyosi bu borada keng. Ma'lumki, sotsiologiya insonlarning ommaviy xatti-harakati va ularning qonuniyatlarini faqat muayyan ijtimoiy tuzum doirasidagina tadqiq etadi. Amaliy etika esa, o'z mohiyatiga ko'ra, lozim bo'lganda, muayyan ijtimoiy tuzum yoki davr doirasidan chiqib, inson axloqining yuksak yutug'i sifatida kelgusi davrlar uchun ham tarixiy va axloqiy ahamiyat kasb etgan shaxsiy, istisnoli xatti-harakatlarni hamda ularning sababiy asoslarini o'rganadi.

Amaliy etika va siyosatshunoslik. Amaliy etikaning siyosatshunoslik bilan aloqasi, ayniqsa, o'ziga xos va murakkab. Chunki siyosiy kurash qarama-qarshi axloqiy qoidalar va talablar kurashini taqozo etadi. Shaxsiy intilishlar bilan davlat va jamiyat manfaatlarining mosligi, maqsadlar va vositalarning pok yoki nopokligi muammolari o'rta chiqadi. Lekin, aslida siyosat qay darajada axloqiylik kasb etsa, shunchalik u oqilona bo'ladi. Bu hozirgi kunda Amaliy etika ham, siyosatshunoslik ham jiddiy tadqiq etadigan eng muhim umumiy muammolardan biridir.

Amaliy etikaning siyosatshunoslik bilan aloqasi, ayniqsa, o'ziga xos va murakkab. Chunki siyosiy kurash qarama-qarshi axloqiy qoidalar va talablar kurashini taqozo etadi. Shaxsiy intilishlar bilan davlat va jamiyat manfaatlarining mosligi, maqsadlar va vositalarning pok yoki nopokligi muammolari o'rta chiqadi. Lekin, aslida siyosat qay darajada axloqiylik kasb etsa, shunchalik u oqilona bo'ladi. Bu hozirgi kunda axloqshunoslik ham, siyosatshunoslik ham jiddiy tadqiq etadigan eng muhim umumiy muammolardan biridir.

Arastu "Poetika" asarining "Katta axloq kitobi" bo'limida shunday deyiladi: "Etika – axloq muammolari haqida gapirishdan avval biz axloq nimaga taaalluqli ekanligini aniqlab olishimiz kerak. Gapning lundasini aytsak, axloq siyosatning tarkibiy qismidir. Chindan ham muayyan axloqiy fazilatlarga ega bo'lmagan, yani munosib bo'lmagan odam faoliyat ko'rsatishi mumkin emas. Munosib odam bo'lmoq – fazilatlar egasi – fozil bo'lmoq, demakdir. Zero, ijtimoiy va siyosiy

hayotda faoliyat yuritmoqchi bo'lgan odam axloqan fazilatli odam bo'lmog'i kerak. Xullas, amaliy etika, axloq siyosatning tarkibiy qismi, uning asosidir. Shuning uchun axloqni bimalol siyosat deb atash mumkin".<sup>1</sup>

Amaliy etika tarixida axloq bilan siyosatning munosabatlari borasida ikki xil qarash mavjudligini ko'rish mumkin. Ularning biriga ko'ra, siyosat axloqiy bo'lmog'i lozim, ikkinchisiga binoan esa siyosat axloq bilan sig'ishmaydi. Bunday qarashlarning mohiyatini tushuntirishda faylasuf Abdulla Sherning fikri bir qadar asoslarga ega. Chunki, birinchi qarash mohiyatan axloqni siyosatdan yuqori qo'yadi: siyosat axloqqa bo'ysundirilishi shart. Boshqacha qilib aytganda, maqsadlar va vositalar birligiga erishmoq lozim, ya'ni buyuk, pokiza ideallar faqat axloqiy pok vositalar orqali amalga oshirilmog'i kerak. Lekin bunda axloq siyosat vazifasini bajarmasligi lozim. Aks holda muayyan davlat institutlarining, xususan, huquq-tartibot va harbiy idoralar singari tashkilotlarning ishini ortiqcha darajada cheklab, ularni juda zaiflashtirib qo'yishi mumkin.

Ikkinchi qarash esa, mohiyatan siyosatni axloq bilan hisoblashmasligini taqozo etadi. Bu qarash tarafdorlari axloqni siyosatga bo'ysundirishni, undan, kerak paytida, tamomila yuz o'girishi lozimligini ta'kidlaydilar. Ular nazdida, axloq buyuk ideallarga erishuv yo'lidagi bir g'ov, jamiyatni umuminsoniy qadriyatlar bilan o'ralashtirib qo'yadi, ko'ngli bo'shlikka, sustkashlikka, pirovard natijada bosh-boshdoqlikka olib keladi. Shu bois buyuk maqsadlarga tezroq erishish uchun har qanday vositadan foydalanish mumkin. Zero oxir-oqibat erishilgan maqsad yo'l qo'yilgan razilliklar, qattolliklar, aldovlar va firiblarni yuvib ketadi. Vaholonki, bu usul orqali faqat vaqtinchalik g'alabaga erishish mumkin. Oqibat esa bu g'alaba na faqat yo'qqa chiqadi, balki mag'lubiyatga, aylanadi. Misol tariqasida yana sho'rolar tuzumiga murojaat qilish mumkin. Zo'rlik, aldov va qatag'onlar bilan xalqni baxtli qilishga urinish, «xalq baxti» uchun millionlab odamlarning yostig'ini quritish evaziga erishilgan g'alaba oxir-oqibatda buyuk mag'lubiyat sifatida nihoya topdi. Yuqorida keltirganimizdek, u ulug' maqsadlarni iflos vositalar bilan amalga oshirish o'sha maqsadlarning ham toza emasligini amalda isbotlaydi.<sup>2</sup>

Siyosat va axloq bir tizimga birlashishi lozim. Siyosiy munosabatlar rasmiy qabul qilingan qonunlar doirasida olib boriladi, bu qonunlar majburiy ijro etiladi. Axloq qoidalari, ma'lum ma'noda, ixtiyoriy. Insonlar o'rnatgan qonun-qoidalar ularning ma'naviy takomil darajasiga bog'liq bo'lib, har bir davrning, xar mamlakatning har bir mamlakatning qonunlari atrofida o'zgarib, mukammalashib boradi.

<sup>1</sup> Arastu. Poetika. Axloqi Kabir. T., Yangi avlod asri.2004, 96-b.

<sup>2</sup>Sher A. Axloqshunoslik. T., O'AJBNT - Yangi asr avlodi, 2003. 138-b.

Amaliy etika va ekologiya. Keyingi paytlarda Amaliy etikaning ekologiya bilan aloqasi tobora mustahkamlanib bormoqda. Tarixan amaliy etika ko'proq insonning o'zi, o'zgalar va jamiyat oldidagi majburiyatlarini tahlil etish bilan shug'ullangan, uning tabiatga bo'lgan munosabati diqqat markazidan chetda qolib kelgan. Lekin keyingi davrlarda, ayniqsa, XX va XXI asrda tabiatga nisbatan tor manfaatparastlik doirasidagi yondashuvlar oqibatida paydo bo'lgan ekologik buhron manzarani o'zgartirdi. Endilikda global ekologik muammolar ko'proq odamlarning ijtimoiy-axloqiy nuqtai nazarlariga bog'liq ekani ma'lum bo'lib qoldi.

### **Foydalaniladigan adabiyotlar ro'yxati**

#### **Rahbariy adabiyotlar:**

1. Mirziyoev Sh.M. – Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston Davlatini birgalikda barpo etamiz.- T., O'zbekiston. 2016.
2. Mirziyoev Sh.M. – Qonun ustivorligi va inson manfaatlarini ta'minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. – T., O'zbekiston. 2017.
3. Mirziyoev Sh.M. – Tanqidiy taxlil, qat'iy tartib intizom va shaxsiy javobgarlik – xar bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. T., O'zbekiston. 2017.
4. O'zbekiston respublikasi Vazirlar Mahkamasining Qarori “Davlat boshqaruvi organlari va mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari xodimlarining odob-axloq namunaviy qoidalarini tasdiqlash to'g'risida” (*O'zbekiston respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2016 y., 9-son, 94-modda*)lex.uz
5. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – engilmas kuch. –T.: Ma'naviyat, 2008.

#### **Darsliklar va o'quv qo'llanmalar:**

1. Abdulla Sher. Axloqshunoslik. Darslik. –T.: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2010.
2. Agzamova N. Etika. Uslubiy qo'llanma. –T.: OOO “NORI”, 2013.
3. Jahon falsafasi tarixidan lavhalar. G' Q.Nazarov tahriri ostida. –T.: Sharq, 2004
4. Mamashokirov S., Usmanov E. Barqaror taraqqiyotning ekologik xavfsizlik masalalalari. –T.: Fan, 2009.
5. Muhammadjonova L.A., Ortiqova D.O., Abidjanova F.A., Masharipova G.K. Professional etika va etiket. Darslik. - T.: "Adabiyot uchqunlari" 2018.
6. M. Kaxxarova, N Agzamova. Etika Uchebnoe posobie. Rizograf imeni Nizami. 2018 god.

7. L.Muhammadjonova, F.Abidjanova. Etiket. O'quv qo'llanma. T.: Universitet. O'zMU, 2018.
8. Nurmatova M., Muhammadjonova L., Ma'naviyatning axloqiy asoslari.–T.: Unversitet, O'zMU. 2013.
9. Nazarov Q. Aksiologiya – qadriyatlar falsafasi. –T.: O'FMJ, 2004.
10. Nurmatova M. Shaxs kamolotida axloqiy va estetik qadriyatlar uyg'unligi. – T.: Universitet, 2009.
11. E.Umarov., F.Zagritdinova. “Etika. Prikladnaya etika”. -T.: Noshir, 2012.
12. Husanov B., Gulamov V. Muomala madaniyati. Darslik. –T.: Iqtisod-moliya, 2009.
13. Shermuxammedova N.A. XXI asr fanining dolzarb muammolari G'G' Falsafa va fan metodologiyasi. – T.: Universitet, 2005.

### **Qo'shimcha adabiyotlar:**

1. Arastu. Poetika. Axloqi Kabir. –T.: Yangi asr avlodi, 2004.
2. Aliqulov H. Falsafiy meros va ma'naviy-axloqiy fikr rivoji. –T.: Falsafa va huquq instituti, 2009.
3. Agzamxodjaeva S.S. Ijtimoiy ideal va O'zbekistonda ijtimoiy-ma'naviy taraqqiyot muammolari. Dissertatsiya. Fals. fan. dok. – T.: 2009.
4. Abdulla Avloniy Turkiy guliston yoxud axloq. – T.: O'qituvchi, 1992.
5. Abu Abdullox Muhammad ibn Ismoil al Buxoriy. Hadis. 2. tomlik –T.: O'zbekiston milliy entsiklopediyasi davlat ilmiy nashriyoti, 2008.
6. Jabborov I. O'zbeklar (ana'naviy xo'jaligi, turmush tarzi va etnomadaniyati). – T.: Sharq, 2008.
7. Zagritdinova F.B. Filosofsko-eticheskiy analiz problem sovremennoy biomeditsino' (na primere Respubliki Uzbekistan). Dissertatsiya. Dok. filos. nauk. – T.: 2006.
8. Qaxxarova Sh. Global ma'naviyat globallashuvning g'oyaviy asosi. –T.: Tafakkur, 2009.
9. Madaeva Sh. Milliy mentalitet va demokratik tafakkur. –T.: Falsafa va huquq, 2007.
10. Mahmudov T. Komillik asrorlari. Hayotiy hikmatlar. –T.: Adolat, 2006.
11. Ma'naviyat asosiy tushunchalar izohli lug'ati. –T.: G'.G'ulom nomidagi nashriyot – matbaa ijodiy uyi, 2009 yil.
12. Navro'zova T.N., Zoirov E.X., Yunusova T.S. Tasavvufda inson va uning kamoloti masalasi. – T.: Falsafa va huquq, 2006.
13. Muxammadjonova L.A. Ma'rifatparvar shoirlar – Dilshod Barno va Anbar Otinning axloqiy qarashlari. Dissertatsiya. Fals. fan.nom. – T.: 2005.

14. Nurmatova M.A. Shaxs ma'naviy kamolotida estetik va axloqiy va estetik qadriyatlar uyg'unligi. –T.: Universitet, 2009.
15. Ochilova B. Milliy-ma'naviy yuksalishda meros, qadriyatlar va vorisiylik. –T.: Istiqlol, 2009.
16. Otamurodav S. Globallashuv va millat. –T.: Yangi asr avlodi, 2008.
17. Tillaeva G. Ma'naviyat va komil inson tarbiyasi. –T.: Falsafa va huquq, 2006.
18. Umarov B. Globallashuv ziddiyatlari. – T., Ma'naviyat, 2006.
19. Falsafa: qomusiy lug'at. G' Q.Nazarov tahriri ostida. – T.: Sharq, 2004.
20. Xojiaxmedov A. Mahalla odobi. –T.: Sharq, 2001.
21. Xolmatova M. Oilaviy munosabatlar madaniyati va sog'lom avlod tarbiyasi. – T.: O'zbekiston, 2000.
22. Choriev A. Inson falsafasi. –T.: Chinor ENK nashriyoti, 2007.
23. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Hadis va hayot. Adab. – T.: Sharq 2008.
24. Qur'onov M. Milliy g'oya va o'zbek xarakteri. – T.: Ma'naviyat, 2005.
25. Yakubov Yu.M. Islom ta'limotida shaxs va jamiyat munosabatlari masalasi. Dissertatsiya. Fals. fan.nom. – T.: 2009.

## **HAYOTNING MA'NOSI**

### **REJA:**

1. Inson va tabiati.
2. Axloqlilik, axloqsizlikning mezonlari
3. Xayotning ma'nosini anglashda ideal muammosi

Inson kim? Inson – aqlli xilqat, shuning uchun u ko'p xislat, fazilatlar sohibidir. Inson – inson nomiga xos odamiy fazilatlarga ega bo'lishi kerak. Insoniyat paydo bo'libdiki hamisha odamlilik qiyofasini, fe'l – atvorda o'ziga yarashadigan xatti – harakatlarni, u yoki bu fazilatlarni mujassamlashtirishga intilgan.

Bugungi kun kishisidagi odob, xulq – atvor qoidalari asrlar davomida tarkib topib, takomillashgan. Bu fazilatlar har bir insonning:

ichki va tashqi xislatlarida,

O'zini tuta bilishida,

Xatti – harakatlarida,

Muomala munosabatida o'z ifodasini topgan.

Qadimgi sharq va g'arbdagi falsafiy, diniy ta'limotlarda axloqning asosiy tushunchalari orqali insonning mohiyati nima, u o'ziga, boshqalarga bo'lgan munosabatlarda qanday ma'naviy mezonlarga tayanadi, degan savolga javob topishga intilishgan.

Inson o'z faoliyatini barchasini odatda aql bilan, o'ylab amalga oshiradi. Inson xulosalari, rejalarining mohiyatini belgilashda axloqiy mezonlarning o'rni va ahamiyati kattadir. To'g'ri yo'l ko'rsatuvchi aql fazilatli tuyg'ular harakati bilan hamkor, hamohang bo'lganida fazilat paydo bo'ladi. Aql va tuyg'ularning bunday hamohangligi vaqtida doimo aql yaxshilikka buyuradi, to'g'ri va pokiza tuyg'ular oqilona buyruqlarga oson va tez bo'ysunaveradi.

Axloq normalari, axloqiy etuklik mezonlari ma'lum bir tarixiy davrning, sharoitlarning imkoniyati va extiyoji bilan belgilanadi. Axloqlilik, axloqsizlikning mezonlari xar bir muayyan davrdagi kishilarning xatti – harakatlarini konkret sharoitlardan, extiyojlardan kelib chiqqan holda ta'qiqlash yoki ma'qullashdir. Axloqiy taqiqlar jamoatchilik fikri, qonunlar turli e'tiqodlar asosida belgilanadi. Axloqiy etuklik darajasini ham bir shaxs emas, balki jamoatchilik belgilaydi. Insonlar o'rtasidagi munosabatlarni axloqiy yoki g'ayriaxloqiy deb baholash jamiyat a'zolarining iymoni, e'tiqodi, dunyoqarashi, manfaati darajasiga ham bog'liq bo'ladi.

Inson qadr-qimmati nima? Inson – aqlli xilqat, shuning uchun u ko'p xislat, fazilatlar sohibidir. Inson – inson nomiga xos odamiy fazilatlarga ega bo'lishi kerak. Insoniyat paydo bo'libdiki hamisha odamlilik qiyofasini, fe'l – atvorda o'ziga yarashadigan xatti – harakatlarni, u yoki bu fazilatlarni mujassamlashtirishga intilgan.

Inson – aqlli xilqat, shuning uchun u ko'p xislat, fazilatlar sohibidir. Inson – inson nomiga xos odamiy fazilatlarga ega bo'lishi kerak. Insoniyat paydo bo'libdiki hamisha odamlilik qiyofasini, fe'l – atvorda o'ziga yarashadigan xatti – harakatlarni, u yoki bu fazilatlarni mujassamlashtirishga intilgan.

Inson o'z faoliyatini barchasini odatda aql bilan, o'ylab amalga oshiradi. Inson xulosalari, rejalarining mohiyatini belgilashda axloqiy mezonlarning o'rni va ahamiyati kattadir. To'g'ri yo'l ko'rsatuvchi aql fazilatli tuyg'ular harakati bilan hamkor, hamohang bo'lganida fazilat paydo bo'ladi. Aql va tuyg'ularning bunday hamohangligi vaqtida doimo aql yaxshilikka buyuradi, to'g'ri va pokiza tuyg'ular oqilona buyruqlarga oson va tez bo'ysunaveradi.

“Kim hamma odamlar buzilib ketdi deb ayta bersa, o'sha odamning o'zi buzilgandir”

Hadisdan

O'ziga nisbatan xolis baho bermagan inson boshqalarga ham baho berishda ham xolis bo'la olmaydi. Hayotda axloq manfaatga emas, balki manfaat axloqqa bo'ysunishi lozim. Agar manfaat axloqdan ustun deb qaralsa, kishilar barchaga ayon bo'lgan oddiy haqiqatni ham inkor etish yo'lga o'tib oladilar. Odamzod orasida shundaylar bo'lgan, bundan keyin ham bo'ladi. Tarbiyaviy ishlarning dolzarbligi ham shunday sabablar bilan belgilanadi.

Buyuk qozoq shoiri Abay shunday deydi “Inson bolasini zamona parvarish qiladi, kimda – kim yomon bo’lsa ayib zamondoshlarida”.

Darxaqiqat odamlarning axloqi, yurish turishida ko’payib borayotgan salbiy xolatlar jamiyatdagi muhitning ham ifodasidir. Oldin odam buziladi, keyin jamiyat buziladi deymiz. Lekin jamiyat hayotidagi inqirozlar ham kishilarning ma’naviy hayotiga bevosita ta’sir etadi.

Baxt nima? Baxt inson hayotining umumiy bahosidir. Xayotning ma’nosi bo’lmasa, xaqiqiy baxtning bo’lishi mumkin emas. Baxt inson o’z hayoti ma’nosini qay darajada tushungani va shu ma’nodan umri mobaynida qoniqish hosil qilib borishidan iboratdir.

Baxt garchand, orzu kabi idealning hissiy-ehtirosli shakli sifatida ko’zga tashlansada, aslida undan farqli o’laroq, shaxsning intilishini emas, shu intilishning ro’yobini anglatadi. Har bir intilishning ro’yobga chiqishi esa muayyan tayyorgarlikni va kurashni taqozo etadi. “Baxt xar bir inson intiladigan maqsad zero u muayyan komillik hisoblanadi.” Abu Nasr Farobiy

Inson nima uchun yashaydi? Yashashdan maqsad nima? Inson xayotining ma’nosi nimada? Hayotning ma’nosi o’z manfaatlarini o’zgalar manfaati bilan bog’lab, oliy qadriyatlar va yuksak aqidalarni ichki shior qilib yashashdadir.

Xayotning ma’nosi ideal bilan bog’liq bo’lgani kabi baxt atamasini ham xayotning ma’nosi tushunchasidan ajratibolingani xolda taxlil etish mumkin emas. Zero, baxt inson o’z hayoti ma’nosini qay darajada tushungani va ma’nodan umri mobaynida qoniBiz jamiyatimizda ba’zida behissob boylikka ega yoki mansabning yuqori chuqqisida o’tirgan insonlarni ham baxtsiz ekanliklariga guvohmiz.

Baxt ma’naviy ehtiyoj bilan bog’liq, unda maqsadlarga birin-ketin erisha borish, qoniqish jarayoni, boya aytganimizdek, bir umr to’xtamaydi va doimo lazzat va zavqni o’z ichiga oladi.

Baxt garchand, orzu kabi idealning hissiy-ehtirosli shakli sifatida ko’zga tashlansada, aslida undan farqli o’laroq, shaxsning intilishini emas, shu intilishning ro’yobini anglatadi. Har bir intilishning ro’yobga chiqishi esa muayyan tayyorgarlikni va kurashni taqozo etadi.

Baxt haqida gap ketganda, albatta, omad to’g’risida to’xtalib o’tish lozim. qish xosil qilib borishdan iboratdir.

Muhabbat. Muhabbat inson mohiyatining erkin tarzda namoyon bo’lishidir. Muhabbatning ob’ekti doimiy go’zallik va man’faatsiz go’zallikdir.

Amaliy axloqning nihoyatda ta’sir doirasi keng kategoriyalaridan biri vijdondir.

U insonning o’z faoliyatini, qilgan ishlari va belgilagan maqsadlarini ichki ruhiy taxlil eta olish imkoniyatidir.

Inson ma’naviyatining kuchi, qudrati ham, o’z qilmishiga o’zi xolisona baho bera olish darajasi bilan belgilanadi.

Vijdon ham amaliy axloqning boshqa ba'zi asosiy tushunchalari kabi baholash xususiyatiga ega. Lekin bu baholash hech qachon ob'ektga qaratilmaydi, u sub'ektning xatti-harakatlarini baholaydi, ya'ni unda sub'ekt o'zi uchun ichki ob'ekt vazifasini o'taydi.

Vijdon – bir shaxsning faqat o'zigagina xos bo'lgan ruhiy tahlil imkoniyati, ma'naviy mezonining ifodasi emas. Xar bir shaxsning o'ziga xos bo'lgan xususiyatlari ham bor. Lekin, shaxsning vijdoni umuminsoniy, milliy, ma'naviy qadriyatlar zaminida shakllanadi, uning o'ziga xos ehtiyoji va manfaatlari, dunyoqarashi va madaniyati hamda ma'naviy kamoloti darajasi bilan aralashib, faoliyatiga baho berishga imkon yaratadigan ruhiy mezonga aylanadi.

Shu sababli vijdonlilik darajasi hammada bir hil bo'lishi mumkin emas. Vijdon asosida o'z qilmishimizgagina emas, balki boshqalarning faoliyatiga, jamiyatdagi voqea va hodisalar va ijtimoiy vaziyatga ham baxo beramiz.

Iymon – inson qalbidagi vijdon tarozisidir. Ko'pincha vijdon tushunchasi o'rnida imon iborasini uchratish mumkin. Imon aslida diniy tushuncha. Lekin hayotda vijdon tushunchasining sinonimi tarzida ishlatiladi.

Asosiy katigoriyalardan yana biri – nomus. Nomus tushunchasi bir tomondan, burch bilan bog'liq bo'lsa, ikkinchi jihatdan, qadr - qimmat tushunchasiga aloqador.

Zero, nomus mohiyatan shaxsning o'z qadr - qimmatini anglab etishi, shu qadr - qimmatning jamiyat tomonidan tan olinishi yoki olinmasligiga nisbatan bo'ladigan munosabati bilan belgilanadi.

Biroq, bu - nomus qadr - qimmat tushunchasi bilan bir xil ma'noga ega, degani emas. Chunki qadr-qimmat shaxsdan o'zining boshqa odamlarga nisbatan kamsitilmasligini, atrofdagilardan barcha insonning teng huquqliligi tamoyilini o'ziga nisbatan qo'llashlarini talab qiladi.

Nomus esa o'z qadr-qimmatini bilishdan tashqari, har bir shaxsning jamiyatda alohida, o'ziga xos tarzda egallagan mavqei va shu mavqeni dog' tushirmay saqlash-saqlamasligi bilan bog'liq.

Bu mavqe esa, shubhasiz, o'sha shaxsning ijtimoiy hayotdagi o'rne, kasbi, yoshi va unga nisbatan beriladigan axloqiy daraja bilan muayyanlashadi.

Hayolilik. Bu me'yor xulqiy guzallikning asosiy belgilaridan hisoblanadi. U, garchand, bir qarashda, uyat hissi bilan o'xshash bo'lsa-da, aslida o'zini ko'proq andisha va iboga yaqin fazilat tarzida namoyon qiladi, unda axloqiy mohiyat estetik xususiyat - nafosat bilan uyg'unlashib ketadi.

Xusayin Voiz Koshifiy hayo haqida shunday deydi: “ Hayo va andisha dunyoda tartib saqlashning muhim shartlaridan biri hisoblanadi. Hayo yo'qolsa, hech kimda vijdon ham qolmaydi. U xolda dunyoda tartib buziladi. Kishilar bir – biriga befarq qaraydigan bo'ladilar”

“Xayo imondandir, Xayoli, odobli bo’lmoq xar vaqt hayrli ishlarga sabab bo’ladi” (Hadisdan)

“Iffatning pardasi, vijdonning niqobi xayodir. Xayo pardasi ila o’ralmish insonlarning iffat pardasi yirtilmas. (A.Avloniy)

### **Foydalaniladigan adabiyotlar ro’yxati**

#### **Rahbariy adabiyotlar:**

1. Mirziyoev Sh.M. – Erkin va farovon, demokratik O’zbekiston Davlatini birgalikda barpo etamiz.- T.,O’zbekiston. 2016.
2. Mirziyoev Sh.M. – Qonun ustivorligi va inson manfaatlarini ta’minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. – T., O’zbekiston. 2017.
3. Mirziyoev Sh.M. – Tanqidiy taxlil, qat’iy tartib intizom va shaxsiy javobgarlik – xar bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo’lishi kerak. T., O’zbekiston. 2017.
4. O’zbekiston respublikasi Vazirlar Mahkamasining Qarori “Davlat boshqaruvi organlari va mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari xodimlarining odob-axloq namunaviy qoidalarini tasdiqlash to’g’risida” (O’zbekiston respublikasi qonun hujjatlari to’plami, 2016 y., 9-son, 94-modda)lex.uz
5. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat – engilmas kuch. –T.: Ma’naviyat, 2008.

#### **Darsliklar va o’quv qo’llanmalar:**

1. Abdulla Sher. Axloqshunoslik. Darslik. –T.: O’zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2010.
2. Agzamova N. Etika. Uslubiy qo’llanma. –T.: OOO “NORI”, 2013.
3. Jahon falsafasi tarixidan lavhalar. G’ Q.Nazarov tahriri ostida. –T.: Sharq, 2004
4. Mamashokirov S., Usmanov E. Barqaror taraqqiyotning ekologik xavfsizlik masalalalari. –T.: Fan, 2009.
5. Muhammadjonova L.A., Ortiqova D.O., Abidjanova F.A., Masharipova G.K. Professional etika va etiket. Darslik. - T.: "Adabiyot uchqunlari" 2018.
- 6.M. Kaxxarova, N Agzamova. Etika Uchebnoe posobie. Rizograf imeni Nizami. 2018 god.
- L.Muhammadjonova, F.Abidjanova. Etiket. O’quv qo’llanma. T.: Universitet. O’zMU, 2018.

7. Nurmatova M., Muhammadjonova L., Ma'naviyatning axloqiy asoslari. – T.: Universitet, O'zMU. 2013.
8. Nazarov Q. Aksiologiya – qadriyatlar falsafasi. – T.: O'FMJ, 2004.
9. Nurmatova M. Shaxs kamolotida axloqiy va estetik qadriyatlar uyg'unligi. – T.: Universitet, 2009.
10. E.Umarov., F.Zagritdinova. "Etika. Prikladnaya etika". – T.: Noshir, 2012.
11. Husanov B., Gulamov V. Muomala madaniyati. Darslik. – T.: Iqtisodmoliya, 2009.
12. Shermuxammedova N.A. XXI asr fanining dolzarb muammolari G'G' Falsafa va fan metodologiyasi. – T.: Universitet, 2005.

### **Qo'shimcha adabiyotlar:**

1. Arastu. Poetika. Axloqi Kabir. – T.: Yangi asr avlodi, 2004.
2. Aliqulov H. Falsafiy meros va ma'naviy-axloqiy fikr rivoji. – T.: Falsafa va huquq instituti, 2009.
3. Agzamxodjaeva S.S. Ijtimoiy ideal va O'zbekistonda ijtimoiy-ma'naviy taraqqiyot muammolari. Dissertatsiya. Fals. fan. dok. – T.: 2009.
4. Abdulla Avloniy Turkiy guliston yoxud axloq. – T.: O'qituvchi, 1992.
5. Abu Abdullox Muhammad ibn Ismoil al Buxoriy. Hadis. 2. tomlik – T.: O'zbekiston milliy entsiklopediyasi davlat ilmiy nashriyoti, 2008.
6. Jabborov I. O'zbeklar (ana'naviy xo'jaligi, turmush tarzi va etnomadaniyati). – T.: Sharq, 2008.
7. Zagritdinova F.B. Filosofsko-eticheskiy analiz problem sovremennoy biomeditsino' (na primere Respubliki Uzbekistan). Dissertatsiya. Dok. filos. nauk. – T.: 2006.
8. Qaxxarova Sh. Global ma'naviyat globallashuvning g'oyaviy asosi. – T.: Tafakkur, 2009.
9. Madaeva Sh. Milliy mentalitet va demokratik tafakkur. – T.: Falsafa va huquq, 2007.
10. Mahmudov T. Komillik asrorlari. Hayotiy hikmatlar. – T.: Adolat, 2006.
11. Ma'naviyat asosiy tushunchalar izohli lug'ati. – T.: G'.G'ulom nomidagi nashriyot – matbaa ijodiy uyi, 2009 yil.
12. Navro'zova T.N., Zoirov E.X., Yunusova T.S. Tasavvufda inson va uning kamoloti masalasi. – T.: Falsafa va huquq, 2006.
13. Muxammadjonova L.A. Ma'rifatparvar shoirlar – Dilshod Barno va Anbar Otinning axloqiy qarashlari. Dissertatsiya. Fals. fan.nom. – T.: 2005.
14. Nurmatova M.A. Shaxs ma'naviy kamolotida estetik va axloqiy va estetik qadriyatlar uyg'unligi. – T.: Universitet, 2009.

15. Ochilova B. Milliy-ma'naviy yuksalishda meros, qadriyatlar va vorisiylik. –T.: Istiqlol, 2009.
16. Otamurodav S. Globallashuv va millat. –T.: Yangi asr avlodi, 2008.
17. Tillaeva G. Ma'naviyat va komil inson tarbiyasi. –T.: Falsafa va huquq, 2006.
18. Umarov B. Globallashuv ziddiyatlari. – T., Ma'naviyat, 2006.
19. Falsafa: qomusiy lug'at. G' Q.Nazarov tahriri ostida. – T.: Sharq, 2004.
20. Xojiaxmedov A. Mahalla odobi. –T.: Sharq, 2001.
21. Xolmatova M. Oilaviy munosabatlar madaniyati va sog'lom avlod tarbiyasi. – T.: O'zbekiston, 2000.
22. Choriev A. Inson falsafasi. –T.: Chinor ENK nashriyoti, 2007.
23. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Hadis va hayot. Adab. – T.: Sharq 2008.
24. Quronov M. Milliy g'oya va o'zbek xarakteri. – T.: Ma'naviyat, 2005.
25. Yakubov Yu.M. Islom ta'limotida shaxs va jamiyat munosabatlari masalasi. Dissertatsiya. Fals. fan.nom. – T.: 2009.

## **MUNOSABATLAR AXLOQI**

### **REJA:**

1. Muayyan vaziyatlar natijasida yuzaga keladigan axloqiy muammolar.
2. Ularni echimini topishdagi axloqiy natija.
3. Inson faoliyatining yo'nalishlarida amaliy tavsiyalarni berish usullari.
4. Insoniy munosabatlardagi axloqiy qoidalar.

Yaxshi munosabat qoidalariga bag'ishlangan ko'p jildli asarida amerikalik yozuvchi Alisa Tsoy «O'zingning obro'yingni saqla, o'zingdan past madaniyatli kishilarga o'xshama. Esingda bo'lsin, sen undan libosing, qaddi-qomating, hatti – harakating va odobing bilan ustun bo'lishga harakat qil» deb yozgan.

Axloqiy munosabatlardagi muammolar:

- Migratsiya
- Bir jinslilar muammolari
- Transgenderlar
- Shaxsiy xududda erkinlik muammolari
- Jamoadagi axloqiy munosabatlar
- Oiladagi axloqiy munosabatlar

“Hayo va andisha dunyoda tartib saqlashning muhim shartlaridan biri hisoblanadi. Hayo yo'qolsa hech kimda vijdon qolmaydi, (u holda) dunyoda tartib buziladi, kishilar bir-birlariga befarq qaraydigan bo'ladilar” Husayn Voiz

Koshifiy

Inson hamisha ezgulikka, ma'naviy yuksaklikka intilib kelgan, bama'ni, go'zal hayot kechirishga, kelajak avlodlarga o'zidan yaxshi nom, hayotbaxsh qodriyatlar qoldirishga intilgan. Ming afsuski.....

“Belaya etika” toza axloqiy munosabat: Qalbi pok, axloqiy me'yor va mezonlarga amal qiluvchi, axloqiylikni yuqoriga qo'yuvchi insonlar kirishuvchan, insonlarga ma'qul keluvchi, odamoxun bo'ladilar. Bunday insonlar bolalar bilan tez kirishib keta olishadi, xayvonlarni sevuvchi, boshqalar bilan munosabatga kirishganda ularga moslashuvchi, tinglay olishni biluvchi muloxazali inson hisoblanishadi.

#### MUNOSABATLARDAGI 15 TA HAYOTIY HIKMAT

KICHIK NARSALAR KATTA MA'NO KASB ETISHI MUMKIN. Kingadir yo'l berish, kichik sovg'a ulashish yoki shunchaki ochiq tabassum ila jilmayib qo'yish, bularning bari o'zgalar qalbiga yorug'lik olib kiradi, ezgulik ulashadi. Yon-atrofingizga qanchalik ko'p yaxshilik urug'ini sepsangiz, kezi kelib undan unib chiqqan meবাদan o'zingiz ham baxramand bo'lasiz.

#### BIZNING O'LCHOVLARIMIZ, ATROFIMIZDAGILARNING MUNOSABATI SHAKLLANTIRADI

Agar o'zingizga yuqori baho bersangiz, bu faqatgina atrofingizdagilarning salbiy fikrlariga sabab bo'ladi. Agar kishi o'ziga to'g'ri baho qo'ya bilsa, ijobiy xislatlarni shakllantira olsa, unda atrofdagilar bizdan o'rnak olishni boshlashadi.

#### VAZIYATNI TO'G'RI BAHOLAY BILISH, ANIQ XULOSA CHIQRISHGA TURTKI BO'LADI.

Agar siz biror-bir muammo bilan o'ralashib qolsangizu, boshingizni urishga devor qidira boshlasangiz, bu muammodan qutulasiz degani emas. Vaziyatni to'g'ri chamalay bilish, muammodan oson va tez qutilishga yordam beradi.

#### BARCHA NARSANI SHUNDAYLIGICHA QABUL QILAVERMANG

Ishlarimiz omadli davom etsa va shu holat davomiy bo'lsa biz doim bir narsani unutib qo'yamiz. Bu dunyoda hech narsa abadiy emas. Barcha narsani o'tkinchi, deb qabul qiling va bugun, ayni damda qo'lingizda bor imkoniyatdan foydalanib qoling.

#### SIZ UZOQ VAQT BARChAGA BIRDEK YoQA OLMAYSIZ

Siz sayyoradagi eng yoqimtoy inson bo'lishingiz mumkin, ammo ishoning insonlar orasidan sizni yoqtirmaydiganlar, albatta, topiladi. Ularga ahamiyat bermang. Yashashda davom etavering.

#### BIZ O'ZIMIZGA MUNOSIB MUHABBATNI QABUL QILISHGA ODATLANGANMIZ

Agar siz muhabbat bobida injiq bo'lsangiz, unda o'z baxtingizni xavf ostida qoldirgan bo'lasiz. Agar siz sevgiga astoydil ishonsangiz, unda u sizni, albatta, qidirib topadi.

## BO'LAYOTGAN HAR BIR ISHNING O'Z SABABI BOR

Gohida, butun insoniyat sizga qarshi chiqayotgandek tuyuladi. Aslida esa bularning bari o'z sababiga ko'ra yuzaga chiqayotgan vaziyatlar bo'ladi. Ana shu vaziyatlarning har biri uchun alohida reja talab etiladi. Yomon xayollarni darhol miyadan chiqarib tashlash kerak. Hech kim oyog'ingizga bolta urish niyatidamas. Tasodif o'z nomi bilan tasodif.

## JILMAYISHNI UNUTMANG

Siz hayotga kulib qarasangiz, hayot sizga kulib qaraydi

## YOMON ODAMLAR BARCHADAN NOROZI BO'LISHADI

Hech kim onadan yomon bo'lib tug'ilmaydi (tug'ma ruhiy bemorlarni hisobga olmaganda). Kim atrofdagilarga ozor beraversa, bilsinki, u qanchalik yomonlik qilsa, qalbi shunchalik qotib boraveradi. Shu bois kechirimli bo'lishni ham bilish kerak.

## BIR QADAM ORTGA CHEKINISH, MUNOSABATLAR UCHUN O'TA FOYDALI

Agar munosabatlaringiz, u ishqiy bo'ladimi yoki boshqa maqsaddami, endi ko'rtak otayotgan bo'lsa, bir chetga chiqib o'ylab ko'ring, ular sizga nechog'li foydali. His-tuyg'ularni munosib baholay bilish, munosabatlar bardavomligini ta'minlaydi.

## XAR BIR OMAD BAYRAM QILISHGA ARZIYDI

Bayram qilishingiz uchun, albatta, Nobel mukofotini olishingiz shart emas, shunchaki oddiy ishda ham omadingiz chopib, uni bitira olsangiz, vaqt topib, uni, albatta, "yuving". Mukofot sarflangan har bir energiya o'rnini to'ldiradi, kishini yangitdan g'ayratlantiradi va kelgusi ishlarda muvaffaqiyat qozonishida turtki bo'ladi.

## SALBIY ILLATLARGA EGA KISHILARNI HAYOTINGIZDAN CHIQARIB TASHLANG

Jamiyatda tinch va osuda yashashni istasangiz, yomon odamlardan uzoqda yurishingizga to'g'ri keladi. Har zamonda bir zamon vaqt topib, atrofingizdagilarni "xom-cho't" qilib chiqing. Va o'zingiz sevgan insonlar davrasida yashashni davom ettiring.

## BO'SH VAQTINGIZNI FOYDALI NARSALARGA SARFLANG

Bo'sh vaqtingizda uyda o'tirib televizor ko'rish yoki biror-bir ko'rgazmaga borish imkoni bo'lsa, o'zingizga ham ruhan, ham ma'nan foyda keltiradiganini tanlang. Ana o'shanisi umringizga foydali bo'ladi.

## O'ZINGIZNI SEVGAN NARSALARINGIZGA E'TIBORLI BO'LING

Bu holat insonning dunyoqarashini keng qiladi. O'zingizga taaluqli barcha narsalar bilan qiziqing va ularni "ipidan ignasigacha" o'rganing. Bilimlarni oshirish yaxshi, albatta, ammo qiziqish ortidan yangi bilimlar orttirilishini unutmaslik lozim.

### **YAXSHI INSONLARNI QADRIGA ETING**

Qalbingizdagi his-tuyg'ularni yaqinlaringizga eslatib turing. Yaqinlaringizga nisbatan shunday qilmasangiz, ular sizni o'zlariga qanday qilib yaqin deb bilishsin? Balki kimdir bilar, balki yo'q. Hech kim sizning yuragingizga yoki miyangizga kirib chiqmaydi. Shu bois yaqinlarga sovg'a ulashibmi, qo'ng'iroq qilibmi, shirin so'z aytibmi, o'z muhabbatingizni bildirib turing. Ana o'shanda ular ham, siz ham baxtdan masrur bo'lasiz.

### **Foydalaniladigan adabiyotlar ro'yxati**

#### **Rahbariy adabiyotlar:**

1. Mirziyoev Sh.M. – Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston Davlatini birgalikda barpo etamiz.- T.,O'zbekiston. 2016.
2. Mirziyoev Sh.M. – Qonun ustivorligi va inson manfaatlarini ta'minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. – T., O'zbekiston. 2017.
3. Mirziyoev Sh.M. – Tanqidiy taxlil, qat'iy tartib intizom va shaxsiy javobgarlik – xar bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. T., O'zbekiston. 2017.
4. O'zbekiston respublikasi Vazirlar Mahkamasining Qarori "Davlat boshqaruvi organlari va mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari xodimlarining odob-axloq namunaviy qoidalarini tasdiqlash to'g'risida" (O'zbekiston respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2016 y., 9-son, 94-modda)lex.uz
5. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – engilmas kuch. –T.: Ma'naviyat, 2008.

#### **Darsliklar va o'quv qo'llanmalar:**

1. Abdulla Sher. Axloqshunoslik. Darslik. –T.: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2010.
2. Agzamova N. Etika. Uslubiy qo'llanma. –T.: OOO "NORI", 2013.
3. Jahon falsafasi tarixidan lavhalar. G' Q.Nazarov tahriri ostida. –T.: Sharq, 2004
4. Mamashokirov S., Usmanov E. Barqaror taraqqiyotning ekologik xavfsizlik masalalalari. –T.: Fan, 2009.
5. Muhammadjonova L.A., Ortiqova D.O., Abidjanova F.A., Masharipova G.K. Professional etika va etiket. Darslik. - T.: "Adabiyot uchqunlari" 2018.
- 6.M. Kaxxarova, N Agzamova. Etika Uchebnoe posobie. Rizograf imeni Nizami. 2018 god.

- 7.L.Muhammadjonova, F.Abidjanova. Etiket. O'quv qo'llanma. T.: Universitet. O'zMU, 2018.
8. Nurmatova M., Muhammadjonova L., Ma'naviyatning axloqiy asoslari.– T.: Unversitet, O'zMU. 2013.
9. Nazarov Q. Aksiologiya – qadriyatlar falsafasi. –T.: O'FMJ, 2004.
10. Nurmatova M. Shaxs kamolotida axloqiy va estetik qadriyatlar uyg'unligi. – T.: Universitet, 2009.
11. E.Umarov., F.Zagritdinova. “Etika. Prikladnaya etika”. -T.: Noshir, 2012.
12. Husanov B., Gulamov V. Muomala madaniyati. Darslik. –T.: Iqtisod-moliya, 2009.
13. Shermuxammedova N.A. XXI asr fanining dolzarb muammolari G'G' Falsafa va fan metodologiyasi. – T.: Universitet, 2005.

### **Qo'shimcha adabiyotlar:**

1. Arastu. Poetika. Axloqi Kabir. –T.: Yangi asr avlodi, 2004.
2. Aliqulov H. Falsafiy meros va ma'naviy-axloqiy fikr rivoji. –T.: Falsafa va huquq instituti, 2009.
3. Agzamxodjaeva S.S. Ijtimoiy ideal va O'zbekistonda ijtimoiy-ma'naviy taraqqiyot muammolari. Dissertatsiya. Fals. fan. dok. – T.: 2009.
4. Abdulla Avloniy Turkiy guliston yoxud axloq. – T.: O'qituvchi, 1992.
5. Abu Abdullox Muhammad ibn Ismoil al Buxoriy. Hadis. 2. tomlik –T.: O'zbekiston milliy entsiklopediyasi davlat ilmiy nashriyoti, 2008.
6. Jabborov I. O'zbeklar (ana'naviy xo'jaligi, turmush tarzi va etnomadaniyati). –T.: Sharq, 2008.
7. Zagritdinova F.B. Filosofsko-eticheskiy analiz problem sovremennoy biomeditsino' (na primere Respubliki Uzbekistan). Dissertatsiya. Dok. filos. nauk. – T.: 2006.
8. Qaxxarova Sh. Global ma'naviyat globallashuvning g'oyaviy asosi. –T.: Tafakkur, 2009.
9. Madaeva Sh. Milliy mentalitet va demokratik tafakkur. –T.: Falsafa va huquq, 2007.
10. Mahmudov T. Komillik asrorlari. Hayotiy hikmatlar. –T.: Adolat, 2006.
11. Ma'naviyat asosiy tushunchalar izohli lug'ati. –T.: G'.G'ulom nomidagi nashriyot – matbaa ijodiy uyi, 2009 yil.
12. Navro'zova T.N., Zoirov E.X., Yunusova T.S. Tasavvufda inson va uning kamoloti masalasi. – T.: Falsafa va huquq, 2006.
13. Muxammadjonova L.A. Ma'rifatparvar shoirlar – Dilshod Barno va Anbar Otinning axloqiy qarashlari. Dissertatsiya. Fals. fan.nom. – T.: 2005.

14. Nurmatova M.A. Shaxs ma'naviy kamolotida estetik va axloqiy va estetik qadriyatlar uyg'unligi. –T.: Universitet, 2009.
15. Ochilova B. Milliy-ma'naviy yuksalishda meros, qadriyatlar va vorisiylik. –T.: Istiqlol, 2009.
16. Otamurodav S. Globallashuv va millat. –T.: Yangi asr avlodi, 2008.
17. Tillaeva G. Ma'naviyat va komil inson tarbiyasi. –T.: Falsafa va huquq, 2006.
18. Umarov B. Globallashuv ziddiyatlari. – T., Ma'naviyat, 2006.
19. Falsafa: qomusiy lug'at. G' Q.Nazarov tahriri ostida. – T.: Sharq, 2004.
20. Xojiaxmedov A. Mahalla odobi. –T.: Sharq, 2001.
21. Xolmatova M. Oilaviy munosabatlar madaniyati va sog'lom avlod tarbiyasi. – T.: O'zbekiston, 2000.
22. Choriev A. Inson falsafasi. –T.: Chinor ENK nashriyoti, 2007.
23. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Hadis va hayot. Adab. – T.: Sharq 2008.
24. Quronov M. Milliy g'oya va o'zbek xarakteri. – T.: Ma'naviyat, 2005.
25. Yakubov Yu.M. Islom ta'limotida shaxs va jamiyat munosabatlari masalasi. Dissertatsiya. Fals. fan.nom. – T.: 2009.

## **OILAVIY MUNOSABATLAR AXLOQI**

### **REJA:**

1. Oila etiketi, er va xotin o'rtasidagi munosabatlar axloqi.
2. Oiladagi muomala madaniyati.
3. Oiladagi mojarolar paytidagi o'zini tutish qoidalari.
4. Oilaviy baxt haqida.
5. Er yoki xotinning xunuk odatlarini qanday yo'q qilish usullari hususida.

Oila — tarixan tarkib topgan o'ziga xos va mos ijtimoiy guruh bo'lib, uning a'zolari bir-birlari bilan nikoh, qon-qarindoshlik, umumiy turmush va o'zaro huquqiy, axloqiy va boshqa munosabatlar bilan bog'langandir. Oila nikoh zaminida vujudga keladi. Nikoh esa erkak va ayol orasidagi munosabatlarning jamiyat tomonidan tan olingan, ma'qullangan ifodasi hisoblanadi.

“Oila uch jihatni: o'zining bevosita ko'rinishi bo'lmish nikohni; oilaviy mulk va anjomlar hamda ular haqidagi g'amxo'rlikni; bolalar tarbiyasini o'z ichiga oladi”.<sup>1</sup>

Oila muqaddas urf – odatlarimizni saqlaydigan tarbiya o'chog'idir. Yoshlarning ma'naviy qiyofasi, ularning xatti-harakatlari, xulq-atvorlari dastlab oilaviy munosabat madaniyatida ifodalanadi. Oilaviy munosabat madaniyati nima?

---

<sup>1</sup> Sher A. Axloqshunoslik. T., O'AJBNT - Yangi asr avlodi, 2003. 293-6.

Bu – oilada insonga hos va mos sharoitlarni yaratish, oilaning vazifalarini to'la bajarish, oilaviy turmush tarzini to'g'ri shakllantirish, oila a'zolarining xulq – odobi, dunyoqarashi, mafkurasini, oilaviy hayotning davomiyligini ta'minlashdir. Mustaxkam oila mustaxkam jamiyatning asosidir. Shunday ekan jamiyat oilalarni mustaxkamlash, oilaviy munosabatlar madaniyatini takomillashtirishga alohida e'tibor berib kelmoqda.

Oila, jamiyat va davlat bilan o'zaro bog'liq bo'ladi va ular bilan bir vaqtda rivojlanib boradi. Oila nafaqat axloqiy balki, demografik, iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy va boshqa muhim funktsiyalarni bajaradi. Shuning uchun jamiyat va davlat oilaning farovon bo'lishidan manfaatdor bo'ladi.

Oila a'zolari bir – birlari bilan umumiy turmush, o'zaro iqtisodiy – mulkiy, huquqiy, axloqiy, ruhiy a'loqalar bilan bog'lanadi. Oilaning birinchi vazifasi o'z nasl – nasabini davom ettirishdan, tarbiyali farzandlarni o'stirishdan, oila a'zolarining tirikchiligini, bo'sh vaqtini ko'ngilli o'tkazishni ta'minlashdan iboratdir.

Nikoh – erkak va ayolning teng huquqli, erkin va ixtiyoriy ittifoqi bo'lib, u fuqarolik xolati dalolatnomalarini yozish organlarida tuziladi va oila tuzish maqsadiga xizmat qiladi.

Oila nikohdan boshlanadi. Nikoh rasmiy, qonunlar asosida o'tkazilgandagina haqiqiy hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi Oila kodeksining birinchi moddasida nikoh fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd etish organlarida tuzilishi lozimligi ko'rsatilgan.

Nikohdan o'tivchilar FHDYoga ariza berganlaridan keyin bir oy o'tgach, shaxsan ularning ishtirokida amalga oshiriladi.

Uzrli sabablarga ko'ra FHDYo bir oy sinov muddati o'tgunga qadar nikoh tuzishga ruxsat berishi mumkin.

Balog'atga etmaganlarning nikohga kirishining oldini olish, ularning sog'ligini himoya qilish maqsadida hamda oilani qurish uchun ma'lum hayotiy tajriba, jismoniy va ma'naviy etuklik talab qilinishini e'tiborga olgan holda, qonun nikoh yoshini erkaklar uchun o'n sakkiz yosh, ayollar uchun o'n etti yosh etib belgilangan.

Uzrli sabablar bulgan, alohida hollarda nikoh yoshi erkak va ayollarga bir yoshga kamaytilishi mumkin. Bu sabablarga, masalan: nikohga kiruvchi ayol homilador bo'lib qolishi, bir taraf og'ir kasal bo'lgan yoki harakatdagi armiyaga ketayotgani va boshqa shunga o'xshash hollar kiradi. Bunda nikoh davlat ro'yxatidan o'tkaziladigan joydagi tuman, shahar hokimi nikoh yoshini ko'pi bilan bir yilga kamaytirishi mumkin.

Nikoh, nikohga kiruvchilarning ixtiyoriyligi, erkin roziligi asosida tuziladi. Nikohni tuzish uchun bo'lajak er-xotin o'z roziligini erkin ifoda etish qobiliyatiga ega bo'lishi kerak.

Agar shaxs o'z xatti-harakatlari oqibatni tushunmaydigan holda (qattiq mastlik, ruhiy holatining vaqtincha buzilishi) yoki aldov oqibatda nikohdan o'tgan bo'lsa, bunday nikoh qonunda belgilangan tartibda haqiqiy emas deb topiladi.

Nikoh tuzishga majbur qilish qonun bilan taqiqlanadi. Ayolni o'z erkiga xilof ravishda erga tegishga majbur qilish O'zbekiston Respublikasi Jinoyat Kodeksining 136-moddasiga ko'ra jazolanadi.

Nikoh tuzish haqidagi arizani berishda shaxsni aniqlovchi hujjatlar: pasport, harbiy bilet, ofitser, praporshikning shahsiy guvohnomasi, nikohlanuvchilarning biri ilgari nikohda bo'lgan bo'lsa, nikohdan ajralganlikni tasdiqlovchi xujjat (guvohnoma yoki sud qarori), nikohni haqiqiy emas deb topilganligi to'g'risidagi sud qarori, er-xotindan birining o'limi to'g'risidagi guvohnoma ko'rsatilishi kerak.

Nikoh nikohlanuvchilarning xohishiga ko'ra tantanali ravishda qayd etilishi mumkin. Bu oila tuzilishi va yaratilishining huquqiy jihatlarini.

Axloq nazariyasi nuqtai nazaridan oilaning asosi bo'lmish nikoh – ezgu maqsadga yo'naltirilgan, zimmasiga zurriyot qoldirishdek yuksak mas'uliyat yuklangan sevgi, sevdaning ijtimoiylashgan ko'rinishi. Sevgi-muhabbat faqat erkinlikda namoyon bo'lishini hisobga olinadigan bo'lsa, nikohni ma'lum ma'noda, an'analar, urf-odatlar va e'tiqodlarga moslashtirilgan sevgining yashash sharti deyish mumkin.<sup>1</sup> O'zbek oilasining dunyodagi boshqa oilalarga o'xshash tomoni ko'p, shu bilan birga O'ziga xos jihatlari bor. Xalqimizning: "Nikoh eng avvalo Arshi a'loda o'qiladi, keyin esa erda" degan naqli behuda aytilmagan. Otabobolarimizning azaliy tushunchalari bo'yicha nikoh ilohiy ahd, oila muqaddasdir. "Xotinlaringiz ziroatgohingizdir" deyiladi Qur'oni karimning Baqara surasi 223-oyatida. Oila qurishdan asosiy maqsad farzand ko'rishdir.

**Oilaviy muhit.** Oilaning mustahkamligi oila a'zolarining axloqiy tarbiyasiga bog'liq. Xalqimizda bejiz "Sog'lom turmush tarzi mustaxkam oilaning garovidir" deb aytilmagan. Sog'lom turmush tarzi deganda biz nafaqat oiladagi er va xotinning bir – biriga bo'lgan munosabati balki, ulardagi axloqiy fazilatlar, imonlilik, poklik, halollik, rostgo'ylik, shirinso'zlik, kabi axloqiy me'yorlarga amal qilgan xolda urf – odatlarga asoslangan, zamonaviy oilani tushunamiz.

Oilada eng asosiy narsa – bir - birini tushunish, qadrlash va e'zozlashdir. Er – xotindan birining kamchiligini ikkinchisining fazilati bilan yopilib yurmog'i lozim. Oilada ikki yosh bir butun bo'ladi, muhabbat – nikoh iplarini mustahkamlaydigan, axloqiy mas'uliyatni yanada oshiradigan hissiyotdir. Ikki yosh hissiy xolatlarini o'zaro tushunib borishi natijasida oilada mo'tadil kayfiyat qaror topadi, qarashlar uyg'unligi tug'iladi. Zero muhabbat faqat o'zaro hissiy qoniqishgina bo'lib qolmasdan, munosabatlar go'zalligiga aylanadi.

<sup>1</sup> Sher A. Axloqshunoslik. T., O'AJBNT - Yangi asr avlodi, 2003. 294-6.

Oila - bu kichik jamoadir. Unda o'zaro muomalaning barcha qoidalariga amal qilinishi kerak. Kattalarga hurmat, kichiklarga izzat; bir – biriga mehribon bo'lish, ayniqsa ayollarni izzat qilish kabi qoidalar kundalik odatga aylanib borishi kerak. Ota - ona bolalariga namuna. Shuning uchun ular oilada axloq madaniyatiga to'la rioya qilishlari shart.

Oilaviy munosabatlar nisbatan mustaqil hodisa bo'lib, oilaning ichki ishlariga hech kim aralashishga haqqi yo'q. Shu sababli ham oila muqaddas va daxlsiz hisoblanadi. Oilaviy munosabatlar jamiyatdagi mavjud ijtimoiy, iqtisodiy, mafkuraviy va ma'naviy munosabatlar bilan belgilanadi va ular ta'sirida o'zgarib boraveradi.

Oilalarda nafaqat oilaviy munosabat, balki qon-qarindoshlik munosabatlari madaniyati ham yuksak darajada rivojlangan bo'ladi. Bunday oilada bobo, buvi, ota-on, amaki, aka-uka, opa-singil, jiyan, kuyov, kelin quda-anda, qaynota-qaynona kabi o'nlab qarindoshchilik darajalarini bildiruvchi mezonlarga amal qilinadi. Bu munosabatlarda milliylikning asl o'zagi namoyon bo'ladi. Bu munosabatlarning afzalliligi shundaki, bunda qarindosh-urug'lar bilan oqibatli bo'lib yashash, farzandlarni milliy udum, qadriyatlar ruhida tarbiyalash uchun imkoniyat tug'iladi hamda ular qarindoshlar orasida ham moddiy va ma'naviy tayanch-suyanch bo'lib yashashga odatlanadilar.

Bunday oilalarda tarbiyalangan farzandlar ham barcha bilan munosabatda tezda kirishib keta oladigan, munosabat madaniyatiga rioya etadigan inson bo'lib shakllanadilar, chunki bu bolalarni bitta oila emas, bir necha oila tarbiyalaydi. Oilaviy sharoit u yoki bu oila a'zolarining kelajakda hayotiga bevosita ta'sir qiladi. Oilaning tarqalishi har bir oila a'zolariga ta'sir qiladi. Axloqshunoslikda oila tarqalishining uch turi ko'rsatiladi. Birinchisi, nikohni bekor qilinishi bilan tarqalishi – bunda oilaviy mulk, va farzandlar tarbiyasi qonun asosida taqsimlanadi. Bunday sabab o'zaro kelishmovchilik hamda tushunmovchilik, o'zaro muhabbatning yo'qligi natijasida paydo bo'ladi. Ikkinchisi, tabiiy tarqalishi bo'lib – oila a'zolarining biri falokat, yoki kassallik tufayli vafot etgan oila mulkining meros sifatida taqsimlanishiga sabab bo'luvchi tarqalishdir. Uchinchisi – axloqiy tarqalish bo'lib, bunda bolalar balog'atga etib, oila qurilishlari – ota-onalar ular uchun oilaviy mulkdan uy-joy, turli maishiy jihozlar ajratib berishlari belgilanadi.<sup>1</sup> Shunga ko'ra, oilada har bir a'zoning o'ziga yarasha majburiyatlari mavjud. Ayniqsa, o'z odatiy turmush tarzini o'zgartirib, o'zga oilaga kelin bo'lib kelgan qizlarimizning yangi oila a'zolari bilan bo'lgan o'zaro munosabatlari juda muhim hisoblanadi.

**Kelin bo'lish odobi:** Biz o'zbeklarning turmush tarzimizda ajoyib udum – kelinlik bo'lib, bu nafaqat kelinning o'zi, balki yoshi kattalar uchun ham muhim

<sup>1</sup> Sher A. Axloqshunoslik. T., O'AJBNT - Yangi asr avlodi, 2003. 297-6.

xususiyat kasb etadi. Ba'zilar uchun bu hayotning ma'nosiga aylanib qolganligi hayron qolarli emas. Kelin odobi — yangi xonadonda hamisha samimiy va halol bo'lish, rostgo'ylik va o'zini tuta bilish, so'zlashish va muosharat, kuyov xonadonidagi oila a'zolari bilan til topishib ketish, hurmatini qozonish, kamtarlik, saranjom-sarishtalik kabilarni o'zida qamrab olgan.

Momolar, yangalar o'giti "...Kelin bo'ldingiz, umr yo'ldoshingizni jon dildan seving, unga vafodor va sadoqatli bo'ling, kelin bo'lib kelgan kuningizdanoq yangi oilangizni hamma yumushiga aqlingiz, kuchingiz etganicha qarashing, mehnatda pishiysiz, qadr topasiz, hurmatli bo'lasiz.

Bilmaganlaringizni o'rganishga intilishingiz ham sizga nisbatan mehr uyg'otadi. Qaynota va qaynonangizni hurmatini joyiga qo'ying".

Har tongda kelinning salomidek ko'ngilni ko'taradigan narsa bo'lmasa kerak. Muomalaning har qanday sharoitda ham muloyim va e'tiborli bo'lishi, tabassum va mayinlik bilan gapirishi lozim. "Kechagina kelib", hamma gapga ham aralashaverish, kattalarni boshqarishga intilish, keksalar oldida bolalarni urushish, "o'zini uddaburonligini" barchani oldida ko'z-ko'z qilish, boshqalar oldida "kim qiyin hayot kechirayotgani" borasida musobaqa o'ynash – bechoradan olib o'zini bechoraga solish – atrofdagilar nazarida juda xunuk ko'rinish kasb etadi.

Milliy qadriyatlarimizdan biriga aylangan Islom dinida ayol kishining ikki majburiyati belgilangan – birinchisi turmush o'rtog'ini ko'nglini olish, ikkinchisi – agar sog'lig'i bunga yo'l bersa, farzand ko'rish hisoblanadi. Hammaga yoqish, uy, ro'zg'or buyicha kuyib pishish birinchi navbat turmaydi. Demak kelin avvalambor uni baxtli qilishi mumkin bo'lgan turmush o'rtog'iga e'tiborli bo'lishi zarur. Eriga haqoratomuz yoki qattik tik boqish, zarda qilish, bo'lar-bo'lmasga gap talashaverish, uni pastga urish kelajakda oilani "darz" ketishiga asos bo'lib xizmat qiladi. Erkak kishi buni unutmaydi. Kamsuqum va mehribon bo'lish, umr yo'ldoshni ko'chadan uyga tortadi. Xalqimizda "Chiqqan qiz — chig'iriqdan tashqari" degan ibora bor. Oila qurdingizmi, demak shu xonadon sizning uyingiz. Huda-behudaga uyni tashlab ketish, o'zini ota-ona, kelini va aka-ukalar oldida mazluma qilib ko'rsatish uchun gap tashimang, qo'ni-qo'shniga, qarindosh-urug'ga, dugonalarga yangi oila, ro'zg'or, ayniqsa, shaxsiy munosabatlar haqida barcha narsani gapirish, xullas siringizni tashqariga chiqarish yaramaydi. Barcha sizga achinadigan, o'z oilasini omadsiz keliniga qaragandek, hatto ular sizni ota-onangiz bo'lsa ham, qarashlariga yo'l qo'ymaslik lozim.

Qo'ni-qo'shnilarga, onaxon-otaxonlarga, katta-kichikka hamisha ochiq chehra, aql-farosat bilan muomala qilish nafaqat boshqalarda, balki insonning o'zida ham ko'tarinki kayfiyatni paydo qiladi. Albatta kechagina bola bo'lib yurgan qizlar birdan uy bekalikning talablariga javob berish juda qiyin masala. Demak har qanday

sharoitda ham kelinlar o'zlarini unutmasligi lozim. Bunda biz jismoniy – salomatlik bilan bog'liq, ruhiy, axloqiy va estetik jihatlarni nazarda tutaymiz.

Jismoniy salomatlik – tibbiy yordamni unutmaslik, o'zini tibbiy madaniyatga ega ekanligi, yaxshi ovqatlanishi, xullas doimo sog'lig'ini nazorat qilab turish lozim.

“Sog'liqni saqlash san'ati odam gavdasini uning munosib va yoqadigan narsalarini saqlash orqali o'sha tabiiy ajal (kasallik bilan bog'lik bevaqt o'limlarni oldini olish – uzoq umr ko'rishga intilish. F.A.) deb ataladigan yoshga etkazishdan iborat”.<sup>1</sup>

Axloqiylikka kelsak – ba'zida kattalarning xatosi yoshlarni noto'g'ri yo'ldan yurishi – yolg'onchi, g'iybatchi, noshukr hamda hiylakor bo'lib qolishiga sabab bo'lib qoladilar. Oilani bunday yo'llar bilan saqlab qolishingiz mumkin, ammo keyinchalik kimga aylanib qolishi mumkinligi borasida o'ylab qo'ygan ma'qul. Bu kelajakda farzandlarga ham ta'sir qilishi tabiiy:

**“Bolalarni kattalarning aytadigan so'zlari emas, ularning qilgan amallari tarbiyalaydi”<sup>2</sup>.**

Bunda ziddiyatlarni axloqiy anglashni rivojlantirish – adabiyotlar, axloqiy tafakkurni boyitishga harakat qilish orqali hal qilsa bo'ladi.

Sog'lomlashtirishning ruhiy jihatlari – ko'proq kelinlarning o'zini kayfiyatini yuqori kayfiyatda saqlab turishiga bog'liq. O'ziga oro berish ham bir tomondan boshqalarga sizni munosabatingizni o'zgartirsa, ikkinchi tomondan insonni ruhini ko'taradigan xususiyatlardan biridir.

**Kelinlik liboslari.** Kelinning odobi, uning o'zligi, borligini namoyon etadigan tomonlardan biri, uning garderoibi, ya'ni kiyinishidir. uch-to'rt ko'ylakni yuvib dazmollab o'qishga, ishga kiyib tejamkorlikka o'rgangan qizlar to'y munosabati bilan keyin birdaniga ikki yoqdan bir necha o'n sidra sarpolik bo'lib qoladilar. Zotan, borini bordek ko'rsatish, kamini yashirib, sevinib yurish ayollarning qo'llarida. Birinchi navbatda ikki tomon sarpolarini qishligini-qishlikka, yozligini-yozlikka ajratiladi. Keyin kiyimlar yana qishligi-qishlikka, uyligi-uylikka ajratiladi. O'z navbatida, ular yana sarxillanadi, masalan: liboslar ichidan atoqlik mehmonga kiyiladiganlarini (kelin salomlar, to'y-xashamlar) shifoneringizning to'riga chiroyli qilib ilib qo'ying. Kerak paytda darrov kiyib chiqasiz. Uyliklar ham bir sidra saralanadi. Masalan: mehmon kelganda kiyiladiganlari alohida osiladi. Mavsumga qarab ertalab, Peshinda, kechqun kiyiladiganlari, bayram-hayitlarda kiyiladiganlari, ajratiladi. Ayrimlar kelinlar doimo yasanib yurishlari kerak, tez-tez kiyim almashtirish kerak deb bir yilga qolmay barcha kelinlik liboslari ohorini to'kib kir

<sup>1</sup> Abu Ali ibn Sino. Tib qonunlari. Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, - Toshkent, 1994, 1 – jild, 73-bet. 73-B.

<sup>2</sup> K. Yung. K.Kereni. Dusha i mif. Kiyev-Moskva, Port-Royal-Sovershenstvo.1997.-114b.

tog'orada chiritadi. Ertalab hovli supurganda uy yig'ishtirganda sun'iy matodan to'qilgan ko'ylak lozim kiygan ma'qul (homiladorlik vaqti bundan mustasno). Yuvganda aynimaydi. Nonushtani tayyorlab bo'lgach, odatda oshxonada ovqati isi kelib turmaslik uchun, nonusushtaga ko'pchilik bilan o'tirishdan avval libosni almashtirgan ma'qul. To'g'ri yaltirog'i bor kiyimlar kelin liboslarining ko'rki hisoblanadi. Ammo oshirvormaslik, ya'ni bachkanalik darajasiga ko'tarmaslik lozim. Ish yoki o'qishga qatnaydigan kelinlar yaltirog'i yo'q kiyimlar kiygani ma'qul. Kelinman deb, bosh oyoq yaltiroq kiyganlar boshqalar diqqatini tortadi xolos. Tungi kiyimlar alohida saqlangani ma'qul. Yana bir nozik masala – ayrim kelinlarning xonasi egasi ko'chib ketgan uyga o'xshaydi. Hamma joyda kiyim, lozim, ko'ylak, xalat. Divanda er kiyimi, stulda xalat, krovatda ro'mol-u ko'ylak. Turlanish kerak ekan deb kiyimni duch kelgan erga uloqtirib, boshqasini kiyib ketaverish yaxshi emas. To'g'ri, yoshlarning ham kattalarga, ham ro'zg'orga, hamda keti tugamaydigan mehmonlarga xizmat ko'rsatishi bunday nozik jussiga og'irlik qiladi. Ammo birinchi navbatda turmush o'rtog'i, so'ng o'zingiz e'tiborga loyiq ekanligingizni unutmaslik lozim. Kelinning xonadonga xizmatchi bo'lib kelishi – kelajakda uni professional darajadagi xizmatchiga, uy bekasi bo'lib kelishi esa uy bekalikka olib keladi. O'ziga nisbatan e'tiborsizlik atrofdagilarni ham shunday munosabatda bo'lishiga sabab bo'lishi mumkin. Ammo hadeb turlanaverish ham ayol ko'rkini "sindiradi". Bora-bora bunday ayollar o'zini yanada chiroyli ko'rsatishning eng murakkab yo'llarini qidirishga majbur bo'lib qoladilar.

Zeb-ziynatning, taqinchoqning o'ziga yarasha ma'naviy yuki, o'ziga yarasha ma'naviy qadriyati, tarbiyaviy ahamiyati bor. Taqinchoqlar xilini xiliga, rangini rangiga, kiygan libosga moslab taqiladi. Bu taqinchoqlar balki uncha qimmat ham bo'lmas, ularning bezagi kiygan libos bilan uyg'unlashib, go'zal ansambl tashkil etadi.

Lekin bu degan kelin bo'lish rusmlarini joy-joyiga qo'yaman deb, ota-ona, opa-singil, aka-ukalar rizqini qiyib bo'lsa-da, boshqalardan qolishmaslik eng yomon narsadir. Bu bilan baxtli bo'laman degan odam qattik adashadi. Yomon niyatda bo'lgan odam baribir, qanday e'tiborli bo'lishingizdan qat'iy nazarda sizga bo'lgan munosabatini o'zgartirmaydi. Aybni doimo barchadan va barcha narsalardan topsa bo'ladi. Beayb parvardigor. Ota-onalar ne azobda qiynalib qiziga qilib bergan bu sarpolar hech qancha vaqt o'tmay sandiqda keraksiz narsa bo'lib yotishini unutmaslik lozim. Ortiqcha harajat, uvol va isrof keyin o'zining samarasini beradi. Agar yoshlar avvaldan kirim va chiqim borasida o'ylamasalar, bunday oilaning kelajakdagi iqtisodiyotini tasavvur qilish mumkin.

**Kelinning kiyinish madaniyati.** Yaxshi kiyinish ham o'ziga xos san'at hisoblanadi. Yaxshi did, avvalo kiyimlarni bir-biriga moslab kiyishda namoyon bo'ladi. Moslab kiyilgan kiyim ma'lum sharoitga munosib, kishining mashg'uloti,

voqea, muhit va shu kabilar bilan muvofiq, hamda vaqti va joyiga qarab bashang bo'lishi mumkin.

Moda deganda muayyan ijtimoiy guruh, kishilar orasida ularning ta'biga, didiga mos kiyinish odatining ma'lum vaqtgacha urf bo'lishi tushuniladi. Moda liboslarning o'zgarishigina bo'lib qolmay, o'ziga xos estetik uslubni qidirib topish, yurish-turish tarzi, did va ichki madaniyatning namoyon bo'lishi hamdir. Moda uzoq tarixga ega. Turkiy xalqlar ayollarida asosiy bosh kiyim do'ppi, ro'mol, oyoq kiyimi mahsi, kavush, ich kiyim – ko'ylak, ust kiyim – kaltacha, kamzul, nimcha, chopon bo'lgan.

Respublikamiz iqlimi issiq bo'lganligi bois bizning sharoitda ayollar uchun eng qulay moda – ko'krak burma va pasti yaxlit bichimli "o'zbekcha" ko'ylak hisoblanadi. Buning afzalligi shundaki, issiq avjiga chiqib, kishi terlab turganda ham kiyim badanga yopishib qolmaydi. Shuning uchun ham ko'krak burma ko'ylak hech qachon modadan qolmaydi. Faqat ayrim detallari biroz o'zgartirilib, zamonaviy tus bergan holda yangilanaveradi.

Chiroyli atlas, tovor kabi matolar qadimdan o'zbek ayollari sevib kiyadigan milliy matolardir. Qancha-qancha zamonlar o'tib ketsa ham, bu matolardan o'z davriga moslab yarashtirib, xoh o'zbekcha, xoh evropacha tikilgan kiyimlar hamisha modadadir. Qaddi-qomati kelishgan ayollarga moda jurnalidagi modellarning har biri to'g'ri kelaverishi mumkin. to'ladan kelgan ayollarga belning past qismidan ulangan va keng etak bo'lib tushgan ko'ylaklar kiyish tavsiya etilmaydi. Ozg'in ayollar esa tor badanga yopishib turadigan ko'ylaklar kiyimliklari lozim. Bo'yni uzun ayollar ko'proq elkalik ko'ylak kiyganlari ma'qul. Bo'yni kalta ayollarga tik yoqali va bo'yin atrofidan o'yilgan ko'ylaklar yarashmaydi.

Kiyimning rangi, rasmlari, guli ham mos bo'lishi kerak. Ayollar ko'pincha kiyimlar rangini o'zlarining o'z, soch va teri ranglariga moslab oladilar. Ammo bunda rangning kishiga tushishidadir. Katak-katak kiyimlarni matoli va yo'l-yo'l matolardan tikilgan kiyimlarni birga kiyish tavsiya etilmaydi. Bo'ylamasiga yo'l bo'lib tushgan gazlamalar ayollarning qaddi-qomatini nozik, bo'y-bastini uzaytirib ko'rsatadi, ularni to'ladan kelgan ayollarga kiyishni tavsiya etish mumkin. Ozg'in va baland bo'yli ayollar bunday matodan kiyim kiyimaganlari ma'qul, ko'ndalang, yo'l-yo'l ko'ylaklar qaddi-qomatni to'laroq ko'rsatadi.

Rang va ranglarning bir-biriga mos tushishi ham o'ziga xos ahamiyatga ega. To'q va qora ranglar jussaning to'laligini bilintirmay tursa, oq ranglar yanada to'laroq ko'rsatadi. Yashil, binafsha, ko'k rang qaddi-qomatni rostlab ko'rsatsa, sariq, jigarrang, qizil va rangdor rasmlar jussani bir muncha to'la qilib o'rsatadi. Ortiqcha bezaklar kiyimni bachkanalashtirib yuboradi. Uy kiyimlari asosan yuvilishi oson ip gazlamalar, shtapel matolardan tikiladi, u keng va qulay bo'lishi lozim. Yoz paytlarida uyda odmi rangli mayin gulli ko'ylak va xalatlar kiyish maqsadga

muvofig. Ish kiyim qulay, kundalik kiyishga mos va qulay bo'lishi, ayniqsa ko'ylak-kostyumlar kiyish ko'pdan urf bo'lib keladi. Ozodalik, orastalik, pokizalikni bir umr o'ziga hamroh qilgan kelinlar, shoshib qolmaydilar, ayniqsa ishlasalar yoki o'qisalar – bu fazilatlar insonga o'ziga ishonch va ruhiy muvozanat baxsh etadi.

Parcha-yu kimxoblardan kiyim, zeb-ziynatlar taqib, bir davraga kirsangizu, birinchi tabassumingizda tishingizni sarig'i o'rinsa, kishilarning siz haqingizda fikri o'zgaradi. Eng so'nggi moda bilan kiyinsangizu, sochlaringiz to'zib yotgan bo'lsa, hech qachon sizni orasta deyishmaydi. Yangi kiyimlar, chiroyli liboslar notozalikni yashira olmaydi.

**Salomlashish odobi:** ertalab turgach, yuvinib, qaynota-qaynona, oila a'zolari bilan muloqotni iltifot bilan salom berish, "Yaxshi dam oldingizmi?" degan so'zni aytish bilan boshlash joiz. Assalomu-aleykum, arabcha so'z bo'lib, "Sizga tinchlik tilayman" deganidir, bu so'z to'liq aytilishi kerak. "Assalom-alayka", "Va alayka", "Salom", "Salom alaykum", "Salom berdik", "Alaykum" kabi qisqa so'zlar ishlatilmasligi kerak.

Oiladagi bajarilishi lozim bo'lgan talablar, ko'chadagidan kam emas. Tashqarida tavoze bilan, uyda qo'pol bo'lgan odam hammadan kamroq hurmatga loyiq. «Rahmat»», «kechirasiz», «iltimos» so'zlari shartli bo'lsa ham juda zarur ahamiyat kasb etadi. Ba'zida ayollar erlarining buyruqlarini bajarish bilan charchaganlardan dugonalariga shikoyat qilishini guvohi bo'lamiz. Kundalik ayolning vazifasiga kiradigan narsalar uchun er iltimos qilishi shart emas. Ammo u ayol kishini izmida bo'lgan so'zlarni: «iltimos sigaretim olib kel, ishdan chalg'igim kelmayapti» qabilidagi iboralarni aytishi shart. Bunda «iltimos» ni ayolga nisbatan qo'llashni or qiladigan erkaklar uchun «azizim, onajonisi, ...xon» kabi shirin so'zlarni ishlatishlari mumkin.

Agar ayol har kuni dasturxonga taom olib kelsa, er hadeb rahmat deyaverishi shart emas. Yoki ayol ketishdan oldin er uning ustiga paltosini kiydirib qo'ysa ham ayolni minnatdorchilik bildirish zaruriyat taqozo etmaydi. Ammo «Vanaxonadagi xalatim olib keling» degan iltimoslarga minnatdorchilik bildirish lozim. Insonlar bilan munosabatda ohang asosiy o'rinni egallaydi. «Choy quy» degan so'zning o'zi ham iliq muhabbat bilan yo'g'rilgan ohangda eshtilishi, «Choy quying, iltimos!» deb aytilgan qo'rs ohang ko'ngilni og'ritishi mumkin. Yuvingandan so'ng albatta, vanna yoki rakovinani yuvib qo'ying. Bu hammaning burchidir. Idish yuvadigan rakovinaga tuflash, og'iz chayish, tish yoki yuzni yuvish madaniyatsizlikdir.

Xullas, uyni ozoda tutish faqat uy bekasiga bog'liq emas, bu barcha oila a'zolarini ishidir.

Ota-onaning tashqi ko'rinish ham, ayniqsa, farzandlar oldida muhim ahamiyat kasb etadi. Bolani bog'chadan olgani borganda, bolalar kichkina bo'lsa ham solishtirish xususiyatiga egaligini unutmashligi lozim. Bolalar ota-onalaridan

uyalishga yo'l qo'ymaslik lozim. Bunda «Ota-onani, ayniqsa onani sevisish shart» deb qo'yilgan talablar doimo o'zini oqlayvermaydi. Men kelinman, qaynona-qaynotamga qaraymi, erimgami yoki bolalargami deb boshqalarni ham o'zini ham aldaydigan kelinlar oxir-oqibat soxtalikni ko'rsatib qo'yadilar. Atrofdagilarni, ayniqsa bolalarni bunday uslub bilan o'ziga tortish, ularni rahmini keltirish o'xshovsiz xiyla xolos. Axloqshunoslikda muhabbat erkinlikda namoyon bo'ladi, degan ilmiy xulosani nazardan chetda qoldirmang.

Hech qachon bolalarning mehnati uchun «pora» bermaslik lozim. «Buni qilsang, uni olib beraman» qabilida. Buning o'rniga unga ixtiyor bergan ma'qul. Istagan ishni tanlab olsin. Ammo bajarsin. Mehnatsiz yashab bo'lmaslikka o'rgatish lozim.

Agar o'zingiz namuna bo'lmasangiz bunday «tarbiya» ning hech foydasi bo'lmaydi. Bolalar oldida bir-birining vazifalarini «eslatib» urushmaslik kerak. Agar sizdagi o'zaro ziddiyatni bolalar bilib qolsalar, ular sizdan foydalana boshlaydilar.

Bunga qarshi faqat va faqatgina oiladagi axloqiy muhit choradir.<sup>1</sup>

Oilaviy bayramlar – har bir oilaning shaxsiy ishidir. Ammo tug'ilgan kunda birlashuv va hamjihatlikning bo'lishi turgan gap. Hammaga ma'lumki ayollar o'z tug'ilgan kunlarini erlari yoddan chiqarishlarini juda og'ir qabul qiladilar.

Er-xotinlar o'rtasidagi asosiz paydo bo'laveradagian bahslarning qat'iy chorasi – ko'p hollarda ajrashish bilan tugaydi. Ammo bunga noiloj vaziyatlardagina yo'l qo'yish mumkin. Munozaradagi ma'lum qoidalarga amal qilib, bu baxtsizlikdan qutulish mumkin. Masalan, hech qachon o'z norozilikarni kinoyali ohangda aytmaslik lozim – bu odamni haqoratlaydi va instinktiv ravishda qarshilik qilishga undaydi. Yurakdagi dardning hammasini faqat mulozama, muloyimlik va bosiqlik bilan ayta olish mumkin. Bu oilada ijobiy javob – tushunishni vujudga keltiradigan yagona ohangdir. Muomala qila olishning ziddi jizzaki, buyrug'ona ohangdir. Ochiqdan-ochiq odamga achinishni e'lon qilish ham, aksil ta'sir beradi. Bundan tashqari fikrni oxirgacha aytmaslik, «yopiqlik» ham munosabatni qiyinlashtiradi. Urushayotganda o'zini o'ldirish bilan «*qo'rqitish*» ham insoniylikka to'g'ri kelmaydi. Ikkita odamning bahslashuvida uchinchi odamning fikrini asos sifatida keltirish yaramaydi. Er-xotinlar o'rtasidagi juda yaxshi do'stona munosabat birontasining onasi yoki boshqa bir odamning keltirgan firklariga asoslanishning o'ziyoq janjalga sabab bo'lishi mumkin. Oilaviy mojarolarda turli umumiyliklardan – «*Sen doimo...*» kabi so'zlardan yiroqroq bo'lish lozim. Aniq bir fakt yoki asosga tayangan holdagina so'zlash lozim. Ta'na muhabbatni o'ldiradi. Bu hatto asosli ayblov ham bo'lishi mumkin. Shu bois bunday holatlarga kamroq murojaat qilgan

<sup>1</sup> Sher A. Axloqshunoslik. T., O'AJBNT - Yangi asr avlodi, 2003. 295-6.

yaxshi. Dashnom berayotgandagi yuzimizning istinkiv ko'rinishining aks ta'siri bizdan qochish istagini paydo qiladi. Bu esa aloqani buzilishiga sabab bo'lishi mumkin.

Yaqinlarni doimiy tanbehlar bilan charchatib qo'ymaslik kerak. Biror narsa haqida tanbeh beradigan bo'lsangiz, buni muloyimlik va do'stonalik bilan bajarish lozim. Uni qayta takrorlash, ayniqsa avvalgidan ham balandroq ohangda aytish foyda bermaydi. Tanbehni eshitgan odamni yodidan ko'tarilishi mumkin emas, aksincha bu narsa yo unga yoqmaganidan, yoki imkoni yo'qligidan e'tibor bermagan bo'lishi mumkin, bu bilan hech narsaga erisholmaysiz. Yaqin odamlarni g'alati harakatlarini yoki biron talablarni bajarmasligini kechirish mumkin, zero «*Beayb Parvardigordir!*» Ammo kechirimli bo'lishga da'vat etish, hamma narsaga e'tiborsilik qilish degani emas. O'ziga nisbatan talabchan bo'lgan inson, boshqalardan ham buni kutadi. Ammo bunday talablarga hamisha o'z vaqti hamda usulini topa bilish lozim.

«*Qisqa kelishmovchiliklar*» dan qochishning iloji yo'q. Asosiysisi, ularning haqiqatan ham qisqa bo'lishidadir. Imkon qadar darhol o'zaro uzrlashib, normal munosabatlarni qayta tiklab olish muhimdir. Yarashuvdan so'ng kelishmovchilikning sababi va janjalning o'zi ham unut bo'lishi kerak. Albatta shunday vaziyatlar bo'ladiki, o'zaro munosabatlarga alohida aniqlik kiritishga ehtiyoj paydo bo'ladi, lekin imkon qadar ulardan o'zni chetga olmoq durust. Hammasidan ham mojarodan o't chiqmasdan o'chirgan afzal. Umuman olganda «*munosabatlarni kelishib olish*» yaxshi variant emas. Bir odamning o'zini tutishi boshqasini hamisha tushunib etishiga olib kelavermaydi. Ba'zida juftingizdan nima uchun u unday qilayotganini so'rashingiz mumkin. Ammo uning javobi sizni qoniqtirmay qolsa, «*kavlashtirishni*» hojati yo'q. Ba'zi biz «*erishgan haqiqat*» bizga yoqmasligi mumkin. Zero qarshingizdagi odam sizni xafa qilmaslik uchun indamasa ham, uni «*siqishni*» boshlaganingizdan so'ng hammasini aytib yuborishi mumkin.

Oilaviy axloq o'z juftini ishonch xalqalari bilan bog'lanishini taqozo etadi. Shu bois o'z yaqiningizni yolg'onchilikda ayblash yoki biron narsada «*ushlashga*» harakat qilish vaziyatni og'irlashtiradi xolos. Bu ishonchsizligingiz sizga nisbatan ichki dushman sifatida qarashga olib kelish mumkin. Albatta me'yorida, siz uchun aziz bo'lgan odam sifatida chiroyli rashk qilish mumkin. Bu hatto aloqani mustahkamlaydi. Ammo yarim haqorat shaklidagi rashklar, juftingizni qilmagan ishini qilishga undashi mumkin. Yaqiningiz bilan bo'lgan munosabatda «*tilga suyak qo'yib qo'rgan*» yaxshi. «*Jinni bo'libsiz!*» degan so'z albatta ajrashishga sabab bo'lmasligi mumkin, ammo sizni chiroyli ko'rsatmaydi. Undan ko'ra: «*Adashyapsiz azizim!*» deb aytgan durustroq.

Hattoki, hazilomuz murojaatlarda ham o'tkir iboralardan hayiqmoq lozim. Bizning so'zlarimiz biz istagan darajada doimo natija bermasligi mumkin, o'zimiz

bilmagan holda boshqalarni qalbini yaralashdan uzoqroq bo'lganimiz ma'quldir. Yomon ma'noda so'z aytgan bo'lsangiz, unda uni ifodalashdan ne ma'ni bor?! Gap bilan «*chaqilgan*» kishi sizni kechirishi mumkin. ammo qalbiga otilgan bu «*nayzaning*» izi o'chishi qiyin. Bundan siz ham foyda ko'rmaysiz. Va eng asosiysi, erkaklar uchun: rafiqasi bilan bo'lgan har mojaroda ayolni o'ziga qaratadigan «*Azizam*» degan murojaati masalani ijobiy tus oldirishi mumkin. Ammo erkaklarning bunday so'zlarni ishlatishlari nihoyatda kam uchraydi.

**Uy.** O'zbek xalqida «O'z uyim o'lan to'shagim!» degan maqol bejiz emas albatta. Butun umrimizni yashash joymizni chiroyli va qulay qilishga intilamiz. Shuning uchun ishlaymiz, tejaymiz. Zero o'zbek xalqi mehmondo'st xalq. Birov kelasa, uyat bo'lmasin qabilida tirishib-tirmashadi. Chunki uyga kelgan mehmon mezbonning uy tutishidan uning kimligini bilib oladi. Ammo eng katta muammo uyga kelin kelganda boshlanadi. O'zining hayot tarzi va tartib qoidalari bilan kelar ekan, bu bilan bevosita paydo bo'lgan mayda ziddiyatlar, tushunmovchiliklarni chetlab o'tish juda qiyin.

Xo'sh qanday qilib bu masalani hal qilish mumkin?

Buning uchun avvalambor uyning o'zi toza va batartib bo'lishi lozim. Barcha narsalarning o'z joyida turishi va hamma bu tartibga amal qilishlari lozim. Ertalab har joyda yoyilib yotgan narsalar kayfiyatni ko'tarmasligini o'zingiz ham yaxshi bilasiz. Yaxshi osilmagan yoki taxlanmagan ko'ylak er-xotini asabini buzsa, joyiga qo'yilmagan narsalar qaynona-qaynotani sizdan norozi bo'lishiga sabab bo'lishi mumkin.

Uydagi tartib faqat ayolga bog'liqmi?

Ham to'g'ri ham noto'g'ri. Qadimdan erkak oilasini boqish uchun ko'chaga chiqar, ayol esa – uyga, bolalar tarbiyasiga qarar edi. Hozirgi davrga kelib esa... Halol oila ro'zg'orini tebratish uchun bir erkakning ishlashi etarli emas. Talablar o'zgargan. Hozirda bir farzandning o'zini kelajagini qurish uchun faqat to'qqiz yillik o'qishning o'zi etarli emas.

Uyimizning ichki ko'rinishi, tabiiyki bizning odatimiz va didimizga bog'liq. Asosiysi, biz va oila a'zolarimiz o'zini qulay va shinam joyda his qilishni ko'zda tutish lozim. Shunga qaramay sizni e'tiborga olinadigan bir qancha masalalar bor. Aytaylik, uyni narsalar bilan to'ldirib tashlab, uni magazinga o'xshatib qo'ymaslik lozim.

Uyni yasatish va saranjomlashda derazalarga alohida e'tibor berish kerak. Hohishga qarab ular orqali xonani kengaytirishi yoki, aksincha kichraytirish mumkin. Derazalarni jonli rasmga aylantirish mumkin. Yoki ularni musavvirlik bilan drapirovka bilan berkitish mumkin... Har qanday holatda ham derazalar sizni butun olam bilan bog'lab tursin va uyga imkoni boricha ko'proq toza havo kiritib turish kerak.

Agar farzandlar bo'lsa (ayniqsa go'daklar), bolalar yashayotgan joyda mebel jihozlari va uyni umumiy saranjomligi, kichik odamchalarning erkin harakatlanishi va tabiiy o'sishiga halaqit bermasligi lozim. Diqqat qiling: agar siz bolalarga haddan ziyod tanbehlar berayotgan bo'lsangiz, (Tegma! Chiqma! Yugurma! va h.k.) aybdor bola emas, mebel joylashuvining o'quvsizligi (yoki sizning qobiliyatsizligingizdir). Har qanday uyda asosiysi har holda narsa emas (qanday qiymatga ega bo'lishidan qat'iy nazar) – inson. Shu bilan birga o'zingiz, yaqinlaringiz, qariyalar, farzandlaringiz ham. Buni yoddan chiqarmaslik muhim aamiyat kasb etadi.

Tanishlarni uydagi boylik va qimmatli jihozlar bilan to'ldirib hayratga solishga intilmagan ma'qul. Qimmatbaho va zamonaviy jihozlar uyda doimo shinamlikni tug'dirmaydi. Ba'zida buning aksi bo'lishi ham mumkin.

Boshqa tomondan esa, uyni eski narsalar bilan to'ldirib tashlamaslik ham lozim. Ayniqsa, agar ulardan anchandan beri foydalanilmayotgan bo'lsa. Hech bo'lmaganda bir yilda bir marotaba uyni eski kerakmas narsalardan bo'shatib turish maqsadga muvofiq.

Oshxona, vannaxona va hojatxonani alohida tozalikda saqlash lozim.

Har qanday uyni gullar go'zallashtiradi. Ayniqsa, yangi uzilgan, chiroyli tanlangan guldastalar, quruq o't va gullar majmuasi, turli xonadon gullari bo'lsa nur ustiga a'lo nur. Bu erda hayolotingizning imkoniyatlari cheksizdir. Ammo gullar boshqa barcha narsalar kabi uyda ozodalik, e'tibor va parvarishni talab qiladi. Faqatgina ulardan haqiqiy xayolot va san'at asari darajasiga ko'tarila oladiganigina xonangizni yasatishi mumkin. Lekin oshirib yubormaslik ham joiz.

Uy hayvonlari – akvarium baliqlari, mushuk, qushlar va h.k. – nafaqat uyni o'zgartirib yuboradi, ilqlik va jon bag'ishlaydi, balki o'ziga xos tarzda uyga oro beradi (gullar kabi). Ammo jonzotlar bo'lgan uyda yoqimsiz hidlarning bo'lishi yomondir. Uy hayvonlari va uning egalarining doimiy ifloslik va betartiblikda bo'lishi undan ham yomonroq.

Ko'pchilik erkak ayollar «yaxshi pul topa boshlasalar» oilani boshqaruvining o'z qo'llariga oladilar degan hadik mavjud. Bo'lmagan gap. Bu erkakka bog'liq. Mamlakatimizda ayol kishining daromadi qanchaligidan qat'i nazar uning buromadi bilan erkak shug'ullanadi. Boshliq ham u. Lekin bu degan ayolning ishga «sho'ng'ib» ketishi degani emas. Ayolning ishi oilaga halaqit bermasligi lozim. Bolalarni ozoda bo'lishga, batartib ish yuritishga, munosabatlar – bularni rivojlantirishning barchasi ayolning zimmasida. Erkaklar esa «ishlab keldim» deb, faqat shoir iborasi bilan aytganda «tirik hamyon» vazifasini o'tashi yaxshi emas. Bu ayolni ham jismonan ham ruhan toliqtiradi. Uydagi og'ir ishlar, bozor-o'char ko'proq erkakning zimmasida. Agar bunga imkon topa olmasa, ayol uchun sharoit yaratib berish lozim. Texnik masalalarda – issiq va sovuq suv, ayolga yordamchi

mashinalar – go'sht maydalagich, kir yuvadigan mashina va h.k. Zero ular ketadigan vaqt hamda mehnatni tejaydi. Ammo ularning yo'qligi ozodalik va tartiblilikni bo'lmasligi degani emas. Har qanday sharoitda yashayotgan ayolning uyiga kirib borgan kishi uning sharoitiga emas, uy tutishiga baho beradi. Barcha narsalar va sharoit mavjud bo'lgan uydin ko'ra, kichkina xonalar bo'lsa ham odmigina sharoitsiz uy ham chiroyliroq ko'rinish kasb etishi mumkin. Shu sababdan, ba'zida uyingizga kirgan mehmonlar «uyingiz shinamgina ekan–a?!» deyishlari bejiz emas. Ammo faqat «odamlarning ko'ziga» uyni tutish yaxshi emas. U erda siz yashaysiz. Hurmat avvalambor o'zdan boshlanadi. Avvalambor, o'ziga va oilasiga qulaylik tug'dirgan odamdin oqil odam yo'q.

Batartib oilada yashagan bola ham ozoda bo'ladi. U ota-onasidin qanday qilib kelishuv asosida oila boshqarishni o'rganadi.

*Ayollar!* Uyning qulayligi erkakni uydin ketishini «og'irlashtiradi». Hadeb bir og'aynilarini, bir hamkasabalarini va bir qarindoshlarini bahona qilib «qochish»ga harakat qilmaydi.

*Erkaklar!*

Siz ayollarga yaratib beradigan sharoit qiymatli bo'lish shart emas, buni qo'l bilan ham bajarasa bo'ladi. Ayol kishining ishi qancha engil bo'lsa, uning fe'li ham har narsaga buzilavermaydi. Demak sizning ham kayfiyatingiz yaxshi bo'ladi.

*Ota-onalar!*

Bolalarni uyni boshqarishga jalb eting. Ular bunda paydo bo'ladigan barcha muammolarni bilishlari va hal qilinish jarayonlaridin boxabar bo'lishlari lozim. Bu bolalarning sizga bo'lgan munosabatini ijobiy tomonga o'zgartiradi. O'g'il-bola, qiz-bola deb ajratmaslik lozim. O'g'illarni katta bo'lganda divandin tushmaydigan dangasalarga aylantirib qo'yasiz. Katta bo'lgan sari sekin-asta erkaklar qiladigan ishlar – deraza sinisa, rom oshig'idin chiqib ketsa, lampa kuysa va h. k. larga otalar o'rgatib oladilar. Ungacha esa sizga va oilangizga yordamchi qilish kerak. Qizlarni esa uy tartibidin tashqari muomalaga, akasini yoki ukasini «ishlata» olishiga, tashqi ko'rinishga e'tiborni qaragan ham yaxshi. Bolalar tarbiyasida ziyolilikka inrtilish katta ahamiyat kasb etadi. Ota-onalarni qanday sohada va qanday ma'lumotga egaligi emas, balki qay darajada ziyolilikka intilishi muhimdir. Bolalar va ota-onalarning ilmdin, yangiliklardan doimo xabardor bo'lishi bolalarni tushunishga, bir oz zamonaviyroq bo'lishga undasa, bolalarning kitob o'qishga bo'lgan qiziqishi ota-onalarning aytmoqchi bo'lgan gaplarini aniqroq anglashga yordam berishini unutmazlik zarur.

Tartiblilik faqat harakat orqali emas – u tilda ham dilda ham bo'lishi lozim.

*Erkaklar!* Bir yilda bir marotaba bo'ladigan tug'ilgan kunlarga bee'tibor bo'lmang. Bu bilan erkaklar ayollarga bo'ysunganini tan olmaydi, aksincha ayollar uchun bu – haqiqiy erkaklik xususiyatidir. Ko'pchilik go'yoki narsaga ko'ngli

bog'langanmi yoki mengami, deb sinamoqchi bo'ladilar. Ular qattiq adashadilar. Ko'ngil moddiylikni ichida – ya'ni tanada yashaydi. Ularni ajratish, ularni o'ldirish bilan barobar. Axir yigitlik chog'ida sevgi izhor qilish yoki qizning qo'lini so'rash uchun gul ko'tarib borar edingiz–ku! O'zingizni o'zingiz rad etmang. Bir og'iz shirin so'z va uch dona gul (ko'proq bo'lsa undan ham yaxshi) hech kimni o'ldirmaydi. Muhabbat gulga o'xshaydi. Uni parvarishlash lozim. Muhabbatga quyiladigan suv bu – e'tibordir. Ayolingizning sizdan ko'ngli qolishi oilani buzishgacha olib kelishi ham mumkin.

*Ayollar!* Eringizga nima sovg'a qilishni o'rgatmang. Bu bilan qadringizni tushirgan bo'lasiz. O'zi so'ragan taqdirda aytish mumkin. Uning o'rniga, sizni tabriklagani kelishlarini aytishning o'zi kifoya. Agar shunda ham hech qanday o'zgarish bo'lmasa, tug'ilgan kun o'tgandan so'ng eringizdan hol-ahvol so'ragan maqul. Balki biron tashvishi bordir. Agar u oldindan sovg'a berishga o'rganmagan bo'lsa, bu yaxshi – ayollar bilan munosabat qilishni bilmaydi va u – faqat sizniki! Uning tug'ilgan kunida, ishdagi darajasi ortganda yoki kasb bayramida uning o'ziga sovg'alar qilib o'rgatish mumkin. Ammo ochiqchasiga sovg'asiz yoki tabriksiz qolganini tan olish – bu ayollar uchun mag'lubiyatdir. Chunki erkakning unga bo'lgan bee'tiborligini - u ham, er ham, tan olgan bo'ladi. Ba'zida achchiq haqiqatdan ko'rsa shirin yolg'on ham ko'ngilga xush keladi.

O'zbek xalqiga mansub har bir oilada mehmonlar uchun alohida mehmonxona, bolalar, ota-onalar uchun alohida yotoqxonalar, dam olib suhbatlashadigan umumiy xona, oshxona va qo'shimcha xonalar bo'lishiga intilish mavjud.

**Yotoqxona** uchun shinam, shovqin-surondan holi, bahavo xona ajratiladi. Yotoqxonada ko'rpalar, ko'rpachalar alohida, sandiq va quti ustiga did bilan yig'ib, oq choyshablarga o'rab qo'yiladi. Ota-ona uchun alohida, o'g'il bolalar va qiz bolalar uchun alohida-alohida yotoqxonalar bo'lishi lozim. U erda shkaf javoni bo'lishi zarur. Har bir kishiga yuvib almashtirish uchun ikkitadan choyshab va yostiq g'iloflari bo'lgan yaxshi. Yotoqxonaga ortiqcha narsalar, devorlarga osilgan gilamlar, televizor, muzlatgich kabilar qo'yilmaydi.

**Oshxona:** O'zbek xalqida xonadonga sovchi yoki mehmon kelsa, avvalo oshxonaga e'tibor beradi. Oshxona yorug', shinam, shamollatish oson va qo'shni xonalarga yaqin bo'lishi lozim. Oshxona kuniga bir marta tozalanib, yuvib, shamollatib turiladi. U erda sabzavot va meva po'choqlari uchun va suyak, ovqat qoldiqlari uchun alohida chelak bo'lishi lozim, idishlar yuvilgach, qaynoq suvda chayiladi. Sanchqi va qoshiqlar artiladi. Sovitgichda esa sariyog', go'sht, sut, taomlar, ho'l mevalar og'zi yopiq holda saqlanadi. Farosatli bo'lish bunda muhim. Singan, cheti uchgan idishlarda choy yoki taom keltirilmaydi.

### **Er-xotinlar**

Oila a'zolari bir-birining odati, didi va qarashlarini hurmat qilishi lozim. O'zini namuna sifatida ko'rsatib tanqidga berilish yaramaydi. Yotoqda kitob o'qishni yaxshi ko'rasizmi? Unda boshqaga ham televizor orqali berilayotgan futbol matchini ko'rishga imkon bering!

Er yakshanba kuni do'stlari bilan uchrashishni yaxshi ko'radi. Bu degani qo'shnilar kabi er bilan aylangani chiqishdan mahrum bo'lasiz degani. Xo'sh nima qilibdi? Ammo siz yakshanbadan tashqari boshqa kunlari eringiz sizning ixtiyoringizda! Agar siz ham yoringizga imkoniyat yaratsangiz, undan ham shuni kutishingiz mumkinligini yodda tuting.

Oila a'zolari bir-birining qiziqishiga halaqit berishi, erkinliklarini bo'g'ishi, tanqid qilishi, yoki ovozi ko'tarishi, o'zining salbiy munosabatini bildirishi, eng zarur paytda magnitofonni ovozi baland qilib, asabga tegishi yaxshi emas. Oila a'zolarining har biri tartibni yaxshi tutib turishi lozim. Kirganda tashqi eshikni yopib, oyog'ini artishi, chiroyli salomlashishi va xayrlashishi lozim.

Xat yozishlar doimo sir saqlanishi lozim. Kattalar bolalarning xatlarini so'ramasdan yoki aytmasdan ochishlari yaxshi emas. Bu ularni ota-onalariga nisbatan bo'lgan ishonchni so'ndiradi. Er-xotinlar bir-birining sirlari bilan qiziqish, xatlari va narsalarini titish, ayb topishga intilish, tekshirish yaramaydi. Bu vaziyatni engillashtirmaydi, aksincha og'irlashtiradi. Qaynona-qaynota ham yoshlarning sirlari bilan qiziqishi, ular berkitgan ma'lumotlarni bilishga intilishi noo'rindir. Ular nafaqat farzand, balki shaxs ekanliklarini ham yoddan chiqarmaslik lozim. Bu ularning shaxsiyatiga tegadi.

Bir-birining xonasiga kirishdan oldin eshikni taqqillatishi shartmi? Bu borada har bir oilaning o'ziga yarasha qoidalari bor. Har holda ertalab yoki kechqurun xonaga kirganda taqqillatmoq kerak. Bizda qaynota nafaqat yotoqxona, balki kelin uchun ajratilgan ikki xonaga ham odob yuzasidan kirmaydilar. Qaynonalar kiraveradilar. (Ayol ayolga sirdosh sifatida). Ba'zida esa kelinlar hatto qaynonanlaridan ham uyalishadi. (O'g'illarining ayoli sifatida). Qadimda esa qaynona tugul ona ham bunday vaziyatlarda hayo pardasi ortidan ish ko'rar edi. Qizning ota-onasi esa umuman kuyovning uyiga qadam bosmaslikka harakat qilardilar. Har holda ota. Buni begonalikdan emas, balki odob yuzasidan qilinar edi.

Dasturxon atrofida o'tirganda «yoqimli ishtaha» deyish shart emas. Ammo taom uchun minnatdorchilik bildirish lozim.

Er-xotinlik mulozamati – bu san'at. Hozirda ko'pchilik agar er ayoliga tavozeli bo'lsa, oilada ayol hukmron ekan degan noto'g'ri fikrga keladilar. Ayol erini sevsa, hurmat qilsa – unga buni o'rgatishning keragi yo'q.

### **Oilada o'zini tutish etiketi erkaklar:**

- Doimo ayoli kiygan libosi bo'yicha biron bir munosabatni bildirish lozim.
- Rafiqasining oldida boshqa ayollarga o'grilib qaramaslik joiz;
- «Seni boqyapman» deb da'vo qilish noo'rin – bu erkak burchidir;
- Uyda yarimyalang'och holatda yurmaslik;
- ishga bormaydigan vaqtda uydin chiqishdan oldin ayoliga qaerga borayotganini aytish «erkaksiz yashashga o'rganib qolishning» oldini oladi;
- pishirilgan taomni tanqid qilish yaramaydi, kezi kelsa boshqa biron vaziyatda gap orasida aytish mumkin;
  - ayolingiz uyda nima ish bilan band ekanligiga ba'zan qiziqib qo'yish kerak;
  - rafiqasi bilan ro'zg'or masalalaridan tashqari boshqa mavzular bo'yicha ham suhbatlashib turiish munosabatlarni mustahkamlaydi, ziddiyatlarni oldini oladi.

### **Ayollarga maslahatlar:**

- turmush o'rtog'iga narsalar olayotganda, dugonalarning emas, uni o'zining ham didi bilan qiziqqan ma'qul;
- Eringiz yaxshi ko'rgan taomni ko'proq tayyorlash uning kayfiyatini yaxshilaydi;
- Uning uchun qadrli bo'lgan narsalardan foydalish munosabatlarni suiste'mol qilish bilan baravardir;
- Davrada barcha uchun allaqachon ma'lum bo'lgan voqeani aytib berayotganda ham, uning so'zlarini kiprik qoqmasdan diqqat bilan eshitish kerak. Uning gapini bo'lmang. So'zlariga ishonchsizlik bildirish uni erga uradi;
- Bolalarni oldida otani tanqid qilish nafaqat eringizni sizga bo'lgan munosabatini yaxshilamaydi, balki bolalarni ham uy boshlig'iga nisbatan hurmatini yo'qotadi. Bunda bolalar ota-onani omadsiz oila a'zolariga qaragandek munosabat qilishlariga olib kelishi mumkin;
- Nazorat va tekshiruv o'rtasiga olish yaramaydi. Bu uni xafa qilishi mumkin. Juda zaruriyat tug'lsa, va bu tez-tez takrorlanadigan taqdirda bolalarni shirin tillaridan foydalagan ma'qul.
- Onasiga bo'lgan tabiiy bog'lanishini tanqid qilish noto'g'ri. Bu uni mustaqil erkak sifatida erga uradi.
- Uni maqtab turish, uning maslahatini qabul qilib turish lozim;
- U yoqtirmagan mehmonlarni taklif qilish, unga yoqmaydigan joylarga mehmonga borish tavsiya etilmaydi.

Oyat va xadislarda ham ayollarga yaxshi muomalada bulish xaqida ko'p martalab ta'kidlangan. Xazrat Rasulullox sallolloxu alayxi vasallam: “Mu'min kishi mu'mina ayoldan nolimasin, agar uning bir xulqidan norozi bulsa, ikkinchi xulqidan rozi buladi”, deydi. (Imom Muslim rivoyati).

Bu hadisi sharifda aytilayaptiki, inson bolasi nuksonsiz va aybsiz bulmaydi. Shuning uchun erkak kishi ayolning ayrim nuksonlariga chidam va sabr bilan qarashi zarur, chunki har bir insonda bir necha ijobiy hulk va sifatlar bor. Yaxshi gap bilan sekin-asta nuqsonlarni tugatish mumkin va yaxshi sifatlarini taraqqiy ettirish mumkin.

Xazrat Rasululloh sallollohu alayhi vasallamdan ayolning erdagi xuquqlari nimadan iborat deb so'raganlarida, Rasululloh: "Taom esang xotiningga ham edir, yangi kiysang, xotiningga ham yangi kiyim olib ber", dedilar (Abu Dovud rivoyati).

Erning xotindagi haqlari ham oyat va hadislarda bayon kilingan: "Agar ma'siyatga (gunohga) yurmasa xotin erga itoat etishi kerak, uydagi ashyoni sarishta qilib saqlash ham ayolning burchidir. Eridan ruxsatsiz xotinlar, hatto ibodat bo'lsa ham, nafl ruza tutmasligi zarur, eridan ruxsatsiz uydan chikib ketmasligi va eri norozi bo'ladigan ishni qilmasligi kerak".

### **Oilaviy tantanalar**

Agar siz oilaviy tantana uyushtirib, o'z uyingizga ko'proq mehmon taklif qilmoqchi bo'lsangiz, albatta, etarlicha turli xildagi sovuq gazaklar haqida o'ylab ko'rish kerak. Bunday mehmondorchilik mezbonlar uchun qulay, mehmonlar sog'lig'i uchun foydalidir. Bunday holatda mezbonlar bir pas mehmonlar o'tirib suhbatlashib olishga imkon topiladi. Mehmonlar ham o'zlarini erkinroq his qiladilar, ma'lum bir qoidaga qarab emas, istagan vaqtlarida tanovul qilish imkoniyati paydo bo'ladi. Bunday «usul» da mehmon kutish uchun albatta oldindan tayyorlanib olish zarur – ana shunda, tinch sharoitni vujudga keltirib, bevosita suhbat qilishga erishish mumkin.

Odatdagidek, stoldan boshlaymiz. Uyidagi eng katta stolni tanlash va polgacha tushib turadigan oppoq dasturxon yozish lozim. Stolni mehmonlar uch tarafdin yaqinlashishlari uchun devorga qadab joylashtirish kerak. Stolning eni bo'ylab faqat uchdan ikki qismidagina foydalanish yaxshiroq, zero haddan ziyod devorga yaqin taomni olmoqchi bo'lgan mehmon bilmasdan to'kib yoki turtib yuborishi mumkin. Ba'zida uni mehmonxonani markaziga joylashtirish ham mumkin. Bunda taxminan qancha mehmonlar tashrif buyurishiga bog'liq.

Stolning ikki yoniga to'p bilan kosalar, qoshiqlar va ichimlik uchun salfetka solingan idishlar qo'ying. Ba'zida milliy «stolimiz» – xontaxta joy masalasini to'g'ri hal qiladi. Uyingizni kichkina deb bilgan paytda xontaxtadan foydalanish mumkin. Agar joy bo'lmasa qiyaliroq stoldan foydalanish mumkin. Xizmatdan mezmonlarning ko'ngli to'q bo'lsa ham bo'ladi. Mehmonlar o'z o'ziga xizmat ko'rsatadi. Uy egalari vaqtida kosalarni toza idishlarga almashtirib tursalar bas.

### **Oiladagi yoshi kattalar bilan munosabat**

Avvalambor – odob va tartib. Odob sizni botiniy munosabatlaringizga yordam bersa, batartiblik tashqi masalarda muvaffaqiyat keltiradi. Ko'p hollarda yosh oilalar ota-onalari bilan bir uyda yashashlariga to'g'ri kelib qoladi. Bunday vaziyatlarda, albatta yoshlar kattalarni hurmat qilishlari, ularga qattiq gapirmasliklari, ularga nisbatan tavoze'lik bo'lmoqliklari kerak. Ularning fikrlariga va ixtiyorlariga hurmat bilan qarashlari lozim.

Qaynona bilan birga yashash ko'pincha ziddiyatlarni keltirib chiqaradi. Chunki uyda birdaniga ikkita uy bekasi paydo bo'lib qoladi. Xo'sh, unda ular qanday huquqqa ega va ro'zg'ordagi bekalik majburiyatlarni qanday taqsimlashi mumkin? Bunday vaziyatda universal javob topilmaydi. Ammo ma'lum bir qoida va maslahatlar bor.

Birinchidan uy bekalik huquqiga ikkalalari ham egadirlar. Kelin nafaqat o'qish, ish bilan band bo'lib, uy ishlari bilan shug'ullanishga vaqti bo'lmasligi mumkin. Ammo baribir uning uy bekalikda huquqi bor. Ikkinchi tarafdin, qaynona yoki ona sog'lig'i yaxshi bo'lmagani uchun uy yumushlari bajarishga imkoni bo'lmasligi mumkin. Lekin u hurmatga loyiq, uyning to'ri uniki bo'lishi lozim. U oilaviy tadbirlarning barchasida e'zozli mehmon sifatida ishtirok etadi.

Kelin yoki kuyovni ko'rgani kelgan yoshlar bilan onalarning o'tirish unchalik shart emas. Odatga ko'ra yosh mehmonlar kelishgach, dasturxonni ona fotiha bilan ochib beradi. Ketishda esa ham «javobni» ular berishlari lozim.

Yoshi kattalarning yoshlar tomonidan qilingan mulozamatini juda xush ko'rishlariga e'tibor berin lozim. To'g'ri, hozirda bunday masalaga e'tibor bermaydigan oilalar ham bor. Oiladagi sizga bo'lgan yaxshi munosabatdan g'ururlanib, shirinso'zlik va adablilikni unutmang. Doimo shirinso'zlik bo'lish joiz. Ikkiyuzlamachilik va munofiqlikni ishga solmang! To'g'ri gapiring, ammo chiroyli gapiring. O'zini hech qachon erga urmaslik kerak. Siz tomonidan so'zlayotgan shirinso'zlarning hammasi «yashash uchun bo'lgan kurash» emas, aksincha odob yuzasidan ekanligini bildiring. Ayniqsa, qizg'in, xursandchilik kunlarida hammaning oldida qaynonangizni charchab qolishidan «qo'rqib» unga dam olishni maslahat bermang. Umuman, qarilikni ta'kidlab turadigan ifoda usullaridan saqlanish yaxshiroq.

Qaynonalar yoshlarning shaxsiy hayotiga, ularning o'zaro munosabatiga aralashmasliklari lozim. Bu madaniyatsizlikdir va sizni ularni oldida erga uradi. Ayrim xollarda qaynona va kelin andishini yig'ishtirib qo'yib, har birlari o'z gaplarini o'tkazishga harakat qilishlarini kuzatishimiz mumkin. Bunday kelishmovchiliklarni oldini olish uchun kattalar yoshlarning kiyinishida, sochlarini turmaklashida, yoqtirgan kuy va ashulalari, shuningdek, ba'zi boshqa masalalarda ularni o'z xollari qo'yishlari lozim. Yoshlar ham, o'z navbatida iloji boricha ota-

onalarni tushunishga intilishlari, ularning g'ashiga tegadigan noo'rin qiliq va odatlardan o'zlarini tiyilishlari kerak.

Kelin kelinligining birinchi kunidanoq hamma narsani keragicha bilishi, katta tajribaga ega bo'lgan qaynonasi darajasida turishi juda qiyin. U ham mayli-ya, lekin bilishni istamasa qiyin. Shuning uchun onalar qizlariga ovqat pishirishni, meva va sabzavotlarni qishga sharbat, tuzlama, murabbolar tayyorlashni, uy-joyni saranjom-sarishta tutishni, did bilan mehmon kutishni va shu kabi uy-ro'zg'or ishlarini o'rgatishga alohida e'tibor berishlari zarur.

Kelinlik vazifasidan tashqari qaynona va qaynotalarning ham vazifasi borligini unutmang. Bir nima olishdan asosiysi – mehringizni ayamang. Uy va o'g'lingizni ro'kach qilavermang. Minnat farzandning shaxsiyatiga tegadi. Ota-ona minnatni kechirishi mumkin, lekin farzand ... Chunki ot–ona o'g'liga bog'liq bo'lishni baxt deb biladi, ammo farzand ota-onaga bog'liq bo'lishni umuman hohlamaydi. O'g'lingiz bo'lmasa, u boshqa kishiga turmushga chiqishi mumkin edi. Uyi bo'lmasa, o'g'lingizga qiyin bo'lardi. «Mening davrimda ...» yoki «Men unday qilardim, bunday qilardim» degan gaplarni kamroq aytgan ma'qul. Agar yoshlarni o'z hayotlaridan mamnun bo'lishlarini, shukr qilib yashashni o'rgatmoqchi bo'lsangiz – o'zingiz namuna bo'lish lozim. Bolalar doimo bolaligicha qoladi. Ular sizning so'zingiz bilan amalingiz qandayligini solishtiradilar. Bolalarni doimo duo qiling. Kattalar kichiklarga bizda rahmat demaydilar. Ammo yaxshi niyat bilan qilingan samimiy duo kuchliroq ta'sirga ega.

Ba'zida ota-onani oldida o'tirib, ularni ko'nglini oling, hadyalarni o'zingiz qiling, kelin o'zi topshirgan sovg'a bilan, (garchi sizning hisobingizdan bo'lsa ham) siz topshirgan sovg'adan er bilan osmonchalik farqi bor.

Qaynonalarga bir necha maslahatlar: juda ko'p narsa qaynonalarga bog'liq. Yoshlarning hayotiga aralashuvni kamaytirishlari maqsadga muvofiqdir. O'zingizni tanbeh beraverishdan tiying. Keliningiz yoki kuyovingizdan onalik da'vo qilmang (har holda ona bitta bo'ladi). O'g'il oldida kelinni, qiz olida kuyovini «muho-kama» qilish munosabatlarni yanada ziddiyatlashtiradi. Hadeb shikoyat qilavermaslik kerak. Minnatdorlik tuyg'usi nima ekanligini bilmagan ota-onalar o'z farzandlaridan buni kutishlari qiyin masala. So'ralmagan tanbeh yoki buyruqlardan o'zni tiyish zarur. «Xonangiz betartib» yoki «Idishlarni darhol yuvib qo'yish kerak» qabilidagi «maslahatlar» – birovning hayotiga aralashuvdir. Garchi yoshlar bizga yaqin bo'lsalar-da, ularning o'z hayotlari va oilalari borligini unutmaslik joiz. Bu esa ota-onalarning ham o'z hayotlari bor ekanligini anglatadi. O'z hayotining davomini bolalarda davom ettirmaslik lozim. Ular o'z hayoti uchun o'zlari javob berishlari, o'zlari yashashlari joiz. Ushalmagan orzular, yoki armonlar, alam va ginalar bolalar hyotiga “o'tib” ketmasligi zarur. Agar bolalar bilan yashash qiyin bo'lsa, bu ota-onaning aybi. Bola tarbiyasida qandaydir xato o'tgan. Shaxs bo'lib voyaga etgandan

so'ng, o'zi ota-onalikka da'vo qilayotgan bir paytda bunday aralashuv befoyda. Men bolam uchun qayg'uryapman qabilidagi "bahonalar" sizni hamon tinch qo'ymayotgan nafs ekanligini unutmang. Bunday holatda Zigmund Froydning "sublimatsiya" nazariyasi qo'l keladi. Nafsni boshqa – ijobiy tomonga yo'naltirish maqsadga muvofiq. Ya'ni o'z hayotingizni yo'lga qo'ygan ma'qul. Kerakli muolajalar, sanatoriy yoki dam olish maskanlari, chiroyli shaharga sayohatlar, kitob mutolaasi – xullas o'zini hursand qilishning yo'llari ko'p. Shunday qilingki, bolalar sizga talpinsinlar, siz ularga emas.

### **Qo'shnilar**

Bir «dom»da turadigan qo'shnilar garchi bir-birlarini yaxshi tanishmasalar-da, ko'rishishlari shart. Qo'shnilarning burchlari ko'pdir, ammo asosiysi – boshqalarga kamroq halaqit berish. Bu quyidagini bildiradi: bolalarni to'polon qilishlariga, derazadan baqirishlari va sakrashlariga ruxsat berish; radio ovozi baland qilish; bolta bilan biror narsa maydalash, uydagilar bilan janjal qilish, trubada mashq qilish yaxshi emas. Agar mehmondorchilik yoki ta'mir qilish uchun birovning tinchini buzishga to'g'ri kelib qolsa, bu haqda qo'shnilarni ogohlantirib qo'yish lozim. Har holda ular bu shovqinning tugash paytini taxminiy bilishadi va bir oz hotirjam bo'ladilar.

Tabiiyki, qo'shnilar o'z telefonlaridan foydalanishga izn berar ekanlar, faqat zaruriyat nuqtai nazardan ularni bezovta qilish mumkin. Qo'shnichilik yuzasidan biz shakar, dazmol kabi narsalarni berib turamiz, ammo ularni o'z vaqtida qaytarish shart. Bizning buyumlarizga bo'lgan qo'shnilarning «hujumi» chegaradan chiqsa, unda ularga: «Afsuski, chang yutgich yaxshi ishlaymapti, yordam berolmayman» deyishga to'g'ri keladi. To'g'ri, qo'shnilarni xafa qilish yaxshi emas, ammo boshqa chora yo'q. Qo'shnilarning santexnikning manzilini olish uchun uyiga bostirib kirib, yana qanday yashashlari bilan qiziqish yaramaydi. Agar qo'shni ushbu manzilni yo'lakda turib aytsa, buni shartli holat sifatida qabul qilishi lozim.

Do'kondan qaytayotgan qo'shnining xaltasi bilan qiziqish, kim qaerdan pul topayotganini g'iybat qilish to'g'ri emas. Qiya ochilgan eshikdan oyoq tovush eshitilgandayoq, kim qaerga kim bilan va nima uchun ketayotganiga qiziqish yaramaydi. Atrofdagilarning shaxsiy hayoti madaniyatli odamlar uchun mavzu bo'la olmaydi.

Zamonaviy hayot jabhasida kimdir devor ortida pianino chalishi kabi shovqinlarning noqulayliklaridan qutulishning iloji yo'q. Hech qaysi qonun bunday «harakatlarni» ta'qiqlamaydi. Ayniqsa, bu haqda qo'shnilar bilan kelishib olish mumkin bo'lsa. Bunday vaziyatlarda, masalan, devorga tovush o'tkazmaydigan narsalar osib qo'ygan ma'qul. Boshimizdan do'ppillagan oyoq tovushlari ham ko'p

noxushliklar paydo qiladi. Tarbiyali odamlarga uyda shippak kiyib yurish katta mehnat talab qilmaydi.

Umumiy kvartirada noxush ziddiyatlar ko'p bo'ladi. Aynan uyda boshqalarga qarshi o'laroq erkinroq yashashga, o'zi istagan narsa bilan shug'ullanishga har birimiz intilamiz. Eng yomoni, kundalik mayda ziddiyatlar bora-bora "harbiy vaziyatni" keltirib chiqaradi. Bu darajaga olib kelmaslik uchun uning oldini olish lozim. Umumiy kvartirada umumiy joyni egallash masalasini oldindan kelishib olgan yaxshi. Jamoat sarhadlari – yo'lak, oshxona, vannaxonada «oyoq uchida yurgan» ma'qul. So'zlashuvda, uy kiyimida, hatti-harakatlarda e'tiborli bo'lish lozim. Yangi zamonaviy falsafiy yo'nalish namoyondalaridan biri Jan Pol Sartr inson faqat erkin jamiyatdagina erkin bo'la oladi degan g'oyani ilgari suradboi.<sup>1</sup> Boshqalarning erkini «bo'g'ib» qo'yib, erkin yashashni umid qilish nodonlikdir.

Uyingizning xonasida yashashga qaramay, ijarachi ham tinch yashash huquqiga ega. Bu – uning xonasi, unga pul to'laydi. Uy egalari bu xonaga eshikni taqillatmasdan kirmaydilar, qaerga ketyapti, qaerdan kelyapti, kimni qabul qilyapti, kim ko'ylagini yuvib beryapti, nima uchun kefir ichishni yaxshi ko'radi, jamadonlarini ko'rish yaramaydi. Bularning hammmasi ba'zida yodlab turish kerak bo'lgan oddiy narsalardir.

Shu o'rinda ham ijarachi uy egalarining jihozlariga ehtiyotkor bo'lishi lozim. Uy egasi bilan ijarachi o'rtasidagi huquqlar teng emasligini u hamisha yodda tutmog'i lozim. Sirasini aytadigan bo'lsak, o'sha erdagi odatlarga moslashishi shart emas. Budilnikdan foydalanish mumkin, ammo butun uyni oyoqqa turg'izish shart emas, uyda kiyish mumkin bo'lgan xalat, pijamalarda yurish mumkin. Kiyimlar va narsalar har joyga tashlab ketmaslikka, o'tkir hidli ovqat tayyorlamaslik va boshqa uy egalariga hush kelmaydigan narsalarni qilmaslik lozim.

### **Foydalaniladigan adabiyotlar ro'yxati**

#### **Rahbariy adabiyotlar:**

1. Mirziyoev Sh.M. – Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston Davlatini birgalikda barpo etamiz.- T., O'zbekiston. 2016.
2. Mirziyoev Sh.M. – Qonun ustivorligi va inson manfaatlarini ta'minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. – T., O'zbekiston. 2017.
3. Mirziyoev Sh.M. – Tanqidiy taxlil, qat'iy tartib intizom va shaxsiy javobgarlik – xar bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. T., O'zbekiston. 2017.
4. O'zbekiston respublikasi Vazirlar Mahkamasining Qarori "Davlat boshqaruvi organlari va mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari xodimlarining odob-axloq namunaviy qoidalarini tasdiqlash to'g'risida"

<sup>1</sup> Sartr J.P. Ekzistensializm to'g'risida. A.Sher tarjimasini. "Jahon adabiyoti jurnali". – T., 2011, 2-soni.

(O'zbekiston respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2016 y., 9-son, 94-modda)lex.uz

5. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – engilmas kuch. –T.: Ma'naviyat, 2008.

### **Darsliklar va o'quv qo'llanmalar:**

1. Abdulla Sher. Axloqshunoslik. Darslik. –T.: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2010.
2. Agzamova N. Etika. Uslubiy qo'llanma. –T.: OOO “NORI”, 2013.
3. Jahon falsafasi tarixidan lavhalar. G' Q.Nazarov tahriri ostida. –T.: Sharq, 2004
4. Mamashokirov S., Usmanov E. Barqaror taraqqiyotning ekologik xavfsizlik masalalalari. –T.: Fan, 2009.
5. Muhammadjonova L.A., Ortiqova D.O., Abidjanova F.A., Masharipova G.K. Professional etika va etiket. Darslik. - T.: "Adabiyot uchqunlari" 2018.
- 6.M. Kaxxarova, N Agzamova. Etika Uchebnoe posobie. Rizograf imeni Nizami. 2018 god.
- 7.L.Muhammadjonova, F.Abidjanova. Etiket. O'quv qo'llanma. T.: Universitet. O'zMU, 2018.
8. Nurmatova M., Muhammadjonova L., Ma'naviyatning axloqiy asoslari.– T.: Unversitet, O'zMU. 2013.
9. Nazarov Q. Aksiologiya – qadriyatlar falsafasi. –T.: O'FMJ, 2004.
10. Nurmatova M. Shaxs kamolotida axloqiy va estetik qadriyatlar uyg'unligi. – T.: Universitet, 2009.
11. E.Umarov., F.Zagritdinova. “Etika. Prikladnaya etika”. -T.: Noshir, 2012.
12. Husanov B., Gulamov V. Muomala madaniyati. Darslik. –T.: Iqtisod-moliya, 2009.
13. Shermuxammedova N.A. XXI asr fanining dolzarb muammolari G'G' Falsafa va fan metodologiyasi. – T.: Universitet, 2005.

### **Qo'shimcha adabiyotlar:**

1. Arastu. Poetika. Axloqi Kabir. –T.: Yangi asr avlodi, 2004.
2. Aliqulov H. Falsafiy meros va ma'naviy-axloqiy fikr rivoji. –T.: Falsafa va huquq instituti, 2009.
3. Agzamxodjaeva S.S. Ijtimoiy ideal va O'zbekistonda ijtimoiy-ma'naviy taraqqiyot muammolari. Dissertatsiya. Fals. fan. dok. – T.: 2009.
4. Abdulla Avloniy Turkiy guliston yoxud axloq. – T.: O'qituvchi, 1992.
5. Abu Abdullox Muhammad ibn Ismoil al Buxoriy. Hadis. 2. tomlik –T.: O'zbekiston milliy entsiklopediyasi davlat ilmiy nashriyoti, 2008.
6. Jabborov I. O'zbeklar (ana'naviy xo'jaligi, turmush tarzi va etnomadaniyati). –T.: Sharq, 2008.

7. Zagritdinova F.B. Filosofsko-eticheskiy analiz problem sovremennoy biomeditsino' (na primere Respubliki Uzbekistan). Dissertatsiya. Dok. filos. nauk. – T.: 2006.
8. Qaxxarova Sh. Global ma'naviyat globallashuvning g'oyaviy asosi. –T.: Tafakkur, 2009.
9. Madaeva Sh. Milliy mentalitet va demokratik tafakkur. –T.: Falsafa va huquq, 2007.
10. Mahmudov T. Komillik asrorlari. Hayotiy hikmatlar. –T.: Adolat, 2006.
11. Ma'naviyat asosiy tushunchalar izohli lug'ati. –T.: G'.G'ulom nomidagi nashriyot – matbaa ijodiy uyi, 2009 yil.
12. Navro'zova T.N., Zoirov E.X., Yunusova T.S. Tasavvufda inson va uning kamoloti masalasi. – T.: Falsafa va huquq, 2006.
13. Muxammadjonova L.A. Ma'rifatparvar shoirlar – Dilshod Barno va Anbar Otinning axloqiy qarashlari. Dissertatsiya. Fals. fan.nom. – T.: 2005.
14. Nurmatova M.A. Shaxs ma'naviy kamolotida estetik va axloqiy va estetik qadriyatlar uyg'unligi. –T.: Universitet, 2009.
15. Ochilova B. Milliy-ma'naviy yuksalishda meros, qadriyatlar va vorisiylik. –T.: Istiqlof, 2009.
16. Otamurodav S. Globallashuv va millat. –T.: Yangi asr avlodi, 2008.
17. Tillaeva G. Ma'naviyat va komil inson tarbiyasi. –T.: Falsafa va huquq, 2006.
18. Umarov B. Globallashuv ziddiyatlari. – T., Ma'naviyat, 2006.
19. Falsafa: qomusiy lug'at. G' Q.Nazarov tahriri ostida. – T.: Sharq, 2004.
20. Xojiaxmedov A. Mahalla odobi. –T.: Sharq, 2001.
21. Xolmatova M. Oilaviy munosabatlar madaniyati va sog'lom avlod tarbiyasi. – T.: O'zbekiston, 2000.
22. Choriev A. Inson falsafasi. –T.: Chinor ENK nashriyoti, 2007.
23. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Hadis va hayot. Adab. – T.: Sharq 2008.
24. Qur'onov M. Milliy g'oya va o'zbek xarakteri. – T.: Ma'naviyat, 2005.
25. Yakubov Yu.M. Islom ta'limotida shaxs va jamiyat munosabatlari masalasi. Dissertatsiya. Fals. fan.nom. – T.: 2009.

## **SAN'AT ETIKASI**

### **REJA:**

1. San'at etikasining mavzusi va tushunchasi.
2. San'at estetik faoliyatning o'ziga xos turi sifatida.
3. Insonning axloqiy ongiga va xulqiga san'atning ta'siri.
4. San'at sohasidagi medio axborot mojorolari etikasi.

## 5. Postmodernizm.

Axloq va san'at San'at mohiyatan insonning xis-tuyg'ulariga ta'sir ko'rsatishga qodir bo'lgan muhim ma'naviy hodisa bo'lib, u insonning mehnati, aql-idroki, ongu-tafakkurining mahsulidir.

San'at inson faoliyatining ijodkorlik turini anglatib, har bir san'at asarida shaxsning o'ziga xos iste'dodi namoyon bo'ladi.

San'at keng ma'noda, badiiy qadriyatlar, ularni yaratish (badiiy ijod qilish) va iste'mol (badiiy idrok etish) jarayonlarini ham qamrab oladi. «Axloqiylik» uslubi bo'lib, "axloqiylik"ning mohiyati shundaki, uning targ'ibotchilari tarixan turli davrlarda yashaganiga qaramay, badiiy ijodni axloq-odobga bo'ysundirish, ezgulikni san'atning birdan-bir va eng oliy maqsadi sifatida targ'ib etishdir.

San'at va axloqning bosh mavzui inson hisoblanadi. San'at insonning maqsad-manfaatlari, fikr-mulohazalari, his-tuyg'ulari, ichki kechinmalari nuqtai nazaridan aks ettirsa, axloq inson ijtimoiy aloqalari va munosabatlarining mag'ziga singib ketadi. Hayotda axloq-odobga aloqador bo'lmagan biror voqea-hodisa sodir bo'lmaydi. Insonlarning o'zaro munosabatlari va muomalalari axloqning bevosita ob'ekti bo'lib xizmat qiladi. Har bir haqiqiy san'at asarida asosiy ziddiyat sifatida ezgulik bilan yovuzlikning kurashi aks etadi, insonparvarlik, haqiqatgo'ylik, to'g'rilik, adolat, muhabbat, sadoqat singari fazilatlar tarannum etiladi, taqdir, o'lim va o'lmaslik, hayotning mazmuni, baxtga erishish singari muammolar o'rta tashlanadi. Axloqiy ideal muammosi esa har bir badiiy asarning shohtomiri hisoblanadi.

Axloq va axloqiyliksiz yuksak badiiy asar mavjud bo'lmaydi. Barcha san'at asarlari uchun axloqiylik muhim asos hisoblanadi. Ayni paytda san'at axloqiylikning targ'ibotchisi, axloqiy tarbiyaning eng qulay vositasi sifatida ham namoyon bo'ladi. Shuning uchun ham axloqiy tarbiyani mustahkamlashda san'at eng muhim vositalardan biri bo'lib xizmat qiladi. San'at asarlarining tarbiyaviy kuchi shundaki, unda aks ettirilgan qahramonning qiyofasi o'quvchida hayajon, zavq va quvonch uyg'otadi. Masalan, Abdulla Qodiriyning "O'tgan kunlar" romanini o'qiganimizda Otabekdagi mardlik, jasurlik, sevgiga vafodorlik, ota-onaga hurmat, yurtga sadoqat kabi fazilatlarni, Kumushbibidagi iffatlilik, shirinmuomalalik, quvnoqlik, andishalilik, zukkolik, singari insoniy sifatlarni inson kamoli uchun ko'rk berib turishini xis etamiz. Shu orqali badiiy adabiyot insonning qalbiga, uning ruhiyatiga, irodasiga ta'sir qilib, uni tarbiyalaydi, o'zligini chuqur anglab olishiga imkon yaratadi

Asarni estetik idrok etish.

IDROK: predmet va hodisalarning yaxlit qiyofasini aks ettirib, u voqelikni inson sezgi a'zolarining ta'siri orqali belgilovchilik va boshqaruvchilik imkoniyatlarini namoyon qiladi.

BADIIY IDROK: ijod jarayonlarida namoyon bo'lib boradi. Agar ijod jarayoni to'xtasa, badiiy idrok ham to'xtaydi. U ijod jarayonining baxolash mezonini va bu jarayonga ko'mak beruvchidir.

ESTETIK IDROK : badiiy ijod nazariyasini to'laqonli anglash va san'atning ijtimoiy tabiatini ochish imkonini beradi. Estetik idrok jarayonlarida estetik masofa omilining sezilarli o'rni mavjud. M.: teatrdan tomoshabin bir paytning o'zida ham sahna bezaklariga, ham aktyorlarning kiyimlariga, ularning hatti-harakatlariga sinchkovlik bilan nazar tashlaydi.

KINO: Hozirgi paytda yoshlarning kalbi va ongini egallashga karatilgan jiddiy xatarlardan biri "ommaviy madaniyat" nomi bilan industrial asosda ishlab chiqilayotgan "san'at" namunalaridir. Bugungi globalashuv jarayonida barcha davlatlarda odam savdosi, diniy aqidaparastlik, terrorizm kabi illatlar ko'payib bormoqda. Barcha davlatlarda bunga qarshi kurash yo'llari xar – hil bo'lib, bu o'rinda kino san'ati ham o'z hissasini qo'shib kelmoqda. Tomoshabinlarni o'ziga jalb qila olgan "Aldangan ayol", "Tubanlik" filmlari bunga javob bo'la oladi. Huddi shunday "Arosat" filmi ham insonni o'ylashga chaqiradigan filmlar sarasiga kiradi.

INTERNET: Turli sektalar, noqonuniy diniy uyushmalar yoshlarni ekstremizm, terrorizm, missionerlikka moyil, jinoyat qilishdan qaytmaydigan, gilyohvandlikka oson beriluvchan qilib tarbiyalashga urinmoqda.

TATUIROVKA – teri ostiga rang yuborib, turli xil shakl va naqshlar chizish. Tatuировka qildirish avvallari mahbuslarga xos odat edi. Aslida u turli yuqumli kasalliklarni keltirib chiqarishi "ommaviy madaniyat"ni tarqatuvchilarga oydek ravshan. Badanga turli xil shakllarni chizish va chizdirish amallari milliy o'zligimiz va urf-odatlarimizga zid. Na o'zligimizga va na dinimizga to'g'ri keladigan, iymonimiz, jismimizga zarar keltiruvchi bunday amaldan biz o'zimizni va boshqalarni asramog'imiz lozim.

Axloq va san'at San'at mohiyatan insonning xis-tuyg'ulariga ta'sir ko'rsatishga qodir bo'lgan muhim ma'naviy hodisa bo'lib, u insonning mehnati, aql-idroki, ongu-tafakkurining mahsulidir.

San'at inson faoliyatining ijodkorlik turini anglatib, har bir san'at asarida shaxsning o'ziga xos iste'dodi namoyon bo'ladi.

San'at keng ma'noda, badiiy qadriyatlar, ularni yaratish (badiiy ijod qilish) va iste'mol (badiiy idrok etish) jarayonlarini ham qamrab oladi. «Axloqiylik» uslubi bo'lib, "axloqiylik"ning mohiyati shundaki, uning targ'ibotchilari tarixan turli davrlarda yashaganiga qaramay, badiiy ijodni axloq-odobga bo'ysundirish, ezgulikni san'atning birdan-bir va eng oliy maqsadi sifatida targ'ib etishdir.

San'at va axloqning bosh mavzui inson hisoblanadi. San'at insonning maqsad-manfaatlarini, fikr-mulohazalari, his-tuyg'ulari, ichki kechinmalari nuqtai nazaridan aks ettirsa, axloq inson ijtimoiy aloqalari va munosabatlarining mag'ziga singib ketadi. Hayotda axloq-odobga aloqador bo'lmagan biror voqea-hodisa sodir bo'lmaydi. Insonlarning o'zaro munosabatlari va muomalalari axloqning bevosita ob'ekti bo'lib xizmat qiladi. Har bir haqiqiy san'at asarida asosiy ziddiyat sifatida ezgulik bilan yovuzlikning kurashi aks etadi, insonparvarlik, haqiqatgo'ylik, to'g'rilik, adolat, muhabbat, sadoqat singari fazilatlar tarannum etiladi, taqdir, o'lim va o'lmaslik, hayotning mazmuni, baxtga erishish singari muammolar o'rta tashlanadi. Axloqiy ideal muammosi esa har bir badiiy asarning shohtomiri hisoblanadi.

Axloq bilan san'atning o'zaro aloqalari haqida gap ketganda, eng avvalo, ularning juda ham bir – birlariga yaqinlik ekanliklarini ta'kidlamoq lozim. San'at mohiyatan shaxsning xis-tuyg'ulariga ta'sir ko'rsatishga qodir bo'lgan muhim jarayon hisoblanadi. Shuning barobarida, u insonni doimo o'ziga jalb etib kelgan. San'at insonning ehtirosi va tuyg'ulari olamiga singib boradi. Shuning uchun bo'lsa kerak san'at barcha davrlarda insonga hamroh bo'lib kelgan. San'at keng ma'noli tushunchadir. Zero, san'at inson mehnati, aql-idroki, shuuri bilan yaratilgan, vujudga kelgan, ijod qilingan narsalardir. San'at inson faoliyatining ijodkorlik turini anglatib, har bir san'at asarida shaxsning o'ziga xos iste'dodi namoyon bo'ladi. Va nihoyat, san'at insonning mahorati bilan chambarchas bog'liqdir. San'at, keng ma'noda, badiiy qadriyatlar, ularni yaratish (badiiy ijod qilish) va iste'mol (badiiy idrok etish) jarayonlarini ham qamrab oladi. Professor E. Umarovning ta'biricha : “San'at va ahloq o'zaro munosabatlari estetikada o'zak masalalardan biri bo'lib, bu masalaga uch uslubda yondoshiladi. Birinchisi- «ahloqiylik» uslubi deyiladi. Bu uslub Ovrupo nafosatshunosligidagi yunonlar, jumladan Aflotun, yangi lavrda esa Russo va L.N.Tolstoy ijodida kengroq va chuqurroq ishlab chiqilgan. “Ahloqiylik”ning mohiyati shundaki, uning targ'ibotchilari tarixan turli davrlarda yashaganiga qaramay, badiiy ijodni ahloq-odobga bo'ysundirish, ezgulikni san'atning birdan-bir va eng oliy maqsadi sifatida targ'ib etishdir.”<sup>1</sup>

San'at va ahloqning bosh mavzui insondir. San'at insonning maqsad-manfaatlarini, fikr-mulohazalari, his-tuyg'ulari, ichki kechinmalari nuqtai nazaridan aks ettirsa, ahloq inson ijtimoiy aloqalari va munosabatlarining mag'ziga singib ketadi. Hayotda, muayyan jamiyatda ahloq-odobga aloqador bo'lmagan biror voqea-hodisa sodir bo'lmaydi. Insonlarning o'zaro munosabatlari va muomalalari ahloqning bevosita ob'ekti bo'lib xizmat qiladi.

<sup>1</sup> E.Umarov. Estetika T. “O'zbekiston” 1995. B 159

Har bir haqiqiy san'at asarida asosiy ziddiyat sifatida ezgulik bilan yovuzlikning kurashi aks etadi, insonparvarlik, haqiqatgo'ylik, to'g'rilik, adolat, muhabbat, sadoqat singari fazilatlar tarannum etiladi, taqdir, o'lim va o'lmaslik, hayotning mazmuni, baxtga erishish singari muammolar o'rta tashlanadi. Axloqiy ideal muammosi esa har bir badiiy asarning shohtomiri hisoblanadi. Masalan, Alisher Navoiyning Farhodi, Shirini, Shekspirning Romeosi, Julettasi, Oybekning Navoiysi mazkur mualliflar asarlaridagi axloqiy ideallardir. Ularsiz Navoiy, Shekspir va Oybek asarlarini tasavvur qilish mumkin emas.

Bundan tashqari, so'z san'atida, ta'bir joiz bo'lsa, o'ziga xos «axloqiy janrlar» mavjud. Ularni xalq og'zaki ijodida ham, yozma adabiyotda ham uchratish mumkin: maqol, matal, hikmatlar, hikoyatlar, rivoyat, masal, pandnoma va h.k. shular jumlasidandir. Umuman olganda, axloqsiz badiiy asarning bo'lishi mumkin emas, barcha san'at asarlari uchun axloqiylik umumiy zamin ahamiyatiga ega.

Ayni paytda san'at axloqshunoslik targ'ibotchisi, axloqiy tarbiyaning eng qulay vositasi sifatida ham namoyon bo'ladi.

Axloq va axloqiyliksiz yuksak badiiy asar mavjud bo'lmaydi. Barcha san'at asarlari uchun axloqiylik muhim asos hisoblanadi. Ayni paytda san'at axloqiylikning targ'ibotchisi, axloqiy tarbiyaning eng qulay vositasi sifatida ham namoyon bo'ladi. Shuning uchun ham axloqiy tarbiyani mustahkamlashda san'at eng muhim vositalardan biri bo'lib xizmat qiladi. San'at asarlarining tarbiyaviy kuchi shundaki, unda aks ettirilgan qahramonning qiyofasi o'quvchida hayajon, zavq va quvonch uyg'otadi. Masalan, Abdulla Qodiriyning "O'tgan kunlar" romanini o'qiganimizda Otabekdagi mardlik, jasurlik, sevgiga vafodorlik, ota-onaga hurmat, yurtga sadoqat kabi fazilatlarini, Kumushbibidagi iffatlilik, shirinmuomalalik, quvnoqlik, andishalilik, zukkolik, singari insoniy sifatlarni inson kamoli uchun ko'rk berib turishini xis etamiz. Shu orqali badiiy adabiyot insonning qalbiga, uning ruhiyatiga, irodasiga ta'sir qilib, uni tarbiyalaydi, o'zligini chuqur anglab olishiga imkon yaratadi

Asarni estetik idrok etish.

**IDROK:** predmet va hodisalarning yaxlit qiyofasini aks ettirib, u voqelikni inson sezgi a'zolarining ta'siri orqali belgilovchilik va boshqaruvchilik imkoniyatlarini namoyon qiladi.

**BADIIY IDROK:** ijod jarayonlarida namoyon bo'lib boradi. Agar ijod jarayoni to'xtasa, badiiy idrok ham to'xtaydi. U ijod jarayonining baxolash mezonini va bu jarayonga ko'mak beruvchidir.

**ESTETIK IDROK :** badiiy ijod nazariyasini to'laqonli anglash va san'atning ijtimoiy tabiatini ochish imkonini beradi. Estetik idrok jarayonlarida estetik masofa omilining sezilarli o'rni mavjud. M.: teatrdan tomoshabin bir paytni

o'zida ham sahna bezaklariga, ham aktyorlarning kiyimlariga, ularning hatti-harakatlariga sinchkovlik bilan nazar tashlaydi.

KINO: Hozirgi paytda yoshlarning kalbi va ongini egallashga karatilgan jiddiy xatarlardan biri "ommaviy madaniyat" nomi bilan industrial asosda ishlab chiqilayotgan "san'at" namunalaridir. Bugungi globallashuv jarayonida barcha davlatlarda odam savdosi, diniy aqidaparastlik, terrorizm kabi illatlar ko'payib bormoqda. Barcha davlatlarda bunga qarshi kurash yo'llari xar – hil bo'lib, bu o'rinda kino san'ati ham o'z hissasini qo'shib kelmoqda. Tomoshabinlarni o'ziga jalb qila olgan "Aldangan ayol", "Tubanlik" filmlari bunga javob bo'la oladi. Huddi shunday "Arosat" filmi ham insonni o'ylashga chaqiradigan filmlar sarasiga kiradi.

INTERNET: Turli sektalar, noqonuniy diniy uyushmalar yoshlarni ekstremizm, terrorizm, missionerlikka moyil, jinoyat qilishdan qaytmaydigan, giyohvandlikka oson beriluvchan qilib tarbiyalashga urinmoqda.

TATUIROVKA – teri ostiga rang yuborib, turli xil shakl va naqshlar chizish. Tatuировka qildirish avvallari mahbuslarga xos odat edi. Aslida u turli yuqumli kasalliklarni keltirib chiqarishi "ommaviy madaniyat"ni tarqatuvchilarga oydek ravshan. Badanga turli xil shakllarni chizish va chizdirish amallari milliy o'zligimiz va urf-odatlarimizga zid. Na o'zligimizga va na dinimizga to'g'ri keladigan, iymonimiz, jismimizga zarar keltiruvchi bunday amaldan biz o'zimizni va boshqalarni asramog'imiz lozim.

POSTMODERNIZM: Postmodernizm modernizmdan keyingi degan ma'noni bildiradi. Bunda san'atkorlar odatda ommaviy janrlarga. Masalan. detektiv, komediya, melodrammalarga murojaat qilish, ular vositasida ommani qiziqtirgan. ularning diqqat-e'tibor ini tortgan syujet-mazmundan foydalanishga harakat qiladilar. Ayniqsa bu o'rinda ekran, kino, teatr imkoniyatlaridan kengroq foydalanish alohida o'rin tutadi. Postmodern san'atiga oid asarlarda asosiy e'tibor bevosita san'atning o'ziga qaratiladi. Xususan san'atda inson o'z erkinligi, o'z ijodiy betakrorligi, o'z ma'naviyatini to'la ma'noda namoyon eta oladigan bo'lishi kerak. Shu ma'noda san'at nafaqat o'z ijodkornigina emas, balki shu bilan birga san'atning barcha muxlislarini ham ulug'laydi. Postmodernizm tarafdorlarining fikricha, san'at o'ziga qaytadi. Shu ma'noda san'atning maftunkor qudrati va uning hayotbaxsh tasviri o'zini to'la namoyon etib, odamlarga quvonch va shodlik bahsh eta oladi. Postmodernizm modernizmdan keyingi degan manoni bildiradi. Bunda san'atkorlar odatda ommaviy janrlarga. Masalan. detektiv, komediya, melodrammalarga murojaat qilish, ular vositasida ommani qiziqtirgan. ularning diqqat-e'tibor ini tortgan syujet-mazmundan foydalanishga harakat qiladilar. Ayniqsa bu o'rinda ekran, kino, teatr imkoniyatlaridan kengroq foydalanish alohida o'rin tutadi. Postmodern san'atiga oid asarlarda asosiy e'tibor bevosita san'atning o'ziga qaratiladi. Xususan san'atda inson o'z erkinligi, o'z ijodiy betakrorligi, o'z

ma'naviyatini to'la ma'noda namoyon eta oladigan bo'lishi kerak. Shu ma'noda sanat nafaqat o'z ijodkornigina emas, balki shu bilan birga san'atning barcha muxlislarini ham ulug'laydi. Postmodernizm tarafdorlarining fikricha, san'at o'ziga qaytadi. Shu manoda san'atning maftunkor qudrati va uning hayotbaxsh tasviri o'zini to'la namoyon etib, odamlarga quvonch va shodlik bahsh eta oladi.

Insoniyat borlig'ini tushunish tarixidagi «yangi» sahifa «postmodern» deb ataladi. Postmodern «yosh»ini uni badiiy madaniyatning avangardizmga o'xshash hodisa sifatida tushunishdan kelib chiqib talqin qilsak, u XX asr boshida paydo bo'lgan deb aytishimiz mumkin. Postmodernning «qoidalarga ko'ra yashashni xohlamaslik, aql-idrok bilan yashash» degan asosiy shiorini birinchi o'ringa qo'ysak, bu hodisaning yoshi ikki yuz yil bilan o'lchanishi mumkin, A.Shopengauer va F.Nitsshe nomlari postmodernistik falsafa uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Zero, bunday tushuniladigan hayot vaziyatlarini aks ettiruvchi tamoyillar aynan shu faylasuflar davrida ta'riflab berilgan.

«Yangi» (modern) deb tavsiflangan davrdan keyin kelgan davr «postmodern» tushunchasi bilan ifodalanadi. Lekin kelish - davom etish degani emas. Postmodern bu mantiqni to'liq tasdiqlagan. Modern yutuqlari postmodern uchun asos emas, balki o'zlashtiriluvchi qism bo'ldi va butunlay qayta tushunib etish lozim materialga aylandi. Shu nuqtai nazardan «postmodern» tushunchasidan nomutanosib, beqaror, «noaniqlikdan esankirab qolgan» dunyo sifatida tarixdan o'rin olgan hozirgi davrning o'ziga xos xususiyatini ifodalash uchun foydalanish mumkin.

Dunyoni sezishning yangicha tarzi sifatidagi postmodern o'z tashuvchisi sifatida insonning yangi, o'ziga xos tipini nazarda tutadi. Bu erda mazkur tipni F.Nitsshening o'ta qudratli odamiga o'xshatish o'rinli bo'ladimi yoki aksincha. Ayrim «Men» kvant kabi mutlaqo nomuayyan xususiyat kasb etadimi, aniq emas. Ayni holda qandaydir tushunarsiz kishilar ham muhim shaxsga aylanishi ehtimoldan xoli emas. Ammo u normativlik, oqilonalikning har qanday ko'rinishlarini butunlay inkor etishi shubhasiz. Bunday «hozirgi g'alati odam»ga xaotik xulq-atvor ko'proq xos, u ko'p jihatdan tasvirlab bo'lmaydigan odam, unga «bari bir», ya'ni u hamma narsani qilishi mumkin. Postmodern tipidagi odamlar xohlagan gapini gapiradi, xohlagan fikrlaridagi o'ylarini bemalol atrofga etkazadilar, xohlagan ishini qiladi, o'zlari xohlagan tarzda tasvirlaydi va buni hayotning haqiqiy in'ikosi deb hisoblaydi.

Postmodernizm yashab qolishdan (tirikchilikdan) manfaatdor bo'lgan, erkin jamiyat qurish, yangi ma'naviy qadriyatlarni yaratish va tarqqiyot istiqbollarini yaratayotgan odmlar uyushmasining, jamoatchilikning aksi sifatida ishlaydi. Ularni tahlil qilar ekan modern insonlar hayotining nihoyaviy asoslarini rivojlantirish, ular hulqining motivlarini aniqlash, har birimizning faoliyatimiz bizning boshqa odamlar bilan munosobatimizga bog'liq ekanligi ko'rsatib beradi. Boshqa odamlarning va

yo'limizni o'zgartirishga ta'sir etadi. Biz boshqalar bilan chambarchas bog'liq, biz o'tgan avlodlarni o'rnini egallaganmiz; bir-birimiz bilan doimo muomaladamiz va hozirgi hayotimizning takrorlanmas, unikal va individual ekanini faqat boshqlar, bilan birga kechganligi tufayligina payqaymiz; nihoyat, ertami – kechim bizning hayotdagi o'rnimizni boshqalar egallashini ham tushunib qolamiz.

Estetik ideal o'ziga mos go'zallik, ulug'vorlikni yoki mo'jizaviylikni ko'proq san'atdan topadi. Shu tufayli u doimo erkinlikni talab qiladi. Avvalo san'at asari orqali san'atkor voqelikni o'z ideali prizmasidan o'tkazib tasvirlaydi, boshqacharoq aytganda, o'z ideallarini san'at vositasida moddiylashtiradi: binoga, haykalga, romanga, spektaklga, rasmga, badiiy asarga va boshqa ma'naviy hodisalarga aylantiradi: san'atkor erkin harakat qiladi. Biz esa o'z ideallarimizni ulardagi obrazlar orqali tanlaymiz, ularni o'zimiz uchun ma'lum muddatga yoki bir umrga namuna qilib belgilaymiz, bu holatdagi xatti-harakatimiz ham erkinlik orqali ro'y beradi. Ya'ni, san'at har bir insonni individual o'ziga xosligini hisobga olgan holda, uning o'z estetik idealini obrazlar vositasida shakllantiradi.

**Avangardizm**<sup>1</sup> (frans. avantgarde) — XX asr badiiy madaniyatidagi yo'nalish. U mavjud me'yor va an'analarni rad etib, yangi ifodaviy vositalarni yangilik deb qarashdan nariga o'tmaydi. Badiiy obraz yaratishda avvaldan mavjud klassik an'analarni tan olmasdan, yangi ifoda vositalari izlashda shaklga zo'r berish avangardizmning asosiy xususiyatidir. Avangardizm modernizm bilan uzviy bog'liq bo'lib, anarxistik-sub'ektivistik dunyoqarashni aks ettiradi. Avangardizm tamoyillarini ekspressionizm, kubizm, futurizm, dadaizm, syurrealizm san'at turlarini bog'lang kabi oqimlar qabul qilgan. Avangardizm musiqada ham namoyon bo'lgan.

**Kubizm**-XX asr boshlarida vujudga kelgan borliqni tasvirlashning yangicha uslubi, asoschilari fransuz rassomlari Pablo Pikasso va va Jorj Brak xisoblanadi. Bir qarashda abstrakt va xandasiy shakllardan tashkil topgan kubizm san'ati o'zida real borliqni o'ziga xos shakllarda namoyish etadi, Lekin shu real buyumlarni bir vaqtning o'zida tarli tomondan tasvirlarib tamoshabin ko'z o'ngida uning hajmli ko'rinishini tasavvurini berishi kerak..Shuning uchun ham kubistlar tasvirlanadigan obektni bo'laklarga ajratib uning old, yon va orqa tomoni ko'rinishini bir vaqtning o'zida ko'rishni taklif etadilar. Natijada tamoshabin mazkur obektni go'yo har tomondan ko'rgandek bo'lishi, buyum haqida hajmli tasavvur paydo bo'lishi kerak, Shu o'rinda P.Pikassoning «Velonchel» («Skripka») asarlari e'tiborli. Agar Uyg'onish davridan boshlab hajmli buyumlarni fazoviy kenglikda, perspektiva qonun qoidalarini asosida uning illyuzion tasvirini ishlashga intilish mavjud bo'lgan bo'lsa kubistlar ikki o'lchamli qog'ozda ikki o'lchamli shakl bilan uni ko'rsatishga

<sup>1</sup>Бычков В. Эстетика. М.: Гардарики, 2002, S.527.

harakat qiladilar. Shu o'rinda bugungi kundagi kubizm yo'nalishining eng yuqori cho'qqisiga 3D,4D,5D formatli rasmlar, filmlar, ijtimoiy roliklar bunga misol bo'la oladi.

Kubizm uslubining paydo bo'lishi san'atdagi shakl va kenglik muammolarining keskin o'zgarishiga olib keldi va san'at tarixida yangicha plastik (shakl) fikrlash tuyg'usini oshirib yubordi, uslubiy rang-baranglikning ortishida muxim o'rinni egalladi va jahon san'ati taraqqiyotining yangi bosqichiga yo'l ochdi. Rassomlar Brak, Gris, Leje, haykaltarosh Arxipenko ijodiy namunalari shu yo'nalishning o'ziga xosligi va rangbarangligini ko'rsatadi. (O'zbekistonlik rassomlar)

**Abstraksionizm** — lotin tilidan olingan bo'lib, "mavhum" "noaniq" degan ma'noni anglatadi. Bu oqim XIX asr oxiri XX asr boshlarida evropada paydo bo'lgan. San'atdagi mashhur yo'nalish namoyandalari narsa va hodisalarni real tasvirlashdan voz kechgashtr. Ularning asarlarida borliq -emas ijodkorning his-tuyg'ulari, shakl va ranglar o'yini aks etadi. Abstraksionizm oqimidagi asarlarda ma'no va mazmun ayrim do!, hajm, chichiq, ranglarni tartibsi.ch harakati orqali tasvirlanadi. O'zbekistonlik rassomlar)

**Cyurrealizm** Xilma hillik Fransiyada paydo bo'ldi. Uning bosh nazariyotchisi, yozuvchi Andre Bretonning so'zlariga ko'ra uning maqsadi xanuzgacha hayol va haqiqat orasida bo'lgan ziddiyat va qarama qarshilikka chek qo'yish edi. Maqsadga erishish yo'llari har-xil. Rassomlar fotografik aniqlikda turli mantiqsiz ko'rinishlar, kishilarni qo'rqitadigan, g'ayri tabiiy lavhalarni tasvirlaydilar, oddiy borliq shakllaridan g'alati mavjudodlarni yaratishga intiladilar yoki turli ishlash uslublarini o'ylab topadilar. Syurrealistlarning figurativ asarlarida inson ongiga zid, ba'zida engil xayol yoki tungi alaxsirashda ko'zga ko'rinadigan dahshatli manzaralar tasvirlanadi. Karang. Belmer, Brauner, Gorki, Dali, Delvo, Kalo, Magritt, Matta, Miro, Tangi, Uodsvort, ernst O'zbekistonlik rassomlar

**Pop Art** 1950 yillarda AQSh va Buyuk Britaniyada paydo bo'lgan xarakat. Uning tarafdorlari ommaviy istemol madaniyati obrazlaridan ilxomlandilar. Turli reklama, sanoatda ishlab chiqarilgan buyumlar ularning obrazli dunyosini tashkil etdi. Pop-artchilar rassomlikning uslub va ishlash usullaridan voz kechib tayyor buyumlar (fotorasm, plakat va gazea-jurnal. rasmlari parchalari)dan turli betartib to'plam va kompozitsiyalar yaratib, real borliq bilan san'at asari orasidagi tafovutni yo'qqa chiqarishga harakat qildilar. Nemis rassomi Kurt Shvittersning «Mers-bild»(1925, Kyoln, Valraf Rixarts muzeyi) asari shu o'rinda e'tiborga loyiq.

Turli tashlandiq buyumlar-ishdan chiqqan mashina baloni, turli reklama va boshqa narsalar- rassom fikriga ko'ra dunyoning o'tkinchiligini, hamma kerakli narsalar vaqt o'tib keraksiz va tashlandiq xolatga kelishini ifodalasht kerak.

Pop-arta asoschilaridan biri - Richard Xamilton xisoblanadi. Djons, Djouns, Kitay, Lixtenshteyn, Oldenburg, Raushenberg, Rozenkvist, Segal, Tibo, Uorxol, Xokni kabi rassomlar ham shu san'atda faol ishtirok etib tanilgan.

**Immanentlik** (lot. immanent – biror narsaning ichida bo'lish)– jarayon yoki xodisadagi ichki mavjud, o'zida bo'lgan, boshqa biror begonaga o'tmagan xususiyat. Masalan Spinoza panteizmida xudo tabiatga ichki xosdir. (immanentdir). Harakat materiyaning atributidir, ya'ni unga immanentdir. U an'anaviy falsafaning markaziy tushunchalaridan biri xisoblanadi. Immanentlik atamasi mazmuniy ma'nosiga ko'ra, Arastuga borib taqaladi, u o'zining aynan ma'nosida, birinchi marta, o'rta asr sxolastikasida tatbiq etila boshlandi. Immanentlikning zamonaviy tushunchasini I.Kant kiritgan edi. transsendentlikdan farqli o'laroq, immanentlik biror narsaning o'z-o'zida bo'lishini bildiradi. Kantning fikricha, makon va zamon mavjud materiyaning ob'ektiv shakllari emas, balki kishi ongining shakllari, hissiyot mushohadasining, har qanday tajribadan oldin, ongda mavjud bo'lgan aprior shakllaridir. I.Kant aql - idrok kategoriyalarining hammasini ongning aprior shakllariga chiqarib qo'ygan edi. Uning fikricha, tabiat – “ narsalar o'zida ” emas, ya'ni ob'ektiv reallik emas, balki, ong kashf qilgan narsadir. I.Kant, “narsa o'zida” ni bilib bo'ladi–yu, biroq kishi ongidan tashqari ob'ektiv mavjud emas, deb hisoblagan. Ushbu an'ana e.Gusserl fenomenologiyasida ham davom etadi. Unda immanentlik deganda bevosita ongga berilgan fenomenlarning alohida fenomenologik jihatdan "tozalash" qurilmasi nazarda tutiladi. Postmodernizm falsafasida (R. Bart, J. Derrida, Yu. Kristeva, M. Fuko va b.) immanentlik tushunchasi keng tahlil qilinadi. Real voqelikni cheksiz va chegarasiz matnda ta'riflash sub'ektning o'zini anglash pozitsiyasining mustaqilligi, tegishliligi "transsendentligini" yo'qqa chiqaradi, deb tushuniladi.

**Artefakt**<sup>1</sup>- (lot. artefactum-sun'iy qilingan) - eksperiment jarayonidaga og'ishlar sabab yoki uslub defekti sababli yuzaga keladigan hodisa jarayon. Predmet, predmet yoki jarayon xususiyati, ob'ektlarning qaysi birining dastlab paydo bo'lishi yoki aks etishi kuzatilayotgan sharoitlarda tabiiy sabablarga ko'ra ehtimoli kam yoki bo'lishi mumkin emaslik sifatida tushuniladi. O'z navbatida artefaktning yuzaga kelishi, maqsadga yo'naltirilgan aralashuv belgisi yoki inobatga olinmagan omillar mavjudligidan ham dalolat beradi.

Hozirgi davrda madaniyat artefakti degan tushuncha ham keng tarqalgan bo'lib, unga belgili yoki simvolli tarkibga ega sun'iy yaratilgan ob'ekt xosdir. Shuningdek, artefakt jamiyat ma'naviy hayotining fenomenlari bo'lishi mumkin. Ya'ni ularni ilmiy nazariyalar, san'at asralari va folklor, irim-sirimlardan iborat deb qaraladi. Artefakt fantastikada o'z tarixi va xususiyatlariga ega bo'lgan g'aroyib

<sup>1</sup> Kirillova N.B. Mediakultura: ot moderna k postmodernu. M., 2006. S. 299.

predmet, ya'ni sehrGARlik, agar janr bo'lsa fentezi shaklida ham namoyon bo'ladi. Hujjatshunoslikda esa hujjatlardagi "shovqin" belgilar (dog', tasodifi, keraksiz belgilar) va hujjat qismi hisoblanmaydigan, ammo uni nodirligini belgilovchi tushuncha sifatida ishlatiladi. Kompyuter o'yinlarida-kamyob, nodir predmet o'ynayotgan odamga katta imkoniyatlar beruvchi tushuncha sifatida ham ishlatilib, u turli va onlayn o'yinlarida rol ijro etish orqali keng tarqalgan. O'zbekistonlik .

Artefakt tushunchasi turli sohalarida turlicha ma'noda keladi. Jumladan, arxeologiyada - qo'lbola predmet, o'z xarakteristikasi jihatidan davriga to'g'ri kelmaydi, shuning uchun ham unga, u topilgan joy bilan umumiy ravishda sana beriladi, bu esa uni ko'p hollarda tushunarsiz ko'rsatma ekanligiga dalolat qiladi. Artefakt tushunchasi fanda har qanday ilmiy eksperimentda-eksperimental natija (yoki barqarorlik va qayta ishlab chiqilish hususiyatlariga ega eksperimental natijaning og'masi), paydo bo'lishning sababi sifatida o'rganilayotgan jarayonga eksperiment o'tkazish vositalari hisoblanadi, metodika defektlari, sub'ektiv omil ta'siri (eksperiment o'tkazuvchi va o'tkaziluvchining o'zini-o'zi ishontirishi) bunga sabab bo'ladi. Shuningdek, artefakt signallarni ishlab chiqarish va ishlov berish (optika, aloqa, audio yozuv, videoyozuv)-ma'lum sharoitlarda yuzaga keladigan defekt ham bo'lishi mumkin. Chunki, bu jarayonda artefakt signal, tasvir, ovoz yozishda shovqinlar, qaysining sababi tizimli xatolar yoki foydalanilgan texnik vositalardan iboratligi bilan ham ajralib turadi.

Artefakt kompyuter grafikasida ham turli ko'rinishlarda namoyon bo'ladi. Jumladan, tasvirning salbiy jihatlari, kompyuter generatsiya qilgan, ma'lum sharoitlarda paydo bo'luvchi (ranglilik yoki yorug'likning o'tishi, tasvir harakati, chiqish rejimlari, ishning tezligi uchun nazarda tutilgan testuralar etarli darajada sifatli bo'lmagan kompressiyasi va boshqalar) tashqaridan qaraganda ranglar buzilishi, nosilliq chiziqlar, tasvir qismlarining moslashmagan harakati, poligonlar o'rtasidagi "zix"larni paydo qiladi.

Klinika artefakti-hatti-harakatning alohida ko'rinishdagi buzilishi. Psixik buzilish, ulardagi yangilikka nisbatan reaksiyasi misolida. Bu buzilish guruhli mashg'ulot yoki mehnat terapiya yordamida bartaraf etiladi.

**Gipperalizm<sup>1</sup>** –Bu so'z I.Braxt tomonidan 1973 yilda "fotorealizm" so'zining sinonimi sifatida qo'llanilgan. Kelib chiqishi jihatidan "Giperrealizm" so'zi 1973 yilda Bryusselda o'tkazilgan katta ko'rgazma va katalogning nomi bo'lib, bu ko'rgazmada amerikalik fotorealistlar ishlari, shuningdek bir qator evropalik rassomlar asarlari qo'yilgan. Bularga Gnoli, Gerxard Rixter, Klafek va Delkol va boshqalarni kiritish mumkin. Mazkur voqeadan deyarli o'ttiz yildan keyin giperrealizm yangi rassom guruhi ijodini aniqlash uchun qo'llaniladigan bo'ldi.

<sup>1</sup> Dvorsova N.P. Mif o smerti postmodernizma i sovremennaya literaturnaya situatsiya // Topos. 2008.

Bu tushuncha: a) zamonaviy san'at oqimlari (rangtasvir va skulptura 1990-2000 yillar), b) evropalik fotorealizmlar ijodi (1970 yillar) ning shakllanishi bilan bevosita bog'liq tarzda ifoda etiladi. Hozirda zamonaviy giperrealizm fotorealizmlarning estetik prinsiplariga asoslanadi, lekin fotorealizmdan farqli ravishda kundalik reallikni nusxalashga harakat qilmaydi. Giperrealistik rangtasvirda ob'ekt va saxnalar detallashtirilgan, ro'yolik illyuziyasini yaratish uchun, ammo bu syurrealizm emas chunki tasvirlangan narsa ro'y berishi ham mumkin bo'lgan. Giperrealizm tomirlarini Jan Badriyyar falsafasida ham topish mumkin ya'ni, "haqiqatda hech qachon mavjud bo'lmagan nimaningdir simulyatsiyasi" mavjuddir. Giperrealizmlar yolg'ondakam ro'yolikni yaratadi, va uni ishonchli illyuziyaga aylantiradi. O'z navbatida, fotorealizm o'xshash fotosuratni simulyatsiya qilganidek, giperrealizm raqamli tasvirlardan foydalanadi.

**Destruksiya** – falsafiy konstruksiyalar asosini ravshanlashtirish (oydinlashtirish) xisoblanib, Xaydegger fundamental ontologiyasida konstruktiv vazifani bajaruvchi markaziy tushunchalaridan biridir. O'tmishni ijobiy o'zlashtirish sifatida destruksiya – oldingi, avvalo antik, fikrni, borliqning ilk va hozirgi davrda ham aniqlovchi konsepsiyalarini ishlab chiqishga imkon bergan, dastlabki tajriba nuqtai nazaridan anglashdir. Bu bilan destruksiya, bir tarafdin, an'ana asoschilari tomonidan kashf etilgan va keyinchalik xiralashib ketgan imkoniyatlarni ochadi, boshqa tarafdin – borliqni mustaqil, oxirigacha anglab etishga da'vat etadi. Bunda falsafa tarixiga doir izlanish, o'z ma'nosini o'zi yashayotgan davrda izlab topuvchi, insonning aktual mavjudligi ko'rinishlaridan biri sifatida tushuniladi. Shunday qilib falsafa tarixi insonning olamda mavjud bo'lishi (ishtiroki) hodisasi ichiga kiradi va borliq bilan bog'liq "tushunishdan" ajralmasdir. Insonning tarix bilan ajralmas tarzda bog'liqligi tarixiylik sababli buziladi. Tarixiylikning "tarix bilan birlashish" shiori insonni o'z o'tmishida mohiyatan ildiz otganligini e'tiborsiz qoldiradi va shu bilan birvaqtda borlig'iga oid tajribasi va ana'laridagi o'z ildizlaridan uzib qo'yadi. Destruksiyaning salbiy jihati o'tmishga emas, balki faqat tarixiylikdagi tarixdan (doksografik, ma'naviy-tarixiy yoki muammoviy-tarixiy tarzda) begonalashuvning hukm surganligiga qarshi yo'nalgan. Ular konstruktlarining Destruksiyasi yo'li bilan Xaydegger antik falsafaga oid matnlarda qayd etilmagan, lekin ularning tushunilishini aniqlovchi kashfiyot yoki ochiqlik (noaniqlik, aleteyya) sifatidagi haqiqatni ochadi.

Modernizm yuqorida aytib o'tilganidek, realizm bilan muayyan aloqadorlikka ega. Ayni paytda u romantizmga ham dahldor: realizm va romantizmlarning eng ilg'or (ba'zan eng nochor) jihatlarini o'zida mujassam etadi<sup>1</sup>. Modernizmda shartlilik o'zining eng yuqori nuqtasiga chiqadi, badiiy qiyofa o'rnida unga ishorani ko'ramiz,

<sup>1</sup> Dvorsova N.P. Mif o smerti postmodernizma i sovremennaya literaturnaya situatsiya // Topos. 2008. B.23.

ba'zi hollarda (ayniqsa rangtasvirda) rangli semiotik belgilar xilma-xilligi va quyuqligidan badiiy qiyofa haqida faqat taxmin qilish mumkin xolos. Ba'zan esa bir unsurda, bir rangga rang-barang ramziylik yuklab qo'yiladi. Masalan, E.Malevichning mashhur «Qora kvadrat» asarini olaylik. Agar biz uni haqiqiy badiiy san'at asari desak, tasavvurimizga nima kelsa o'shani qora kvadrat ichiga joylashimiz kerak bo'ladi. «Qora kvadrat» ni ko'pchilik san'atshunoslar noyob asar, o'ziga xos topilma sifatida taqdim etishga qanchalik urinmasinlar, undan «buyuk» falsafiy ma'no topishga nechog'lik harakat qilmasinlar, unga rang tasvir namunasi deb qarash mushkul. Chunki san'atning qay turida bo'lmasin, ijodkor «hamma narsani» idrok etuvchining zimmasiga (uning sehrli ko'ziyu sehrli qulog'iga ishonib) yuklab qo'yishi mumkin emas, o'zi ham nimanidir, juda bo'lmaganda, mazmunga ishorani, shartli mazmunni ifodalashi lozim. Masalan, yuqorida qavs ichida eslab o'tganimiz 1935 yili birinchi marta e'lon qilinib, 60-yillardan boshlab qayta nashr etila boshlangan va 1981 yilda Nobel mukofotini olgan elios Kanettining «So'qirlik» romani kuchli ramziylik, astarni avra, avrani astar tarzida tasvirlashi, insonni murakkab jumboq sifatida falsafiy- badiiy tahlil qilishi bilan alohida ajralib turadi. Undagi voqealarning reallikda bo'lib o'tganiga, bosh qahramon Peter Kin va boshqa qahramonlarning real hayotda yashayotgan yoki yashagan odamlar ekaniga ishonmaysiz. Lekin ich-ichingizdan «shunday bo'lishi ham mumkin-ku!» degan ovoz romanni o'qish jarayonida sizni doim o'qishni davom ettirishga chorlab turadi. Siz baribir, qancha noodatiy, murakkab va noqulay bo'lmasin, o'qib chiqqach, romanni tushunasiz, undagi g'oyaviy-badiiy ifodaning o'ziga xosligidan hayratlanasiz, to'g'rirog'i, undan hayron qolasiz, ammo asar haqida o'z tushunchangiz, o'z falsafiy xulosalaringiz shakllanadi, u sizni forig'lantiradi. Badiiy adabiyotda Frans, Kafka, Velemir Xlebnikov, Anri Misho, Jak Prever kabi san'atkorlarning asarlari o'zimizda esa, Bahrom Ro'zimuhammadning she'rlari, Nazar Eshonqulning hikoyalari shunday xususiyatga ega. Yoki Faxriyor uchun geometrik bahor bo'lsa ham, uning bahor ekanini o'zingiz o'rganmagan, kutmagan shaklda va uslubda idrok eta olasiz.

Barcha modernizm yo'nalishlari uchun umumiy bo'lgan asosiy xususiyat shundaki, ular shaklni san'atning mohiyati deb biladilar. Modern ijodkor mazmun sifatida voqelikni emas, bir paytlar Gegel bashorat qilganidek, o'z uslubi va mahoratini taqdim etadi. Natijada ko'p hollarda shaklbozlik vujudga keladi.

Bugungi, kunda yaratilayotgan badiiy asrlar asosan realizm, modernizm va romantizm uslubiga mansub. Lekin bu mansublik nihoyatda shartli. M., ulkan musavvirlarimiz Rahim Ahmedov, Abdulxaq Abdullaev kabi san'atkorlar asosan realistik yo'nalishda ijod qilsalar, Bahodir Jalolov, Javlon Umarbekov ijodida bir necha yo'nalishlar unsurlarini ko'rishimiz mumkin. Yoki boshqa bir misol: modernistik uslubga mansub Vyacheslav Ohunovning «Ro'zi Choriev olami» asari

romantik yo'nalishda yaratilgan. U Ro'zi Chorievning sururiy olamini: er bilan tutashib ketgan oq bulutlarni, oq bulutlarga ulanib ketgan qora, mehnatkash zaminni, Ro'zi Chorievning tiyrak va hayrat aks etgan teran nigohini, uning qahramonlarini o'ziga xos yaxlitlikda ifodalaydi. Umuman, ijodkorlarning doimo bir yo'nalishda «muqim» ijod qilishi mumkin emas. Chunonchi, butun sovet san'ati sotsiolistik realizm yo'nalishida rivojlanishi kerak degan totalitar talab bema'nilikdan iborat edi, xolos. Ijodkor uchun nihoyatda og'ir bo'lgan, ijod erkinligi inkor etilgan o'sha davrda ham turli yo'nalishlarida asarlar yaratilaveradi va bu hol tabiiy edi. Chunki san'atkorlarni yo'nalish emas, yo'nalishlarni san'atkorlar yaratadilar. Sotsialistik realizm yo'nalishi (metodi), aytib o'tilganidek, realizmni toraytirish va soxtalashtirishdan, ya'ni san'atni to'liq mafkuraviylashtirishdan iborat bo'ldi. Ana shu soxta metod asosida yaratilgan minglab asarlar hozirgi paytda, afsuski, estetik qimmatini allaqachon yo'qotib qo'ygan.

Ayni paytda bu yo'nalishlardan – keng ma'nodagi uslublardan tashqari ijodkorning o'ziga xos, individual uslubi ham badiiy asar uchun kata ahamiyatga ega. Individual uslub, muayyan san'atkor mansub bo'lgan yo'nalish doirasida (albatta shartli ravishda) voqelikni in'ikos ettirishi barobarida, o'zining takrorlanmas, boshqa hech bir ijodkornikiga o'xshamaydigan jihatlariga ega noyob hodisa. U o'z ichiga asar «til»ini, o'ziga xos shakllantiradigan badiiy usullar va vositalar majmuini oladi; ijodkorning majoziylikdan, ramziylikdan foydalanish yo'llarini, badiiy qiyofalar yaratish mahoratini o'zida aks ettiradi, uni badiiy adabiyotda «ovoz» ham deb atashadi. Zero, san'atkor qaysi san'at «til»ida bo'lmasin, idrok etuvchini o'z ovozi bilan chorlaydi, da'vat etadi. Ovozlar bir-biriga o'xshamaganidek, uslublar ham yirik san'atkorlarda hech qachon bir-birini takrorlamaydi. Masalan, N.Pirosmanishvilidan D.Sikeyros, Navoiydan Bobur, L.Tolstoydan I.Turgenev, Baxdan Betxoven, Abror Hidoyatovdan Shukur Burxon o'z uslubi bilan farq qiladi, G'afur G'ulomning «ovozi» Hamid Olimjonning «ovozi»ga o'xshamaydi. Uslub ijodkorda birdaniga paydo bo'lmaydi, balki mahorat bilan yonma-yon shakllanib, takomillashib boradi. Juda ko'pchilik san'atkorlarning dastlabki asarlari uslubiy jihatdan nisbatan zaif ekanligiga asosiy sabab ham ana shunda.

Ch.Jenks postmodernlik san'ati haqida o'z tasavvurini rivojlantiradi. “Postmodernizm nima degani?” deb nomlanagan maqolasida Liotarning nazariy mushohadalaridan kelib chiqqan holda u postmodernlik san'atini zamonaviylikning tafakkur tendensiyasi modeli sifatida tavsiflaydi, bu modelda dissonanslik go'zalligi yoki disgarmonik garmoniya, imoralizm va radikal eklektizm, urbanik kontekstualizm; antropomorfizm; tarixiy kontinuumni taqlid va qo'msoy ramzi bilan idrok etish; intertekstuallik; ikkiyoqlama kodlashtirish; shartlilikni qayta talqinlash;

yangi ritorik qiyofalar ishlab chiqish; yo'qlikning borligi birikib keladi<sup>1</sup>.

Jenksning nazariy izlanishlari postmodernlik g'oyalarining bir xilligidan guvohlik beradi, uning falsafasi xarakterida U. Eko qarashlari bilan o'xshashlik ko'rinib turadi. Ya'ni, postmodernizm eng avvalo an'analardan kinoyali foydalanish usulidir. U an'ana natijasida bir vaqtning o'zida bor ham, yo'q ham bo'ladi, borliq tufayli yo'q bo'ladi.

Xozirda postmodernlik san'ati refleksiyaning sifat jihatdan yangi darajasini o'rganish manbaiga aylanadi, mubohasa maydoni torayadi, yirik ishlar davri ochiladi. Bu ishlarning xususiyatlari postmodernlik san'atining uzil-kesil shakllanib, bir butunligiga aylanib qolganida ham emas, u yangi postmodernizmning umumiy nazariyalashuvi asosida ham ko'rib chiqiladi, u postmodernlik ko'pligi, postmodernlik dunyoqarash qaymog'i modeli sifatida ehtirol etiladi.

### **Foydalaniladigan adabiyotlar ro'yxati**

Rahbariy adabiyotlar:

1. Mirziyoev Sh.M. – Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston Davlatini birgalikda barpo etamiz.- T., O'zbekiston. 2016.
2. Mirziyoev Sh.M. – Qonun ustivorligi va inson manfaatlarini ta'minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. – T., O'zbekiston. 2017.
3. Mirziyoev Sh.M. – Tanqidiy taxlil, qat'iy tartib intizom va shaxsiy javobgarlik – xar bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. T., O'zbekiston. 2017.
4. O'zbekiston respublikasi Vazirlar Mahkamasining Qarori “Davlat boshqaruvi organlari va mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari xodimlarining odob-axloq namunaviy qoidalarini tasdiqlash to'g'risida” (O'zbekiston respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2016 y., 9-son, 94-modda)lex.uz
5. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – engilmas kuch. –T.: Ma'naviyat, 2008.

### **Darsliklar va o'quv qo'llanmalar:**

1. Abdulla Sher. Axloqshunoslik. Darslik. –T.: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2010.
2. Agzamova N. Etika. Uslubiy qo'llanma. –T.: OOO “NORI”, 2013.
3. Jahon falsafasi tarixidan lavhalar. G' Q.Nazarov tahriri ostida. –T.: Sharq, 2004

---

<sup>1</sup> Jenks Ch.A Yazyk arxitektury postmodernizma. - M.: Stroyizdat, 1985

4. Mamashokirov S., Usmanov E. Barqaror taraqqiyotning ekologik xavfsizlik masalalari. –T.: Fan, 2009.
5. Muhammadjonova L.A., Ortiqova D.O., Abidjanova F.A., Masharipova G.K. Professional etika va etiket. Darslik. - T.: "Adabiyot uchqunlari" 2018.
- 6.M. Kaxxarova, N Agzamova. Etika Uchebnoe posobie. Rizograf imeni Nizami. 2018 god.
- 7.L.Muhammadjonova, F.Abidjanova. Etiket. O'quv qo'llanma. T.: Universitet. O'zMU, 2018.
8. Nurmatova M., Muhammadjonova L., Ma'naviyatning axloqiy asoslari.– T.: Unversitet, O'zMU. 2013.
9. Nazarov Q. Aksiologiya – qadriyatlar falsafasi. –T.: O'FMJ, 2004.
10. Nurmatova M. Shaxs kamolotida axloqiy va estetik qadriyatlar uyg'unligi. – T.: Universitet, 2009.
11. E.Umarov., F.Zagritdinova. "Etika. Prikladnaya etika". -T.: Noshir, 2012.
12. Husanov B., Gulamov V. Muomala madaniyati. Darslik. –T.: Iqtisod-moliya, 2009.
13. Shermuxammedova N.A. XXI asr fanining dolzarb muammolari G'G' Falsafa va fan metodologiyasi. – T.: Universitet, 2005.

### **Qo'shimcha adabiyotlar:**

1. Arastu. Poetika. Axloqi Kabir. –T.: Yangi asr avlodi, 2004.
2. Aliqulov H. Falsafiy meros va ma'naviy-axloqiy fikr rivoji. –T.: Falsafa va huquq instituti, 2009.
3. Agzamxodjaeva S.S. Ijtimoiy ideal va O'zbekistonda ijtimoiy-ma'naviy taraqqiyot muammolari. Dissertatsiya. Fals. fan. dok. – T.: 2009.
4. Abdulla Avloniy Turkiy guliston yoxud axloq. – T.: O'qituvchi, 1992.
5. Abu Abdullox Muhammad ibn Ismoil al Buxoriy. Hadis. 2. tomlik –T.: O'zbekiston milliy entsiklopediyasi davlat ilmiy nashriyoti, 2008.
6. Jabborov I. O'zbeklar (ana'naviy xo'jaligi, turmush tarzi va etnomadaniyati). –T.: Sharq, 2008.
7. Zagritdinova F.B. Filosofsko-eticheskiy analiz problem sovremennoy biomeditsino' (na primere Respubliki Uzbekistan). Dissertatsiya. Dok. filos. nauk. – T.: 2006.
8. Qaxxarova Sh. Global ma'naviyat globallashuvning g'oyaviy asosi. –T.: Tafakkur, 2009.
9. Madaeva Sh. Milliy mentalitet va demokratik tafakkur. –T.: Falsafa va huquq, 2007.
10. Mahmudov T. Komillik asrorlari. Hayotiy hikmatlar. –T.: Adolat, 2006.

11. Ma'naviyat asosiy tushunchalar izohli lug'ati. –T.: G'.G'ulom nomidagi nashriyot – matbaa ijodiy uyi, 2009 yil.
12. Navro'zova T.N., Zoirov E.X., Yunusova T.S. Tasavvufda inson va uning kamoloti masalasi. – T.: Falsafa va huquq, 2006.
13. Muxammadjonova L.A. Ma'rifatparvar shoirlar – Dilshod Barno va Anbar Otinning axloqiy qarashlari. Dissertatsiya. Fals. fan.nom. – T.: 2005.
14. Nurmatova M.A. Shaxs ma'naviy kamolotida estetik va axloqiy va estetik qadriyatlar uyg'unligi. –T.: Universitet, 2009.
15. Ochilova B. Milliy-ma'naviy yuksalishda meros, qadriyatlar va vorisiylik. –T.: Istiqlol, 2009.
16. Otamurodav S. Globallashuv va millat. –T.: Yangi asr avlodi, 2008.
17. Tillaeva G. Ma'naviyat va komil inson tarbiyasi. –T.: Falsafa va huquq, 2006.
18. Umarov B. Globallashuv ziddiyatlari. – T., Ma'naviyat, 2006.
19. Falsafa: qomusiy lug'at. G' Q.Nazarov tahriri ostida. – T.: Sharq, 2004.
20. Xojiaxmedov A. Mahalla odobi. –T.: Sharq, 2001.
21. Xolmatova M. Oilaviy munosabatlar madaniyati va sog'lom avlod tarbiyasi. – T.: O'zbekiston, 2000.
22. Choriev A. Inson falsafasi. –T.: Chinor ENK nashriyoti, 2007.
23. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Hadis va hayot. Adab. – T.: Sharq 2008.
24. Quronov M. Milliy g'oya va o'zbek xarakteri. – T.: Ma'naviyat, 2005.
25. Yakubov Yu.M. Islom ta'limotida shaxs va jamiyat munosabatlari masalasi. Dissertatsiya. Fals. fan.nom. – T.: 2009.

## **TA'LIM ETIKASI**

### **O'ZBEKISTONNING TA'LIM SOHASIDAGI SIYOSATIDA AXLOQIY MASALALARNING USTUVORLIGI**

#### **REJA:**

1. Ta'lim etikasining mavzusi va tushunchasi.
2. Ta'lim etikasi tuzilmasi va mohiyati.
3. Ta'lim tizimida axloqiy fazilatlarni o'rgatish muammolari. Ta'limda ma'naviy darajani ko'tarishda axloqiy xis-tuyg'ularni qo'llash qoidalari.

Ta'lim tizimi barcha davrlarda ham davlat siyosatining asosiy bo'g'ini va jamiyatning manaviy kamoloti, ertangi kelajagini belgilab beradi. Istiqlolning ilk davrlaridan boshlab milliy ta'lim tizimini ishlab chiqishga katta urg'u berilib amalda bu borada qonun va dasturlar qabul qilindi 1997 yil 29-avgustda qabul qilingan

“Ta’lim to’g’risida”gi qonun, Kadrlar tayyorlash milliy dasturining yaratilishi va hayotga tadbiiq qilinishi ushbu muhim sohada chuqur islohotlarning yangi bosqichini boshlab berdi. Mamlakatimizda ta’lim taraqqiyotining shaxs, jamiyat va davlatning iqtisodiy, ijtimoiy, ilmiy-texnik hamda madaniy ehtiyojlarini ta’minlaydigan ustuvor sohasi sifatida qonunan belgilab qo’yildi va asosiy e’tibor shaxsning kamolotiga qaratildi.

Axloqiy bilim mohiyatiga ko’ra inson ongining jamiyat bilan aloqadorligi, jamiyat oldida burchli ekanligi, o’z xulq-atvorini jamiyat taraqqiyoti darajasiga bog’liqligini tushunishi, jamiyat tomonidan tan olingan axloqiy me’yor, ideal hamda talablarni bajarishda mas’uliyatni his etishi, ma’naviy-axloqiy bilimlarning e’tiqodga aylanishi va bu e’tiqodlarning tizimliliigi, mustahkam ma’naviy-axloqiy his-tuyg’u va xislatlarni shakllantirish, o’quvchi-tadabalar tomonidan ma’naviy-axloqiy xulq-atvor jamiyat a’zolariga bo’lgan hurmat-e’tiborni namoyon etuvchi mezonlardan ekanligining anglab etilishi, ma’naviy-axloqiy odatlarning shakllanishi va boshqalarda namoyon bo’ladi.

Ta’lim-tarbiya barcha zamonlarda barcha millat va xalqlarni o’zaro yaqinlashtiruvchi, birlashtiruvchi omil bo’lib kelgan. Insoniyat ongida dunyoni bilish, uni yana va yana kashf etish, bu orqali esa «o’z»ligini anglashga intilish hissi kuchli bo’lgan. Bunga esa faqat ilm, ma’rifat bilangina erishilib kelingan. Erishilgan yutuqlar natijasida insoniyat taraqqiyotning yangi-yangi bosqichlariga qadam qo’ydi. Zero, qadimgi davrda g’orlarga chizilgan ilk san’at namunalaridan tortib, o’rta asrlardagi yirik yozma va tasviriy san’at asarlarigacha, hamda buyuk geografik kashfiyotlar, uyg’onish davridan tortib, bugungi kunimizdagi turli kashfiyotlarning barcha-barchasi bevosita ilm, ma’rifat, tafakkur mahsulidir.

“Ta’lim to’g’risida” Qonunning axloqiy mazmuni «Ta’lim to’g’risida»gi qonun 5 ta bo’lim, 34 moddadan iborat. Ta’lim sohasidagi davlat siyosatining asosiy tamoyillarida ta’lim - O’zbekiston Respublikasi ijtimoiy taraqqiyoti sohasida ustuvor deb e’lon qilingan. Shu ma’noda, ta’lim-tarbiya ishlari davlat siyosatining asosiy printsiplaridan biri hisoblanadi va ta’lim sohasidagi davlat siyosatining asosiy tamoyillari:

- ta’lim va tarbiyaning insonparvar demokratik xarakterda ekanligi;
- ta’limning uzluksizligi va izchilligi;
- umumiy o’rta, shuningdek, o’rta maxsus, kasb-hunar ta’limining majburiyligi;
- o’rta maxsus, kasb-hunar ta’limining yo’nalishini tanlashning ixtiyoriyligi;
- ta’lim tizimining dunyoviy xarakterda ekanligi;
- davlat ta’lim standartlari doirasida ta’lim olishning hamma uchun ochiqqligi;
- ta’lim dasturlarini tanlashga yagonavatabaqalashtirilgan yondashuvi;
- bilimli bo’lish va iste’dodni rag’batlantirish;
- ta’lim tizimida davlat va jamoat boshqaruvini uyg’unlashtirish.

“Ushbu qonun fuqarolarga ta’lim, tarbiya berish kasb-hunar o’rgatishning huquqiy asoslarini belgilaydi hamda har kimning bilim olishdan iborat konstitutsiyaviy huquqini taminlashga qaratilgan.” (“Ta’lim to’g’risida”gi Qonun 1-modda)

qonunning 1-moddasidan boshlab adolat, ijtimoiy tenglikni mustahkamlashga harakat qilinmoqda. Bu esa mamlakat siyosatining ham asosi ahloqiy qoidalardan chetga chiqmasligini namoyon etadi.

Mamlakat fuqarolarining nafaqat ta’lim-tarbiya olishi, shu bilan birga ularni kasb-hunarli qilish ham maqsad qilingan.

“Davlat bosh islohotchi” tamoyili bilan yondashadigan bo’lsak, davlatning o’zi barcha ezgu ishlarning tashabbuskori bo’lmoqda.

Davlat o’z qonunlari orqali bepul majburiy ta’limni ta’minlash bilan birga alohida qobiliyat va istedodga ega bo’lgan o’quvchi-talabalarning ham qiziqishiga qarab mahsus maktablarning faoliyatini ham rag’batlantiradi.

“Bolalar va o’smirlarning yakka tartibdagi ehtiyojlarini qondirish, ularning bo’sh vaqti va dam olishini tashkil etish uchun davlat organlari, jamoat birlashmalari, shuningdek boshqa yuridik va jismoniy shaxslar madaniy-estetik, ilmiy, texnikaviy, sport va boshqa yo’nalishlarda maktabdan tashqari ta’lim muassasalarini tashkil etishlari mumkin.

Maktabdan tashqari ta’lim muassasalariga bolalar, o’smirlar ijodiyoti saroylari, uylari, klublari va markazlari, bolalar-o’smirlar sport maktablari, san’at maktablari, musiqa maktablari, studiyalar, kutubxonalar, sog’lomlashtirish muassasalari va boshqa muassasalar kiradi.

“Kadrlar tayyorlash Milliy Dasturi”da ta’limning ijtimoiylashuvi masalalari Respublikasi Oliy Majlisining 1997 yil 27 avgustdagi IX sessiyasida qonuniy zamin bo’lgan “Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi” qabul qilindi. Dunyoning ko’plab mutaxassislari tomonidan e’tirof qilinayotgan “Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi” mamlakatimizga yuqori saviyali kadrlar tayyorlab berish bo’yicha uzoq va davomli maqsad – manfaatlarni o’zida aks ettiradi.

«Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi» 5 ta bo’limdan iborat bo’lib, unda kadrlar tayyorlash tizimini isloh qilish omillari, dasturning maqsadi, vazifalari va uni ro’yobga chiqarish bosqichlari, kadrlar tayyorlash tizimini rivojlantirishning asosiy yo’nalishlari, dasturni ro’yobga chiqarishga oid chora-tadbirlar belgilab berilgan.

Har bir jamiyatda ham pedagog, o’qituvchi, tarbiyachilarga yoshlar murabbiysi sifatida katta hurmat bilan qarab kelingan. Ayniksa, bizning mustaqil yurtimizda o’qituvchiga hurmat-e’tibor va unga qo’yilgan mas’uliyat ham nihoyatda oshibbormokda. Bu o’rinda respublikamizda 1 oktyabrni «Ustoz va murabbiylar kuni» deb e’lon qilinganligini ta’kidlab o’tish joiz.

O'z davrining ruxini chukur anglagan, kelajakni ko'ra bilgan shaxslarni tarbiyalash o'qituvchi tarbiyachilarning bosh vazifasidir. O'qituvchi va o'quvchi munosabatidagi majburiy itoatkorlik o'rnini ongli intizom egallashiga erishmog'imiz darkor. O'qituvchining bosh vazifasi: o'quvchilarda mustaqil fikr yuritish ko'nikmalarini xosil qilishdan iborat. Ularda tafakkur kirralarini shakllantirish va rivojlantirish eng muxim ta'limiy-tarbiyaviy ish bo'lib xisoblanadi.

jamiyatda har bir shaxs o'z iste'dodi va mahoratini ko'rsata olmasa, fikrlash tarzi va tafakkuri zamon bilan ham nafas bo'lmas ekan uni barkamol inson darajasiga ko'tarib bo'lmaydi

Ijtimoiylashuv - inson tomonidan kishilik madaniyatining, xususan axloqiy-estetik madaniyatning o'zlashtirib borilishi jarayoni sifatida ham talqin etilishi mumkin. Madaniy muhitga moslashish jarayoni sifatida ijtimoiylashuv insonning butun umri bo'yi davom etadi, biroq bu jarayon bolalik davrida boshlanadi. Mazkur davrda bola axloqiy-estetik qadriyatlarni o'rganish jarayonidan uzib qo'yilsa, ijtimoiylashuv jarayoni to'xtab qoladi.

Milliy dasturning maqsadi, vazifalari va uni ro'yobga chiqarish bosqichlari:

Maqsad: ta'lim sohasini tubdan isloh qilish, uni o'tmishdan qolgan mafkuraviy qarashlar va sarqitlardan halos etish, rivojlangan demokratik davlatlar darajasida, yuksak ma'naviy va axloqiy talablarga javob beruvchi yuqori malakali kadrlar tayyorlash Milliy tizimini yaratishdir;

Vazifa: ta'lim oluvchilarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashning va ma'rifiy ishlarning samarali shakllari hamda uslublarini ishlab chiqish va joriy etish;

Dasturni ro'yobga chiqarish bosqichlari: ta'lim oluvchilarning yuksak tayyorgarlik darajasi, malakasi, madaniy va ma'naviy-axloqiy saviyasini sifatiga nisbatan fqo'yiladigan zarur talablarni belgilab beruvchi davlat ta'lim standartlarini yaratish va joriy etish.

### **Kadrlar tayyorlashning milliy modeli:**

Shaxs - Kadrlar tayyorlash sohasidagi Davlat siyosati insonni intellektual va ma'naviy jihatdan tarbiyalash bilan uzviy bog'liq bo'lgan uzluksiz ta'lim tizimi orqali har tomonlama barkamol shaxs – fuqaroni shakllantirishni nazarda tutadi. Shu tarzda fuqaroning eng asosiy konstitutsiyaviy huquqlaridan biri bilim olish, ijodiy qobiliyatni namoyon etish, intellektual jihatdan rivojlanish, kasbi bo'yicha mehnat qilish huquqi ro'yobga chiqariladi;

Uzluksiz ta'lim - Uzluksiz ta'lim ijodkor, ijtimoiy faol, ma'naviy boy shaxs shakllanishi va yuqori malakali raqobatbardosh kadrlar ildam tayyorlanishi uchun zarur shart-sharoitlar yaratadi;

Uzluksiz ta'limni tashkil etish va rivojlantirish pritsiplari - ta'limning ijtimoiylashuvi-ta'lim oluvchilarda estetik boy dunyoqarashni hosil qilish, ularda yuksak ma'naviyat, madaniyat va ijodiy fikrlashni shakllantirish.

Maktabdan tashqari ta'lim: Bolalar va o'smirlarning ta'limga bo'lgan, yakka tartibdagi, ortib boruvchi talab-ehtiyojlarini qondirish ularning bo'sh vaqtini va dam olishini tashkil etish uchun davlat organlari, jamoat tashkilotlari, shuningdek boshqa yuridik va jismoniy shaxslar madaniy, estetik, ilmiy, texnikaviy, sport va boshqa yo'nalishlarda maktabdan tashqari davlat va nodavlat ta'lim muassasalarini tashkil etadilar.

Oliy ta'lim: uzluksiz ta'lim - malakali raqobatbardosh kadrlarni tayyorlashning asosi bo'lib, ta'limning barcha turlarini, davlat ta'lim standartlarini, kadrlar tayyorlash tizimi tuzilmasi va uning faoliyat ko'rsatish muhitini o'z ichiga oladi.

Oliy ta'limning insonparvarlik yo'nalishida bo'lishini ta'minlash hamda yoshlarni milliy istiqlool mafkurasi va umuminsoniy qadriyatlar asosida, Vatanga, jamiyatga, oilaga va tabiatga mehr-muhabbat ruhida tarbiyalash;

Ta'lim-tarbiya jarayoni yoshlarimizni ma'naviy jihatdan yuksaltiruvchi asosiy omil hisoblanadi. O'zbekistondagi ta'lim sohasidagi amalga oshirilayotgan islohotlar ham yoshlarimizni jamiyatga qo'shilib borishlarida uni rivojlantirishlarida muhim ahamiyat kasb etadi. Ta'lim-tarbiya jarayoni orqali jamiyatdagi holat, dunyoning ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy manzarasi haqida o'qitib, o'rgatib boriladi. Ta'lim sohasini rivojlantirib borish, bilimli, ilm-fanga qiziquvchi yoshlarni ko'payishi to'g'ri yo'ldan og'ishmay borishning asosi hisoblanadi. Ammo ba'zi ta'lim tizimidagi muammolarni ham mavjudligini aytish lozim. Ta'lim tizimining moddiy-texnik ba'zasini yaratish uchun tinimsiz, uzluksiz, mablag' ajratilib, sarflanyapti. Ammo hali laboratoriya, internet, kompyuterlashtirish, binolarni to'liq ta'mirlash ishlari to'liq echimini topgani yo'q. Shu bilan birgalikda mutaxassis kadrlar muammosi ham mavjudligini aytish lozim. Bu holat ta'limning sifatiga ta'sir ko'rsatadi. Globalizatsiya jarayonida ishtirok etuvchi yoshlarni bo'layotgan jarayonlarga ijodiy yondashishida, mulohaza qilishida ta'limning o'rnini beqiyosligini ko'rib turibmiz. Qolaversa global muammolar echimini topishda eng asosiy echim manbai ham ta'limdir.

Estetik bilim chuqur va barqaror estetik qiziqishlarni hosil qilishi mumkin. O'quvchidagi estetik bilim uni estetik faol bo'lishga, faoliyatini namoyon qilishga tayerlaydi. Shaxs asta-sekin tevarak-atrofni go'zallik qonunlari asosida o'zgartirishga, go'zallik yaratishga harakat qiladi, chunki inson go'zallikni nafaqat mushohada etadi, balki uni yaratadi ham. Estetik jihatdan tarbiyalangan odam xayotni go'zal qilishga intiladi, estetik tomondan faol bo'ladi. Shaxsning estetik faolligi xayotda go'zallik yaratishda egallangan estetik ko'nikmalarida: chiroyli, bejirim kiyinishida, madaniy muomalasida, o'zini tuta bilishida, oila va ishda estetik muhitni yaratishida namoyon bo'ladi.

Yuqoridagilarga qo'shimcha qilib, ta'kidlash lozimki, ta'lim-tarbiyaning muhim ahamiyatli jihat shuki, u orqali inson nafaqat muayyan bilim va

ko'nikmalarga ega bo'ladi, balki madaniyatli, axloqan tarbiyasi, nozik didli, ziyoli, jamiyatdagi o'zgarishlarni chuqur his qiluvchi va uning oldingi qatorlarida turuvchi erkin shaxs shakllanadi. Yoshlar ta'limi va tarbiyasi sohasida o'tkazilgan va o'tkazilayotgan islohotlar xalqimizga yot ta'sirlarga berilmaydigan, har tomonlama rivojlangan, Vatanga muhabbat ruhida tarbiyalanayotgan, O'zbekistonning buyuk kelajagini jamiyatimizning bugungi kuniga aylantirishga qodir yoshlarni tarbiyalashga ta'sir ko'rsatadi.

### **Foydalaniladigan adabiyotlar ro'yxati**

#### **Rahbariy adabiyotlar:**

1. Mirziyoev Sh.M. – Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston Davlatini birgalikda barpo etamiz.- T., O'zbekiston. 2016.
2. Mirziyoev Sh.M. – Qonun ustivorligi va inson manfaatlarini ta'minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. – T., O'zbekiston. 2017.
3. Mirziyoev Sh.M. – Tanqidiy taxlil, qat'iy tartib intizom va shaxsiy javobgarlik – xar bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. T., O'zbekiston. 2017.
4. O'zbekiston respublikasi Vazirlar Mahkamasining Qarori "Davlat boshqaruvi organlari va mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari xodimlarining odob-axloq namunaviy qoidalarini tasdiqlash to'g'risida" (O'zbekiston respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2016 y., 9-son, 94-modda)lex.uz
5. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – engilmas kuch. –T.: Ma'naviyat, 2008.

#### **Darsliklar va o'quv qo'llanmalar:**

1. Abdulla Sher. Axloqshunoslik. Darslik. –T.: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2010.
2. Agzamova N. Etika. Uslubiy qo'llanma. –T.: OOO "NORI", 2013.
3. Jahon falsafasi tarixidan lavhalar. G' Q.Nazarov tahriri ostida. –T.: Sharq, 2004
4. Mamashokirov S., Usmanov E. Barqaror taraqqiyotning ekologik xavfsizlik masalalalari. –T.: Fan, 2009.
5. Muhammadjonova L.A., Ortiqova D.O., Abidjanova F.A., Masharipova G.K. Professional etika va etiket. Darslik. - T.: "Adabiyot uchqunlari" 2018.
- 6.M. Kaxxarova, N Agzamova. Etika Uchebnoe posobie. Rizograf imeni Nizami. 2018 god.
- 7.L.Muhammadjonova, F.Abidjanova. Etiket. O'quv qo'llanma. T.: Universitet. O'zMU, 2018.

8. Nurmatova M., Muhammadjonova L., Ma'naviyatning axloqiy asoslari. – T.: Universitet, O'zMU. 2013.
9. Nazarov Q. Aksiologiya – qadriyatlar falsafasi. – T.: O'FMJ, 2004.
10. Nurmatova M. Shaxs kamolotida axloqiy va estetik qadriyatlar uyg'unligi. – T.: Universitet, 2009.
11. E.Umarov., F.Zagritdinova. “Etika. Prikladnaya etika”. – T.: Noshir, 2012.
12. Husanov B., Gulamov V. Muomala madaniyati. Darslik. – T.: Iqtisodmoliya, 2009.
13. Shermuxammedova N.A. XXI asr fanining dolzarb muammolari G'G' Falsafa va fan metodologiyasi. – T.: Universitet, 2005.

### **Qo'shimcha adabiyotlar:**

1. Arastu. Poetika. Axloqi Kabir. – T.: Yangi asr avlodi, 2004.
2. Aliqulov H. Falsafiy meros va ma'naviy-axloqiy fikr rivoji. – T.: Falsafa va huquq instituti, 2009.
3. Agzamxodjaeva S.S. Ijtimoiy ideal va O'zbekistonda ijtimoiy-ma'naviy taraqqiyot muammolari. Dissertatsiya. Fals. fan. dok. – T.: 2009.
4. Abdulla Avloniy Turkiy guliston yoxud axloq. – T.: O'qituvchi, 1992.
5. Abu Abdullox Muhammad ibn Ismoil al Buxoriy. Hadis. 2. tomlik – T.: O'zbekiston milliy entsiklopediyasi davlat ilmiy nashriyoti, 2008.
6. Jabborov I. O'zbeklar (ana'naviy xo'jaligi, turmush tarzi va etnomadaniyati). – T.: Sharq, 2008.
7. Zagritdinova F.B. Filosofsko-eticheskiy analiz problem sovremennoy biomeditsino' (na primere Respubliki Uzbekistan). Dissertatsiya. Dok. filos. nauk. – T.: 2006.
8. Qaxxarova Sh. Global ma'naviyat globallashuvning g'oyaviy asosi. – T.: Tafakkur, 2009.
9. Madaeva Sh. Milliy mentalitet va demokratik tafakkur. – T.: Falsafa va huquq, 2007.
10. Mahmudov T. Komillik asrorlari. Hayotiy hikmatlar. – T.: Adolat, 2006.
11. Ma'naviyat asosiy tushunchalar izohli lug'ati. – T.: G'.G'ulom nomidagi nashriyot – matbaa ijodiy uyi, 2009 yil.
12. Navro'zova T.N., Zoirov E.X., Yunusova T.S. Tasavvufda inson va uning kamoloti masalasi. – T.: Falsafa va huquq, 2006.
13. Muxammadjonova L.A. Ma'rifatparvar shoirlar – Dilshod Barno va Anbar Otinning axloqiy qarashlari. Dissertatsiya. Fals. fan.nom. – T.: 2005.
14. Nurmatova M.A. Shaxs ma'naviy kamolotida estetik va axloqiy va estetik qadriyatlar uyg'unligi. – T.: Universitet, 2009.

15. Ochilova B. Milliy-ma'naviy yuksalishda meros, qadriyatlar va vorisiylik. –T.: Istiqlol, 2009.
16. Otamurodav S. Globallashuv va millat. –T.: Yangi asr avlodi, 2008.
17. Tillaeva G. Ma'naviyat va komil inson tarbiyasi. –T.: Falsafa va huquq, 2006.
18. Umarov B. Globallashuv ziddiyatlari. – T., Ma'naviyat, 2006.
19. Falsafa: qomusiy lug'at. G' Q.Nazarov tahriri ostida. – T.: Sharq, 2004.
20. Xojiaxmedov A. Mahalla odobi. –T.: Sharq, 2001.
21. Xolmatova M. Oilaviy munosabatlar madaniyati va sog'lom avlod tarbiyasi. – T.: O'zbekiston, 2000.
22. Choriev A. Inson falsafasi. –T.: Chinor ENK nashriyoti, 2007.
23. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Hadis va hayot. Adab. – T.: Sharq 2008.
24. Quronov M. Milliy g'oya va o'zbek xarakteri. – T.: Ma'naviyat, 2005.
25. Yakubov Yu.M. Islom ta'limotida shaxs va jamiyat munosabatlari masalasi. Dissertatsiya. Fals. fan.nom. – T.: 2009.

## **AXLOQ PSIXOLOGIYASI**

### **REJA:**

1. Axloq psixologiyasining mavzusi va tushunchasi.
2. Axloqiy munosabatlarning inson xarakteriga ta'siri.
3. Axloqni insonning ichki kechinmalarining ruhiy ozuqasi sifatida ko'rilishi

Axloq psixologiyasi –shaxs ichki ruhiy dunyosining amaliy xatti-xarakatlarigda namoyon bo'lishi. Axloq psixologiyasi ikki faktor asosida shakllanadi. Qadimdayoq axloqshunoslikning ruhshunoslik (psixologiya) bilan aloqasi alohida ahamiyatga ega bo'lgan. Zotan, bu ikkala fan kishilar xatti-harakati, fe'l-atvori va mayl-istaklarini o'rganadi. Lekin bu o'rganish ikki xil nuqtai nazardan olib boriladi: ruhshunoslik u yoki bu xatti-harakat, fe'l-atvor, sababiy asos (motiv)larning ruhiy tabiati va shakllanish shart-sharoitlarini ochib beradi, axloqshunoslik esa ruhshunoslik tadqiq etgan hodisalarning axloqiy ahamiyatini tushuntiradi. Ruhshunoslik hissiyotlar sifatida o'rganadigan insondagi ko'pgina ma'naviy hodisalar axloqshunoslik tomonidan falsafiy-axloqiy tushunchalar tarzida tadqiq etiladi.

Insoniyat taraqqiyotining barcha bosqichlariga nazar tashlar ekanmiz, axloqning jamiyat hayoti va taraqqiyotidagi o'rni va ahamiyatini ko'rmaslikning aslo iloji yo'q. axloq inson ortirgan, egallagan bilimlari, malakalari, ko'nikmalari va

shular asosida yuz beradigan insonning ruhiy – psixologik kechinmalari bilan bog'liq holda, uning uchun qadrli bo'lgan meroslarga va qadriyatlarga aylanib, inson va insoniyat hayoti, ehtiyojlarini qondirish uchun asos bo'lib boravergan. Insoniyat tomonidan yaratilgan va amaliy hayot davomida ko'plab sinalib, jamiyat taraqqiyotiga o'z ta'sirini ko'rsatib kelayotgan ma'naviyat bu inson ruhiyati, psixologik kechinmalari, ya'ni ichki ruhiy holatlari bilan chambarchas bog'liq jarayondir.

Axloqni ichki psixologik jarayon ekanligini etnopsixologiya asoschilaridan bo'lgan M. Latsarus va G. Shteyntallar : “ Bir butun bo'lib yashayotgan va bir – biriga ma'lumot berib hayot kechirayotgan ko'pchilik insoniyatning ma'naviy qonuniyatlarini ochishni “ etnopsixologiya vazifasi deb bilishgan. Millatning, xalqning ma'naviyati va unga xos bo'lgan ruhiyat alohida individlarda yashasa – da, uning paydo bo'lishi, gullab yashnashi va tanazzulga uchrash qonuniyatlarini psixologik jihatlarini o'rganish bu etnopsixologiya, ijtimoiy psixologiya tarmoqlarining vazifasidir.

Shuni ta'kidlash kerakki ma'naviyatning jamiyat, millat, xalq va inson hayotidagi ahamiyati va zaruriy ehtiyoj ekanligi qadimdan ma'lum bo'lib, unga dunyoning buyuk mutafakkirlari ham o'z diqqatlarini qaratganlar. Deylik rus mutafakkirlaridan biri bo'lgan V. I. Dal o'zining “ Tolkovo'y slovar” ida ma'naviyat tushunchasini – bir jon va ruhdan paydo bo'lgan, avlodsiz, moddiy bo'lmagan , insonning aql va irodasining mahsuli bo'lgan, uning ruhiga, tegishli hamma aqliy va ahloqiy quvvatlardir, deb tariflagan. Bu erda ma'naviyat ruhiy – psixologik holat sifatida inson va jamiyat hayoti uchun, jamiyatning kelajagi uchun zarur bo'lgan muhim xodisa, aqliy, ahloqiy munosabatlar bilan bog'liq psixologik kechinmalar va xudo tamonidan berilgan in'om sifatida tushuniladi.

Axloqni aynan insonning ichki kechinmalari, ruhiy ozuqasi sifatida ko'rilishi, ma'naviyat inson ruhiyati bilan bog'liq ijtimoiy xodisa ekanligidan dalolat beradi. Agarda ma'naviyatni insonning ichki ruhiy kechinmasi sifatida olsak, u holda ruhiy tushunchasi, bu kishining ruhiga, psixik kayfiyatiga, ichki kechinmalariga oid xodisa ekanligini bunda insonning Ruhiiy xolati, Ruhiiy ko'tarinkiligi, Ruhiiy ezilishi, bir so'z bilan aytilganda xissiy – emotsional psixologik kechinmalari bilan bog'liq xodisa ekanligi anglanadi. Axloq aynan inson ruhiy o'sishning ozuqasi sifatida ko'zga tashlanadi. Haqiqatda ham ma'naviy boy insonning ruhiyati bilan ma'naviy qashshoq insonning ruhiyati o'rtasida farq yaqqol ko'rinadi. Ma'naviy boy insonda ruhiy kechinmalar, ya'ni millat, xalq, jamiyat manfaatlari, ehtiyojlari bilan uzviy bog'langan bo'ladi. Ma'naviy boy inson o'z millati ravnaqi uchun, boshqa qardosh millatlarning mafaatlari xisobga olgan holda jon kuydiradi. Axloqi qashshoq inson esa har doim o'z manfaatlari yo'lida harakat qiladi. Ma'naviyati boy inson har doim

jamiyat yutuqlaridan shodlanadi, ruhlanadi va o'zi ham bu yutuqlarga suyanagan holda ma'naviyatga xos bo'lgan xarakatlarni bajaradi.

Ma'naviyat bu o'zida millatga, jamiyatga xos bo'lgan falsafiy, axloqiy, amaliy, nazariy ilm va bilimlarni, malaka, ko'nikmalarni, inson ahloq va odobini, insonning ahloqiy, estetik, ilmiy etukligining natijasi bo'lgan iymon, e'tiqod, vijdon, insof, ixlos, insonning shular asosida paydo bo'lgan dunyoqarashining yig'indisi va ichki ruhiy holati deb qarash mumkin. Lekin shu bilan ma'naviyatni tor ma'noda tushunib qolish mumkin emas. Balki ma'naviyat bu insonning butun faoliyatini o'zida mujassamlashtirgan, insoniyat taraqqiyoti davomida ortirgan bilimlari, ilmlari, amaliy malakalari bilan bog'liq bo'lgan va inson ruhiyatiga kuch – qudrat berib turadigan murakkab jarayondir.

Axloq masalalarini o'rgangan etnopsixologiyaning asoschilaridan bo'lgan V.Vundt tilni, afsonalarni va an'analarni o'rganish bu xalqning ma'naviyatini, ruhiyatini o'rganishning o'zi ekanligini ta'kidlagan. Axloqni o'rganish xalqning aniq tarixiy sharoitdagi psixologiyasini, ruhiy emotsional kechinmalarini o'rganish ekanligini rus psixologi T.G. Stefanenko ham o'z asarlarida ko'rsatib o'tadi. Xaqiqatda ham millat, xalq ma'naviyatida unga tegishli bo'lgan ehtiyojlarni, manfaatlarni qondirish xissi, o'z an'alaridan, urf – odatlaridan shodlanish, qoniqish, ruhan ko'tarinkilik va kelajakka ishonch kabi xissiy kechinmalar o'tadi. Bu ma'naviyatga xos bo'lgan jarayonlar insonni va jamiyatni kelajakka bo'lgan ishonchini ortiradi, uning ruhan o'ziga va atrofidagi insonlarga bo'lgan munosabatida ma'naviyatga xos munosabatlar bo'lishiga umid yaratadi. Bu esa unga xar doim kuch va qudrat berib turadi. Insonni o'z ichki ruhiyatiga suyanishga va undan ma'naviy qudrat olishga imkon yaratadi.

Millat va xalqning axloqini muhim bo'lagi bu uning ona tilidir. Ona tili o'zida millatga tegishli bo'lgan barcha ma'naviy boyliklarni jamlaydi. Unda xalqning ruhiyati, madaniyati, ma'naviyati o'z aksini topadi. Bu haqida Birinchi Prezidentimiz shunday deb yozadi: “Ma'lumki, o'zlikni anglash, milliy ong va tafakkurning ifodasi, avlodlar o'rtasidagi ruhiy – ma'naviy bog'liqlik til orqali namoyon bo'ladi. Jamiki ezgu fazilatlar inson qalbiga, avvalo, ona allasi, ona tilining betakror jozibasi bilan singadi. Ona tili – bu millatning ruhidir “.<sup>1</sup> Haqiqatda ona tilining taraqqiyoti bu millatning ijtimoiy psixologik jarayoni bo'lgan o'zligini anglashi, milliy ongning va tafakkurning ifodasidir.

Ma'naviyatni inson ruhiyati, jamiyat ijtimoiy psixologik jarayonlarisiz tasavvur etib bo'lmaydi. Ma'naviyat insonni yangi kechinmalar, his – tuyg'ular bilan boyitadi. Ma'naviy boy inson ruhiyatidagi kechinmalarni hech narsa bilan

---

<sup>1</sup> Karimov I. A. Yuksak ma'naviyat yengilmas kuch. T., Ma'naviyat, 2008. 83-6et

taqqoslab bo'lmaydi. Vatanga bo'lgan muhabbat, millatparvarlik tuyg'ulari, oila ma'naviyati, mahalla va ma'naviy tarbiya, urf - odat, an'analarga va qadriyatlarga bo'lgan munosabat, yoshlarga berilib kelayotgan ta'lim – tarbiya, jamiyatda yuz beruvchi ijtimoiy munosabatlar va shu kabi ma'naviyatga xos masalalar Birinchi Prezidentimiz I.A. Karimovning “Yuksak ma'naviyat – engilmas kuch” asarida o'z ifodasini topgan. Bu asr o'sib kelayotgan yosh avlodni tarbiyalashda muhim xujjat bo'lib xizmat qiladi. Shuni ta'kidlash kerakki, ma'naviyat bu insonga kuch va qudrat bag'ishlab turuvchi, uning ruhiyatini boyituvchi ijtimoiy jarayon. Inson bu ma'naviyatga har doim zaruriyatni o'zida sezib turadi.

Mehr ma'naviy-axloqiy, falsafiy hamda psixologik tushuncha sifatida keng ma'noga ega. Mehr so'zi o'zbek tilining izohli lug'atida (arabchadan olingan bo'lib sevgi, muhabbat; moyillik) insonning o'z tug'ishganlariga, yaqin kishilariga va umuman, odamga, narsaga bo'lgan samimiy muhabbati; yaxshi ko'rish tuyg'usi; shafqat, rahmdillik; iltifotlilik tarzida ta'riflangan. Uni psixologik kategoriyadan biri deb hisoblash mumkin. Psixologiyada mehr tushunchasi sevgi, muhabbat, g'amxo'rlik, e'tibor, empatiya-simpatiya ko'rinishlarida uchraydi. Ushbu so'zlar insonlarning kundalik turmushida foydalanadigan mehr tushunchasiga ma'nodosh.

Mehr shaxsning kamolotini belgilovchi omillardan biridir. O'z navbatida mehr shaxsning “psixologik imkoniyat”ni yuzaga chiqarishda turtki beruvchi vazifani bajaradi. Psixologik imkoniyat vazifasiga ko'ra insonning hayotga bo'lgan qiziqishi, intilishi, hayotga va atrof-olamga nisbatan ijobiy munosabatda bo'lish xohishini jonlantirib turadi. Psixologik imkoniyatlar shaxsning o'zini-o'zi boshqarishida faollashtiruvchi, favqulodda holatlarda to'siqlarni engib o'tishida, qiyinchiliklarda dalda beruvchi va quvvatlovchi kuchdir. Shuningdek, insonda o'ziga ishonch va dadillikni tiklovchi hamda uning muntazamligini ta'minlovchi omillar ham psixologik imkoniyatlardir.

Bugungi globallashuv, shiddatli taraqqiyot, axborotlashuv sharoitida tarbiya va axloq masalalari Abdulla Avloniy aytganidek “yo hayot, yo mamot, yo najod yoki sharofatli o'lim” darajasidagi muhim masalaga aylanib bormoqda. Buni “ommaviy madaniyat” ning salbiy ta'siri natijasida yoshlardagi og'ish holatlarining namoyon bo'lishi (Evropa va Amerikadagi bir jinsli nikoh, yoshlarning zararli odatlarga berilish holatlari, insoniylik normalarining o'rnini hayvoniylik, shaxvoniylik egallashi...) va o'zligini anglamaganlik oqibatida “siyosiy o'yinlar qurboniga” aylanib qolish (Arabiston yarim oroli va Misrdagi “Arab bahori” nomi bilan atalgan tartibsizliklar) holatlarini misol sifatida keltirib o'tish mumkin. Ushbu vaziyatda yoshlar asosiy nishonligi achinarlidir. Agar yoshlarda ma'naviy bo'shliq bo'lmasa hamda ularning psixologik imkoniyatlaridan foydalanish ko'nikmalari shakllantirilsa xulq-atvorida og'ishlar yo'qoladi, ma'naviy barkamollik, psixologik sog'lomlik va immunitet shakllanadi. Bu esa o'ziga xos xavfsizlik va

himoyalaniшни ta'minlashni mustahkamlaydi. Faylasuf va psixolog Erix From "Inson qalbi" nomli asarida mazkur muammo yuzasidan o'zining bir qator fikrlarini bildirgan. Uning talqinicha, insonning hayotni sevishi, ezgulikka moyilligi, psixologik sog'lomligi, o'zining xaqiqiy qiziqishlari va intilishlariga tayanib ish tutishini "biofiliya" deb atagan. "Biofiliya" insonning bolalik davrida ko'rsatiladigan mehr-muhabbatga bog'liq shakllanar ekan. Bunda uni o'rab turgan muhitning iliq munosabatlarga asoslanganligi, tahdidlarning yo'qligi, ichki hotirjamlik va uyg'unlikka olib boruvchi tamoyillar asosidagi tarbiya, insonlar bilan jonli muloqot kabi sabablar muhim ahamiyat kasb etadi. "Biofiliya" tushunchasiga qarama qarshi bo'lgan tushuncha ham mavjud bo'lib, u "nekrofiliya" deb ataladi hamda o'limni sevish, yovuzlik, qonxo'rlikka nisbatan moyillikni anglatadi. Uning shakllanishi esa, insonning qo'rquv tahdidi, tashabbus etishmasligi, zerikarlilik va qoloqlik ustiga qurilgan hayot tarzi hamda ratsionallik o'rniga mexanik yashash tarzining o'rnatilganligi va bu insonlar o'rtasidagi munosabatlarda bevosita namoyon bo'lishi haqida ta'kidlab o'tgan. Bunda natijasida u o'zi bilan nartsissizm (egoizmning yuqori ko'rinishi), sadizm (o'ta shavqatsizlik) va umumiy tubanlashuvga ham olib kelishi mumkin. Shuningdek, Erix Frommning ta'kidlashicha, biofiliyaga moyil insonlardan tashkil topgan ijtimoiy muhitda o'sgan bola ham biofiliyaga moyil bo'ladi. Yana u nekrofiliya ham xuddi biofiliya singari "yuqumli" ekanligini aytib o'tgan.

Insonning ijtimoiy mavjudot ekanligi bugungi kunda isbot talab qilmaydigan haqiqat. Shunday ekan, u tug'ilganidan boshlab hayotining ohirigacha e'tiborga, g'amxo'rlikka, qo'llab quvvatlashga, muhabbatga bir so'z bilan aytganda mehrga ehtiyoj sezadi. Shu o'rinda psixolog A.Maslouning ehtiyojlar nazariyasiga e'tibor qaratilsa, o'rtamiyona inson hayoti davomida muhabbatga (mehrga) bo'lgan ehtiyojining 50 foizini qondirishi taxmin qilinadi. Demak, bu miqdor pasaysa insonda salbiy tomonlama axloqiy, psixologik, patologik va biologik o'zgarishlar sodir bo'lish olib keladi.

Chikago universiteti tibbiyot markazi mutaxassislarining kuzatuvlari shuni ko'rsatadiki, shaxsga bolaligidan etarlicha e'tibor qaratmaslik, u bilan emotsional muloqotga kirishmaslik, "mehr etishmaganlik sindromi"ni paydo qiladi. Bu esa, bola ulg'aygach unda yurak-qon tomir kasalliklari va insultni shakllantiradi. Mutaxassislar tomonidan o'tkazilgan tadqiqod natijalari, yuqoridagi farazni isbotladi. Unda Yoshi 55 dan yuqori bo'lgan 1000 kishi orasida so'rov o'tkazilgan va so'rovnoma o'z ichiga "sizning ota-onangiz bolaligingizda sizga e'tiborsizlik, qattiqqo'llik, rahmsizlik qilishgan?", "sizning ota-onangiz siz bilan etarlicha muloqot qilmagan?", "Sizning ota-onangiz sizga mehr ko'rsatmagan?" kabi savollarni ham qamrab olgan. So'rovdan 3,5 yil o'tgach respondentlardan 257 tasi turli kasalliklar sababli vafot etgan, ulardan 89 tasida esa falajlanish alomatlari

aniqlangan. Statistika shuni ko'rsatadiki, o'sha 89 kishi orasida har to'rttadan uchta so'rovlarda yoshligida ota-ona mehridan mosuvo bo'lishganligini e'tirof etgan insonlar bo'lib chiqqan. Tadqiqod rahbari bo'lgan doktor Robert Uilsonning fikriga ko'ra: "o'tkazilgan tadqiqod maqsadi bolalarga mehr va e'tibor etishmaslik sindromi keyinchalik ularda uchraydigan yurak qon-tomir muammolari bilan bog'liqligini isbotlashdir".

Shu o'rinda ma'naviy manba, Imom G'azzoliyning Riyozatun-nafs asaridan quyidagi fikrlarni ko'rib o'tish maqsadga muvofiq, "Qachonki bolada chiroyli xulq, maqtovg'a arzigulik bir fe'l sodir bo'lsa, uni hurmat bilan sharaflamoq, ko'nglini quvontiradigan narsa bilan taqdirlamoq, ko'pchilik orasida bu fe'lini izhor etmoq zarur" (Abu Homid G'azzoliy, 2006). Aksariyat psixologlar ham bolaning psixologik ehtiyojlari haqida so'z yuritganda, yuqoridagi ta'kidlanganlarga uyg'un nazariyalarni ilgari surishadi. Bolada psixologik harakterga ega, farzandlik ehtiyojlari mavjud bo'lib, ular: maqtovg'a bo'lgan, qo'llab-quvvatlashga, pozitiv muloqotga, e'tiborga, hamkorlikka bo'lgan ehtiyoj (o'yin yoki xo'jalik yumushlarida...) va boshqalarni tinglashlariga bo'lgan ehtiyojlardir (E.D.Titov).

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, har bir ota-ona o'z farzandini kamolotini ko'rishni istaydi va bu yo'lda harakat qiladi. Bugungi kunda ayrim insonlar "o'z farzandlarini moddiy jihatdan ta'minlab qo'yish bu – farzandiga mehr berishdir" degan "fikrni" qattiq ushlab olgan. Bunda ular bor shijoati bilan moddiy ta'minot ustida bosh qotiradi, tirishadi yoki moddiy ta'minlab qo'ygan bo'lsa "ota-onalik vazifasi bajarildi" qabilida ish tutadi. Lekin, o'z farzandlarida axloqiy, ma'naviy jihatdan og'ish (jumladan: zararli odatlarga berilish, agressivlik, erta yosh davrlaridanoq qarama-qarshi jins vakillariga bo'lgan qiziqish, shaxvoniylik, odamovilik, depressivlik, affektivlik, yurak va qon-tomir hastaliklari kabi turli psixologik va fiziologik salbiy o'zgarishlar) holatlari yuzaga kelgandagina, buning sababini qidira boshlaydilar. Bunda muammo, qondirilmagan ehtiyoj (mehr-ga bo'lgan ehtiyoj) sababli yuzaga kelgan bo'ladi. Chunki, psixolog olim Zigmunt Freydning fikriga va shunday nazariyasiga binoan "qondirilmagan ehtiyojlar insonda og'ish holatini yuzaga keltiradi". Bejizga donishmand ajdodlarimiz "mehrbon bo'linglar, dunyo – mehr ustiga qurilgan, mehr guldir" demaganlar. "Mehr-e'tibor orqali nav-nihol bola, kelajakda har qanday tabiiy hodisotga chidamli, baquvvat, tekis va baland, mustahkam tomirlarga ega daraxtdek shaxs sifatida shakllanadi". Shunday ekan farzand tarbiyasida ularga o'z vaqtida mehr-e'tiborni taqdim etish joiz, zero "mehr ko'rgan – mehr ko'rsata oladi". Shuningdek, psixologlar ogohlantiradiki, "ehtiyolarning haddan ziyod qondirilishi ko'ngilhushlik va bema'nigarchiliklarning omili bo'ladi". Demak, bu o'rinda "oltin" o'rtamiyonalikni topish zaruriyati hisoblanadi.

Ma'lumki, har bir talaffuz qilingan jumlada talaffuz qiluvchining ruhiy- aqliy olami aks etib turadi. Yani u so'zni qanday va qay tarzda qo'llay olishi bilan suhbatdoshiga o'zi mansub bo'lgan ichki olam, o'ni qonun qoidalari haqidagi xabar mazmunini ham etkazadi.

Farzandlarga qilingan yumshoq yoki qo'pol muomala o'larning ruhiy dunyosida, albatda, ijobiy yoki salbiy taassurot qoldiradi. Ota- onalar va tarbiyachi o'qituvchilar bolalarning fe'l- atvorini, qiziqishini, ularning ruhiy dunyosini chuqur bilgandagina tarbiya samarali bo'ladi.

Muloqot - odamlar amalga oshiradigan faoliyatlar ichida etakchi o'rinni egallab, u insondagi eng muhim ehtiyojni - jamiyatda yashash va o'zini shaxs deb hisoblash bilan bog'liq ehtiyojini qondiradi. Demak, o'zaro muloqot jarayonida bir odam ikkinchi odamga psixologik ta'sir ko'rsatadi. Bu ta'sir ikkala tomondan ham anglanishi yoki anglanmasligi mumkin. Ya'ni, ba'zan biz nima uchun bir shaxsning bizga naqadar kuchli ta'sirga ega ekanligini, boshqa biri esa, aksincha, hech qanday ta'sir kuchiga ega emasligini tushunib etmaymiz. Bu esa pedagogikada muhim muammodir.

Aslida har bir insonning ijtimoiy tajribasi, uning insoniy qiyofasi, fazilatlari, hattoki, nuqsonlari ham muloqot jarayonlarining mahsulidir. Jamiyatdan ajralgan, muloqotda bo'lish imkoniyatidan mahrum bo'lgan odam o'zida individ sifatlarini saqlab qolishi mumkin, lekin u shaxs bo'lolmaydi. Shuning uchun muloqotning shaxs taraqqiyotidagi ahamiyatini tasavvur qilish uchun uning funktsiyalarini tahlil qilamiz.

Har qanday muloqotning eng elementar funktsiyasi - suhbatdoshlarning o'zaro bir - birini tushunishlarini ta'minlashdir. Bu o'zbeklarda samimiy salom - alik, ochiq yuz bilan kutib olishdan boshlanadi. O'zbek xalqining eng nodir va buyuk hislatlaridan biri ham shuki, uyiga birov kirib kelsa, albatta ochiq yuz bilan kutib oladi, ko'rishadi, so'rashadi, xol - ahvol so'raydi. Shunisi xarakterliki, ta'ziyaga borgan chog'da ham ana shunday samimiyatli qabulni his qilamiz.

Uning ikkinchi muhim funktsiyasi ijtimoiy tajribaga asos solishdir. Odam bolasi faqat odamlar davrasida ijtimoiylashadi, o'ziga zarur insoniy xususiyatlarni shakllantiradi. Odam bolasining yirtqich hayvonlar tomonidan o'g'rilanib ketilishi, so'ng ma'lum muddatdan keyin yana odamlar orasida paydo bo'lishi faktlari shuni ko'rsatganki, «mauglilar» biologik mavjudot sifatida rivojlanaveradi, lekin ijtimoiylashuvda ortda qolib ketadi. Bundan tashqari, bunday xolat boladagi bilish qobiliyatlarini ham cheklashi ko'plab psixologik eksperimentlarda o'z isbotini topdi. Muloqotning yana bir muhim vazifasi - u odamni u yoki bu faoliyatga hozirlaydi, ruhlantiradi. Odamlar guruhidan uzoqlashgan, ular el nazaridan qolgan odamning qo'li ishga ham bormaydi, borsa ham jamiyatga emas, balki faqat o'zigagina manfaat keltiradigan ishlarni qilishi mumkin. Masalan, ko'plab tadqiqotlarda

izolyatsiya, ya'ni odamni yolg'izlatib qo'yishning uning ruhiyatiga ta'siri o'rganilgan. Masalan, uzoq vaqt termokamerada bo'lgan odamda idrok, tafakkur, xotira, hissiy xolatlarning buzilishi qayd etilgan. Lekin ataylab emas, taqdir taqozosi bilan yolg'izlikka mahkum etilgan odamlarning maqsadli faoliyatlar bilan o'zlarini band etishlari u qadar katta salbiy o'zgarishlarga olib kelmasligini ham olimlar o'rganishgan. Lekin baribir har qanday yolg'izlik va muloqotning etishmasligi odamda muvozanatsizlik, hissiyotga beriluvchanlik, xadiksirash, xavotirlanish, o'ziga ishonchsizlik, qayg'u, tashvish hislarini keltirib chiqaradi. Shunisi qiziqki, yolg'izlikka mahkum bo'lganlar ma'lum vaqt o'tgach ovoz chiqarib, gapira boshlasharkan. Bu avval biror ko'rgan yoki his qilayotgan narsasi xususidagi gaplar bo'lsa, keyinchalik nimagadir qarab gapiraverish ehtiyoji paydo bo'lar ekan. Masalan, bir M.Sifr degan olim ilmiy maqsadlarini amalga oshirish uchun 63 kun g'or ichida yashagan ekan. Uning keyinchalik yozishicha, bir necha kun o'tgach, u turgan erda bir o'rgimchakni ushlab oladi va u bilan dialog boshlanadi. «Biz, deb yozadi u shu hayotsiz g'or ichidagi tanho tirik mavjudotlar edik. Men o'rgimchak bilan gaplasha boshladim, uning taqdiri uchun qayg'ura boshladim...»

Shaxsning muloqotga bo'lgan ehtiyojining to'la qondirilishi uning ish faoliyatiga ham ta'sir ko'rsatadi. Odamlar, ularning borligi, shu muhitda o'zaro gaplashish imkoniyatining mavjudligi fakti ko'pincha odamni ishlash qobiliyatini ham oshirarkan, ayniqsa, gaplashib o'tirib qilinadigan ishlar, birgalikda yonma - yon turib bajariladigan operatsiyalarda odamlar o'z oldida turgan hamkasbiga qarab ko'proq, tezroq ishlashga kuch va qo'shimcha iroda topadi. To'g'ri, bu hamkorlikda o'sha yonidagi odam unga yoqsa, ular o'rtasida o'zaro simpatiya hissi bo'lsa, unda odam ishga «bayramga kelganday» keladigan bo'lib qoladi. Shuning uchun ham amerikalik sotsiolog hamda psixolog Jon Moreno asrimiz boshidayoq ana shu omilning unumdorlikka bevosita ta'sirini o'rganib, sotsiometrik texnologiyani, ya'ni so'rovnoma asosida bir - birini yoqtirgan va bir - birini inkor qiluvchilarni aniqlagan va sotsiometriya metodikasiga asos solgan edi.

Muloqot jarayoni o'ziga xos ravishda murakkab bo'lib, bunda uch xil bosqich mavjud. Dastlabki bosqich – odamning o'z-o'zi bilan muloqotidir. T.Shibutani "Ijtimoiy psixologiya" darsligida: «Agar odam ozgina bo'lsa ham o'zini anglasa, demak, u o'z-o'ziga ko'rsatmalar bera oladi» – deb to'g'ri yozgan edi. Odamning o'z-o'zi bilan muloqoti aslida uning boshqalar bilan muloqotining harakterini va hajmini belgilaydi. Agar odam o'z-o'zi bilan muloqot qilishni odat qilib olib, doimo jamiyatdan o'zini chetga tortib, tortinib yursa, demak u boshqalar bilan suhbatlashishda, til topishishda jiddiy qiyinchiliklarni boshdan kechiradi, deyish mumkin. Demak boshqalar bilan muloqot – muloqotning ikkinchi bosqichidir. A. N. Leontev o'zining "Psixika taraqqiyotidan ocherklar" kitobida muloqotning uchinchi shakli – avlodlar o'rtasidagi muloqotning ahamiyati to'g'risida shunday deb yozadi:

«Agar barcha katta avlod o'lib ketganida, insoniyat turi yo'q bo'lib ketmasdi, lekin jamiyatning taraqqiyoti ancha orqaga surilibgina emas, balki yo'qolib ham ketishi mumkin edi». Haqiqatan ham, avlodlararo muloqotning borligi tufayli har bir jamiyatning o'z madaniyati, madaniy boyliklari, qadriyatlari mavjud bo'ladiki, buning ahamiyatini tushungan insoniyatning eng ilg'or vakillari uni doimo keyingi avlodlar uchun saqlab keladilar hamda ta'lim, tarbiya va kundalik muloqot jarayonida uni avloddan-avlodga uzatadilar.

Muloqotning hayotimizdagi shakl va ko'rinishlariga kelsak uning har bir shaxsning hayotiy vaziyatlarga mos keladigan, o'sha vaziyatlardan kelib chiqadigan ko'rinishlari va turlari haqida gapirish mumkin. Lekin umumiy holda har qanday muloqot yo rasmiy yoki norasmiy tusda bo'ladi. Agar rasmiy muloqot odamlarning jamiyatda bajaradigan rasmiy vazifalari va xulq-atvor normalaridan kelib chiqsa, masalan, rahbarning o'z qo'l ostida ishlayotgan xodimlar bilan muloqoti, professorning talaba bilan muloqoti va hokazo, norasmiy muloqot – bu odamning shaxsiy munosabatlariga tayanadi va uning mazmuni o'sha suhbatdoshlarning fikr-o'ylari, niyat-maqсадlari va emotsional munosabatlari bilan belgilanadi. Masalan, do'stlar suhbatdoshi, poezdda uzoq safarga chiqqan yo'lovchilar suhbatlari, tanaffus vaqtida talabalarning sport, moda, shaxsiy munosabatlar borasidagi munozaralari. Odamlarning asl tabiatlariga mos bo'lgani uchun ham norasmiy muloqot doimo odamlarning hayotida ko'proq vaqtini oladi va bunda ular charchamaydilar. Lekin shuni ta'kidlash kerakki, odamda ana shunday muloqotga ham qobiliyatlar kerak, ya'ni uning qanchalik sergapligi, ochiq ko'ngilligi, suhbatlashish yo'llarini bilish, til topishish qobiliyati, o'zgalarni tushunishi va boshqa shaxsiy sifatleri kundalik muloqotning samarasiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Shuning uchun hamma odam ham rahbar bo'lolmaydi, ayniqsa, pedagogik ishga hamma ham qo'l uravermaydi, chunki buning uchun undan ham rasmiy, ham norasmiy muloqot texnikasidan xabardorlik talab qilinadi. Muloqot mavzui va yo'nalishiga ko'ra, uning:

- ijtimoiy yo'naltirilgan (keng jamoatchilikka qaratilgan va jamiyat manfaatlaridan kelib chiqadigan muloqot);

- guru\_dagi predmetga yo'naltirilgan (o'zaro hamkorlikdagi faoliyatni amalga oshirish mobaynidagi muloqot – mehnat, ta'lim jarayonidagi yoki konkret topshiriqni bajarish jarayonida guruh a'zolarining muloqoti);

- shaxsiy muloqot (bir shaxsning boshqa shaxs bilan o'z muammolarini ochish maqsadida o'rnatgan munosabatlari); pedagogik muloqot (pedagogik jarayonda ishtirok etuvchilar o'rtasida amalga oshiriladigan murakkab o'zaro ta'sir jarayoni) turlari farqlanadi.

Shunday qilib, muloqot odamlarning jamiyatda o'zaro hamkorlikdagi faoliyatlarining ichki psixologik mexanizmini tashkil etadi. Qolaversa, hozirgi yangi demokratik munosabatlar sharoitida turli ishlab chiqarish qarorlarini yakka tartibda

emas, balki kollegial - birgalikda ishlab chiqarish ehtiyoji paydo bo'lganligini hisobga olsak, odamlarning muomala madaniyati va muloqat texnikasi mehnat unumdorligi xamda samaradorlikning muhim omillaridandir.

### **Foydalaniladigan adabiyotlar ro'yxati**

#### **Rahbariy adabiyotlar:**

1. Mirziyoev Sh.M. – Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston Davlatini birgalikda barpo etamiz.- T., O'zbekiston. 2016.
2. Mirziyoev Sh.M. – Qonun ustivorligi va inson manfaatlarini ta'minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. – T., O'zbekiston. 2017.
3. Mirziyoev Sh.M. – Tanqidiy taxlil, qat'iy tartib intizom va shaxsiy javobgarlik – xar bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. T., O'zbekiston. 2017.
4. O'zbekiston respublikasi Vazirlar Mahkamasining Qarori “Davlat boshqaruvi organlari va mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari xodimlarining odob-axloq namunaviy qoidalarini tasdiqlash to'g'risida” (O'zbekiston respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2016 y., 9-son, 94-modda)lex.uz
5. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – engilmas kuch. –T.: Ma'naviyat, 2008.

#### **Darsliklar va o'quv qo'llanmalar:**

1. Abdulla Sher. Axloqshunoslik. Darslik. –T.: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2010.
2. Agzamova N. Etika. Uslubiy qo'llanma. –T.: OOO “NORI”, 2013.
3. Jahon falsafasi tarixidan lavhalar. G' Q.Nazarov tahriri ostida. –T.: Sharq, 2004
4. Mamashokirov S., Usmanov E. Barqaror taraqqiyotning ekologik xavfsizlik masalalalari. –T.: Fan, 2009.
5. Muhammadjonova L.A., Ortiqova D.O., Abidjanova F.A., Masharipova G.K. Professional etika va etiket. Darslik. - T.: "Adabiyot uchqunlari" 2018.
- 6.M. Kaxxarova, N Agzamova. Etika Uchebnoe posobie. Rizograf imeni Nizami. 2018 god.
- 7.L.Muhammadjonova, F.Abidjanova. Etiket. O'quv qo'llanma. T.: Universitet. O'zMU, 2018.
8. Nurmatova M., Muhammadjonova L., Ma'naviyatning axloqiy asoslari.– T.: Unversitet, O'zMU. 2013.

9. Nazarov Q. Aksiologiya – qadriyatlar falsafasi. –T.: O’FMJ, 2004.
10. Nurmatova M. Shaxs kamolotida axloqiy va estetik qadriyatlar uyg’unligi. – T.: Universitet, 2009.
11. E.Umarov., F.Zagritdinova. “Etika. Prikladnaya etika”. -T.: Noshir, 2012.
12. Husanov B., Gulamov V. Muomala madaniyati. Darslik. –T.: Iqtisod-moliya, 2009.
13. Shermuxammedova N.A. XXI asr fanining dolzarb muammolari G’G’ Falsafa va fan metodologiyasi. – T.: Universitet, 2005.

### **Qo’shimcha adabiyotlar:**

1. Arastu. Poetika. Axloqi Kabir. –T.: Yangi asr avlodi, 2004.
2. Aliqulov H. Falsafiy meros va ma’naviy-axloqiy fikr rivoji. –T.: Falsafa va huquq instituti, 2009.
3. Agzamxodjaeva S.S. Ijtimoiy ideal va O’zbekistonda ijtimoiy-ma’naviy taraqqiyot muammolari. Dissertatsiya. Fals. fan. dok. – T.: 2009.
4. Abdulla Avloniy Turkiy guliston yoxud axloq. – T.: O’qituvchi, 1992.
5. Abu Abdullox Muhammad ibn Ismoil al Buxoriy. Hadis. 2. tomlik –T.: O’zbekiston milliy entsiklopediyasi davlat ilmiy nashriyoti, 2008.
6. Jabborov I. O’zbeklar (ana’naviy xo’jaligi, turmush tarzi va etnomadaniyati). –T.: Sharq, 2008.
7. Zagritdinova F.B. Filosofsko-eticheskiy analiz problem sovremennoy biomeditsino’ (na primere Respubliki Uzbekistan). Dissertatsiya. Dok. filos. nauk. – T.: 2006.
8. Qaxxarova Sh. Global ma’naviyat globallashuvning g’oyaviy asosi. –T.: Tafakkur, 2009.
9. Madaeva Sh. Milliy mentalitet va demokratik tafakkur. –T.: Falsafa va huquq, 2007.
10. Mahmudov T. Komillik asrorlari. Hayotiy hikmatlar. –T.: Adolat, 2006.
11. Ma’naviyat asosiy tushunchalar izohli lug’ati. –T.: G’G’ulom nomidagi nashriyot – matbaa ijodiy uyi, 2009 yil.
12. Navro’zova T.N., Zoirov E.X., Yunusova T.S. Tasavvufda inson va uning kamoloti masalasi. – T.: Falsafa va huquq, 2006.
13. Muxammadjonova L.A. Ma’rifatparvar shoirlar – Dilshod Barno va Anbar Otinning axloqiy qarashlari. Dissertatsiya. Fals. fan.nom. – T.: 2005.
14. Nurmatova M.A. Shaxs ma’naviy kamolotida estetik va axloqiy va estetik qadriyatlar uyg’unligi. –T.: Universitet, 2009.
15. Ochilova B. Milliy-ma’naviy yuksalishda meros, qadriyatlar va vorisiylik. –T.: Istiqlof, 2009.

16. Otamurodav S. Globallashuv va millat. –T.: Yangi asr avlodi, 2008.
17. Tillaeva G. Ma'naviyat va komil inson tarbiyasi. –T.: Falsafa va huquq, 2006.
18. Umarov B. Globallashuv ziddiyatlari. – T., Ma'naviyat, 2006.
19. Falsafa: qomusiy lug'at. G' Q.Nazarov tahriri ostida. – T.: Sharq, 2004.
20. Xojiaxmedov A. Mahalla odobi. –T.: Sharq, 2001.
21. Xolmatova M. Oilaviy munosabatlar madaniyati va sog'lom avlod tarbiyasi. – T.: O'zbekiston, 2000.
22. Choriev A. Inson falsafasi. –T.: Chinor ENK nashriyoti, 2007.
23. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Hadis va hayot. Adab. – T.: Sharq 2008.
24. Quronov M. Milliy g'oya va o'zbek xarakteri. – T.: Ma'naviyat, 2005.
25. Yakubov Yu.M. Islom ta'limotida shaxs va jamiyat munosabatlari masalasi. Dissertatsiya. Fals. fan.nom. – T.: 2009.

## **BIOETIKA MUAMMOLARI**

### **REJA:**

1. Inson va muhit munosabatlarining axloqiy-estetik jihatlari; biosfera, noosfera va etosfera tushunchalari.
2. Barcha hayot shakllarga hurmat tamoyili.
3. Ilmiy-texnikaviy taraqqiyot va inson muammosi.
4. Bioetika muammosining qamrovliligi va uning yangicha talqini.

Amaliy etika oldida qator global muammolarni ham qilishdek o'ta muhim vazifalar ham bor. Ulardan biri va birinchisi ilm-fan taraqqiyoti tufayli vujudga kelgan texnikaviy bosini bartaraf etish. XX va XXI asrda erishilgan fan-texnika yutuqlari hozirgi paytda inson va u yashayotgan sayyoraning kelajagiga tahdid solmoqda. Atom, vodorod, neytron bombalari, ballistik raketalar, eng yangi texnikaviy ko'rsatkichlarga ega qiruvchi, bombardimon harbiy uchoqlar, suv osti va suv usti kemalari, eng yangi rusmdagi tanklar hamda turli-tuman qurollar hammasi insonni yo'q qilishga qaratilgan. Ularni ishlab chiqarish korxonalari va sinov maydonlari ekologik buhronlarning manbaidir. Bular bir yoki bir necha mamlakat uchun emas, balki global, umumsayyoraviy falokat hisoblanadi. Ularning oldini olishni faqat bir yo'l bilan-biz yashayotgan texnikaviy muhitda (noosferada) axloqiy muhitni (etosferani) barqaror etish orqali hil qilish mumkin. Shuningdek, biologik axloq, ekologik axloq, o'lim jazosini bekor qilish muammolari ham global tabiatga ega.

**Axloqiy muhit.** Amaliy etikaning hozirgi kunda umumjahoniy global muammolarni hal qilishdek muhim vazifasi ham borki, u haqda alohida

to'xtalmaslikning iloji yo'q. Bu muammolardan biri, eng muhimi, sayyoramizda etosfera - axloqiy muhit davrini yaratish bilan bog'liq.

Ma'lumki, yuzlab asrlar mobaynida inson kichik biologik olam sifatida katta biologik olam ichida, uning bir parchasi, jonli organizmlar podshosi, oqil va hukmron qismi sifatida yashab keldi. XIX asrning oxiridan boshlab, ayniqsa XX asrda u o'z tafakkur quvvati bilan, ilmiy-texnikaviy yuksalishlar tufayli ana shu biosfera ichida noosferani - texnikaviy muhitni yaratdi. Mana, hozirgi kunda, qarang, ertalabdan kechgacha biz o'z texnikaviy kashfiyotlarimiz ichida yashaymiz - eymiz, ichamiz, yuramiz, uxlaymiz, ularsiz hayotimizni tasavvur qila olmaymiz. Bular metro, avtobus, televizor, radio, telefon, eskalator, pleyer, lift, kompyuter, poezd, teploxod, gaz plitalari, elektr asboblari, zavodlar, lokatorlar, kimyoviy dori-darmonlar va h.k. Bugun videotelefonda gaplashar ekanmiz, yuzlab chaqirim naridagi suhbatdoshimizni ko'rish va u bilan gaplashish uchun ot-ulovda yoki piyoda boradigan bo'lsak, necha kunlab yo'l bosishimiz kerakligi haqida o'ylab o'tirmaymiz, to'g'rirog'i, bu esimizga ham kelmaydi. Chunki texnika bizning yashash muhitimizga aylanib qolgan.

Faqat bugina emas. Inson endilikda o'zi yashayotgan butun boshli sayyoraga ta'sir ko'rsata boshladi. Er tarixida inson birinchi marta ulkan geologik kuch bo'lib maydonga chiqdi. Insoniy tafakkur biosferadagi o'zgarishlarning asosiy sababiga aylandi. Noosfera ta'limoti asoschilaridan biri buyuk rus olimi V.I.Vernadskiy ilmiy tafakkur va inson mehnati ta'siri ostida biosfera yangi holat bo'lmish noosferaga o'tayotganligini, butun geologik davr mobaynida yaratilgan, o'z muvozanatlarida barqarorlashgan biosfera inson ilmiy tafakkuri bosimi ostida tobora kuchliroq va teranroq o'zgarishga kirishganini ta'kidlaydi: «Sayyoramiz yuzi - biosfera inson tomonidan ongli va asosan ongsiz ravishda keskin kimyoviy o'zgarishlarga duchor etilmoqda, - deb yozadi u. -Inson quruqlikning fizikaviy va kimyoviy havo qobig'ini, uning barcha tabiiy suvlarini o'zgartirmoqda... Hozir biz biosferadagi yangi geologik evolyutsion o'zgarishlarni boshdan kechiryapmiz. Biz noosferaga kirib boryapmiz».<sup>1</sup>

Ana shu nuqtadan tafakkur o'zi nima degan muammo paydo bo'ladi. Bu haqda V.I.Vernadskiy shunday mulohaza bildiradi: «Tafakkur energiyaning shakli emas. U qanday qilib moddiy jarayonlarni o'zgartira oladi? Bu masala hanuzgacha ilmiy jihatdan echilishi topgan emas»<sup>2</sup>.

Vernadskiy hayratga solgan masala hozir ham o'sha-o'sha, hol etilmagan.

Xo'sh, tafakkur o'zi nima? U biologik hodisa bo'lmish insonda, uning ruhiy-fiziologik yaxlitlikdan iborat miyasida tug'iladi, lekin tug'ilishi bilan biologik qobiqdan chiqadi va tashqi muhitda energiyaga o'xshab nimanidir yaratadi. Endi

<sup>1</sup> Vernadskiy V.I. Nachalo i vechnost jizni Moskva. Sov. Rossiya, 1989. S. 186 – 187.

<sup>2</sup> 'Osha manba.B185.

inson bilan uning tafakkuri orasida muayyan masofa paydo bo'ladi, masofa uzoqlashgani sari tafakkurning mohiyati ayon bo'lib boradi: inson kutgan oqibat kutilgandan boshqacha mazmun kasb eta boshlaydi. Nega? Bizningcha, ....

Noosferada, yuqorida aytganimizdek, inson fikri narsalashadi, o'z intellektimiz narsalarga aylanib, bizni o'rab oladi. Insonning ichki tabiati muhit mavqeini egallab, tashqi tabiatga ta'sir ko'rsata boshlaydi va ko'p hollarda bundan eng avvalo insonning o'zi ozor chekadi. Tafakkur biologik xususiyatga ega bo'lmagani uchun biologik muhitning o'rnini egallashga, uni asta-sekin siqib chiqarishga harakat qiladi. Bu harakat ma'lum nuqtadan o'tganidan so'ng esa o'z ijobiy xususiyatini yo'qota boradi va insoniyat uchun salbiy hodisaga aylana boshlaydi. Atom, vodorod, neytron bombalarining kashf etilishi, yadro kallakli ballistik raketalarining yaratilishi ana shunday salbiy hodisalardandir. Bundan tashqari, noosferaning paydo bo'lishi atmosferani, olamiy okeanni, er osti va er usti suvlarini, nabototni, hayvonotni, hatto insonni ich-ichidan kimyoviy zaharlanishga olib kelmoqda. Hozirgi kunda tirik organizmlarning, o'simliklarning, hayvonlarning ko'pgina turlari jisman yo'q bo'lib ketish arafasida turibdi. Ayniqsa, joy topolmay, okean bo'ylab kemalarda suzib yurgan radioaktiv chiqindilar yoki ularning kimsasiz guzal orollarga ko'mib tashlanishi, kislota yomg'irlarining ko'payib borishi singari hodisalar bag'oyat xatarli. Afsuski, inson ko'ra-bila turib, o'zi o'tirgan shoxga bolta urishni to'xtatmayotir.

Bu muammolarning hal etilishi faqat atrof-muhitni kimyoviy zahardan ekologik tozalashnigina emas, balki, eng avvalo, global ma'noda, XXI asr kishisi ongini texnokratiya zaharidan forig'lantirishni taqozo etadi. Ya'ni ular insoniyat oldida endilikda ekologik hodisa emas, balki tom ma'nodagi axloqiy muammolar sifatida ko'ndalang bo'lib turibdi. Mashhur avstriyalik etolog olim, Nobel mukofoti laureati Konrad Lorentsning: «Yoppasiga va tez yoyilib borayotgan jonli tabiatga begonalashish hodisasi uchun asosan tsivilizatsiyamiz kishisidagi estetik va axloqiy to'poslik aybdordir», - degan so'zlari shu nuqtai nazardan diqqatga sazovordir.<sup>1</sup>

Yuqorida aytilganlardan chiqadigan xulosa bitta: kelajakda inson o'zini va o'z sayyorasini muqarrar halokatdan qutqaraman desa - XXI asrdan boshlab etosfera davriga o'tishi kerak; axloqiylik har birimiz uchun har qadamda bugungi texnikaviy muhit kabi zaruratga aylangandagina bunga erishish mumkin. Bunda Amaliy etika fanining o'rnini nihoyatda beqiyos.

Zamonamizning global jarayonlari insoniyat oldiga uning mavjudligi va kelajagini dovom ettirishi uchun yangidan-yangi ma'naviy, axloqiy talab va ma'suliyatlar qo'ymoqda. Shaxs axloqiy kamolotiga katta ta'sir qilmoqda. Bioterrorizm - bu biomeditsina texnologiyalarini yovuzlik niyyatida

<sup>1</sup> Lorens K. Vosem smertnykh grexov sivilizovannogo chelovechestva. Jurnal. "Voprosy filosofii" № 3, 1992. s. 42.

qo'llanishining mumkinligi ekan, ushbu jarayonlar insoniyatga jiddiy xavf solmoqda. Zamonaviy biomeditsina texnologiyalarining insoniyat uchun zararli oqibatlarini oldini olishining asosiy omillaridan biri bu ma'naviy, axloqiy ma'suliyatli olimlar, texnologlarni tarbiyalash, axloq ilmini fanda qo'llash, tibbiy amaliyotda va ilmiy izlanishlarda insoniylikka yo'naltirilgan madaniyatni shakllantirish bo'lib qolmoqda. Inson doimo hayot va o'lim, tug'ilmoq va ma'naviy ruhiy va jismoniy azob kabi murakkab savollarga javob izlaydi va ularga nafaqat mantiqiy javob, balki aniq qarorlarni talab qiladi. Ma'naviy, ruhiy va jismoniy azob – bu shunday favqulotta holatki, inson o'z tabiati haqida fikrlay olmaydi. Ushbu holatni engillatish uchun azobning jismoniy mexanizmi emas, uning sabablari ravshan bo'lishi, azobning ma'naviy tushunchalar asosidagi talqini, va uning yuqori darajadagi ma'nosi ayon bo'lishi lozim. Ko'pchilik insonlar insoniyatning va dunyoning ilmiy jihatdan kelib chiqishi haqidagi fikrlarga qo'shilsalarda, azob va kasallikning diniy -ma'naviy jihatdan talqin qilish bilan qoniqadilar. Ushbu talqin quyidagicha.

Azobning sababi dushmanlarning ishi emas, insonning o'zi, uning xulqidir. Dunyo azoblarga to'la va ular muqarrardir. Azoblar –yovuzlikning namoyon bo'lishidir, uning timsolidir. Azoblar insonga o'z-o'zidan berilmaydi, nima uchundir beriladi.

Demak insonning ijtimoiy muhofazasi –axloqiy zaruriyatga aylanib bormog'i lozim ekan, Bioetika fanining maqsadi insoniyatni biotexnologik fojealardan himoya qilish va ushbu jarayonlardagi jinoiy shoshqaloqliklarning oldini olish hisoblanadi. Biomeditsina etikasi – bu amaliy etikaning yo'nalishi bo'lib, uning bosh maqsadi tug'ilmoq, hayot va o'lim, insoniyatning kelajagini davom ettirish kabi masalalarga fanning aralashuvini tahlil qilish, oqibatlarini baholash va ushbu jarayonlarning axloqiy qoidalarini ishlab chiqishdan iboratdir.

Bioetika hozirgi zamon amaliy etikasining muhim yo'nalinlaridan biri-inson hayotining eng oliy axloqiy qadriyat sifatida qaraydi. Shu bilan birga, inson hayotini saqlab qolish muammosini yaxshilik va yomonlikni farqlashning muhim mezon, deb hisoblaydi. Hozirgi zamon fanida Bioetika etika tirik mavjudotlar, shu bilan birga, insonga ham bo'lgan munosabatlarning axloqiy regulyativi, deb qaraladi. Insonning tabiat bilan uzluksiz aloqasini ma'naviy tahlil asosida, tabiatni muhofaza etishda axloqiy javobgarlik Bioetika etikaning madaniy negizini tashkil etadi. Bioetika, sotsial masalalar bilan birgalikda, qadriyatlar muammosini ham qamrab oladi. Bioetika maqsadlaridan biri –shaxsni turli holatlarga solish imkoniyatlarini yaratuvchi, inson xatti-xarakati, ruhiyatini o'zgartirish mumkin bo'lgan, uning ustidan o'tkazilayotgan xilma-xil tadqiqotlarni cheklash mezonlarini ishlab chiqadi. Bioetika muammolarini ishlab chiqishda faylasuflar, huquqshunoslar sotsiologlar, tibbiyot xodimlari va sotsial axloqshunoslar qatnashmoqda. Bioetik muammoning

dolzarblashuvi, ilmiy texnik taraqqiyot, biotexnologiya, irsiyat texnologiyasini rivojlanishi bilan bog'liq bo'lib, tabiiy muhitni maqsadga muvofiq va tez o'zgartirishda, insonga katta quvvat berdi. Tabiiy evolyutsion jarayonlari uchun ilgari millionlab yillar kerak bo'lsa, endi inson bu jarayonlarni qisqa vaqt ichida amalga oshirishi mumkin bo'ldi. Irsiyat texnologiyasi va biotexnologiya inson taqdiriga bevosita aralashib, irsiyatni dasturlashtirish, turli tirik organizmlar, irsiyat asosida yangi organizmlar, biologik robotlar yaratish masalalarini ko'tarib chiqdi. Natijada, insoniyatning rivojlanishi, fiziologik jihatdan qayta o'qish imkoniyatlarini, diniy tahlil etish muammolarini keltirib chiqardi. Irsiyatga qanday ma'naviy mezonlarga ko'ra, qaysi ideallarga, qaysi qadriyatlarga asoslanib, aralashish muammolari Bioetika etikaning tadqiqot ob'ekti bo'lib xizmat qiladi.

Bioetika, klassik tibbiyot etikasidan farq qiluvchi yangi yo'nalish sifatida, XX asrning ikkinchi yarmida paydo bo'ldi va jadal rivojlana boshladi. **Bioetika** – tibbiyot va biologiyaning rivojlanishiga qarab yuzaga keladigan axloqiy, huquqiy va ijtimoiy muammolarni o'rganuvchi bilim sohasi. Boshqacha qilib aytganda, bu borliqqa axloqiy munosabat mezonlari to'g'risidagi fan, jamiyat manfaatlarini ilmfan tajovuzidan himoya qiluvchi institut, shuningdek tibbiyot sohasidagi axloqiy muammolarni hal qilish metodologiyasidir. Bioetikaning asosiy maqsadi – insonni uning hayoti va sog'lig'iga tibbiyot va biologiyaning salbiy ta'siridan himoya qilish. «Bioetika» atamasini amerikalik mashhur onkolog vrach, olim va insonparvar Van Ranseler Potter (1911-2001) ilmiy muomalaga kiritdi.

Bioetika bugungi kunda vrach va patsient munosabatlarining axloqiy jihatlariga, evtanaziya va o'limni aniqlash, inson a'zolarini transplantatsiya qilish, homila tushirish (abort), klonlash, irsiy injeneriya masalalariga alohida e'tiborni qaratmoqda. Akademik doiralarda «bioetika» tushunchasi aynan shu ma'noda qo'llaniladi. Bunda tibbiyot etikasi tushunchasi o'rniga ko'pincha deontologiya tushunchasi qo'llaniladi. Deontologiya etikaning burch va majburiyat muammolarini o'rganuvchi bo'limidir (atamani ingliz faylasufi Bentam XIX asrda muomalaga kiritgan).

XX asrning ikkinchi yarmida transplantologiya, irsiy diagnostika, irsiy injeneriya va klonlash rivojlana boshladi. Tibbiyot texnikasi o'z rivojlanishida shunday daraja etdiki, vrach ilgari o'lishi muqarrar bo'lgan bemorlarning hayotini endilikda sun'iy ravishda saqlab tura oladi. Texnika sohasidagi yutuqlar bemorlar, o'lim to'shagida yotganlar va nogironlarning huquqlarini yuridik jihatdan asoslashning yangi-yangi shakllari va usullari paydo bo'lishiga olib kelmoqda. Etikaning boshqa muammolardagi ishtiroki ham kengaydi – siyosatchilar o'z faoliyatida etika qoidalariga tobora ko'proq tayanmoqdalar, jamoatchilik biznes va reklama ustidan etik nazoratni o'rnatishni talab etmoqda, ekologiya esa atrof muhit bilan munosabatlarni tartibga solishda etika qoidalariga rioya etish zarurligini

ko'rsatmoqda. Axloq normalariga muvofiqlik mezoni bank faoliyatining nafaqat qonuniyligi, balki muvaffaqiyatlilikining ham negizi sifatida ilgari surilmoqda.

Bioetika amaliy etikaning eng rivojlangan va ishlab chiqilgan qismiga aylandi. Boz ustiga, bioetika mustaqil fan maqomiga ham da'vogar bo'lishi mumkin, degan fikr ham ilgari surilmoqda. Darhaqiqat, bioetika ilgari surayotgan muammolar juda muhim va rang-barang, ularni tahlildan o'tkazish darajasi juda katta, bioetika ko'rib chiqib hal qilayotgan masalalar juda muhim va dolzarbdir. Har qanday mamlakatda transplantatsiya, reanimatsiya, sun'iy urug'lantirish, irsiy davolash zamonaviy vrach amaliyotining muayyan yo'nalishlari hisoblanadi. Ilmiy bilim, shu jumladan tibbiy-biologik bilimlar ham universalidir.

**Paternalizm** – tibbiyot etikasining dastlabki modellaridan biri. Bu shunday bir munosabatlar modeliki, unda vrach bemorga nisbatan nafaqat mehribon ota, balki podsho va xudo sifatida ham ishtirok etadi, zero, insonning hayoti, sog'lig'i, erkinligi va baxti uning qo'lida bo'ladi. Professional tibbiyot etikasining mazmuni «foyda keltirish», «ziyon etkazmaslik», «bemorning ishonchini qozonish» singari printsiplar bilan belgilanadi, ya'ni vrach faoliyatini tartibga solishga yo'naltirilgan va «tibbiy deontologiya» deb ataladi.

Tibbiyot – yuksak darajada professionalizmni talab etuvchi va etika printsiplarining izchil tizimini nazarda tutuvchi soha. Shaxsiy darajada tibbiyot etikasi vrachning kasbiy erkinligini va muruvvatini o'z ichiga oladi. Kasbiy erkinlik – davolash kursini boshqa shaxslarning aralashuvisiz belgilash huquqi. U patsientning o'z sog'lig'i haqida axborot olish huquqi bilan cheklanadi.

Totli o'lim-**evtonaziya** ham biotibbiy axloqning global muammolaridan. Bedavo dardga chalingan bemorni azob-uqubatlardan qutqarish uchun uning o'limini qasddan tezlashtirishga munosabat yuzasidan tibbiyotchilar, yuristlar, sotsiologlar va psixologlar orasida ko'p sonli bahslar hanuz davom etmoqda. Ingliz faylasufi Frensis Bekon (1561-1626) engil og'riqsiz o'limni belgilash uchun «evtanaziya» (yunoncha «euthanasia», «eu» – yaxshi, «thanatos» - o'lim), ya'ni azob-uqubatlarsiz, yaxshi, oson va engil o'lim atamasini muomalaga kiritdi.

Xudoning ixtiyoridan tashqari o'limni ixtiyor qilgan kishi diniy nuqtai nazardan kechirilmaydi. Chunki sabrli, bardoshli bo'lish, bu dunyo iztiroblarini toqat bilan boshdan kechirish insonning vazifasi. Lekin axloqiy jihatdan olib qaraganda masala qanday baholanadi? Deylik, muayyan inson, bemor o'z kunlarining sanoqli ekanini, lekin bu kunlar sanoqsiz azoblar ichida o'tishini biladi. Shu bois u o'zining ana shu holatini juda yaxshi biladigan boshqa bir odam - shifokordan azoblariga chek qo'yishni so'raydi. Uning iltimosi va shu iltimosni bajarish uchun shifokor tomonidan qilingan xatti-harakatlarni qanday, baholash mumkin? Bu xatti - harakatlarni insoniylik va insonparvarlikning ko'rinishi sifatida

qabul qilish to'g'rimi? Umuman, evtanaziya axloqiylikmi, axloqsizlikmi? Bu muammo ham umumjahoniy miqyosda o'z echimini kutmoqda.

Chunki tabobat borasidagi so'nggi tadqiqotlar inson o'limi bir lahzada ro'y bermasligini, yurak urishi va nafas olish to'xtaganda ham, miya o'lmasa insonni o'ldi deyish mumkin emasligini isbotlab berdi. Dastlab miya qobig'i, undan keyin miya tanasi halok bo'ladi. Shundan keyingina insonni o'lgan deb hisoblash mumkin. Zero, hozirgi kunda toki miya o'lmas ekan, ko'pgina ichki a'zolarining yangi tabobat texnikasi vositasida ishlashda davom etishini ta'minlash va shu orqali ancha muddatgacha insonda tiriklikning minimal darajasini saqlab turish mumkin. Demak, yurak yoki buyrakning ko'chirib o'tkazilishi hali o'lmagan odamning minimal tiriklikka bo'lgan huquqini poymol qilishdir. Buning ustiga, amerikalik neyroxirurg Pol Pirson o'z tajribalariga asoslanib, yurak ko'chirib o'tkazilganda ruh ham ko'chib o'tadi, degan fikrni bildiradi. Chunonchi, 19 yashar qizning yuragi 40 yashar erkakka o'tkazilganida, yigitning fe'l-atvorida juda katta o'zgarishlar ro'y bergan. Yoki 20 yashar qizning yuragi va o'pkasi 36 yashar ayolga o'tkazilganda ham shunga o'xshash o'zgarishlar yuzaga kelgan: ayolning kulishigacha o'zgarib ketgan. Axloqiy nuqtai nazardan buni qanday izohlash mumkin?

Faol evtanaziya quyidagi shakllarda namoyon bo'lishi mumkin:

1) «Rahmdillikka asoslangan odam o'ldirish» – vrach umidsiz xasta odam chekayotgan azob-uqubatlarni ko'rib, ularni bartaraf eta olmaganligidan, aytaylik, unga og'riq qoldiruvchi preparatni me'yordan ortiq miqdorda kiritadi va natijada bemor vafot etadi.

2) «Vrach yordamida o'z joniga qasd qilish» – bunda vrach bedavo dardga yo'liqqan bemorga o'z joniga qasd qilishga ko'maklashadi.

3) Shaxsiy faol evtanaziya – vrach yordamisiz ham sodir bo'lishi mumkin. Bunda bemor uning tez va og'riqsiz vafot etishiga olib keladigan uskunani o'z qo'li bilan ishga tushiradi, ya'ni o'z joniga o'zi qasd etadi.

Xullas, aktiv evtanaziya muammosining mohiyati vrachning bemorni unga rahmi kelganidan yoki o'layotgan odamning yoki uning yaqinlarining iltimosiga ko'ra hayotdan ayirishidan iborat. Bunday aktiv evtanaziya nafaqat bizning mamlakatimizda, balki boshqa davlatlarda ham qattiq qoralanadi. Chet elda vrachlar va yuristlarning aksariyati bunga mutlaqo yo'l qo'yib bo'lmaydigan, hatto «rahmdillik»dan yoki o'lishi tayin bo'lgan bemorning iltimosi bilan qilingan taqdirda ham jinoiy javobgarlikka loyiq qilmish deb qaraydilar. Shunga qaramay, evtanaziyaga hatto yuridik huquqlar berilgan mamlakatlar ham bor. Xo'sh, ular buni nima bilan izohlaganlar? Evtanaziyaga tibbiy va ma'naviy-axloqiy nuqtai nazardan ziddiyatli qarashlar mazkur hodisaga yuridik jihatdan ham har xil baho berilishiga sabab bo'ldiki, bu bir qancha mamlakatlarning qonun hujjatlarida o'z aksini topdi.

**Klonlashtirish** atamasi ingliz tilidagi “clone”, “cloning” soʻzlaridan kelib chiqqan va hozirgi kunga kelib oʻz yozilishi, oʻqilishini biroz oʻzgartirgan. Ingliz tilida bu soʻz biologik termin sifatida yuz yillar oldin qoʻllana boshlagan. Biroq shu qisqa vaqt ichida oʻz maʼnosini bir necha marta oʻzgartirishga ulgurgan. Dastlab klon soʻzi vegetativ yoʻl bilan, yaʼni bir oʻsimlik urugʻidan olingan oʻsimliklar guruhiga nisbatan qoʻllangan. Oradan bir muncha vaqt oʻtib, ushbu atama bakteriyalar turkumini etishtirishga nisbatan ishlatilgan. Biologik yutuqlar shuni koʻrsatadiki, oʻsimliklar va bakteriyalarning kelib chiqishi, avlodlarning organizmi- ishlab chiqaruvchisi bilan klonning barcha genetik asoslari bir xil boʻladi. Keyinchalik shu yoʻl bilan olingan yoki shakllantirilgan organizmlar klonlashtirish deb ataladi. Klonlashtirishga oid koʻplab baxs-mulohazalar mavjud. 1977 yili butun insoniyat klonlashtirish yoʻli bilan dunyoga keltirilgan shotland qoʻzichogʻi Dollini koʻrib, xayratga tushdi. Bu paytda odamni klonlashtirish ustida olib borilayotgan tajribalarga boʻlgan munosabat toʻgʻrisida baxs ketayotgan va baxslar quyidagi savollar bilan bogʻliq edi. Keyinchalik klonlashtirish odamlarga genetik kasalliklarni davolashda ham katta yordam beradi. Agar xavfli genlar, yaʼni qandaydir kasallik alomatlarini oti xromosomasida aniqlansa, unda otaning tuxumdoniga uning oʻz xujayrasi oʻtkaziladi. Shunda xavfli genlardan xoli farzand dunyoga keladi. Insonni klonlashtirish oʻz-oʻzidan insoniyat axloqi va ruhiyatini Buzish bilan barobar emasmi degan muammolardan iborat. Maʼlumki, inson faqat jismoniy tanadan iborat emas, unda yurak, qalb, hissiyot tafakkur, orzu umid va uning roʻyobiga qaratilgan inson xatti xarakatlarining bir-biriga bogʻliq va yaxlit tizimi mavjud.

**Transplantatsiya**—odam va xayvonlarda potologik jarayon natijasida shikastlangan yoki olib tashlangan toʻqimalar va organlar oʻrniga sogʻlomini koʻchirib oʻtkazish. Xirurgiya usuli sifatida qadimdan maʼlum. Teri, muskul, nervlar, koʻzning muguz pardasi, yogʻ, va suyak toʻqimasi, yurak, buyrak va boshqa organlar koʻchirib oʻtkaziladi. Qon quyish-transplantatsiyaning alohida turidir. Koʻchirib oʻtkaziladigan toʻqima yoki organ kimdan olinganiga qarab quyidagicha farqlanadi. autotransplantant-bemorning oʻzidan, allotransplantat-odamdan odamga, **ksenotransplantat**-boshqa individdan. Hozir buyrak transplantatsiyasi juda keng yoʻlga qshyilgan. Boshqa organlar, yurak, jigar, endokrin bezlar, oʻpka va boshqa organlarni koʻchirib oʻtkazish maxsus klinikalarda bajariladi. Transplantologiya-deyarli chorak million ogʻir kasalliklarga duchor boʻlgan insonlarga hayotlarini davom ettirish imkoniyatini berdi, lekin shuning bilan bir qatorda bir qator axloqiy, huquqiy va ijtimoiy muammolarni ham keltirib chiqardi. Ushbu muammolarning eng muhimi bugungi kunda bu allotransplantatsiya (insondan insonga organlar va toʻqimalarni koʻchirib oʻtishdir). Ushbu masalada muammo donorlik organlarining etishmasligidadir. Transplantologiya- yashashga

umid qolmagan, dori darmonlar foyda bermagan insonlarning so'ngi chorasi va yashash uchun so'nggi umidi bo'lib qolmoqda. Lekin ushbu muammo bugungi kunda ko'pgina jinoiy holatlarga ya'ni, inson organlarini sotish jarayonlariga olib kelmoqda. Ushbu muammolarni echimining bugungi kundagi yangi yo'llardan biri hioblangan, insonga xayvonning organi yoki to'qimasini ko'chirib o'tish – ya'ni **kxenotransplantatsiyadir**. Lekin yaqin-yaqingaga u faqat nazariy jihatdan mavjud edi, chunki organlarning insondan –insonga ko'chirib o'tilganda bir qancha muammolar mavjudki, xayvondan insonga ko'chirilganda ushbu muammolar bir necha marta ko'payadi. Afsuski ushbu organlarning insonda qancha vaqt faoliyat ko'rsatishi mumkinligini hali hech kim bilmaydi. Ta'kidlash kerakki, ushbu sohada ba'zi muvaffaqiyatli tajribalar o'tkazilgan. 1963 yil K.Rimstma insonga shimponzening buyragini o'tkazgan va u 9 oy mobaynida faoliyat ko'rsatgan.

**Donorlarning** himmati tufayli xar yili millionlab insonlarning hayoti saqlab qolinadi. Ayniqa kamqonlik, oqqon, saraton kabi kasalliklarda tug'ruq paytida va turli favqulotda holatlarda quyiladigan qonning ahamiyati kattadir. Donorlik inson qalbida ezgulik, vatanparvarlik, odamiylik tuyg'ularini uyg'otadi. Donorlarning himmati tufayli xar yili millionlab insonlarning hayoti saqlab qolinadi. Ayniqa kamqonlik, oqqon, saraton kabi kasalliklarda tug'ruq paytida va turli favqulotda holatlarda quyiladigan qonning ahamiyati kattadir. Donorlik inson qalbida ezgulik, vatanparvarlik, odamiylik tuyg'ularini uyg'otadi.

G'arb tibbiy Bioetikasida diniy va dunyoviy qarashlarida keskin farq mavjud, chunki dunyoviy qarashlarda diniy qarashlarning ayrim jihatlari keskin tanqid qilinadi. Islom falsafasida esa tibbiy amaliy etika alohida yo'nalish sifatida shakllanmagan, ammo axloqiy qarashlarning tibbiyotdagi ahamiyati, ilmiy izlanishlarda va amaliyotda uning ijobiy tomonlari tahlil etiladi. Musulmon Sharqi mutafakkirlari insonning ruhiyati, qalbi va axloqiy –ma'naviy tomonlarini tibbiyotdagi ahamiyatini alohida ta'kidlaganlar va axloqiylikni tibbiyot ilmining bir bo'lagi sifatida qaraganlar. Al-G'azzoli tabiblarni insonning tanasini va ruhiyatini davolovchi ikki guruhga ajratadi. Ikkinchi toifadagi tabiblar insonning yuragini davolaydi, yurak bu erda nafaqat inson organi shuning bilan bir qatorda insonning o'zligini anglashi va vijdoni deb ham tushuniladi. Al-Roziy esa "tibbiyot" termini inson organizmini davolash va profilaktikasini anglanishini ta'kidlaydi, "tibbi ruhoni" atamasi esa insonning ma'naviyati, axloqi va xulqini takomillashtiruvchi tushuncha sifatida tahlil qilinadi.

Hozirgi zamon amaliy etikasining muhim yo'nalishlaridan biri-inson hayotining eng oliy axloqiy qadriyat sifatida qaraydi. Shu bilan birga, inson hayotini saqlab qolish muammosini yaxshilik va yomonlikni farqlashning muhim mezonini, deb hisoblaydi. Hozirgi zamon fanida Bioetika etika tirik mavjudotlar, shu bilan birga, insonga ham bo'lgan munosabatlarning axloqiy regulyativi, deb qaraladi. Insonning

tabiat bilan uzluksiz aloqasini ma'naviy tahlil asosida, tabiatni muhofaza etishda axloqiy javobgarlik Bioetika etikaning madaniy negizini tashkil etadi. Bioetika, sotsial masalalar bilan birgalikda, qadriyatlar muammosini ham qamrab oladi. Bioetika maqsadlaridan biri –shaxsni turli holatlarga solish imkoniyatlarini yaratuvchi, inson xatti-xarakati, ruhiyatini o'zgartirish mumkin bo'lgan, uning ustidan o'tkazilayotgan xilma-xil tadqiqotlarni cheklash mezonlarini ishlab chiqadi. Bioetika muammolarini ishlab chiqishda faylasuflar, huquqshunoslar sotsiologlar, tibbiyot xodimlari va sotsial axloqshunoslar qatnashmoqda. Bioetik muammoning dolzarblashuvi, ilmiy texnik taraqqiyot, biotexnologiya, irsiyat texnologiyasini rivojlanishi bilan bog'liq bo'lib, tabiiy muhitni maqsadga muvofiq va tez o'zgartirishda, insonga katta quvvat berdi. Tabiiy evolyutsion jarayonlari uchun ilgari millionlab yillar kerak bo'lsa, endi inson bu jarayonlarni qisqa vaqt ichida amalga oshirishi mumkin bo'ldi. Irsiyat texnologiyasi va biotexnologiya inson taqdiriga bevosita aralashib, irsiyatni dasturlashtirish, turli tirik organizmlar, irsiyat asosida yangi organizmlar, biologik robotlar yaratish masalalarini ko'tarib chiqdi. Natijada, insoniyatning rivojlanishi, fiziologik jihatdan qayta o'qish imkoniyatlarini, diniy tahlil etish muammolarini keltirib chiqardi. Irsiyatga qanday ma'naviy mezonlarga ko'ra, qaysi ideallarga, qaysi qadriyatlarga asoslanib, aralashish muammolari Bioetika etikaning tadqiqot ob'ekti bo'lib xizmat qiladi.

Mazkur hodisa so'nggi bir necha o'n yillik ichida sof tabobat muammosidan axloqiy muammoga aylandi: endilikda, birovning muayyan a'zosini boshqa bemorga jarrohlik operatsiyasi yo'li bilan o'tkazish orqali kishi hayotini saqlab qolish axloqiy nuqtai nazardan qanday baholanadi, degan savol kun tartibida dolzarb bo'lib turibdi.

Biologik axloq deganda, odatda, bizda ham, jahon axloqshunosligida ham asosan tibbiy axloq, tabobat muammolariga doir axloqiy yondashuvlar tushuniladi, xolos. Bu unchalik to'g'ri emas. Bizningcha, biologik axloq muammolari ikki yo'nalishdan iborat: biri - insonlarning kichik biologik olam sifatidagi katta biologik olamga bo'lgan munosabatlari bilan bog'liq «tashqi», ikkinchisi - insonlarning «o'z-o'ziga va o'zaro munosabatlaridagi tibbiyot bilan bog'liq ichki» axloqiy masalalar.

Biz odatda «ekologik etika» deganimizda aynan birinchi hodisani nazarda tutamiz. Ikki biologik olamning munosabatlarini, ya'ni ekologik axloqiy muammolarni biologik axloq doirasida o'rganish maqsadga muvofiqdir.

Hozirgi paytda ekologik axloqning insoniyat uchun naqadar muhimligini hamma biladi, lekin o'z bilganidan qolmaydi – muammoning murakkabligi shunda. Biz yuqorida noosfera, tafakkur borasidagi mulohazalarimizda ekologik buhroilarning ba'zi ko'rinishlariga to'xtalib o'tdik. Biroq, yana undan tashqari so'nggi paytlarda jahon bo'ylab sintetik jismlar ishlab chiqarishning keng yo'lga qo'yilganligi, hayvonot va ayniqsa o'simliklarning gabrid usulida yangi turlarining

vujudga keltirilishi singari hadislar ham ekologik ahamiyatga ega. Xo'sh, ular tabiat bilan silngishib, uyg'unlashib keta oladimi, tabiat ularni o'ziniki qila biladimi? Bunga hozir javob topish qiyin, ehtimol kashfiyotlarimizning oqibatlarini, yuqorida aytib o'tganimiz - muayyan tafakkur bilan inson orasidagi «masofaning uzoqlashib» borishi natijasida ayon bo'lar?...

**Abort.** Amaliy etikaning anchadan buyon ko'pchilikka ma'lum muammosi, bu – abort. Ma'lumki, to'rtinchi haftaning oxirida homilada dastlabki yurak urishi paydo bo'ladi. Sakkizinchi haftaning oxirida esa miya tanasining elektrofiziologik faolligini kuzatish mumkin. Demak, har qanday abort, xalq ta'biri bilan aytganda, jonlini jonsiz qilish, tirik organizmni tiriklikka bo'lgan huquqdan mahrum etishdir. Xo'sh, abortni axloqsizlik tarzida baholash kerakmi yo yo'qmi? Yoki AQSh olimlari tomonidan «inson zotini yaxshilashga» qaratilgan tadqiqotlarni olib ko'raylik. Ularda «yaxshilangan» - sog'lom, kuchli intellekt egasi bo'lgan odamlar hujayrasini ayol organizmidagi endi rivojlanishga kirishgan nisbatan «oddiy odam» hujayrasi o'rniga ko'chirib o'tkazish tajribalarini olib borish mo'ljallangan. Ular amalda tatbiq etilsa, asta-sekinlik bilan insoniyat irsiyat jamg'armasining (genofondining) bir yoqlama o'zgarishiga olib kelishi shubhasiz.

Homila tushirish (abort) – vrachlar, siyosatchilar, yuristlar, faylasuflar va olimlarning bunday muhim qarorlar qabul qilish mas'uliyati munosabati bilan ko'riladigan masala. Shuni qayd etib o'tish kerakki, ayol barcha asrlarda ham o'z farzandlarini o'ldirgan. Bunday farzandkushlik qadimgi jamiyatga (ayniqsa, matriarxat davriga) ko'proq xos bo'lgan. Buning asosiy sababi – ayol o'zi tug'ishi mumkin bo'lgan barcha bolalarni boqib katta qilishga jismonan qodir bo'lmagan. Qadimda yangi tug'ilgan chaqaloqlarga ancha shafqatsiz munosabatda bo'lingan, natijada faqat kuchlilar yashab qolgan.

Rumo papasi buni inson zotiga, insoniy tabiatga aralashuv, uni zo'rlik yo'li bilan o'zgartirish, nafaqat katta gunoh, balki o'ta axloqsizlik deb atadi. Xo'sh, bunday tajribalarni qanday baholash kerak? Bu savollarga ham Amaliy etika javob topmog'i lozim.

**O'lim jazosi.** O'lim, ma'lumki, axloqiy nuqtai nazardan eng ulkan yovuzlik hisoblanadi. Ayniqsa majburiy o'lim. Shunga ko'ra, o'lim jazosining huquqiy jihatdan qo'llanilishi mohiyatan jamiyat tomonidan yovuzlikka qarshi yovuzlik bilan javob berishdir.

Payg'ambarimiz Muhammad alayhissalom islom dinining uch asosi borligini aytib, ularning birinchisi odam o'ldirmaslik ekanini ta'kidlaydilar. Buni imom G'azzoliy «Mukoshafaat ul – qulub»da shunday keltiradi: «Termiziy va boshqa hadislar rivoyat qiladilar: Rasulluloh buyurdilarki:

... Islomning uch dasturi bor. Dinning tamoyili shular ustiga qurilgan. Kim shu asoslardan tashqari chiqsa, bu bilan u kofirlikka qarab ketgan bo'ladi:

- 1 – Qonni (odam o'ldirishni) halol hisoblasa;
- 2 – Ollohdan boshqa iloh yo'qligiga guvohlik (shahodat) bermasa;
- 3 – Farz bo'lgan namozni va ro'zani inkor etsa».<sup>1</sup>

Demak inson hayoti eng oliy qadriyat ekani diniy nuqtai nazardan ham nafaqat tan olinadi, balki birinchi o'ringa qo'yiladi.

O'lim jazosini kimlar qanchalik oqlashga harakat qilmasin, u - jinoyatchini jazolashdan ko'ra, undan o'ch olishga qaratilgan, qadim-qadimlardan kelayotgan xun olish tamoyilining «demokratlashgan», yangilangan shakli sifatida namoyon bo'ladi. Aslida esa insonning muayyan jinoyatni sodir etgan hatti-xarakatlari qoralanishi kerak, uning o'zi emas, u qilgan yovuzlik o'limga mahkum etilishi lozim - odamni emas, yovuzlikni o'ldirish oqilona ish emasmi?! Yovuzlikni o'ldirish, yovuzlik sodir etgan kishining uzzoq muddatli yoki bir umrlik qamoqdagi vijdon azobi va tazarrusi bilan amalga oshirilgani durustmasmi?!

Bu masalaning bir tomoni. Ikkinchi tomoni shundaki, nodemokratik tuzumlarda belgilangan o'lim jazosi kamdan-kam hollarda adolatli hukm bo'lib chiqadi. Chunonchi, Lenin, Stalin, Hitler, Pol Potlar hukmronligida millionlab odamlarning qatl etilishi yoki shu yaqin-yaqinlarda, sho'rolar tuzumi davrida O'zbekistonda o'tkazilgan «Paxta ishi» deb nomlangan qatag'on paytida otishga hukm qilinganlarning taqdiri bunga yaqqol misol bo'la oladi. Ana shu davrlarda o'limga hukm qilinganlarning juda ko'pchiligi keyinchalik oqlandi, ular gunohsiz deb topildi. Lekin hukm ijro qilib bo'lingan: nohaq jazolangan - qatl etilgan insonlar adolat tantanasini ko'rolmaydilar.

Uchinchidan, hatto demokratik jamiyatlarda sudlarning hamma vaqt ham yuz foiz to'g'ri va adolatli hukm chiqarishiga kim kafolat beradi - hakamlar ham inson, hamma qatori xato qilishi mumkin. Jamiyatning keyingi pushaymonidan qatl etilgan odamga nima foyda?

Bu misollarning hammasida o'lim - tor huquqiy jazo doirasidan chiqib ketadi hamda tarixda aldangan, adashgan insoniyatning, jamiyatning va shaxsning axloqsizligi sifatida baholanadi. Shu jihatdan qaraganda, hozirgi paytdagi ko'pgina demokratik mamlakatlarda o'lim jazosining bekor qilinishini o'sha jamiyatlar axloqiy darajasi bilan bog'liq ijobiy hodisa deyish mumkin. Bizning mamlakatimizda ham bu borada dadil qadamlar qo'yilganligi - avval yosh nuqtai nazaridan o'lim jazosini qo'llashning chegaralanganligi (60 yoshgacha), keyinroq esa uni butunlay bekor qilishga qaratilgan insonparvarlik harakatlari quvonarli voqea. Bu nafaqat bizga, balki Er yuzidagi barcha mamlakatlarga taalluqli muhim, umumjahoniy muammo. Amaliy etika oldida ana shunday, tobora globallashib borayotgan axloqiy muammolarni hal etishda etakchilik qilish vazifasi turibdi. Zero

<sup>1</sup>G'azzoliy. Mukoshafaat ul-qulub. Toshkent. B.253

mazkur global muammolarni bugungi kunda Amaliy etikaning ahamiyatini belgilab beruvchi barometrlar, deyishimiz mumkin.

Mamlakatimizning chinakam mustaqillikka erishishdan iborat o'z yo'li respublikani rivojlantirishning bir qator o'ziga xos xususiyatlari va shart-sharoitlarini har tomonlama hisobga olishga asoslanishini ta'kidlab Birinchi Prezident Islom Karimov «Avvalo, u aholining milliy-tarixiy turmush va tafakkur tarzidan, xalq an'nalari va urf-odatlaridan kelib chiqadi», -degan fikrni aytgan edi<sup>1</sup>. Darhaqiqat, chuqur ildizi o'tmishdagi an'anaviy jamoa turmush tarziga borib taqaladigan jamoaviylik asoslari O'zbekiston xalqiga tarixan xosdir. Bu borada xalqimizdagi mehmondo'stlik, sahovatpeshalik, millatidan qat'iy nazar odamlarga hayrixohlik, mehr-muravvatlilik, o'zgalar kulfatiga hamdard bo'lish, o'zaro yordam tuyg'usi, kishilar o'rtasidagi madaniy-axloqiy munosabatlarning asosiy me'yorlaridan hisoblanadi. Respublikamizda amalga oshiralayotgan isloxotlarning asosida ham, shuningdek, odamlarning turmush tarzida, kundalik hayotida, ruxiyatida hamda ma'naviy-axloqiy qadriyatlarini shakllantirishda anshunday ma'naviy omillar sezilarli ta'sirga ega. Zero, mamlakatimizda boshlanadigan har bir yil insonni har tomonlama rivojlantirishga qaratilgan nom bilan atalayotganligi "Inson islohot uchun emas, isloxot inson uchun" tamoyiliing amaldagi ifodasi bo'lab bormoqda.

Jamiyatimizdagi hozirgi yangilanish jarayonida axloqshunoslikning o'z o'rnini bor. Uning oldida yangi demokratik va huquqiy davlat barpo etishga kirishgan mamlakatimiz fuqarolarining, ayniqsa, yoshlarning axloqiy darajasiga mas'ullik va har tomonlama kamol topgan zamon kishisi tarbiyasini nazariy asoslashdek ulkan vazifalar turibdi. Ularni faqat qadimiy va har doim zamonaviy bo'lib kelgan axloqqa yangicha yondashuvlar asosidagina amalga oshirsa bo'ladi.

Yangicha yondashuvlardan biri-axloqshunoslikda milliy g'oya va mustaqillik mafkurasiga e'tiborni kuchaytirish bilan bog'liq. Chunki zamonaviy komil inson an'anaviy axloqiy qadriyatlar bilan yo'g'rilgan yangicha mafkuramizni o'zida mujassam etgan, milliy g'oyani o'z ruhiy olamiga singdirgan etuk shaxs bo'lmog'i lozim. Uning qalbida axloq mafkuraviylikni va mafkura axloqiylikni o'zida uyg'unlashtirgan ma'naviy hodisalarga aylanmog'i kerak. Chunki mafkura bir yoqlama, mahdud, o'ta siyosiyashtirilgan g'oyalar tizimi emas, u ham xuddi axloq kabi, axloq bilan yonma-yon turib, insonni yuksak ma'naviy parvozlarga da'vat etuvchi botiniy kuchdir.

Ma'lumki, mamlakatimiz mustaqillikka erishgani tufayli xalqimiz faqat yangi mustamlakachilik zanjiridangina ozod bo'lib qolmadi, balki ijtimoiy tuzum o'zgarishini boshdan kechirdi va kechirimoqda. Salkam bir asrlik totalitar tuzum

<sup>1</sup> Karimov I.A. O'zbekiston: milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, mafkura. T. O'zbekiston. 1993. B.40.

xalqni «temir qo'lqoplar» yordamida ushlab turdi: «yuqori»ning gapi-gap, shaxsning fikri mutlaqo inobatga olinmasdi, erkinlikning har qanday ko'rinishi davlatga qarshi jinoyat sifatida baholanar, chizib qo'yilgan chiziqdan chiqish mumkin emas edi. Jamiyat siniflarga bo'lib tashlanib, uning a'zolari yagona kommunistik mafkura asosida tarbiyalanardi. Nimani gapirish yoki gapirmaslik, nimani o'qish yoki o'qimaslik, nimani yozish yoki yozmaslik v.h. siyosiy-iqtisodiy va ijtimoiy-ma'naviy xatti-harakatlarning hammasi avvaldan belgilab qo'yilar, fuqarolardan jonli robotlar tarzida yashash talab qilinir, aks holda har qanday shaxs qamoqqa yoki ruhiy kasalxonaga tashlanar yoki fuqarolikdan mahrum qilinib, bir umr muhojirlikka, hatto o'limga mahkum etilar edi. Ana shunday «temir» siquv va qo'rquv ostida yashagan xalqning birdan ozodlikka chiqishi, daf'atan hamma o'zini erkin his qilishi silliq kechishi mumkin emasligi, hattoki ma'lum darajada xavfli ekani tabiiy.

Shuni ta'kidlash zarurki, so'nggi yillar mobaynida kishilarning ijtimoiy ongida muayyan o'zgarishlar sodir bo'ldi. Endilikda qadriyatlarni yangicha baxolash, ularni takomillashtirish, ilg'or milliy an'larni saqlagan xolda umuminsoniy qadriyatlarni hurmatlash tuyg'usi shakllanmoqda. Respublikamizning yangilanish va ijtimoiy taraqqiyot yo'li ijtimoiy turmushining iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy, ma'rifiy, ma'naviy-madaniy va boshqa sohalarini qamrab oladi. Bu yo'l mustaqil O'zbekiston ichki va tashqi siyosatining umumiy strategiyasini belgilab beradi. Shu bois yangilangan jamiyatning siyosiy va davlat tuzilishi insonga uning siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy turmush tarzini erkin tanlab olishini kafolatlaydi. Shu bois, mamlakatimizning ijtimoiy-ma'naviy sohalarida amalga oshirilayotgan isloxtlarda ma'naviyat va axloqiylikni qayta tiklash, ma'naviy-madaniy merosga ijobiy munosabatda bo'lish, xalqning milliy madaniyati va o'ziga xosligini ifoda etuvchi an'alarni rivojlantirish, uning guzalligini ro'yobga chiqarish muhim ahamiyatga ega.

Kishilarning turmush tarzi va madaniyatini, maishiy hayotini takomillashtirish, shaxsni har tomonlama kamol toptirish hamma vaqt jamiyatning muhim va asosiy maqsadi bo'lib kelgan. Axloqiy fazilatlar, ularni shakllantirishning milliy jihatlari har doim saqlanib qoladi va jamiyat taraqqiyoti uchun muhim ahamiyatga moyil bo'ladi. Xalqimizning milliy ma'naviyati, o'ziga xos axloqiy fazilatlar, turmush tarzi madaniyati bugungi kundagi jamiyat taraqqiyotining muhim omillaridandir. Shuningdek, turmush tarzi madaniyatining milliylik xususiyatlari xalqning an'nlari va urf-odatlarida, kundalik hayoti va ma'naviy turmush sohalarida o'z aksini topadi.

### **Foydalaniladigan adabiyotlar ro'yxati**

### **Rahbariy adabiyotlar:**

1. Mirziyoev Sh.M. – Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston Davlatini birgalikda barpo etamiz.- T.,O'zbekiston. 2016.
2. Mirziyoev Sh.M. – Qonun ustivorligi va inson manfaatlarini ta'minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. – T., O'zbekiston. 2017.
3. Mirziyoev Sh.M. – Tanqidiy taxlil, qat'iy tartib intizom va shaxsiy javobgarlik – xar bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. T., O'zbekiston. 2017.
4. O'zbekiston respublikasi Vazirlar Mahkamasining Qarori “Davlat boshqaruvi organlari va mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari xodimlarining odob-axloq namunaviy qoidalarini tasdiqlash to'g'risida” (O'zbekiston respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2016 y., 9-son, 94-modda)lex.uz
5. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – engilmas kuch. –T.: Ma'naviyat, 2008.

### **Darsliklar va o'quv qo'llanmalar:**

1. Abdulla Sher. Axloqshunoslik. Darslik. –T.: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2010.
2. Agzamova N. Etika. Uslubiy qo'llanma. –T.: OOO “NORI”, 2013.
3. Jahon falsafasi tarixidan lavhalar. G' Q.Nazarov tahriri ostida. –T.: Sharq, 2004
4. Mamashokirov S., Usmanov E. Barqaror taraqqiyotning ekologik xavfsizlik masalalalari. –T.: Fan, 2009.
5. Muhammadjonova L.A., Ortiqova D.O., Abidjanova F.A., Masharipova G.K. Professional etika va etiket. Darslik. - T.: "Adabiyot uchqunlari" 2018.
- 6.M. Kaxxarova, N Agzamova. Etika Uchebnoe posobie. Rizograf imeni Nizami. 2018 god.
- 7.L.Muhammadjonova, F.Abidjanova. Etiket. O'quv qo'llanma. T.: Universitet. O'zMU, 2018.
8. Nurmatova M., Muhammadjonova L., Ma'naviyatning axloqiy asoslari.– T.: Unversitet, O'zMU. 2013.
9. Nazarov Q. Aksiologiya – qadriyatlar falsafasi. –T.: O'FMJ, 2004.
10. Nurmatova M. Shaxs kamolotida axloqiy va estetik qadriyatlar uyg'unligi. – T.: Universitet, 2009.
11. E.Umarov., F.Zagritdinova. “Etika. Prikladnaya etika”. -T.: Noshir, 2012.
12. Husanov B., Gulamov V. Muomala madaniyati. Darslik. –T.: Iqtisod-moliya, 2009.

13. Shermuxammedova N.A. XXI asr fanining dolzarb muammolari G'G' Falsafa va fan metodologiyasi. – T.: Universitet, 2005.

**Qo'shimcha adabiyotlar:**

1. Arastu. Poetika. Axloqi Kabir. –T.: Yangi asr avlodi, 2004.
2. Aliqulov H. Falsafiy meros va ma'naviy-axloqiy fikr rivoji. –T.: Falsafa va huquq instituti, 2009.
3. Agzamxodjaeva S.S. Ijtimoiy ideal va O'zbekistonda ijtimoiy-ma'naviy taraqqiyot muammolari. Dissertatsiya. Fals. fan. dok. – T.: 2009.
4. Abdulla Avloniy Turkiy guliston yoxud axloq. – T.: O'qituvchi, 1992.
5. Abu Abdullox Muhammad ibn Ismoil al Buxoriy. Hadis. 2. tomlik –T.: O'zbekiston milliy entsiklopediyasi davlat ilmiy nashriyoti, 2008.
6. Jabborov I. O'zbeklar (ana'naviy xo'jaligi, turmush tarzi va etnomadaniyati). –T.: Sharq, 2008.
7. Zagritdinova F.B. Filosofsko-eticheskiy analiz problem sovremennoy biomeditsino' (na primere Respubliki Uzbekistan). Dissertatsiya. Dok. filos. nauk. – T.: 2006.
8. Qaxxarova Sh. Global ma'naviyat globallashuvning g'oyaviy asosi. –T.: Tafakkur, 2009.
9. Madaeva Sh. Milliy mentalitet va demokratik tafakkur. –T.: Falsafa va huquq, 2007.
10. Mahmudov T. Komillik asrorlari. Hayotiy hikmatlar. –T.: Adolat, 2006.
11. Ma'naviyat asosiy tushunchalar izohli lug'ati. –T.: G'.G'ulom nomidagi nashriyot – matbaa ijodiy uyi, 2009 yil.
12. Navro'zova T.N., Zoirov E.X., Yunusova T.S. Tasavvufda inson va uning kamoloti masalasi. – T.: Falsafa va huquq, 2006.
13. Muxammadjonova L.A. Ma'rifatparvar shoirlar – Dilshod Barno va Anbar Otinning axloqiy qarashlari. Dissertatsiya. Fals. fan.nom. – T.: 2005.
14. Nurmatova M.A. Shaxs ma'naviy kamolotida estetik va axloqiy va estetik qadriyatlar uyg'unligi. –T.: Universitet, 2009.
15. Ochilova B. Milliy-ma'naviy yuksalishda meros, qadriyatlar va vorisiylik. –T.: Istiqlol, 2009.
16. Otamurodav S. Globallashuv va millat. –T.: Yangi asr avlodi, 2008.
17. Tillaeva G. Ma'naviyat va komil inson tarbiyasi. –T.: Falsafa va huquq, 2006.
18. Umarov B. Globallashuv ziddiyatlari. – T., Ma'naviyat, 2006.
19. Falsafa: qomusiy lug'at. G' Q.Nazarov tahriri ostida. – T.: Sharq, 2004.
20. Xojiaxmedov A. Mahalla odobi. –T.: Sharq, 2001.

21. Xolmatova M. Oilaviy munosabatlar madaniyati va sog'lom avlod tarbiyasi. – T.: O'zbekiston, 2000.
22. Choriev A. Inson falsafasi. –T.: Chinor ENK nashriyoti, 2007.
23. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Hadis va hayot. Adab. – T.: Sharq 2008.
24. Quronov M. Milliy g'oya va o'zbek xarakteri. – T.: Ma'naviyat, 2005.
25. Yakubov Yu.M. Islom ta'limotida shaxs va jamiyat munosabatlari masalasi. Dissertatsiya. Fals. fan.nom. – T.: 2009.

## **GLOBALLASHUV JARAYONI: AXLOQIY MUAMMOLAR**

### **REJA:**

1. Globallashuv jarayonida yuzaga keladigan ma'naviy tanazzullar.
2. Geosiyosiy globallashuv jarayonlari va ularda etikaning o'rni.
3. Axloqiy muhitning vujudga kelishi ma'naviy globallashuvning ibtidosi ekani.
4. Axloqiy muhitning o'ziga xos jihatlari: uning miqyosiyligi, globallik xususiyati.
5. Tabiatga insonni aralashuvi.

Amaliy etika oldida qator global muammolarni ham qilishdek o'ta muhim vazifalar ham bor. Ulardan biri va birinchisi ilm-fan taraqqiyoti tufayli vujudga kelgan texnikaviy bosini bartaraf etish. XX va XXI asrda erishilgan fan-texnika yutuqlari hozirgi paytda inson va u yashayotgan sayyoraning kelajagiga tahdid solmoqda. Atom, vodorod, neytron bombalari, ballistik raketalar, eng yangi texnikaviy ko'rsatkichlarga ega qiruvchi, bombardimon harbiy uchoqlar, suv osti va suv usti kemalari, eng yangi rusmdagi tanklar hamda turli-tuman qurollar hammasi insonni yo'q qilishga qaratilgan. Ularni ishlab chiqarish korxonalari va sinov maydonlari ekologik buhronlarning manbaidir. Bular bir yoki bir necha mamlakat uchun emas, balki global, umumsayyoraviy falokat hisoblanadi. Ularning oldini olishni faqat bir yo'l bilan-biz yashayotgan texnikaviy muhitda (noosferada) axloqiy muhitni (etosferani) barqaror etish orqali hil qilish mumkin. Shuningdek, biologik axloq, ekologik axloq, o'lim jazosini bekor qilish muammolari ham global tabiatga ega.

**Axloqiy muhit.** Amaliy etikaning hozirgi kunda umumjahoniy global muammolarni hal qilishdek muhim vazifasi ham borki, u haqda alohida to'xtalmaslikning iloji yo'q. Bu muammolardan biri, eng muhimi, sayyoramizda etosfera - axloqiy muhit davrini yaratish bilan bog'liq.

Ma'lumki, yuzlab asrlar mobaynida inson kichik biologik olam sifatida katta biologik olam ichida, uning bir parchasi, jonli organizmlar podshosi, oqil va hukmron qismi sifatida yashab keldi. XIX asrning oxiridan boshlab, ayniqsa XX asrda u o'z tafakkur quvvati bilan, ilmiy-texnikaviy yuksalishlar tufayli ana shu biosfera ichida noosferani - texnikaviy muhitni yaratdi. Mana, hozirgi kunda, qarang, ertalabdan kechgacha biz o'z texnikaviy kashfiyotlarimiz ichida yashaymiz - eymiz, ichamiz, yuramiz, uxlaymiz, ularsiz hayotimizni tasavvur qila olmaymiz. Bular metro, avtobus, televizor, radio, telefon, eskalator, pleyer, lift, kompyuter, poezd, teploxod, gaz plitalari, elektr asboblari, zavodlar, lokatorlar, kimyoviy dori-darmonlar va h.k. Bugun videotelefonda gaplashar ekanmiz, yuzlab chaqirim naridagi suhbatdoshimizni ko'rish va u bilan gaplashish uchun ot-ulovda yoki piyoda boradigan bo'lsak, necha kunlab yo'l bosishimiz kerakligi haqida o'ylab o'tirmaymiz, to'g'rirog'i, bu esimizga ham kelmaydi. Chunki texnika bizning yashash muhitimizga aylanib qolgan.

Faqat bugina emas. Inson endilikda o'zi yashayotgan butun boshli sayyoraga ta'sir ko'rsata boshladi. Er tarixida inson birinchi marta ulkan geologik kuch bo'lib maydonga chiqdi. Insoniy tafakkur biosferadagi o'zgarishlarning asosiy sababiga aylandi. Noosfera ta'limoti asoschilaridan biri buyuk rus olimi V.I.Vernadskiy ilmiy tafakkur va inson mehnati ta'siri ostida biosfera yangi holat bo'lmish noosferaga o'tayotganligini, butun geologik davr mobaynida yaratilgan, o'z muvozanatlarida barqarorlashgan biosfera inson ilmiy tafakkuri bosimi ostida tobora kuchliroq va teranroq o'zgarishga kirishganini ta'kidlaydi: «Sayyoramiz yuzi - biosfera inson tomonidan ongli va asosan ongsiz ravishda keskin kimyoviy o'zgarishlarga duchor etilmoqda, - deb yozadi u. -Inson quruqlikning fizikaviy va kimyoviy havo qobig'ini, uning barcha tabiiy suvlarini o'zgartirmoqda... Hozir biz biosferadagi yangi geologik evolyutsion o'zgarishlarni boshdan kechiryapmiz. Biz noosferaga kirib boryapmiz».<sup>1</sup>

Ana shu nuqtadan tafakkur o'zi nima degan muammo paydo bo'ladi. Bu haqda V.I.Vernadskiy shunday mulohaza bildiradi: «Tafakkur energiyaning shakli emas. U qanday qilib moddiy jarayonlarni o'zgartira oladi? Bu masala hanuzgacha ilmiy jihatdan echilishi topgan emas»<sup>2</sup>.

Vernadskiy hayratga solgan masala hozir ham o'sha-o'sha, hol etilmagan.

Xo'sh, tafakkur o'zi nima? U biologik hodisa bo'lmish insonda, uning ruhiy-fiziologik yaxlitlikdan iborat miyasida tug'iladi, lekin tug'ilishi bilan biologik qobiqdan chiqadi va tashqi muhitda energiyaga o'xshab nimanidir yaratadi. Endi inson bilan uning tafakkuri orasida muayyan masofa paydo bo'ladi, masofa

<sup>1</sup> Vernadskiy V.I. Nachalo i vechnost jizni Moskva. Sov. Rossiya, 1989. S.186 – 187.

<sup>2</sup> O'sha manba; B.185.

uzoqlashgani sari tafakkurning mohiyati ayon bo'lib boradi: inson kutgan oqibat kutilgandan boshqacha mazmun kasb eta boshlaydi. Nega? Bizningcha, ....

Noosferada, yuqorida aytganimizdek, inson fikri narsalashadi, o'z intellektimiz narsalarga aylanib, bizni o'rab oladi. Insonning ichki tabiati muhit mavqeini egallab, tashqi tabiatga ta'sir ko'rsata boshlaydi va ko'p hollarda bundan eng avvalo insonning o'zi ozor chekadi. Tafakkur biologik xususiyatga ega bo'lmagani uchun biologik muhitning o'rnini egallashga, uni asta-sekin siqib chiqarishga harakat qiladi. Bu harakat ma'lum nuqtadan o'tganidan so'ng esa o'z ijobiy xususiyatini yo'qota boradi va insoniyat uchun salbiy hodisaga aylana boshlaydi. Atom, vodorod, neytron bombalarining kashf etilishi, yadro kallakli ballistik raketalarining yaratilishi ana shunday salbiy hodisalardandir. Bundan tashqari, noosferaning paydo bo'lishi atmosferani, olamiy okeanni, er osti va er usti suvlarini, nabototni, hayvonotni, hatto insonni ich-ichidan kimyoviy zaharlanishga olib kelmoqda. Hozirgi kunda tirik organizmlarning, o'simliklarning, hayvonlarning ko'pgina turlari jisman yo'q bo'lib ketish arafasida turibdi. Ayniqsa, joy topolmay, okean bo'ylab kemalarda suzib yurgan radioaktiv chiqindilar yoki ularning kimsasiz guzal orollarga ko'mib tashlanishi, kislota yomg'irlarining ko'payib borishi singari hodisalar bag'oyat xatarli. Afsuski, inson ko'ra-bila turib, o'zi o'tirgan shoxga bolta urishni to'xtatmayotir.

Bu muammolarning hal etilishi faqat atrof-muhitni kimyoviy zahardan ekologik tozalashnigina emas, balki, eng avvalo, global ma'noda, XXI asr kishisi ongini texnokratiya zaharidan forig'lantirishni taqozo etadi. Ya'ni ular insoniyat oldida endilikda ekologik hodisa emas, balki tom ma'nodagi axloqiy muammolar sifatida ko'ndalang bo'lib turibdi. Mashhur avstriyalik etolog olim, Nobel mukofoti laureati Konrad Lorentsning: «Yoppasiga va tez yoyilib borayotgan jonli tabiatga begonalashish hodisasi uchun asosan tsivilizatsiyamiz kishisidagi estetik va axloqiy to'poslik aybdordir», - degan so'zlari shu nuqtai nazardan diqqatga sazovordir.<sup>1</sup>

Yuqorida aytilganlardan chiqadigan xulosa bitta: kelajakda inson o'zini va o'z sayyorasini muqarrar halokatdan qutqaraman desa - XXI asrdan boshlab etosfera davriga o'tishi kerak; axloqiylik har birimiz uchun har qadamda bugungi texnikaviy muhit kabi zaruratga aylangandagina bunga erishish mumkin. Bunda Amaliy etika fanining o'zni nihoyatda beqiyos.

Zamonamizning global jarayonlari insoniyat oldiga uning mavjudligi va kelajagini davom ettirishi uchun yangidan-yangi ma'naviy, axloqiy talab va ma'suliyatlar qo'ymoqda. Shaxs axloqiy kamolotiga katta ta'sir qilmoqda. Bioterrorizm - bu biomeditsina texnologiyalarini yovuzlik niyyatida qo'llanishining mumkinligi ekan, ushbu jarayonlar insoniyatga jiddiy xavf

<sup>1</sup> Lorens K. Vosem smertnykh grexov sivilizovannogo chelovechestva. Jurnal. "Voprosy filosofii" № 3, 1992. S. 42.

solmoqda. Zamonaviy biomeditsina texnologiyalarining insoniyat uchun zararli oqibatlarini oldini olishining asosiy omillaridan biri bu ma'naviy, axloqiy ma'suliyatli olimlar, texnologlarni tarbiyalash, axloq ilmini fanda qo'llash, tibbiy amaliyotda va ilmiy izlanishlarda insoniylikka yo'naltirilgan madaniyatni shakllantirish bo'lib qolmoqda. Inson doimo hayot va o'lim, tug'ilmoq va ma'naviy ruhiy va jismoniy azob kabi murakkab savollarga javob izlaydi va ularga nafaqat mantiqiy javob, balki aniq qarorlarni talab qiladi. Ma'naviy, ruhiy va jismoniy azob – bu shunday favqulotta holatki, inson o'z tabiati haqida fikrlay olmaydi. Ushbu holatni engillatish uchun azobning jismoniy mexanizmi emas, uning sabablari ravshan bo'lishi, azobning ma'naviy tushunchalar asosidagi talqini, va uning yuqori darajadagi ma'nosi ayon bo'lishi lozim. Ko'pchilik insonlar insoniyatning va dunyoning ilmiy jihatdan kelib chiqishi haqidagi fikrlarga qo'shilsalarda, azob va kasallikning diniy -ma'naviy jihatdan talqin qilish bilan qoniqadilar. Ushbu talqin quyidagicha.

Azobning sababi dushmanlarning ishi emas, insonning o'zi, uning xulqidir. Dunyo azoblarga to'la va ular muqarrardir. Azoblar –yovuzlikning namoyon bo'lishidir, uning timsolidir. Azoblar insonga o'z-o'zidan berilmaydi, nima uchundir beriladi.

Demak insonning ijtimoiy muhofazasi –axloqiy zaruriyatga aylanib bormog'i lozim ekan, Bioetika fanining maqsadi insoniyatni biotexnologik fojealardan himoya qilish va ushbu jarayonlardagi jinoiy shoshqaloqliklarning oldini olish hisoblanadi. Biomeditsina etikasi – bu amaliy etikaning yo'nalishi bo'lib, uning bosh maqsadi tug'ilmoq, hayot va o'lim, insoniyatning kelajagini davom ettirish kabi masalalarga fanning aralashuvini tahlil qilish, oqibatlarini baholash va ushbu jarayonlarning axloqiy qoidalarini ishlab chiqishdan iboratdir.

Nikolay Buxarinning fikriga e'tibor bering!!!  
(Buxarin N. Izbranno'e proizvedeniya. M. Politizdat, 1988) Ota-bobolarimizning ko'p asrlik olijanob mehnati evaziga qo'lga kiritilgan bugungi tsivilizatsiya yutuqlari kommunizm g'alabasi sababli xavf ostida qolishini hayolga keltirganda har bir san'atkor va olim qalbini qamrab oladigan qo'rquv xissi meni ham domiga tortadi. Men qo'rquv va dahshat ichra bu tund daxriylar hokimiyat tepasiga kelajak kunlar haqida o'yga tolaman. Ular dag'al qo'llari bilan qalbinga juda aziz bo'lgan go'zallikning marmar haykalini shafqatsiz yakson qilajak.

XX asrning 20-yillarida «ommaviy madaniyat» tushunchasi Evropada dastlab salbiy mazmun kasb etdi. Bunga industrial jamiyat rivojlanib, mamlakatlararo ziddiyatlar kuchaygani, oqibatda Birinchi jahon urushi alanga olgani, urushdan keyin esa avvalgi ziddiyatlar saqlanib qolgani, boz ustiga, Rossiyada sotsialistik inqilob yuz berib. vayronkor «jahon inqilobi» g'oyalari dunyo bo'ylab tarqalgani,

“Proletkult”dek o'tmish madaniyatini yo'q qilishga chog'langan tashkilotlar vujudga kelgani sabab bo'ldi.

60-yillarda Evropada ommaviy madaniyatni liberal gumanizm nuqtai nazaridan tanqid qilish boshlandi. Fromm, Xorkxaymer, Adorno, Benyamin, Moran, Veblen, Rismen, Markuze kabi liberal gumanistlar ommaviy madaniyatni aholi ongini boshqarish, shaxsni ma'naviy qaramlikda saqlash, odamlarni o'zaro begonalashtirish, ijtimoiy zulm o'tkazish vositasi sifatida baholadi.

shaxs xatti-harakatini tashqaridan boshqarish (Rismen), «bir o'lchovli inson»ni shakllantirish (Markuze), erzats (yasama) tuyg'ularning maftunkor olami (Veblen), begonalashuvning odmi kompensatsiyasi (Fromm), «ommaviy» insonni standartlashtirish va konformlashtirish, yani uni mavjud tuzumga nisbatan norozilik tuyg'usidan mahrum etish (Mills), klip-madaniyat (Toffler).

frantsuz sotsiologi L.Molning fikricha (Mol A. Sotsiodinamika kulturo'. M.. 1973). “Bugun oddiy ishchi ongini «to'ldirish»da uning metro afishasida o'qigani, radiodan tinglagani, kino yoki teleekranda ko'rgani, ishga ketayotganda gazetada ko'zi tushgani yoki hamkasblari, qo'ni-qo'shnilaridan eshitgani ko'proq rol o'ynaydi: maktab sabog'idan esa uzuq-yuluq tushunchalar qoladi, xolos. ... Bizning davrimizda bilimlar asosan ta'lim tizimi orqali emas, balki OAV orqali shakllanadi».

Kompyuter va internet zamonida aholining ongini boshqarish, «noma'qul» mamlakatlarda ijtimoiy-siyosiy barqarorlikni izdan chiqarish, xatto, davlat to'ntarishlarini amalga oshirish imkoniyatlari paydo bo'ldi.

2011 yili ba'zi arab davlatlarida yuz bergan “Arab bahori” voqealari misol bo'ladi. G'alayonchilarning harakatlari internet orqali muvofiqlashtirilgan edi.

Amerikancha ommaviy madaniyatni jozibador qiladigan omillar uning demokratizmi va ijtimoiy tenglikni ifodalashidir. Bu madaniyatni to'xtatishning iloji yo'q u butun jahonga tarqalmoqda va amerikancha turmush tarzining demokratik g'oyalarning ustunligini «tasdiqlamoqda» (Z.Bzejinskiy)

Axloqiy madaniyat shaxsning jamiyat axloqiy tajribalarini egallashi va bu tajribalardan boshqa odamlar bilan bo'lgan munosabatlarida foydalanishi, o'z-o'zini muntazam takomillashtirib borishi singari jihatlarni o'z ichiga oladi.

U shaxs axloqiy taraqqiyotining belgisi hisoblanadi. Zero, axloqiy madaniyat axloqiy tafakkur madaniyatining qator unsurlarini o'z ichiga olgan tuzilmadir.

U shaxsning o'zgalar bilan o'zaro munosabatlarida namoyon bo'ladi.

Insonning xatti – harakati, xulq – atvori va yurish – turishi va ularni doimo nazorat qila bilish darajasi, kishilar o'rtasidagi muomala munosabatidir.

Axloqiy madaniyat shuningdek, insonning o'z xatti – harakatlarini me'yorini anglashdir. «Ommaviy madaniyat» G'arb dunyosida o'tgan asrning ikkinchi yarmida shakllandi. Uni G'arbda «populyar» yoki qisqartirilgan holda, «pop-kultura» (ya'ni «ommaviy madaniyat») deb atashadi. Garchi «madaniyat» deb

atalsa-da, aslida, tub mazmun-ma'nosiga, maqsad-niyatiga ko'ra «ommaviy madaniyat» chinakam madaniyatning kushandasidir.

Mutaxassislar (faylasuf va sotsiolog olimlar)ning fikricha, hali ilm-fanda «antikultura» («g'ayrimadaniyat») degan ilmiy tushuncha shakllanmaganligi uchun «Pop (ommaviy) madaniyat» tushunchasi, nochorlikdan qo'llanilmoqda. Chunki, «ommaviy madaniyat», aslida madaniyatsizlik, ya'ni ma'naviyatsizlik va axloqsizlik sinonimidir. «Ommaviy madaniyat» shu boisdan, eng avvalo, yuksak iste'dod va o'lmas ma'naviy-axloqiy g'oyalar bayroqdori bo'lgan mumtoz madaniyatga, san'atga, uning boyliklariga qarshi tish-tirnog'i bilan kurashib, uni inkor etib kelyapti.

Afsuski, er yuzidagi axborot almashinuvi mislsiz tezlashgan hozirgi globalizm sharoitida, G'arbdagi «markazlar» bundan foydalanib, boshqa davlatlar va xalqlar o'rtasida G'arb hayoti «jozibalari»ni, jumladan, «ommaviy madaniyat» ta'sirini «erkinlik shabadalari» tarzida imkon qadar keng yoyishga eng shimarib harakat qilmoqdalar.

Taassufli jihati shundaki, gohida g'oyatda iste'dodli insonlar ham «ommaviy madaniyat» targ'ibotchilarining qutqusiga uchrab, uning tegirmoniga suv quymoqda. Masalan, rassom Salvador Dali Leonardo da Vinchining «Mona Liza» («Jakonda») asarini kulgi qilib, Mona Liza lablari ustiga mo'ylov chizgan va «Mo'ylovli Jakonda» asarini yaratgan. Tadqiqotchilarning fikricha, mana shunday «achchiq istehzoli, qora mazmunli kulgi» - «ommaviy madaniyat» faoliyatining eng etakchi belgilaridan biridir. «Ommaviy madaniyat» namoyandalari qora, zaharxanda, behayo kulguni «isyon ifodasi» deb bilishadi. «Nimaga qarshi isyon» degan savol tug'iladi. Agar «Ommaviy madaniyat» dunyoga «ehson» etayotgan «pop-art» («tasviriy san'at» desa ham bo'ladi), «pop - natijalariga qarab hukm yuritadigan bo'lsak, ular insoniyat yaratgan barcha qadriyatlarni isyonkorlik bilan inkor etadi: yuksak madaniyatni, ma'naviyatni, axloqni, yuksak orzu-maqсадlarni mensimaydi... Ular uchun ezgulikning o'zi yo'q. Jumladan, san'at - alohida iste'dodlar tomonidan yaratiladigan ma'naviy boylik, mo'jiza ekanligi kabi ijodning oliy mezonlari «pop-madaniyat» tarafdorlarining o'ta darajada g'ashini keltiradi. Ularcha, hamma san'atkor bo'lishi mumkin. Hamma narsa san'at atalishi mumkin. «Pop-art» - ommaviy san'at shu xulosa manbaida vujudga kelgan.

«Ommaviy madaniyat» ko'pdan-ko'p shakllarda o'zini namoyon etadi. **Kitch** (zarracha badiiy-estetik qimmatga ega bo'lmagan narsa va buyumlarga yuksak andoza tusini berish), **komiks** (tagiga qisqa matn yoki luqmalar bitilgan behayo matbaa - rasm mahsulotlari), **starizm** (sub'ektiv ehtirolarga berilgan holda, estrada artistlari, aktyorlar, sportchilar, telediktorlarni ilohiylashtirish), **xepining** (avvaldan rejalashtirilmagan, nogahonda uyushtiriladigan «keskin» tomoshalar,

masalan, royal, pianino yoki avtomobillarni urib abjag'ini chiqarish yoxud o't qo'yish orqali vahshiyona, ommaviy «ko'ngil ochish»lar uyushtirish) «ommaviy madaniyat»ning ayrim ko'rinishlaridir. «Pop-art» chilarning dasturiy qarashi shundayki, ular insonni emas, aksincha, narsalar va buyumlarni e'zozlashadi; ma'naviy dunyoni emas, maishiy-iste'molchilik his-tuyg'ularini qadrlaydilar va ularni keng ommalashtirishga intiladilar. Ularning ma'naviy pozitsiyasi - ma'naviyatni o'ldirish va «narsalarga qullik»ni rag'batlantirishdir. Amerikaning taniqli adibi R. Bredberi aytganidek, «ommaviy madaniyat» maktabidan o'tgan avlod uchun hayotning ma'nosi - avtomobil, televizor, muzlatkichga ega bo'lish. Agar televizor ikkita bo'lsa, ularga shuncha yaxshi.

Ommaviy madaniyat»da **«Pop (ommaviy)-muzika»** alohida o'rin tutadi. **«Pop-muzika»**ni **«Yangi rok»** belgilaydi. «Yangi rok», ta'bir joiz bo'lsa, kuchaytirilgan ritmik tuzilmali musiqadir. Ya'ni jazavali ritm, zarb, shovqin ushbu musiqaning qiyofasidir. Bu musiqa tinglashga, qalbdan huzurlanishga emas, balki vujud harakatiga, talvasali raqsga yo'naltirilgan. «Ommaviy madaniyat»dagi texnik-ijro vositalari musiqa imkoniyatlarini nihoyatda toraytirmoqda, polifonizm - musiqiy sadolar boyligi va rang-barangligini yo'qqa chiqarmoqda. Umuman aytganda, «pop-muzika» ijrochiligi ko'ngilochar musiqa niqobi ostida ommaviy vasvasali, shaytoniy talvasali, badaxloq raqslar, ko'pincha oxiri janjal, ur-yiqit, vahshiyliklarga borib etadigan agressiv diskoteka shoularini uyushtirish bilan ajralib turadi. «Pop-muzika» namoyandalari o'z «ommaviy»liklarini ta'kidlash uchun sahnadagi xatti-harakatlari va kiyim-liboslari namoyishida ham - odob-axloq, jamiyatga ehtirom tuyg'ularini rad etib - asosan ko'cha, olomonchilik qonun-qoidalariga amal qiladilar. Va o'zlarining kulguli darajada ajralib turadigan shunday raftorlaridan faxrlanadilar. Afsuslanarli tomoni shundaki, bunday holatlarni «pop-muzika»chilar san'atdagi demokratizmning, xalqchilikning tantanasi, deb bilishadi. «Pop-muzika» namoyandalari ijro etadigan qo'shiq matnlari esa, avvalo, she'riyatning oddiy talablariga javob bermaydi yoki ular ko'proq ko'chada mavjud behayo, jargon iboralarga - qadriyatlarni, insoniy eziguliklarni kinoya, mazax qiladigan so'zlarga asoslangan. Xullas, erkinlik, demokratiya «namunalari» deb tavsiya etilayotgan «pop-muzika» matnlari bilan haqiqiy she'riyat hamda asl xalqchil did, sog'lom ruhiyat, ma'naviyat o'rtasida er bilan osmoncha farq bor.

1964 yilda AQShda T.Sazern va M.Xoffenberg degan ikki muallif hamkorlikda yozishgan «Kendi» («Asal qiz») nomli romanini nashrdan chiqarishdi. Keyinchalik bu kitob qayta va qayta, katta miqdorlarda amerikalik kitobxonlarga taqdim etildi. Ushbu roman asosida yaratilgan kinofilm kinotomosha bozorida keng tarqaldi. «Kendi» qahramoni, «Asal qiz» deb ta'riflangan juvon duch kelgan odam bilan to'shakda aysh-ishrat qilishdan charchamaydi. Uning ishqibozlari - turli diniy va siyosiy qarashli shaxslardir. «Kendi» romani Amerika adabiyotida shakllangan

va keng tarqalgan romantik tabiatli, shirin va go'zal o'y-xayollarga beriluvchan qizlar timsolini keskin hajv qiladi, ularning ustidan kuladi. Badiiy mahorat talablaridan ancha pastda turadigan, ammo «ko'ngilochar»lik mavzui muxlislarini oshufta etgan bu kitobga AQSh adabiyotshunoslari: «Madaniy tanazzulda oldinga qarab qo'yilgan ulkan qadam», deya kinoya bilan baho berishdi. Xuddi shu kitob bilan ayni bir vaqtda AQShda Jon Rechi ismli yozuvchining «Tungi shahar» nomli romani chop etildi. Kitob sahifalarida shahardagi tun - jinoyatlar bazmiga aylanadi, inson shaxsi va uning qadri esa mis chaqaga arzimaydi. Bu roman «tubanlik va qabohat - inson tabiatini belgilovchi haqiqatdir», degan g'oyani tasdiqlash uchun bitilgan. Nega biz bu ikki romanni eslatdik? Aynan, ana shu kitoblar va ular asosida yaratilgan filmlar - g'arbdagi «ommaviy madaniyat»ning adabiyotdagi, televideniya va kinodagi yo'lini belgilab berdi. Intim munosabatlar, shahvatparastlik, zo'ravonlik, xudbinlik, «Kim kuchli bo'lsa - o'sha haq» degan changalzorlar qonunini poetiklashtirish AQSh va Evropa «ommaviy madaniyat»ida mana shunday asarlar ta'sirida keng ommalashdi. Agar ayrim G'arb davlatlarida erkak bilan erkak, ayol bilan ayol o'rtasidagi nikoh - hayratlanarli hodisa bo'lmay qolayotganligi nazar tutilsa, «ommaviy madaniyat» targ'ib etayotgan ma'naviy tubanliklar, behayolliklar, qabohatlar naqadar chuqurlashib ketganligini tasavvur etish qiyin emas.

Albatta, xalqimiz, jumladan, yosh avlod g'arb fan-texnikasi, madaniyati, adabiyotu san'atining ilg'or jihatlarini inkor etmaydi. Biroq g'arbdagi taraqqiyparvar ziyolilarning o'zi «g'arbning muammosi» sifatida baholayotgan «ommaviy madaniyat»ning ma'naviy-axloqiy tubanliklarini yoshlarimiz qancha tez anglasa, shuncha yaxshi. To'g'ri, biz demokratiya davrida yashayapmiz. Jamiyatimizda qiziqish va mayllarga hurmat bilan qaraladi. Ammo xatarli qiziqish va mayllardan davlat va jamiyat o'zini himoya qilishi lozim. Buning uchun esa, eng avvalo, reklama va ommaviy axborot vositalari to'g'risidagi davlatimiz qonunlarining talablari qat'iy bajarilishi kerak. Ya'ni «reklama»chilar va jurnalistlar davlatimiz, jamiyatimiz xavfsizligiga (jumladan, xalqni, yoshlarni ma'naviy aynitishga olib keladigan holatlarga) yo'l qo'ymasliklari kerak. Afsuski, bunday holatlar yuz berayapti. Birgina reklama roliklari orkali targ'ib etiladigan madaniyat yoki turmush tarzi namunalarini oling. Ular orkali go'yoki extiyoj uchun zarur oddiy bir matox targ'ib kilinayotgandek bo'lib ko'rinsa-da uning zamirida bizning milliy axloqimizga to'g'ri kelmaydigan nimadir yashiringan bo'ladi. Ana shu nomsiz nimadir borib-borib ommaviy madaniyat ommaviy turmush tarzi tamoyillarini belgilaydigan kuchga aylanish uchun da'vogarlik qiladi bizning qalbimizdan milliy o'zlik tuyg'usi, Vatan xissini siqib chikarmoqchi bo'ladi.

Masalan, o'zining xurmatini bilgan, kalbida ozgina uyat, or-nomus tuygusi bo'lgan inson hech qachon hammaning oldida echinib, yuvinmaydi. Lekin oynai jaxon orqali beriladigan sovun yoki soch yuvish vositasiga talluqli reklamada ana

shunday xolatlar ochiqchasiga ko'rsatiladi. Badaniga sovun surkayotgan ayol kishining suv ostida qanday hissiy xolatni boshidan kechirayotgani ko'z-ko'z qilinadi. Maqsad - siz xam shunday rohatdan benasib kolmang, shu "bebaxo" sovunni sotib oling, degan mazmunda berilmoqda. Xolbuki, xalkimiz yuvinish foydali ekanini shusiz xam yaxshi biladi va necha asrlardan buyon tozalik ozodalik qoidalariga amal kilib keladi. Modomiki shunday ekan, bunday reklamalar kim uchun?

Qolaversa, dunyoqarash tarbiyasi imkoniyatlarini rivojlantirishimiz lozim. Masalan, «Ogohlik» iborasining ma'nolarini bugungi zamon sharoitidan kelib chiqib, ancha keng miqyosda tushunishimizga to'g'ri keladi. Ya'ni bugungi ogohlik xalqimiz, ayniqsa, yoshlar dilini, ruhiyatini, aql-idroki va umuman ma'naviyatini diniy-aqidaparastlik, jaholatparastliklar xataridan tashqari, ayni paytda, jahonda yuz berayotgan siyosiy, mafkuraviy, ijtimoiy, iqtisodiy, ma'naviy va estetik manfaatlar yo'nalishidagi oshkora va xufya kurashlarning keng miqyosdagi xatarli jihatlaridan, jumladan, «ommaviy madaniyat»ning emiruvchi ta'siridan muhofaza qilishni ham o'z ichiga oladi.

Egotsentrizm g'oyalarini tar-qatish, axloqiy buzuvchilikni, zo'ravonlikni targ'ib etish, bir jinslilar nikohi, pornografiyaning ochiq-oshkora namoyishi kabi illatlarga ruju qo'yish g'arb mamlakatlarida oila degan muqaddas qo'rg'onga darz etkazib, azaliy qadriyat va an'analar tizginini butkul izdan chiqarmoqda. Bu jarayon Ovrupa uchun juda katta muammoga aylandi. Statistik ma'lumotlarning so'zlashicha, Britaniyada bolalarning 34 foizi nikohsiz tug'ilmoqda. Agar shu jarayon davom etsa, kelgusi 20 yil ichida britaniyalik bolalarning yarmidan ozrog'igina ota-ona tarbiyasini oladi. Kishilik jamiyatining asosi bo'lgan oilani keraksiz matohdek uloqtirib tashlayotgan jamiyatlarning kelajagini bundan ortiq tasavvur qilish ham qiyin.

Bir asr muqaddam Abdurauf Fitrat «Oila» risolasida bu xususda to'xtalib, «Kimki badaxloq bolalarni tarbiya etsa, insoniyatga dushmanlik qilgan bo'ladi», deya ta'kidlagani bejiz emas. Ma'lum bo'lishicha, AQShda jinoyatga qo'l urib, qamalgalarning yarmidan ko'pi buzilgan oila farzandlari ekan. Bu holdan bugungi kunga kelib o'sha g'arb dunyosining o'zi ham tashvishga tushmoqda. Amerikalik taniqli jurnalist Patrik Jozef Biyukenen «Xo'sh, ma'daniy inqilob ta'sirida paydo bo'lgan yanglish e'tiqod («ommaviy madaniyat») nimaga da'vat etadi. Ajdodlarimiz e'tiqodidan uning farqi nimada?» deb savol qo'yadi va o'zi «U eng avvalo har qanday yuksak madaniy qadriyat, ahloq odob-qoidalarini tan olishdan bosh tortadi», deya javob beradi. Taraqqiyotning yuksak pog'onasiga chiqqan, ammo boylik, manfaat uchun har narsadan kechganlar, egotsentrizmni bayroq qilganlar endi uning xunini to'lash mavridi kelganini ham tushunib etganga o'xshaydi. Fidoyi bo'lish, Vatan va millat oldida mas'uliyatni his qilish kabi aslida muqaddas sanalgan

tuyg'ularni safsata deb bilganlar, nihoyat, endi bu tushunchalarning inson bolasi uchun naqadar muhim ekanini anglashyapti. Hayotning achchiq haqiqatlari esa ishratparastlikni avj oldirish, feministlarcha tabiiy nikohni quldorlikka qiyoslash, mehr-oqibat tuyg'ularidan ko'ra moddiy manfaatni ustun qo'yish tushunchalari va bu tushunchalarni zamon talabi deb yoyish jamiyatlarni emiradigan ma'naviy inqirozga olib kelishi ro'y-rost bo'lib qoldi. Biroq, eng achinarlisi, bu targ'ibot «ommaviy madaniyat» niqobi ostida butun dunyoga e'tiqod sifatida tiqishtirilayotganidir. Bu niqob o'z o'rnida yakkahokimlik, ya'ni gegemonlik qutqusidan qutula olmagan kuchlarga yanada qo'l kelib, o'z ta'sir doiralarini kengaytirdi. O'zidek yurishga, yashashga, o'ylashga, ular kabi fikrlashga, faqatgina o'zlarining izmida yurishga chorlamoqda. Hech bir an'anani tan olmay, ruhiy dunyoga kirib kelmoqda. Oddiygina aytganda, manqurtlarni tarbiyalashga xizmat qilmoqda. Negaki, biz o'rtada masofalar tobora qisqarib borayotgan, madaniyatlar bir-biri bilan mushtaraklashib ketayotgan dunyoda yashamoqdamiz. Bu jarayonning bizga daxli yo'q, deyish shamol tegirmoniga qarshi kurashgan Don Kixotning ayanchli qismatidek kulgili tuyulishi aniq. Chunki shamolni to'xtatib bo'lmaydi, unga qarshi himoyalaniish mumkin, xolos.

«Ommaviy madaniyat»ning turmushimizga ta'sirini ko'rish uchun uzoqqa borish shart emas. Yonimizga, o'zimizga teranroq nazar solsak kifoya. «Alpomish»ni o'qib savod chiqargan, pana-pastqamlarda yashirinib, «O'tkan kunlar»ni mutolaa qilib katta bo'lgan ota-bobolarimiz yoshligimizdanoq bizga Uch og'a-ini botirlar jasoratidan, To'g'ri va egri qismatidan saboq berishar, qadim alyorlardan, matallardan so'ylashardi. Xo'sh, biz-chi? O'g'limiz kimning qo'shig'ini eshitib ulg'aymoqda. Ektranda qo'shiq kuylayotgan yigitning qiliqlariga qarang, kimga taqlid qilyapti? «Og'zidan chiqqan gapni qulog'i eshitmayotgan», bachkanalikni samimiy kulgi deb o'ylaydigan, saviyasizlikni ommaviylashtirayotgan kinoasarlarga qarang, yoningizda «shortik» va maykada yurishni kiborlik bilib, mahalla guzariga chiqayotgan «akaxon»ga razm soling. Yoshgina kelin-kuyovning ota-ona oldida quchoqlashib turganiga e'tibor qiling. Axir quyun kabi ostonamizga kirib kelayotgan bu unsurlarga munosib javob berish uchun ma'rifatparvar bobomiz aytganidek: «Tarbiya yo hayot, yo mamot» yo'li ekaniga amin bo'lmoq kerak emasmi? To'g'ri, ba'zan biz uchun bolamizning tunda sang'ib yurishi, qizimizning yarim yalang'och kiyimda yonimizda o'tirishi, nevaramizning zo'ravonlikni, johillikni targ'ib qiladigan kompyuterdan ko'z uzolmasligiga ko'nikib qolganimiz tabiiy hol bo'lib tuyulishi mumkin. Ayrim onalar qizlarini to'ylarga, bazmlarga olib borib buyumday ko'z – ko'z qilmoqda. Lekin bunday «mayda muammo»lar bir kun kelib, katta tashvishlarni, tahdidlarni keltirib chiqarishi turgan gap. Aynan mana shu jo'n

ko'ringan hodisalar «ommaviy ma'daniyat»ning turmushimizga kirib kelayotganligidan dalolatdir.

Haqiqatan ham sizni bizning hayotimizga ko'rinmas, yashirin tarzda kirib kelayotgan global xurujlar, eng avvalo, mustaqil shakl-lanmagan, biror bir pozitsiyaga ega bo'lmagan ongga muhim o'rnashib, ta'sir o'tkaza boshlaydi. Ma'lumki, hech bir qarshilikka uchramaydigan bunday ruhiy ta'sir jamiyatda keng quloch yozgach, xalqni olomonga, to'daga aylantirishi mumkin.

Jamiyatning etakchi kuchi bo'lgan yoshlar romantik kayfiyat hamda sentimental qarashlarga muhtalo bo'ldi. Aytish joizki, shu o'rinda kino va san'at muhim qurol mafkura bo'lib xizmat qildi.

Hozirgi paytda yoshlarning kalbi va ongini egallashga karatilgan jiddiy xatarlardan biri "ommaviy madaniyat" nomi bilan industrial asosda ishlab chikilayotgan "san'at" namunalaridir. Aslida xakikiy san'at asaridan mutlako yiroq bo'lgan garazli maksadlarni ko'zlaydigan ayrim guruxlarning boyishiga xizmat kiladigan milliy kadriyatlarimizga mutlok zid bunday maxsulotlar insonni xayotdan yiroklashtiradi, ruxan qashshoq bexayolik, zo'ravonlik, ur-yikit, firibgarlik, giyoxvandlik, mayxo'rlik kabi illatlar zimdan targib kilinadi. hayotning ma'nosi shundan iborat degan zararli goya tomchi-tomchi tarzida yoshlarning kalbi va ongiga zimdan singdiriladi. Boshkacha aytganda "ommaviy madaniyat" yoshlarning xayotini butunlay zaxarlaydi va ularni o'z tarixi milliy kadriyatlari xatto ota-onasini tanimaydigan maxlukka aylantirib ko'yadi. Radio, televideniening turli kanallari (asosan, xususiy radio va telestudiyalar, kabel televideniesi) orqali milliy qadriyatlarimizga mos bo'lmagan tafsilotlar va tasvirlar bilan ba'zi eshittirish va ko'rsatuvlar berilmoqda. Qo'l telefonlari orqali turli behayo tasvir va zo'ravonlikni targ'ib etuvchi o'yinlar hamda ma'lumotlar tarqatilmoqda. Madaniyatsizlik, ochiq-sochiq, yarim yalang'och yurish holatlari turli buyumlarni reklama qilish orqali targ'ib etilmoqda.

"Ommaviy madaniyat"ga qarshi kurashning eng samarali yo'li yigit-kizlarimizni yoshligidan boshlab yuksak madaniy saviya did va farosat egasi mustakil fikrlaydigan ma'rifatli kilib tarbiyalashdan iborat. Ana shunday fazilatlariga ega bo'lgan yoshlar zamirida vayronkor goyalar yotgan "ommaviy madaniyat" namunalaridan xazar kiladi.

Keyingi paytlarda matbuot orkali seriallarning saviyasi, ularning bekorchi goyalarga xizmat kilayotgani va xokazolar xakida kup gapirildi. Biz ularning yulidan yurmokchi emasmiz. Seriallarni ko'rmang yoki ko'ring, deyishdan yiroqmiz. Buni xar kim uzi xal etadi. Tadqiqotlarga ko'ra shu kecha kunduzda mamlakatimiz umumxalk telekanallari orkali 20 nomdagi serial efirga uzatilmokda. Ular orasida "Yoshlar" teleradiokanali rekord urnatgan: bir sutkaning urtacha 330 minuti seriallarga bagishlanadi. Bu degani kariyb yarim kun bir telekanaldan faqat

serial beriladi. Demak, bitta kanal orkali xaftasiga 35 soatdan kup serial tamosha kilyapmiz, Keyingi urinda TV-Markaz kanali sutkasiga o'rtacha 260 min. Maxalliy kanallardan "Toshkent" kanali sutkaning 210 minutini, "NTT" esa 170 minut, "Uzbekiston" kanali 150 minutni seriallarga ajratar ekan. Rossiya telekanallarida xam xuddi shunday tendentsiyani kuzatish mumkin, balki seriallar uchun ajratilayotgan efir vakti ortiqrok ham. Lekin bir nozik masalada ular o'zgacha yul tutishyapti, ya'ni ular iloji boricha efirga faqat rus seriallari tayyorlanyapti. Bizning televidenie esa rang barang: koreyscha, turkcha, meksikacha, xindcha, ortda kolmasin deb uzbekcha seriallarni xam tiqishtirib tashladi. Serial o'z yuliga, lekin serial orqali ularning madaniyati, urf-odati, turmush tarzi xayotimizga suroqsiz kirib keldi va bu jarayon davom etyapti. Shunday ekan, tanqidchilarning xavotirida xam jon bor ekan-da. Biz odamlarni turli xalqlar seriallari bilan boqaveradigan bulsak, ulardan ertaga milliylik, sharkona odob-axlok va x.k.larni talab kilishga xaqqimiz koladimi? Bir karashda serial asliga monand xech narsaga arzimaydigan "ko'pik" singari. Tubdan nazar tashlaganda esa, u nafakat madaniy xodisa, balki bizning iktisodiy, siyosiy, ma'rifiy dunyomizga bevosita ta'sir o'tkazib turuvchi omildir. Jaxon moliyaviy-iktisodiy inqirozi davrida maishiy texnika ishlab chikaruvchi "Samsung" kompaniyasi serial sotish evaziga kamomaddan qutulib qolgani fikrimizning yorqin isbotidir.

Globallashuv jarayoni va til munosabatlari, davlat tilining mavqei, unga e'tiborni oshirishga ta'sir etuvchi ijobiy va salbiy omillarning xususiyatlari, yoshlar til ma'naviyati va nutq madaniyatiga "ommaviy madaniyat"ning ta'sirini o'rganish hozirgi kunning dolzarb vazifalaridan biriga aylanib bormoqda. Yoshlarni "ommaviy madaniyat" ta'siridan asrash milliy madaniyatimizning sofliqi, qadriyatlar, an'analar, urf-odatlarimizning davomiyligi, umrboqiyliqi uchun kurash hamdir. Yoshlar til ma'naviyati va nutq madaniyatiga "ommaviy madaniyat"ning salbiy ta'sirini quyidagilarda ham ko'rish mumkin: Hozirgi kunda internet tarmog'idagi materiallarda o'zaro tanishuv, sevgi izhor qilishlar, behayo lavhalar aks etgan materiallarni istagancha uchratish mumkin. Bundan tashqari, turli telekanallar orqali boshqa millatlarning urf-odatlari aks etgan filmlar ko'plab namoyish etilmoqda. Ulardagi ijobiy holatlarni qo'llab-quvvatlash mumkin. Lekin turlicha so'kinishlar, baqiriqlarga to'la, behayolikni targ'ib etuvchi filmlarning ko'payib borayotganligi va ularning telekanallarda namoyish etilayotganligi, mini-disk sifatida sotilayotganligi tashvishlidir. Ayrim chet el filmlari to'laligicha sheva elementlari bilan tarjima qilinayotganligi, haqoratli so'z va qo'pol jumalarga o'rin berilganligi yoshlar tarbiyasi, ayniqsa, ularning nutq madaniyatiga salbiy ta'sir etmoqda. O'zaro sevgi izhor etishlar, ayniqsa, qizlarning yigitlarga yo'llagan sevgi izhorlari milliy mentalitetimiz, qadriyatlarimizga mutlaqo yot hodisa sifatida ancha tashvish uyg'otadi. Bugun ham «ommaviy madaniyat»ni tiqishtirayotganlarni,

homiylilik qilayotganlarni kuzatish uchun ekrandagi bemaza kino va musiqalarni, gazeta do'konlarining tashqi suratlarini bezab turgan oldi-qochdi matbuotni kuzatishning o'zi kifoya. Nomaqbul G'arb ta'sirining ko'rinishlari kino, musiqa, moda, internet orqali omma hayotiga kirishga urinmoqda.

Turli sektalar, noqonuniy diniy uyushmalar yoshlarni ekstremizm, terrorizm, missionerlikka moyil, jinoyat qilishdan qaytmaydigan, giyohvandlikka oson beriluvchan qilib tarbiyalashga urinmoqda. Bunda ham til omilidan ustalik bilan foydalanilmoqda. Respublikamiz yoshlarining turli noqonuniy yo'llar bilan boshqa davlatlarga borib, ishlab kelishlari, ularning, ko'pincha, yolg'on tafsilotlar bilan tengdoshlarini qiziqtirayotganligi va o'z domiga tortayotganligi xudbinlik, ma'naviy qashshoqlik, ahloqiy buzuvchilik kabi illatlar ayrim yoshlarning tarbiyasini buzmoqda. "Ommaviy madaniyat"ning bu xildagi salbiy ta'siridan yoshlarni, umuman, keng jamoatchilikni asrashning yo'llaridan biri xolis, haqqoniy axborotni ko'proq, mazmunli, ta'sirchan shakllarda tarqatish, axborotni tahlil qilish, saralash, ijobiy jihatlaridan foydalanish madaniyatini ular ongiga singdirishdan iboratdir.

Vaqt kelib fashizm, sionizm, kommunizm oqimlar kabi «ommaviy madaniyat» ham tarix kul tepasidan joy oladi. Negaki, biz oqni qoradan ajrata oladigan, o'tmishi buyuk, kelajagi buyuklikka daxldor xalqimiz. Intellektual va ma'naviy jihatdan boy an'analarga ega millatmiz. Barkamol avlod «ommaviy madaniyat» niqobidagi mafkura nima ekanini yaxshi tushunadi. Yangi davrga hukmini o'tkazayotgan g'oyalarga munosib javob berish uchun navqiron avlodimizning salohiyati etadi. Qurolli to'qnashuvdan ko'ra mafkuralar, g'oyalar kurashi xatarliroq bo'lib turgan ayni vaqtda milliy o'zlik tushunchalari shuuriga jo bo'lgan millatgina derazani chertayotgan «ommaviy madaniyat» tahdidlariga qarshi kurasha oladi, deb o'ylaymiz.

## **Foydalaniladigan adabiyotlar ro'yxati**

### **Rahbariy adabiyotlar:**

1. Mirziyoev Sh.M. – Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston Davlatini birgalikda barpo etamiz.- T., O'zbekiston. 2016.
2. Mirziyoev Sh.M. – Qonun ustivorligi va inson manfaatlarini ta'minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. – T., O'zbekiston. 2017.
3. Mirziyoev Sh.M. – Tanqidiy taxlil, qat'iy tartib intizom va shaxsiy javobgarlik – xar bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. T., O'zbekiston. 2017.
4. O'zbekiston respublikasi Vazirlar Mahkamasining Qarori “Davlat boshqaruvi organlari va mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari

xodimlarining odob-axloq namunaviy qoidalarini tasdiqlash to'g'risida" (O'zbekiston respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2016 y., 9-son, 94-modda)lex.uz

5. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – engilmas kuch. –T.: Ma'naviyat, 2008.

### **Darsliklar va o'quv qo'llanmalar:**

1. Abdulla Sher. Axloqshunoslik. Darslik. –T.: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2010.
2. Agzamova N. Etika. Uslubiy qo'llanma. –T.: OOO "NORI", 2013.
3. Jahon falsafasi tarixidan lavhalar. G' Q.Nazarov tahriri ostida. –T.: Sharq, 2004
4. Mamashokirov S., Usmanov E. Barqaror taraqqiyotning ekologik xavfsizlik masalalalari. –T.: Fan, 2009.
5. Muhammadjonova L.A., Ortiqova D.O., Abidjanova F.A., Masharipova G.K. Professional etika va etiket. Darslik. - T.: "Adabiyot uchqunlari" 2018.
- 6.M. Kaxxarova, N Agzamova. Etika Uchebnoe posobie. Rizograf imeni Nizami. 2018 god.
- 7.L.Muhammadjonova, F.Abidjanova. Etiket. O'quv qo'llanma. T.: Universitet. O'zMU, 2018.
8. Nurmatova M., Muhammadjonova L., Ma'naviyatning axloqiy asoslari.– T.: Unversitet, O'zMU. 2013.
9. Nazarov Q. Aksiologiya – qadriyatlar falsafasi. –T.: O'FMJ, 2004.
10. Nurmatova M. Shaxs kamolotida axloqiy va estetik qadriyatlar uyg'unligi. – T.: Universitet, 2009.
11. E.Umarov., F.Zagritdinova. "Etika. Prikladnaya etika". -T.: Noshir, 2012.
12. Husanov B., Gulamov V. Muomala madaniyati. Darslik. –T.: Iqtisod-moliya, 2009.
13. Shermuxammedova N.A. XXI asr fanining dolzarb muammolari G'G' Falsafa va fan metodologiyasi. – T.: Universitet, 2005.

### **Qo'shimcha adabiyotlar:**

1. Arastu. Poetika. Axloqi Kabir. –T.: Yangi asr avlodi, 2004.
2. Aliqulov H. Falsafiy meros va ma'naviy-axloqiy fikr rivoji. –T.: Falsafa va huquq instituti, 2009.
3. Agzamxodjaeva S.S. Ijtimoiy ideal va O'zbekistonda ijtimoiy-ma'naviy taraqqiyot muammolari. Dissertatsiya. Fals. fan. dok. – T.: 2009.
4. Abdulla Avloniy Turkiy guliston yoxud axloq. – T.: O'qituvchi, 1992.

5. Abu Abdullox Muhammad ibn Ismoil al Buxoriy. Hadis. 2. tomlik –T.: O'zbekiston milliy entsiklopediyasi davlat ilmiy nashriyoti, 2008.
6. Jabborov I. O'zbeklar (ana'naviy xo'jaligi, turmush tarzi va etnomadaniyati). –T.: Sharq, 2008.
7. Zagritdinova F.B. Filosofsko-eticheskiy analiz problem sovremennoy biomeditsino' (na primere Respubliki Uzbekistan). Dissertatsiya. Dok. filos. nauk. – T.: 2006.
8. Qaxxarova Sh. Global ma'naviyat globallashuvning g'oyaviy asosi. –T.: Tafakkur, 2009.
9. Madaeva Sh. Milliy mentalitet va demokratik tafakkur. –T.: Falsafa va huquq, 2007.
10. Mahmudov T. Komillik asrorlari. Hayotiy hikmatlar. –T.: Adolat, 2006.
11. Ma'naviyat asosiy tushunchalar izohli lug'ati. –T.: G'.G'ulom nomidagi nashriyot – matbaa ijodiy uyi, 2009 yil.
12. Navro'zova T.N., Zoirov E.X., Yunusova T.S. Tasavvufda inson va uning kamoloti masalasi. – T.: Falsafa va huquq, 2006.
13. Muxammadjonova L.A. Ma'rifatparvar shoirlar – Dilshod Barno va Anbar Otinning axloqiy qarashlari. Dissertatsiya. Fals. fan.nom. – T.: 2005.
14. Nurmatova M.A. Shaxs ma'naviy kamolotida estetik va axloqiy va estetik qadriyatlar uyg'unligi. –T.: Universitet, 2009.
15. Ochilova B. Milliy-ma'naviy yuksalishda meros, qadriyatlar va vorisiylik. –T.: Istiqolol, 2009.
16. Otamurodav S. Globallashuv va millat. –T.: Yangi asr avlodi, 2008.
17. Tillaeva G. Ma'naviyat va komil inson tarbiyasi. –T.: Falsafa va huquq, 2006.
18. Umarov B. Globallashuv ziddiyatlari. – T., Ma'naviyat, 2006.
19. Falsafa: qomusiy lug'at. G' Q.Nazarov tahriri ostida. – T.: Sharq, 2004.
20. Xojiaxmedov A. Mahalla odobi. –T.: Sharq, 2001.
21. Xolmatova M. Oilaviy munosabatlar madaniyati va sog'lom avlod tarbiyasi. – T.: O'zbekiston, 2000.
22. Choriev A. Inson falsafasi. –T.: Chinor ENK nashriyoti, 2007.
23. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Hadis va hayot. Adab. – T.: Sharq 2008.
24. Qur'onov M. Milliy g'oya va o'zbek xarakteri. – T.: Ma'naviyat, 2005.
25. Yakubov Yu.M. Islom ta'limotida shaxs va jamiyat munosabatlari masalasi. Dissertatsiya. Fals. fan.nom. – T.: 2009.

**Reja:**

1. Amaliy etika va ekologiya
2. Noosfera muammolari
3. Etosfera muammolari

Amaliy etika va ekologiya. Keyingi paytlarda Amaliy etikaning ekologiya bilan aloqasi tobora mustahkamlanib bormoqda. Tarixan amaliy etika ko'proq insonning o'zi, o'zgaralar va jamiyat oldidagi majburiyatlarini tahlil etish bilan shug'ullangan, uning tabiatga bo'lgan munosabati diqqat markazidan chetda qolib kelgan. Lekin keyingi davrlarda, ayniqsa, XX va XXI asrda tabiatga nisbatan tor manfaatparastlik doirasidagi yondashuvlar oqibatida paydo bo'lgan ekologik buhron manzarani o'zgartirdi. Endilikda global ekologik muammolar ko'proq odamlarning ijtimoiy-axloqiy nuqtai nazarlariga bog'liq ekani ma'lum bo'lib qoldi.

Inson tabiat xosili, unda yashaydi, taraqqiy etadi, zurriyot qoldiradi, shu tufayli undan tabiat qonunlariga ongli munosabatda bo'lishi taqazo etiladi. Aks xolda inson undan uzoqlashada va jazolanadi. Insonning tabiatga ta'sir etishi natijasida jamiyat bilan tabiat o'zaro munosabatlarining uyg'unlashuvi buzildi. Insoniyat taraqqiyotining hozirgi bosqichida jamiyat bilan tabiatning o'zaro munosabati barchaning e'tiborini ko'proq o'ziga jalb qilmoqda.

Inson tabiatning bir qismi, demak odamlarning o'zlari, ularning o'zaro munosabatlari ham atrof-muhitning bir qismi hisoblanganligi uchun inson salomatligining ijtimoiy ekologik muammosi yuzaga keldi. XX va XXI asrda erishilgan fan-texnika yutuqlari hozirgi paytda inson va u yashayotgan sayyoraning kelajagiga tahdid solmoqda. Atom, vodorod, neytron bombalari, ballistik raketalar, eng yangi texnikaviy ko'rsatkichlarga ega qiruvchi, bombardimon harbiy uchoqlar, suv osti va suv usti kemalari, eng yangi rusmdagi tanklar hamda turli-tuman qurollar hammasi insonni yo'q qilishga qaratilgan. Ularni ishlab chiqarish korxonalari va sinov maydonlari ekologik buhronlarning manbaidir. Bular bir yoki bir necha mamlakat uchun emas, balki global, umumsayyoraviy falokat hisoblanadi. Ularning oldini olishni faqat bir yo'l bilan-biz yashayotgan texnikaviy muhitda (noosferada) axloqiy muhitni (etosferani) barqaror etish orqali hil qilish mumkin. Shuningdek, biologik axloq, ekologik axloq, o'lim jazosini bekor qilish muammolari ham global tabiatga ega.

Ma'lumki, yuzlab asrlar mobaynida inson kichik biologik olam sifatida katta biologik olam ichida, uning bir parchasi, jonli organizmlar podshosi, oqil va hukmron qismi sifatida yashab keldi. XIX asrning oxiridan boshlab, ayniqsa XX asrda u o'z tafakkur quvvati bilan, ilmiy-texnikaviy yuksalishlar tufayli ana shu biosfera ichida noosferani - texnikaviy muhitni yaratdi. Mana, hozirgi kunda, qarang, ertalabdan kechgacha biz o'z texnikaviy kashfiyotlarimiz ichida yashaymiz

- eymiz, ichamiz, yuramiz, uxlaymiz, ularsiz hayotimizni tasavvur qila olmaymiz. Bular metro, avtobus, televizor, radio, telefon, eskalator, pleyer, lift, kompyuter, internet, poezd, teploxod, gaz plitalari, elektr asboblari, zavodlar, lokatorlar, kimyoviy dori-darmonlar va h.k. Bugun videotelefonda gaplashar ekanmiz, yuzlab chaqirim naridagi suhbatdoshimizni ko'rish va u bilan gaplashish uchun ot-ulovda yoki piyoda boradigan bo'lsak, necha kunlab yo'l bosishimiz kerakligi haqida o'ylab o'tirmaymiz, to'g'rirog'i, bu esimizga ham kelmaydi. Chunki texnika bizning yashash muhitimizga aylanib qolgan. Faqat bugina emas. Inson endilikda o'zi yashayotgan butun boshli sayyoraga ta'sir ko'rsata boshladi. Er tarixida inson birinchi marta ulkan geologik kuch bo'lib maydonga chiqdi. Insoniy tafakkur biosferadagi o'zgarishlarning asosiy sababiga aylandi. Noosfera ta'limoti asoschilaridan biri buyuk rus olimi V.I.Vernadskiy ilmiy tafakkur va inson mehnati ta'siri ostida biosfera yangi holat bo'lmish noosferaga o'tayotganligini, butun geologik davr mobaynida yaratilgan, o'z muvozanatlarida barqarorlashgan biosfera inson ilmiy tafakkuri bosimi ostida tobora kuchliroq va teranroq o'zgarishga kirishganini ta'kidlaydi: «Sayyoramiz yuzi - biosfera inson tomonidan ongli va asosan ongsiz ravishda keskin kimyoviy o'zgarishlarga duchor etilmoqda, - deb yozadi u. -Inson quruqlikning fizikaviy va kimyoviy havo qobig'ini, uning barcha tabiiy suvlarini o'zgartirmoqda... Hozir biz biosferadagi yangi geologik evolyutsion o'zgarishlarni boshdan kechiryapmiz. Biz noosferaga kirib boryapmiz».<sup>1</sup>

Ana shu nuqtadan tafakkur o'zi nima degan muammo paydo bo'ladi. Bu haqda V.I.Vernadskiy shunday mulohaza bildiradi: «Tafakkur energiyaning shakli emas. U qanday qilib moddiy jarayonlarni o'zgartira oladi?»<sup>2</sup> Bu masala hanuzgacha ilmiy jihatdan echilishi topgan emas». Vernadskiy hayratga solgan masala hozir ham o'sha-o'sha, hol etilmagan.

Xo'sh, tafakkur o'zi nima? Ma'naviyat lug'atida berilishicha tafakkur (arab. - fikrlash, aqliy bilish) — inson ma'naviy olamining tarkibiy qismi, olamdagi narsa va hodisalarning umumiy, muhim xususiyatlarini aniqlaydigan, ular o'rtasidagi ichki, zaruriy aloqalar, ya'ni qonuniy bog'lanishlarni aks etadigan bilishning ratsional bosqichi. Tafakkur iborasi arabcha "fikr" so'zidan kelib chiqqan bo'lib, o'ylash, muhokama, mushohada va fikr yuritish ma'nolarini bildiradi.<sup>3</sup> Tafakkur biologik hodisa bo'lmish insonda, uning ruhiy-fiziologik yaxlitlikdan iborat miyasida tug'iladi, lekin tug'ilishi bilan biologik qobiqdan chiqadi va tashqi muhitda energiyaga o'xshab nimanidir yaratadi. Endi inson bilan uning tafakkuri orasida muayyan masofa paydo bo'ladi, masofa uzoqlashgani sari tafakkurning mohiyati

<sup>1</sup>V.I.Vernadskiy. "Ximicheskoye stroeniye biosferы Zemli i yeyo okrujeniya". <http://www.vernadsky.ru/vernadsky>

<sup>2</sup> O'sha manba;

<sup>3</sup>Ma'naviyat izohli lug'ati.- T. G'.G'ulom 2009y. 541B

ayon bo'lib boradi: inson kutgan oqibat kutilgandan boshqacha mazmun kasb eta boshlaydi. Bu savolga javobni xorijiy adabiyotlarda aks etgan iqtiboslarda ko'rishimiz mumkin. A.N.Palenko «Ekologik inqiroz soxta muammo sifatida» degan maqolasida antik davrda insoniyat oldida ekologik muammo bo'lmaganligini ta'kidlaydi. Uningcha: «antik (qadimgi madaniyat) davrda inson ekologik muammolarga to'qnash kelmagan, chunki antik madaniyat ekologik sof bo'lgan».<sup>1</sup> Akademik A.Pokrovskiyning fikriga ko'ra: «Hozirgi zamon kishisi hamma vaqt tabiatga nisbatan urush holatida bo'lib kelgan. Uning halokatli oqibatlari yildan-yilga kuchliroq sezilmoqda. Agar insonning tabiatga munosabat madaniyatini tarbiyalamasak, fojiali oqibat-larga olib kelishi mumkin».<sup>2</sup> «Ma'lum ma'noda, ekologik inqiroz, nafaqat energoresurslar kamyobligi, atrof-muhit ifloslanishi emas, balki, eng avvalo, insonning uyg'onish davridan boshlab, ongli ravishda shakllangan, dunyoga va tabiatga munosabatlari tizimi inqirozidir».<sup>3</sup>

Bizningcha, noosferada, yuqorida aytganimizdek, inson fikri narsalashadi, o'z intellektimiz narsalarga aylanib, bizni o'rab oladi. Insonning ichki tabiati muhit mavqeini egallab, tashqi tabiatga ta'sir ko'rsata boshlaydi va ko'p hollarda bundan eng avvalo insonning o'zi ozor chekadi. Tafakkur biologik xususiyatga ega bo'lmagani uchun biologik muhitning o'rnini egallashga, uni asta-sekin siqib chiqarishga harakat qiladi. Bu harakat ma'lum nuqtadan o'tganidan so'ng esa o'z ijobiy xususiyatini yo'qota boradi va insoniyat uchun salbiy hodisaga aylana boshlaydi. Atom, vodorod, neytron bombalarining kashf etilishi, yadro kallakli ballistik raketalarining yaratilishi ana shunday salbiy hodisalardandir. Bundan tashqari, noosferaning paydo bo'lishi atmosferani, olamiy okeanni, er osti va er usti suvlarini, nabototni, hayvonotni, hatto insonni ich-ichidan kimyoviy zaharlanishga olib kelmoqda. Hozirgi kunda tirik organizmlarning, o'simliklarning, hayvonlarning ko'pgina turlari jisman yo'q bo'lib ketish arafasida turibdi. Ayniqsa, joy topolmay, okean bo'ylab kemalarda suzib yurgan radioaktiv chiqindilar yoki ularning kimsasiz guzal orollarga ko'mib tashlanishi, kislota yomg'irlarining ko'payib borishi singari hodisalar bag'oyat xatarli. Afsuski, inson ko'ra-bila turib, o'zi o'tirgan shoxga bolta urishni to'xtatmayotir.

Nemis olimi V. Dergolts kishilarda umuman tabiatga, xususan, suvga nisbatan ekologik va gigienik munosabat madaniyatni shakllantirishni hayotiy zaruriyat tarzida qarab: «Erda suvning tozaligini saqlash - inson qonining sofliгинi ta'minlashning zaruriy shartidir...Inson suvni ifloslantirishi bilan o'z umrini qisqartiradi»,<sup>1</sup>- degan edi.

<sup>1</sup> Palenko A.N. «Ekologicheskiy krizis» kak psevdoproblema. - M.: //Voprosy filosofii. 2002. № 7.B.72

<sup>2</sup> O'sha manba; B.117.

<sup>3</sup> O'sha manba; B.71.

<sup>1</sup> Dergolts v. Berlin. 1975. WWW. Nature. P. 213.

Bu muammolarning hal etilishi faqat atrof-muhitni kimyoviy zahardan ekologik tozalashnigina emas, balki, eng avvalo, global ma'noda, XXI asr kishisi ongini texnokratiya zaharidan forig'lantirishni taqozo etadi. Ya'ni ular insoniyat oldida endilikda ekologik hodisa emas, balki tom ma'nodagi axloqiy muammolar sifatida ko'ndalang bo'lib turibdi. Mashhur avstriyalik etolog olim, Nobel mukofoti laureati Konrad Lorentsning: «Yoppasiga va tez yoyilib borayotgan jonli tabiatga begonalashish hodisasi uchun asosan tsivilizatsiyamiz kishisidagi estetik va axloqiy to'poslik aybdordir»<sup>1</sup> - degan so'zlari shu nuqtai nazardan diqqatga sazovordir.

Yuqorida aytilganlardan chiqadigan xulosa bitta: kelajakda inson o'zini va o'z sayyorasini muqarrar halokatdan qutqaraman desa - XXI asrdan boshlab etosfera davriga o'tishi kerak; axloqiylik har birimiz uchun har qadamda bugungi texnikaviy muhit kabi zaruratga aylangandagina bunga erishish mumkin.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. V.I.Vernadskiy. «Ximicheskoe stroenie biosfero' Zemli i eyo okrujeniya». <http://www.vernadsky.ru>
2. Ma'naviyat izohli lug'ati.- T. G'.G'ulom 2009y.
3. Pokrovskiy A. Ekologicheskie problema' Zemli. - M.: Nauka, 1975
4. Palenko A.N. «Ekologicheskii krizis» kak psevdoproblema.- M.: G'G' Voproso' filosofii. 2002. №7.
5. Dernqolts v. Berlin. 1975. WWW. Neture. P. 213.
6. Konrad Lorents "Oborotnaya storona zerkala", Elektronnaya biblioteka royallib.com.

### KASB ETIKASI.

#### REJA:

1. Kasbiy etikasi tushunchasining tarixan tarkib topganligi;
2. Kasbiy faoliyat va kasbiy odob; kasbiy odobning axloqiy madaniyat tuzilmasidagi o'rni.
3. Kasb etikasining an'anaviy shakllari: o'qituvchi, tibbiyot xodimi, xuquqshunos etikasi, hamda yangi yo'nalish landshaf dizayneri va jurnalist etikasi.

*Kasbiy etika* - har bir kasb-hunarga xos axloqiy norma, printsip va sifatlarni o'rganadi va hayotga tatbiq etadi.

Axloqiy tarbiya nazariyasi -axloqning jamiyat talabi, ehtiyoji va manfaatlaridan kelib chiqqan holda uni hayotga tatbiq etishning vosita va uslublarini o'rganadi va o'rgatadi.

<sup>1</sup> Konrad Lorens "Oborotnaya storona zerkala", Elektronnaya biblioteka royallib.com.

Jamiyatda mutlaq, abadiy va o'zgarmas axloq yo'q. Axloq tarixan o'zgaruvchan va nisbiy mustaqillikka ega bo'lgan ijtimoiy hodisadir.

Yillar o'tishi bilan ishlab-chiqarish, fan va texnika rivojlanib, ijtimoiy mehnat taqsimoti yanada chuqurlashadi. Bu jarayonning uzluksiz davom etishi esa o'z navbatida, har biri muayyan ijtimoiy funktsiyani bajaradigan yangidan-yangi faoliyat sohalari paydo bo'lishiga sabab bo'ladi. Ularning sohiblari esa shunga ko'ra muayyan ijtimoiy burchlarni bajara boshlaganlar. Mazkur burch va majburiyatlar muayyan axloqiy qoidalar va xulq-atvor normalarida o'z aksini topdi. Shunday qilib, *kasb axloqining paydo bo'lish uzluksiz mehnat taqsimotining mahsuli, uning axloqiy dasturi, axloqiy bahosi sifatida faoliyat ko'rsata boshladi.*

Ana shu axloqiy baho omillariga ko'ra, kasb axloqini har bir kasb-xunarning ijtimoiy hayotda tutgan o'rni va vazifalariga qarab bir necha turga ajratish mumkin:

o'qituvchilik ixtisosiga qarab - pedagog axloqi;

tibbiyot ixtisosiga qarab - shifokor axloqi;

huquqni muhofaza qilish ixtisosiga qarab - yurist axloqi;

xizmat ko'rsatish ixtisosiga qarab - xizmat ko'rsatish etikasi va hakazo.

Jamiyat rivojiga o'zining salmoqli hissasini qo'shuvchi barcha kasb egalarini shartli ravishda davlat xizmatidagi xodim deb yuritdik.

Davlat xizmatidagi xodimlarning huquqiy va axloqiy madaniyati bir-biriga mutanosib bo'lishi kerak. Shu munosabat bilan mansabdor shaxslarda siyosiy hislatlar bilan bir qatorda axloqiy fazilatlarni shakllantirish zaruriy xoldir. Axloqiy barkamollik davlat xizmatidagi xodimlarning ishbilarmonlik sifatlaridan biri hisoblanadi.

Davlat xizmatidagi xodimlarning ishi – og'ir yumush. Uni sharaf bilan ado etmoq uchun, kishi o'zi rahbarlik qiladigan sohani bilishigina emas, balki yana bir qator sifat va fazilatlarga ega bo'lmog'i kerak. Ular ichida avvalo til va nutq imkoniyatlarini ishga sola bilishni ajratib ko'rsatish darkor.

Nutqiy muloqotga kirishgan kishining maqsadlari doirasini umumlashgan holda quyidagilar bilan belgilish mumkin:

1) o'zga(lar)ga, muayyan jamoaga o'z g'oya va fikrlarini etkazish orqali hamfikrlar doirasini kengaytirish;

2) ma'naviy (ruhiy) hayotini uzaytirish orqali hayotda iz qoldirish;

3) hukmronlikka bo'lgan intilishni amalga oshirish;

4) shartnomaga asosan o'z xizmat doirasida muayyan (siyosiy, iqtisodiy, moliyaviy) masalani hal etish;

5) e'tibor qozonish;

6) jamiyatda tutgan baland mavqeini saqlab qolish va sh.k.

Davlat xizmatidagi xodimlarning axloqiy sifatlarini quyidagi jihatlarini tavsiflash mumkin:

- xulqiy nuqtai nazardan xodimning axloqiy tutgan yo'li, uning did-farosati va yashashdan maqsadi yo'nalishi:
- adolat, vijdon va burch davlat xizmatchisi faoliyatidagi yuksak axloqiy fazilat sifatida:
- axloqiy me'yorlarga bo'ysinish:
- etiket qoidalariga rioya qilish.

Shuningdek, davlat xizmatidagi xodimlarga qo'yiladigan axloqiy talablar huquqiy asosga ega bo'lib, ular qonunlar, nizomlar va yo'riqnomalar tarzida rasmiylashtiriladi: ularni buzgan hodimlar intizomiy jazoga, qonunga zid ish ko'rganlar esa jinoiy javobgarlikka tortiladi. Shuning uchun davlat xizmatidagi xodimlarning kasb axloqi, jasurlik, shijoat, adolat va sadoqatlilik kabi axloqiy me'yorlarga tayangan xolda har bir ishga beg'araz va xolis yondashishni taqozo etadi.

Davlat xizmatchisi kasb odobining normalari insonni qadr – qimmatini hurmat qilish va qonunni buzganlarga nisbatan qonunda belgilingan talablar asosida ish ko'rishga asoslanadi. Ular hokimiyat va qonun vakili sifatida ish ko'rар ekan, uning axloqi tarbiyaviylik hususiyatga ega bo'lishi lozim. Ularning axloqi qanchalik yuqori bo'lsa, xalqning davlatga, qonun kuchiga ishonchi ham shunchalik kuchli bo'ladi.

Jamiyatda mutloq, abadiy va o'zgarmas axloq yo'q. Axloq tarixan o'zgaruvchan va nisbiy mustaqillikka ega bo'lgan ijtimoiy hodisadir. Uning bu hususiyatlari umumiy axloqning tarkibiy qismlaridan biri bo'lgan *kasb odobida* ham yaqqol namoyon bo'ladi. Jamiyat rivojining tarixida ijtimoiy mehnat taqsimotining paydo bo'lishi mehnatning bir turi bilan band bo'lgan kishilar guruhlarining kasb – hunar jihatidan ajralib chiqishiga va shunga muvofiq ravishda turli xil mutaxassisliklarning vujudga kelishiga sabab bo'ldi. Bu esa har-bir insonning qilayotgan mehnat tarziga, mehnatni tashkil qilish usullariga qarab, ulardan muayyaan turdagi harakatlar va ruhiy quvvatlarni sarflashni talab etadigan qaytarilmas, o'ziga xos ko'nikmalarni vujudga keltiradi. Inson voyaga etib, bir kasbning boshini tutgach o'z kasbi doirasida odamlar bilan muntazam munosabatda bo'ladi.

Har bir jamiyatning ma'naviyati inson kamolotining u yoki bu bosqichiga xos bo'lgan iymon va e'tiqodi, axloq-odobi, tajriba va malakasini o'z ichiga oladi va insonlarning faoliyati, iste'dodi, qobiliyati, yurish-turishida namoyon bo'ladi. Ma'naviyat insonning qon-qoniga yillar davomida tarbiya orqali singib boradi. Shu ma'noda insoniyat tarixi ma'naviyat – insonning, xalqning, jamiyat va davlatning buyuk boyligi va kuch – qudrat manbai ekanini, bu hayotda ma'naviyatsiz hech qachon odamiylik va mehr – oqibat, baxt va saodat bo'lmasligini yaqqol tasdiqlaydi.

Davlat xizmatidagi xodimlar ham halol-pok, vijdonli, iymonli, diyonatli, mehr-shafqatli bo'lishi kerak. Davlat xizmatidagi xodim lavozimiga egri yo'l, egri qo'l, egri maqsad bilan erishib bo'lmaydi. Fe'l-atvorida egrilik bor kishi davlat xizmatida uzoq faoliyat yurit olmaydi.

Davlat xizmatidagi xodim ish faoliyatida tajriba, ko'nikma, mahorat, bilim, aql va idrokning ham roli katta.

Davlat xizmatidagi xodim faoliyatining samaradorligi uning tafakkuri, aql-idrokiga ham bevosita bog'liq bo'ladi. Tafakkur unga keng va chuqur fikrlay olish, yaxshini yomondan, foydani zarardan, muhimni nomuhimdan bexato ajrata olish imkoniyatini beradi. Bu - hammaga ham nasib qilavermaydigan yuksak fazilat. Agar Davlat xizmatidagi xodimda ana shunday fazilatlar shakllangan bo'lsa, unday xodim ishning sir-asrorlarini qiynalmasdan egallab oladi, o'z jamoasi o'rtasida obro' va ishonch qozonadi. Demak, har qanday mansabdor shaxs keng va chuqur fikrlay olishi bilan birga, bilimli va uddaburon, harakatchan va shijoatli bo'lishi ham kerak.

Davlat xizmatidagi xodimning axloqiy madaniyati - individ tomonidan axloqiy ong orkali jamiyat madaniyatini idrok etish darajasi; axloq talablari inson xatti-harakatlari jamiyatning shakllantiruvchi ta'siri ostida qay darajada chuqur va uyg'un ekanligi ko'rsatkichidir. Turli omillar ta'siri ostida: davlat xizmatidagi xodim axloqiy madaniyati hayotiy tajriba va tarbiya; bilim va san'at shaxs jamiyatning axloqiy madaniyati yutuqlarini turli darajada o'z ongi va xatti-harakatlarida jamlaydigan murakkab dastur bo'lib, o'z ichiga insoniyatning shunday tajribasini oladiki, unga ko'ra inson an'anaviy vaziyatlarda axloqan ish yuritadi, hamda ongning ijodiy elementlarini – axloqiy aql, intuitsiyani ham o'z ichiga oladi va ular yordamida muammoli vaziyatlarda axloqiy qarorlar qabul qila oladi.

Davlat xizmatidagi xodimning axloqiy madaniyatini shakllantirishdan maqsad - an'anaviy va ijodiy elementlarning optimal uyg'unligiga erishish, shaxsning aniq bir tajribasini jamoatchilik axloqining barcha boyliklari bilan birlashtirishdir.

Muallimlik odobi, huquq-tartibot xodimlari odobi, muhandis odobi singari bir qancha kasbiy odob turlari borki, ular jamiyatda axloqiy munosabatlar silsilasida muhim ahamiyatga ega. Shuni aytish kerakki, barcha kasbiy odob qonun-qoidalarining ta'sir doirasi, miqyosi bir xil emas. Ba'zi bir kasbiy odobning buzilishi oddiy odobsizlik doirasidan chiqib, axloqsizlikka aylanib ketadi. Masalan, rahbarlik odobidagi ba'zi nuqtalarga to'xtalaylik. Rahbar quyi lavozimdagilarga mensimay, qo'pol munosabatda bo'lishi, o'ziga ishonib topshirilgan hudud yoki tashkilotdagi oddiy odamlar arz-dodiga, orzu-istaklariga to'ralarcha qarashi odobsizlikka kirsam, uning shaxsiy boylik orttirishi yo'lida korruptsiya vositasida mamlakat, viloyat yoki tashkilot manfaatlarini qurbon qilishi axloqsizlik, nafaqat rahbarlik kasbiga, balki Vatanga ham xiyonat tarzida baholanishi mumkin. Ba'zan kasbiy odobning kasbiy axloq deb atalishi ham ana shundan.

Insonning hayot tajribasi, faoliyati, bilimi, ilmi, odob-axloqi, xatti-harakati bilan o'zining ma'naviy olamini boyitib boradi. Inson aqlan va axloqan boyigan sari o'z oldiga ulug'vor vazifalarni qo'yadi va unga erishish uchun harakat qiladi. Harakat esa ma'naviy poydevorni talab qiladi. Axloqiy qadriyatlarga rioya qilishni har bir shaxs o'zidan boshlashi kerak. Eng asosiy narsa axloqiy qadriyatlarni bilish emas, balki ularga amal qilishdir. Shaxsning faoliyatiga nisbatan axloqiy bahoni jamoatchilik beradi. Zero, axloqlilik – shaxs faoliyatining jamoatchilik belgilagan ma'naviy mezonlariga mos kelishidir. Barcha axloqiy xatti – harakatlarning ma'naviy asosi bo'lgan imon va vijdon tushunchalari inson hayotining ichki ruhiy qonunidir. Axloq muammolari tahlilida inson ko'proq shu ichki qonunga tayanib ish ko'radi.

Davlat xizmatidagi xodimning axloqiy madaniyati - elementlarining yaxlit tizimi bo'lib, axloqiy fikrlash madaniyati, axloqiy mulohaza yuritish qobiliyati, axloqiy bilimlardan foydalana olish, yaxshilik va yomonlikni ajratish, yuzaga kelgan vaziyatning o'ziga xos xususiyatlariga axloqiy me'yorlarni qo'llay bilish va xaqozalarni qamrab oladi. O'z ichiga yana tuyg'ular madaniyatini, axloqiy tajribada xis-tuyg'u va o'ylarning amalga oshirilish qiyofasini, ularning kundalik hayotda xatti-harakat me'yoriga aylanib borish darajasini xarakterlovchi xulq-atvor madaniyati; shakllarni reglamentlovchi qoidalarga qay darajada amal qilish sifatidagi etiketni, muloqotda shaxsning o'zini tuta bilishini oladi. Davlat xizmatidagi xodimning axloqiy madaniyati - umumiy axloqiy tamoyillarni bilish, ularni chuqur his etilgan qarashlariga aylantirish, xatti-harakatlarning eng munosib shaklini qo'llay bilishdir. Uning har bir elementini o'zlashtirish Davlat xizmatidagi xodimning axloqiy madaniyati mustahkamligini shakllantirishga yordam beradi.

Axlok va axlokiy normalar kishilar faoliyatining muayyan sohasigagina taalluqli bo'lmay, balki xalq hayotining hamma jabhalariga kirib boradi. Axlokiy xislatlar sohasi ko'plab masalalarni, ya'ni fuqarolik jamiyatining axloqiy mezonlariga, bozor iqtisodiyoti sharoitining axloqiy karashlariga bo'lgan munosabati va boshqalardan tortib to zamonaviy turmush qoidalari, shaxsiy xulq-atvorgacha bo'lgan masalalarni o'z ichiga oladi. Bu esa ongni qayta qurishda axloqiy tarbiyaning imkoniyatlarini kengaytiradi.

### **Xizmat ko'rsatish xodimlarning kasb odobi va estetik madaniyatining vazifalari.**

Xizmat ko'rsatish xodimlarning kasb etikasi va estetik madaniyati\_ umuminsoniy axloq qonunlari, printsiplari va normalarini, estetik qadriyatlarini aholiga xizmat ko'rsatish, muomala qilish hamda ularga axloqiy tarbiya berish, estetik madaniyatini shakllantirish usullari, yo'llarini o'rganadigan va o'rgatadigan nazariy-falsafiy fandır.

Xizmat ko'rsatish xodimlarning estetik didi deganda ularning guzallikni xunuklikdan, didlilikni-didsizlikdan, munosiblikni-nomunosiblikdan farq qilish qobiliyatlari tushuniladi. Shunga ko'ra kimda-kim guzallikdan zavqlansa, uning estetik didi yaxshi bo'ladi va aksincha guzallikka beparvo bo'lsa uning estetik didi yomon bo'ladi.

Yaxshi munosabat qoidalariga bag'ishlangan ko'p jildli asarida amerikalik yozuvchi Alisa Tsoun «O'zingning obro'yingni saqla, o'zingdan past madaniyatli kishilarga o'xshama. Esingda bo'lsin, sen undan libosing, qaddi-qomating, hatti – harakating va odobing bilan ustun bo'lishga harakat qil» deb yozgan. Aynan o'z obro'sini saqlashni his etish tuyg'usi aholiga va sayyohlarga xizmat ko'rsatadigan korxonalar xodimlarining o'z burchlarini sifatli ado etishga, iste'molchilarni aldamaslikka, ular bilan etiket talablariga ko'ra xushmuomalalik qilishga, o'zini yomon yo'llardan qaytarishga va tashqi qiyofasini yaxshilashga hamda jamiyatning boshqa talablariga itoat qilishga majbur qiladi. Axloq normalari axloqiy munosabatlarning tarkibiy qismi va axloqiy munosabatlarning tarkibiy qismi va axloqiy ong shakllarida mavjud bo'ladi. Axloq printsiplari-umumlashgan axloqiy tushunchalar bo'lsa, axloqiy normalar axloqiy printsiplarga rioya qilish uchun qanday axloqiy xislatlar zarurligini ko'rsatadi.

Muallim o'z bilimlarini yoshlarga uzatib, ularning timsolida hayotini uzaytirgandek bo'ladi, olim o'z shogirdlari timsolida o'z ruhini kelajakka ko'chirsa, maslakdosh hamkasblari orqali o'z makonini ken-gaytirishga harakat qiladi. Xuddi shunday, siyosiy arbob yoki rahbar o'z g'oya va fikrlarini hayotga tadbiq etish, o'z ishlarini davom ettiradigan maslakdoshlarni shakllantirish orqali hayotda iz qoldirib, kelajakka oshno bo'lishga intiladi. Demak, hamfikir, maslakdoshlarni shakllantirish xar bir insonga o'z ma'naviy, intellektual hayotining muddatini uzaytirish uchun kerak.

Inson ma'naviy madaniyatining asosiy mezonini – axloqiy etuklik xisoblanadi. Axloqiy etuklik esa o'zida – halollik, insoflilik, vijdoniylik, sahovatpeshalik, shafqatlilik, mehribonlik singari axloqiy fazilatlarni mujasaam etadi. Shunday ekan, muomala madaniyatining asosiy mezonini yaxshi xulq va guzal fazilat uyg'unligi tashkil etadi.

Shuni qayd etish lozimki, insonni hayvondan farq qiladigan eng muhim xususiyatlaridan biri, uning o'zini yashashi, turmush uchun zarur bo'lgan moddiy va ma'naviy boyliklarni ishlab chiqarish malakasiga ega ekanligidir. Bu malaka insonning insonlararo muomala madaniyatida yaqqol ko'zga tashlanadi.

Muomala shaxslararo munosabatning shunday ko'rinishiki, uning yordamida odamlar bir-birlari bilan axloqiy, estetik, madaniy, siyosiy va ruxiy jihatdan aloqaga kirishadilar, ta'sir o'tkazadilar va ta'sirlanadilar. Shu boisdan muomala ijtimoiy

kategoriya sifatida turmushning barcha sohalarida qo'llanish mohiyatiga ko'ra bevosita yoki bilvosita ishtirok etadi.

Dastlab «muomala» va «aloqa-kommunikatsiya» tushunchalarining o'xshash tomonlarini aniqlab olish lozim. Aloqa-kommunikatsiya - yalpi aloqaning bir turi bo'lib, yo'naltirilgan aloqa deb yuritiladi. U mohiyatan ma'lum bir hodisa haqidagi ma'lumotni boshqalarga uzatadi. Masalan, ommaviy vositalarida ko'rsatuv uchun yo'naltirilgan ma'lumotlarda muomala aloqa-kommunikatsiya vositasi vazifasini bajaradi. Boshqacha qilib aytganda, bunday xolatda muomala eng avvalo subekt-obekt munosabati sifatida namoyon bo'ladi.

Muomala jarayoni ikki taraflama xarakterga ega: u o'z mohiyatiga ko'ra axborot yoki ma'lumotlarni shunchaki uzatish va qabul qilishga qaraganda kengqamrovli bo'lib, ikki yoki undan ortiq insonlarning o'zaro ta'sirini murakkab tizimi hisoblanadi. Shunga ko'ra muomala akti bir insonning boshqa inson(lar) bilan muomalaga kirishib, unda o'zinikiga o'xshash xususiyatlarni topa olishi, ularga munosib javob qaytarishi, ular bilan o'zaro muloqotda optimal darajaga erishsagina o'zining muomala jarayonidagi munosib o'rniga ega bo'ladi. Bunday xolatda muomala eng avvalo, subekt-subektga munosabati tarzida ko'zga tashlanadi.

Lekin shuni ta'kidlash lozimki, ko'pgina ilmiy-ommabop adabiyotlarda mualliflar «muomala» va «kommunikatsiya» tushunchalarini sinonim tarzida ishlatadilar. Aytish mumkinki, muomala jarayon sifatida tugal natijani obektiv ehtiyojlar, aniq manfaatlar, maqsadlar, tuzilmalar, vositalar, muomala texnikasi nuqtai-nazaridan ko'rib chiqadi. U paydo bo'lgandan boshlab ilmiy tavsiflanadigan qator daraja va bosqichlardan o'tib kelgan.

Shuningdek, muomala hamkorlik faoliyatining muhim omili ekanini alohida ta'kidlash lozim. Muomalaning ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, huquqiy sohalaridagi hamkorligi ikkala tomonning manfaatiga asoslanadi. Shunday bo'lgan taqdirdagina, muloqot samarali yakunlanishi mumkin. Bu borada mamlakat Prezidentlarining davlatlararo har tomonlama shartnomani imzolash uchun olib boradigan muloqotlari yuqoridagi fikrlarga misol bo'ladi.

Shunday xolatlar ham bo'ladiki, muloqot jarayonlarida hamkorlarning o'zaro muloqotida umumiy manfaatlar kuzatilmaydi, shu bilan birga bu xolat hamkorlikning uzilishiga ham olib kelmaydi. Bunday xolatni aksariyat xollarda siyosiy, iqtisodiy soha vakillarining o'zaro kuzatuvchi va ekspert sifatida ishtirok etgan uchrashuvlarda kuzatiladi.

### **Foydalaniladigan adabiyotlar ro'yxati**

#### **Rahbariy adabiyotlar:**

1. Mirziyoev Sh.M. – Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston Davlatini birgalikda barpo etamiz.- T.,O'zbekiston. 2016.
2. Mirziyoev Sh.M. – Qonun ustivorligi va inson manfaatlarini ta'minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. – T., O'zbekiston. 2017.
3. Mirziyoev Sh.M. – Tanqidiy taxlil, qat'iy tartib intizom va shaxsiy javobgarlik – xar bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. T., O'zbekiston. 2017.
4. O'zbekiston respublikasi Vazirlar Mahkamasining Qarori “Davlat boshqaruvi organlari va mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari xodimlarining odob-axloq namunaviy qoidalarini tasdiqlash to'g'risida” (O'zbekiston respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2016 y., 9-son, 94-modda)lex.uz
5. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – engilmas kuch. –T.: Ma'naviyat, 2008.

### **Darsliklar va o'quv qo'llanmalar:**

1. Abdulla Sher. Axloqshunoslik. Darslik. –T.: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2010.
2. Agzamova N. Etika. Uslubiy qo'llanma. –T.: OOO “NORI”, 2013.
3. Jahon falsafasi tarixidan lavhalar. G' Q.Nazarov tahriri ostida. –T.: Sharq, 2004
4. Mamashokirov S., Usmanov E. Barqaror taraqqiyotning ekologik xavfsizlik masalalalari. –T.: Fan, 2009.
5. Muhammadjonova L.A., Ortiqova D.O., Abidjanova F.A., Masharipova G.K. Professional etika va etiket. Darslik. - T.: "Adabiyot uchqunlari" 2018.
- 6.M. Kaxxarova, N Agzamova. Etika Uchebnoe posobie. Rizograf imeni Nizami. 2018 god.
- 7.L.Muhammadjonova, F.Abidjanova. Etiket. O'quv qo'llanma. T.: Universitet. O'zMU, 2018.
8. Nurmatova M., Muhammadjonova L., Ma'naviyatning axloqiy asoslari.– T.: Unversitet, O'zMU. 2013.
9. Nazarov Q. Aksiologiya – qadriyatlar falsafasi. –T.: O'FMJ, 2004.
10. Nurmatova M. Shaxs kamolotida axloqiy va estetik qadriyatlar uyg'unligi. – T.: Universitet, 2009.
11. E.Umarov., F.Zagritdinova. “Etika. Prikladnaya etika”. -T.: Noshir, 2012.
12. Husanov B., Gulamov V. Muomala madaniyati. Darslik. –T.: Iqtisod-moliya, 2009.
13. Shermuxammedova N.A. XXI asr fanining dolzarb muammolari G'G' Falsafa va fan metodologiyasi. – T.: Universitet, 2005.

### **Qo'shimcha adabiyotlar:**

1. Arastu. Poetika. Axloqi Kabir. –T.: Yangi asr avlodi, 2004.
2. Aliqulov H. Falsafiy meros va ma'naviy-axloqiy fikr rivoji. –T.: Falsafa va huquq instituti, 2009.
3. Agzamxodjaeva S.S. Ijtimoiy ideal va O'zbekistonda ijtimoiy-ma'naviy taraqqiyot muammolari. Dissertatsiya. Fals. fan. dok. – T.: 2009.
4. Abdulla Avloniy Turkiy guliston yoxud axloq. – T.: O'qituvchi, 1992.
5. Abu Abdullox Muhammad ibn Ismoil al Buxoriy. Hadis. 2. tomlik –T.: O'zbekiston milliy entsiklopediyasi davlat ilmiy nashriyoti, 2008.
6. Jabborov I. O'zbeklar (ana'naviy xo'jaligi, turmush tarzi va etnomadaniyati). –T.: Sharq, 2008.
7. Zagritdinova F.B. Filosofsko-eticheskiy analiz problem sovremennoy biomeditsino' (na primere Respubliki Uzbekistan). Dissertatsiya. Dok. filos. nauk. – T.: 2006.
8. Qaxxarova Sh. Global ma'naviyat globallashuvning g'oyaviy asosi. –T.: Tafakkur, 2009.
9. Madaeva Sh. Milliy mentalitet va demokratik tafakkur. –T.: Falsafa va huquq, 2007.
10. Mahmudov T. Komillik asrorlari. Hayotiy hikmatlar. –T.: Adolat, 2006.
11. Ma'naviyat asosiy tushunchalar izohli lug'ati. –T.: G'.G'ulom nomidagi nashriyot – matbaa ijodiy uyi, 2009 yil.
12. Navro'zova T.N., Zoirov E.X., Yunusova T.S. Tasavvufda inson va uning kamoloti masalasi. – T.: Falsafa va huquq, 2006.
13. Muxammadjonova L.A. Ma'rifatparvar shoirlar – Dilshod Barno va Anbar Otinning axloqiy qarashlari. Dissertatsiya. Fals. fan.nom. – T.: 2005.
14. Nurmatova M.A. Shaxs ma'naviy kamolotida estetik va axloqiy va estetik qadriyatlar uyg'unligi. –T.: Universitet, 2009.
15. Ochilova B. Milliy-ma'naviy yuksalishda meros, qadriyatlar va vorisiylik. –T.: Istiqlol, 2009.
16. Otamurodav S. Globallashuv va millat. –T.: Yangi asr avlodi, 2008.
17. Tillaeva G. Ma'naviyat va komil inson tarbiyasi. –T.: Falsafa va huquq, 2006.
18. Umarov B. Globallashuv ziddiyatlari. – T., Ma'naviyat, 2006.
19. Falsafa: qomusiy lug'at. G' Q.Nazarov tahriri ostida. – T.: Sharq, 2004.
20. Xojiaxmedov A. Mahalla odobi. –T.: Sharq, 2001.
21. Xolmatova M. Oilaviy munosabatlar madaniyati va sog'lom avlod tarbiyasi. – T.: O'zbekiston, 2000.
22. Choriev A. Inson falsafasi. –T.: Chinor ENK nashriyoti, 2007.

23. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Hadis va hayot. Adab. – T.: Sharq 2008.
24. Quronov M. Milliy g'oya va o'zbek xarakteri. – T.: Ma'naviyat, 2005.
25. Yakubov Yu.M. Islom ta'limotida shaxs va jamiyat munosabatlari masalasi. Dissertatsiya. Fals. fan.nom. – T.: 2009.

## **OAV ETIKASI VA ESTETIK MADANIYATI**

### **REJA:**

1. Estetik madaniyat - insonning estetik faoliyati jarayoni sifatida
2. Estetik munosabat.
3. Inson va go'zallik masalasi
4. OAV etikasi va estetik madaniyati

Estetik madaniyat - insonning estetik faoliyati jarayoni, uning natijasida yaratilgan moddiy va ma'naviy qadriyatlar bo'lib, shaxsni shakllantirish va kamolotida muhim omil bo'lgan ijtimoiy hodisadir.

Estetik madaniyat nafaqat tevarak olamni, balki insonni o'rab turgan ijtimoiy voqelikni bilishga intilish natijasi hamdir. Shu jihatdan olganda estetik madaniyat shaxs, millat, jamiyatning o'z-o'zini anglashi ham demakdir. Chunki estetik madaniyat ijtimoiy birliklarning ehtiyojlari va manfaatlari, o'ziga xosliklari, jahon tarixida tutgan o'rni, turli ijtimoiy tizimlarga bo'lgan munosabati ham o'z ifodasini topadi.

Bugungi kunda texnik vositalar insonning estetik madaniyatni rivojlanishiga sezilarli ta'sir qila boshladi. Shundan kelib chiqqan holda madaniyat yutuqlarini ommalashtirish, tarqata olish imkoniyatini yaratgan, er yuzi ning turli burchaklarida dunyoga kelayotgan madaniyat namunalarini millionlarning ma'naviy ozig'iga aylantirayotgan ommaviy aloqa vositalarining — radio, televidenie, internet, kino kabi hodisalarning roli bu jarayonda kattadir.

Estetik madaniyat bir tomondan kishilar o'rtasidagi bevosita va bilvosita muloqotni tartibga solsa, boshqa tomondan muloqotning o'zi madaniy hodisa sifatida baholanadi va biz bunday hollarda « muomala madaniyati» degan iborani ishlatamiz.

Kishilar o'rtasidagi muomala turli vositalar yordamida amalga oshiriladi. Har bir millatning o'z tili bor. Ayni paytda har bir millat muloqotning rang barangligini, mazmundorligini ta'minlaydigan o'ziga xos imo-ishoralar, raqs, musiqa, xulq-odob normalari va boshqa «tiliga» ham ega. Maqomlar, klassik qo'shiqlarimizni tinglaganda, xalqning his-tuyg'ulari, kechinmalari, dardi, umidlarini dildan his qilinadi, xalqning odob axloq normalarida esa nozik didlilik, insoniy mexr-muhabbat, hurmat va ulukvorlikni ko'rish mumkin.

Inson faoliyatini tartibga solish, hayot tarzini shakllantirish estetik madaniyatning muhim funktsiyalaridan biridir. Bu funktsiya tufayli estetik madaniyat kishilarning muloqotini, ishlab chiqarish va turmushdagi munosabatlarni ma'lum normalarga bo'ysundiradi.

Estetik munosabat – ob'ekt bilan sub'ekt o'rtasidagi o'ziga hos aloqadorlik tufayli kelib chiqadigan xarakterlar majmuidir. Go'zallikni idrok qilish jarayonida sodir bo'ladigan o'zaro harakatlar estetik munosabat zaminidir. Estetik munosabat orqali inson ob'ektiv dunyoning voqea va hodisalarini keng mushohada qiladi. Estetik munosabatning natijasi estetik baholash mohiyati, narsa-buyumlar ifodalanadi. Masalan, kursi yoki xontaxtani estetik baholash – uning shakli bo'lgan material, uni qayta ishlash, taraf va qismlari mutanosibligini uning amaliy o'rni, ya'ni nimaga mo'ljallanganligiga qiyos qilishdir. Ovqatga estetik munosabat uning shakl va mazmuni mutanosibligida o'z ifodasini topadi. Yoki insonga estetik munosabatda bo'lish ham inson shaxsi ma'naviy mazmunining inson xatti-harakatlari va xulq-atvori shakliga mutanosiblikda ifodalanadi.

Estetik munosabat ob'ektiv va subektiv tomonlardan tashkil topadi, ya'ni u sub'ekt bilan ob'ekt o'rtasidagi o'ziga hos aloqalar shaklida namoyon bo'ladi. Bunda estetik munosabatning ob'ektiv tomoni, ya'ni estetik ob'ektining insoniy aloqalar va munosabatlarga kirishgan, bevosita idrok etish ob'ektiga aylangan, insonlarning estetik ehtiyojlarini qondirishga xizmat qiladigan voqelikning xilma – xil ko'rinishlari tashkil etsa, estetik sub'ektini esa estetik his – tuyg'u, kechinma, did va ideallarga ega bo'lgan shaxs yoki guruh tashkil etadi.

Insonning ichki dunyosi, shaxsi, aqli va his – tuyg'ulari uning tashqi qiyofasi – ko'zlari, chehrasi, shuningdek qaddi – qomati va yurish – turishida to'la aks etadi. Insonning ichki dunyosi qanchalik mukammal bo'lsa, yurish – turishi ham shunchalik madaniyatli bo'ladi.

Inson va go'zallik masalasi azaldan jamiyatning diqqat markazida turgan masalalardan hisoblanadi. Bu borada ilmiy manbalarda talaygina mulohazalar bildirilgan. Ayrimlar inson go'zalligini belgilashda uning tashqi qiyofasiga qarab baho berish kerakligini uqtirsalar, ikkinchi qarash tarafdorlari-inson go'zalligi uning axloqiy fazilatlari bilan belgilanadi, degan g'oyani ilgari suradilar. Shulardan ikkinchi g'oya tarafdorlari ko'pchilikni tashkil qiladi. Biz esa mazkur ikki qarashni inkor etmagan holda, uchinchi qarashni maqsadga muvofiq deb bilamiz. Ya'ni, inson kamolotida go'zallik zohiriy yoki botiniy tomonlardan birining ustuvorligi bilan emas, balki ikkala tomonning uyg'unligiga asoslanadi; birini ikkinchisidan ajratish inson go'zalligi haqida to'laqonli tasavvurni bermaydi. Zotan, axloqiy fazilatlar insonning botiniy go'zalligini mustahkamlasa, zohiriy (tashqi) ko'rinish ham insonga ijobiy tuyg'ular baxsh etadi.

Aksariyat hollarda insonning tashqi go'zalligiga nisbatan yuzaki munosabat bildiriladi; tashqi go'zallik shaxsning chinakam «Men»ini namoyon qilishiga to'sqinlik qiluvchi, o'tkinchi hodisa sifatida qaraladi. Jumladan, qadimgi xind hikmatnomasi «Kalila va Dimna»da yoshlarning go'zalligi dunyoda o'tkinchi bo'lgan narsalar sirasiga kiritilsa, XX asr turk mutasavvif allomasi Muhammad Zohid qutqu esa «Tasavvuf axloqi» nomli asarida «Shubhasizki, ko'ngil go'zalligi, vujud go'zalligidan bag'oyata'lo va afzaldir.» -deb uqtiradi. Ko'rkam xulqning go'zal yuz fazilatiga nisbatan ustuvorligini mazkur fikrlar orqali bilib olish qiyin emas.

Shuningdek, tashqi jamol va ichki jamolning uyg'unligi natijasida yuzaga keladigan ijobiy holatni alloma A.Fitrat «Oila» risolasida sodda qilib quyidagicha ifodalagan edi: «...Yuqorida zikr etilgan go'zallik (jamol) haqidagi so'zlarimiz zohiriy (tashqi) jamoldir. Agarda u botiniy (ichki) jamol bilan, ya'ni yaxshi hulq bilan bog'liq bo'lmasa bir tiyinga qimmat. Kimki o'z ixtiyori tizginini hayvoniy shahvat qo'liga bermagan ekan, doimo ichki jamolini tashqi go'zalligi bilan, ya'ni xusni ahloqini qora ko'zlar va kamon qoshlar bilan ziynatlaydi».<sup>1</sup>

Bir so'z bilan aytganda, tashqi go'zallik inson go'zalligining mukammallashuvida o'ziga xos ahamiyatga ega. Biroq, hunuklikning shunday unsurlari mavjudki ular bevosita go'zal yuz fazilatlarining takomillashuviga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Mazkur unsurlarni yuzaga kelishiga tashqi ta'sirdan ko'ra, ko'proq shaxsning o'zi sababchi bo'lib qoladi: bachkanalik, kaltabinlik, qo'rslik, xusnni suiste'mol qilish, manmanlik, riyokorlik kabilar insonning tashqi go'zalligiga rahna soluvchi hunuklik unsurlari sanaladi.

Mazkur fikrlardan kelib chiqqan holda, aytishimiz mumkinki, so'z, fikr, niyat, amal insonning axloqiy-estetik faoliyatida hamda xulqiy go'zallikka erishish yo'lidagi maqsad va intilishlariga asos bo'ladigan, insonni to'g'ri faoliyatga undaydigan ma'naviy omillardir. Ta'kidlash lozimki, iymonning hox diniy hox dunyoviy talqini bo'lsin ular mohiyatan insonda ijobiy fazilatlarni shakllantirishga qaratilgan. Zotan, so'z, fikr, niyat va qilingan chiroyli amallarni har ikki talqindagi iymon inkor etmaydi. Aksincha, iymon kishilarning bir-biri bilan chiroyli so'zlar orqali muomala qilishga, chiroyli fikrlar bilan maqsadga intilishga, chiroyli niyat asosida yashashga va ularni go'zal amal orqali mujassam qilishga da'vat etadi. Bordi-yu inson chiroyli so'zlasa-yu iymoni bo'lmasa, illat shuki bu-yolg'onchilikka olib keladi; chiroyli fikrlarga ega bo'lsa-yu, iymonsiz bo'lsa, illat shundaki, bu-ikkiyuzlamachilikka olib keladi; chiroyli niyatlar qilsa-yu iymon bo'lmasa, illat shundaki, bu-boqimandalikka, dangasalikka olib keladi va hokazo.

<sup>1</sup> Fitrat Abdurauf. Oila yoki oilani boshkarish tartiblari.-T.: Ma'naviyat. 1998.-24 b.

Tanishlar sonini ko'paytirish va shaxslararo muvoffaqiyatli aloqa o'rnatish san'atini egallash uchun bosiladigan birinchi qadam bu insonning borlig'i va uning haqiqiy mohiyatini anglashdir. Avvalambor inson o'zgaga emas, o'ziga bo'lgan qiziqishni namoyon qiladi. Boshqacha qilib aytadigan bo'lsak, uning o'ziga bo'lgan e'tibori boshqalarga qaratgan e'tiboridan ming marta ustun turadi.

Yaxshi kiyinish o'ziga xos san'at. Kishi bu san'atni egallashi uchun moda talablariga rioya qilibgina qolmay, o'z didini ham taprbiyalashi kerak. Didni tarbiyalash uchun qonunlari me'yor, va o'zaro mos tushunchalarga asoslangan san'atning barcha turlari bilan tanishib borishi lozim.

Zehn bilan tanlangan orasta libos uning egasining didini yaxshiligini bildiradi. Ko'ylak javoni to'la bo'lmasdan turib ham did bilan kiyinish mumkin. Yangi chiqqan zamonaviy libos ketishdan quvish emas, balki siz uchun zarur bo'lgan narsa haqida o'ylab ko'rgan ma'qul. Zamonaviy moda matoning turlarning yangiligi bilan ham belgilanadi.

Jiddiy erkaklarga nisbatan ayollar zamonaviylik masalalarida ko'proq qayg'uradilar. Erkaklarga nisbatan ayollar modasi o'zgaruvchanroqdir. Yubka va kamzullar bir kaltalashib ketsa, bir - bir-ikki yildan so'ng - uzunlashib ketadi. Ko'ylakda ba'zida belni ko'rsatib turadigan holatlari paydo bo'lsa, ba'zida aksi bo'ladi. Erkaklarga nisbatan matolarning rangdor tuslari va fakturasi turli-tumandir va, albatta turli zil zamonaviy ziynatlar ham ayollar uchundir. Ammo erkaklar umuman zamonaviylikdan yiroq desak noto'g'ri bo'lar edi. Kuchli jins sohiblarining zamonaviylikka bo'lgan qiziqishi - oxirgi yillarda etarli darajada salohiyatga ega.

Jiddiy kostyumlarga to'q jigarrang va qora rangdagi, qulay va sifatli oyoq kiyimlar mos keladi. Och jigarrang yoki jigarrang oyoq kiyimlar qora kostyumga umuman to'g'ri kelmaydi. Biroq qora oyoq kiyim jigarrang kostyumga mosdir. Qalin taglik, qo'pol sportiv botinkalar tantanali chiqish uchun mo'ljallangan kiyimlarga to'g'ri kelmaydi, faqatgina sportiv kiyimlar bilan yaxshi ko'rinadi.

Tashqi ko'rinishingizda mayda-chuyda narsalar bo'lmaydi. Ularning hammasi ahamiyatga ega. Ziynatlar haqida bir necha so'z. Afsuski, hamma ham kostyumini bezashda doimo taqinchoqlardan to'g'ri foydalana olmaydi. Ba'zilar haddan tashqari zeb-ziynatlarga ko'milsa, ba'zilar esa o'ta oddiylashib ketadilar. Avalambor hech qaysi ayol bu borada tejamasligi lozim, ammo ularni ko'z-ko'z qilish uchun chegaradan chiqib ketish ham - *«me'yordan chiqish»* kabi didsizlikdir.

Erkak kishining asosiy kiyimi - kostyum. Biroq doimo unda erkak kishi bashang ko'rinavermaydi. Kostyum jussa o'lchovlariga to'g'ri kelishi lozim, harakatlarni cheklab siqmasligi, yurganda halaqit bermasligi, odmi rangda bo'lishi kerak. Ko'ylak, bo'yinbog' va paypoq tanlashda ham diqqatli bo'ling. Bularning hammasi, oyoq kiyimni istisno qilmagan holda yoshingiz, sharoit va boshqa ma'lum

bir holatga monand bo'lishi zarur. Erkaklar bashang bo'lib tug'ilmaydilar. Bu avvalambor tarbiya va o'z-o'zni tarbiyalashdir. Bu kuzatuvchanlikdir - bu qanchalik qiziq bo'lib tuyulmasin – aqllilikdir. Bashang erkaklar kerakli daraja doimo batartibdirlar. U barcha tafsilotlarda diqqatlik va o'tkir zehn egasidir. Bir qancha aniq maslahatlar. ***Erkaklarga o'zlari bilan ikkita dastro'mol olib yurishni tavsiya etamiz:*** biri - ustki kiyim yoki shim kissasida, uni kerakli bo'lganda o'zi uchun ishlatiladi (ishlatib bo'lgandan keyin g'ijimlab tashlamang), ikkinchisi – mutlaqo tozasi – ustki kiyimning ichki cho'ntagida, maxsus holatlar uchun (ko'zoynakni artish uchun, bola yoki ayol kishiga kerak bo'lib qolgan taqdirda berish uchun va h. k.). Bu ikkinchi dastro'molni ustki kiyimning tashqi cho'ntagida, sal uchini chiqargan holda olib yurish ham mumkin.

Bo'yinbog' doimo egasining didini aks ettirib kelgan. Umuman olganda, sportiv kiyim yoki kostyum–shim bilan kiyish uchun ipak yoki sun'iy ipakdan bo'lgan yoki sun'iy toladan hamda bir–ikkita sherst bo'yinbog'lar harid qilib olish lozim. Bo'yinbog'ni tanlash kostyum fasoni va matosining rangi, rasmiga bog'liq. Jiddiy kostyumga tabiiy hamda sun'iy ipakdan bo'lgan bo'yinbog'lar to'g'ri keladi. Kapalaksifat bo'yinbog'lar alohida vaziyatlar uchun mo'ljallangan. Ular odmi va nafis tusda bo'lishlari lozim. Mayda rasimli kostyumga har qanday bo'yinbog' bo'laveradi. Olachipor kostyumga bir tusdagi bo'yinbog' mos tushsa yaxshiroq bo'ladi. Ammo bunda ikkita qoidaga amal qilish lozim: yo bo'yinbog'ni tanlayotganda uni kostyum rangi bilan bir tusda, ammo sal ochroq yoki sal to'qroq bo'lishiga harakat qilish kerak. Chunki bu bilan ular bir–birini to'ldirib turadi, yoki kostyum va bo'yinbog' bir–biriga qarama–qarshi tusda (albatta uyg'unlashgan holda) bo'lishi lozim. Lekin bundan qarama–qarshilik sizda yagona bo'lishi kerak!

Dastro'molni dazmollangan holda shim cho'ntagi yoki sumkada saqlash kerak. Aksirgandan so'ng uni qoqib o'tirish nojoiz, darrov olib qo'ying.

### **Foydalaniladigan adabiyotlar ro'yxati**

#### **Rahbariy adabiyotlar:**

1. Mirziyoev Sh.M. – Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston Davlatini birgalikda barpo etamiz.- T., O'zbekiston. 2016.
2. Mirziyoev Sh.M. – Qonun ustivorligi va inson manfaatlarini ta'minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. – T., O'zbekiston. 2017.
3. Mirziyoev Sh.M. – Tanqidiy taxlil, qat'iy tartib intizom va shaxsiy
4. javobgarlik – xar bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. T., O'zbekiston. 2017.
5. O'zbekiston respublikasi Vazirlar Mahkamasining Qarori “Davlat boshqaruvi organlari va mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari xodimlarining odob-

axloq namunaviy qoidalarini tasdiqlash to'g'risida" (O'zbekiston respublikasi qonun

6. hujjatlari to'plami, 2016 y., 9-son, 94-modda)lex.uz
7. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – engilmas kuch. –T.: Ma'naviyat, 2008.

### **Darsliklar va o'quv qo'llanmalar:**

1. Abdulla Sher. Axloqshunoslik. Darslik. –T.: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2010.
2. Agzamova N. Etika. Uslubiy qo'llanma. –T.: OOO "NORI", 2013.
3. Jahon falsafasi tarixidan lavhalar. G' Q.Nazarov tahriri ostida. –
4. T.: Sharq, 2004
5. Mamashokirov S., Usmanov E. Barqaror taraqqiyotning ekologik
6. xavfsizlik masalalari. –T.: Fan, 2009.
7. Muhammadjonova L., Jadid mutafakkirlarining axloqiy qarashlari. –T.: O'zMU. 2007.
8. Nurmatova M., Muhammadjonova L., Ma'naviyatning axloqiy asoslari.–T.: Universitet, O'zMU. 2013.
9. Nazarov Q. Aksiologiya – qadriyatlar falsafasi. –T.: O'FMJ, 2004.
- 10.Nurmatova M. Shaxs kamolotida axloqiy va estetik qadriyatlar uyg'unligi. – T.: Universitet, 2009.
- 11.E.Umarov., F.Zagritdinova. "Etika. Prikladnaya etika". -T.: Noshir, 2012.
- 12.Husanov B., Gulamov V. Muomala madaniyati. Darslik. –T.: Iqtisod-
- 13.moliya, 2009.
- 14.Shermuxammedova N.A. XXI asr fanining dolzarb muammolari G'G'
- 15.Falsafa va fan metodologiyasi. – T.: Universitet, 2005.

### **Qo'shimcha adabiyotlar:**

1. Arastu. Poetika. Axloqi Kabir. –T.: Yangi asr avlodi, 2004.
2. Aliqulov H. Falsafiy meros va ma'naviy-axloqiy fikr rivoji. –T.: Falsafa va huquq instituti, 2009.
3. Agzamxodjaeva S.S. Ijtimoiy ideal va O'zbekistonda ijtimoiy-ma'naviy taraqqiyot muammolari. Dissertatsiya. Fals. fan. dok. – T.: 2009.
4. Abdulla Avloniy Turkiy guliston yoxud axloq. – T.: O'qituvchi, 1992.
5. Abu Abdullox Muhammad ibn Ismoil al Buxoriy. Hadis. 2. Tomlik.
6. O'zbekiston milliy entsiklopediyasi davlat ilmiy nashriyoti, 2008.
7. Jabborov I. O'zbeklar (ana'naviy xo'jaligi, turmush tarzi va etnomadaniyati). –T.: Sharq, 2008.

8. Zagritdinova F.B. Filofofsko-eticheskiy analiz problem sovremennoy biomeditsino' (na primere Respubliki Uzbekistan). Dissertatsiya. Dok. filos. nauk. – T.: 2006.
9. Qaxxarova Sh. Global ma'naviyat globallashuvning g'oyaviy asosi. –T.: Tafakkur, 2009.
10. Madaeva Sh. Milliy mentalitet va demokratik tafakkur. –T.: Falsafa va huquq, 2007.
11. Mahmudov T. Komillik asrorlari. Hayotiy hikmatlar. –T.: Adolat, 2006.
12. Ma'naviyat asosiy tushunchalar izohli lug'ati. –T.: G'.G'ulom nomidagi nashriyot – matbaa ijodiy uyi, 2009 yil.
13. Navro'zova T.N., Zoirov E.X., Yunusova T.S. Tasavvufda inson va uning kamoloti masalasi. – T.: Falsafa va huquq, 2006.
14. Muxammadjonova L.A. Ma'rifatparvar shoirlar – Dilshod Barno va Anbar Otinning axloqiy qarashlari. Dissertatsiya. Fals. fan.nom. – T.: 2005.
15. Nurmatova M.A. Shaxs ma'naviy kamolotida estetik va axloqiy va estetik qadriyatlar uyg'unligi. –T.: Universitet, 2009.
16. Ochilova B. Milliy-ma'naviy yuksalishda meros, qadriyatlar va vorisiylik. –T.: Istiqlof, 2009.
17. Otamurodov S. Globallashuv va millat. –T.: Yangi asr avlodi, 2008.
18. Tillaeva G. Ma'naviyat va komil inson tarbiyasi. –T.: Falsafa va huquq, 2006.
19. Umarov B. Globallashuv ziddiyatlari. – T., Ma'naviyat, 2006.
20. Falsafa: qomusiy lug'at. G' Q. Nazarov tahriri ostida. – T.: Sharq, 2004.
21. Xojiaxmedov A. Mahalla odobi. –T.: Sharq, 2001.
22. Xolmatova M. Oilaviy munosabatlar madaniyati va sog'lom avlod tarbiyasi. – T.: O'zbekiston, 2000.
23. Choriev A. Inson falsafasi. –T.: Chinor ENK nashriyoti, 2007.
24. Shayx Muhammad Sodik Muhammad Yusuf. Hadis va hayot. Adab. – T.: Sharq 2008.

## **NOSAN'AT OB'EKTLAR ESTETIKASI.**

### **REJA**

1. San'atga aylangan estetik ob'ekt
2. Dizaynning zaruriyatga aylanishi
3. Mehnat estetikasi
4. Turmush estetikasi

San'at idrok etuvchiga erkinlik beradi, unga yo'l ko'rsatadi, hayotini mazmunini aniqlashga yordam beradi. San'at asarini vujudga keltirgan badiiy ijod jarayonining ibtidosi san'atkorning muayyan g'oyani yoki g'oyalar tizimini badiiyat orqali boshqalarga etkazishga intilishi orqali vujudga keladi. Ammo san'at asari bilan idrok etuvchi o'rtasida estetik munosabat sodir bo'lmasa, san'atning ahamiyati yo'qoladi. San'atdagi ma'lum bir g'oyani idrok etish uchun estetik munosabat zarur. Estetik munosabat estetik faoliyatni vujudga keltiradi.

Biz tabiatni nutqlarimizda, she'rlarimizda, maqolalarimizda "Ona-tabiat" deb ataymiz. Darhaqiqat, tobimiz qochsa, shifokorlar bizga bahavo, shaffof suvli tabiat qo'ynida joylashgan oromgohlarga borishni, kimsasiz daryo bo'ylaridagi butazorlar orasida chodir qurib, bir muddat tashvishlardan forig' yashashni tavsiya etadilar. Shahar shovqinlaridan, mehnatdan, axborotlar siquvidan charchaganimizda, jamoa bilan yoki oilaviy tarzda shanba yo yakshanba kuni tabiat qo'yniga chiqib dam olamiz. Toliqsak, doim "onamiz" qo'yniga intilamiz, ona-tabiat bizni davolaydi, go'zalligi bilan hayratlantiradi, ruhlantiradi. Lekin bir-ikki kundan so'ng yana hammasini unutamiz, tag'in tabiatga bir xizmatkordek qaraymiz. Nega shunday? Chunki biz uni tushunmaymiz, uni bilmaymiz. Shu sababli biror bir odamning yaxshi yoki yomonligiga asl sabablar nimaligini, uning mohiyatini bilmaganimiz, tushunmaganimiz uchun "falanchining tabiati o'zi shunaqa", yoki muayyan hayvon yoxud o'simlikning sir-sanoatidan bexabarligimiz tufayli uni "tabiatan o'zi shunday" deyish bilan muammoga nuqta qo'yamiz. Zero tabiat olamiy kubromi (katta olammi), olami sug'romi (kichik olammi), ya'ni odammi, u – sirli, uni lozim darajada tushunmaymiz va bilmaymiz. Har qancha ekologiyaga e'tibor qilmaylik, uni fan sifatida zo'r berib o'qitmaylik, baribir tabiatni tushunishimiz qiyin, zotan ekologiya tabiatni asrashni, qutqarishni, boyitishni targ'ib qiladi. Biroq ularning hammasiga faqat estetika yordamida, uning ekologiya bilan hamkorligida erishish mumkin. Chunki estetika insonga tabiatni sevishni, uning go'zalligiga beg'araz munosabatda bo'lishni o'rgatadi, ya'ni tabiatni faqat odamlar uchun yaratilgan deb emas, uni jamiyatdan tashqaridagi umumolamiy mustaqil qadriyat sifatida idrok etishni taqozo qiladi. Ha, tabiat go'zallik va ulug'vorlik manbai, lekin faqat inson uchungina shunday emas. Masalan, bulbul tunda, odamlar uxlaganda sayraydi, namozshomgul va ba'zi boshqa gullar faqat qorong'u tushayotgan paytdan boshlab ochiladi. Demak, hayvonlarni, o'tloqlarni, daraxtlarni, daryolarni, tog'larni faqat "biz uchun" deb emas, "biz uchun ham" deb tushunishimiz lozim.

Buyuk Kant tabiatni axloqiylik bilan bog'laydi: "Kimniki bevosita tabiat go'zalligi qiziqтира, bu uning fikrlash tarzida, yo'q deganda, axloqiylikka, ezgulikka qobiliyat mavjudligidan dalolat beradi", – deydi u.<sup>1</sup> Ammo Hegelning, tabiatda ideal

<sup>1</sup> Kant I. Sochineniya v 6 t. T. 5. M., Mysl, 1966. S.314.

yo'q, shu sababli u ikkinchi darajali go'zallik turi, degan fikri estetikada hukmronlik qilib keldi, ayniqsa, bu fikr tabiatni "bo'ysundirishni" targ'ib qilgan markschilikning tegirmoniga suv quydi. Natijada uzoq yillar mobaynida tabiat estetikasiga e'tibor qaratilmadi. Biz me'moriy obidalarni asrash, tiklash haqida qayg'urdik, ularni estetik qadriyatlar deb e'lon qildik, lekin landshaft estetikasini chetga chiqarib qo'ydik. Hozirgi kunda shu narsa aniq bo'ldiki, tabiatni eng ulug' va mangu estetik qadriyat deb bilmaslik borib turgan estetik savodsizlikdir. Aniqrog'i, bugun tabiatsiz estetikani tasavvur qilish mumkin emas.

San'atga aylangan estetik ob'ekt sifatida tabiat deyarli barcha san'at turlarida va janrlarida o'z aksini topadi. Boshqacharoq aytganda, tabiatni "o'rganish", "tushunish" barcha san'at turlariga xos. Masalan, badiiy adabiyotda hikoyadan – romangacha, she'rdan – dostongacha tabiat manzarasi tasvirlanmaydigan biror janrni topish mumkin emas. O'rik daraxtining to'rt fasldagi holati, ko'klamdagi gullagan, yozda barg yozib, meva qilgan, kuzdagi oltin rangiga kirgan, qishda yalang'och, shoxlari nayzaga o'xshagan ko'rinishlari badiiy adabiyotda ham, rassomlikda ham o'z ifodasini topgan. O'zbek xalq kuyi "Cho'li iroq"da fojeaviylikni, Betxovenning "Oydin sonati"sida inson qalbi evrilishlarining, xayolga cho'mgan quvonchning ifodasini ilg'aymiz. Me'morlikda yaproqlarning peshtoqlardagi xandasaviy jilvasi, haykaltaroshlikdagi go'zal kiyikning tasviri deysizmi, xullas, tabiat barcha san'at turlarida badiiy asarni go'zallashtirib, ulug'vorlashtirib turuvchi omil bo'lib xizmat qiladi.

2. Dizayn (inglizchada loyiha, chizma degani) XX asrning boshlarida "xunuk buyum yaxshi sotilmaydi" degan iqtisodiy talab asosida G'arbdagi sanoat ishlab chiqarishiga kirib keldi. Gap shundaki, inson bilan texnikaning eskicha shaklidagi o'zaro aloqasi endilikda yaxshi samara bermay qo'ygan edi. Unda inson texnologik rejimga moslashgan holda, tezlik, aniqlik, mustahkamlik kabi texnologik mezonlar asosida ishlaydigan ishchi sifatida baholanardi. Bu na faqat insonparvarlik, balki texnikaviy ravnaq nuqtai nazaridan ham nomaqbul edi. Shu bois texnikani insoniylashtirish zaruriyati tug'ildi. Endi ishchi yo xizmatchining shaxsiy qiziqishi, ijodiylik kasb etgani holda, faqat mehnat natijasi bilan cheklanmasdan, mehnat jarayoni va uning mazmuniga ko'chib o'tishi lozim bo'lib qoldi. Bu – mehnatning estetik tabiat kasb etishi va insoniylashuvi demakdir. Shunday qilib, texnikani va ishlab chiqarish muhitini insoniylashtirish mehnatni faqat zaruriyat deb emas, balki ehtiyoj darajasida tushunishga olib keladi; texnik insoniylashtirish muhitni insonga moslashtirishi barobarida, uni estetik tarzda tashkil etishni ham o'z ichiga oladi.

Dizaynning zaruriyatga aylanishi na faqat zamonaviy ilmiy-texnikaviy ravnaqqa, balki ommaviy ishlab chiqarish va ommaviy madaniyat darajasining yuksakligiga ham bog'liq. Bunday sharoitda xaridor o'zining erkin tanlov imkoniyati bilan ishlab chiqarish taklif qilgan mahsulotni rad etishi va o'z ehtiyojiga

javob beradigan tovarni yuqori baholashi mumkin. Ya'ni, xaridor o'z didiga mos narsani tanlaydi; xarid jarayoni "boriga baraka" tarzidagi tavakkalchilik holatiga emas, balki tovarga faol munosabat shakliga aylanadi. Ana shunday munosabatga loyiq bo'lishi uchun tovarning shakli muhim ahamiyatga molik. Tabiiyki, birinchi navbatda go'zal va ulug'vor ko'rinishga ega narsalargina jamiyatning e'tiborini qozonadi. Shunda tovarning umummezunga javob beradigan estetik qadriyat sifatida qabul qilinishi ro'y beradi va u ishlab chiqarishning xaridorga, xaridorning esa ishlab chiqarishga estetik ta'sirini ta'minlaydi.

Shuni unutmaslik lozimki, har qanday konstruksiyachi-injener dizayner bo'lolmaydi. Injener-konstruktor, deylik, mashinani loyihalashtirar ekan, dastlab uning motoridan tortib, kuzovigacha bo'lgan qismlari loyihasini chizadi va shundan keyingina ularni bir-biri bilan bog'lab yaxlit mashina shakliga keltiradi. Natijada har bir qism alohida "o'z hayotiga" ega bo'ladi. Ya'ni, mashina zamonaviylashtirilganida (modernizatsiya qilinganida) muayyan detallarni so'nggi loyiha asosida, alohida-alohida almashtirish jarayoni ro'y beradi. Dizaynchi-injener esa mashinani go'zallik va ulug'vorlik qonuniyatlariga asoslanib, birdaniga muayyan yaxlitlik tarzida tasavvur qiladi. Bu yaxlitlik konstruksiyaga bo'ysunsada, o'zini badiiy ijod sifatida namoyon etadi. Shunday qilib, konstruktor-injener mazmunni, dizaynchi-injener shaklni yaratadi, ya'ni birinchi mutaxassis – texnik, ikkinchisi – estetik. Ikkala faoliyatning uyg'unligi tufayli zamonaviy xaridor talabiga javob beradigan mashina vujudga keladi va unda, istaymizmi-istamaymizmi, estetik ko'rinish yaxlitlik sifatida ustuvorlikka, xaridorgirlik ahamiyatiga ega bo'ladi. Zotan, eslaylik, Shiller aytganidek, shakl insonga butunisicha, mazmun – uning muayyan qismigagina ta'sir ko'rsatadi. Xaridor esa, eng avvalo inson.

Biroq, bu – dizaynda hamma narsa shakl bilan bog'liq ekan, degani emas. Unda ham san'atdagidek shakl va mazmun uyg'unligi asosiy omil hisoblanadi. Bunday uyg'unlikka birdan erishish qiyin, u bir necha texnikaviy bosqichlarning hosilasi sifatida vujudga keladi. Masalan, "Zinger" rusumli tikuv stanogining XX asr davomida rivojlanib, dastlabki qo'pol ko'rinishidan "xohlasang ham, xohlamasang ham ishlaging keladigan" darajada go'zallashib, noziklashib, insonni o'zida ishlashga chaqirib turadigan mashinaga aylandi. Yoki o'zimizdagi "Daewoo" korporatsiyasi bilan hamkorlikda ishlab chiqarilayotgan "Matiz" avtomobiliga e'tibor qiling. U dizayn nuqtai nazaridan o'zidan avvalgi kichik mashinalardan, xususan, "Tiko"dan keskin farqlanadi. Uning yo'lda engil borishi kishida xuddi suzib ketayotgandek tassurot uyg'otadi, asosiy chiroqlari (faralari) ana shu taassurotingizga mos: ulkan baliqning ko'zlariga o'xshaydi, oldindagi pastki ikki chiroq esa sizga bodomqovoq – Sharq go'zallariga yarashib turadigan qiyiq ko'zlarni eslatadi. Bunda avtomobilning tashqi ko'rinishi bilan mohiyati nihoyatda

muvaffaqiyatli moslashtirilgan: “Matiz” – baliqdek silliq olg’a intiladigan, “epchil”, go’zal, Sharqda ishlangan, sharqona mashina.

Qisqasi, bugungi kunda biz dizayn tufayli atrofimizdagi texnikaviy lamni odamiylashtirib, o’zimizga, estetik didimizga moslashtirib borishga erishdik va erishmoqdamiz; hozir ruchkamizdan tortib, kompyuterimizgacha, mashinamizdan tortib, ko’ylagimizgacha – hammasi bizni har jihatdan qoniqtirishga qaratilgan.

**3. Mehnat** – insonning aqliy yoki jismoniy kuchi bilan amalga oshiriladigan maqsad faoliyati. U kundalik ma’naviy va moddiy jihatdan odamzot hayotini farovonlashtirish, ma’naviy hamda moddiy qadriyatlarni yaratish vositasi. Mehnatda inson ayni paytda ham aqliy ham jismoniy tomondan tarbiyalanib, ma’naviy yuksalib boradi. Biroq mehnat og’ir majburiyatga aylangan joyda uning bu xususiyatlari yo’qoladi. Shu sababli mehnat har jihatdan yuksak samara borishi uchun erkin bo’lishi, mehnat jarayoni ijodiy va qiziqarli kechishi lozim. Zotan o’ziga yoqqan, erkin mehnat turini bajarayotgan kishilarning “Bu ishni men o’ynab qilib qo’yaman” qabilidagi gaplari, erkin mehnatni o’yinga qiyoslashlari bejiz emas. O’yin – san’atning asosi ekanini nazarda tutsak, bu bilan o’z kasbini, ishini sevgan odamlar uni ijod darajasiga ko’tarishga harakat qiladi. Zotan sevmok – erkinlik, ijod esa erkinlik mevasi. Mehnat erkinligini, unga erkin munosabatni shakllantirish hamma zamonlarda ham muhim masala bo’lib kelgan. Og’ir mehnatni engillashtirish, erkinlashtirish maqsadida inson qadimdan uni badiiylashtirishga, estetiklashtirishga intilgan. Bunga halq og’zaki ijodidagi mehnat turlariga bag’ishlangan qo’shiqlar yaxshi misoldir. Ular mehnat jarayonining qiziqarli, “ichdan” bo’lmasa ham, unga “tashdan” go’zallik, musiqiylik, badiiylik ko’rishiga xizmat qilgan.

Hozirgi kunda san’atkor va olimning ijodiy mehnati faqat ichki, hissiyotlar bilan aloqador shaklda emas, balki tashqi – texnika nuqtai nazaridan ham estetiklashgan. Chunonchi, bugungi yozuchi o’z mehnat jarayonini kompyutersiz, diktofonsiz tasavvur qilolmaydi, rassomlar, qo’shiqchilar va boshqalar kompyutpr texnologiyasidan foydalanadilar, elektron cholg’u asboblari ham ma’lum ma’noda texnikaning estetiklashuvidan dalolat beradi. Bunday misollarni ko’plab keltirish mumkin, barcha hodisalarda dizayner tomonidan mukammallashtirilgan go’zallik ijodkorning ma’naviy-ruhiy ko’makchisiga aylanishini ko’rish mumkin.

Mehnat estetikasi texnika estetikasi kabi atrof-muhitni go’zallashtirish tizimi bilan bog’liq. Korxona hovlisidagi yashil olam, favvora, daraxtlar, haykallarning uyg’unligi ichkaridagi binolar peshtoqlari va devorlarida aks etgan ko’rgazmali amaliy san’at namunalari, binolar ichining yuksak did bilan bezatilishi – hammasi inson mehnatini go’zallashtirishga, mehnat jarayonining estetik zavq bilan amalga oshuvini ta’minlashga xizmat qiladi.

4. Turmush estetikasi deganda biz insonning voqelikka keng qamrovli estetik munosabatini tushunamiz. U hozirgi paytda o'z ichiga kiyinishidan tortib, xulqiy go'zallikkacha, oilaviy an'analardan tortib, oilaviy makongacha bo'lgan estetik "doirani" o'z ichiga oladi. Turmush estetikasida eng muhimi, odamlarning narsalar dunyosiga, go'zallik va ulug'vorlik orqali qarashlari estetik didga, ijtimoiy ideallarga o'ziga xos munosabatlari namoyon bo'ladi, pirovard natijada u turmush madaniyatining yuksalishiga xizmat qiladi.

Birinchi navbatda turmush estetikasi insonning xulqiy go'zallik qonun-qoidalariga rioya qilib yashashini taqozo etadi. Xulqiy go'zallik esa oilada jamoat joylarida o'zini tutishni, boshqalar bilan muloqotda, kasbiy munosabatlarda muomala odobi va etiket nuqtai nazaridan yondashuvni, o'zaro suhbatlarda ham so'z vositasida (verbal), ham noverbal jihatlarining go'zal bo'lishini ta'minlaydigan ma'naviy hodisadir. Uni estetika va axloqshunoslik kesishgan nuqta go'zallikning axloqiylikda, axloqiylikning go'zallikda namoyon bo'lish sharti, desak yanglishmaymiz.

Turmush estetikasida modaning alohida ahamiyatga ega. Ma'lumki, moda deganda tashqi madaniyat shakllarining vaqti-vaqti bilan qisman o'zgarish va takrorlanib turshini tushunamiz. Bunday takrorlanishlar va o'zgarishlar iqtisodiy, ma'naviy, axloqiy, estetik omillar kabi ijtimoiy asosga ega bo'ladi. Modani asosiy ko'pchilik e'tirof etadi, u o'zini faqat kiyinishda emas, ishlab chiqarishda ham, siyosatda ham, san'atda ham, fanda ham, hatto mafkurada ham namoyon qila oladi. U ijtimoiy-estetik mezon sifatida baholash xususiyatiga ega va shu bilan odamlarga nima kerakligini belgilab beradigan hukmron didga aylanadi. Moda bunda odamlarning yashash tarzidan (stilidan) kelib chiqib, doimiy ravishda o'zgarib boradigan hayot mazmuniga mos shaklni taklif etadi. Qisqasi, moda muayyan ma'noda jamiyat yashash tarzining o'ziga xos shakli, zamonaviy usuli sifatida estetik tahlili taqozo qiladi. Zotan u ommaviy estetik didning darajasi va o'ziga xosliklarini zamon ko'zgusida aks ettirish xususiyatiga ega. Shu jihatdan u, yuqorida aytib o'tganimizdek, o'zgaruvchanlik tabiatiga ega, urf bo'lgan narsalar, bir davr hatto bir yil mobaynida modadan chiqib ketishi mumkin. Masalan, o'tgan asrning elliginchi yillarida erkak va ayollar tagcharmiga maxsus g'arch qo'yilgan etiklar, tuflilar kiyishardi, yurganda «g'arch-g'urch» qilardi. Hozir esa iloji boricha tovush chiqarmaydigan, yumshoq poyafzal urf bo'lgan, ya'ni modada. Yoki oltmishinchi yillarda bir oz demokratik o'zgarishlar ro'y berishi tufayli qatag'on qilinganlar haqidagi asarlar, xususan, Habib Nu'monning "Yoshlikda bergan ko'ngil" qissasi urf bo'ldi, hozir esa Toxir Malikning "Shaytanat" romani modada. Bunday holatni "xit bo'lgan" qo'shiqlarga va ular ijrochilariga ham tadbiiq etsa bo'ladi.

Turmush estetikasi ayni paytda oilaviy muhitdagi nafosat muammolariga ham katta e'tibor qiladi. Oiladagi nafosat, odatda, maktabgacha ta'lim, maktab, o'rta

maxsus o'quv yurtlaridagi estetik tarbiya bilan uyg'un olib borilishi turmush madaniyatini yuksaltirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Bunda oilaviy an'analar, ota-onaning namunaviyligi va farzandlarga estetik sharoit yaratib berishi katta rol o'ynaydi. Ota yoki ona cholg'u asboblardan birini (dutormi, rubobmi, pianinomi) chalishni, professional darajada bo'lmasa-da, bilishi, kitob o'qishga ishtiyomandligi, vaqt topib farzandlarni qo'g'irchoq yoki yoshlar teatriga, tsirkka, sport o'yinlari tomoshalariga olib borishi bolalar estetik didning shakllanishiga, oila turmushining estetik tiklashiga imkon yaratadi, zero "qush inida ko'rganini qiladi" degan maqol bejiz mashhur bo'lib ketgan emas.

5. Sport estetikasi sport sohasidagi estetik qonuniyatlarni o'rganadi, sportning estetik mazmunini, uning jamiyat madaniyatidagi o'rnini, sport bilan san'atning o'zaro aloqadorligini tadqiq etadi, inson jismoniy kamolotining ma'naviy-estetik jihatlarini tahlildan o'tkazadi.

Sportga qadimgi yunonlar, bundan bir necha ming yillar avval ana shunday nuqtai nazardan yondashganlar. Lekin, afsuski, keyinchalik musobaqa omili go'zallikni chetga surib, uni g'oliblik va mag'lublik bilan baholanadigan ehtirosni o'yinga, qimorning o'ziga xos turiga aylantirib qo'ydi (qadimgi Rumodagi gladiatorlar bahsi, keyinchalik ot poygasiga pul tikishlar v.h.).

Sport estetikasidagi eng muhim muammo, bu uning san'at bilan o'xshashligida. Shundan kelib chiqib, zamonaviy sportni (juda bo'lmaganda, uning ba'zi turlarini) o'ziga xos san'at sifatida talqin qilish keng yoyilgan. Rene Mehyu, Morin Kovich, Benjamin Lou singari g'arb olimlari va ko'plab mashhur sportchilar sportni san'at sifatida qabul qilish mumkin degan fikrni o'rta tashlaydilar. Lekin haqiqatan ham sport san'atmi, ularni aynanlashtirish mumkinmi? Bu savolga to'g'ridan-to'g'ri javob berish qiyin. Shu bois sportning kelib chiqishi va mohiyatiga e'tibor qilib ko'raylik.

Ma'lumki, o'yinni Qadimgi yunon faylasuflari estetik tabiatga ega ekanini ta'kidlab, uni san'at bilan tenglashtirganlar, Shiller esa, ko'rib o'tganimizdek, badiiy faoliyatni o'yinning eng yuksak shakli deb hisoblaydi. Sport esa, eng avvalo o'yin. Undan inson ikki tomonlama estetik zavq oladi: o'yinchi-sportchi va tomoshabin-tarafkash sifatida. bunda tomoshabin san'atni idrok etayotgandek sportchi bilan uyg'unlashib, uning xatti-harakatlariga qo'shilib ketadi, ayni paytda o'zi sportchi emasligini, ya'ni estetik masofani his qilib turadi. Bu borada B.Lou o'zining "Sport go'zalligi" degan kitobida F.Kinonning quyidagi fikrlarini keltiradi: "Teatr, – deb yozadi F.Kinon, – tomoshabinga suyanib rivojlanadigan san'at turi... Sport musobaqalarida tomoshabinlar o'zlarini xuddi spektakl tomoshosidagidek tutadilar: ular yuksak mahorat egalariga qarsak chaladilar va yomon o'yin ko'rsatganga nisbatan salbiy munosabatlarini yashirmaydilar. Sportda ham, teatrdan ham biz

“o‘yin” haqida gapiramiz”<sup>1</sup>. Boshqa bir o‘rinda B.Lou H.Slyusherning “Sport va ekzistentsiya” kitobidagi quyidagi satrlarga e‘tiborni qaratadi: “Sport – toki haqiqiy sport ekan, u estetik fazilat va nafislikka erisha oladi. U sportchi uchun chuqur ma’noga boy holat... sport botiniy yaxlitlikni va yuksak darajadagi hissiy ko‘tarinkilikni talab qiladi, – deb yozadi H.Slyusher sportchi his etadigan estetik zavq haqida<sup>2</sup>.

Shular bir qatorda sport san‘at uchun material bo‘lib xizmat qiladi. bunga o‘zimiz guvohmiz: biz sport mavzuidagi rangtasvir, grafika, haykaltaroshlik namunalarini ko‘p ko‘rganmiz, hikoya va qissalarni o‘qiganmiz. Biroq, bularning hammasi sportni san‘at deb qabul qilishimiz uchun etarli asos bo‘lolmaydi. Buni sport estetikasi borasida jiddiy tadqiqotlar olib borgan, yuqorida nomi zikr etilgan B.Lou shunday ta’riflaydi: “Inson badanining – tabiiy shakldagi go‘zallik ekanini, sportchi qiyofasi ideal badan tuzilishini o‘zida mujassam etishini e’tirof qilar ekanmiz, sportdagi go‘zallikni san’atdan ko‘ra tabiatga taalluqli deyishimiz mumkin, zero sportdagi go‘zallik ko‘p hollarda tasodifiylik xususiyatiga ega”<sup>3</sup>.

### **Foydalaniladigan adabiyotlar ro‘yxati**

#### **Rahbariy adabiyotlar:**

1. Mirziyoev Sh.M. – Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston Davlatini birgalikda barpo etamiz.- T.,O‘zbekiston. 2016.
2. Mirziyoev Sh.M. – Qonun ustivorligi va inson manfaatlarini ta‘minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. – T., O‘zbekiston. 2017.
3. Mirziyoev Sh.M. – Tanqidiy taxlil, qat’iy tartib intizom va shaxsiy javobgarlik – xar bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. T., O‘zbekiston. 2017.
4. O‘zbekiston respublikasi Vazirlar Mahkamasining Qarori “Davlat boshqaruvi organlari va mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari xodimlarining odob-axloq namunaviy qoidalarini tasdiqlash to‘g‘risida” (O‘zbekiston respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2016 y., 9-son, 94-modda)lex.uz
5. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat – engilmas kuch. –T.: Ma’naviyat, 2008.

#### **Darsliklar va o‘quv qo‘llanmalar:**

1. Abdulla Sher. Axloqshunoslik. Darslik. –T.: O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2010.
2. Agzamova N. Etika. Uslubiy qo‘llanma. –T.: OOO “NORI”, 2013.

<sup>1</sup> Lou B. Krasota sporta. M., Raduga, 1984. S.92.

<sup>2</sup> O‘sha manba;B. 177.

<sup>3</sup> O‘sha manba;B. 23-24.

3. Jahon falsafasi tarixidan lavhalar. G' Q.Nazarov tahriri ostida. –T.: Sharq, 2004
4. Mamashokirov S., Usmanov E. Barqaror taraqqiyotning ekologik xavfsizlik masalalari. –T.: Fan, 2009.
5. Muhammadjonova L.A., Ortiqova D.O., Abidjanova F.A., Masharipova G.K. Professional etika va etiket. Darslik. - T.: "Adabiyot uchqunlari" 2018.
- 6.M. Kaxxarova, N Agzamova. Etika Uchebnoe posobie. Rizograf imeni Nizami. 2018 god.
- 7.L.Muhammadjonova, F.Abidjanova. Etiket. O'quv qo'llanma. T.: Universitet. O'zMU, 2018.
8. Nurmatova M., Muhammadjonova L., Ma'naviyatning axloqiy asoslari.– T.: Unversitet, O'zMU. 2013.
9. Nazarov Q. Aksiologiya – qadriyatlar falsafasi. –T.: O'FMJ, 2004.
10. Nurmatova M. Shaxs kamolotida axloqiy va estetik qadriyatlar uyg'unligi. – T.: Universitet, 2009.
11. E.Umarov., F.Zagritdinova. "Etika. Prikladnaya etika". -T.: Noshir, 2012.
12. Husanov B., Gulamov V. Muomala madaniyati. Darslik. –T.: Iqtisod-moliya, 2009.
13. Shermuxammedova N.A. XXI asr fanining dolzarb muammolari G'G' Falsafa va fan metodologiyasi. – T.: Universitet, 2005.

### **Qo'shimcha adabiyotlar:**

1. Arastu. Poetika. Axloqi Kabir. –T.: Yangi asr avlodi, 2004.
2. Aliqulov H. Falsafiy meros va ma'naviy-axloqiy fikr rivoji. –T.: Falsafa va huquq instituti, 2009.
3. Agzamxodjaeva S.S. Ijtimoiy ideal va O'zbekistonda ijtimoiy-ma'naviy taraqqiyot muammolari. Dissertatsiya. Fals. fan. dok. – T.: 2009.
4. Abdulla Avloniy Turkiy guliston yoxud axloq. – T.: O'qituvchi, 1992.
5. Abu Abdullox Muhammad ibn Ismoil al Buxoriy. Hadis. 2. tomlik –T.: O'zbekiston milliy entsiklopediyasi davlat ilmiy nashriyoti, 2008.
6. Jabborov I. O'zbeklar (ana'naviy xo'jaligi, turmush tarzi va etnomadaniyati). –T.: Sharq, 2008.
7. Zagritdinova F.B. Filosofsko-eticheskiy analiz problem sovremennoy biomeditsino' (na primere Respubliki Uzbekistan). Dissertatsiya. Dok. filos. nauk. – T.: 2006.
8. Qaxxarova Sh. Global ma'naviyat globallashuvning g'oyaviy asosi. –T.: Tafakkur, 2009.

9. Madaeva Sh. Milliy mentalitet va demokratik tafakkur. –T.: Falsafa va huquq, 2007.
10. Mahmudov T. Komillik asrorlari. Hayotiy hikmatlar. –T.: Adolat, 2006.
11. Ma’naviyat asosiy tushunchalar izohli lug’ati. –T.: G’.G’ulom nomidagi nashriyot – matbaa ijodiy uyi, 2009 yil.
12. Navro’zova T.N., Zoirov E.X., Yunusova T.S. Tasavvufda inson va uning kamoloti masalasi. – T.: Falsafa va huquq, 2006.
13. Muxammadjonova L.A. Ma’rifatparvar shoirlar – Dilshod Barno va Anbar Otinning axloqiy qarashlari. Dissertatsiya. Fals. fan.nom. – T.: 2005.
14. Nurmatova M.A. Shaxs ma’naviy kamolotida estetik va axloqiy va estetik qadriyatlar uyg’unligi. –T.: Universitet, 2009.
15. Ochilova B. Milliy-ma’naviy yuksalishda meros, qadriyatlar va vorisiylik. –T.: Istiqol, 2009.
16. Otamurodav S. Globallashuv va millat. –T.: Yangi asr avlodi, 2008.
17. Tillaeva G. Ma’naviyat va komil inson tarbiyasi. –T.: Falsafa va huquq, 2006.
18. Umarov B. Globallashuv ziddiyatlari. – T., Ma’naviyat, 2006.
19. Falsafa: qomusiy lug’at. G’ Q.Nazarov tahriri ostida. – T.: Sharq, 2004.
20. Xojiaxmedov A. Mahalla odobi. –T.: Sharq, 2001.
21. Xolmatova M. Oilaviy munosabatlar madaniyati va sog’lom avlod tarbiyasi. – T.: O’zbekiston, 2000.
22. Choriev A. Inson falsafasi. –T.: Chinor ENK nashriyoti, 2007.
23. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Hadis va hayot. Adab. – T.: Sharq 2008.
24. Quronov M. Milliy g’oya va o’zbek xarakteri. – T.: Ma’naviyat, 2005.
25. Yakubov Yu.M. Islom ta’limotida shaxs va jamiyat munosabatlari masalasi. Dissertatsiya. Fals. fan.nom. – T.: 2009.

## **AXLOQIY VA ESTETIK MADANIYAT**

### **REJA:**

1. Axloqiy madaniyat. Estetik madaniyat.
2. Moda – estetik fenomen sifatida.
3. Axloqiy tarbiya va uning vositalari.
4. Dizayn zamonaviy estetik tarbiya vositasi sifatida.
5. Estetik madaniyat: mazmuni va boshqa madaniyatlardan farqi.

Axloqiy va estetik madaniyat millat madaniyatining shakllanishi va rivojlanishida asosiy omil vazifasini o’taydi. Shu jihatdan ham axloqiy va estetik

madaniyatning nazariy asoslarining tadqiq etish, bir tomondan, millatni kasbiy odob, muomala madaniyati, amaliy amliy axloq ko'nikmalarini, ikkinchi jihatdan estetik munosabat, ijodiylik imkoniyatlari, san'at va nosan'at asarlarining estetik idrok etishning asosiy omillarini o'rganishi va amaliyotga tatbiq etishida katta ahamiyat kasb etadi. Mazkur mavzu kelajakda mutaxassislarining axloqiy va estetik qadriyatlarini qadrsizlanishini oldini olish yoki unga barham berish bilan bog'liq muammolarni hal qilish imkoniga ega bo'lishi bilan dolzarbdir.

Madaniyatning turlari ichida, xususan ma'naviy madaniyat doirasida axloqiy madaniyat o'zining nihoyatda keng qamrovliligi bilan ajralib turadi. Uning shaxs hayotida voqe bo'lishi xilma-xil omillar vositasida ro'y beradi. Chunonchi, hayotiy tajriba, tarbiya, axloqiy ta'lim, san'at ana shunday vositalardan hisoblanadi. Axloqiy madaniyat shaxsga o'zgalar bilan munosabatda a'anaviy axloqiy qonun-qoidalaridan ijobiy foydalanishni, ularga zamonaviylik nuqtai nazardan yondashishni, ezgulik bilan yovuzlikning farqiga borishni o'rgatadi va egallagan axloqiy bilimlarini samarali tatbiq etishga o'rgatadi. Qisqasi, u shaxsning jamiyat axloqiy tajribalarini egallash va ulardan o'z tajribalarida foydalanishi, o'z-o'zini muntazam takomillashtirib borishi singari jihatlarni qamrab oladi; shu bilan shaxs axloqiy taraqqiyotining belgisi hisoblanadi hamda davlat va jamiyatdagi axloqiy darajani yuksaltirishga xizmat qiladi.

Axloqiy madaniyat doimo zamonaviydir. Ya'ni, u muayyan zamon erishgan axloqiy yutuqlar yoxud darajaning shaxs axloqiy hayotidagi ko'rinishidir. To'g'ri, u, yuqorida aytganimizdek, ma'naviy axloqiy qadriyatlarni butunlay inkor etmaydi, lekin ularning zamonaviy shakllarda namoyon bo'lishini ta'minlaydi. Axloqiy madaniyat axloqiy tafakkur madaniyatining qator unsurlarini o'z ichiga oladi. Ana shunday eng muhim unsurlardan biri – muomala odobi, kasbiy odob va etiketdir.

Muomala odobi boshqa kishilar qadr-qimmatini, izzatini joyiga qo'yishni, an'anaviy axloqiy-me'yoriy talablarni bajarishni taqozo etadi. Shuning barobarida, u insondagi yaxshi jihatlarni namoyon etishi, ko'zga ko'rsatishi bilan ham ajralib turadi. Uning eng yorqin, eng sermazmun va eng ifodali namoyon bo'lishi so'z, nutq vositasida ro'y beradi. So'zlash va tinglay bilish, suhbatlashish madaniyati muomalaning muhim jihatlari tashkil etadi. Shu bois muomala odobi o'zini, eng avvalo, shirinsuxanlilik, kamsuqumlik, bosiqlik, xushfe'llilik singari axloqiy me'yorlarda namoyon qiladi.

Axloqiy madaniyat yaqqol ko'zga tashlanadigan munosabatlar ko'rinishidan biri, bu – etiket. U ko'proq insonning tashqi madaniyatini, o'zaro munosabatlardagi o'zini tutish qonun-qoidalarining bajarilishini boshqaradi. Agar muomala odobida inson o'z munosabatlariga ijodiy yondashsa, ya'ni bir holatda

bir necha xil muomala qilish imkoniga ega bo'lsa, etiket muayyan holat uchun faqat bir xil qoidalashtirib qo'yilgan xatti-harakatni taqozo etadi.

Etiketning qamrovi keng, u, ma'lum ma'noda, xalqaro miqyosda qabul qilingan muomala qonun-qoidalarini o'z ichiga oladi. Masalan, siyosiy arbob etiketi, mehmondorchilik etiketi va h.k. Etiketga rioya qilishning mumtoz namunasini biz tez-tez televizor ekrani orqali ko'rib turamiz. Etiketning bunday zamonaviy ko'rinishlari bilan birga, shunday milliy-an'anaviy shakllari ham borki, ularsiz millat madaniy hayotining tasavvur qilish qiyin.

Etiketning yana bir alohida jihati bor: unda odob bilan go'zallikning uyg'unligini ko'rishimiz mumkin, qat'iy odob qonun-qoidalarini chiroyli xatti-harakatlar vositasida amalga oshiriladi. Demak, etiket estetika bilan ham bog'liq, aniqrog'i, o'zni tutish estetikasi talablariga javob beradi.

Har bir jamiyatda muayyan guruhlar borki, egallagan kasblari ularni boshqa jamiyatdoshlariga nisbatan imtiyozli darajaga olib chiqadi. Ko'pchilik jamiyat a'zolarining hayot-mamotlari, sog'ligi, ma'naviy sog'lomligi, huquqiy himoyasi, ilmiy salohiyatining namoyon bo'lishi kabi omillar o'shanday imtiyozli kasb egalarining o'z kasbiy burch mas'uliyatini qay darajada his etishlariga, halollik va vijdon yuzasidan ish ko'rishlariga bog'liqligi hammaga ma'lum. Shuni aytish kerakki, barcha kasbiy odob qonun-qoidalarining ta'sir doirasi, miqyosi bir xil emas. Ba'zi bir kasbiy odobning buzilishi oddiy odobsizlik doirasidan chiqib, axloqsizlikka aylanib ketadi.

Estetik madaniyat deganda, ko'pchilik ilmiy adabiyotlarda, xususan, qomuslar va lug'atlarda jamiyat umumiy madaniyatining ixtisoslashgan qismi, jamiyatning san'atni va estetik munosabatlarni ta'minlash holati nazarda tutiladi. Bunga estetik qadriyatlar va ulardan foydalanish tizimlari, texnik vositalar, estetik faoliyat turlari va ular namoyon bo'ladigan ob'ektlar (san'at, xalq ijodi, muzey, teatr, ko'rgazma zallari, nashriyotlar v.b.) kiradi. Shuningdek, shaharsozlikdagi, atrof-muhitni go'zallashtirishdagi, dizayndagi v.b. moddiy tizimdagi qadriyatlar ham, «estetiklashgan» ijtimoiy-maishiy sohalar (turmush, sport, shaxs, bayramlar estetikasi) ham estetik madaniyatni tashkil etishda katta ahamiyatga ega.

Estetik madaniyatning tom ma'nodagi moyasi estetik idrok etish va estetik tarbiya muammolari hisoblanadi.

Estetik idrok etish faqat san'at bilan chegaralanmaydi, ya'ni u badiiy idrok etishga qaraganda, keng ko'lamli, badiiy idrok etishni ham o'z ichiga oladi. Chunki badiiy idrok asosan ijodkor shaxsining faqat hayotiy voqelikni badiiy anglashi bilan bog'liq, estetik idrok esa, badiiy asar yaratuvchisigina emas, balki unga ehtiyojmand shaxsga taalluqli idrok etish turidir. Shundan kelib chiqqan holda, bundan buyon estetik idrok etishni badiiy idrok etishga nisbatan tor deyish yoki har ikkisini aynanlashtirish, zamonaviy estetik madaniyat taraqqiyoti talablariga

javob bermaydi. Aksincha, endilikda estetik idrok etishning bir-biridan jiddiy farq qiladigan ikki turi borligini aytish va bu fikrni ilmiy-nazariy isbotlash vaqti keldi. Ularning biri – nosan’at ob’ektni, ikkinchisi – san’at ob’ektini estetik idrok etish

Nosan’at ob’ektni estetik idrok etish muammosi. Bilamizki, estetik idrok etish voqelikka estetik munosabatning bir ko’rinishi sifatida sub’ekt bilan ob’ektning o’zaro aloqasidan iborat. Bu aloqa nosan’at ob’ekt bilan bo’lgan munosabatda bevosita amalga oshadi, unda sub’ekt ob’ektni to’g’ridan-to’g’ri idrok etadi.

San’at asarini estetik idrok etish. Muayyan shakl va mazmunga, o’z “tili”ga ega bo’lgan, tugallangan, o’zini biror darajada namoyon etgan har qanday badiiy ijod mahsulini san’at asari deyish mumkin emas. Bunda nosan’at ob’ektlar haqida gap ketayotgani yo’q, balki «san’at namunasi» sifatida taqdim etiladigan, lekin aslida iste’dodsiz yaratilgan, kishiga estetik zavq bermaydigan umri qisqa badiiy asarlarni nazarda tutmoqdamiz. Haqiqiy san’at asari idrok etuvchini o’ziga ohanraboday tortadi, o’ylatadi, mushohadaga, muallif bilan hamkorlikka, uning ishini davom ettirishga chorlaydi. Shu sababli san’at asarini idrok etish, yuqorida aytganimizdek, inson estetik faoliyatining turlaridan biridir. U, nosan’at ob’ektni estetik idrok etishdan farqli o’laroq, ikkiyoqlama emas, uchyoyqlama munosabatni o’z ichiga oladi. Unda ikki sub’ekt va bir ob’ekt ishtirok etadi: ijodkor (sub’ekt), ijod mahsulini (ob’ekt), idrok etuvchi (sub’ekt). Ob’ekt – o’ziga xos ma’naviy-estetik-mafkuraviy maydon, ikkala sub’ekt ana shu maydonda uchrashadi. Ulardan birini – san’atkorni birlamchi ijodkor desak, ikkinchisini – idrok etuvchini ikkilamchi ijodkor deb aytish mumkin. Chunki ularning har ikkisi ham estetik faoliyat sohibi, estetik faoliyat esa, ijod demakdir.

Axloqiy tarbiyaning eng kuchli vositasi – san’at. Bu vosita aholining barcha tabaqasini, turli yoshdagi shaxslarni qamrab oladi. Ayniqsa, san’atning badiiy adabiyot turi keng qamrovli. Ertakdan tortib romangacha bo’lgan janrlarda chop etilgan asarlar shaxsning axloqiy shakllanishida ulkan xizmat ko’rsatadilar. Axloqiy tarbiyaning barcha zamonlar uchun dolzarb bo’lgan yo’li, bu – namunaviylik tamoyili. Oilada, avvalo, yuqorida aytilganidek, ota–ona bolaga axloqiy namuna bo’lishi kerak. Maktabda va oliy o’quv yurtida muallimlarning ta’lim berish usullaridan tortib, to «mayda–chuyda» xatti–harakatlarigacha o’z shogirdlari tomonidan shaxsiy namuna tarzida qabul qilinishini nazardan qochirmaslik lozim. Ustoz–shogirdlik munosabatlaridagi muomala odobi, halollik, rostgo’ylik yoshlar axloqiy tarbiyasi shakllanishini ta’minlovchi omillardandir.

Hozirgi paytda axloqiy tarbiyaning eng kuchli zamonaviy vositasi sifatida televideniye keltirish mumkin. U deyarli barcha san’at turlarida yaratilgan asarlarni ekranlashtirish va ekranda ko’rsatish imkoniga ega. Bundan tashqari, unda maxsus axloqiy tarbiyaga bag’ishlangan muntazam ko’rsatuvlar ham berib boriladi.

Axloqiy tarbiya aslida axloqiy madaniyatning o'zagini tashkil etadi, biz ko'rib o'tgan muomala odobi, etiket, kasbiy odob singari axloqiy xatti-harakatlar uchun asos vazifasini o'taydi.

“Estetik tarbiya” atamasini birinchi bo'lib Fridrix Shiller ilmiy muomalaga kiritgan. U «Inson estetik tarbiyasi xususida maktublar» asarida estetik tarbiyaning mohiyatini ochib beradi. Estetik tarbiya, Shiller nazdida insonni hissiy darajadan hissiy-aqliy darajaga olib chiqadigan, uni o'zi haqida fikrlashga, o'zining hayotdagi asl faoliyati nima bo'lishi kerakligini anglashga etaklaydigan yo'l. Insonning barcha yo'llari ana shu go'zallik yo'li orqali o'tgandagina u haqiqiy inson bo'la oladi. «Faqat go'zallikdangina biz bir paytning o'zida ham individ, ham odamzot sifatida zavq ola bilamiz, – deb yozadi Shiller. – Hissiyot bandasi bo'lgan insonni oqil insonga aylantirish faqat uni estetiklashtirish orqaligina ro'y berishi mumkin».

Bunday jarayonlarning hammasi ko'pdan-ko'p vositalar orqali amalga oshadi.

San'atning estetik tarbiyadagi miqyosli hamda muhim roli shundaki, u odamlarning his-tuyg'ulariga va bu hissiyotlari esa, aqliga ta'sir o'tkazadi, bunday ta'sir oqibatida idrok etuvchida ruhiy evrilishlar vujudga keladi. San'at asarini muntazam idrok etish oilayu ishxona muammolari, turmush chigalliklari, etishmovchiliklar v.b. ostida ko'milib yotgan qalbdagi toza tuyg'ularning ochilishiga olib keladi. Inson bu dunyoda mo'jiza borligiga ishonib yashay boshlaydi. Ya'ni, san'at ruhni yangilash qudratiga ega. Ayni paytda bu ruh nimanidir go'zal va ulug'vor bo'lgani uchun yoqlaydi, nimanidir xunuk va tubanligi uchun inkor etadi. Ana shu nuqtada san'atning insonni g'oyaviy jihatdan tarbiyalashi ro'y beradi: san'at o'zini estetik zavq bilan idrok etayotgan individdan g'oya va ideal xizmatiga bel bog'lagan shaxsni shakllantiradi.

Axloqiy madaniyat mohiyatiga ko'ra inson ongining jamiyat bilan aloqadorligi, jamiyat oldida burchli ekanligi, o'z xulq-atvorini jamiyat taraqqiyoti darajasiga bog'liqligini tushunishi, jamiyat tomonidan tan olingan axloqiy me'yor, ideal hamda talablarni bajarishda mas'uliyatni his etishi, ma'naviy-axloqiy bilimlarning e'tiqodga aylanishi va bu e'tiqodlarning tizimlilik, mustahkam ma'naviy-axloqiy his-tuyg'u va xislatlarni shakllantirish, o'quvchi-talabalar tomonidan ma'naviy-axloqiy xulq-atvor jamiyat a'zolariga bo'lgan hurmat-e'tiborni namoyon etuvchi mezonlardan ekanligining anglab etilishi, ma'naviy-axloqiy odatlarning shakllanishi va boshqalarda namoyon bo'ladi.

Axloq va axloqiylik muammolari insonning ijtimoiy munosabatlarida muhim o'rin tutgani bois, bu masala azaldan etuk faylasuflar, allomalarning diqqat-e'tiborida turgan. Chunonchi, o'z asarlarida inson axloq normalarini egallasagina ma'naviy kamolotga erishishi mumkinliini ta'kidlagan Abu Nasr Forobiy axloqiy

kamolot shartlari va asoslarining sharhiga alohida to'xtalib, axloqiy kamolotga erishish, avvalo, shaxs jamiyat a'zolari bilan faoliyatda mushtarak-mutanosib bo'lsa, uning ongida nafaqat shaxsiy, balki ijtimoiy manfaatlarga ham moyillik yuzaga kelishi orqali amalga oshirishini ko'p bor tilga oladi.

Buyuk alloma Abu Rayhon Beruniy axloqiylik insonning kishilarga, jamiyatga va o'z-o'ziga real, amaliy munosabati asosida shakllanishini ta'kidlaydi. Beruniy insonni oliy mavjudot sifatida tavsif etar ekan, Alloh unga inoyat etgan aql-zakovatga munosib bo'lmog'i kerakligini bayon etib, insondagi noxush axloqsizlik, badfe'llik, avvalo, uning o'zi uchun, qolaversa, jamiyat uchun katta musibat keltirishini uqtiradi.

Shu bois jamiyat taraqqiyoti uchun zarur hisoblangan axloqiy qadriyatlarning egallanishi, insonning amaliy faoliyatda ularga amal qilishi - axloqiy madaniyatning asosiy mohiyatini tashkil qiladi.

Axloqiy madaniyat, avvalo, ijtimoiy va iqtisodiy omillarga axloqiy tamoyillar a'mollar va qadriyatlar shakllanishi sharoitlariga bog'liq bo'ladi.

Axloqiy madaniyat olamni ma'naviy-amaliy anglashning zarur vositalaridan biri sifatida ma'lum qadriyatlarga yo'nalganlikni, faoliyat me'yorlari va sabablarini, insonlararo munosabatlarning o'ziga xos shakllarini qamrab olgan holda, ularni asoslab beradi. Axloqiy madaniyatning muhim omili bo'lgan axloqiy ong o'z navbatida u yoki bu holatda nafaqat qanday yo'l tutish kerakligini, balki vaziyat taqozo ettan vazifani qanday amalga oshirish zaruratini ham tushunishga imkon yaratadi. Axloqiy madaniyatga, avvalo, tarbiya va o'z-o'zini tarbiya qilish mahsuli sifatida qarash, shu bilan birga, unga erishgan shaxs turli ijtimoiy muhitlar stixiyasi va favqulodda sodir bo'lgan hodisalar zarbidan o'zini yo'qotib quymasligini ham ta'kidlash joiz.

Bu jarayon maktab, oila va boshqa tarbiya dargohlari kutganidan o'zgacha ham bo'lishi mumkin. Binobarin, shaxsning axloqiy madaniyatini qandaydir qotib qolgan omil ko'rinishi sifatida emas, balki muntazam yuksalib va boyib boruvchi, hatto axloqning zavol topishi yo'lga kirib qolishi ehtimoli bor bo'lgan jarayon sifatida ham tushunmoq lozim.

Axloqiy qadriyatlar iqtisodga, jamiyat ijtimoiy-siyosiy hayotiga va madaniyatning boshqa ko'rinishlariga nisbatan nisbiy mustaqillikka ega ekani tabiiy. Huquqiy me'yorlar, odat va an'analar, iqtisodiy va ijtimoiy-siyosiy muassasalar, san'at va shu kabilar zinhor axloqiy qadriyatlardan holi bo'lgan holatda amal qilmaydi, bu holat esa o'z navbatida shaxsning axloqiy madaniyati shakllanishiga sezilarli ta'sir etadi. Axloqiy qadriyatlar shakllanishida unga ijtimoiy me'yorlar ta'sir ko'rsatishini alohida ta'kidlash joiz. Jamiyatdagi umumiy tartiblar, ijtimoiy -me'yorlar tarzida, insonning ularga qay tariqa rioya qila borishi, ularni qay darajada o'zlashtirishi, ularning individual ongida qay tarzda aks etishi tufayli ichki

uyg'otuvchi omillarga aylana boradi. Fuqarolar axloqiy madaniyatining o'ziga xos tarzda shakllanishiga xalqlarning hayot tarzi, ular yashayotgan muhit, urf-odat va an'analar kuchli ta'sir etishini ham nazardan qochirmaslik lozim.

Tabiiy muhit, yashash tarzi, diniy e'tiqod va shu kabilar ta'sirida yuzaga kelgan axloqiy ongning o'ziga xosligi axloqiylikning etnik xususiyatini tashkil etadi. Ta'kidlash joizki, axloqiy madaniyatning shakllanishida milliy davlatchilik shakllanishi va rivojining ahamiyati kattadir. Zero, ayni davlat xalqlar hayotida talay mutaraqqiy axloqiy urf-odatlarni qonunlashtiradi va ngu asosda o'z taraqqiyoti uchun qonunlashtirilgan xulqiy asoslarni yaratadi. Bizning nazarimizda, hozirgi kunda axloqiy madaniyat inson hayotini boy botiniy mazmun bilan, yuksak ijtimoiy mantiq bilan to'ldiradi, unga to'laqonlilik bag'ish-laydi, jamiyatda uchrab turuvchi ijtimoiy taraqqiyotga to'siq bo'luvchi xuro-fot va illatlar, salbiy odatlardan holi bo'lishga, yangi hayot faoliyati shakllarini joriy qilishga imkon yaratadi.

Axloqiy madaniyat darajasini oshirish zaruriyati hozirgi sharoitda mustaqil O'zbekistonning mafkuraviy-iqtisodiy taraqqiyoti uchun ham muhim hisoblanadi. Shaxsning axloqiy madaniyati mohiyati uning individual ongini va amaliy axloqiy faoliyatini milliy va umuminsoniy tamoyillar darajasiga olib chiqilishi bilan alohida xususiyatga egadir. Ayni vaqtda shaxsning axloqiy madaniyati ko'p qirrali qadriyat bo'lib, uning asosiy xususiyatlari axloqiy bilimlar, his-tuyg'u, e'tiqod va amaliy ishlarda namoyon bo'ladi.

Axloqiy tarbiya insoniyat tarixi mobaynida ikki muhim masalaga javob izlaydi: bulardan biri - qanday yashamoq kerak, ikkinchisi - nima qilmog'-u, nima qilmaslik lozim. Ana shu savollarga javob izlash jarayoni axloqiy tarbiyaning amaliy ko'rinishidir.

Tarbiya ona qornidan boshlanadi degan gap bor. Uning asl ma'nosi, avvalo, ota-onaning o'zi axloqiy tarbiya ko'rgan bo'lishi kerak degani. Zero, qush inida ko'rganini qiladi: ota-ona oilada yuksak axloq namunasini ko'rsatishi lozim.

Shuni ham alohida ta'kidlash joizki, axloqiylik insonda faqat axloqiy tarbiya vositasidagina vujudga keladi, degan moddiyatchilik qarashlari ko'p yillar mobaynida hukmronlik qilib keldi. To'g'ri, axloqiy tarbiyaning ahamiyati nihoyatda katta. Lekin axloqiylik insonga uning insoniylik belgilaridan eng muhimi sifatida ato etilgan ilohiy ne'mat. Shu ma'naviy ne'mat -asosni axloqiy tarbiya yordamida takomillashtiramiz. Aks holda maymun va itlardan ham axloqiy mavjudot tarbiyalab etkazishimiz mumkin bo'lur edi.

Shunday qilib, axloqiy tarbiya inson farzandini takomilga, komillikka etkazish yo'llaridan biri. Uning vositalari ko'p. Ularning bir qismi an'anaviy tarbiya vositalari bo'lsa, yana bir qismi zamonaviy vositalar. Odatda, har ikki turdagi vositalardan foydalaniladi. Chunonchi, maktabgacha bo'lgan axloqiy tarbiyada ertak va rivoyatlar vositasidagi an'anaviy tarbiya bilan o'yinchoqlar va o'yinlar

vositasidagi zamonaviy tarbiya muvaffaqiyatli qo'llaniladi; bunda bola qizg'anchilik, g'irromlik qilmaslikka, halol bo'lishga o'yinlar yordamida da'vat etiladi. Bolalar axloqiy tarbiyasida televidenie, radio, qo'g'irchoq teatri, kino san'ati katta rol o'ynaydi.

Umuman, axloqiy tarbiyaning eng kuchli vositasi - san'at. Bu vosita aholining barcha tabaqasini, turli yoshdagi shaxslarni qamrab oladi. Ayniqsa, san'atning badiiy adabiyot turi keng qamrovli. Ertakdan tortib romangacha bo'lgan janrlarda chop etilgan asarlar shaxsning axloqiy shakllanishida ulkan xizmat ko'rsatadilar. Ular orqali kitobxon tarbiyalanuvchi sifatida ezgulik va yovuzlik nimaligini badiiy idrok etadi; ideal tanlashda ham ularning ahamiyati katta. Bundan tashqari, badiiy adabiyotning bevosita axloqiy tarbiyaga mo'ljallangan hikoyatlar, rivoyatlar va nasihatlar majmualari borki, biz ularni, avval aytganimizdek, pandnomalar deb ataymiz: «Kalila va Dimna», «Qobusnoma», «Guliston», «Zarbulmasal» singari bunday mumtoz asarlar an'anaviy axloqiy tarbiya vositasi sifatida necha asrlardan buyon qanchadan-qancha avlodlarga xizmat qilib keldi, bundan buyon ham shunday bo'lib qolajak.

Axloqiy tarbiyaning barcha zamonlar uchun dolzarb bo'lgan yo'li, bu - namunaviylik tamoyili. Oilada, avvalo, yuqorida aytilganidek, ota-ona bolaga axloqiy namuna bo'lishi kerak. Maktabda va oliy o'quv yurtida muallimlarning ta'lim berish usullaridan tortib, to «mayda-chuyda» xatti-harakatlarigacha o'z shogirdlari tomonidan shaxsiy namuna tarzida qabul qilinishini nazardan qochirmaslik lozim. Ustoz-shogirdlik munosabatlaridagi muomala odobi, halollik, rostgo'ylik yoshlar axloqiy tarbiyasi shakllanishini ta'minlovchi omillardandir.

Hozirgi paytda axloqiy tarbiyaning eng kuchli zamonaviy vositasi sifatida televidenieneni keltirish mumkin. U deyarli barcha san'at turlarida yaratilgan asarlarni ekranlashtirish va ekranda ko'rsatish imkoniga ega. Bundan tashqari, unda maxsus axloqiy tarbiyaga bag'ishlangan muntazam ko'rsatuvlar ham berib boriladi. O'zbek tilidagi «Otalar so'zi - aqlning ko'zi», «Rivoyat», «Oqshom ertaklari» singari ko'rsatuvlar bunga misol bo'la oladi. Shu bois televidenie hech qachon engiltaklikni targ'ib etuvchi qo'shiqlar, salkam pornografik reklamalar, inson qalbini qattiqlashtiradigan «o'ldir-o'ldir»lardan iborat videofilm-lar korxonasi bo'lib qolmasligi kerak.

Axloqiy tarbiyaning aqliy-ma'naviy va jismoniy tarbiya bilan qo'shib olib borilishi maqsadga muvofiq. O'shanda jamiyatimiz har jihatdan kamol topgan fuqarolik jamiyatiga aylanadi. Mamlakatimizda buning uchun barcha huquqiy-ijtimoiy shart-sharoitlar yaratilgan.

Axloqiy tarbiyaning vositalari ko'p. Axloqiy tarbiya ilmiylik, g'oyaviylik, to'g'rilik, maqsad va vositalarning mushtarakligi, voqelik bilan uzviy bog'lanish, ijodiy yodashuv printsiplariga amal qilgan xolda olib boriladi.

### *Axloqiy tarbiyaning vositalari*

Axloqiy tarbiyaning vositalari ko'p. Axloqiy tarbiya ilmiylik, g'oyaviylik, to'g'rilik, maqsad va vositalarning mushtarakligi, voqelik bilan uzviy bog'lanish, ijodiy yodashuv printsiplariga amal qilgan xolda olib boriladi.

Axloqiy tarbiyaning barcha zamonlar uchun dolzarb bo'lgan yo'li bu- ota-onaning bolaga axloqiy namuna bo'lishi. Chunki sog'lom barkamol inson har bir xalq, millat, davlat kelajagining nurli istiqbolidir. Ma'naviy boy, axloqan pok va jismonan sog'lom kishilarni tarbiyalab voyaga etkazish ilk bor oilada amalga oshiriladi. Insoniy fazilatlar – ezgulik, yaxshilik, fidoyilik, sadoqat, mardlik, insof, rahm – shafqat kabi xislatlar dastlab oilada shakllanadi. Oila yoshlarni axloqli, odobli, rostgo'y, xalol va samimiy bo'lib voyaga etishlari uchun zamin tayyorlaydi. Oila tarbiyasi bolaning kelajakda kim bo'lib etishishida muhim o'rin tutadi. Demak, bola oilada jamiyatning qiyofasini ko'radi, bo'lajak fuqaroning tabiati, dunyoqarashi va axloqiy qiyofasi oilada shakllanadi hamda shunga ko'ra kamol topib boradi. Axloqiy tarbiyaning mohiyati kishini hayotga tayyorlashdan iborat.

Axloqiy tarbiyaning vositalarining bir qismi an'anaviy tarbiya vositalari bo'lsa, yana bir qismi zamonaviy vositalar. Odatda har ikki turdagi vositalardan foydalaniladi. Chunonchi, maktabgacha bo'lgan axloqiy tarbiyada ertak va rivoyatlar vositasidagi an'anaviy tarbiya bilan o'yinchoqlar va o'yinlar vositasidagi zamonaviy tarbiya muvaffaqiyatli qo'llaniladi; bunda bolaning qizg'onchiqlik, g'irromlik qilmaslikka, halol bo'lishga o'yinlar yordamida da'vat etiladi. Bolalar axloqiy tarbiyasida televidenie, radio, kompyutor, internet, qo'g'irchoq teatri, kino san'ati katta rol o'ynaydi.

Axloqiy tarbiyaning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

1. jamiyatda insonlarini yuksak darajada axloqiy g'oyalarga sodiq bo'lish, milliy g'urur, sha'n va qadr – qimmatini saqlashni oliy axloqiy xislatlar deb tushunish ruhida tarbiyalash;
2. axloqan pok, rostgo'y, mas'uliyatli, mustaqil fikrlovchi insonlarni tarbiyalab etishtirish.
3. yuksak axloqiy madaniyat sohibi, insonparvar, xushmuomalaligi bilan faxrlanish mumkin bo'lgan yosh avlodni tarbiyalash.

*Axloq va san'at.* Axloq bilan san'atning o'zaro aloqalari haqida gap ketganda, avvalo, san'at mohiyatan shaxsning xis-tuyg'ulariga ta'sir ko'rsatishga qodir bo'lgan muhim jarayon ekanligini hisobga olish darkor. San'at insonning xissiyotlari va tuyg'ular olamiga kirib boradi. Shuning uchun bo'lsa kerak, san'at barcha davrlarda insonga hamroh bo'lib kelgan. San'at keng ma'noli tushunchadir. Zero, san'at inson mehnati, aql-idroki, shuuri bilan yaratilgan, vujudga kelgan, ijod qilingan narsalardir. San'at inson faoliyatining ijodkorlik turini anglatib, har bir

san'at asarida shaxsning o'ziga xos iste'dodi namoyon bo'ladi. Va nihoyat, san'at insonning mahorati bilan chambarchas bog'liqdir. San'at, keng ma'noda, badiiy qadriyatlar, ularni yaratish (badiiy ijod qilish) va iste'mol (badiiy idrok etish) jarayonlarini ham qamrab oladi. Nafosatshunos E.Umarovning ta'kidiga ko'ra, "San'at va axloq o'zaro munosabatlari estetikada o'zak masalalardan biri bo'lib, bu masalaga uch uslubda yondoshiladi. Birinchisi- «axloqiylik» uslubi deyiladi. Bu uslub Ovrupo nafosatshunosligidagi yunonlar, jumladan Aflotun, yangi davrda esa Russo va L.N.Tolstoy ijodida kengroq va chuqurroq ishlab chiqilgan. "Axloqiylik"ning mohiyati shundaki, uning targ'ibotchilari tarixan turli davrlarda yashaganiga qaramay, badiiy ijodni axloq-odobga bo'ysundirish, ezgulikni san'atning birdan-bir va eng oliy maqsadi sifatida targ'ib etishdir."<sup>1</sup>

San'at va axloqning bosh mavzui inson hisoblanadi. San'at insonning maqsad-manfaatlarini, fikr-mulohazalari, his-tuyg'ulari, ichki kechinmalari nuqtai nazaridan aks ettirsa, axloq inson ijtimoiy aloqalari va munosabatlarining mag'ziga singib ketadi. Hayotda axloq-odobga aloqador bo'lmagan biror voqea-hodisa sodir bo'lmaydi. Insonlarning o'zaro munosabatlari va muomalalari axloqning bevosita ob'ekti bo'lib xizmat qiladi.

Har bir haqiqiy san'at asarida asosiy ziddiyat sifatida ezgulik bilan yovuzlikning kurashi aks etadi, insonparvarlik, haqiqatgo'ylik, to'g'rilik, adolat, muhabbat, sadoqat singari fazilatlar tarannum etiladi, taqdir, o'lim va o'lmaslik, hayotning mazmuni, baxtga erishish singari muammolar o'rta tashlanadi. Axloqiy ideal muammosi esa har bir badiiy asarning shohtomiri hisoblanadi. Zero, Navoiydagi Farhod bilan Shirin, Qodiriyning Otabek bilan Kumushi, Shekspirning Romeo bilan Julettasi yuksak axloqiy ideallarni namoyon etishi bilan umumbashariy ahamiyatga ega.

*Inson go'zalligi.* Insondagi go'zallik aksariyat xollarda uning xulqi, odobi, axloqi va fazilatlarini bilan belgilab kelinadi. Avval ham bugun ham inson borliq – jamiyat – texnika o'rtasidagi munosabat masalasi ko'plab ilmiy sohalarning tadqiqot ob'ekti bo'lib kelmoqda. Nafosat falsafasi inson go'zalligining mohiyatiga doir muammolarni tadqiq etishni o'zining muhim vazifasi qilib belgilaydi.

Estetik tafakkur tarixida inson go'zalligi jism (tana) va ruhiyat masalalari bilan izohlangan. Bu boradagi fikr-mulohazalarning asosida insonning tashqi ko'rinishi hamda axloqiy fazilatlariga bo'lgan munosabat masalasi yotadi.

Bir so'z bilan aytganda, *go'zallik* – ma'naviy va moddiy xususiyatga ega bo'lgan, ijtimoiy hayotda favqulodda ahamiyat kasb etuvchi hamda narsa-hodisalarning uyg'unligi, hamohangligi, mutanosibligi, maqsadga muvofiqligiga asoslangan qadriyatdir.

<sup>1</sup> Umarov E. Estetika. T., O'zbekiston. 1995. 159-6.

Go'zallikka qarama-qarshi bo'lgan *xunuklikni* go'zallikning aksi deb yuritamiz. Biroq, bunday yondashuvda qisman noaniqlik bor. Chunki uyqash va bir-biriga yaqin, yoki bir-birining aksi bo'lgan tushunchalardagi unsurlar u yoki bu ko'rinishda har ikkala tushunchada ham ishtirok etishi mumkin.

Gohida shakl va mazmun go'zalligi bir-birini dialektik tarzda inkor etadi. Shunday bo'lsa-da, buning ijobiy tomonlari ham mavjud. Chunki, mazmun o'z vaqtida shaklning kamchiligini ko'rsatib, uning go'zallashuviga turtki berib turadi yoki aksincha: ko'rinishi chiroyli bo'lgan insonlarning hammasi ham ma'naviyati boy bo'lmaganidek, yuksak fazilat sohiblarining barchasi ham husn va chiroyda barkamol emaslar. Xunuklik bir paytning o'zida ham go'zallikning, ham nafosatdan lazzatlanishning ziddidir. Chunki, xunuklik lazzatlanish tuyg'usi mavjud bo'lgan jarayondan uzoqroq joyda vujudga keladi; u insonga hayrat baxsh etishdan, uning vujudini forig'lashdan mahrum.

#### *Estetik tarbiyaning asosiy vositalari*

Estetik tarbiyaning barcha vositalari shaxsning voqelikka estetik munosabatini ravnaq toptirishga xizmat qiladigan tarbiyaviy faoliyat bo'lib, u o'ziga xos ta'sirchanlik, tug'yoniqlik kuchiga ega. Busiz inson bilish ko'lamining vujudga kelishi mumkin emas. Shunga ko'ra, estetik tarbiyaning asosiy vositalari tarkibiga - san'at, informatsion texnologiyalar, tabiat, mehnat, sport kabi sohalarni kiritish mumkin.

*San'at - estetik tarbiyaning muhim vositasi.* Bugungi kunda jamiyatimizda inson faoliyatini boshqarib borishdan ko'ra, ushbu jarayonni insonning o'zi tashkil etishi kerakligi bot-bot uqtirilmoqda. Bu jarayonda san'at mohiyatan shaxsning xis-tuyg'ulariga ta'sir ko'rsatishga qodir bo'lgan muhim vosita sifatida insonni doimo o'ziga jalb etib kelgan. San'at insonning ehtiroslar va tuyg'ular olamiga singib borib ularni yig'latadi, kuldiradi, o'ylashga majbur qiladi. Shuning uchun bo'lsa kerak san'at barcha davrlarda insonga hamroh bo'lib kelgan.

San'at o'zining estetik bisotini to'laligicha namoyon qilishi uchun ham tarbiya jarayoni bilan chambarchas bog'lanadi. Chunonchi, inson tafakkurini go'zallashtirish estetikaning tadqiqot obekti hisoblansa, estetik tarbiyaning predmeti esa ma'naviy dunyoni inson tomonidan estetik anglash bilan belgilanadi.

Ma'lumki, fuqarolarda yuksak did va idealni shakllantirish estetik tarbiyaning asosiy vazifalaridan hisoblanadi. Bu vazifaning zalvorli yukini avval ham, hozir ham va bundan keyin ham chinakam san'at, adabiyot va ma'rifat ko'tarishiga shubha yo'q.

Demak, ko'rinib turibdiki, san'at voqelikka estetik munosabatning kengqamrovli sohasi bo'lib, u insonni nafosatli hamda badiiy didini shakllantirishda muhim vosita vazifasini bajaradi. San'atning tarbiyaviy-g'oyaviy funktsiyasi hayot

haqiqatlarini qaytadan tiklash orqali namoyon bo'ladi. Estetik haqiqatning o'zi esa hayotni badiiy ijod qonunlari bilan aks ettirishi natijasida vujudga keladi.

Qanday qilib moda san'at olamidan tashqarida va estetik nuqtai nazaridan o'zini namoyon qildi. Moda tashqi ko'rinishga e'tibor qaratadi, ularning asosi timsolidir. Uning uchun ruhning tana bilan bog'liqligini unutib qo'yishdan yomonroq narsa bo'lishi mumkin.

Moda zamonaviy san'atdir, chunki uning tashqi o'zgarishlari, boshqa zamonaviy san'atdagi kabi, masofadagi jarayon g'oyasini aks ettiradi. Moda o'zining tarixiga ega bo'lgan va nafaqat mavjud madaniy xodisalarni aks ettiradigan o'zining rasmiy muxitida o'ziga xos ketma-ketligini yaratadi. Zamonaviy madaniyatning yo'nalishi shuni talab qiladiki, moda o'z-o'zidan doimiy tasodifiy idealni saqlab qolish uchun doimiy ravishda o'zgaruvchan tasvirlarni taklif qiladi.

**Estetik madaniyat** – estetik qadriyatlar, ularni yaratish va iste'mol qilish usullarining majmui. Estetik madaniyat tabiatni estetik o'zlashtirish jarayonlari natijalarini, mehnat faoliyatida, turmushda, ijtimoiy munosabatlardagi estetik holatlarni; san'atning ijtimoiy borlig'ini; jamiyat a'zolarining estetik qarashlari, didlari va manfaatlari ko'lamini; estetik tarbiya nazariyasi va amaliyotini; kishilar ijtimoiy estetik faoliyalari namoyon bo'lishining rang-barang shakllarini ifoda etadi.

«Estetik madaniyat - bu inson ehtiyojlarining murakkab tizimi bo'lib, unda odamzod hissiyotlari, malakalari, ko'nikmalari, bilimlari, me'yorlari, maslaklari bir-biri bilan chambarchas bog'lanib ketganligi»<sup>1</sup>dir. Mazkur ta'rifda estetik madaniyat ko'proq insonning ehtiyojlariga bog'liq hodisa ekanligiga urg'u berilgan bo'lib, u ijtimoiy taraqqiyot jarayonida yangilanib, iste'mol qilib borilishi nazarda tutiladi.

Yana bir ta'rifda, «estetik madaniyat insonning ma'naviy-hissiy faoliyati bilan bog'langan munosabatlar va qadriyatlar tizimini ifodalaydi»<sup>2</sup>, deyiladi. Bunda estetik madaniyat insonning ma'naviyati va falsafiy tafakkurining qadriyatlar tizimida shakllanishi asos qilib olinadi.

Bundan tashqari, shaxs estetik madaniyatiga nisbatan «Estetik madaniyat qadriyatlarini o'zlashtirish, shaxsiy va ijtimoiy tajribaning o'zaro aloqadorligi negizida amalga oshadi, unda shaxsning estetik dunyoqarashi, qadriyatlarga tanlab munosabatda bo'lish malakalari, go'zallik va mukammallik to'g'risidagi tasavvurlari, voqelik, san'at qadriyatlarini idrok etish shakllari, estetika, san'atshunoslik to'g'risidagi bilimlari muhim omil hisoblanadi. Shaxsning estetik madaniyati, shunday qilib, estetik qadriyatlarni yaratish, o'zlashtirish va iste'mol qilish usullaridan tashkil topadi»<sup>3</sup>, degan ta'riflarda shaxs estetik madaniyatiga

<sup>1</sup> Umarov E., Karimov R., Mirsaidova M., Oyxo'jayeva G. Estetika asoslari. –Tochkent: Cho'lpon, 2006 -B. 143.

<sup>2</sup> Gulmetov E., Qobiljonova T., Ernazarov Sh., Mavrulov A. Madaniyatshunoslik. –T.: Fan, 2000, -38 b.

<sup>3</sup> Madaniyatshunoslik asoslari. –T: Fan, 2006. – B. 84

maqsadli yondoshish va kelajakka estetik mohiyatni qarama-qarshiliklar va murakkab jarayonlar negizida to'g'ri yo'naltirish<sup>1</sup> sifatida munosabat bildiriladi.

Estetik madaniyatga berilgan yuqoridagi ta'riflarda bu muammoning ayrim tomonlari, qirralari olinadi, ammo uning tub mohiyati ochilmay qoladi. Mazkur ta'riflar asosida estetik madaniyat tushunchasiga quyidagicha ta'rif berish mumkin. Ya'ni estetik madaniyat bu – muayyan ijtimoiy-tarixiy taraqqiyot jarayonida kishilarning voqelikdagi narsa va hodisalarga nisbatan hissiy-emotsional va zavqiy munosabatda bo'lib, ularni ma'naviy-estetik qadriyat sifatida baholashining ifodasidir. Shuningdek, estetik madaniyat, inson va jamiyat moddiy-ma'naviy darajasi, ijtimoiy-siyosiy omillar, shaxsiy, milliy va umuminsoniy qadriyatlarni o'z ichiga oluvchi ijtimoiy-tarixiy hodisadir.

Mazkur ta'riflar estetik madaniyat tushunchasining keng qamrovli ekanligi, voqelikning inson faoliyati bilan chambarchas bog'liqligi, har bir zavqiy munosabat estetik dunyoqarashning negizida rivojlanib borishni o'z ichiga oladi. Bir so'z bilan aytganda, estetik madaniyat – bu inson jismoniy va ma'naviy kamolotining voqelikka nisbatan zavqiy munosabatining ifodasidir.

Estetik madaniyatning metodologik asoslari shaxsning estetik ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda, insonda zavqiy munosabatlarni shakllantiruvchi his-tuyg'u, malaka, ko'nikma, me'yor va mezonlar bilan uzviy aloqador bo'ladi. Bu esa, o'z navbatida, shaxsning voqelikni idrok etishi bilvosita estetik hissiyotlarda namoyon bo'lib borishini ko'rsatadi.

Jamiyatning rivojlanib borishi davomida estetik madaniyat faqatgina voqelikni estetik idrok etib qolmasdan, balki shaxsning estetik ongida vujudga keladigan go'zallik dunyosining qiyofasi, badiiy-estetik didlari, asrlar davomida shakllanib va sayqallanib keladigan umuminsoniy qadriyatlari, axloqiy va estetik ideallari ham boyib borishini ifodalaydi. Shuningdek, estetik madaniyat jamiyat rivojida xilma-xil vazifalarni bajarib keladi. U tadrijiy rivojlanish jarayonida shaxsning tabiatga bo'lgan munosabati va uni o'zlashtirishga intilishini, mehnat faoliyatining o'zgarib borishini, maishiy xizmat sohasini, ijtimoiy hayotning zavqli manzaralarini, insonlarning borliqqa zavqiy yondoshuvini, jamiyat talab va ehtiyojlari asosida vujudga keladigan badiiy-estetik omillarning qondirilishini ta'minlaydi.

## **Foydalaniladigan adabiyotlar ro'yxati**

### **Rahbariy adabiyotlar:**

1. Mirziyoev Sh.M. – Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston Davlatini birgalikda barpo etamiz.- T.,O'zbekiston. 2016.

---

<sup>1</sup> Piradov A.V. Esteticheskaya kultura lichnosti. –Leningrad: Znaniye, 1978. – 6 s.

2. Mirziyoev Sh.M. – Qonun ustivorligi va inson manfaatlarini ta'minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. – T., O'zbekiston. 2017.
3. Mirziyoev Sh.M. – Tanqidiy taxlil, qat'iy tartib intizom va shaxsiy javobgarlik – xar bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. T., O'zbekiston. 2017.
4. O'zbekiston respublikasi Vazirlar Mahkamasining Qarori “Davlat boshqaruvi organlari va mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari xodimlarining odob-axloq namunaviy qoidalarini tasdiqlash to'g'risida” (O'zbekiston respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2016 y., 9-son, 94-modda)lex.uz
5. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – engilmas kuch. –T.: Ma'naviyat, 2008.

### **Darsliklar va o'quv qo'llanmalar:**

1. Abdulla Sher. Axloqshunoslik. Darslik. –T.: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2010.
2. Agzamova N. Etika. Uslubiy qo'llanma. –T.: OOO “NORI”, 2013.
3. Jahon falsafasi tarixidan lavhalar. G' Q.Nazarov tahriri ostida. –T.: Sharq, 2004
4. Mamashokirov S., Usmanov E. Barqaror taraqqiyotning ekologik xavfsizlik masalalalari. –T.: Fan, 2009.
5. Muhammadjonova L.A., Ortiqova D.O., Abidjanova F.A., Masharipova G.K. Professional etika va etiket. Darslik. - T.: "Adabiyot uchqunlari" 2018.
- 6.M. Kaxxarova, N Agzamova. Etika Uchebnoe posobie. Rizograf imeni Nizami. 2018 god.
- 7.L.Muhammadjonova, F.Abidjanova. Etiket. O'quv qo'llanma. T.: Universitet. O'zMU, 2018.
8. Nurmatova M., Muhammadjonova L., Ma'naviyatning axloqiy asoslari.– T.: Unversitet, O'zMU. 2013.
9. Nazarov Q. Aksiologiya – qadriyatlar falsafasi. –T.: O'FMJ, 2004.
10. Nurmatova M. Shaxs kamolotida axloqiy va estetik qadriyatlar uyg'unligi. – T.: Universitet, 2009.
11. E.Umarov., F.Zagritdinova. “Etika. Prikladnaya etika”. -T.: Noshir, 2012.
12. Husanov B., Gulamov V. Muomala madaniyati. Darslik. –T.: Iqtisod-moliya, 2009.
13. Shermuxammedova N.A. XXI asr fanining dolzarb muammolari G'G' Falsafa va fan metodologiyasi. – T.: Universitet, 2005.

### **Qo'shimcha adabiyotlar:**

1. Arastu. Poetika. Axloqi Kabir. –T.: Yangi asr avlodi, 2004.
2. Aliqulov H. Falsafiy meros va ma'naviy-axloqiy fikr rivoji. –T.: Falsafa va huquq instituti, 2009.
3. Agzamxodjaeva S.S. Ijtimoiy ideal va O'zbekistonda ijtimoiy-ma'naviy taraqqiyot muammolari. Dissertatsiya. Fals. fan. dok. – T.: 2009.
4. Abdulla Avloniy Turkiy guliston yoxud axloq. – T.: O'qituvchi, 1992.
5. Abu Abdullox Muhammad ibn Ismoil al Buxoriy. Hadis. 2. tomlik –T.: O'zbekiston milliy entsiklopediyasi davlat ilmiy nashriyoti, 2008.
6. Jabborov I. O'zbeklar (ana'naviy xo'jaligi, turmush tarzi va etnomadaniyati). –T.: Sharq, 2008.
7. Zagritdinova F.B. Filosofsko-eticheskiy analiz problem sovremennoy biomeditsino' (na primere Respubliki Uzbekistan). Dissertatsiya. Dok. filos. nauk. – T.: 2006.
8. Qaxxarova Sh. Global ma'naviyat globallashuvning g'oyaviy asosi. –T.: Tafakkur, 2009.
9. Madaeva Sh. Milliy mentalitet va demokratik tafakkur. –T.: Falsafa va huquq, 2007.
10. Mahmudov T. Komillik asrorlari. Hayotiy hikmatlar. –T.: Adolat, 2006.
11. Ma'naviyat asosiy tushunchalar izohli lug'ati. –T.: G'.G'ulom nomidagi nashriyot – matbaa ijodiy uyi, 2009 yil.
12. Navro'zova T.N., Zoirov E.X., Yunusova T.S. Tasavvufda inson va uning kamoloti masalasi. – T.: Falsafa va huquq, 2006.
13. Muxammadjonova L.A. Ma'rifatparvar shoirlar – Dilshod Barno va Anbar Otinning axloqiy qarashlari. Dissertatsiya. Fals. fan.nom. – T.: 2005.
14. Nurmatova M.A. Shaxs ma'naviy kamolotida estetik va axloqiy va estetik qadriyatlar uyg'unligi. –T.: Universitet, 2009.
15. Ochilova B. Milliy-ma'naviy yuksalishda meros, qadriyatlar va vorisiylik. –T.: Istiqlol, 2009.
16. Otamurodav S. Globallashuv va millat. –T.: Yangi asr avlodi, 2008.
17. Tillaeva G. Ma'naviyat va komil inson tarbiyasi. –T.: Falsafa va huquq, 2006.
18. Umarov B. Globallashuv ziddiyatlari. – T., Ma'naviyat, 2006.
19. Falsafa: qomusiy lug'at. G' Q.Nazarov tahriri ostida. – T.: Sharq, 2004.
20. Xojiaxmedov A. Mahalla odobi. –T.: Sharq, 2001.
21. Xolmatova M. Oilaviy munosabatlar madaniyati va sog'lom avlod tarbiyasi. – T.: O'zbekiston, 2000.
22. Choriev A. Inson falsafasi. –T.: Chinor ENK nashriyoti, 2007.

23. Shayx Muhammad Sodik Muhammad Yusuf. Hadis va hayot. Adab. – T.: Sharq 2008.
24. Quronov M. Milliy g'oya va o'zbek xarakteri. – T.: Ma'naviyat, 2005.
25. Yakubov Yu.M. Islom ta'limotida shaxs va jamiyat munosabatlari masalasi. Dissertatsiya. Fals. fan.nom. – T.: 2009.

## **JAMOA BILAN MULOQOT MADANIYATI**

### **REJA:**

1. Chiroyli muomala va nutq – muloqot jarayonidagi muhim vosita sifatida ta'riflab bering.
2. Muloqot jarayonida yuzaga keladigan ziddiyatlar: raqobatchilik; hamkorlik; murosa (kompromiss); moslashish; chekinish xaqida nimalarni bilasiz?
3. Muloqot madaniyatining asosiy omillari: so'zlashish va suhbatlashish madaniyati; ko'rishish va salomlashish madaniyati; tanishish va tanishtirish madaniyati xaqida nimalarni bilasiz?
4. Muzokara olib borishda muomala madaniyatining o'rni xaqidagi fikringiz?

Axloqiy madaniyatning eng muhim unsurlaridan biri-muomala odobidir Donishmandlarning *“Yuziga boqma, so'ziga boq”* – degan hikmatlari ayni haqiqatdir. Til – inson tafakkuri maxsuli U inson madaniyati fikriy go'zalligini yaxshi, ibratli, xavas qilsa arziydigan fazilatlarini yuzaga chiqaruvchi vositadir. Muomala esa insonlarni bir – biriga bog'lovchi, yaqinlashtiruvchi, katta – kichik xayrli ishlarga undovchi fazilatdir. Insonning go'zal xayot kechirishida, jamiyat orasida o'z o'rnini topa olishida, boshqalarning hurmat extiromiga erishishda muomalaning o'rni kattadir. Insonning shirinso'zligi kishining tarbiyalanganligidan guvohlik bersa, so'zga boyligi, chechanligi, ma'nodorligi uning o'qimishli, bilimdonligini ko'rsatadi. Go'zal muomala inson dilini qanchalik xushnud etsa, aksincha achchiq so'z, qo'pol muomala inson qalbini larzaga soladi.

Muomala qilishni bilish – avvalambor suhbatni olib bora olish qobiliyatidir. Bu erda ham umumqabul qilingan qoidalar mavjud. Suhbatdoshingizni gapini bo'lmasdan uni eshitishni o'rganing. Zero suhbatdoshingizni hamdardlik, layoqatlilik, yaxshi niyatlilikingizni ko'rsatib, diqqat va sabr-toqat bilan eshita olishning o'zi - bu iste'dod. Lekin bu iste'dod tug'ma emas – har bir inson uni o'zida hamda farzandlarida mujassam etib, tarbiya toptirishi mumkin. Suhbatdoshingizni tinglayotib iloji boricha uning ko'ziga qarashga harakat qiling. Suhbatdoshingizning gaplariga tasdiq sifatida yo boshingizni silkitib yohud so'zlar bilan suhbatga bo'lgan jonli qiziqishni ko'rsatishga harakat qiling. Hech qachon suhbatdoshingizni gapini bo'lib, u bilan bahslashishga va raddiya bildirishga intilmang. Agar suhbatdoshingiz sizni unga bo'lgan e'tiboringizni suiste'mol qila boshlasa, chiroyli qilib uzr so'rgan

holda vaqtingiz ozligini, bandligingizni aytib suhbatni boshqa kunga ko'chirishni so'rang. Faqatgina o'zini dardini gapirish uchungina suhbatlashadigan odamdan yomon suhbatdosh chiqadi. Zero, oxir oqibat u tinglovchilarsiz qolishi mumkin.

Shirin muomalada bo'lish ham katta san'at. Shirin so'z bilan kishining ishonchi va qalbini egallash mumkin. So'z, yuz va ko'z, tilning ko'rki hisoblanadi. Muomala madaniyatida so'z aqldan kuch, tildan ixtiyor oladi. Til shunday kuchga egaki, suyaksiz bo'lsa ham suyakni tebratadi.

Muomala odobi boshqa kishilar qadr-qimmatini, izzatini joyiga qo'yishni, an'anaviy axloqiy me'yoriy talablarini bajarishni taqazo etadi. Shuning barobarida, u insondagi yaxshi jihatlarni namoyon etishi, ko'zga ko'rsatishi bilan ham ajralib turadi. Uning eng yorqin, eng sermazmun va eng ifodali namoyon bo'lishi so'z, nutq vositasida ro'y beradi. So'zlash va tinglay bilish, suhbatlashish madaniyati muomalaning muhim jihatlari tashkil etadi. Shu bois muomala odobi o'zini, eng avvalo, shirinsuhanlik, kamsuqumlik, bosiqlik, hushfe'llilik singari axloqiy me'yorlarda namoyon qiladi. Muomala odobining yana biri bu – *insoniy nigoh*. Ma'lumki, odamning nigohida, yuz ifodasida, qo'l harakatlarida uning qay sabablardandir tilga chiqmagan, so'zga aylanmagan hissiyoti, talablari o'z aksini topadi. Chunonchi, suhbatdoshining gapini oxirigacha eshitmay, qo'l siltab ketishi yoki fikri bo'lib, qo'pol muomalada bo'lishlari madaniyatsizlikni anglatadi. Suhbatdoshingizni fikrini noto'g'ri deb bilgan taqdiringizda ham tarbiyali va kamtar inson sifatida munosabatda bo'lib, *“Menimcha adashdingiz?” “Uzr, men boshqa fikrdaman”, “Kechirasiz, men sizning fikringizga qo'shilmayman”* degan iboralar bilan murojaat qiladi. Hech qachon *“umuman noto'g'ri”, “bu to'g'rida hech narsani tushunmaysiz”, “bu narsani yosh bola ham biladi”* degan iboralarni ishlatish mumkin emas.

Gapirayotgan insonni fikrini bo'lib, *“Bo'lishi mumkin emas”, “O'zingiz ishonasizmi?”* tarzidagi iboralar bilan chalg'itish ham odobsizlik sanaladi.

Xushmuomalalik va odoblilik mug'ombirlikdan va qalbaki tortinchoqlikdan kelib chiqmasligi, samimiy, tabiiy va beg'araz, har qanday mug'ombirlik va yolg'ondakam tortinchoqlikdan xoli bo'lishi kerak.

Hamma davrlarda suhbat, muloqot insoniyatning muomalasining asosini tashkil qilgan. Suhbat – bu insonlar o'rtasidagi fikrlar almanishuvi bo'lib, u aqllilik va chiroyli so'zlashning belgisi bo'lib hisoblanmaydi. Ba'zi insonlar qanday qilib gap boshlashni bilishmaydi, gapirganda o'zlarini yo'qotib qo'yadilar. Juda ko'p keraksiz so'zlarni, ishlatadilar. Bugungi kunda ba'zi yoshlarimiz nutqidan mamnun emasmiz. Chunki ularning nutqi umuman yo'q hisob, gaplari faqat jargon va vulgar so'zlardan iborat. Agar suhbatdoshingizning nutqi jargon so'zlar bilan to'lib, toshgan bo'lsa, o'zi qiynalib poyma – poy gapirsa, talaffuzi yaxshi bo'lmasa, ohangi qo'loqqa yoqmasa, eng mazmundor suhbat ham o'z qimmatini yo'qotadi. Hamma

vaqt aniq – ravshan, hovliqmasdan, muloyimlik va mayin ovoz bilan gapirishga harakat qilish kerak. Hovliqib aytilgan soʻzni tushunish qiyin boʻladi, juda choʻzib, sekin gapirish esa kishining sabr – kosasini toʻlib toshiradi. Talaffuz etilgan har bir soʻz, boʻgʻin va ohang aniq va ravshan jaranglashi lozim. Juda nozlanib gapirish ham xunuk odat.

Yoqimli ohang – bunda biz ayollarni nazarda tutaymiz odatda nafis ohangdir, baland ham, past ham, tez ham sekin ham emas. Agar sizning ovozingiz boshqalarga yoqmasa, hayotingizdagi tutgan oʻrningizga ohangni mos kelmaganidan boʻlishi mumkin. Ehtimol, siz gaplashayotganda charchasiz. Boshqa nutqdagi qusurlar ham toʻgʻirlansa boʻladi. Ammo chiroyli nutq uchun faqat ohangning nafisligi etmaydi. Dunyoqarashning boyligi nutqni yanada goʻzallashtiradi. Zero, quruq soʻzlardan iborat chiroyli nutq odamlarda sizga nisbatan boʻlgan kinoyani uygʻotadi. Chiroyli nutq egasi oʻz nutqi bilan bir–ikki martagina odamlarni oʻziga jalb qilishi mumkin. Lekin mazmunsiz chiroyli soʻzlar odamlarni meʼdasiga tegadi. Zero hozirgi paytda Siz nutq bilan yuzlanayotgan odamlar avvalida sizga koʻproq ijobiy emas, tanqidiy nuqtai nazardan yondashadilar. Ish, martaba, kechinmalar va kayfiyatning yomonligi ham, betoblik ham, atrofdagilar bilan qoʻpol muomalada boʻlish huquqini bermaydi. Hatto buyruqni ham muloyimlik, mayin ovoz bilan va shu qatori bir vaqtda ishga doir qatʼiyyatlik bilan berish mumkin.

Suhbat olib borish mahoratini oʻrganish mumkin, buning uchun qadimgi notiqalar kabi sizga zarur boʻlgan bilimlarni egallash lozim. Ammo bu degani doʻstona uchrashuvlarni notiqlik sanʼati boʻyicha musobaqaga aylantirish emas. Barcha holat va narsalarga yuzaki qaraydigan jamiyatga bir oz hazil va engillik bilan hamma narsalar haqida komil ishonch bilan soʻzlash bilan shugʻullanish – bu olim odam ham isteʼdodli odam ham emin boʻladigan sanʼatdir. Har kimga ham aqli gaplarni osonlik bilan etkazish qobiliyati berilmaydi. Suhbat sanʼatida sergaplikka yoʻl qoʻymay mashq qilish lozim, odamga moslashish kerak va uzoq tajribaga ega boʻlgandan soʻnggina oʻz istiqbolini koʻrish mumkin. Avvalambor biz oʻzimizning «men» lashimizdan qochishimiz lozim. Oʻz shaxsiyligini berkitib, oʻzgalarning qiziqishiga eʼtibor bermoq - bu har suhbatning asosiy afzaligidir.

Dastlab «muomala» va «aloqa-kommunikatsiya» tushunchalarining oʻxshash tomonlarini aniqlab olish lozim. Aloqa-kommunikatsiya -yalpi aloqaning bir turi boʻlib, yoʻnaltirilgan aloqa deb yuritiladi. U mohiyatan maʼlum bir hodisa haqidagi maʼlumotni boshqalarga uzatadi. Masalan, ommaviy vositalarida koʻrsatuv uchun yoʻnaltirilgan maʼlumotlarda muomala aloqa-kommunikatsiya vositasi vazifasini bajaradi. Boshqacha qilib aytganda, bunday xolatda muomala eng avvalo subekt-obekt munosabati sifatida namoyon boʻladi.

Muomala jarayoni ikki taraflama xarakterga ega: u o'z mohiyatiga ko'ra axborot yoki ma'lumotlarni shunchaki uzatish va qabul qilishga qaraganda kengqamrovli bo'lib, ikki yoki undan ortiq insonlarning o'zaro ta'sirini murakkab tizimi hisoblanadi. Shunga ko'ra muomala akti bir insonning boshqa inson(lar) bilan muomalaga kirishib, unda o'zinikiga o'xshash xususiyatlarni topa olishi, ularga munosib javob qaytarishi, ular bilan o'zaro muloqotda optimal darajaga erishsagina o'zining muomala jarayonidagi munosib o'rniga ega bo'ladi. Bunday xolatda muomala eng avvalo, subekt-subektga munosabati tarzida ko'zga tashlanadi.

Lekin shuni ta'kidlash lozimki, ko'pgina ilmiy-ommabop adabiyotlarda mualliflar «muomala» va «kommunikatsiya» tushunchalarini sinonim tarzida ishlatadilar. Aytish mumkinki, muomala jarayon sifatida tugal natijani obektiv ehtiyojlar, aniq manfaatlar, maqsadlar, tuzilmalar, vositalar, muomala texnikasi nuqtai-nazaridan ko'rib chiqadi. U paydo bo'lgandan boshlab ilmiy tavsiflanadigan qator daraja va bosqichlardan o'tib kelgan.

Shuningdek, muomala hamkorlik faoliyatining muhim omili ekanini alohida ta'kidlash lozim. Muomalaning ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, huquqiy sohalardagi hamkorligi ikkala tomonning manfaatiga asoslanadi. Shunday bo'lgan taqdirdagina, muloqot samarali yakunlanishi mumkin. Bu borada mamlakat Prezidentlarining davlatlararo har tomonlama shartnomani imzolash uchun olib boradigan muloqotlari yuqoridagi fikrlarga misol bo'ladi.

Shunday xolatlar ham bo'ladiki, muloqot jarayonlarida hamkorlarning o'zaro muloqotida umumiy manfaatlar kuzatilmaydi, shu bilan birga bu xolat hamkorlikning uzilishiga ham olib kelmaydi. Bunday xolatni aksariyat xollarda siyosiy, iqtisodiy soha vakillarining o'zaro kuzatuvchi va ekspert sifatida ishtirok etgan uchrashuvlarda kuzatiladi.

Muomala madaniyatida xushfe'llik, xushmuomalalik, hayo-ibolilik, beozorlik, shirinso'zlik, ochiqko'ngillik singari axloqiy me'yorlar muhim sanaladi. Biz shulardan ayrimlarini ko'rib chiqishni maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz.

*Xushfe'llik.* Ushbu axloqiy hatti-harakat me'yoriylik nuqtai-nazaridan g'oyat muhim. Chunki har bir jamiyat darajasi ma'lum ma'noda undagi fuqarolar muomala madaniyatining yuksakligi bilan ham belgilanadi. Zero, xushfe'l, shirinsuxan inson o'zining har bir muvoffaqiyatsizligiga fojea sifatida qaramaydi, alam yoki g'azab bilan yomon kayfiyatini boshqalarga o'tkazishga intilmaydi. Atrofdagi axloqiy muhitni buzmaydi. Natijada o'ziga ham, o'zgalarga ham ko'tarinki kayfiyat, tarli-tuman omadsizliklarning o'tkinchiligini anglatuvchi hayotbaxsh bir umid bag'ishlaydi. Jamiyat doimo o'shanday odamlarni hurmat qiladi va ulardan o'rnak olishga intiladi.

*Xushmuomalalik.* Muomalaning asosiy manbaini so'z tashkil etishi barchamizga ma'lum. Shuningdek, so'z insonning botinidan chiqishi, inson

botindan chiqadigan so'zga egalik qila olishini ham bilamiz. Biroq, tashqariga chiqqan so'z insonning o'zini qulga aylantirib qo'yishini doim ham bilavermaymiz. Ya'ni, og'izdan chiqqan yaxshi-yomon so'z bevosita insonning ruxiyatiga o'rinishadi: yaxshi so'z bilan muomala qilinsa – yaxshilik topiladi, yomon so'z bilan muomala qilinsa – yomonlik.

*Hayo-ibolilik.* Hondamir, Vosifiy va boshqa zamondoshlarning asarlaridan bilamizki, Navoiy g'oyat tabiati nozik, pok, xushxulq va o'ta nazokatli kishilarni yaxshi ko'rgan, o'zi ham juda noziktabiat inson sifatida nom qozongan. Shu sababli u «Mahbubul qulub»dagi «tanbeh»larida hayo, beozorlik sifatlariga alohida urg'u berib ta'riflaydi. Vafo va xayoni uyg'unlikda ko'rgan shoir «vafosizda hayo yo'q, hayosizda vafo yo'q» deb ta'kidlaydi.

*Muloyimlik.* Muloyimlikbarcha mutafakkirlar nazarida kishining maqbul sifatlaridan biri, deb e'tirof etiladi. Muomala madaniyatida muloyimlik «xilmi», «yumshoq tabiatli» degan tushunchalar bilan bir ma'noni anglatadi. Bu tushuncha achchig'lanmaydigan, ehtiyotkor, so'zini o'ylab gapiradigan kishilarga nisbatan ishlatiladi. Biroq, muloyimlikning kamchiligi shuki, bunday sifat sohiblari aksar odamlarga yoqmaydi.

*Beozorlik.* Insonlarning tabiatidagi husumat, adovat, g'azab kabi illatlar bu kabi odamlardan xoli. Ular barcha mas'uliyatni o'z zimmalariga olsalar-da birovga yomonlikni ravo ko'rmaydilar, og'irliklarini o'zgalarning zimmasiga yuklamaydilar. Beozor kishilar matonatli bo'la turib, o'zidan ojiz kishilarga qahr bilan muomala qilmaydilar.

Umuman olganda, axloqiy me'yorlarning muomala madaniyatidagi ko'rinishlari talaygina. Biz shulardan ayrimlarigagina to'htalib o'tdik. Shunday ekan, muomalada pirovard natijada quyidagicha xulosa chiqarish maqsadga muvofiq, deb o'ylaymiz: agar axloqshunoslikning me'zoni tushunchalari bir-biriga bog'liq bo'lsa, axloqiy tamoyillarning bog'liqligi yanada mustahkamroq- ular biridan ikkinchisiga o'tib turish xususiyatiga ega; axloqiy me'yorlar bir-biri bilan shu darajada chambarchaski, ba'zan birini ikkinchisidan aniq ajratish qiyin, zero ular xulq va odob doirasidagi axloqiy amaliyotlardir.

#### *Muomalada yuzaga keladigan ziddiyatlar va inson fe'l-atvori.*

Taraqqiyot ziddiyatlarning paydo bo'lishi, rivojlanishi va bartaraf qilinishi jarayonidan iborat. Shunga ko'ra, ziddiyatlarning ko'rinishi ham har xil bo'lib, ular narsa-hodisalarning harakati va rivojlanishida turlicha ahamiyat kasb etadi. Ziddiyatlar ichki, tashqi, asosiy, asosiy bo'lmagan kabi ko'rinishlarga bo'linadi. Jumladan, *ichki ziddiyatlar* – narsa va hodisalardagi ichki jarayonlarning ifodasi, harakatlanishning manbai hamda rivojlanishning asosiy sababidir. *Tashqi ziddiyat* - narsa va hodisalar o'rtasidagi munosabatlarning ifodasi hisoblanadi. Jamiyat rivojlanishining mazmuni va mohiyati ham asosan ichki ziddiyatlarning xal qilinishi

bilan belgilanadi. Biroq, rivojlanishda tashqi ziddiyatlarning ishtiroki kamroq bo'ladi, degan fikrga bormaslik kerak. Zero, globallashuv va integratsiya jarayonlarida tashqi ziddiyatlarning ham o'z o'rnini bor. Narsa- hodisalarning mohiyatini, xolatini, kelib chiqish va rivojlanish qonuniyatlarini belgilovchi ziddiyatlar esa *asosiy ziddiyatlar* deb ataladi. Asosiy ziddiyatlar taraqqiyotda belgilovchi (boshqaruvchilik) vazifani bajaradi va barcha boshqa ziddiyatlarga ta'sir ko'rsatadi.

Jamiyatdagi ziddiyatlar turli shakl va usullar bilan bartaraf qilinadi. Ulardan ba'zilari eskining emirilishi va yangining vujudga kelishi asosida xal qilib borilsa, boshqalari shu ziddiyatni tashkil qilgan qarama-qarshi tomonlarni o'zaro kelishtirish, murosa-yu madoraga keltirish, hamjihatlik va hamkorlikka erishish yo'li orqali xal qilinishi mumkin. Keyingi vaqtda jamiyatdagi ziddiyatlarni xal qilishda qo'llanilayotgan samarali tamoyillardan biri o'zaro kelishuv, murosa-yu madora tamoyilidir.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan xolda, ziddiyat *muomalada* - insonlar o'rtasidagi muloqotlarda – so'zlashish, fikr almashish, muzokara olib borish, baxslashishda biri ikkinchisini inkor etadigan ikkita muomala natijasida vujudga keladi.

Shuni ta'kidlash lozimki, ziddiyatli vaziyatlar asosida alohida shaxslar va guruxlarning qarama-qarshi fikrlari, maqsadlari hamda shu maqsadlarga erishishning vositalari yotadi. Ijtimoiy psixologiya ziddiyatlarning manbaiga qarab uning bir necha turlarga ajratadi. Masalan, ziddiyat ichki-shaxsiy (rahbar bilan hodim o'rtasida) shaxs-tashkilot (shaxslar, guruxlar va tashkilot o'rtasida) bo'lishi mumkin. Shuningdek, ziddiyatlarning gorizontali tasnifi ham mavjud (bir-biriga bo'ysinmaydigan hodimlar o'rtasida), vertikal (bir-biriga bo'ysinuvchi hodimlar o'rtasida) va aralash turdagi ziddiyatlar ham mavjud. Kundalik hayotda vertikal va aralash turdagi ziddiyatlar uchrab turadi. Agar bunday ziddiyatlar jamoada 70-80%ni tashkil etsa, bu rahbar uchun xavfli hisoblanadi. Bunday vaziyatlarda rahbarning har qanday harakatlari ziddiyatlar prizmasi orqali olib qoraladi.

Muomala madaniyatida ziddiyatlar anglashilmovchilik, bir-birini tushunmaslik hamda o'zaro manfaatlar to'qnashuvi natijasida kelib chiqadi. Shuningdek, ziddiyatlarni keltirib chiqaruvchi sabablarning xususiyatlariga qarab tavsiflash mumkin. R.L.Krichevskiy o'zining «Agar siz rahbarsiz» kitobida ziddiyatlarni keltirib chiqaruvchi omillarni 3 ta guruxga bo'ladi:

*Birinchi gurux* – mehnat jarayonidagi ziddiyatlar.

*Ikkinchi gurux* – insonlararo munosabatlarning psixologik xususiyatlari, ya'ni impatiya va antipatiya, madaniy-etnik xilma-xillik, rahbar hatti-harakatlari, psixologik moslasha olmaslik va hokazo.

*Uchinchi gurux* – jamoa a'zolarining o'ziga xosligi. Masalan, o'zini boshqara olmaslik, ehtiroslarga berilish, tajovuz, do'q-po'pisa, haqoratlash-so'kinish, munosabatga kirisha olmaslik<sup>1</sup>.

Ziddiyatlar ma'muriy tashkilotlar va ishlab chiqarish korxonalari uchun ahamiyati va xal etish yo'llariga ko'ra farqlanadi va umumiy ma'noda konstruktiv va destruktiv ziddiyatlarga ajraladi. *Konstruktiv* ziddiyatlarga tashkilotning hayotiy muammolarini hamda ularni xal etish orqali samarali taraqqiyotga olib chiqish xos. *Destruktiv* ziddiyatlar salbiy, vayronkor natijalarga olib keladi. Shuningdek, ayrim xollarda bu vaziyat janjallarga va tashkilot faoliyatining susayishiga olib keladi.

*Ijtimoiy-psixologik asoslar.* Bu boradagi dastlabki qiyinchilik sizning qarashlaringizning boshqalar fikriga mos kelmasligida ko'rinadi. Insonlar xohlagan narsalarini ko'rishni istaydilar. Istagan dalillardan faqatgina o'zimizga keraklisini olib, qolganlarini xato deb o'ylaymiz. Lekin, ayni paytda, boshqaning fikrini tushuna olish unga qo'shilish degani emas. Bunday xolatlar ziddiyatni kamaytirishi mumkin. Shuningdek, ikkinchi tomonning fikr-mulohazalarini salbiy jihatdan talqin etish kerak emas. Chunki bu xolat ziddiyatni yanada kuchaytiradi.

Muomala jarayonida yuza keladigan ziddiyatlardagi keyingi muammo shundaki, insonlar muomalada bo'lib ba'zida bir-birlarini umuman tushunmaydilar, hattoki raqibingiz aniq, lo'nda gapirsa ham. Sizningcha, insonlar go'yoki sizni eshitmayotgandek. Xuddi shuningdek, ayrim xollarda siz ham ularni tinglamasligingiz mumkin.

Muomala jarayonidagi qiyinchiliklarni inobatga olib, E.Melburd, V.Zigert va L.Longe tomonidan insonning ziddiyatli vaziyatlarda hatti-harakatlarini psixologik standart bilan mos ravishdagi modeli ishlab chiqildi<sup>2</sup>. Bu borada ziddiyatni konstruktiv xal etish quyidagi omillarga bog'liq:

- ziddiyatni adekvat tarzda idrok etish, ya'ni shaxsiy kechinmalarsiz ikkala tomonni ham to'g'ri baxolay olish.

- muomalaning samimiyligi va samaradorligi, muammoni har tomonlama echimini topish, ziddiyatlarda xolislikka amal qilish.

- o'zaro ishonch va hamkorlik muhitini yaratish. Rahbarning ziddiyatlarni vujudga keltiruvchi individual xususiyatlarni bilishi muhim ahamiyatga ega.

Psixologlarning bu boradagi tadqotlarini umumlashtirib quyidagilarni ko'rsatish mumkin:

- o'z imkoniyatlarini to'g'ri baxolay olmaslik, mazkur xolatda atrofdagilarni to'g'ri fikrlariga zid kelib, ziddiyat uchun zamin yaratiladi;
- ustunlik qilishga intilish.

<sup>1</sup>Krichevskiy R.L. Yesli vy – rukovoditel. M.:Delo. 1993.

<sup>2</sup> Zigert V.,Lang L. Rukovodit bez konfliktov. M.: Ekonomika. 1990.

- o'z fikriga sodiqlik tufayli yangiliklardan voz kechish.
- fikrlarni bayon etishda ortiqcha to'g'rilik, haqiatni ayta olish.
- qatilylik.
- shaxs emotsional yig'indisi – bezovtalik, darg'azablik, qaysarlik.

Ziddiyatlar yuqoridagi xolatlar bilan birga ziddiyatga moyillik tufayli ham vujudga keladi. Shaxslararo va ijtimoiy psixologik munosabatlarda fikrlarning bir-biriga mas kelmasligi shular jumlasidandir. Masalan, ma'lum bir shart-sharoitlarda faoliyat olib boruvchi turli temperamentdagi insonlarni olib ko'raylik. Odatiy muhitda xalerik va flegmatik temperamentli kishilar ishni samarali bajaradilar (flegmatikning favqulodda mulohazakorligi va xalerikning shiddat bilan harakat qilishi).

Shuningdek, ko'p xollarda shaxslararo ziddiyatlarning asosini manfaatlar va maqsadlar egallaydi. Masalan, korxona rahbari ishlab chiqarish ko'lamini kengaytirish va ish samaradorligini oshirishdan manfaatdor bo'lsa, hodimlarni esa ko'proq oylik maosh qiziqtiradi. Bunday xolat ham ziddiyatni vujudga keltiradi. Aksariyat xollarda ziddiyat shaxsning imkoniyatlariga nisbatan qo'yilgan yuqori talablar tufayli vujudga keladi.

Real hayotda ziddiyatning asosiy sababini bilishning K.Tomas va R.Klimens tomonidan ishlab chiqilgan ziddiyatli vaziyatlarda o'zini boshqarish va ulardan chiqish yo'llari strategiyasi bilan tanishish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Tadqiqotchilar ziddiyatlarda o'zini boshqarishning quyidagi usullarini ko'rsatadilar:

Raqobatchilik.

Hamkorlik.

Murosa (kompromiss).

Moslashish.

Chekinish.

Ularning fikricha, u yoki bu ziddiyatli vaziyatda boshqarish usuli sizning manfaatlaringizga hamda faol yoki sust ishtirok etishingizga bog'liq. Mazkur usullarni maqsadga muvofiq ravishda ishlatish yuzasidan quyidagi tavsiyalarni havola etamiz:

*Raqobatchilik usuli.* Mazkur usul eng tipik xolat hisoblanadi. Ma'lumotlarga qaraganda, ziddiyatlarda o'z manfaatlarini 70%qondirish, g'olib bo'lish hisoblanadi. Bunda raqib tomonga bosim o'tkazish vujudga keladi. Uni kuchli irodaga ega bo'lgan shaxsgina bajarishi mumkin. Bu usuldan o'z fikri va kuchiga ishongan hamda ziddiyat natijasi muhim bo'lgan insongina foydalana oladi. Buning uchun shaxs: a) imkoniyatlari keng, hokimiyat egasi, e'tiborli kishi bo'lishi va tanlagan yo'li to'g'ri ekanligiga ishonishi lozim. b) boshqa yo'l yo'qligiga ishonch

hosil qilish. v) mazkur yo'lni tanlash uchun etarli imkoniyatlarga ega bo'lish. g) avtoritarlikni ma'qul ko'ruvchi hodimlar bilan ishlashi kerak.

*Hamkorlik.* Bu usullarning ichidagi eng murakkabi va eng samaralisidir. Bu usulning afzal tomoni shundaki, ikkala tomon uchun ham murosali echim topilish ehtimoldan xoli emas. Mazkur usul ziddiyatni xal etish uchun ziddiyatning barcha a'zolarining ishtiroketishini talab etadi. Bu kabi yondashuv ish va shaxsiy hayotda omadga olib keladi. Bu usulni boshlashdan avval quyidagi so'zlarni aytish maqsadga muvofiq: "Men ikkalamiz uchun adolatli yo'lni tanlamoqchiman", "Ikkalamiz nimani xohlashimizni bilib olaylik", "Men muammoni echish uchun keldim" kabilar. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, ikkala tomonning g'olib bo'lishi qabul qilingan qarorlarning ijrosini muvoffaqitli garovidir. Biroq, bu uslub o'z qarashlari va fikrlarini izohlab berish hamda ikkinchi tomonni tinglay olish qobiliyatini talab qiladi. Mazkur usulni quyidagi ziddiyatli vaziyatlarda qo'llash mumkin:

- muammoning echimi muhim bo'lib, murosaga yo'l qolmagan vaziyatlarda;
- ziddiyatli tomon bilan uzoq muddatli aloqalar o'rnatish ko'zlanganda;
- asosiy maqsad o'zaro tajribaga ega bo'lish bo'lganda;
- fikrlarning integratsiyasi zarur bo'lsa hamda hodimlar shu jarayonga jalb etilsa.

*Murosa usuli.* Murosa usulining asosiy maqsadi ikkala tomonni o'zaro kelishuvga keltirish hisoblanadi. Shu ma'noda bu usul hamkorlikka o'xshab ketadi, biroq ancha yuzaki amalga oshiriladi. Bu usul tomonlarning manfaati mos kelib buni qanday xal etishida juda samaralidir. Murosa kelishuvni amalga oshirishda ma'lum ma'noda ko'nikma bo'lishi lozim, har bir a'zo nimagadir erishishi zarur. Mazkur usulning kamchiligi shundaki, birinchi tomon ikkinchi tomonga nisbatan o'z imkoniyatlarini oshirib yuborsa ko'zlangan maqsadga erishib bo'lmaydi.

Murosa usulini quyidagi ziddiyatli vaziyatlarda qo'llash mumkin:

- ikkala tomon ham birday imkoniyatlarga ega bo'lsa;
- bir tomonning ehtiyojlarini qondirish mumkin bo'lsa;
- aniq qaror qabul qilinguniga qadar vaqtinchalik murosa yo'lini tanlash.

*Chekinish usuli.* Bu usul asosan tomonlarning to'g'ridan-to'g'ri manfaatlariga zid kelmasa yoki muammo unchalik muhim bo'lmasa, ziddiyatning keskinlashuviga ta'sir etmasa yoki tomon muammoni xal etish uchun o'z kuchlarini sarflashni istamagan xollarda o'zining samarasini beradi. Shuningdek, bu usuldan tomonlar teng kuchga ega bo'lmagan xolda foydalanishlari mumkin. Aks xolda aloqalar uzilishi mumkin. Ziddiyatli tomon bu usuldan agarda:

- ziddiyat manbai asossiz va muhim bo'lmasa;
- o'z manfaatiga xal eta olmasligini bilsa;
- muammoni echish uchun etarli kuchga ega bo'lmasa;

- ko'shimcha axborotga ega bo'lish uchun vaqtdan yutishni istasa;
- zudlik bilan masalani xal etish xavfli bo'lsa;
- hodimlarning o'zi bu muammoni xal eta olsa;
- masalani xal etish sog'liqqa zarar bo'lsa;
- ziddiyatda murakkab insonlar – qo'ppollar, noluvchilar ishtirok etsa ishlatish mumkin.

Bu usul muammodan qochish emas, aslida cheklashish ziddiyatli vaziyatlardan qo'l kelishi mumkin.

*Moslashish usuli.* Bu usul ikkinchi tomon bilan aloqada bo'lib, muhitni yaxshilash uchun o'z manfaatlarini oqlamaslik tushuniladi. Tomas va Kilmen fikricha, ayrim xollarda bu ziddiyatni xal etishning yagona yo'li hisoblanadi. Chunki uning paydo bo'lish paytiga kelib ikkinchi tomonning manfaatlari siznikidan zarurroq bo'lib qolishi mumkin. Moslashish usuli quyidagi xollarda qo'llanilishi mumkin:

- asosiy vazifa tinchlikni saqlashga qaratilganda.
- ziddiyat masalasi tomonlar uchun muhim bo'lmaganda.
- boshqalar bilan aloqani mustahkamlash o'z manfaatidan ustun kelganda.
- haqiqat siz tomonda ekanligini bilganda.
- etarli kuch va imkoniyatlarga ega bo'lmaganda.

Yuqoridagi usullar shaxslar tomonidan samarali ishlata olinsagina o'zining ijobiy natijasini beradi.

#### *Ziddiyatli vaziyatlardan o'zini tuta bilish qoidalari.*

Rahbar ziddiyatlarni nafaqat ish sohasi balki shaxsiy emotsional sohada ham ishlata olishi zarur. Xo'sh, ziddiyatli shaxs bilan ishlash jarayonida o'zini qanday tutish lozim:

*Birinchidan* - bunday odamlarda ichki o'tkinchi kechinmalar bilan bog'liq ehtiyojlar mavjud bo'lib, ular shu orqali ehtiyojlarni qondiradi. Masalan, tajovuzkor o'zining tajovuzi orqali qo'rqqanligini yashirishi mumkin.

*Ikkinchidan* - o'z xissiyotlarini jilovlab, boshqaning xissiyotlarini ro'yobga chiqrishga uchun imkoniyat yaratishi kerak.

*Uchinchidan* - bunday odamlarning qilayotgan harakatlarini jiddiy qabul qilmaslik.

*To'rtinchidan* - ziddiyatli xolatlarda muvofiq keluvchi usulni tanlash uchun bunday usullar qaysi toifa odamlarga mos kelishini ajrata olishingiz zarur.

Robert Bremson tarbiyasi qiyin odamlar bilan muomala qilishning bir necha turlarini ajratib ko'rsatadi<sup>1</sup>:

---

<sup>1</sup>Borodkin F.M. Vnimanaye konflikt!. Novosibirsk. 1989.

*Tajovuzkor* - agar so'ziga quloq solishmasa, kishilarga tojovuz qiluvchi qo'pol va shallaqilar.

*Shikoyatchi* – qandaydir g'oyani o'zlashtirib olgan xolda boshqalarni katta gunohda ayblovchi, biroq ushbu muammoni echish uchun biror ish qilmaydigan kishi.

*“Darg'azab bolakay”* – bu toifa kishilar tabiatan o'zlarining to'g'ri yoki noto'g'ri fikrlarini o'tkazishga hamda jarayonni to'laligicha qo'l ostida tutib turishga intiladilar.

*Maksimalist* –garchand zarurati bo'lmasada, biror-bir ishni ortga sudramaydigan kishi.

*Indamas (pismi)* – barcha alamlarini ichiga yutib yuradigan, biroq payti kelganda birdan portlaydigan odam.

*“Sirli qasoskor” (ishkallar)* – biror-bir nayraglar yordamida noqulayliklarni yuza keltiruvchi, “noto'g'ri qilingan ish uchun o'zini alolat o'rnatuvchi” deb hisoblaydigan kishi.

*Ikkiyuzlamachi yoki “Yolg'onchi g'amhur”* – o'zini sizga yaxshilik qilayotgan kabi ko'rsatadi, biroq qalbida boshqalarga nisbatan adovat, ko'rolmaslik mavjud bo'lgan odam.

*“Surunkali ayblovchi”* – doimiy ravishda o'zgalarning aybini qidiradigan (tirnoq orasidan kir qidiradigan), o'zini doimo haq deb hisoblaydigan shaxs.

Hayotda uchraydigan bu kabi odamlarning toifalari talaygina.

Shu munosabat bilan ziddiyatli xolatlarda yoki tarbiyasi qiyin odamlar bilan muomala qilganingizda siz nafaqat do'stlik degan tushunchaning ma'nosini anglaysiz, balki muomalaning yuksak sifatlarini ham o'zlashtirib borasiz. Dialektikaning ahamiyati aynan manashu jarayonda namoyon bo'ladi.

Ko'rinib turibdiki, ziddiyatlar insonlararo muomala madaniyatida tez-tez xissiyotli xolatlarni yuzaga keltiradi va ayni paytda munosabatlarni chigallashtirishga hamda murakkablashtirishga olib keladi. Ziddiyatli xolatlarni yuzaga kelganda uning oldini olish uchun quyidagilarni tavsiya etish mumkin:

1. Ziddiyatli xolatlarda insonning hatti-harakatini aql emas, balki xissiyotlar boshqarishini unutmang. Zero, aql yon bergan paytda inson o'zining so'zi va hatti-harakatiga javob bera olmaydi.
2. Muomalaning ko'plab muqobil usullaridan foydalaning, suhbatdoshingizni “jerkib” tashlamang, o'zingizga “Men ham yanglishishim mumkinku!?” degan savolni bering.
3. Ziddiyatning mohiyatini to'laqonli tushunishga harakat qiling va «Mabodo ziddiyat xal etilmasachi?» degan havotirdan yiroq bo'ling.

4. Agar suhbatdoshingiz qattiq hayajonda yoki g'azablanayotgan bo'lsa, uni «sovutishga» intiling, zinhor undan baland kelishga urinmang: o'zingiz jim bo'lingda undan buni talab qilmang.
5. Suhbatdoshingizga o'zini sizning o'rningizga quyib ko'rishini so'rang, ya'ni «Agar siz mening o'rnimda bo'lganingizda qanday yo'l tutgan bo'lar edingiz?» degan savolni berib ko'ring.
6. Qilgan xizmatigingizni haddan ziyod maqtayvermang va minnat qilmang.
7. Ziddiyatni yuzaga kelishiga sababchi bo'lgan hamkoringizni hadeb ayblayvermang.
8. Har qanday xolatda ham o'zaro munosabatni saqlab qolishga harakat qiling.

So'zlashuv madaniyati har bir til birligini sharoitga qarab, yillar mobaynida qabul qilingan me'yorlar asosida qo'llash san'ati hisoblanadi. Masalan, so'rashish, salomlashish madaniyatini olaylik. So'rashish barcha xalqlarning muomala madaniyatidagi muhim vosita bo'lib, u har bir xalqning milliy xususiyatlaridan kelib chiqqan xolda o'ziga xos ko'rinishga ega. Ta'kidlash zarurki, so'rashish bilan salomlashish aynan bir tushunchalar emas. Salomlashish barcha xalqlarda salom berish odobi qoidalariga asoslanadi, u faqatgina qo'l berib ko'rishishdan iborat emas. So'rashish esa so'z, imo-ishora, mimika va hatti-harakat orqali ham amalga oshiriladigan jarayon bo'lib, u inson faoliyatining barcha jihatlarini qamrab oladi.

O'zbeklarda nutqiy muomala madaniyatida jamoa, odamlar bilan hamjihatlikda bajariladigan hashar, obodonlashtirish ishlarida ishtirok etayotganlarga «Hormanglar» deyiladi va ular tomonidan «Salomat bo'ling» yoki «Bor bo'ling» degan javob qaytariladi. Hosil yig'im-terimi paytida hirmon teppasida ko'rishganda esa «Hirmonga baraka» deyiladi va ular tomonidan «Umringizga baraka» degan javob qaytariladi. Mazkur so'rashish madaniyatiga e'tibor bersangiz, murojaat oxangi ham, javob ohangi ham mantiqiylik, nafosat hamda kishiga xush yoqadigan tarzda ifoda etiladi. Bu so'zlarning qudrati shundaki, ularni jaxl ustida, g'azab bilan aytsangiz ham birovga og'ir botmaydi.

#### *Murojaat qilish odobi.*

Murojaat insondan axloqiy, estetik, madaniy me'yorlarni beliglangan qoidalar asosida amalga oshirishni talab qiladi. Murojaat ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy-tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lgan munosabat turi bo'lib, ular og'zaki yoki yozma ko'rinishga ega. Murojaat insonning qanday tarbiya ko'rganligini, o'zgalarga nisbatan hurmatini, did-farosatini, izzat-nafsini bilish mumkin bo'lgan axloqiy hatti-harakatlar majmuasidir. Murojaat qilib aytilayotgan so'zlar nafaqat hurmat belgisi, balki, maqsadga erishish vositasi hamdir. Murojaat vaziyatga, sharoitga, jamoaga, muhitga qarab yakka shaxsga yoki jamoaga yo'naltirilgan bo'ladi. Biroq, barcha murojaatlar axloq me'yorlariga bo'ysingandagina ijobiy natija berishi mumkin.

Murojaat qilish bir necha turlarga bo'linadi. Ularni asosan rasmiy murojaat va norasmiy murojaatlarga ajratish mumkin.

*Rasmiy murojaatlar* asosan qat'iy tartib va belgilangan qoidalar asosida amalga oshiriladi. Rasmiy murojaatlar mehnat jamoasida rahbarga, ishlab chiqarish korxonalarida etakchi mutaxassisga, ta'lim muassasalarida ta'lim beruvchi ustozga, harbiy va huquq tartibot organlarida unvoni katta zobitlarga, davlat ahamiyatiga molik tadbirlarda jinsga qarab yoki barchaga rasmiy murojaat qilinadi. Masalan, «Honimlar va janoblar», «Muhtaram elchi janobi oliylari», «O'rtoq boshliq yoki o'rtoq komandir», «Janobi direktor», «Ustoz Muzaffar Ahmedovich» va hokazo.

Shuni alohida ta'kidlash zarurki, rasmiy murojaatlarda faqat sizlab murojaat etish maqsadga muvofiq. Chunki, «sen» degan murojaat oradagi munosabatlarning samarali natijasiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Odatda zamonaviy muomala madaniyatida 9 yoshdan yuridagilarga nisbatan «siz» deb murojaat qilish maqsadga muvofiq sanaladi. «Sen» deb murojaat etish esa faqat oilada, yaqin qorindoshlar, do'stlar orasida aytilishi o'rinlidir.

*Norasmiy murojaatlar* rasmiy murojaatlarga nisbatankengroq va doimiy ravishda qo'llaniladi. Norasmiy murojaatlar asosan kundalik hayotda, o'zaro muloqotda ishlatiladi. Murojaatning bu turini umumiy ma'noda yaqin insonlarga qilinadigan murojaatlar, intim murojaatlar hamda nomsiz murojaatlarga ajratish mumkin. Xususan: *Yaqin kishilarga qilinadigan murojaatlarda* ishonchlilik, do'stona va samimiy munosabat ustuvor ahamiyatga ega. «Hamkasaba», «Og'ayni», «Amaki», «Xola», «Kelinoyi», «Og'a» kabi murojaatlar bunga misoldir.

*Intim murojaatlarda* shaxsga nisbatan chiroyli, yoqimli, erkalash ma'nosidagi so'zlardan foydalangan xolda murojaat etiladi: «Azizim», «Mehribonim», «Jonim», «Begim» kabi so'zlardan o'rinda va samarali foydalanish zarur. Murojaatning bu turi insonning didli va farosatli ekanligini ham belgilaydi. Biroq, ushbu so'zlarni bemavrid ishlatish insonni bachkanalikka olib keladi. Ayniqsa, «jonim» so'zini barchaga nisbatan ishlatish aslo mumkin emas, bu so'z faqatgina nikohdan o'tgan, hayotini bir-biri bilan bog'lagan kimsalarga nisbatan ishlatilsa maqsadga muvofiq.

*Nomsiz murojaatlarda* shaxsni kim ekanligini yaqindan bilish katta ahamiyatga ega emas. Bunday murojaat qisqa mazmunda bo'lib, biror noma'lum obekt yoki subektni aniqlash, u haqda muayyan ma'lumot olish uchun qo'llaniladi. Masalan, «Kechirasiz, Nukus ko'chasini ko'rsatib yuborsangiz?» «Ma'zur tutasiz, sizning manzilingiz men boradigan joydan uzoqroqda ekan», «Xonadoshingiz siz haqingizda yaxshi fikrlar bildirdi» singari murojaatlarda shaxsning aniq ismi ko'rsatilmasada, u haqdagi ma'lumotlar va aytiladigan fikrlar tushunarli bo'ladi.

### **Foydalaniladigan adabiyotlar ro'yxati**

### **Rahbariy adabiyotlar:**

1. Mirziyoev Sh.M. – Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston Davlatini birgalikda barpo etamiz.- T.,O'zbekiston. 2016.
2. Mirziyoev Sh.M. – Qonun ustivorligi va inson manfaatlarini ta'minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. – T., O'zbekiston. 2017.
3. Mirziyoev Sh.M. – Tanqidiy taxlil, qat'iy tartib intizom va shaxsiy javobgarlik – xar bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. T., O'zbekiston. 2017.
4. O'zbekiston respublikasi Vazirlar Mahkamasining Qarori “Davlat boshqaruvi organlari va mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari xodimlarining odob-axloq namunaviy qoidalarini tasdiqlash to'g'risida” (O'zbekiston respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2016 y., 9-son, 94-modda)lex.uz
5. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – engilmas kuch. –T.: Ma'naviyat, 2008.

### **Darsliklar va o'quv qo'llanmalar:**

1. Abdulla Sher. Axloqshunoslik. Darslik. –T.: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2010.
2. Agzamova N. Etika. Uslubiy qo'llanma. –T.: OOO “NORI”, 2013.
3. Jahon falsafasi tarixidan lavhalar. G' Q.Nazarov tahriri ostida. –T.: Sharq, 2004
4. Mamashokirov S., Usmanov E. Barqaror taraqqiyotning ekologik xavfsizlik masalalalari. –T.: Fan, 2009.
5. Muhammadjonova L.A., Ortiqova D.O., Abidjanova F.A., Masharipova G.K. Professional etika va etiket. Darslik. - T.: "Adabiyot uchqunlari" 2018.
- 6.M. Kaxxarova, N Agzamova. Etika Uchebnoe posobie. Rizograf imeni Nizami. 2018 god.
- 7.L.Muhammadjonova, F.Abidjanova. Etiket. O'quv qo'llanma. T.: Universitet. O'zMU, 2018.
8. Nurmatova M., Muhammadjonova L., Ma'naviyatning axloqiy asoslari.– T.: Unversitet, O'zMU. 2013.
9. Nazarov Q. Aksiologiya – qadriyatlar falsafasi. –T.: O'FMJ, 2004.
10. Nurmatova M. Shaxs kamolotida axloqiy va estetik qadriyatlar uyg'unligi. – T.: Universitet, 2009.
11. E.Umarov., F.Zagritdinova. “Etika. Prikladnaya etika”. -T.: Noshir, 2012.
12. Husanov B., Gulamov V. Muomala madaniyati. Darslik. –T.: Iqtisod-moliya, 2009.

13. Shermuxammedova N.A. XXI asr fanining dolzarb muammolari G'G' Falsafa va fan metodologiyasi. – T.: Universitet, 2005.

### **Qo'shimcha adabiyotlar:**

1. Arastu. Poetika. Axloqi Kabir. –T.: Yangi asr avlodi, 2004.
2. Aliqulov H. Falsafiy meros va ma'naviy-axloqiy fikr rivoji. –T.: Falsafa va huquq instituti, 2009.
3. Agzamxodjaeva S.S. Ijtimoiy ideal va O'zbekistonda ijtimoiy-ma'naviy taraqqiyot muammolari. Dissertatsiya. Fals. fan. dok. – T.: 2009.
4. Abdulla Avloniy Turkiy guliston yoxud axloq. – T.: O'qituvchi, 1992.
5. Abu Abdullox Muhammad ibn Ismoil al Buxoriy. Hadis. 2. tomlik –T.: O'zbekiston milliy entsiklopediyasi davlat ilmiy nashriyoti, 2008.
6. Jabborov I. O'zbeklar (ana'naviy xo'jaligi, turmush tarzi va etnomadaniyati). –T.: Sharq, 2008.
7. Zagritdinova F.B. Filosofsko-eticheskiy analiz problem sovremennoy biomeditsino' (na primere Respubliki Uzbekistan). Dissertatsiya. Dok. filos. nauk. – T.: 2006.
8. Qaxxarova Sh. Global ma'naviyat globallashuvning g'oyaviy asosi. –T.: Tafakkur, 2009.
9. Madaeva Sh. Milliy mentalitet va demokratik tafakkur. –T.: Falsafa va huquq, 2007.
10. Mahmudov T. Komillik asrorlari. Hayotiy hikmatlar. –T.: Adolat, 2006.
11. Ma'naviyat asosiy tushunchalar izohli lug'ati. –T.: G'.G'ulom nomidagi nashriyot – matbaa ijodiy uyi, 2009 yil.
12. Navro'zova T.N., Zoirov E.X., Yunusova T.S. Tasavvufda inson va uning kamoloti masalasi. – T.: Falsafa va huquq, 2006.
13. Muxammadjonova L.A. Ma'rifatparvar shoirlar – Dilshod Barno va Anbar Otinning axloqiy qarashlari. Dissertatsiya. Fals. fan.nom. – T.: 2005.
14. Nurmatova M.A. Shaxs ma'naviy kamolotida estetik va axloqiy va estetik qadriyatlar uyg'unligi. –T.: Universitet, 2009.
15. Ochilova B. Milliy-ma'naviy yuksalishda meros, qadriyatlar va vorisiylik. –T.: Istiqolol, 2009.
16. Otamurodav S. Globallashuv va millat. –T.: Yangi asr avlodi, 2008.
17. Tillaeva G. Ma'naviyat va komil inson tarbiyasi. –T.: Falsafa va huquq, 2006.
18. Umarov B. Globallashuv ziddiyatlari. – T., Ma'naviyat, 2006.
19. Falsafa: qomusiy lug'at. G' Q.Nazarov tahriri ostida. – T.: Sharq, 2004.
20. Xojiaxmedov A. Mahalla odobi. –T.: Sharq, 2001.

21. Xolmatova M. Oilaviy munosabatlar madaniyati va sog'lom avlod tarbiyasi. – T.: O'zbekiston, 2000.
22. Choriev A. Inson falsafasi. –T.: Chinor ENK nashriyoti, 2007.
23. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Hadis va hayot. Adab. – T.: Sharq 2008.
24. Quronov M. Milliy g'oya va o'zbek xarakteri. – T.: Ma'naviyat, 2005.
25. Yakubov Yu.M. Islom ta'limotida shaxs va jamiyat munosabatlari masalasi. Dissertatsiya. Fals. fan.nom. – T.: 2009.

## **16 MAVZU.ETIKET**

### **REJA:**

1. Etiket va uning axloqiy hodisa sifatidagi mohiyati.
2. Etiketning ijtimoiy funksiyalari. Etiket – zamonaviy madaniyatning tarkibiy qismi sifatida.
3. Etiketning sohaviylik tabiati.
4. Tajriba va manfaatdorlik ishbilarmon etiketining muhim omili. Ishbilarmon etiketiga zid xolatlar.

Etiket axloqiy madaniyatning yaqqol ko'zga tashlanadigan munosabatlar ko'rinishlaridan biri sifatida ko'proq insonning tashqi madaniyatini, o'zaro munosabatlardagi o'zini tutish qonun-qoidalarining bajarilishi boshqaradi.

Aslida etiket tushunchasining kelib chiqishi eramizdan avvalgi 2,5 - 3 ming yillikda Qadimgi Misrda paydo bo'lgan. Etiket (étiquette) atamasi esa XVII asrning oxirida vujudga kelgan. Ammo qadimgi manbalar etiket qoidalarini ta'biy, rasm-rusm hamda odatlar shaklida azaldan ibtidoiy davridayoq, qabilalarda mavjud bo'lganligini asoslaydi. Bunday qoidalarini to'liq bajarmaslik o'zi yashayotgan jamoat yoki qabilaga xiyonat qilish bilan barobar bo'lgan. Avvalida bunday qoidalar nafaqat axloqiy, balki huquqiy, iqtisodiy, diniy hamda qon-qarindoshlik munosabatlarni ham qamrab olgan edi. Jamoatning har bir a'zosi unga so'zsiz bo'ysunar edi. Shu tariqa etiket bu davrda mustaqil qoidalariga ega bo'lmagan, asosan jamoatning ijtimoiy muammolariga bog'liq holda tatbiq etilgan. Ya'ni bu qoidalar tabiiy jamoatning talabi bilan vujudga kelgan. Bunday talablarning bajarilishi qabila yoki jamoatning kattalari tomonidan nazorat qilinar edi.

Keyinchalik esa bu qoidalar mustaqil ravishda ajralib chiqib, faqatgina axloqiy me'yorlar darajasida ko'rila boshlandi. Qadimgi Sharqda, jumladan, Somir alqovlarida inson hatti harakatlarini tartibga soluvchi yozma yodgorliklarida – giltaxtalarda o'z aksini topgan. Kadimgi Misrda esa bu tartib qoidalar qonunlar majmui sifatida emas, balki badiiy adabiyotlar orqali namoyon bo'lgan. Bunday

qoidalar, ayniqsa Somirda ilohiylik bilan yo'g'rilgan. Ularni bajarmaslik Xudoning qahri bilan qaytarilishi ta'kidlangan. Qadimgi skandinaviya adabiy yodgorligi "Edda" eposida nafaqat dasturxon atrofida o'tirish qoidalari, balki hatto mezbon sharafiga tilak aytish me'yorlarini o'zida mujassam etganini asoslaydi.

Bu kabi xatti-harakatlar me'yorlari jamiyat taraqqiyotining yo'nalishini belgilab berar edi – yashash tarzi, odamlar dunyoqarashi, jamiyatdagi darajalarni farqlardi. Bu esa keyinchalik turmush etiketi, balki siyosiy etiketni vujudga kelishiga sabab bo'ldi. U butun bir jamiyat bilan birga o'zaro davlatlarning tashqi munosabatlarini ham belgilar edi.

Siyosiy etiketning vujudga kelishiga 1278 yilda Kadimgi Misr fir'avni hamda xett qiroli Xattush III bilan kumushga bitilgan yozma kelishuv asos bo'la oladi. Garchi Misr bunda mag'lubiyatga uchragan bo'lsada, qiroi uchun Misr kabi davlat bilan hamkorlik qo'l kelar edi. Shu tarzda kelishuvning imzolanishi diplomatik etiketning (siyosiy etiket) boshqa etiket turlaridan ancha avvalroq paydo bo'ldi, desak, adashmagan bo'lamiz. Zotan, davlatlararo munosabatlardagi qabullar qadimgi Misr uchun katta ahamiyat kasb etgan. Zero bunday qablullar juda katta dabdaba va va haddan ziyod qoidalar va rusmlar bilan amalga oshirilar edi. Keyinchalik bunday qabullar boshqa davlatlarda ham amalga oshirila boshlandi.

Qadimgi Yunonistonda esa elchilar maxsus "Germes nishonlari" deb nomlangan vakillik nishonlarini o'zlari bilan olib yurganlar. Elchilar xalqaro etiketning bilimdonlari sifatida, ushbu yurtda qabul qilingan siyosiy qonun-qoidalarni qay darajada bilishlari kelishuv bitimining taqdirini hal qilgan. Qadimgi Rimda esa siyosiy etiket yanada ustunlikka ega bo'lgan. Misol uchun, elchilar qabulining avvali ziyofatlar bilan boshlanib, tashrifni tugallanishida esa ikkitomonlama sovg'a hadya qilish bilan yakunlangan.

Shu tarzda oqsuyaklarni oddiy fuqaro va ulardan pastroq darajada bo'lgan insonlarni farqlay bilish uchun alohida odamlarni o'zini a'lo jamoatda tutishning tartib qoidalari paydo bo'ldi. 1207 yilda ispaniyalik Petrous Alfonsi muallifligida ilk bor "O'zini tutish qoidalari" deb nomlangan kitob paydo bo'ldi. Albatta, bu izlanishlar qadimgi Turon hamda Eronzaminda bunday yodgorliklar bo'lamagan, degan fikrni bildirmaydi. Zotan bunda pandnomalarning o'rni beqiyos. Ammo shuni aniqlash zarurki, milliy o'zligimizni anglash bilan bog'liq bu ilmiy atamalar juda ko'p chalkashtirilib tushunilishi yoki targ'ib qilinishi natijasida ko'pgina noaniqliklarni vujudga keltiradi. Aytaylik, axloq bilan xulq va odobni, odob bilan etiketni bir ma'noda tushunish xollari uchraydi. Aslida bu tushunchalar bir-biridan ham nazariy, ham amaliy, ham qo'llanish jihatidan farqlanadi.

Etiketga keladigan bo'lsak, odob qoidalari etiket qoidalaridan ustun hisoblangan. Zero odob rasm-rusmlar – asosan tashqi ta'sirga emas, balki ichki jihatlarga – insoniyligni, xulq va axloqiylik uchun asos sifatida qaratilgan. Ya'ni

etiket “muhimi qandayligi emas, balki boshqalar uchun qanday ko’rinishda” shiori ostida o’zini yo’qotib qo’ymaslik, aslzodalikning mavjudligini ko’rsatishga intilish va shu bilan jamoatchilikda ijobiy taassurot qoldirish bilan bog’liq bo’lgan. Odob insonlararo munosabatlarni axloqiylashtirish hamda uni axloqiy anglash orqali takomillashadigan tashqi va ichki go’zallik uyg’unligi sifatida namoyon bo’ladi. Shu ma’noda, “Odob – inson haqida yoqimli taassurot uyg’otadigan, lekin jamoa, jamiyat va insoniyat hayotida burilish yasaydigan darajada muhim ahamiyatga ega bo’lmaydigan, milliy urf-odatlariga asoslangan chiroyli xatti-harakatlarni o’z ichiga oladi” Bundan tashqari, odob insonlarni ranjitmaslik, Jan Pol Sartr aytganidek, erkin jamiyatda erkin bo’lish, ya’ni boshqalarni erkini ta’minlashga, odamlarni axloqiylikka, ular orasida munosabatlarni yaxshilashga qaratilgan. Ushbu atamalarning ilmiy asosiga murojaat qilsak, ularning mazmun-mohiyati yanada aniqroq namoyon bo’ladi. Shu ma’noda etiket birinchidan, inson va jamiyat o’rtasida munosabatlarning qaysi axloqiy mezonlarga asoslanishini belgilasa, ikkinchidan, siyosat va ijtimoiy voqelikni bir-biri bilan “murosayu – madora” qilishga chaqiruvchi tarbiya vositasi sifatida namoyon bo’ladi.

Garchi bu ikki soha insoniy munosabatlarini go’zallashtirishga qaratilgan bo’lsa-da, ularning rivojlanishi individual xarakterga ega. Chunonchi, insonlararo munosabatlarda Sharq e’tiborni odob va axloqqa qaratib, uni pandnomalar orqali rivojlantirgan bo’lsa, G’arbda esa etiket qoidalari diplomat munosabatlardagi hatti-harakatlarga asoslanadi. Bu borada 1716 yilda Hamburgda nashr etilgan Montesning “Yuqori tabaqali insonlar va ayollar bilan qanday mulozamat qilish hamda ayollarning bizga nisbatan o’zini qanday tutishi haqidagi kitob” deb nomlangan kitob misol bo’ladi. Unda turli tantanali qabullarning etiket bilan bog’liq barcha murakkabliklari tasnif qilingan.

O’rta asrlarga kelib etiket koidalari cherkov talablari asosida belgilandi. Ruhoniylarning inson munosabatlarini boshqarishga bo’lgan intilishi boshqa sohalar kabi etiket qoidalari asosida munosabatlar tizimida turg’unlikni paydo qildi. Ammo yangi davrga kelib G’arbda etiket rivojlana boshladi. Yuqori tabaqali kishilarning moliyaviy imkoniyatlarini yo’naltirish, ularning jamoatda o’z o’rniga ega bo’lishiga doir etiketning qoidalari takomillashdi. Yigitlarning uylanishi va qizlarnig turmushga chiqishi yoki moddiy imkoniyatlari kam yigitning o’z mavqeini tiklab olish uchun etiket juda katta ahamiyat kasb eta boshladi, xatto dasturxon atrofida o’zini tutish etiketi siyosiy darajaga ham etdi. Biroq, bu kabi munosabatlarda me’yorning buzilishi G’arb ziyolilarini g’ashini keltira boshladi. Sharqda esa bu masalalarning barchasi axloqiy mezonlar asosida rivojlantirildi. Misol uchun musulmon Sharqida taom tanovul qilish paytiga kelib qolgan mehmon mezbbonni rad etishi, Alloh bergan rizqdan voz kechish, o’zini Xudodan ustun deb hisoblash deb tushunilar edi. Ya’ni taom tanovul qilish ham ma’lum ma’noda o’ziga xos ibodat

hisoblandi. Chunki inson kim ekanligini, hayotning mayda-chuyda tashvishlarini, muhimi asosiy maqsad – o'z-o'zini anglashni unutib qo'ymaslik, tanovul paytida unga rizq bergan Zotning erdagi ajoyibotlari, borliq borasidagi mushohadaga chorlashi lozim edi. G'arbda esa, taomga taklif qilingan mehmon taklifni qabul qilishdan avval bashang va yuksak did bilan kiyingan bo'lishi shart edi. Agar mehmon taklifni qabul qilsayu, yuqoridagi qoidani unutsa, bu xolat mezbonga nisbatan haqorat tarzida qabul qilinishi mumkin edi. Ya'ni, kiborli jamiyatga "arziydigan" inson bo'lishdan "toyilish" shu jamiyatga qarshi borish bilan barobar bo'lgan.

Shuning uchun etiket qoidalarini buzuvchi mayda-chuyda jihatlar, arzimagan xatolar kechirilmas va kelajakka qattiq ta'sir qilar edi. Bu esa Evropaning yuksak darajadagi kiborli jamiyatida yashab ketish oson emasligini va faqatgina a'lo insonlargina bu borada ijobiy natijalarga erishadilar, degan ma'noni anglatar edi. Bunday talablar keyinchalik bir qator olimlarni yillar davomida etiketga qarshi borish va uni deyarli yo'qqa chiqarishga intilishiga sabab bo'ladi. Zero, o'rta asrlarda cherkov aqidolari paydo qilgan turg'unlik bu paytga kelib sekin-asta o'z ta'sirini yo'qota boshlagan, ijtimoiy munosabatlar tizimida Sharqning axloqiy qadriyatlariga asoslana boshlagan edi. Shuning uchun axloqiy tarbiya masalasini etiket qoidalaridan yuqori turishini nazariy jihatdan asoslashga harakat qilindi. Masalan, ruhiy tahlil falsafasi bu borada o'ziga xos yondoshuvni vujudga keltirdi.

Bu borada Sigzmund Shloma Froyd ta'limotiga ko'ra, bolalik davrini oshidan o'tkazgan inson o'zi yashab turgan jamiyatning axloqiy hamda estetik mezonlari bilan hisoblashishga majburdir. Mayllarning o'ziga xos kompensatsiyasi esa bolalikdan odamlarda xayol o'yiniga berilishni kuchaytiradi, keyinchalik ular xayolotga, kuchli ishtiyoqqa aylanadi. Bu masalalarni Froyd «Shoir va xayolot» va «Ruhiy tahlilga kirish. Ma'ruzalar» degan asarlarida izohlab beradi. Uning nazdida xayolot manbai onglanmaganlikda mavjud, onglanmaganlik – inson ruhi quvvatining makoni. Inson bolalikdanoq tashqi olam cheklovleri hamda jamiyat ta'qiqlari bilan hisoblashishga majbur bo'lar ekan, uning istaklari tufayli vujudga kelgan o'zaro ziddiyatlardan qutulish yo'li bu – xayolot va uning asosida vujudga keluvchi san'at. Xayolotning paydo bo'lishi nevroz va psixoz atalmish ruhiy kasallikka sharoit yaratadi, zero u keyinchalik turli ruhiy kasalliklarga olib boruvchi onglanmaganliknini onga kuchli ravishda yopirilishdan saqlaydi. Jamiyat inkor qiluvchi istak-mayllarning shaxs «men»idan siqib chiqarilishi albatta, uning ruhiyatiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Bu esa inson ixtiyor erkinligi, uning tanlovini hurmat qilishga, erkinlikni vasf qilishga olib keldi hamda etiket avvalgidek nufuzdagi hayot-mamot darajasidagi amal emas, balki jamiyatda shunchaki xulq-atvorni to'g'ri yo'lga solishga intiladigan soha darajasiga tushdi.

Etiketning mohiyatini tushuntirar ekan, faylasuf Abdulla Sher “Etiket – takallufning mayda-chuyda jihatlarigacha ishlab chiqilgan odob qoidalari sifatida ijobiy, kishining ko’zini quvontiradigan muomala hodisasi. Lekin ayni paytda, u asl axloqiy asosini yo’qotgan majburiy mulozamat tarzida ham namoyon bo’ladi: etiket qoidalarini bajarayotgan kishi aslida o’z xohish-ixtiyoriga qarshi ish ko’rayotgan bo’lishi ham mumkin”, degan fikrni bildiradi.

Axloq-odob qoidalar majmuiga, pandnomalarga ega bo’lgan Sharq kishisida “bizga etiketni o’rganishning nima zaruriyati bor”, degan savol tug’ilishi tabiiy. Bu borada etiketni fan sifatida o’rganish, qolaversa, ijtimoiy-maishiy turmush tarzi sog’lomlashtirishga yo’naltirilgan metodologik, axloqiy, iqtisodiy asoslar mavjud. Shuningdek, etiketning muhim ahamiyati shundaki, diplomatik, biznesmen, rasmiy qabullar va tashriflar kabi zamonaviy etiketlardan tashqari, milliy etiket ko’rinishlari ham mavjud. Ular milliy qadriyatlarni saqlab qolish, ularga nisbatan hurmat va ehtirom bilan munosabatda bo’lishga chorlaydi. Bu o’ziga xos axloqiy-estetik xususiyat kasb etadi. Ya’ni, unda odob bilan go’zallikning uyg’unligini ko’rishimiz mumkin, qat’iy odob qonun-qoidalari chiroyli xatti-harakatlar vositasida amalga oshiriladi.

Avvalo etiket mumtoz etika fanining axloqiy madaniyat ruknidagi sohasi sifatida o’tib kelinadi. Ammo axloqiy tafakkur rivoji axloqiy muammolarning zamonaviy masalarini tadqiq qilishi natijasida kengaya boshladi. Bu holat natijasida etiketni etika fanining alohida qismi tadqiq etishni taqozo qilmoqda. Qolaversa, o’tgan asrning oxiriga kelib dunyo ijtimoiy-ma’naviy manzarasining o’zgarishi va axloqiy qadriyatlarga munosabatdagi “zamonaviylik” ba’zi axloqiy qadriyatlarni noto’g’ri tushunilishi yoki ularga mensimaslik bilan munosabatda bo’lish kabi salbiy holatlarni vujudga keltirmoqda. Ayniqsa, insonlararo muomala va muloqotdagi qo’pollikni – to’g’rilik, kibr va riyoni – qadr-qimmat, odobsizlikni – erkinlik, nomardlik, hiyla va haromni – uddaburonlik, kattalarga nisbatan hurmatsizlikni – mustaqil fikrga egalik, madaniyatsizlikni – dangallik deya qabul qilish achinarli holdir. Bundan tashqari, yuqoridagi salbiy holatlar har tomonlama barkamol avlodni shakllantirish, iqtisodiy jihatdan barqarorlikka ega bo’lish, axloqiy munosabatlarni tartibga solish, o’z sohasining ustasi sifatida jahon mutaxassislari bilan bimalol raqobatlasha oladigan kadr bo’lib etishish yo’lida olib boriladigan ishlarga ham monelik qiladi.

Shuni ta’kidlash zarurki, axloqiy tafakkur etiketni o’z-o’zicha axloqiy anglashning muhim xususiyatlariga hamda axloqiy tamoyillar, me’yorlar, tushunchalarsiz qabul qilib uni ijtimoiy hayotga to’g’ridan-to’g’ri qo’llash bilan kutilgan natijani bermaydi. Chunki hozirgi zamon etiket mezonlari, qoidalari va talablari barcha ijtimoiy hayot sohalarni qamrab olmoqda. Bugungi etiket etiket inson axloqiy munosabatlarini himoyalaydi. Biroq, etiketning axloqiy talabi

hisoblangan nazokat, takalluf, iltifotda samimiylik, ya'ni botiniy axloqning bo'lmasligi yoki sustligi amalga oshirilgan harakatlarni oqlamaydi. Shu ma'noda, bu yo'lda yuksak axloqiy bilim va dunyoqarashga ega bo'lmay turib, kutilgan natijaga erishish qiyin. Zero, ulug'lar aytganidek, "Vaqtiki ma'lum bo'ldi, har kishiga ul ilmni bilmak vojibdurkim, qilur amalida ul ilmga hojatmand bo'lg'ay. Bas, bilgilki, omi(lar) hamisha xatardadurlarkim, agar bir amalni qilmoqni xohish qilsalar, ul amal ilmini bilmagay..."

Etiketning qoidalari – odobga, odob – hushxulqqa, xushhulq - axloqiylikka olab boradi. Binobarin, axloq – jamiyat, zamon, ba'zan umumbashariy ahamiyatga ega, insoniyat tarixi uchun namuna bo'la oladigan ijobiy xatti-harakatlar yig'indisi, insoniy kamolot darajasini belgilovchi ma'naviy hodisa sifatida nafaqat shaxsni, balki butun bir jamiyat taraqqiyoti uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bois etiketni bugungi kunga kelib texnika asri kishisining zamon talablariga javob beradigan madaniy maishiy turmush tarzini go'zallashtirishga, o'zaro munosabatlar tizimini madaniylashtirishga xizmat qiluvchi fanning yangi tarmog'i deyish mumkin.

Etiket tushunchasining kelib chiqishi eramizdan avvalgi 2,5 - 3 ming yillikda Qadimgi Misrda paydo bo'lgan. Etiket (étiquette) atamasi esa XVII asrning oxirida vujudga kelgan. Ammo qadimgi manbalar etiket qoidalari ta'b, rasm-rusm hamda odatlar shaklida azaldan ibtidoiy davridayoq, qabilalarda mavjud bo'lganligini asoslaydi. Bunday qoidalarni to'liq bajarmaslik o'zi yashayotgan jamoat yoki qabilaga xiyonat qilish bilan barobar bo'lgan. Avvalida bunday qoidalar nafaqat axloqiy, balki huquqiy, iqtisodiy, diniy hamda qon-qarindoshlik munosabatlarni ham qamrab olgan edi. Jamoatning har bir a'zosi unga so'zsiz bo'ysunar edi. Shu tariqa etiket bu davrda mustaqil qoidalariga ega bo'lmagan, asosan jamoatning ijtimoiy muammollariga bog'liq holda tatbiq etilgan. Ya'ni bu qoidalar tabiiy jamoatning talabi bilan vujudga kelgan. Bunday talablarning bajarilishi qabila yoki jamoatning kattalari tomonidan nazorat qilinardi.

Keyinchalik esa bu qoidalar mustaqil ravishda ajralib chiqib, faqatgina axloqiy me'yorlar darajasida ko'rila boshlandi. Qadimgi Sharqda, jumladan, Somir alqovlarida inson hatti harakatlarini tartibga soluvchi yozma yodgorliklarida – giltaxtalarda o'z aksini topgan. Kadimgi Misrda esa bu tartib qoidalar qonunlar majmui sifatida emas, balki badiiy adabiyotlar orqali namoyon bo'lgan. Bunday qoidalar, ayniqsa Somirda ilohiylik bilan yo'g'rilgan. Ularni bajarmaslik Xudoning qahri bilan qaytarilishi ta'kidlangan. Qadimgi skandinaviya adabiy yodgorligi "Edda" eposida nafaqat dasturxon atrofida o'tirish qoidalari, balki hatto mezbon sharafiga tilak aytish me'yorlarini o'zida mujassam etganini asoslaydi.

Bu kabi xatti-harakatlar me'yorlari jamiyat taraqqiyotining yo'nalishini belgilab berardi – yashash tarzi, odamlar dunyoqarashi, jamiyatdagi darajalarni

farqlardi. Bu esa keyinchalik turmush etiketi, balki siyosiy etiketni vujudga kelishiga sabab bo'ldi. U butun bir jamiyat bilan birga o'zaro davlatlarning tashqi munosabatlarini ham belgilar edi.

Siyosiy etiketning vujudga kelishiga 1278 yilda Kadimgi Misr fir'avni hamda Xett qiroli Xattush III bilan kumushga bitilgan yozma kelishuv asos bo'la oladi. Garchi Misr bunda mag'lubiyatga uchragan bo'lsada, qiroi uchun Misr kabi davlat bilan hamkorlik qo'l kelar edi. Shu tarzda kelishuvning imzolanishi diplomatik etiketning (siyosiy etiket) boshqa etiket turlaridan ancha avvalroq paydo bo'ldi, desak, adashmagan bo'lamiz. Zotan, davlatlararo munosabatlardagi qabullar qadimgi Misr uchun katta ahamiyat kasb etgan. Zero bunday qabullar juda katta dabdaba va va haddan ziyod qoidalar va rusmlar bilan amalga oshirilar edi. Keyinchalik bunday qabullar boshqa davlatlarda ham amalga oshirila boshlandi.

Qadimgi Yunonistonda esa elchilar maxsus "Germes nishonlari" deb nomlangan vakillik nishonlarini o'zlari bilan olib yurganlar. Elchilar xalqaro etiketning bilimdonlari sifatida, ushbu yurtda qabul qilingan siyosiy qonun-qoidalarini qay darajada bilishlari kelishuv bitimining taqdirini hal qilgan. Qadimgi Rimda esa siyosiy etiket yanada ustunlikka ega bo'lgan. Misol uchun, elchilar qabulining avvali ziyofatlar bilan boshlanib, tashrifni tugallanishida esa ikki tomonlama sovg'a hadya qilish bilan yakunlangan.

Shu tarzda oqsuyaklarni oddiy fuqaro va ulardan pastroq darajada bo'lgan insonlarni farqlay bilish uchun alohida odamlarni o'zini a'lo jamoatda tutishning tartib qoidalari paydo bo'ldi. 1207 yilda ispaniyalik Petrous Alfonsi muallifligida ilk bor "O'zini tutish qoidalari" deb nomlangan kitob paydo bo'ldi. Albatta, bu izlanishlar qadimgi Turon hamda Eronzaminda bunday yodgorliklar bo'lamagan, degan fikrni bildirmaydi. Zotan bunda pandnomalarning o'rni beqiyos. Ammo shuni aniqlash zarurki, milliy o'zligimizni anglash bilan bog'liq bu ilmiy atamalar juda ko'p chalkashtirilib tushunilishi yoki targ'ib qilinishi natijasida ko'pgina noaniqliklarni vujudga keltiradi. Aytaylik, axloq bilan xulq va odobni, odob bilan etiketni bir ma'noda tushunish xollari uchraydi. Aslida bu tushunchalar bir-biridan ham nazariy, ham amaliy, ham qo'llanish jihatidan farqlanadi.

Qadimgi Sharqda, jumladan, Somir alqovlarida inson hatti harakatlarini tartibga soluvchi yozma yodgorliklarida – giltaxtalarda o'z aksini topgan. Kadimgi Misrda esa bu tartib qoidalar qonunlar majmui sifatida emas, balki badiiy adabiyotlar orqali namoyon bo'lgan. Bunday qoidalar, ayniqsa Somirda ilohiylik bilan yo'g'rilgan. Ularni bajarmaslik Xudoning qahri bilan qaytarilishi ta'kidlangan. Qadimgi skandinaviya adabiy yodgorligi "Edda" eposida nafaqat dasturxon atrofida o'tirish qoidalari, balki hatto mezbon sharafiga tilak aytish me'yorlarini o'zida mujassam etganini asoslaydi.

Bu kabi xatti-harakatlar me'yorlari jamiyat taraqqiyotining yo'nalishini belgilab berar edi – yashash tarzi, odamlar dunyoqarashi, jamiyatdagi darajalarni farqlardi. Bu esa keyinchalik turmush etiketi, balki siyosiy etiketni vujudga kelishiga sabab bo'ldi. U butun bir jamiyat bilan birga o'zaro davlatlarning tashqi munosabatlarini ham belgilar edi.

Biznes iqtisodiy axloqiy asosga tayanadi. Kommertsiyadagi tadbir biznesida etiket nihoyatda muhim ahamiyatga ega, modomiki, u kompaniyalar o'rtasidagi hamkorlikning davomiyligini va tuzilgan bitimning omadliligini belgilab beradi. Hamkorlikning umumqabul qilingan qoidalarni buzish mumkin emas. Ishdagi qaltislik qonunni hatlab o'tishdagi qaltislik bilan hech qanday aloqasi yo'q. Muvaffaqiyatli tadbirkorlikning asosiy muruvvati – tajriba natijalaridir: olingan daromadlar, kasbiy qoniqish, jamiyatda, sheriklar oldida ijobiy nufuzga ega bo'lish, firma yoki tashkilotning mustahkamlash uchun pul jamg'armasini yaratish. Tadbirkorlardagi axloqiy-ruhiy tayyorgarlikka ega emaslik, tezda pul topish ilinjida savodsiz intilishlar, pullarga noto'g'ri munosabat, firmaning raqobatbardoshligini oshirish va mustahkamlash uchun firmaning daromadidan foydalanishning muhimligini anglamaslikda namoyon bo'lishi mumkin. Bular marketing ma'lumoti hajmining juda kamligi; firmalar to'g'risidagi ma'lumotlarning, sheriklarni topishdagi informatsion mexanizmlarning yo'qligi; muvaffaqiyatsiz reklama; iste'molchi va haridor talablari borasidagi ma'lumotlar to'plamiga ega bo'lmaslik; rivojlanmagan ish munosabatlarining texnologiyasi; ish bayonnomasi, savdo muomalasi odobiga rioya qilmaslik; sheriklarning milliy va hududiy ruhiyatining xususiyati borasida mo'rt nishonga ega bo'lish; atamalar va til masalasida qiyinchiliklar; chet tillarini bilmaslik; biznes, menedjment, marketing, kommertsiya, bank ishlari doirasida aniq tushunchalar asosiga ega bo'lmaslik; hujjatlarni rasmiylashtirishdagi qiyinchiliklar; mutaxassislar va tadbirkorlar qo'llaydigan ilmiy - texnik atamalarining eskirganligidir. Hayot fazosi bo'lmish bozor taraqqiyotini o'zlashtirar ekanlar, tadbirkorlar bir narsani bilishlari lozim: bozor tuzilmasiga kirishga intiq bo'lgan tadbirkorlardan faqat 10-15 foizigina muvaffaqiyatga erishadilar. Muvaffaqiyatga faqat o'zining ijodiy jihatdan iste'dodini ifodalash hissi kuchli bo'lgan, doimo odamlarni, ularning ehtiyojlari va qiziqishlarini o'rganadigan, odamlarning ishonchini qozonishga intiladigan, vijdonli va axloqli, tinimsiz ma'naviy hamda kasbiy komillikni o'zida namuna sifatida ko'rsatadigan, va oxir-oqibat, boshqaruv mahoratining yuqori ko'rsatkichi bo'lmish – odamlardagi intellektual faoliyatni ocha biladigan odamlargina erishadilar. Bu haqiqiy tadbirkorning xususiyatlaridir.

Oxirgi yillarda ko'pgina tashkilot va muassasalar to'g'ridan-to'g'ri tashqi bozorga chiqish huquqiga ega bo'ldilar, savdo, iqtisodiy va ishlab chiqarishda turli mamlakatlarning firma va tashkilotlari bilan to'g'ridan-to'g'ri aloqa qilishga yangi

imkoniyatlar ochildi, shu bilan birga ilmiy izlanishlar doirasida, tadqiqotlar va texnologiya almashinuvi, professional kadrlarni tayyorlashda keng aloqalar yaratildi. Mamlakatlarning ba'zi miliy va ruhiy xususiyatlarini bilish tadbirkorlarga har bir erda uning qonunlariga mos tarzda o'zini tutishiga yordam beradi va eng asosiysi – nazarda tutilgan tashkilotda muvaffaqiyat qozonadi.

*80-yillarda biznes etiketi 3 ta asosiy yo'nalishga ajralgan:*

- Filantropiya etiketi - yaxshi o'tadigan va biznesni xayrli xarakatlarni amalga oshirishga turtki beradigan yaxshi natijalarga erishishini ta'minlaydi.
- Adolatlilik etiketi- firma hamkorlari o'rtasida ishonchlilik va tenglikni ta'minlaydi.
- Shaxsiy avtanomiya etiketi- boshqa sub'ektlar - biznes bo'yicha hamkorlar, klient va konkurentlar huquqlarini hisobga oladigan asosiy ahloqiy qoidalarga yo'naltirilgan

Biznes – jiddiy hatti-harakatlar sferasi va u jiddiy va asoslangan bilimlarga shuningdek, biznes-etiketga tayanadi. Biznes-etiket hamkorlarning suxbat chog'ida yomon va noqulay vaziyatlardan asraydi.

“U yoki bu insonning uning iqtisod bilan bog'liq ishlarining 15 foizi uning professional bilimlariga, 85 foizi esa odamlar bilan muloqot qila olish qobiliyatiga bog'liq”, – deb hisoblaydi Deyl Kornegi.

Piter Koostenbaum “Biznes falsafasi” kitobida “Biznesning yuragi – etiket, xokimiyat va falsafa” deb yozgan edi. Va quyidagilar firmaning uzoq muddatli yutuqlarga erishishiga turtki bo'ladi deb hisoblaydi.

- Foyda
- Odamlar (moral)
- Tovar va xizmatlar
- Prestij

Ish kunimiz qachon boshlanmasin, uning boshlang'ich asosi uy sharoitidan: kayfiyatimiz, o'zimizni qanday his qilishimiz, ko'proq qanday hordiq chiqarib, oiladagi munosabatlarga va h.k. bog'liqdir. Chiroyli tabassum va ertalabki salom-alik er-xotininng yaxshi kayfiyatda bo'lishida kuchli ta'sirga ega. Ammo kayfiyat keyinroq ham buzilishi mumkin – yo'lda, shahar transportida. Avtobus, vaq tig'iz bo'lgan paytda tramvay va trolleybuslardagi tiqilinch – asabga tegishga, va o'z yo'lida kayfiyatni buzilishga sabab bo'lishi mumkin. Bunday sharoitda kayfiyatni buzmaslik mumkinmi? Ha, mumkin. Har qanday cho'g' olishi mumkin bo'lgan janjalni mutoyiba, tabassum bilan o'chirish mumkin. Har qanday sharoitda o'z hatti - harakatni boshqarishga intilish lozim. Xushmuomalali, tavoze'li bo'lish, odamlarga tabassum qilish ham insonning o'zida, ham boshqalarda yaxshi kayfiyatni ushlab turishga sabab bo'ladi.

Muassasa xonasiga kirayotgan kishi eshikni taqillatmasligi kerak – bu faqat ish bilan band bo'lgan odamlarning asabiga tegib, diqqatini bo'ladi. Odatda rasmiy muassasaning eshigi taqillatilganda raddiya hech qachon bildirilmaydi. Rahbar xonasining eshigini agar kotiba bo'lmasa, taqillatish lozim. Agar rahbar eshikni taqillatmay kirishni shama qilsa, bu qoidaga bo'ysungan ma'qul.

Majlislar, yig'ilishlar – agar uning ishtirokchilari behuda chiqishlar bilan boshqalarning vaqtini olmasa, foydalidir. Tor doiradagi majlisda, agar begonalar bo'lmasa bir – biriga erkinroq munosabatda bo'lish mumkin. Majlis paytida o'g'rincha konfet so'rish yoki esnash mumkin emas. Erkaklar faqat rais ustki kostyumini echgandagina, o'zlarining kostyumlarini echishlari mumkin. Yon verida o'tirgan kishi bilan bir og'iz gap bilan so'zlashib olish mumkin, ammo suhbat olib borish yaramaydi.

Sizning kasbdoshingiz ko'p chekadi. Unda u xonaning tez-tez shamollatilishiga norozilik bildirmasligi kerak. Yoki uning o'zi buni nazoratga olishi lozim. Chekuvchilar yashash huqiqa ega, ammo chekmaydiganlar bu huqudan mahrum degani emas. Xodimlardan biri davo uchun ko'p sarimsoq piyoz iste'mol qiladi. Ammo, boshqalar bunga chiday olmaydilar. Agar davolash uslublarini xush ko'radigan bunday shaxs «dori» ning hidini ketkazadigan narsalardan foydalanmas ekan, unda bunday davolash uslubidan voz kechishiga to'g'ri keladi.

Xodimlar ichida ozodalikning «kasallari» bo'ladi. Ular hamisha bir nimani tozalash, artish bilan shug'ullanadilar. Ozodalikning ortiqcha mazamati uning aksi bo'lmish yuvinishga ko'p vaqt ajratmaydiganlar kabi yoqimsiz his uyg'otishi mumkin. Agar bu ayol yosh bo'lsa, suv mo''jizalar yaratish qudratiga ega ekanligiga ishora qilish mumkin. Yoshi kattaroq odamga bunday deyish noqulay.

Diplomatik etiket – bu diplomatlar va boshqa rasmiy shaxslarning bir-biri bilan diplomatik tadbirlarda bo'ladigan muloqotlari chog'ida amal qiladigan yaxshi xulklarining qoidalari.

Diplomatik etiket shakllanish jarayonida umumiy etiket qoidalariga tayanadi, shu bilan birga diplomatik normalar va qoidalar biznes etiketi amaliyotida va umumiy etiket qoidalarida o'z aksini topadi. Ushbu qoidalarni buzilishiga yo'l qo'yish mumkin emas, oddiy takallufning munosabatlarda qo'llanmasligi diplomatik etiketda hurmatsizlikka tenglashtiriladi va xalqaro va millatlararo ziddiyatlarni keltirib chiqarishga qodir.

Etiket qoidalariga ayniqsa, diplomatlar tomonidan rioya qilinishiga katta e'tibor qaratiladi, chunki bu qoidalarning buzilishi yoki bajarilmasligi mamlakat eki uning rasmiy vakillari nufuziga putur etkazishi va buning natijasida mamlakatlar o'rtasidagi aloqalarning buzilishiga olib kelishi mumkin.

Diplomatik etiket turli-tumandir. U o'z ichiga uchrashuvlar, o'zaro salom almashish, tabrik yo'llash, qabul marosimlarini o'tkazish, tashriflarni amalga

oshirish, suhbat va muzokaralar olib borish etiketi va diplomatik tseremonialni qamrab oladi.

Diplomatiya — bu o'zaro kelishuvlar, bitim va konventsiyalar tuzish san'atidir. Ushbu natijalarga uchrashuvlarning muvaffaqiyatli yakunida erishiladi.

Diplomatik uchrashuvlar o'zining belgilangan reglamenti, etiketi va ko'pincha o'z protokoli bilan ajralib turadi. Buning asosiy sababi shundan iboratki, diplomatik uchrashuvlarning qatnashchilari diplomatiya kabi nozik faoliyatning asosini tashkil etuvchi subordinatsiya qoidalari va professional cheklanishlarga qat'iy rioya qiladilar.

Uchrashuvlar o'zaro salom almashish bilan boshlanadi. Salomlashish turlari har xil bo'ladi. Horijiy mamlakatlarda uzoq safarda bo'lgan kishi bu mamlakatning milliy udum va qonun-qoidalarini o'z mamlakati urf-odatlariga bilan taqqoslaydi. Misol uchun, shuni ta'kidlash lozimki, musulmonlar uchun Shariat qonunlariga binoan ayol va erkak kishining qo'llari, agar ular qarindosh bo'lmasa, hatto bir-biriga tegib ketishi ham qat'iy man etiladi.

Biror-bir kishi sharafiga qabul marosimini tashkil etayotgan paytda yoki uni mehmonga taklif etayotgan hollarda, mehmon qaysi dinga e'tiqod qilishini bilish zarurdir. Islom dini qoidalariga ko'ra spirtli ichimliklarni iste'mol qilish qat'iy man etiladi. Hindulik dini qoidalariga asosan esa taomlar vegetarian turida bo'lib, zinhor mol go'shtidan tayyorlanmagan bo'lishi lozim.

Diplomatik salom almashish qoidalari umumqabul qilingan salom almashish qoidalaridan deyarli farq qilmaydi.

Avval tanishtirilishi kerak bo'lgan kishining ismi-sharifi aytiladi, so'ngra kimga tanishtirilayotgan bo'lsa, uning ismi-sharifi. Kichik yoshli kishini katta yoshli kishiga, erkak kishini ayol kishiga, lavozim jihatidan past kishini lavozimi jihatidan baland kishiga tanishtiriladi.

Tanishtirilayotgan kishi, agar erkak kishi bo'lsa, boshini biroz egib ta'zim qiladi, ayol kishi esa boshini biroz egib qo'yish bilan kifoyalanadi.

Agar ayol kishi uni qiziqtirayotgan kishi bilan tanishish niyatida bo'lsa, u ikkalasiga tanish bo'lgan kishini tanishtirish haqida iltimos qilishi mumkin. Ikkalasiga tanish bo'lgan kishi, ularning qiziqish doirasidan kelib chiqqan holda, suhbat qurishga yordam beradi.

O'tirgan holda boshni egib ta'zim qilish deyarli noqulay bo'lgani uchun erkak kishi tanishayotgan paytda o'rnidan turishi lozim. Ayol kishi esa aksincha, o'z o'rnidan turmasligi lozim. Ayol kishiga yoshi undan katta ayol tanishtirilayotgan bo'lsa yoki u tanishtirilayotgan kishi haqida o'zining alohida fikrini izhor qilmoqchi bo'lgan hollar istisnoni tashkil etadi. Ushbu hollarda u o'rnidan turib salomlashish uchun qo'l uzatishi mumkin.

Erkak kishi bilan tanishayotgan hollarda ayol kishi agar o'zi uchun bu narsani o'rinli deb topsa, salomlashish uchun qo'l uzatadi, aks hollarda boshini biroz egib salomlashish bilan kifoyalanadi. Qolgan hollarda yoshi kattaroq bo'lgan kishi salomlashish uchun qo'lini birinchi uzatadi.

Xonaga kirib kelayotgan kishi birinchi bo'lib yig'ilganlar bilan salomlashadi. Birinchi bo'lib ketayotgan kishi yig'ilganlar bilan hayrlashadi.

Biror-bir kishini boshqalarga tanishtirayotgan paytda nafaqat uning to'liq ismi-sharifini aytish bilan cheklanish kerak, balki bu shaxsga xos fazilatlar haqida qisqacha gapirib o'tilsa, suhbat davom etishi uchun zamin ham yaratiladi va yangi tanishganlarning fikr almashishi biroz osonlashadi.

Agar diplomatik qabul marosimida yoshi va lavozimi teng bo'lgan ikki kishini tanishtirish kerak bo'lsa, yaqinroq turgan yoki nisbatan tanish bo'lgan kishini birinchi tanishtirish lozim. Agar tanishtirilayotganlar ichida biri mashhur kishi bo'lsa, unga ikkinchisini tanishtirish bilan chegaralanib qolish mumkin.

Amaliy yoki protokol uchrashuvlari (ehtiyom yuzasidan tanishuv yoki hayrlashuv uchrashuvlari) davomida suhbat olib boriladi. Suhbat ko'p vaziyatlardan kelib chiqib, reglamentga buysunmaydi. Ammo uchrashuvga tashrif buyuruvchilar ham, ularni qabul qiluvchilar ham o'zlari uchun taalluqli bo'lgan ba'zi bir qoidalarini e'tiborga olishlari darkor. Chunonchi, ehtiyom yoki protokol tashrifi uncha uzoq emas, ya'ni 20, ko'pi bilan 30 daqiqadan oshmasligi zarur.

Diplomatik tseremonial (tantana marosimlari) xilma-xil, murakkab, nozik tomonlari mavjud bo'lgan tseremonial hisoblanadi.

Diplomatik irotokol talablarining rivojlanishi urf-odatlar, davlatchilik va umumqabul qilingan xulq-atvor qoidalarini o'zida aks ettiradi.

### **Foydalaniladigan adabiyotlar ro'yxati**

Rahbariy adabiyotlar:

1. Mirziyoev Sh.M. – Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston Davlatini birgalikda barpo etamiz.- T.,O'zbekiston. 2016.
2. Mirziyoev Sh.M. – Qonun ustivorligi va inson manfaatlarini ta'minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. – T., O'zbekiston. 2017.
3. Mirziyoev Sh.M. – Tanqidiy taxlil, qat'iy tartib intizom va shaxsiy javobgarlik – xar bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. T., O'zbekiston. 2017.
4. O'zbekiston respublikasi Vazirlar Mahkamasining Qarori “Davlat boshqaruvi organlari va mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari xodimlarining odob-axloq namunaviy qoidalarini tasdiqlash to'g'risida” (O'zbekiston respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2016 y., 9-son, 94-modda)lex.uz

5. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – engilmas kuch. –T.: Ma'naviyat, 2008.

### **Darsliklar va o'quv qo'llanmalar:**

1. Abdulla Sher. Axloqshunoslik. Darslik. –T.: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2010.
2. Agzamova N. Etika. Uslubiy qo'llanma. –T.: OOO "NORI", 2013.
3. Jahon falsafasi tarixidan lavhalar. G' Q.Nazarov tahriri ostida. –T.: Sharq, 2004
4. Mamashokirov S., Usmanov E. Barqaror taraqqiyotning ekologik xavfsizlik masalalalari. –T.: Fan, 2009.
5. Muhammadjonova L.A., Ortiqova D.O., Abidjanova F.A., Masharipova G.K. Professional etika va etiket. Darslik. - T.: "Adabiyot uchqunlari" 2018.
- 6.M. Kaxxarova, N Agzamova. Etika Uchebnoe posobie. Rizograf imeni Nizami. 2018 god.
- 7.L.Muhammadjonova, F.Abidjanova. Etiket. O'quv qo'llanma. T.: Universitet. O'zMU, 2018.
8. Nurmatova M., Muhammadjonova L., Ma'naviyatning axloqiy asoslari.– T.: Unversitet, O'zMU. 2013.
9. Nazarov Q. Aksiologiya – qadriyatlar falsafasi. –T.: O'FMJ, 2004.
10. Nurmatova M. Shaxs kamolotida axloqiy va estetik qadriyatlar uyg'unligi. – T.: Universitet, 2009.
11. E.Umarov., F.Zagritdinova. "Etika. Prikladnaya etika". -T.: Noshir, 2012.
12. Husanov B., Gulamov V. Muomala madaniyati. Darslik. –T.: Iqtisod-moliya, 2009.
13. Shermuxammedova N.A. XXI asr fanining dolzarb muammolari G'G' Falsafa va fan metodologiyasi. – T.: Universitet, 2005.

### **Qo'shimcha adabiyotlar:**

1. Arastu. Poetika. Axloqi Kabir. –T.: Yangi asr avlodi, 2004.
2. Aliqulov H. Falsafiy meros va ma'naviy-axloqiy fikr rivoji. –T.: Falsafa va huquq instituti, 2009.
3. Agzamxodjaeva S.S. Ijtimoiy ideal va O'zbekistonda ijtimoiy-ma'naviy taraqqiyot muammolari. Dissertatsiya. Fals. fan. dok. – T.: 2009.
4. Abdulla Avloniy Turkiy guliston yoxud axloq. – T.: O'qituvchi, 1992.
5. Abu Abdullox Muhammad ibn Ismoil al Buxoriy. Hadis. 2. tomlik –T.: O'zbekiston milliy entsiklopediyasi davlat ilmiy nashriyoti, 2008.
6. Jabborov I. O'zbeklar (ana'naviy xo'jaligi, turmush tarzi va etnomadaniyati). –T.: Sharq, 2008.

7. Zagritdinova F.B. Filosofsko-eticheskiy analiz problem sovremennoy biomeditsino' (na primere Respubliki Uzbekistan). Dissertatsiya. Dok. filos. nauk. – T.: 2006.
8. Qaxxarova Sh. Global ma'naviyat globallashuvning g'oyaviy asosi. –T.: Tafakkur, 2009.
9. Madaeva Sh. Milliy mentalitet va demokratik tafakkur. –T.: Falsafa va huquq, 2007.
10. Mahmudov T. Komillik asrorlari. Hayotiy hikmatlar. –T.: Adolat, 2006.
11. Ma'naviyat asosiy tushunchalar izohli lug'ati. –T.: G'.G'ulom nomidagi nashriyot – matbaa ijodiy uyi, 2009 yil.
12. Navro'zova T.N., Zoirov E.X., Yunusova T.S. Tasavvufda inson va uning kamoloti masalasi. – T.: Falsafa va huquq, 2006.
13. Muxammadjonova L.A. Ma'rifatparvar shoirlar – Dilshod Barno va Anbar Otinning axloqiy qarashlari. Dissertatsiya. Fals. fan.nom. – T.: 2005.
14. Nurmatova M.A. Shaxs ma'naviy kamolotida estetik va axloqiy va estetik qadriyatlar uyg'unligi. –T.: Universitet, 2009.
15. Ochilova B. Milliy-ma'naviy yuksalishda meros, qadriyatlar va vorisiylik. –T.: Istiqlof, 2009.
16. Otamurodav S. Globallashuv va millat. –T.: Yangi asr avlodi, 2008.
17. Tillaeva G. Ma'naviyat va komil inson tarbiyasi. –T.: Falsafa va huquq, 2006.
18. Umarov B. Globallashuv ziddiyatlari. – T., Ma'naviyat, 2006.
19. Falsafa: qomusiy lug'at. G' Q.Nazarov tahriri ostida. – T.: Sharq, 2004.
20. Xojiaxmedov A. Mahalla odobi. –T.: Sharq, 2001.
21. Xolmatova M. Oilaviy munosabatlar madaniyati va sog'lom avlod tarbiyasi. – T.: O'zbekiston, 2000.
22. Choriev A. Inson falsafasi. –T.: Chinor ENK nashriyoti, 2007.
23. Shayx Muhammad Sodik Muhammad Yusuf. Hadis va hayot. Adab. – T.: Sharq 2008.
24. Qur'onov M. Milliy g'oya va o'zbek xarakteri. – T.: Ma'naviyat, 2005.
25. Yakubov Yu.M. Islom ta'limotida shaxs va jamiyat munosabatlari masalasi. Dissertatsiya. Fals. fan.nom. – T.: 2009.

## **TASHKILIY MADANIYAT ETIKASI**

### **REJA:**

1. Tashkiliy madaniyat etikasi.
2. Tashkiliy madaniyat etikasi rivojida axloqiy qadriyatlarning o'rni.
3. Tashkiliy madaniyat rivojida raxbarning roli.
4. Rahbar etiketi.

Madaniyat – bu insonlarning ijodiy faoliyati tufayli yaratilgan moddiy va ma'naviy boyliklar majmuini ifodalashdan tashqari, o'zida jamiyatning taraqqiyot darajasini ham aks ettiradi, ya'ni jamiyatdagi bilim, mezon va qadriyatlarning yig'indisi madaniyatda gavdalanadi.

Boshqaruv madaniyati aynan ma'naviy madaniyatning bir qismi sifatida rahbar madaniyati bilan bog'liq.

Boshqaruv madaniyati inson madaniyatining tarkibiy qismi bo'lish bilan birga qator o'ziga xos xususiyatlarga ham ega.

Boshqaruvchi madaniyatli bo'lishi shart, chunki har bir muassasaning har bir bo'linmasi samarali ishlashi uchun uning xodimlari yuksak madaniyatga ega bo'lishlari kerak.

Boshqaruv madaniyati darajasi xodimlar, ayniqsa, boshqaruvchi madaniyatini, boshqaruv jarayoni madaniyati, boshqaruv texnikasi, mehnat sharoitini aks ettiruvchi ko'rsatkichlar bilan baholanadi.

Boshqaruv madaniyati unsurlarining turli-tumanligi boshqaruv jarayonida turli-tuman me'yorlarga jumladan, axloqiy, huquqiy, iqtisodiy, tashkiliy, texnikaviy, estetik me'yorlarga rioya qilish zaruriyatini keltirib chiqaradi.

Davlat va jamiyat boshqaruvi sohasi o'z mohiyatiga ko'ra murakkab jarayon sanaladi. Sababi mazkur jarayonning bevosita insonni boshqarish bilan bog'liqligida ko'rinadi. Shu bois hamma davrlarda ham rahbarlik faoliyatiga maxsus tayyorgarlikka ega malakali shaxslar tayinlanishgan.

Boshqaruv tizimida va faoliyatida milliy va umuminsoniy axloqiy qadriyatlarni uyg'unlashtirishga intilish natijasida fuqarolarning huquqi, erki, farovonligi va baxtini ta'minlanishiga olib keladi.

Aksincha, boshqaruv tizimining tayziq, zo'ravonlik, zug'um, majburlash, zo'rqlash, qo'rqitish, kamsitish kabi g'ayriaxloqiy illatlarga asoslanishi natijasida davlat ham, jamiyat ham, inson ham yuksak tanazzulga yuz tutishi barcha zamonlarda ham o'z isbotini topib kelmoqda.

Raxbarning tashkiliy madaniyati darajasi xodimlar, ayniqsa, boshqaruv texnikasi, mehnat sharoitini aks ettiruvchi ko'rsatkichlar bo'yicha baholanadi.

Raxbarning tashkiliy madaniyati unsurlarining turli-tumanligi boshqaruv jarayonida turli-tuman meyorlarga, jumladan, axloqiy, xuquqiy, iqtisodiy, tashkiliy, texnikaviy, estetik meyorlarga rioya qilish zaruriyatini keltirib chiqaradi.

Raxbarning tashkiliy madaniyati darajasi xodimlar, ayniqsa, boshqaruv texnikasi, mehnat sharoitini aks ettiruvchi ko'rsatkichlar bo'yicha baholanadi.

Raxbarning tashkiliy madaniyati unsurlarining turli-tumanligi boshqaruv jarayonida turli-tuman meyorlarga, jumladan, axloqiy, xuquqiy, iqtisodiy, tashkiliy, texnikaviy, estetik meyorlarga rioya qilish zaruriyatini keltirib chiqaradi.

Axloqiy meyorlar insonning axloq va odob sohasidagi xulqini tartibga soladi.

Ular jumlasiga ijtimoiy burchni to'g'ri tushunish, kishi o'rtasida insoniy munosabat va o'zaro xurmat, vijdonlilik, xaqiqatgo'ylik, kamtarlik va boshqalar kiradi.

Boshqaruv jaryonida axloqiy meyorlarga rioya qilish uning madaniyati yuqori darajasidan dalolat beradi.

Estetik talablar va meyorlar ham boshqaruv jarayonida qo'llaniladigan texnika vositalari va uskunalari, ham boshqaruv xodimlarini o'rab turuvchi tashqi muhit uchun belgilanadi.

Raxbar xodimlarning madaniyati ko'p omillarga bog'liq, umumiy madaniyat darajasi, ishbilarmonlik sifatleri, boshqaruv ilmini chuqur va har tomonlama bilish va uni o'z faoliyati jarayonida qo'llay olish bilan xarakterlanadi.

Xar bir raxbar o'z vazifasini bajarish jarayonida jamoaning boshqa a'zolari bilan munosabatda bo'lar ekan, ishbilarmon kishilar o'rtasida mavjud axloqiy qoidalarga bo'ysunadi.

Har bir jamoada xayrihohlik, insonga xurmat muhiti mavjud bo'lishi kerak.

Boshqaruv madaniyati sansalorlik, mansabparastlik, shavqatsizlik, qo'polikka ziddir.

Boshqaruv tizimida, shuningdek, davlat meyorlariga rioya qilmaslik, va'dabozlik, faoliyatga noto'g'ri baho berish va boshqa xususiyatlarga yo'l qo'yib bo'lmaydi.

Amaliy faoliyatda fandan foydalanish. Mehnatga ijodiy yondashish, tadbirkorlik, javobgarlik, tashabbus va mustaqillik, xo'jasizlikka, byurokratizm, qonun buzuvchilikka, murosasizlik, vijdoniylik, kamtarlik va oddiylik boshqaruv xodimlari madaniyatini ifodalaydi.

### **RASMIY UCHRASHUVLAR**

Uchrashuvlar o'zaro salom almashish bilan boshlanadi. Salomlashish turlari har xil bo'ladi.

Horijiy mamlakatlarda uzoq safarda bo'lgan kishi bu mamlakatning milliy udum va qonun-qoidalarini o'z mamlakati urf-odatleri bilan taqqoslaydi.

Amaliy yoki protokol uchrashuvleri (ehtrom yuzasidan tanishuv yoki hayrlashuv uchrashuvleri) davomida suhbat olib boriladi. Suhbat ko'p vaziyatlardan kelib chiqib, reglamentga buysunmaydi. Ammo uchrashuvga tashrif buyuruvchilar ham, ularni qabul qiluvchilar ham o'zlari uchun taalluqli bo'lgan ba'zi bir qoidalarni e'tiborga olishleri darkor. Chunoncha, ehtrom yoki protokol tashrifi uncha uzoq emas, ya'ni 20, ko'pi bilan 30 daqiqadan oshmasligi zarur.

Rahbar - odamlarni, jamoani boshqarishi, ya'ni etakchilik xususiyati bilan o'zgalardan ajralib turadi. U mehnat jamoasida va jamiyatda barchaning ko'z o'ngida bo'ladi, qo'li ostidagilarning ish va turmushi bilan bog'liq muammolarni, kerak bo'lsa taqdirini hal qiladi. Shunday ekan, uning zimmasida o'zgalarga nisbatan ko'proq mas'uliyat bor. Shu ma'noda mas'uliyat zamonaviy rahbar xodimlarni tayyorlashdagi asosiy mezon bo'lib, bu burchni bajarishda qat'iy bo'lish kerak.

*Rahbar shaxs* – jamiyat, davlat, tashkilotga doimiy va hal qiluvchi ta'sirga ega bo'lgan shaxs. Rahbar ishning ko'zini biladigan, jamoa, soha manfaatlarini ko'zlab faoliyat yuritadigan boshqaruv xodimidir.

Rahbarlik aql-farosat, kuch-g'ayrat, izlanish va topqirlikni, o'z ustida tinmay ishlashni, tadbirkorlikni talab qiladi. Rahbar tushunchasining quyidagi jihatlari ahamiyatlidir:

1. Rahbar ijtimoiy shaxs sifatida ishlab chiqaruvchi kuchlar va ishlab chiqarish resurslarini birlashtirib, uning asosiy harakatlantiruvchi kuchini boshqaruvchi sifatida omilkorlik bilanish yurituvchi shaxs.

2. Rahbar har qanday ishni amalga oshirish uchun, avvalo, mustaqil qaror qabo'l qiladi. Bu qaror rahbarning tadbirkorlik, ishbilarmonlik faoliyati maqsadlarini belgilaydi.

3. Rahbar o'z sohasiga yangi g'oya, yangi tashabbus, yangi texnologiyalarni joriy etuvchi tadbirkor shaxs hisoblanadi.

4. Rahbar mehnati, ayni vaqtda, tadbirkorlikka asoslangan mashaqqatli faoliyatdir. Unga sarflangan kuch, mablag' ba'zan vaqtincha foyda emas, zarar keltirishi, muassasa foyda o'rniga zarar ham ko'rishi mumkin. U bunday holatlarni oldindan ko'ra olishi va bunga tayyor turishi, zarur bo'lganda, faoliyatini qayta boshlashi, o'zida bunga kuch-g'ayrat topa bilishi lozim.

Yuqorida keltirilgan jihatlar rahbarlik faoliyatining ma'lum aspektlarini namoyon etadi. Masalaning ikkinchi tomoni - rahbarlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi kishining shaxsi bilan bog'liq yuksak insoniy fazilatlardan iboratdir. Rahbar halol-pok, vijdonli, iymonli, qattiqqo'l, diyonatli, mehr-shafqatli bo'lishi kerak. Rahbarlikka egri yo'l, egri qo'l, egri maqsad bilan erishib bo'lmaydi. Fe'l-atvorida egrilik bor kishi rahbarlik lavozimida uzoq faoliyat yurit olmaydi.

Rahbar mustaqil bo'lishi, ijtimoiy faoliyatning qonuniy taqiqlanmagan hamma sohasi bilan shug'ullana olishi lozim. Shu bilan birga, u o'zi boshqarayotgan jamoa orasida obro'-e'tiborga ega bo'lishi zarur. Rahbar faol bo'lmasa, jamiyatda ijtimoiy faollik shakllanmaydi.

Kattami, kichikmi, qaysi mansabda bo'lishidan qat'i nazar, har bir rahbar oldida «o'z ishingga talab darajasida yondashishim uchun nimalarni bilishim, qanday fazilatlarga ega bo'lishim kerak?» - degan savol esa hamisha ko'ndalang turadi.

Boshqaruvda tajriba, ko'nikma, mahorat, bilim, aql va idrokning ham roli katta. Ammo, eng avvalo, boshqaruv – bu san'at, aniqroq aytganda, ijoddir. Rahbarlikka ham, xuddi san'atkor uchun zarur bo'lganidek, iqtidor va iste'dod lozim. Ko'rinadiki, har kimdan san'atkor chiqmaganidek, istagan odamdan ham yaxshi rahbar chiqavermaydi.

Rahbar o'z qobiliyati, iste'dodini ishga solib izlanadi, shu maqsadda hayotni, odamlarni chuqur o'rganadi. Natijada to'plagan bilimlari, tajribalarini boshqaruvning umumiy qonuniyatlari asosida shakllantirib, o'zining rahbarlik usulini yaratadi, U o'z boshqaruv usullarini shakllantirishda mutlaqo erkin shaxsdir, ammo uning rahbarlik usuli ijobiy natija berishi kerak.

Rahbarlik faoliyatining samaradorligi rahbar shaxsning tafakkuri, aql-idrokiga ham bevosita bog'liq bo'ladi. Tafakkur rahbarga keng va chuqur fikrlay olish, yaxshini yomondan, foydani zarardan, muhimni nomuhimdan bexato ajrata olish imkoniyatini beradi. Bu - hammaga ham nasib qilavermaydigan yuksak fazilat. Agar rahbarda shular shakllangan bo'lsa, unday rahbar boshqaruvning sir-asrorlarini qiynalmasdan egallab oladi, o'z jamoasi o'rtasida obro' va ishonch qozonadi.

Demak, har qanday rahbar keng va chuqur fikrlay olishi bilan birga, chaqqon va uddaburon, harakatchan va shijoatli bo'lishi ham kerak. Shuning uchun rahbarlik faoliyatini tafakkur va harakat birligi deyish mumkin.

Rahbardagi o'ziga xos talabchanlik, mehribonlik hamda mas'uliyat jamoa a'zolarida ham javobgarlik hissining shakllanishiga sabab bo'ladi. Malakali rahbar kadrlar tizimini muvaffaqiyatli shakllantirish uchun ijtimoiy psixologiya, rahbar psixologiyasi, boshqaruv psixologiyasi kabi fanlarning yaxshi o'zlashtirishi uchun bor imkoniyatlarni ishga solishi kerak.

Xullas, jamoaga rahbarlik qilish katta san'at. Rahbar – ustoz, murabbiy, rahbar - millat tarbiyachisi, jamiyatimizdagi mas'ul shaxs. Uning mashaqqatli mehnati natijasi o'laroq, kelajak vorislari kamol topib boradi. Demak, rahbarlarga qaratilgan e'tibor – Vatan taqdiriga qaratilgan e'tibordir.

*Rahbar shaxsining axloqiy madaniyati* - individ tomonidan axloqiy ong orkali jamiyat madaniyatini idrok etish darajasi; axloq talablari inson xatti-harakatlari jamiyatning shakllantiruvchi ta'siri ostida qay darajada chuqur va uyg'un ekanligi ko'rsatkichidir. Turli omillar ta'siri ostida: rahbar shaxsining axloqiy madaniyati hayotiy tajriba va tarbiya; bilim va san'at shaxs jamiyatning axloqiy madaniyati yutuqlarini turli darajada o'z ongi va xatti-harakatlarida jamlaydi. murakkab dastur bo'lib, o'z ichiga insoniyatning shunday tajribasini oladiki, unga ko'ra inson an'anaviy vaziyatlarda axloqan ish yuritadi, hamda ongning ijodiy elementlarini – axloqiy aql, intuitsiyani ham o'z ichiga oladi va ular yordamida muammoli vaziyatlarda ahloqiy qarorlar qabul qila oladi. rahbar shaxsining axloqiy madaniyatini shakllantirishdan maqsad-an'anaviy va ijodiy elementlarning optimal

uyg'unligiga erishish, shaxsning aniq bir tajribasini jamoatchilik axloqining barcha boyliklari bilan birlashtirishdir.

Rahbar shaxsining axloqiy madaniyati - elementlarining yaxlit tizimi bo'lib, axloqiy fikrlash madaniyati (axloqiy mulohaza yuritish qobiliyati, axloqiy bilimlardan foydalana olish, yaxshilik va yomonlikni ajratish, yuzaga kelgan vaziyatning o'ziga xos xususiyatlariga axloqiy me'yorlarni qo'llay bilish va xaqozalar)ni qamrab oladi. O'z ichiga yana tuyg'ular madaniyatini, insonning "axloqiy rezonansga" qobilligini, hamdardligini va jonkuyarligini; axloqiy tajribada xis-tuyg'u va o'ylarning amalga oshirilish qiyofasini, ularning kundalik hayotda xatti-harakat me'yoriga aylanib borish darajasini harakterlovchi xulq-atvor madaniyati; shakllarni reglamentlovchi qoidalarga qay darajada amal qilish sifatidagi etiketni, muloqotda shaxsning o'zini tuta bilishini oladi. Qisqa qilib aytganda, rahbar shaxsining axloqiy madaniyati - umumiy axloqiy tamoyillarni bilish, ularni chuqur his etilgan qarashlariga aylantirish, xatti-harakatlarning eng munosib shaklini qo'llay bilishdir. Uning har bir elementini o'zlashtirish rahbar shaxsining axloqiy madaniyati mustahkamligini shakllantirishga yordam beradi. Rahbar shaxsining axloqiy madaniyati oliy darajasini "axloqiy donolik" deb, axloqiy faoliyatining optimalligini va uyg'unligini ta'minlab bera olish, har qanday vaziyatda ham munosib xatti-harakat qila olish deb ta'riflansa bo'ladi.

*Raxbar shaxsining ma'naviy fazilatlar*i deganda uning tilida aytilib, dilida, va barcha hatti haraktlarida namoyon bo'ladigan barcha ijobiy ko'rsatgichlari tushuniladi. Raxbar shaxs ma'naviy fazilatlar*i* unda mavjud bo'ladigan iste'dod, izlanish, zamonaviy bilimlilik, vatanparvarlik, imon, diyonat, adolat, mehr-shafqat, e'tiqod, poklik, halollik, vafodorlik kabilarni tashkil qiladi.

1. *Iste'dod*. Insonga berilgan tug'ma imkoniyatdir. U aql va fikr uyg'unligi natijasida hosil bo'ladi. Rahbarlik iste'dodi tashkilotchilik bilan bog'liqdir. Qaysiki rahbar shaxs, lavozimining katta-kichikligidan qat'iy nazar, tashkilotchi bo'lsa u iste'dodlidir. Iste'dodli rahbar shaxs mustaqil fikrlaydi va eng to'g'ri qarorlarni qabo'l qila oladi. Ishni to'g'ri tashkil qila olish iste'dod natijasidir.

2. *Izlanish*. Yangilikka intilish va har bir yangilkni amaliyotga tadbqiq etish izlanuvchanlikdir. Rahbar shaxsning izlanuvchanligi o'z malakasi va tajribasini oshirib berishda ko'rinadi. Tashabbuskorlik – izlanuvchanlik samarasidir. Yangilikka o'ch rahbar shaxs tashabbuskor bo'ladi va o'z ishini qoniqarli bajaradi.

3. *Zamonaviy bilimlilik*. Kishi o'zi yashaydigan davrning eng ilg'or tushunchalarini o'zlashtirsa, zamonaviy bilimga ega bo'ladi. Rahbar shaxsning zamonaviy bilimlili*gi* esa hozirgi zamon boshqaruv sirlarini bilishi, siyosiy onglilik va dunyoviy taraqqiyotni anglashi bilan belgilanadi.

4. *Vatanparvarlik*. Inson o'z yurtini sevsa vatanparvar hisoblanadi. Rahbar shaxs esa o'z Vatanini sevishidan tashqari, uning taraqqiyotini ta'minlashi kerak.

Kechani kecha, kunduzni kunzud demay o'zganing Hizmatini qilish rahbar shaxs uchun vatanparvarlikdir.

5. *Yurtga sadoqat*. Odam o'z yurtini obod qilsa, yurtiga sadoqatli hisoblanadi. Rahbar shaxs esa yurt istiqbolini belgilovchi izchil dasturlarni bajarishi, hayotni farovon qilishi va o'zgalarning og'irini engil qilish bilan o'z yurtiga sadoqatini namoyon qiladi.

6. *Fidoyilik*. Biror kishi ulug' maqsad sari qat'iy harakat qilsa fidoyilik qilgan bo'ladi. Rahbar shaxs esa Vatan ravnaqi, yurt tinchligi va xalq farovonligini ta'minlash bilan fidoyiligini namoyish etadi. Bugungi kun rahbari har bir ishda oldingi safda bo'lsagina fidoyi hisoblanadi.

7. *O'z kasbini ustasi*. Har kim tanlagan kasbini puxta bilsa kasbining ustasi hisobalandi. Rahbar shaxsning professionalligi deganda esa o'z kasbining so'nggi yutuqlarigacha bilishi bilan birga boshqaruv sirlarini ham qat'iy o'zlashtirishni tushunish kerak.

8. *Mustaqil dunyoqarash*. Muayyan masalada o'z fikriga ega bo'lish mustaqil dunyoqarashni bildiradi. Rahbar shaxs esa keng fikrlashi, uzoqni ko'ra bilishi qobiliyati bilan boshqalardan ajralib turadi va bu uning mustaqil dunyoqarashga egaligidir.

9. *Iymon-e'tiqodli*. Insonning o'zi ishongan narsaga ixlos qilishi iymon-e'tiqoddir. Rahbar shaxs esa bugun va ertani ko'zlab, zamon muammolarini hal qila bilishi hamda mustahkam irodaga ega bo'lishi bilan iymon-e'tiqodli hisoblanadi.

10. *Inson bo'lishi*. Kishi yuksak insoniy axloqqa ega bo'lsa yaxshi kishi hisoblanadi. Rahbar shaxs esa "atrofidagi uni o'rab oladigan xushomadgo'y, lagabardor, labbaychilarning maqtovidan o'zini saqlab o'ta olsa"<sup>1</sup> chinakam insoniyligini namoyon qiladi.

Rahbar shaxs ma'naviyatini tashkil qiluvchi fazilatlardan asosiysi Adolatdir. Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov rahbar adolati haqida shunday deydi: "Rahbar adolati, elu yurtga etakchilik qilishdek og'ir mas'uliyatni bo'yniga olgan odamning adolati bugungi kunda beqiyos ahamiyatga ega. Avvallari ham ko'p bor aytgan bir fikrimni yana takrorlamoqchiman: xalq ochlikka, hamma narsaga chidashi mumkin, ammo adolatsizlikka chiday olmaydi. Odil hukmdor, adolatli rahbar g'oyasi Farobiydan Alisher Navoiygacha yana boshqa ko'p-ko'p mutafakkirlarimizning ulug' ma'naviy ideali bo'lib kelgan".<sup>2</sup> Shu ma'noda rahbar ma'naviyatini tashkil qiluvchi fazilatlar Adolat xislatini shakllantirishi lozim.

Rahbar shaxs ma'naviyatini tashkil qiluvchi bu fazilatlardan tashqari yana insonga xos illatlar ham bor. Ular rahbar shaxs ma'naviyatini shakllantirishga to'siq

<sup>1</sup>Karimov I. Ozod va obod va farovon hayot – pirovard maqsadimiz. 8-jild. – T.: "O'zbekiston" B. 60.

<sup>2</sup> Karimov I. Biz kelajagimizni o'z qo'limiz bilan quramiz. 7-jild. – T.: "O'zbekiston", 1999. B. 239.

bo'lmoqda. Misol uchun, professor E.G'oziev ana shunday illatlardan quyidagi o'n beshtasini ko'rsatib o'tadi:

1. O'zini-o'zi boshqara olmaslik.
2. Shaxsiy qadriyatlardan putur ketishi.
3. Shaxsiy maqsadning noaniqligi.
4. O'zini-o'zi kamol toptirishning izdan chiqqanligi.
5. Muammolarni hal qilish malakalarining etishmasligi.
6. Ijodiy yondashuvda nuqsonlarning mavjudligi.
7. Odamlarga ta'sir o'tkaza olmaslik.
8. Boshqaruv faoliyati xususiyatlarini etarli darajada tushunmaslik.
9. Rahbarlik qilish malakalarining zaifligi.
10. Boshqalarni o'qitish, ularga saboq berish, o'rgatish uquvining yo'qligi.
11. Mehnat jamoasini jipslashtirish qobiliyatining pastligi.
12. Yangiliklar bilan o'zgalar e'tiborini jalb qilishga uquvsizlik.
13. Odamlar bilan muomala qilish madaniyatining yo'qligi.
14. Aql va farosat bobida sustkashlik.
15. Ishbilarmonlik qobiliyatining kuchsizligi.<sup>1</sup>

Axloqan barkamol, bilimli va tajribali, ilm asoslarini chuqur egallagan, adolatparvarlik, insonparvarlik e'tiqodi kuchli rahbar shaxslar yuksak ma'naviy fazilatlarning sohibi bo'la oladilar. Bu fazilatlarning barchasi birgalishib, jamiyatning dunyoqarashi, e'tiqodi, xalqning milliy ongi shakllanishiga, mustahkamlanib, rivojlanishiga olib keladi. Ma'naviy kamolot, uning barcha qirralari o'zaro bog'liqligi, bir-biriga bevosita yoki bilvosita ta'sir etib turishi asosida davom etadi. Inson, jumladan rahbar shaxs kamolotini ma'naviyatning yuqoridagi tomonlaridan birortasiz to'liq tasavvur etish mumkin emas. Uning mohiyati ham shu sifatlarning mushtarak birligi asosida shakllanadi va kamol topib boradi.

*Rahbar shaxsining madaniyati.* Madaniyat, avvalo, ma'naviy boylik hosilasidir. Siyosiy madaniyati yuksak rahbar millat, davlat, xalq manfaati nuqtai nazaridan ish tutadi, umum manfaatini o'z shaxsiy ehtiyoj va manfaatlaridan ustun qo'yadi.

Avvalo, rahbarlar va rahbarlikka da'vogar shaxslar o'zlarini har jihatdan tarbiyalab borishlari lozim. Buning uchun siyosiy hayotdan xabardor bo'lish yoki iqtisodiy va kasbiy bilimlarni o'zlashtirishning o'zigina kifoya qilmaydi. Ular jahon tajribalari asosida shakllangan ilg'or boshqaruv malakalarini ham o'zlashtirgan bo'lishlari kerak. Bugungi rahbar bunga o'ziga nisbatan talabchan bo'lib erishadi. Masalan, u har kuni gazeta va jurnallar o'qishi, radio va oynai jahon yangiliklaridan

<sup>1</sup> G'oziyev E. Raxbar faoliyatidagi nuqsonlarni bartaraf etish. // "Xalq ta'limi" jurnali, 2000. № 3. B. 18-23.

xabardor bo'lish orqali ham ma'lum darajada bilim egallashi mumkin. Yana siyosat, iqtisodiyot va ma'naviyatga daxldor kitoblarni, hatto mumtoz adabiyotlarni mustaqil o'qishi, tarixiy jarayonlarni chuqur mushohada qilish ham uning dunyoqarashini kengaytiradi.

Bo'larning barchasi rahbar madaniy saviyasining o'sib borishiga va siyosiy madaniyatining takomillashuviga katta yordam beradi. Chunki cheklangan tafakkur, chala bilim, past madaniyat bilandunyoni bilib, mas'uliyatli ish va mansabni egallab bo'lmaydi.

Binobarin, demokratik asosda shakllanib borayotgan jamiyatimiz talabi shuki, siyosiy etuk, aqlan va ma'nan barkamol, puxta bilimga ega bo'lgan teran tafakkurli kishilargina rahbar bo'lishga haqlidirlar.

Ajdodlarimizning kindik qoni to'kilgan muqaddas maskanimiz sanalmish shu Vatanning bir kaft tuprog'i, zilol suvi, toza havosi, rango-rang tabiati-yu, qir-adiri, tog'-toshlari yurakka shunchalik yaqinki, buni bir so'z bilanta'riflash qiyin. Ana shunday mo''tabar Vatanda rahbarlik qilish, uning kelajak avlodi, har bir jamoasiga mas'ul bo'lish, butun umrini rahbarlik mehnatiga bag'ishlash, yurt ravnaqi uchun umrini sarflash har bir etakchi uchun katta baxt.

*Rahbar shaxsning mas'uliyati.* Mas'uliyat – rahbar madaniyatining asosiy belgilaridan biri bo'lib, uning ma'lum sohaga javobgarligini aks ettiradi. Alohida shaxs, xodim mas'uliyatidan farq qilib, ko'lami kengligi ushbu mas'uliyatni unutish oqibatlarini salmog'i bilanajralib turadi. Shu bois, rahbar mas'uliyati hamisha muhim sanalgan. Mas'uliyat, avvalo, har bir kishining vijdoni, iymoni, qolaversa, o'zgalar oldiga, jamoa, jamiyat, Vatan, millat oldidagi burchini teran anglashdir. Umuman, mas'uliyat rahbarning zimmasidagi vazifasiga nisbatan javobgarlik tuyg'usidir. Mas'uliyatli rahbar, eng avvalo, o'ziga, so'ngra boshqalarga nisbatan talabchan bo'ladi. Rahbar faoliyatidagi barcha salbiy hodisalar esa ana shu mas'uliyat hissining yo'qligidan kelib chiqadi.

Mas'uliyatsizlikning eng salbiy ko'rinishi - siyosiy mas'uliyatsizlikdir. Siyosiy mas'uliyatsizlik – siyosiy kaltabinlik, safsatabozlik, nayrangbozlik, qalloblik va boshqa xunuk illatlarning paydo bo'lishiga sabab bo'ladi. Binobarin, rahbarlik lavozimidagi kishidan yuksak ong va tafakkur, hushyor idrok talab etiladi. Tarixiy tafakkur va siyosiy ongning qay darajada shakllanishi esa, avvalo, jamiyatning taraqqiyoti, undagi ichki va tashqi shart-sharoitlarga bog'liq holda kechadi.

*Rahbar shaxsning ma'naviyati.* Rahbarning ma'naviy madaniyati bu – rahbarda shakllangan (ichki) ruhiy quvvatdir. Rahbar shaxs ma'naviyati qanday bo'lishi kerak? Uning asosini qanday g'oyalar tashkil qiladi? Prezidentning har bir chiqishlarida ana shu masalalar ham o'z aksini topa boshladi. Davlatimiz rahbari deydi: “Kuchli ijroiya hokimiyati bo'lmasa, hatto eng demokratik yo'l bilan qabo'l

qilingan qarorlar ham bajarilmasligi mumkin”.<sup>1</sup> Demak, rahbar shaxs ma’naviyatida, avvalo, mas’uliyat hissi yuksak bo’lishi lozim. Bu hisni nimalar tashkil qiladi? Uni “inson, uning hayoti, erkinligi, sha’ni, qadr-qimmat va boshqa daxlsiz huquqlarini oliy qadriyat”<sup>2</sup> deb bilish tashkil qiladi. Shu ma’noda rahbar shaxs ma’naviyati g’oyasining birinchi elementi insonni qadrlashdir. Bu ulkan mas’uliyat hissini paydo qiladi.

Rahbarning ma’naviy madaniyatini tushuntirishdan oldin shaxs madaniyatiga to’xtalib o’tsak. Shaxs madaniyati– bu jamiyat madaniyati va ma’naviy ongini shaxs tomonidan o’zlashtirish darajasi bo’lib, ma’naviyat talablari uning xatti-harakatlarida qanchalik mujassamligi ko’rsatkichidir. Shaxs madaniyatideganda, muayyan individga taalluqli bo’lgan, uning aqli va qo’li bilanyaratilgan moddiy va ma’naviy boyliklar majmuasi, uning hayotda yashashi jarayonida insoniylikka va ma’naviy-axloqiy talablarga rioya qilishi bilan bog’liq bo’lgan xatti-harakatlari tushuniladi. Shaxs madaniyatining yaratgan bunyodkorlik g’oyalarida, milliy madaniyatga, milliy ma’naviy-axloqiy qadriyatlarga amal qilishida namoyon bo’ladi. Shaxs madaniyatining ma’naviy tarbiyalanganlik darajasini belgilaydigan mezondir.

Shaxs madaniyati insoniylikka xos bo’lgan fazilatlarni o’zida mujassamlashtirganligida, avvalo, uning sodda va kamtarinligi, boshqalarga o’z tengidek munosabatda bo’lishida, boshqalarning bilim va tajribasiga hurmat bilan qarashida, odamlarga qo’lidan kelganicha beminnat yordam berishga harakat qilishida, o’ziga nisbatan talabchanligida, kamsuqumliligi va boshqalardan ajralib turishga harakat qilmasligida yaqqol ko’rinadi. Shuningdek, Shaxs madaniyatibelgilari yana, jumladan, uning quyidagi ma’naviy-axloqiy sifatlar, insoniy munosabatlar, fazilatlarni o’zlashtirganligi bilan ifodalanadi: ya’ni, shaxsning iymonli, vijdonli, e’tiqodli va diyonatli bo’lishi, xushmuomalaligi, intizomliligi, o’qishga va ishga sababsiz kechikmasligi, bilimini boyitishga intilishi, va’dasiga vafo qilishi, odamlarga yomonliklar qilmasligi, yaxshiliklar qilishi va qilgan yaxshiligini minnat qilmasligi, kattalarga hurmat va kichiklarga izzatda bo’lishi, keksalarga, ayollarga va bolalarga alohida hurmatu izzat va e’tiboru e’zoz ko’rsatishi, boshqalarga xayrihoh, e’tiborli va iliq munosabatda bo’lishi, o’zini tabiiy, sodda tutib, boshqalardan ustunligini namoyon etmasligi, boshqalarga laqab qo’ymasligi, odamlarning kamchiligi ustidan kulmasligi, mashara qilmasligi, ojizlarni kamsitmasligi, atrofdagi odamlarning mehnat qilishi va dam olishiga xalaqit bermasligi, xushmuomalalik bilan mehmon kutishi, o’zining ichki va tashqi dunyosiga e’tibor berishi, nutq madaniyatiga rioya qilishi, jamoatchilik mulkiga ehtiyotkorlik va hurmat bilan munosabatda bo’lishi, jismini va kiyimlarini ozoda

<sup>1</sup> Karimov I. O’zbekistonning o’z istiqloli va taraqqiyot yo’li. – T.: “O’zbekiston”, 1992. B. 21.

<sup>2</sup> O’zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 13-moddasi.

tutishi, o'zining va boshqalarning vaqtini qadrlashi, ko'cha-ko'yga axlat tashlamaslik, yo'lga tupurmaslik, moda ketidan quvmasligi, eshikni oyog'i bilan tepib ochmasligi-yopmasligi, xafa bo'lib turgan odamga hazil qilmasligi, so'zining ustidan chiqishi, so'z va ish birligiga amal qilishi, salomlashish odobiga rioya qilishi, mulozimatli va mulohazali bo'lishlik, kishiga har bir Hizmati uchun minnatdorchilik bildirish, biror nojo'ya ish qilib qo'ysa, darhol kechirim so'rash, kattalar bilan suhbatda me'yoridan chiqib ketmaslik, jamoat joylarida odob-axloqqa zid ravishda baland ovozda gaplashib, kulib qo'pollik qilmaslik, so'kinmaslik, mast holatda ko'rinmaslik, ovqatlanish madaniyatiga rioya qilish, boshqalarga o'z tengidek munosabatda bo'lish va ularning bilim va tajribasiga hurmat bilan qarash, o'ziga talabchan, kamsuqum bo'lishi, boshqalardan ajralib turishga harakat qilmasligi, kekkaymasligi, maqtanmasligi, manmanlik qilmasligi, jamoadan o'zini yuqori qo'ymasligi, bilimini boyitishga intilishi, o'ziga o'zi tanqidiy munosabat qila olishi, o'zini tuta bilishi, o'zining xatti-harakati, munosabati, xulq-atvori va tashqi ko'rinishini nazorat qilib turishi, do'stning tanbehini to'g'ri qabo'l qilishi, barcha insoniy fazilatlarga egaligi, illatlarga qarshi kurashuvchanligi, qat'iyatligi, jasoratligi, haqqoniyliги, kurashuvchanligi, yaxshi so'zlar so'zlashi, yaxshi niyatlar va yaxshi amallar qilishi, mustaqil fikriga ega bo'lishi va o'z fikrini asoslab bera olishi, ijobiy dunyoqarashga egaligi, atrofdagi odamlar va voqea-hodisalarga nisbatan doimo sergak, ziyrak bo'lishi, har bir ishni bajarishga vijdonan yondashishi, boshqalarning yashashiga xalaqit bermaslik, boshqalarni muhokama qilmaslik, boshqalarning ustidan hukm chiqarmaslik, xato ish qilgan odamni jazolamasligi, balki u bilan samimiy tushuntirish-suhbatlashishi va to'g'ri yo'l ko'rsatishi, oilasida va jamoatda tinchlik-osoyishtalikni saqlashga intilishi, rostgo'yliги, sahiyliги, haqiqatgo'yliги, adolatparvarliги, insonparvarliги, insonni insonliги uchun qadrlashi, ehtiyojmandlarga iliqliк bilan hamdardlik bildirishi, mehr-muruvvat va g'amxo'rlik ko'rsatishi, inson uchun zararli hisoblangan turli salbiy odatlardan holi bo'lishi, boshqalar bilan muloqotda ularning ismini aytib murojaat qilish, samimiylik bilan muomala qilish, jamoat joylaridagi bezorilik va odobsizliklarga befarq bo'lmasligi, ziddiyatli vaziyatlarni bosiqlik va aql bilan hal etishi, o'zi to'g'ri yo'lda yashashi va boshqalarga ham hidoyat yo'lini tavsiya qilishi, axloqan pok bo'lish, dasturxon atrofida o'zini tutish, kundalik turmush tarzi qoidalariga, turmush madaniyatiga rioya etish va h.k. Erkak kishining madaniyatligi darajasi uning ayollarga bo'lgan ma'naviy-axloqiy munosabatida bilinadi.

Shaxs madaniyati uni boshqa odamlar, jamoa bilan birlashtiradi, uning ko'p do'st orttirishiga imkoniyat tug'diradi.

Shaxs madaniyatimukammal bo'lishi uchun ma'naviy-axloqiy fazilatlarni o'zlashtirib, boyitib borishi, o'zini o'zi tarbiyalashga, nazorat qilishga va boshqara bilishga doimo e'tibor qaratib borishi, o'ziga o'zi tanqidiy yondasha bilishi,

bilimlarini boyitib borishi, o'zida madaniyatni rivojlantirib borishi kerak. Yuqoridagilardan kelib chiqib, endi raxbar shaxsining madaniyatiga to'xtalib o'tsak.

Rahbarda shakllangan ma'naviy-psixologik madaniyat ajdodlar ibratiga asoslanib, qadriyat darajasida qadrlanadigan, shaxs ma'naviy olamini tartibga solib turuvchi, ko'nikma darajasiga etgan hissiy bilimlar majmuidir. Rahbardagi madaniyat – uning rahbarlik faoliyat usuli va rivojlanish mezonidir. Rahbar o'z rahbarlik salohiyatini rivojlantirishi uchun ma'naviy olamini boyitadigan bilimlarni, egallashi, tashabbuskorlik qobiliyatini oshirib borishi zarur. Rahbarning ma'naviy mulkiga aylangan bilim unga xohish-istaklarini chegaralay bilish, o'zini tashqi tazyiq va ta'sirlaridan himoya qilishga vosita bo'ladi. Aniqroq aytadigan bo'lsak, ma'naviy, psixologik jihatdan shakllangan rahbar bo'lish har qanday ijtimoiy psixologik muhitda o'zini tuta bilish, o'zi rahbarlik qilayotgan jamoada va keng jamoatchilikda sog'lom mehnat muhitini yaratishdan va insonlarga samimiy munosabatda bo'lishdan qoniqib yashashdir. Ma'naviyati shakllangan rahbar o'zi yashayotgan ijtimoiy hayotda yomonlikka, adolatsizlikka, qonun buzilishlariga, Vatan manfaatlariga zid harakatlarga qarshi kurashishda iroda, shijoat va faollik ko'rsata oladi. Rahbarlarning ma'naviy psixologik madaniyati quyidagi bosqichlarda namoyon bo'ladi:

*Birinchidan*, ma'naviyati nisbatan past saviyada shakllangan rahbarlar. Bunday rahbarlar oddiy axloqiy-ruhiy fazilatlardan ancha mahrum va jamiyat ma'naviy me'yorlarini tushunib etmaydigan, ularni mensimaydigan rahbar xodimlardir.

*Ikkinchi* toifadagi rahbarlar ma'naviy madaniyati, axloqiy darajasi past bo'lishi bilanbirga, jamoat fikri, oila, xalq an'analari va boshqa shu kabi qadriyatlar bilanbog'liq psixologik muhitni tez-tez buzib turadigan rahbarlardir.

*Uchinchi* toifadagi rahbarlar qatoriga axloq me'yorlarini hayotiy zarurat sifatida ichki ishonch va tuyg'u bilan o'zlashtirmasdan, ularni ko'r-ko'rona qabo'l qiluvchilar kiradi. Bunday rahbarlar ko'p o'qib o'rganadi, ular nazariy jihatdan yuqori bilimga ega bo'ladi, amalda esa bu bilimlarni qo'llay olmaydi yoki tashkilotchilik qobiliyati etishmaydi.

*To'rtinchi tur* rahbarlar ruhiy-sust, ma'naviy madaniyatli bo'lsa-da, adolatsizlikni o'tkir hissiyot bilan qabo'l qiladi. Ularda axloqiy bilimlar etarli, ammo ularni ro'yobga chiqarish uchun tashabbuskorlik, mustaqillik va shijoat etishmaydi.

*Beshinchi* toifadagi rahbarlar ma'naviy madaniyatni va siyosiy-psixologik bilimlarni etarli darajada egallagan, tashabbuskor va shijoatli bo'ladi. Bu rahbarlar chuqur bilimga, teran tafakkur va o'tkir mushohadaga, ma'naviy hissiyotlarga boy bo'ladi.

Psixologik bilimlarni atroflicha o'zlashtirgan rahbar yuqori darajadagi madaniyat, xulq, axloq kategoriyalarini o'zida doimiy harakterga aylantirgan

bo'ladi. Bu esa rahbar o'zida individual va intellektual saviyani har tomonlama shakllantirib borishni taqozo qiladi.

Rahbar shaxs ma'naviyatini shakllantirishda uch qadriyatga jiddiy diqqat qilish lozim bo'ladi.

1. *Ma'naviyat* – muntazam kamol topib borayotgan rahbar shaxsning aqliy, ruhiy va botiniy kuchidir. U mustaqil fikrga va mustaqil dunyoqarashga olib keladi.

2. *Axloq-odob* – rahbar shaxsning axloqiy, vujudiy va hayotiy kuchidir. U sog'lom vujud va sog'lom hayotga olib keladi.

3. *Ma'rifat* – rahbar shaxsning bilimi, tajribasi va e'tiqodidir. U sog'lom tafakkurga va ijtimoiy faollikka olib keladi.

Shu sabali “biz ning muqaddas dinimiz ham, butun Sharq falsafasi ham bu qadriyatlarni ulug'lagan, ularni ijtimoiy taraqqiyotning eng muhim shartlari deb bilgan”.<sup>1</sup> Rahbar shaxs ma'naviyatini bu uch qadriyat asosida takomillashib borish ushbu samaralarni beradi.

*Birinchi.* Jamiyat boshqaruvi sharoitida rahbar shaxsning nufuzi ortadi.

*Ikkinchi.* Fuqarolik jamiyatini qurishda rahbar shaxs eng faol kishiga aylanadi.

*Uchinchi.* Ijtimoiy taraqqiyotni yuzaga keltirishda rahbar shaxsning ta'siri kuchayadi.

Zero, jamiyat boshqaruvi sharoitida rahbar shaxs ma'naviy jihatdan muntazam kamol topib bormog'i kerak. Chunki, bu sharoitda “Inson omili va mezon” ustuvor darajada belgilanmoqda. Ular nimlarni ifodalaydi?

*Birinchidan.* Davlat va jamiyat manfaatlari faqat Inson manfaatlari nuqtai nazaridan belgilanadi.

*Ikkinchidan.* Davlat va jamiyatni rivojlantiruvchi kuchlar va asoslar Inson omiliga tayanib belgilanadi.

*Uchinchidan.* Umuman taraqqiyotning mazmun-mohiyati Insonni baxtli qilishdan iborat bo'ladi.

Mustaqil taraqqiyot yo'lida to'plangan tajriba, dunyo jamoatchiligi o'zbek modeli deya e'tirof etgan o'zimizga xos va o'zimizga mos taraqqiyot yo'li kelajagi buyuk davlat barpo etish borasida amalga oshirilayotgan barcha tarixiy o'zgarishlar va yangilanishlar rahbarlarning shaxsiy e'tiqodi va ma'naviy qiyofasini tubdan o'zgartirishga katta yordam berdi.

Rahbar shaxslar avlodini shakllantirish aslida juda murakkab masala. Bu masala bilan olimlar va davlat rahbarlar uzoq vaqt, izchillik bilan shug'ullanganlar. Chunki, odam darhol rahbar bo'lib tug'ilmaydi. Izchil tarbiya va tajriba vositasida

---

<sup>1</sup> Karimov I. O'zbekiston demokratik o'zgarishlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyati asoslarini shakllantirishning asosiy yo'nalishlari. // “Xalq so'zi”, 2000-yil avgust.

iqtidorli kishilar rahbar shaxsga aylana boradi. Shu ma'noda ukrainalik olim A.G.Kovalyovning rahbar shaxs tushunchasiga bergan ta'riflariga diqqat qilib o'tish lozim. Uning fikricha, rahbar shaxslar quyidagi uch tipga bo'linadi:

1. *Salbiy tiplar*. Ular jamoada yomon muhitni yuzaga keltiradi. O'zi hech narsa qilmaydi, o'zgalardan talab qiladi. Ishlar o'z yo'sinida ketaveradi va aslida ishning borishida jamoadan kimningdir tashabbusi bor bo'ladi. Bunday tipdagi rahbar shaxslar jamoani etarli darajada boshqara olmaydilar, natijada ishda orqaga ketish boshlanadi.
2. *Ijobiy tiplar*. Ular jamoadan xushkayfiyatni yuzaga keltiradilar. Bu tipdagi rahbar shaxslarning bir kamchiligi – o'zgalarga nisbatan me'yoridan ortiq darajada talabchan bo'lishlaridir. Natijada ular boshqarayotgan jamoada noqulay muhitning yuzaga kelishi ehtimoli bo'ladi.
3. *O'rtacha tiplar*. Ular salbiy va ijobiy tip o'rtasida bo'ladilar. Bunday tiplar juda qattiq ishlaydilar, o'zgalardan ham shuni talab qiladilar. Biroq bunday rahbarlik qilish usuli avtoritar hisoblanib, u o'zgalarga hukm o'tkazishga olib keladi.<sup>1</sup>

Rahbar kadr, davlat xizmatchisining shaxsiy sifatlari, fazilatlari makon va zamonda shakllanadi. Hozirgi yangi, o'tish davrida ilgari rahbar kadrlarda bo'lmagan istiqloq davriga xos fazilatlarni tez shakllantirish uchun ajoyib imkoniyatlar mavjud. O'zgarayotgan ijtimoiy muhit, ish uslubi, rahbarlik tarzi, talablari yangi tipdagi davlat mulozimlari, rahbar kadrlarni tarbiyalash uchun zarur bo'lgan ob'ektiv shart-sharoitni yaratdi. Galdagi vazifa davlat xizmatchilariga qo'yilayotgan yangi talablarni, ular uchun zarur bo'lgan fazilatlarni ilmiy asoslab, tahlil etib, umumlashtirib, ma'naviy-ma'rifiy tarbiya, amaliy tajriba yordamida maxsus shakllantirishdir. Ana shunda davlat xizmatchilari tafakkuridagi yangilanish ular orqali xalqqa, demakki, har bir o'zbekistonlikka etib boradi. Jamiyat tafakkuri tezroq yangilanadi, millat bir jonu bir tan bo'lib, islohotlarni tezlashtiradi.

Davlat xizmatchilari tafakkurini yangilash ikki tomonlama jarayondir. U bir tomondan, yangi, zamonaviy davlat xizmatchilariga xos fazilatlarni maxsus, ilmiy asosda shakllantira borishini talab qilsa, ikkinchi tomondan, hamon ba'zan o'z ta'sirini ko'rsatayotgan, sobiq sho'ro kadrlar siyosatida "sinalgan" korporativ-byurokratik psixologiyani siqib chiqarish talab qilinadi. Bu ikki jarayonni parallel olib borish zarur.

Ma'lumki, shaxsiy manfaatlar, nafs ustuvorligiga qurilgan birlashuv, uyushish kuchli bo'ladi. Chunki shaxsiy manfaat ustuvorligi davlat organlariga suqilib kirib olgan xudbin, yulg'ich, ustamon, laganbardor, iqtidorsiz shaxslarni birlashtiradi.

<sup>1</sup>Kovalyov A. Vliyaniye lichnosti rukovoditelya i stilya yego raboty na sotsialno – psixologicheskiy klimat kollektiva. // Sotsialno – psixologicheskiiy klimat kollektiva i lichnost. – T.: "Mysl, 1983. S. 139-140.

Sobiq sho'ro tizimida bu birlikning tamoyili - shaxsiy sadoqat, "men sizga, siz manga, davlatni esa qo'ya turing" tarzida namoyon bo'lib keldi. Shaxs – davlatdan, davlat – shaxsdan, shaxs – o'z mehnati mevalaridan uzoqlashdi, begonalashdi. Shu sababli murosasiz tanqid ostiga olingan shaxsiy, guruhviy, mahalliy, qon-qarindoshchilik manfaatlarini davlat manfaatidan ustun qo'yish kabi sobiq sho'ro tizimida qolgan zararli meros ba'zi hollarda hamon o'zini eslatib turibdi

*Muomalada yuzaga keladigan ziddiyatlar va inson fe'l-atvori.*

Taraqqiyot ziddiyatlarning paydo bo'lishi, rivojlanishi va bartaraf qilinishi jarayonidan iborat. Shunga ko'ra, ziddiyatlarning ko'rinishi ham har xil bo'lib, ular narsa-hodisalarning harakati va rivojlanishida turlicha ahamiyat kasb etadi. Ziddiyatlar ichki, tashqi, asosiy, asosiy bo'lmagan kabi ko'rinishlarga bo'linadi. Jumladan, *ichki ziddiyatlar* – narsa va hodisalardagi ichki jarayonlarning ifodasi, harakatlanishning manbai hamda rivojlanishning asosiy sababidir. *Tashqi ziddiyat* - narsa va hodisalar o'rtasidagi munosabatlarning ifodasi hisoblanadi. Jamiyat rivojlanishining mazmuni va mohiyati ham asosan ichki ziddiyatlarning xal qilinishi bilan belgilanadi. Biroq, rivojlanishda tashqi ziddiyatlarning ishtiroki kamroq bo'ladi, degan fikrga bormaslik kerak. Zero, globallashuv va integratsiya jarayonlarida tashqi ziddiyatlarning ham o'z o'rnini bor. Narsa- hodisalarning mohiyatini, xolatini, kelib chiqish va rivojlanish qonuniyatlarini belgilovchi ziddiyatlar esa *asosiy ziddiyatlar* deb ataladi. Asosiy ziddiyatlar taraqqiyotda belgilovchi (boshqaruvchilik) vazifani bajaradi va barcha boshqa ziddiyatlarga ta'sir ko'rsatadi.

Jamiyatdagi ziddiyatlar turli shakl va usullar bilan bartaraf qilinadi. Ulardan ba'zilari eskining emirilishi va yangining vujudga kelishi asosida xal qilib borilsa, boshqalari shu ziddiyatni tashkil qilgan qarama-qarshi tomonlarni o'zaro kelishtirish, murosas-yu madoraga keltirish, hamjihatlik va hamkorlikka erishish yo'li orqali xal qilinishi mumkin. Keyingi vaqtda jamiyatdagi ziddiyatlarni xal qilishda qo'llanilayotgan samarali tamoyillardan biri o'zaro kelishuv, murosas-yu madora tamoyilidir.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan xolda, ziddiyat *muomalada* - insonlar o'rtasidagi muloqotlarda – so'zlashish, fikr almashish, muzokara olib borish, baxslashishda biri ikkinchisini inkor etadigan ikkita muomala natijasida vujudga keladi.

Shuni ta'kidlash lozimki, ziddiyatli vaziyatlar asosida alohida shaxslar va guruxlarning qarama-qarshi fikrlari, maqsadlari hamda shu maqsadlarga erishishning vositalari yotadi. Ijtimoiy psixologiya ziddiyatlarning manbaiga qarab uning bir necha turlarga ajratadi. Masalan, ziddiyat ichki-shaxsiy (rahbar bilan hodim o'rtasida) shaxs-tashkilot (shaxslar, guruxlar va tashkilot o'rtasida) bo'lishi

mumkin. Shuningdek, ziddiyatlarning gorizontallarni tasnifi ham mavjud (bir–biriga bo'ysinmaydigan hodimlar o'rtasida), vertikal (bir-biriga bo'ysinuvchi hodimlar o'rtasida) va aralash turdagi ziddiyatlar ham mavjud. Kundalik hayotda vertikal va aralash turdagi ziddiyatlar uchrab turadi. Agar bunday ziddiyatlar jamoada 70-80%ni tashkil etsa, bu rahbar uchun xavfli hisoblanadi. Bunday vaziyatlarda rahbarning har qanday harakatlari ziddiyatlar prizmasi orqali olib qoraladi.

Muomala madaniyatida ziddiyatlar anglashilmovchilik, bir-birini tushunmaslik hamda o'zaro manfaatlar to'qnashuvi natijasida kelib chiqadi. Shuningdek, ziddiyatlarni keltirib chiqaruvchi sabablarning xususiyatlariga qarab tavsiflash mumkin. R.L.Krichevskiy o'zining «Agar siz rahbarsiz» kitobida ziddiyatlarni keltirib chiqaruvchi omillarni 3 ta guruxga bo'ladi:

*Birinchi gurux* – mehnat jarayonidagi ziddiyatlar.

*Ikkinchi gurux* – insonlararo munosabatlarning psixologik xususiyatlari, ya'ni impatiya va antipatiya, madaniy-etnik xilma-xillik, rahbar hatti-harakatlari, psixologik moslasha olmaslik va hokazo.

*Uchinchi gurux* – jamoa a'zolarining o'ziga xosligi. Masalan, o'zini boshqara olmaslik, ehtirolarga berilish, tajovuz, do'q-po'pisa, haqoratlash-so'kinish, munosabatga kirisha olmaslik<sup>1</sup>.

Ziddiyatlar ma'muriy tashkilotlar va ishlab chiqarish korxonalari uchun ahamiyati va xal etish yo'llariga ko'ra farqlanadi va umumiy ma'noda konstruktiv va destruktiv ziddiyatlarga ajraladi. *Konstruktiv* ziddiyatlarga tashkilotning hayotiy muammolarini hamda ularni xal etish orqali samarali taraqqiyotga olib chiqish xos. *Destruktiv* ziddiyatlar salbiy, vayronkor natijalarga olib keladi. Shuningdek, ayrim xollarda bu vaziyat janjallarga va tashkilot faoliyatining susayishiga olib keladi.

## **Foydalaniladigan adabiyotlar ro'yxati**

### **Rahbariy adabiyotlar:**

1. Mirziyoev Sh.M. – Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston Davlatini birgalikda barpo etamiz.- T.,O'zbekiston. 2016.
2. Mirziyoev Sh.M. – Qonun ustivorligi va inson manfaatlarini ta'minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. – T., O'zbekiston. 2017.
3. Mirziyoev Sh.M. – Tanqidiy taxlil, qat'iy tartib intizom va shaxsiy javobgarlik – xar bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. T., O'zbekiston. 2017.
4. O'zbekiston respublikasi Vazirlar Mahkamasining Qarori “Davlat boshqaruvi organlari va mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari xodimlarining odob-axloq namunaviy qoidalarini tasdiqlash to'g'risida”

<sup>1</sup> Krichevskiy R.L. Yesli vy – rukovoditel. M.:Delo. 1993.

(O'zbekiston respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2016 y., 9-son, 94-modda)lex.uz

5. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – engilmas kuch. –T.: Ma'naviyat, 2008.

### **Darsliklar va o'quv qo'llanmalar:**

1. Abdulla Sher. Axloqshunoslik. Darslik. –T.: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2010.
2. Agzamova N. Etika. Uslubiy qo'llanma. –T.: OOO “NORI”, 2013.
3. Jahon falsafasi tarixidan lavhalar. G' Q.Nazarov tahriri ostida. –T.: Sharq, 2004
4. Mamashokirov S., Usmanov E. Barqaror taraqqiyotning ekologik xavfsizlik masalalalari. –T.: Fan, 2009.
5. Muhammadjonova L.A., Ortiqova D.O., Abidjanova F.A., Masharipova G.K. Professional etika va etiket. Darslik. - T.: "Adabiyot uchqunlari" 2018.
- 6.M. Kaxxarova, N Agzamova. Etika Uchebnoe posobie. Rizograf imeni Nizami. 2018 god.
- 7.L.Muhammadjonova, F.Abidjanova. Etiket. O'quv qo'llanma. T.: Universitet. O'zMU, 2018.
8. Nurmatova M., Muhammadjonova L., Ma'naviyatning axloqiy asoslari.– T.: Unversitet, O'zMU. 2013.
9. Nazarov Q. Aksiologiya – qadriyatlar falsafasi. –T.: O'FMJ, 2004.
10. Nurmatova M. Shaxs kamolotida axloqiy va estetik qadriyatlar uyg'unligi. – T.: Universitet, 2009.
11. E.Umarov., F.Zagritdinova. “Etika. Prikladnaya etika”. -T.: Noshir, 2012.
12. Husanov B., Gulamov V. Muomala madaniyati. Darslik. –T.: Iqtisod-moliya, 2009.
13. Shermuxammedova N.A. XXI asr fanining dolzarb muammolari G'G' Falsafa va fan metodologiyasi. – T.: Universitet, 2005.

### **Qo'shimcha adabiyotlar:**

1. Arastu. Poetika. Axloqi Kabir. –T.: Yangi asr avlodi, 2004.
2. Aliqulov H. Falsafiy meros va ma'naviy-axloqiy fikr rivoji. –T.: Falsafa va huquq instituti, 2009.
3. Agzamxodjaeva S.S. Ijtimoiy ideal va O'zbekistonda ijtimoiy-ma'naviy taraqqiyot muammolari. Dissertatsiya. Fals. fan. dok. – T.: 2009.
4. Abdulla Avloniy Turkiy guliston yoxud axloq. – T.: O'qituvchi, 1992.
5. Abu Abdullox Muhammad ibn Ismoil al Buxoriy. Hadis. 2. tomlik –T.: O'zbekiston milliy entsiklopediyasi davlat ilmiy nashriyoti, 2008.

6. Jabborov I. O'zbeklar (ana'naviy xo'jaligi, turmush tarzi va etnomadaniyati). –T.: Sharq, 2008.
7. Zagritdinova F.B. Filosofsko-eticheskiy analiz problem sovremennoy biomeditsino' (na primere Respubliki Uzbekistan). Dissertatsiya. Dok. filos. nauk. – T.: 2006.
8. Qaxxarova Sh. Global ma'naviyat globallashuvning g'oyaviy asosi. –T.: Tafakkur, 2009.
9. Madaeva Sh. Milliy mentalitet va demokratik tafakkur. –T.: Falsafa va huquq, 2007.
10. Mahmudov T. Komillik asrorlari. Hayotiy hikmatlar. –T.: Adolat, 2006.
11. Ma'naviyat asosiy tushunchalar izohli lug'ati. –T.: G'.G'ulom nomidagi nashriyot – matbaa ijodiy uyi, 2009 yil.
12. Navro'zova T.N., Zoirov E.X., Yunusova T.S. Tasavvufda inson va uning kamoloti masalasi. – T.: Falsafa va huquq, 2006.
13. Muxammadjonova L.A. Ma'rifatparvar shoirlar – Dilshod Barno va Anbar Otinning axloqiy qarashlari. Dissertatsiya. Fals. fan.nom. – T.: 2005.
14. Nurmatova M.A. Shaxs ma'naviy kamolotida estetik va axloqiy va estetik qadriyatlar uyg'unligi. –T.: Universitet, 2009.
15. Ochilova B. Milliy-ma'naviy yuksalishda meros, qadriyatlar va vorisiylik. –T.: Istiqlof, 2009.
16. Otamurodav S. Globallashuv va millat. –T.: Yangi asr avlodi, 2008.
17. Tillaeva G. Ma'naviyat va komil inson tarbiyasi. –T.: Falsafa va huquq, 2006.
18. Umarov B. Globallashuv ziddiyatlari. – T., Ma'naviyat, 2006.
19. Falsafa: qomusiy lug'at. G' Q.Nazarov tahriri ostida. – T.: Sharq, 2004.
20. Xojiaxmedov A. Mahalla odobi. –T.: Sharq, 2001.
21. Xolmatova M. Oilaviy munosabatlar madaniyati va sog'lom avlod tarbiyasi. – T.: O'zbekiston, 2000.
22. Choriev A. Inson falsafasi. –T.: Chinor ENK nashriyoti, 2007.
23. Shayx Muhammad Sodik Muhammad Yusuf. Hadis va hayot. Adab. – T.: Sharq 2008.
24. Qur'onov M. Milliy g'oya va o'zbek xarakteri. – T.: Ma'naviyat, 2005.
25. Yakubov Yu.M. Islom ta'limotida shaxs va jamiyat munosabatlari masalasi. Dissertatsiya. Fals. fan.nom. – T.: 2009.

## IMIY

### REJA:

1. Imiy tushunchasi va uning vizual tavsiflari.

2. Imijni shakllantirishda jamoatchilik fikrini o'rganish.
3. Imij turlari va uni shakllantirish omillari.
4. Imij va uning o'zgarib borishi.

«Imij» so'zi «obraz, ko'rinish, reputatsiya» kabi ma'nolarni anglatadi. Imij — bu insonning o'zini boshqalar oldida ma'lum ko'rinish (obraz)da namoyish qilishidir. Rahbar imiji atrofda qilargacha uning shaxsiy insoniy fazilatlarini, aqliy salohiyatini, kasbiy va axloqiy sifatlarini ko'rsatib turadi. Insonlarga ta'sir ko'rsatishning 2 usuli mavjud. “Ishontirish usuli” va “Yoqish usuli”. Ulardan so'ngisi samaraliroq. Blez Paskal. Imij – taasurotlarni boshqarish san'ati.

Imij – bu muayyan shaxs, tashkilot yoki boshqa ijtimoiy ob'ektga nisbatan kishilar ongida shakllangan sun'iy qiyofadir, u idrok etilayotgan ob'ekt to'g'risida hissiy bezalgan axborotning kattagina xajmini saqlaydi va muayyan ijtimoiy xatti-harakatga turtki beradi.

Kishilar oldida paydo bo'lgan tanlash (mahsulotlar va xizmatlarni, siyosiy partiyalar va ijtimoiy tashkilotlarni, etakchilar va rahbarlarni) tanlash muammosining keskinlashuvi hamda turli-tuman bozorlarda – iste'molchilik, siyosat va boshqa bozorlarda raqobatning vujudga kelishiga bog'liq holda imijga bo'lgan e'tibor dolzarblashmoqda.

Imijning o'ziga xosliklari:

Axborotlashganlik – ob'ektning o'ziga tegishli bo'lgan alomatlar majmui to'g'risida ma'lumot beradi.

Tez o'zgaruvchanlik – imij timsollari, imij egasidagi yoki guruh ongidagi o'zgarishlarga mos ravishda qayta shakllanadi, ko'rinishini o'zgartiradi.

Faollik – alohida kishilar yoki aholining yaxlit guruhlari ongiga, hissiyotlariga, faoliyati hamda hatti-harakatlariga ta'sir o'tkazishga qodirdir.

Ko'p qirralilik – imij o'zining maqsadli auditoriya qanchalik ko'pqirrali bo'lsa, shu qadar ko'pqirralidir.

Imij – sun'iy xususiyatga ega.

Imij – nozik hodisa.

Imij tasnifiga qo'llanilishi mumkin bo'lgan uch yondoshuv:

Funksional, bunda turlicha vazifalardan kelib chiqqan holda imijning turli ko'rinishlari ajratib ko'rsatiladi.

Mavzuga doir, bunda ushbu turlar amalga oshirishning turli mavzulariga tegishlidir.

Taqqoslash, bunda bir-biriga yaqin imijlar taqqoslanadi.

Imij turlari:

ob'ektga ko'ra (shaxsiy va umumlashgan);

boshqa ob'ektlarga munosabatga ko'ra (birlik - ko'plik);

mazmuniga ko'ra (sodda-murakkab);  
 xususiyatlarning o'ziga xosligiga ko'ra (o'ziga xos-oddiy);  
 imij yaratish mazmuniga ko'ra (shaxsiy, kasbiy, siyosiy);  
 jinsiga ko'ra (erkak, ayol);  
 yoshga ko'ra (navqironlik, etuklik);  
 ijtimoiy turkumiga ko'ra (rahbar, siyosatchi, tadbirkor, popyulduz...);  
 mavjudlikning davomiyligiga ko'ra (umumiy-vaziyatdan kelib chiquvchi);  
 namoyon bo'lish mezonlariga ko'ra (muhitga bog'liq, hajmli, buyumlashgan, og'zaki, kinetik) va xokazo imijlarga bo'linadi.

*Imijning qadriyatli vazifalari:*

Shaxsni yuksaltiruvchi vazifa.

Shaxs atrofida jozibadorlik fazilati shakllanishi tufayli u o'zining eng yaxshi sifatlarini nomoyon etishda jamoaga ma'qul keladi, o'zini erkin sezadi.

Shaxslararo munosabatlarni qulaylashtirish vazifasi.

Bu vazifaning mohiyati shundan iboratki, kishilarning jozibadorligi ular uchun muloqotlarda yoqimtoylik va xayrixohlikni vujudga keltirsa bular o'z navbatida bag'rikenglik va odobning ma'naviy me'yorini yaratib beradi.

Ruhan davolash vazifasi.

Buning mohiyati shundan iboratki, shaxs o'zining favquloddaligi, o'ta xushmuomalaligini anglaganligi tufayli barqaror ko'tarinki kayfiyatda yuradi va o'ziga ishonch xosil qiladi.

Shaxslararo moslashuv.

To'g'ri tanlangan imij tufayli muayyan ijtimoiy muhitga jadal kirib borish, o'ziga e'tiborni jalb qilish, xayrixoh munosabatlarni zudlik bilan o'rnatish mumkin.

Insonning eng yaxshi sifatlarini yoritib berish.

Munosib imij inson uchun u bilan muomalaga kirishadigan kishilarga uning eng yaxshi fazilatlarini ko'zga ko'rinadigan qilib namoyish etishga, uni aynan yoqimtoy qiladigan yoki kishini o'ziga tortadigan jihatlarini ko'rib olishiga imkon yaratadi.

Kishining shaxsiy salbiy xususiyatlarini pardalash.

Pardoz-andoz, libos bezaklari, bichimi, soch turmagi va hokazolar vositasida insondagi mavjud nuqsonlardan kishilar e'tiborini chalg'itish mumkin

E'tiborni o'ziga tortish.

Jozibador imij kishilar e'tiborini beixtiyor o'ziga tortadi, boshqalarda yaxshi ta'ssurot qoldiradi, shu bois ular jozibador imijga ega kishining gapirayotgan yoki ko'rsatayotgan narsalariga ruhan osonroq ishonadilar.

Yoshdagi farqlarni bartaraf etish.

Fe'l-atvorning maqbul modellari va turlicha rollarni ijro etish muvaffaqiyatli tanlanganligida yaqqol ko'zga tashlanadigan o'z-o'zini taqdim eta olish

texnologiyasini mohirona egallagan holda turli ijtimoiy mavqega va kasbiy maqomga ega kishilar orasida o'z yoshidan uyalmasdan bimalol harakat qilish mumkin.

Rahbarga o'z imijini to'g'ri yaratish uchun zarur bo'lgan sifatlarning uch guruhi: shaxsiy, kasbiy, tashkilotchilik va ishchanlik sifatlaridir.

Tashqi qiyofa orqali insonlarning qiziqishlarini orttirgan holda, o'zini namoyon qila olish, o'ziga og'dira olish va e'tiborni qarata olish. Teatr, shou-biznes, siyosat. Faqatgina iste'dodning o'zi etarli emas, balki tomoshabinlarning ko'ngliga yoqa olishni ham bilish karak. Davlat boshqaruvida o'zini taqdimot qilish siyosiy arboblarning muvaffaqiyatini belgilaydi.

*“O'zini taqdimot qilishning umumiy texnologiyasi” 4 ta asosiy texnologik jihatlardan iborat:*

1. Qiyofa vizualizatsiyasi
2. Kommunikativ mexanika
3. Verbal effekt
4. Flyuid nurlanish

#### *Qiyofa vizualizatsiyasi*

- ✓ feysbilding: yuz gigienasi, fiziognomika, kosmetologik tuzatish, makiyaj yoki vizaj, sochlarni parvarishlash va mos turmak(yoki parik)ni tanlash;
- ✓ kinesika: tana nafisligi, hatti-harakat va xolat elegantligi, ishora san'ati, sog'lom turmush tarzi;
- ✓ kiyinish usuli: erkak va ayollar zamonaviy moda olami tendentsiyalari, yaxshi kiyinib yurish, aksessuarlar samaraligi.

#### *Zamonaviy rahbarga xos Dress-Code*

Insonning jamiyatga o'zini talqin etishi, har doim ham jamiyat tomonidan u hohlaganday qabul qilinavermaydi. O'z o'ziga bo'lgan talabning mukammallashuvi, o'zining tashqi va ichki psixologik dunyosini to'liq nazorat qilishga bo'lgan intilish, yoki o'zini taqdim etishning yorqin misollarini egallashga bo'lgan shijoati insonning shaxs sifatida kamol topganligi va rivojlanish hamda mukammallashuvi belgisidir. Insonning qanday ko'rinishga egaligi, imiji u haqida 92% tasavvur paydo bo'ladi. Ust-boshning vazifasi insonni faqatgina sovuqdan, yomg'irdan himoya qilish emas, balki o'ziga e'tiborni tortish vositasi hamdir. Dress-kod (inglizcha. dress code — libos kodeksi) — bu muayyan tadbirlar, tashkilotlar, muassasalarga tashrif buyurishda talab qilinadigan libos shaklidir. Dress-kod -Libosning yagona tarziga bo'lgan talab tashkilot madaniyatini, yagona ruhni, kompaniyaga nisbatan ijobiy munosabatni, uning rivojiga mansublik hissini vujudga kelishini mustahkamlashga imkon yaratadi. Libos – ish kishisining tashrif qog'ozidir.

O'zini namoyon qilish («reklama») bu rahbar tomonidan o'zining ijobiy hislatlarini ochib bera olish va salbiy jihatlari nimadan iborat ekanligini tushuna olishdir. Aniq bir shaxs uchun qusur bo'lib hisoblangan holat qolgan jamiyat uchun ham kamchilik bo'lavermaydi. Masalan, ikkita tortinchoq kishi uchrashganlarida ularning andishaligi o'zoro til topishlariga ko'mak beradi. Shuningdek, odam ortiqcha vaznga ega va bundan uyaladi. Lekin to'liq jussali odam ushbu komplekslarni munosib qabul qilsa, sog'lom va tetik hayot kechirsa, did bilan kiyinsa va muloqotni qo'llab-quvvatlasa, ya'ni xushmomila bo'lsa u albatta jozibali imij sohibiga aylanadi.

Rahbarning libosi konservatizm, mo'tadilligi, benuqsonligi, sifatli va orastaligi bilan farqlanishi lozim. Kiyimdagi tartiblilik hamda ixchamlilik ko'pincha ishdagi tashkilotchilikka taqqoslanadi. Palapartish yoki qing'ir boylangan galstuk, kir oyoq kiyimi, g'ijim ko'ylak bunday kiyim kiyuvchi inson o'ziga nisbatan talabchan emasligi yoki atrofdagilarni xurmat qilmaydi degan tasavvur hosil qiladi. Shuningdek, u muzokara va shartnomalarni bajarishda ham o'ziga nisbatan talabchan emas hamda ish yuzasidagi hamkorlarning manfaatlariga ham xurmatsizlik hisoblanadi. Qoida: rasmiy(ishchan) inson bir necha kun ketma-ket ishga bir xil kostyumda borishi kerak emas.

Imij individualligini odatiy xolatlarni bir oz yangicha talqin etish bilan namoyon etish mumkin:

Tashqi ko'rinish. Kiyinish madaniyati va soch turmagining mos ravishda ish suratlariga tushishi.

Noverbal harakatlar. Masalan, rahbar yig'ilishda o'tirsa, u o'zining mimikasi, jestlari bilan o'zini boshqacha fikrda ekanligini ko'rsata oladi.

Ovozi va nutqi. Rahbar (xodim) ma'lum jamoada o'zining individualligini namoyon etar ekan, bunda ovozi bir ko'tarib jamoaga yo'naltirilgan aniq nutq bilan harakat qilishi mumkin.

#### *Erkaklar rasmiy kostyumi*

Bir nechta maslahatlar.

1 Yorqin rangli kostyumlarni kunduzi, qoramtir to'q ranglilarni kechasi kiygan ma'qul.

2. Har doim bitta kostyumni ozoda va shay saqlang.

3. Har doim ham moda ortidan quvmang. Yaxshisi zamonviy kiyinib yomon ko'ringandan ko'ra, oddiy kiyinib yaxshi ko'ringan ma'qul.

4. Agarda galstuk sifatli matodan tikilgan bo'lsa, bog'lamni echib yubormasdan boshdan echgan ma'qul

Eng muhimi tartibli va ozoda taassurot qoldirish. Kunduzi ko'krak cho'ntagida dastro'mol olib yurishi shart emas, lekin agar u bor bo'lsa, benuqson, pok bo'lishi lozim.

Ro'molcha shim cho'ntagida ochiq xolda saqlanishi lozim.

Rasmiy vaziyatda pidjak tugmalari qadalgan bo'lishi lozim. Tugmalari qadalgan pidjakda ma'ruza qilinadi, prezidiumda o'tiriladi, kabinetga majlisga kiriladi, qabulda bo'linadi, teatrning tomosha zaliga, restoranga kirish mumkin.

Nonushta, tushlik, kechki ovqat vaqtida stolga yoki stol yoniga kresloga o'tirilganida pidjak tugmalarini echib qo'yish mumkin. Ko'ylak doimo kostyumdagi eng to'q rangdan yorqinroq bo'lishi lozim. Pidjak yoki jaketlarning tashqi cho'ntaklariga ruchka, qalam, ko'zoynak, taroq va boshqa buyumlarni tashqaridan ko'rinadigan qilib solib yurish mumkin emas. Shimning uzunligi: shim old tomondan poyafzalning ustida salgina taxlanib turishi, orqa tomondan poshnaning boshiga yoki o'rtasiga etishi zarur. Shim chizig'i yaxshi dazmollangan bo'lishi kerak. Manjetli shimlar faqat oyoqlari uzun erkaklarga tavsiya qilinadi.

Ko'ylak nozik paxtadan bo'lishi va ba'zan sintetika qo'shilgan ham bo'lishi ham mumkin. Ko'ylak bel atrofida taxlanib qolmasligi, shishib turmasligi va kamar ostidan chiqib ketmasligi lozim.

Faqat oq va bir tusli ko'ylaklar yaxshi ta'b, obro', saloxiyatdan darak beradi.

Faqat oq va bir tusli ko'ylaklar har qanday libos va bo'yinbog'lar bilan uyg'unlashadi.

Odmi ranglar ham yaxshi, ular qanchalik och rangda bo'lsa shuncha yaxshi.

Rahbar hech bir sharoitda yorqin qizil ko'ylaklarni kiymasligi kerak.

Agar erkak kishining rangi bemor tusida bo'lsa, u kulrang, sariq va yashil ranglarni butunlay yoddan chiqarishi zarur.

Yoqa – kiyimdagi eng muhim joydir. U doim o'lchamga mos bo'lishi shart.

Yoqaning balandligi yoshga bog'liq. Masalan, baland yoqa bo'yindagi ajinlarni yopib turadi.

Yoqaning o'zi g'ijim bo'lmasligi va bo'yinbog' tuguni bilan yagona yaxlitlikni tashkil etishi kerak.

Ko'ylakda ham xuddi pidjakdagiga o'xshash sport yoki harbiy tarzning unsurlari– pogonchalar, taxlangan burmalarga ega qoplama cho'ntaklarga yo'l qo'yilmaydi.

Ko'ylak manjetlari bilakdan sal pastroq bo'lishi va pidjak engidan 1 sm chiqib turishi, qo'lga jips yopishib turishi va ayni vaqtda qo'l soatiga bimalol qarashiga imkon berishi lozim.

Galstuk kostyumga mos bo'lishi kerak.

Har qanday rasm, rang, hajmdagi galstuk nozik did bilan ko'rinadiki, qachonki ko'zga yoqqol tashlanmasa.

Qishda – qoramtir to'q rangdagi, yozda – yorqin rangli tusdagi galstuk taqqan afzal.

Galstukdagi asosiy rang kostyumdagi ranglardan biriga mos bo'lgani afzal.

Katta savlatli erkaklar ifodali shakldagi va kengroq galstuklar taqqani ma'qul, ozg'in kishilar esa katta tugundagi va keng galstuklarni taqmagani yaxshi.

Galstuk tutilganda uning tuguni ko'ylak yoqasiga mos to'g'ri kelishi kerak.

Bo'yinbog'ning o'rtacha kengligi pidjak yoqasining kengligidek bo'lishi lozim, ya'ni agar pidjak yoqasi keng bo'lsa, bo'yinbog' ingichka bo'lmasligi lozim va aksincha.

Bo'yinbog'ning uzunligi u kamar to'qasini yopib turishi bilan belgilanadi.

Rang-barang tUSDagi, gazeta matni tushrilgan, kishilar va hayvonlar rasmi solingan bo'yinbog'larga umuman yo'l qo'yib bo'lmaydi.

Bo'yinbog' uchun siyohrang, pushti, qizg'ish, och qizil ranglar tavsiya etilmaydi.

Bir tUSDagi kostyum bilan ko'ylakning har qanday rasmi mos tushadi. Bir tuslilik – rasm - bir tuslilik ko'rinishidagi uch yoqlama ko'rinish juda maqbuldir.

Bir tuslik kostyum uchun uch asosiy ko'rinish mavjud:

- a) bir tUSDagi ko'ylak, bir tusli bo'yinbog';
- b) rasmlil ko'ylak, bir tusli bo'yinbog';
- v) bir tusli ko'ylak, rasmlil bo'yinbog'.

Poyafzal kostyum rangiga moslab tanlanadi.

Yaxshi tanlanmagan va iflos poyafzaldagi kishi salbiy qabul qilinadi.

Poyafzal atrofdagilar ko'ziga tashlanib turmasligi va egasiga noqulaylik tug'dirmasligi lozim. Qulaylik va ixchamlik poyafzal tanlashdagi asosiy sifatlardir.

Ilonga o'hshab yaltirab turadigan, to'qalari, iplari ko'p timsoh terisi maqbul hisoblanmaydi.

Laklangan tuflini faqat kechqurun ko'chaga chiqqanda yoki smoking bilan birga kiyish mumkin.

Shunda ham tuflil, botinka, yarim botinkalar to'q rangda yohud qora rangli va silliq charmdan tayyorlangan bo'lshi mumkin.

Paypoqlar rangi poyafzal rangini takrorlaydi

Tuflining bog'ichlari bir tusli bo'lishi lozim. Bezaklar bo'lmagani afzal hisoblanadi.

Poyafzalning uchi doirasimon yoki o'tkir burchakli bo'lishi mumkin.

Poshnasi baland, tikilishi qo'pol, choklari ko'zga tashlanib turadigan poyafzaldan voz keching.

Poyafzal rangi qora bo'lishi ma'lum narsa.

Paypoqlardagi rangli rasmlarga yo'l qo'yilmaydi.

Faqat yozda jigarrang tuflil kiyish mumkin. Bunda ko'ylak yoki kostyum ochiq rangil bo'liishi zarur.

Aksessuarlar. Brend firmaga tegishli, charm yoki metallidan ishlangan qo'l soat, xuddi shu xislatga ega avtoruchka va portfel-borsetka hamda boshqa aksesuarlar omadlilikni aks ettirib, jamiyatdagi o'rni va moliyaviy holatidan dalolat beradi.

O'zini muhiti bilan. Individuallik ba'zida xonada noyob san'at asarlarining mavjudligi va noodatiy xona anjomlari(mebel) hamda b. Ko'rinishlar bilan namoyon bo'ladi. Metal opravali ko'z oynak ko'proq yoshlarga mos keladi. Og'ir plasmassali va yog'ochli oprava ko'proq an'anaviydir, uni taqqan odamlar o'zlari yoshidan kattaroq ko'rinishadi.

Oprava rangi soch rangiga mos bo'lgani yaxshi.

Arzon ruchkalar ishlatmang.

Xamyon sodda va ozoda bo'lishi kerak. Eng yaxshi variant-to'q jigarrang charmdan tayyorlangani. Uni yaxshi yopilishi uchun to'ldirib yubormaslik kerak.

Rasmiy odam uchun eng qulay qo'lqop jigarrang, kulrang rangligi. Yupqa ingichka bo'lgani ma'qul.

Qat'iyman etiladi! Ofisga har qanday vaziyatda ham quyidagi ko'rinishlarda kelib bo'lmaydi.

Jinsi shimlarda;

Mayka va futbolkalarda;

Shaffof, ochiq ko'ylaklarda;

Sport liboslarida;

Kesilgan yubka va ko'ylaklarda;

Insonning o'zi haqidagi tasavvurining shakllanishiga omillardan biri bu hayotiy tajribadir. Ko'pchilik yangi rahbarlar jamoa oldida dastlabki chiqishlarida yuzaga keladigan noxushliklardan o'zlarini yo'qotib qo'yishadi va o'zlarini umuman yaroqsiz odamdek xis qilishadi. Jamiyatning rahbarga bo'lgan xurmatsizligi uni bu fikrlarini to'ldiradi. Agarda rahbar o'rab turgan jamoada uni qadrlamasa«bir tiyin» uning iziga bo'lgan bahosi «ego»si halokat sari etaklaydi. Bunday holatni oldini olish uchun rahbar shaxsda o'ziga bo'lgan xurmatning mukammalligi va erishgan yutuqlarini tushuna olishi muhim o'ringa chiqadi.

Nemis psixologi Y. Sholtsning ta'kidlashicha, kiyinish madaniyati yaqin vaqtlargacha rasmiyatchilik bo'lgan, hozirda esa rahbar (xodim)larning turli mansab pillapoyasida kiyinish madaniyati, uning didi yanada ko'proq ahamiyat kasb etib bormoqda. Tashqi ko'rinish rahbarning o'ziga xos "tashrif qog'ozchasi" vazifasini bajaradi. Did bilan kiyinish bu "karera qilish madaniyatining" yozilmagan qoidalaridan biri hisoblanadi. Ko'plab firmalar "Kimki firma rahbardek ko'rinishni xohlasa, unda sarishtalangan va rasmiy ko'rinishga ega bo'lishi lozim, degan qoidaga amal qilishadi. Chunki insonning umumiy ko'rinishi, kiyinishda yaxshi didga ega ekanligi uning ishchan munosabatlarda shunday farosatli ekanligini beligsidir.

Ba’zida ovozni insonning “Ikkinchi yuzi” deb atashadi. Ovoz ham huddi insonning yuzi singari ko’p narsani “aytishi” mumkin. Tanishuv, suhbat jarayonida dastlabki taasurot tashqi ko’rinish bilan belgilansa, keyinchalik muloqot jarayonida hodimning ovozi muhim o’ringa chiqadi. Biroq ko’pchilik imijni yaratoyotgan vaqtda ovozni esdan chiqarib qo’yadilar.

Imijning boshqa tarkibiy qismlari singari ovoz va nutqdan ham o’zgalarga o’xshash va yoki o’zining individualligini bildirish uchun foydalanadi.

Bugungi kunda telefonda gaplashish madaniyati alohida ahamiyat kasb etmoqda. Aynan telefon orqali dastlabki muloqot ta’ssurotlari o’rnatiladi. Rahbar (hodim) telefondan qanchalik ko’p foydalansa, shuncha o’z ovozi nazorat qilish muhim hisoblanadi. Yuqorida ta’kidlanganidek, dastlabki ta’ssurot telefon orqali o’rnatilsa, yuzma yuz uchrashuv oldidan suhbatdosh haqida umumiy fikrlar paydo bo’ladi. Yoqimli ovoz insonni tana kamchiliklarini yashirib, uni yanada jozibali ko’rsatadi.

Agarda rahbar (hodim)ning ovozi, nutqi jaranglashi yoqimli bo’lsa, yig’ilishlarda yoki telefondagi suhbatlarda uni kamroq bo’lishadi. Ushbu holatda rahbarda “oratorlik imiji” maqjud ekanligini bilishimiz mumkin.

Ong va tana o’rtasida o’zaro aloqa mavjud. Insonning o’ziga beradigan bahosining salmoqli ulushini uning “yaxshi tana imijiga” egaligi beradi. Yaxshi “tana imiji” o’z o’rnida “a’lo” tana tuzilishiga ega bo’lishi kerakligini anlatmaydi. U miya va tana o’rtasidaga mutanosiblikni anglatadi. “Tana imiji” modaning so’ngi urfida kiyinsa ham ko’rimsiz bo’lishi mumkin.

Tana imiji xodim yoki rahbarning jamoa orasidagi obo’risni ham bildiradi. Odamlar tana imijiga stereotip bo’lib qolgan tushunchalar bilan baholashadi, masalan, keng tarqalgan tushuncha, katta (yirik) odamlar qudratli, nufuzli, o’z bo’yniga ma’suliyatli ishlarni oladigan bo’lishadi. Kichik bo’y-bastga ega bo’lgan kishilar o’zlarining kamchiliklarini o’zini xammadan yuqori bilish («Napoleon sindromi») yoki aksincha, o’zlarining “kichikligini” ma’suliyatli ishlardan qochish uchun ishlatishlari mumkin. Bo’y-bast hukmronlik va nazorat tushunchalariga a’loqador.

O’z tanasiga haddan ziyod tanqid xodimning umumiy imijiga salbiy ta’sir o’tkazishi mumkin. Tana imijni quyidagilarga ko’ra yaxshilash mamkuin:

- Qaddi-qomat va tana harakatlari. Tana harakatlari va qad-qomatni nazorat qilish orqali kishi o’zini va tana kamchiliklarini yashirishi mumkin. (masalan, qo’llarini qornida chalkash qilib o’tirish).
- Tashqi ko’rinish. O’z tana imidjini to’g’ri qabul qilib, xushbichim kiyinish orqali o’zining kuchli tomonlari oshirib, kamchiliklarini yashirish mumkin.

O’z imijiga e’tiborli munosabatda bo’ladigan rahbar, o’zning tana harakatlariga jiddiy e’tibor qaratishi shart. O’zning noverbal harakatlarini nazorat qilish

rahbarning muhim hislatlaridan hisoblanadi. Jest va mimika texnikasi, ovozning to'g'ri ishlatilishi, tabassum qilish madaniyatini, agarda kerak bo'lsa, - imijmeyreklar o'rgatadilar.

Ko'pgina hollarda rahbar imiji — bu aniq vaziyatlarda oqilona yo'nalish tuta bilish hatti-harakatlarining to'g'ri tanlangan modeli hisoblanadi.

### **Foydalaniladigan adabiyotlar ro'yxati**

#### **Rahbariy adabiyotlar:**

1. Mirziyoev Sh.M. – Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston Davlatini birgalikda barpo etamiz.- T.,O'zbekiston. 2016.
2. Mirziyoev Sh.M. – Qonun ustivorligi va inson manfaatlarini ta'minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. – T., O'zbekiston. 2017.
3. Mirziyoev Sh.M. – Tanqidiy taxlil, qat'iy tartib intizom va shaxsiy javobgarlik – xar bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. T., O'zbekiston. 2017.
4. O'zbekiston respublikasi Vazirlar Mahkamasining Qarori “Davlat boshqaruvi organlari va mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari xodimlarining odob-axloq namunaviy qoidalarini tasdiqlash to'g'risida” (O'zbekiston respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2016 y., 9-son, 94-modda)lex.uz
5. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – engilmas kuch. –T.: Ma'naviyat, 2008.

#### **Darsliklar va o'quv qo'llanmalar:**

1. Abdulla Sher. Axloqshunoslik. Darslik. –T.: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2010.
2. Agzamova N. Etika. Uslubiy qo'llanma. –T.: OOO “NORI”, 2013.
3. Jahon falsafasi tarixidan lavhalar. G' Q.Nazarov tahriri ostida. –T.: Sharq, 2004
4. Mamashokirov S., Usmanov E. Barqaror taraqqiyotning ekologik xavfsizlik masalalalari. –T.: Fan, 2009.
5. Muhammadjonova L.A., Ortiqova D.O., Abidjanova F.A., Masharipova G.K. Professional etika va etiket. Darslik. - T.: "Adabiyot uchqunlari" 2018.
- 6.M. Kaxxarova, N Agzamova. Etika Uchebnoe posobie. Rizograf imeni Nizami. 2018 god.
- 7.L.Muhammadjonova, F.Abidjanova. Etiket. O'quv qo'llanma. T.: Universitet. O'zMU, 2018.

8. Nurmatova M., Muhammadjonova L., Ma'naviyatning axloqiy asoslari. – T.: Universitet, O'zMU. 2013.
9. Nazarov Q. Aksiologiya – qadriyatlar falsafasi. – T.: O'FMJ, 2004.
10. Nurmatova M. Shaxs kamolotida axloqiy va estetik qadriyatlar uyg'unligi. – T.: Universitet, 2009.
11. E.Umarov., F.Zagritdinova. "Etika. Prikladnaya etika". – T.: Noshir, 2012.
12. Husanov B., Gulamov V. Muomala madaniyati. Darslik. – T.: Iqtisodmoliya, 2009.
13. Shermuxammedova N.A. XXI asr fanining dolzarb muammolari G'G' Falsafa va fan metodologiyasi. – T.: Universitet, 2005.

### **Qo'shimcha adabiyotlar:**

1. Arastu. Poetika. Axloqi Kabir. – T.: Yangi asr avlodi, 2004.
2. Aliqulov H. Falsafiy meros va ma'naviy-axloqiy fikr rivoji. – T.: Falsafa va huquq instituti, 2009.
3. Agzamxodjaeva S.S. Ijtimoiy ideal va O'zbekistonda ijtimoiy-ma'naviy taraqqiyot muammolari. Dissertatsiya. Fals. fan. dok. – T.: 2009.
4. Abdulla Avloniy Turkiy guliston yoxud axloq. – T.: O'qituvchi, 1992.
5. Abu Abdullox Muhammad ibn Ismoil al Buxoriy. Hadis. 2. tomlik – T.: O'zbekiston milliy entsiklopediyasi davlat ilmiy nashriyoti, 2008.
6. Jabborov I. O'zbeklar (ana'naviy xo'jaligi, turmush tarzi va etnomadaniyati). – T.: Sharq, 2008.
7. Zagritdinova F.B. Filosofsko-eticheskiy analiz problem sovremennoy biomeditsino' (na primere Respubliki Uzbekistan). Dissertatsiya. Dok. filos. nauk. – T.: 2006.
8. Qaxxarova Sh. Global ma'naviyat globallashuvning g'oyaviy asosi. – T.: Tafakkur, 2009.
9. Madaeva Sh. Milliy mentalitet va demokratik tafakkur. – T.: Falsafa va huquq, 2007.
10. Mahmudov T. Komillik asrorlari. Hayotiy hikmatlar. – T.: Adolat, 2006.
11. Ma'naviyat asosiy tushunchalar izohli lug'ati. – T.: G'.G'ulom nomidagi nashriyot – matbaa ijodiy uyi, 2009 yil.
12. Navro'zova T.N., Zoirov E.X., Yunusova T.S. Tasavvufda inson va uning kamoloti masalasi. – T.: Falsafa va huquq, 2006.
13. Muxammadjonova L.A. Ma'rifatparvar shoirlar – Dilshod Barno va Anbar Otinning axloqiy qarashlari. Dissertatsiya. Fals. fan.nom. – T.: 2005.
14. Nurmatova M.A. Shaxs ma'naviy kamolotida estetik va axloqiy va estetik qadriyatlar uyg'unligi. – T.: Universitet, 2009.

15. Ochilova B. Milliy-ma'naviy yuksalishda meros, qadriyatlar va vorisiylik. –T.: Istiqlol, 2009.
16. Otamurodav S. Globallashuv va millat. –T.: Yangi asr avlodi, 2008.
17. Tillaeva G. Ma'naviyat va komil inson tarbiyasi. –T.: Falsafa va huquq, 2006.
18. Umarov B. Globallashuv ziddiyatlari. – T., Ma'naviyat, 2006.
19. Falsafa: qomusiy lug'at. G' Q.Nazarov tahriri ostida. – T.: Sharq, 2004.
20. Xojiaxmedov A. Mahalla odobi. –T.: Sharq, 2001.
21. Xolmatova M. Oilaviy munosabatlar madaniyati va sog'lom avlod tarbiyasi. – T.: O'zbekiston, 2000.
22. Choriev A. Inson falsafasi. –T.: Chinor ENK nashriyoti, 2007.
23. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Hadis va hayot. Adab. – T.: Sharq 2008.
24. Quronov M. Milliy g'oya va o'zbek xarakteri. – T.: Ma'naviyat, 2005.
25. Yakubov Yu.M. Islom ta'limotida shaxs va jamiyat munosabatlari masalasi. Dissertatsiya. Fals. fan.nom. – T.: 2009.

## **BAXT VA INSON TABIATI.**

### **REJA:**

1. Gedonizm va evdemonizm tushunchalarining axloqiy ahamiyati.
2. Huzurbaxshlik ta'limotining yo'nalishlari.
3. Evdimonizm nafis ma'naviylik sifatida.
4. Globallashuv jarayoni.

Inson – aqlli xilqat, shuning uchun u ko'p xislat, fazilatlar sohibidir. Inson – inson nomiga xos odamiy fazilatlarga ega bo'lishi kerak. Insoniyat paydo bo'libdiki hamisha odamlilik qiyofasini, fe'l – atvorda o'ziga yarashadigan xatti – harakatlarni, u yoki bu fazilatlarni mujassamlashtirishga intilgan.

Arastu o'zining asarlaridan birida shunday deydi: “Fazilat nima, u nimalardan hosil qilinadi, shuni bilib olish zarur. Chunki, fazilat qanday hosil qilinishi tushunmay turib, fazilatni bilish befoydadir. Chindan ham hozir biz fazilat nima ekanligini bilish uchun emas, balki u qanday xosil qilinishini tushunish uchun uni o'rganishga kirishamiz Ya'ni, biz hozir fazilat nimaligini faqat bilish va tushunish bilan birga, fazilatli, ya'ni fozoil odam bo'lishni hohlaganimiz uchun uni o'rganishga kirishamiz”<sup>1</sup>

Bugungi kun kishisidagi odob, xulq – atvor qoidalari asrlar davomida tarkib topib, takomillashgan. Bu fazilatlar har bir insonning ichki va tashqi xislatlarida,

---

<sup>1</sup> Arastu. Poetika. Axloqi Kabir. T., “Yangi avlod asri” B 96

o'zini tuta bilishida, xatti – harakatlarida, muomala munosabatida o'z ifodasini topgan. Qadimgi Sharq va G'arbdagi falsafiy, diniy ta'limotlarda axloqning asosiy tushunchalari orqali insonning mohiyati nima, u o'ziga, boshqalarga bo'lgan munosabatlarda qanday ma'naviy mezonlarga tayanadi, degan savolga javob topishga intilishgan.

Husayn Voiz Koshifiy aytadi: “Guzal fe'l – atvorning nishonasi o'n narsadir: birinchi nishonasi – yaxshilik; ikkinchisi – insofli bo'lish; uchinchisi – boshqa odamdan ayb qidirmaslik; to'rtinchisi – biror kishida nojo'ya harakat ko'rsa, uni yaxshi yo'lga boshlash; beshinchisi – bir odam o'z aybiga iqrar bo'lib uzr aytsa, uzrini qabul qilish; oltinchisi – boshqalar uchun mashaqqatni o'z ustiga olish; ettinchisi – faqat o'z manfaatini ko'zlamaslik; sakkizinchisi – ochiq yuzli, shirin so'zli bo'lish; to'qqizinchisi – muxtojlarining hojatini chiqarish; o'ninchisi – muloyim va tavozeli bo'lishdir.”<sup>1</sup>

Buyuk mutafakkirlar aytganidek, axloq shunday oynaki, unda insonning tashqi qiyofasigina emas, balki ichki dunyosi ham ko'zga tashlanib turadi. Insonlarni tashqaridan kuzatish mumkin bo'lgan kamtarligi, xushmuomalaligi, andishaliligi, sharm – hayoliligida ichki axloqiy kamolotining darajasi yaqqol ko'zga tashlanib turadi.

Inson o'z faoliyatini barchasini odatda aql bilan, o'ylab amalga oshiradi. Inson xulosalari, rejalarining mohiyatini belgilashda axloqiy mezonlarning o'rni va ahamiyati kattadir. To'g'ri yo'l ko'rsatuvchi aql fazilatli tuyg'ular harakati bilan hamkor, hamohang bo'lganida fazilat paydo bo'ladi. Aql va tuyg'ularning bunday hamohangligi vaqtida doimo aql yaxshilikka buyuradi, to'g'ri va pokiza tuyg'ular oqilona buyruqlarga oson va tez bo'ysunaveradi. Arastu bu hususda shunday deydi: “Agar tuyg'ular pokiza bo'lsayu, ularga hukm o'tkazayotgan aql yo'ldan ozdiruvchi bo'lsa, fazilatga o'rin qolmaydi. Chunki fazilat yaxshilikka boshlovchi aql bilan pokiza tuyg'ulardan kelib chiqadi. Shuning uchun agar insonda fazilat bo'lsa, uni yovuz niyatda ishlatish sira mumkin emas”<sup>2</sup>

Axloq normalari bir xalqdan boshqa xalqlarga, avloddan avlodga o'tib, boyib, takomillashib boradi. Mukammal axloq va komil inson haqidagi tushunchalar xar bir davrning imkoniyatlari va mezonlari asosida belgilanadi. Komil insonlikning barcha davrlari to'la mos kelaveradigan umumiy mezonlari bo'lmaydi.

Abdurauf Fitrat ham axloq kishilarning bajarishi lozim bo'lgan «haqiqiy vazifalari»dan ekanligini shunday asoslaydi: «Odamzod madaniy jamoa bo'lganlaridan, o'zlarining hamjinslari bilan bir joyda yashashga majbur. Ular bir-biri bilan nochor muomalada va aloqada bo'ladilar. Lekin har kim o'z shaxsiy

<sup>1</sup> Sharq donishmandlari xikmatlari. T. “Sharq” 2006. B.126

<sup>2</sup> Arastu. Poetika. Axloqi Kabir. T., “Yangi avlod asri” B 160

manfaatlarini yuqori qo'yadi va alal-askar ularning manfaatlari bir-birinikiga to'g'ri kelmaydi, xilof keladi....

Bu manfaatlarning bir-biriga xilof kelishi gina, adovat, hasad va dushmanlikka sabab bo'ladi. Shu boisdan, odamlar bir-birlariga dushman bo'lib, urush va janjallar qilishib, ikki dunyo saodatiga erishishdan mahrum bo'lib qoladilar. Bas, bu erda odamlarni bu xil bemunosabatlardan man qilib, ijobiy fazilatlardan, insonning boshqa vazifalari ham borligidan ta'lim berish uchun ... axloq ilmi lozim»<sup>1</sup>.

Axloq normalari, axloqiy etuklik mezonlari ma'lum bir tarixiy davrning, sharoitlarning imkoniyati va extiyoji bilan belgilanadi. Axloqlilik, axloqsizlikning mezonlari xar bir muayyan davrdagi kishilarning xatti – harakatlarini konkret sharoitlardan, extiyojlardan kelib chiqqan holda ta'qiqlash yoki ma'qullashdir. Axloqiy taqiqlar jamoatchilik fikri, qonunlar turli e'tiqodlar asosida belgilanadi. Axloqiy etuklik darajasini ham bir shaxs emas, balki jamoatchilik belgilaydi. Insonlar o'rtasidagi munosabatlarni axloqiy yoki g'ayriaxloqiy deb baholash jamiyat a'zolarining iymoni, e'tiqodi, dunyoqarashi, manfaati darajasiga ham bog'liq bo'ladi.

Farobiyning "Fozil odamlar shahri" nomli asarida adolatli jamiyat qurishga qodir bo'lgan insonlarning axloqiy fazilatlarida quyidagi muhim sifatlar bo'lishi lozimligini ta'kidlaydi:

1. Jismoniy salomatlik va aqliy kamolotning birligini ta'minlash zarur. Bunday odamlarning barcha a'zolari shu darajada mukammal taraqqiy etgan bo'lishi zarurki, u bu a'zolari bilan bajarmoqchi bo'lgan barcha ishlarni osonlik bilan bajara olsun.

2. Barcha masalani, muhokama va munozarani tezda va to'g'ri tushuna oladigan, uning ma'nosini anglay oladigan, so'zlovchining maqsadi, aytilgan fikrlarning chinligini tezda payqay oladigan bo'lsin.

3. Xotirasi juda baquvvat bo'lsin, ko'rgan – eshitgan, sezgan narsalarining birortasini ham esidan chiqarmay yodida saqlab turadigan bo'lsin.

4. Zehni shu darajada o'tkir bo'lsinki, biror narsaning alomatini sezish bilan bu alomat nimani bildirishini tezdan bilib olsun.

5. So'zlari aniq bo'lsin, fikrini va aytmoqchi bo'lgan muloxazalarini ravon va ravshan bayon eta olsun.

6. Bilish va o'qishga muhabbati bo'lsin, o'rganmoqchi bo'lgan bilimni charchashni bilmay osonlikcha o'zlashtira olsun.

7. Ovqatlanishda, ichimlik ichishda ochko'z bo'lmasin, tabiati qimor o'yinlari o'ynashdan uzoq bo'lsin va ular keltiradigan xursandchilikdan jirkanadigan bo'lsin.

8. Haqiqatni va haqiqat tarafdorlarini sevadigan, yolg'on va yolg'onchilarga nafrat bilan qaraydigan bo'lsin.

---

<sup>1</sup> Najot y'uli.T "Sharq" 2001, B.19.

9. Ruhning g'ururi va vijdonini qadrlaydigan bo'lsin, uning ruhi o'z tabiati bilan past ishlardan yuqori va oliyjanob ishlarga ishlatiladigan bo'lsin.

10. Dirxam, dinor va shu kabi turkumga qarashli buyumlarga jirkanch bilan qaraydigan bo'lsin.

11. O'z tabiati bilan adolatni sevadigan va adolat uchun kurashuvchilarga xayrixoh, adolatsizlik qilib jabr – zulm o'tkazuvchilarga nafrat bilan qaraydigan bo'lsin, o'z odamlari va boshqalarga adolatli bo'lsin, guzal va yaxshi hisoblangan barcha narsalarni barchaga taqdim etgan xolda odamlarni adolatga targ'ib etadigan, adolatsizlik oqibatlarini yo'qotadigan, ularga yo'l qo'ymaydigan bo'lsin.

Adolatli bo'lsin, ammo qaysar bo'lmasin, adolat oldida qaysarlik qilib, o'zbilarmonlikka berilmasin, lekin xar qanday adolatsizlik, pastkashlik oldida lafzli bo'lsin, o'zi zarur deb topgan narsasini amalga oshirishda qat'iylik ko'rsatsin, qo'rqmas, jasur bo'lsin, qo'rqish va ojizlikni bilmasin.<sup>1</sup>

Gedonizm (grech. *hendone* — lazzatlanish) — qadimgi davr falsafiy tushunchalaridan biri sifatida ko'ngilocharlik, huzurlanish ma'nolarini beradi. Qadimgi davr axloqshunosligida gedonizm (huzurbaxshlik ta'limoti) hayotning ma'nosini nafaqat jismoniy, balki ruhiy huzurbaxshlikdan ham iborat degan ta'limotni ilgari surar edi. Hozirgi davrga kelib esa bu tushuncha akasariyat holda o'zida xudbinlik, «nafs quliga aylanish», «boylik, shuxrat ketidan quvish» kabi ma'nolarini ham anglatmoqda.

Gedonizm (huzurbaxshlik ta'limoti)— bu o'ziga xos hayotga bo'lgan yondoshuv bo'lib, hayotda asosiy maqsadning birinchi pog'onasiga lazzatlanish va huzurbahshlik qo'yiladi. Bunday qarashlarning ibtidosi qadimgi yunon faylasufi Aristipp Kirenskiyning ta'limotlariga borib taqaladi. Faylasuf axloqshunoslikning yaxshilik tushunchasiga nisbat berar ekan, uni huzurbaxshlik bilan bog'laydi. Ya'ni nima insonga huzur baxsh etsa shu yaxshilikdir degan xulosaga keladi. Bunday xulosa o'sha davrning aksariyat olimlarining bu yondoshuv ketidan ergashishiga va gedonchilar yo'nalishini paydo qilishiga asos bo'lib xizmat qildi. Shu tariqa ijtimoiy tartiblar erkinlik va o'zini to'liq namoyon qilishni cheklaydigan shartlar sifatida qarala boshlandi.

Yillar osha bu qadimgi tushuncha global ahamiyatga molik axloqiy masala sirasiga kira boshladi. Dunyo miqyosida hozirgi kunda huzurbaxshlik ta'limotining ta'siri kun sayin kuchayib bormoqda. Yashashga bo'lgan intilish ashyoviylik, moddiylik bilan yo'g'rilib, insonlarni elkasiga yanada og'irroq bo'lgan yuklamani ortmoqda. Natijada zamonaviylik «hayotdan to'liq zavq olish» shiori ostida uni yanada yorqinroq, chiroyli va dabdabali kunga aylantirishga intilish kuchaydi. «Sabr», «shukr», «minnatdorchilik», «kelajakka umid» degan tushunchalar

<sup>1</sup> Farobiy. Fozil odamlar shahri. T.1993. B.186 – 187.

nozamonaviylik, noreallik tarzida qabul qilinyapti. Bunda eng yaxshi hayot tarziga ega bo'lish eng yaxshi narsalarga ega bo'lish bilan belgilanadi. Qimmatbaho buyumlar, mazali taomlar, eng yaxshi moddiy ta'minot baxtning belgisi sifatida namoyon bo'lar ekan, axloqiy anglash muammosi bu borada qay darajada muhim ekanligini belgilaydi.

Shu jihatdan ham, hozir ushbu ta'limot sog'lom va nosog'lom turlariga ajrala boshladi. Nosog'lom turi nafaqat o'zini, balki boshqalarning ham hayoti, ya'ni yashash tarziga «halaqit» beradi. Aynan moddiy etishmovchilik tufayligina boshqa insonlarni qadrini, oriyatini, izzatini oyoq-osti qiladi. Ularni tahqirlaydi. Insonning mohiyati emas, uning tashqi ko'rinishi, u bog'langan va foydalanayotgan narsalariga bo'lgan qiziqishning kuchliligi, Kamyu tili bilan aytganda ob'ektni sizdan «begonalashuviga» olib keladi. Biz o'zimiz bilmagan holda uni nafratiga sabab bo'lamiz. Unda o'zini, yoki boshqalarni o'limiga intilish hissini uyg'otamiz.

Gedonizm ta'limotining sog'lom turi boshqalarning hayotini ham yaxshi o'tishiga to'sqinlik paydo qilmaslikdir. Misol uchun, siz jamoat transportida ketyapsiz. Qulog'ingizga uyali aloqa vositasining quloqqa taqadigan jihozini (quloqchin) taqib musiqa eshitib ketyapsiz. Ammo bu jihozlar aksariyat holda sifatsizi tanlanadi – ya'ni siz eshitayotgan musiqani shovqinli, asabga qattiq tegadigan ovoz chiqaradiganidan olgansiz.

Siz ertalabki tiqilinchni sezmaslik, o'zingizda yaxshi kayfiyatni uyg'otish uchun qo'shiqdan huzur qilsangiz, atrofdagilarning asabi buziladi. Shundoq ham qiyinchilik tug'dirayotgan bu sharoit yanada og'irlashadi. Sizni bekatdan tushib qolishingizni istaydilar. Huzurbaxshlik ta'limotini sog'lom turi insonning o'z burchini his qilishi, boshqalarni erkiga, izzat-nafsiga tegmaslikni talab qiladi. Bu zamonaviylikni faqat yaxshilik bilan bog'liq xususiyatlarini o'zida mujassam qilishni, turmush guzalligini, inson guzalligini, atrof-muhitni guzallashtirish, hayotni ma'nosini to'laqonli bo'lishiga intilishda ko'rinadi.

Gedonizm amaliy etikaning huzurbaxshlik yo'nalishi bo'lib, unda hayotning maqsadi hayotning yuksak ne'matlariga intilish va undan lazzatlanib, zavqlanib yashash bilan belgilanadi. Shu jihatdan ham qadimgi davr faylasuflaridan bejizdan Antisfen: «mehnat orqasidan keladigan farog'atni talab qilish kerak, undan oldin keladiganini emas» degan fikrni aytgan emas.

Aslida huzurbaxshlik ta'limotiga ergashish salbiy xususiyat kasb etmaydi. Insonni hayot qiyinchiliklaridan o'tishda uning mehnati samarasi katta ahamiyat kasb etadi. Turli ruhiy, jismoniy zo'riqishlarga uchragan insonga ruh bag'ishlaydi. Mehnat estetikasi inson mehnat jarayonida zavqlangani uchun ham mehnatga intiladi, unda o'zini erkin va komil his qiladi degan fikrni ilgari suradi. Zotan mehnatda inson o'zining asosiy mohiyatini topadi: u yaratish imkoniga ega bo'ladi. Bu esa estetik zavq baxsh etadi. Ammo nafsni cheklashga intilish maqsadida

asketizm bilan bog'lik g'oyalarni ilgari suradigan shunday rahnamolar ham bo'lganki ular tarixda o'z nomiga dog' tushiradi. Ular orasida diniy rahnamolar, siyosiy arboblarning ham ko'p uchragan. Misol uchun, Lenin, Stalin kabi «mehnatkash xalq rahnamolari» ittifoq kelajagi uchun xalqni o'z ehtiyojlaridan voz kechishga chaqirgan bo'lasalar-da, o'zlari bu kelajakni «kutib o'tirishga sabri etmay» xalq hisobidan hayotdan lazzatlanib yashaganlar. Misol uchun, Rossiya, Moskva va Peterburgda ishchilar o'z joni va oilasini garovga qo'yib, qon to'kib, jon berib Lenin g'oyalarini amaliyotga qo'llashga intilishayotgan bir paytda, ishchilar rahnamosi o'z oilasi bilan horijdagi kurortlar, qimmat mehmonxonalarda dam olishgan. Krupskaya qaynonasiga ya'ni Lenining onasiga yozgan xatida, kurortda juda yaxshi hordiq chiqarayotganini, muzey, teatrlar, bog'larni oilaviy sayr qilishlari, mehmonxonalarning qulayligi, dam olishning juda huzurbaxshligidan uning bundan hatto vijdoni ham qiynala boshlaganini yozadi. 1912 yilda Krupskaya xatlarning birida tog'dagi uylardan biriga ko'chib o'tganlarini, u erda juda qiziqarli sayrlar va guzal manzaralarning tomoshasidan bo'shamayotganlarini yozadi. Bu paytda esa Rossiyada ishchilarning ommaviy otishmasi ro'y berdi. 270 ta inson halok bo'ldi, 250 tasi og'ir yaralandi. Ammo bu fojia hodisalar Leninning turmush tarzida o'zgarish sodir qilmadi, vaholanki bu halok bo'lgan ishchilar «dohiyning» maqsadiga yaqinlashtirar edi.

Qadimgi davrda gedonizmga qarshi g'oyalarni ilgari surgan kiniklar edi. Kiniklarning asoschisi Antisfen (e.a. 435-375 yy.) lazzatlanishning har qanday turini, inson ehtiyoji uchun kerakli bo'lgan oddiy qulayliklarga nisbatan ham qarshi chiqadilar. Misol uchun, Diogen Sinopskiy (e.a. 330 y. - 320 y), bochkada yashab, faqatgina yopinchiq bilan cheklangan. Bundan maqsad – moddiy imkoniyatlardan voz kechib haqiqiy erkinlikka erishish edi. Ammo bunday cheklashlar o'zida jamiyat talablarini ham inkor etardi. Natijada oddiy axloqiy me'yorlardan ham voz kechishga to'g'ri kelardi. Zotan axloqiy anglashning eng muhim xususiyatlaridan botiniy ozodlik va ma'naviy qadriyatlarining ustuvorligi ular tomonidan mutlaqlashtiriladi.

Boshqa tomondan, huzurbaxshlik ta'limoti ham axloqshunoslikning muhim g'oyalaridan – inson uchun zarur bo'lgan ehtiyojlari, moddiy qadriyatlar uning qadri-qimmatini bilan bog'liq g'oyalarni ilgari suradi. Bu ikki ta'limot asosida boshqa mashhur ta'limotlarni vujudga keltirdi.

Bu falsafiy yo'nalish asoschisi Suqrotning zamondoshi Aristipp (435-355 yy.) inson ruhini ikki holati haqida gapiradi: huzurlanish mayinlik va nafislik sifatida, iztirob esa qo'pol va ruhiy qo'zg'alish xususiyatlariga ajratadi. Aristipp fikricha baxtga erishuv huzurbaxshlikning yuksak cho'qqisiga iztirobga tushmasdan amalga oshishi kerak. Hayotning ma'nosi uningcha aynan shunday natijaga erishish bilan bog'liq.

Epikur esa lazzatni hayotni yo'lga qo'yishning tamoyili sifatida ko'radi. Huzurbaxshlikni Epikur nafrat va yoqimsiz narsalardan ozod bo'lish deb tushunadi. Unda asosiy maqsad huzurbaxshlikning o'zi emas, balki baxtsizlik va iztiroblarlardan qutulishdir. Epikurning baxt falsafasida unga erishuv bezovtalik (ataraksiya) hamda iztirobdan erkinlik vositasida amalga oshishi bilan belgilanadi. Bunday erkinlik Epikur fikricha dunyoviy ehtiyojlar yordamida emas, balki haqiqiy ehtiyojlarga bo'lgan, misol uchun, do'stlikka bo'lgan ehtiyojga sinchkov e'tibor orqali erishiladi. Utilitarchilardan Djeremi Bentam bunday yondoshuvni «hisobli huzurbaxshlik» deb nomlaydi. Henri Sidgvik (Henry Sidgwick) XIX asr utilitarizmini ta'riflar ekan, huzurbaxshlik ta'limotini axloqiy va ruhiy huzurbaxshlik ta'limotiga ajratadi. Bunda ruhiy huzurbaxshlik ta'limoti insonning o'z quvonchlarini ko'paytrishga intilish bilan belgilanadi. Shu tariqa tushkunlikka tushishdan saqlanishga yoki zavqlanishni kuchaytirishga intilish inson harakatlarining asosiy sababchisiga aylanadi. Axloqqa taalluqli huzurbaxshlik esa bir necha nazariy turlarga ajralib ketadi. Inson o'zinigina qoniqishi uchun intilishi (xudbinlik gedonizmi), yoinki jamiyatni farog'ati uchun harakat qilishi lozim (universal gedonizm yoki utilitarizm). Sidgvikdan farqli o'laroq Bentam: «Tabiat insonni ikki hukmdor – iztirob va quvonchning qo'liga topshirib qo'ygan. Ular bizga bugun va ertaga nima qilishimiz kerakligini aytib turadilar»<sup>1</sup>, deb yozadi.

«Katta farog'at egasi bo'lish uchun inson o'zini cheklay bilishi lozim» degan fikrni, garchi huzurbaxshlik ta'limoti namoyondasi bo'lmasa-da, Epikur hayotning tenglamasi qilib qo'ydi.

Keyinchalik bu axloqiy yondoshuvlar estetika sohasi bilan uyg'un tarzda shakllana boshlandi. Misol uchun, turmush estetikasi, texnika estetikasi, dizayn va intererlarning guzalligi. Teatr, musiqa, umuman, san'at turlari va ko'ngilochar sayllardan olinadigan huzurbaxshlik va h.k. Shu tariqa huzurbaxshlik ta'limoti bir necha yo'nalishga ajraladi.

Keyinchalik insonni doimo huzurbaxshlikka intilishi «libido (nafs)» tushunchaari bilan bog'liq bo'lib, ruhiy tahlil etikasi asoschisi Zigmund Froyd uning insonni o'lim bilan bog'laydigan, unga tayyorlaydigan, insonni doimo qo'rquv, o'zidan qoniqmaslik, vijdon azobi, va boshqa ruhiy iztiroblarning ibtidosi sifatida qarasa, yangi ruhiy tahlil yo'nalishi namoyondasi Karl Gustav Yung huzurbaxshlikka intilish insonni ruhiy xastalikka uchrashini «osonlashtiradi». Bunga qarshi insonni tabiatga yaqinlashishi qo'l keladi. Karl Yung fikriga ko'ra, inson tabiat bilan uyg'unlashgandagina o'z tabiiy insoniy mohiyatini topadi va uning huzurbaxshlikka intilishi moddiylikdan ma'naviylikka «o'tish» bilan amalga oshadi.

<sup>1</sup> Введение в основания нравственности и законодательства = An introduction to the principles of morals and legislation / И. Бенетам. — М.: РОССПЭН, 1998. — 415 с. — (История полит. мысли). ISBN 5-86004-166-7

Gedonizmning qaysidir ma'noda davomchisi sanalgan yana bir yo'nalishlardan biri evdemonizmdir. Evdemonizm (grech. - barqarorlik, huzurbaxshlik, baxt) - inson asosiy faoliyatining baxtga erishuvga intilishi bilan bog'liq bo'lgan axloqshunoslik yo'nalishlardan biri sanaladi.

Evdemonizm yo'nalishi namoyondalari qarashlarida inson uchun eng buyuk ne'mat baxt sanaladi. Uning asosida yunon faylasufi Arastuning baxt hakidagi ta'limoti yotadi. Uning fikricha baxt bu «biz doimo uning o'zi uchun o'zini tanlaydigan, boshqa narsa uchun uni tanlamaydigan» axloqiy tushunchadir.<sup>1</sup> O'rta asrlar tafakkurida evdemonizm (baxtga etishuv ta'limoti) Foma Akvinskiy ta'limotiga yo'naltirilgan bo'lib, yuksak baxt Xudoni anglash va hayoti davomida Uni tan olmoqdir, degan g'oyani tasdiqlar edi.

Evdemonizm yo'nalishidagi huzurbaxshlik ta'limotini yuqlovchilar Epikur, Gassendi, Lametri, Volter, Golbaxlar baxt va huzurbaxshlikni uyg'unlashtiradilar. Ammo gedonizmdan farqli o'laroq huzurbaxshlik bu erda insonning axloqiy faoliyati bilan bevosita bog'lanadi. Misol uchun, Epikur nazdida yuksak darajadagi huzur tuban jismoniy lazzatda emas, balki nafis ma'naviylikdadir. Faqatgina mutlaq sokinlik va ataraksiya holatidagina inson haqiqiy baxt egasiga aylanadi.

Ammo asosiy evdemonizm yo'nalishi tanqidchilaridan Immanuel Kant haqiqiy axloqiy faoliyatning asosida baxt emas, burch turishini ta'kidlaydi.

Zamonaviy ruhshunoslikda bu yo'nalish ijobiy, amaliy ruhshunoslik sifatida evdaymoniya haqidagi qadimgi yunon faylasuflarining ta'limotini o'rganmoqda.

Sharq falsafasiga esa, baxtga erishuv hakidagi bu ta'limotni buddaviylikning nirvanaga erishish uchun barcha iztiroblardan qutulishga intilish va shu bilan to'laqonli baxtga erishuvga nisbat beriladi. Dalay-Lama (XIV) qarashlari «Inson hayotining asosiy maqsadi – baxtdir. Bu shubhasiz. Biz qanday e'tiqoddaligimizdan qat'iy nazar — dahriy yo Xudoga ishonamizmi yo'mi, buddhachi yo nasroniy, — barchamiz hayotda eng yaxshi narsani izlaymiz. Shu tariqa, mening fikrimcha, hayotimizdagi asosiy faoliyatimiz — bu baxtga intilishdir»<sup>2</sup>.

L.A. Seneka yaxshilikning o'zi baxtli bo'lish uchun etarlidir deb hisoblasa, Spinoza baxt – yaxshilik uchun qilingan mukofot emas, balki ezgulikning o'zidir degan xulosaga keladi.

Yuqoridagi mutafakkirlarning qarashlaridan xulosa yasaydigan bo'lsak, inson haqiqiy baxtli bo'lgandagina huzurbaxshlikka erishadi. Baxt esa, avvalambor axloqiy faoliyat bilan chambarchas bog'liqdir.

**Gumanizm.** Gumanizm (lotincha-insoniy), insonni ulug'lovchi diniy-falsafiy ta'minot, “g'arb” timsolidagi, zamonaviy industirial-texnologik taraqqiyotning

<sup>1</sup> Arastu. Axloqi kabir. – Toshkent. Sharq. 2005. -123 bet

<sup>2</sup> Radxakrishnan S. Indiyskaya filosofiya. T.1. SPb., “Stiks”, 1994. S. 287-290.

umum falsafiy va metodologik printsiplari bo'lgan. "Gumanizm"ning umum qabul qilingan aniq bir ta'rif yo'q. Gumanizm deganda insoniylikka, inson shaxsini qobiliyatlarining maksimal rivojlanishi uchun, shuningdek insonga loyiq hayot sharoitini yaratish tushiniladi. Real hayotda gumanizm printsiplari uch kategoriyada shakllantiriladi: 1) umuminsoniy qadriyatlar; 2) inson xuquqlari; 3) har tamonlama rivojlangan, garmoniyali shaxs idiali. Bugun aynan gumanizm "etakchi g'oya", u yoki bu xalqning taraqqiy etganligi belgisi hisoblanadi. Undan tashqari ko'pchilik mafkurachilar, shu jumladan rossiyaliklar, xalqlarning "taraqqiy etgan" yoki "taraqqiy etmagan" (qaloq, yovoyi) larga ajratadi. Gumanizm paydo bo'lishini(tug'ilishi) XIII-XIV asr hisoblanadi. O'shanda g'arb Evropada inson hayotining barcha jabhalarida: falsafiy tafakkur, adabiyot, badiiy ijod, ilmiy-diniy, siyosiy, o'zgarishlar bilan bog'liq jarayon boshlanadi. Bu jarayon shunchalik ag'amiyatli bo'ldiki, g'arb tarixida-qayta tug'ilish davri deb tan olindi. "qayta tug'ilish" terminining o'zi (frantsiya "renaissance"-qiyta tug'ilish) XIX asrda paydo bo'lgan. Bu tushuncha qo'llanilishining ma'nosi birinchidan, antik madaniyatga katta qiziqish uyg'onishi, ikkinchidan, g'arb xalqining yangi xristianlikka qarama-qarshi madaniyatni uyg'onishi.

Gumanizm g'oyalari o'z mazmun-mohiyatiga ko'ra insonni inson qiladigan, uning hayotini guzallashtiradigan axloqiy fazilatlar va xatti harakatlaridan iboratdir. Insonni asosiy fazilati eb-ichish, tabiiy ehtiyojlarni qondirish emas, balki mehnat qilishi, aql-idrok va tafakkurga ega bo'lishi, fikrlay olishi, madaniyat va ma'naviyat sohibi bo'lishi bilan belgilanadi. hozirgi bozor iqtisodiyoti sharoitida insonni qadr-qimmatini masalasi dolzarb mavzuga ayblanib bormoqda. Chunki jamiyat hayotidagi keskin o'zgarishlarga har kim ham moslashavermaydi. Bu esa o'z navbatida jamiyatdagi ko'pgina muammolarni yuzaga kelishiga zamin yaratadi. Shuning uchun ham hozirda har bir insonning hayotiy faoliyatini ezgu maqsadlar sari yo'naltirish nafaqat mamlakatimiz miqyosida balki jahon hamjamiyati doirasida echilishi lozim bo'lgan dolzarb muammolardan biri hisoblanmoqda. Bizga ma'lumki jamiyatdagi iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy munosabatlardagi tub o'zgarishlar inson tafakkuri va faoliyatiga ta'sir ko'rsatib uni yanada faolroq harakat qilishga undaydi. Bu jarayon, esa o'z navbatida jamiyat taraqqiyot mexanizmlarini takomillaashuviga olib keladi. Taraqqiyot jarayonida insonparvar g'oyalardan samarali foydalanish uni yanada barqaror ahamiyat kasb etishiga olib keladi. Bunday yondashuv ni shakllanishi uzoq tarixiy tajribalar bilan chambarchas bog'liq bo'lib, bunda uyg'onish davridagi gumanistik g'oyalarni jamiyat taraqqiyotiga ko'rsatgan ta'siridan bilib olishimiz mumkin. Bu jarayonni quyidagicha izohlash mumkin:

- uyg'onish davrida gumanizm g'oyalari tabiiy-ilmiy, falsafiy, ahloqiy, estetik, ijtimoiy-siyosiy qarashlar bilan mutanosib ravishda rivojlantirildi.

Gumanizm g'oyalarini shakllanishida qadimgi Yunon va Rim madaniyati, Sharq falsafiy tafakkur madaniyati, hurfikrlilik an'analari, moddaning va ruhning abadiyligi, aqlning faolligi, iroda erkinligi, determinizm tamoyillari, averroizm g'oyalari muhim ahamiyat kasb etgan.

Gumanizm g'oyalarini rivoji har bir davrda o'ziga xos ahamiyat kasb etgan va o'zining rivojlanish xususiyatlarini ishlab chiqqan. Shuningdek Evropaning bu davrda rivojlangan davlatlarida ham gumanistik g'oyalar taraqqiyoti o'qining munosib o'rniga ega bo'lgan. Masalan XV-XVII asrlar davomida italiyada gumanistik g'oyalar rivojida Nikolo Kuzanskiy, Piko Della Mironbola, Leonardo da Vinchi, Pomponatstsi, Telezio, Bruno, Galiley, Kardano, Patriytsi, Makiavelli, Kampanilla va boshqa shu kabi faylasuf olimlarni qarashlari muhim o'rinni egallagan bo'lsa, frantsiyada XV-XVI asrda yashab ijod etgan Monten, Rame. Sharron, Leferd Etapl, Dole va boshqalarni gumanistik g'oyalari muhim ahamiyat kasb etgan. Shuning bilan bir qatorda Germaniyada ham XVI-XVII asrda gumanistik g'oyalarni ilgari surgan faylasuf olimlar Myuntser, Reyxlin, Gutten, S.Frank, Okepler va boshqalarni samarali ijodlari o'ziga xos o'rinni egallagan bo'lsa, Angliyada XVI-XVII asrlarda Tomas Mor, F.Bekon, ispaniyada XVI asrda Vives, Uarte, Gollandiyada Erazm Rotterdamskiy, Polshada kopernik va uning izdoshlarini gumanistik qarashlarida, Shveytsariyada esa Paratsels, Chexiyada kompenskiy asarlarida gumanistik g'oyalar izchil va turli xil yondashuvlar asosida bayon etilgan.

Gumanizm g'oyalari ijtimoiy hayotdagi iqtisodiy faollik, jamiyatning real amaliy ehtiyojlari voqeiy olamini, tabiatni yangicha mushohada etishga, qadimgi yunon ma'naviy merosini o'ziga talqin etishga unga tanqidiy yondoshishga, tadqiqotlar mavzusi va yo'nalishini keskin ravishda eksperimentlar, kuzatuvlar tomoniga burib yuborishga, eski sxolostik, mavhum tafakkur shakl-tamoyillari va talablaridan voz kechish orqali yanada takomil bosqichga chiqdi.

Sharq falsafiy tafakkur taraqqiyotida gumanizm masalasi o'ziga xos tarzda tushunilgan va tushuntirilgan. Buni ulug' mutafakkirlarimizning qarashlari orqali bilib olishimiz mumkin. Jumladan "Al-Adab al-mufrad" asarida Buxoriy inson axloqi, odobi, ma'naviy kamolotiga doir hadislarni turli mavzular bo'yicha tasnif qilgan va zarur izohlarni bergan. Bu asarda 1322 ta hadis va xabarlar 644 bobda jam qilingan. "Adab durdonalari" asarining ilk boblarida ota-ona oldida farzandlik burchlari, ota-onani rozi qilish, ularning haqini ado qilish, ota-ona amriga itoat qilish, ota-ona mushrik bo'lsa ham ularga yaxshilik qilish, ularning dilini og'ritmaslik, ota-ona duosi, qarindosh-urug'larga mehr-shafqat, rahmdillik, yosh bolalar va ayollarga mehr-muruvvatli bo'lish, bolalar va kattalar arazlashib, urushib qolganida yarashtirib qo'yish, imorat qurish va boshqa ishlarda kamtarlik bilan ish tutish, takabburlik va so'kinish hamda jabr-zulmning yomonligi, rostguylik va

yolg'onchilik, halol va harom, savob va gunoh ishlar, molni tejash va ko'paytirishning yaxshiligi kabi inson ma'naviy hayotiga doir muhim muammolar haqida hadisi shariflar asosida fikr yuritiladi.

Termiziy o'zining "Al-jomi' as-sahih" ("Ishonchli to'plam") asarida gumanizm g'oyalarini mazmun-mohiyati ilm egallash, ota-ona va farzandlarning bir-birini hurmat qilishi, haq-huquqlari, ta'lim-tarbiya, xulq-odob qoidalari, halollik, poklik, saxiylik, adolat, insof va boshqa insoniy qadriyatlar bayon qilinadi. Ayni vaqtda tuban illatlardan bo'lmish yolg'on gapirish, tuhmat, adovat, zulm, hiyonat, fisqu-fasod, ta'magirliklar qoralanadi.

Allomaning merosi hozir ham ta'sir kuchini yo'qotmay, balki yoshlar tarbiyasida, ma'naviyatimiz rivojida yuksak o'rinni egallagan.

Forobiyning gumanistik qarashlari ham behad darajada e'tiborlidir. Uning ta'kidlashicha, insonni baxt-saodatga eltuvchi jamoa haqiqatan fazilatli, etuk, xosiyatli jamaodir. Insonning kelajagi, uning baxt-saodati haqida g'amxo'rlik qilish, uning qayg'u-alamiga sherik bo'lish hissi o'zgalarda, birinchi navbatda, davlat arbobida shakllangan bo'lmog'i lozim.

Mutafakkir inson kamoloti muammosini ilm bilan bog'laydi. Voqelik sir-asrorida boxabar bo'lmasdan turib, Alloh in'om etgan aql ne'matidan mavjud imkoniyat darajasida foydalanmasdan turib, etuk inson martabasiga erishib bo'lmaydi, chunki inson dunyo taraqqiyotining eng mukammal va etuk yakunidir. Bu borada Forobiy ta'lim-tarbiyaning mohiyati, ahamiyati, zaruriyati, bu jarayonni amalga oshirish usul va vositalari, undan kutilgan maqsadni ham har tomonlama tadqiq etgan.

Forobiy o'zining «Baxt-saodatga erishuv haqida» asarida inson kamoloti uchun qanday ilmlarni egallash zarurligini alohida uqtirib o'tadi. Bularga olam asoslari haqidagi ilm, tabiiy jismlarning tuzilishi, osmon, jonli tabiat – o'simlik va hayvonot olami to'g'risidagi bilimlar kiradi.

*Baxt* - Xayotning ma'nosi bo'lmasa, xaqiqiy baxtning bo'lishi mumkin emas. Baxt inson hayotining umumiy bahosidir. Baxt inson o'z hayoti ma'nosini qay darajada tushungani va shu ma'nodan umri mobaynida qoniqish hosil qilib borishidan iboratdir. Har bir insonda qoniqish hissi undagi maqsadlarning takomilga etganidagina ro'y beradi. Faqat bu takomilga etish jarayoni bir umr davom etadi. Shu ma'noda buyuk ajdodimiz Abu Nasr Forobiy: «Baxt - har bir inson intiladigan maqsad, zotan u muayyan komillikdir», - deganida ko'p jihatdan haq edi.

Baxt – insonning yurish – turishi, turmush sharoitlari, jamiyatdagi o'rniga berilgan axloqiy bahodir. Baxtning mazmuni insonning shaxsiy xayoti doirasi bilangina belgilanmaydi. O'z shaxsiy manfaatini o'ylagan, boshqalar bilan iymon, insof, adolat, asosida munosabatda bo'la olmaydigan odamni baxtli deb bo'lmaydi. Baxt insonlar o'rtasidagi munosabatlar asosida belgilanadi. Kimki jamiyatda,

insonlar orasida\ o'zining halol mehnati, axloq - odobi, boshqalar bilan odilona, halol munosabati asosida obro', e'tibor ortirsa – o'sha baxtli odamdir. Baxt har bir insonning shaxsiy hayotiga bevosita daxldor bo'lsa ham, uning mezonlarini jamiyat, jamoatchilik belgilaydi. Inson o'zining qay darajada baxtli ekanini anglamoqchi bo'lsa, o'zining mol – dunyosi, oilaviy hayotigagina emas, balki boshqalarning unga bo'lgan munosabatiga ham tayanmog'i lozim. Oilasi totuv, farzandlari axloqli, odobli, e'tiqodi mustaxkam insonlar ham o'zlarini baxtli deb hisoblaydilar. Lekin inson o'zining oilaviy baxtiga, farzandlarining yurish – turishiga, e'tiqodi qay darajada mustahkamligiga boshqalarning nuqtai nazaridan ham qaray bilishlari shart. Bu ham insonning axloqiy kamoloti darajasiga bog'liqdir.

Biz jamiyatimizda ba'zida behissob boylikka ega yoki mansabning yuqori chuqqisida o'tirgan insonlarni ham baxtsiz ekanliklariga guvohmiz.

Baxt ma'naviy ehtiyoj bilan bog'liq, unda maqsadlarga birin-ketin erisha borish, qoniqish jarayoni, boya aytganimizdek, bir umr to'xtamaydi va doimo lazzat va zavqni o'z ichiga oladi.

Baxt garchand, orzu kabi idealning hissiy-ehtirosli shakli sifatida ko'zga tashlansada, aslida undan farqli o'laroq, shaxsning intilishini emas, shu intilishning ro'yobini anglatadi. Har bir intilishning ro'yobga chiqishi esa muayyan tayyorgarlikni va kurashni taqozo etadi.

Baxt haqida gap ketganda, albatta, omad to'g'risida to'xtalib o'tish lozim. Omad ham lazzatga o'xshash oniylik tabiatiga ega. Lekin bu oniylikda lazzatdagidek takrorlanish xususiyati yo'q: odamga omad hayoti mobaynida kamdan-kam kulib boqadi. Omadning ana shu jihati haqida qrim-tatarlarning qadimgi asotiri bor. Unga ko'ra, Omad ma'buda ekan, kunlardan birida uning o'g'li erni tomosha qilaman deb osmondan tushibdi-yu, qaytib chiqmabdi. Shu-shu Omad Erga tushib, hanuz bolasini qidirarmish. Ma'budaning yuzi yo'q, faqat qoq miyasi ustida bittagina ko'zi bor ekan. Shu bois u to'g'ri kelgan o'tkinchini tutib olib, o'g'limmikan deb, balandga ko'tarib, ko'ziga olib borib qararkan va o'g'li emasligiga ishonch hosil qilgach, osmonu falakdan pastga qaratib itqitib yuborarkan. Omad o'z qo'liga tushganlarning hammasiga shunday munosabatda bo'lar ekan. Darhaqiqat, mazkur asotirda omadning o'tkinchilik mohiyati juda chiroyli va majoziy ochib berilgan; bir umr omadli odam yo'q, omad - tasodif, baxt - zaruriyat; omad - istisnoli, baxt - qonuniy hodisa. Omad - shaxsning bir zumlik holatini aks ettiradi, baxt esa inson nimaga erishmog'i lozim, degan savolga bir umr mobaynidagi amaliy javobdir.

### **Foydalaniladigan adabiyotlar ro'yxati**

#### **Rahbariy adabiyotlar:**

1. Mirziyoev Sh.M. – Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston Davlatini birgalikda barpo etamiz.- T.,O'zbekiston. 2016.
2. Mirziyoev Sh.M. – Qonun ustivorligi va inson manfaatlarini ta'minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. – T., O'zbekiston. 2017.
3. Mirziyoev Sh.M. – Tanqidiy taxlil, qat'iy tartib intizom va shaxsiy javobgarlik – xar bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. T., O'zbekiston. 2017.
4. O'zbekiston respublikasi Vazirlar Mahkamasining Qarori “Davlat boshqaruvi organlari va mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari xodimlarining odob-axloq namunaviy qoidalarini tasdiqlash to'g'risida” (O'zbekiston respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2016 y., 9-son, 94-modda)lex.uz
5. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – engilmas kuch. –T.: Ma'naviyat, 2008.

#### **Darsliklar va o'quv qo'llanmalar:**

1. Abdulla Sher. Axloqshunoslik. Darslik. –T.: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2010.
2. Agzamova N. Etika. Uslubiy qo'llanma. –T.: OOO “NORI”, 2013.
3. Jahon falsafasi tarixidan lavhalar. G' Q.Nazarov tahriri ostida. –T.: Sharq, 2004
4. Mamashokirov S., Usmanov E. Barqaror taraqqiyotning ekologik xavfsizlik masalalalari. –T.: Fan, 2009.
5. Muhammadjonova L.A., Ortiqova D.O., Abidjanova F.A., Masharipova G.K. Professional etika va etiket. Darslik. - T.: "Adabiyot uchqunlari" 2018.
- 6.M. Kaxxarova, N Agzamova. Etika Uchebnoe posobie. Rizograf imeni Nizami. 2018 god.
- 7.L.Muhammadjonova, F.Abidjanova. Etiket. O'quv qo'llanma. T.: Universitet. O'zMU, 2018.
8. Nurmatova M., Muhammadjonova L., Ma'naviyatning axloqiy asoslari.– T.: Unversitet, O'zMU. 2013.
9. Nazarov Q. Aksiologiya – qadriyatlar falsafasi. –T.: O'FMJ, 2004.
10. Nurmatova M. Shaxs kamolotida axloqiy va estetik qadriyatlar uyg'unligi. – T.: Universitet, 2009.
11. E.Umarov., F.Zagritdinova. “Etika. Prikladnaya etika”. -T.: Noshir, 2012.
12. Husanov B., Gulamov V. Muomala madaniyati. Darslik. –T.: Iqtisod-moliya, 2009.
13. Shermuxammedova N.A. XXI asr fanining dolzarb muammolari G'G' Falsafa va fan metodologiyasi. – T.: Universitet, 2005.

#### **Qo'shimcha adabiyotlar:**

1. Arastu. Poetika. Axloqi Kabir. –T.: Yangi asr avlodi, 2004.
2. Aliqulov H. Falsafiy meros va ma'naviy-axloqiy fikr rivoji. –T.: Falsafa va huquq instituti, 2009.
3. Agzamxodjaeva S.S. Ijtimoiy ideal va O'zbekistonda ijtimoiy-ma'naviy taraqqiyot muammolari. Dissertatsiya. Fals. fan. dok. – T.: 2009.
4. Abdulla Avloniy Turkiy guliston yoxud axloq. – T.: O'qituvchi, 1992.
5. Abu Abdullox Muhammad ibn Ismoil al Buxoriy. Hadis. 2. tomlik –T.: O'zbekiston milliy entsiklopediyasi davlat ilmiy nashriyoti, 2008.
6. Jabborov I. O'zbeklar (ana'naviy xo'jaligi, turmush tarzi va etnomadaniyati). –T.: Sharq, 2008.
7. Zagritdinova F.B. Filosofsko-eticheskiy analiz problem sovremennoy biomeditsino' (na primere Respubliki Uzbekistan). Dissertatsiya. Dok. filos. nauk. – T.: 2006.
8. Qaxxarova Sh. Global ma'naviyat globallashuvning g'oyaviy asosi. –T.: Tafakkur, 2009.
9. Madaeva Sh. Milliy mentalitet va demokratik tafakkur. –T.: Falsafa va huquq, 2007.
10. Mahmudov T. Komillik asrorlari. Hayotiy hikmatlar. –T.: Adolat, 2006.
11. Ma'naviyat asosiy tushunchalar izohli lug'ati. –T.: G'.G'ulom nomidagi nashriyot – matbaa ijodiy uyi, 2009 yil.
12. Navro'zova T.N., Zoirov E.X., Yunusova T.S. Tasavvufda inson va uning kamoloti masalasi. – T.: Falsafa va huquq, 2006.
13. Muxammadjonova L.A. Ma'rifatparvar shoirilar – Dilshod Barno va Anbar Otinning axloqiy qarashlari. Dissertatsiya. Fals. fan.nom. – T.: 2005.
14. Nurmatova M.A. Shaxs ma'naviy kamolotida estetik va axloqiy va estetik qadriyatlar uyg'unligi. –T.: Universitet, 2009.
15. Ochilova B. Milliy-ma'naviy yuksalishda meros, qadriyatlar va vorisiylik. –T.: Istiqolol, 2009.
16. Otamurodav S. Globallashuv va millat. –T.: Yangi asr avlodi, 2008.
17. Tillaeva G. Ma'naviyat va komil inson tarbiyasi. –T.: Falsafa va huquq, 2006.
18. Umarov B. Globallashuv ziddiyatlari. – T., Ma'naviyat, 2006.
19. Falsafa: qomusiy lug'at. G' Q.Nazarov tahriri ostida. – T.: Sharq, 2004.
20. Xojiaxmedov A. Mahalla odobi. –T.: Sharq, 2001.
21. Xolmatova M. Oilaviy munosabatlar madaniyati va sog'lom avlod tarbiyasi. – T.: O'zbekiston, 2000.
22. Choriev A. Inson falsafasi. –T.: Chinor ENK nashriyoti, 2007.
23. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Hadis va hayot. Adab. – T.: Sharq 2008.

24. Quronov M. Milliy g'oya va o'zbek xarakteri. – T.: Ma'naviyat, 2005.  
 25. Yakubov Yu.M. Islom ta'limotida shaxs va jamiyat munosabatlari masalasi. Dissertatsiya. Fals. fan.nom. – T.: 2009.

## G L O S S A R I Y

**AXLOQ** (arab. xulqning ko'pligi; lot. moralis — xulq-atvor) — ijtimoiy ong shakllaridan biri, ma'naviy hayot hodisasi, ma'naviyat sohasiga oid tushuncha. Kishilarning tarixan tarkib topgan xulq-atvori, yurish-turishi, ijtimoiy va shaxsiy hayotdagi o'zaro, shuningdek, jamiyatga bo'lgan munosabatlarini tartibga solib turuvchi barqaror, muayyan norma va qoidalar yig'indisi. A. normalari kishilarning xatti-harakatlarida o'z ifodasini topadi. Bunda ba'zi xatti-xarakatlar, xulq-atvorlar A.iy, ba'zilari A.sizlik deb baholanadi. A. ijtimoiy ongning eng qad. shakllaridan biridir. Davr o'zgara borgan sari har qanday hodisa kabi A. ham o'zgaradi, rivojlanib, takomillashib, ma'naviy madaniyatning ko'rinishlaridan biriga aylanib boradi. A.ni alohida fal-iy fan – “Amaliy etika” yoki “Axloqshunoslik” o'rganadi. Ilm, bilim, dunyoqarash, idrok va iymon insonning xulq-atvorida o'ziga xos tarzda aks etadi. Insoniylik madaniyati esa axloqiy fazilatlar orqali namoyon bo'ladi. A. ijtimoiy munosabatlar zaminida alohida shaxs sifatida mavjud bo'lgan insonlarning o'z-o'zini idora qilish shakllari va me'yori, o'zaro muloqot va munosabatlarda ularga xos bo'lgan ma'naviy kamolot darajasining namoyon bo'lishi hamdir.

**AXLOQIY QADRIYaTLAR**-kishilarning xulq-atvorida asrlar davomida shakllangan o'zaro munosabatlar, yurish-turish qoidalari: xushxulqlik, xushmuomalalik, kattalarga hurmat, kichiklarga izzat, halollik, pokizalik, ezgulik, mehnatsevarlik, insonparvarlik, vatanparvarlik.

**AXLOQIY IDEAL**-axloq -me'yorlarining yuksak, orzu qilingan darajadagi tasavvufi, barcha eng yaxshi xislatlarga ega, har tomonlama tarbiyalangan inson obrazi.

**AXLOQIY MADANIYat**-axloqiy tarbiyaga doir asarlar, qarashlar, g'oyalar, ko'nikmalar va ularga amal qilinish.

**AXLOQIY ME'YoRLAR**-jamiyatda o'rnatilgan xulq-atvor qoidalari, ular urf-odat, ko'nikma, marosim qoidalari sifatida namoyon bo'ladi, axloqiy qadriyatlar sifatida qaraladi, ularga amal qilmaslik jamoatchilik tomonidan qoralanadi.

**AXLOQIY TARBIYA**-inson tarbiyasining muhim qismi hisoblanib, odamga yoshligidan boshlab to'g'rilik, halollik, izzat hurmat, burch-mas'uliyat, sog'lom turmush tarzi, or-nomus, sharm-hayo, Vatan azizligi, oila muqaddasligi, e'tiqod mustahkamligi xislatlarining singdirib borilish jarayonidir.

**AXLOQIY TAFAKKUR**-axloq masalalariga bag'ishlangan fikrlar, qarashlar g'oyalar, har bir insonning axloqiy me'yorlar va qadriyatlarni anglash, ilmiy mushohada qilish jarayoni.

**AXLOQIY FAZILATLAR**-inson xulq-atvori, yurish-turishidagi eng yuksak, ijobiy hatti-harakatlar, o'y-fikrlar va ezgu amallar majmuasi: ezgulikka intilish, yaxshilik qilish, izzat-hurmatli bo'lish, mehnatsevarlik, or-nomusli bo'lish, vatanparvarlik, insonparvarlik, saxovatlilik, halollik, pokizalik kabi xislatlarning namoyon bo'lishi

**AXLOQSIZLIK**-jamiyatda qabul qilingan axloqiy me'yorlardan chetga chiqish: boqimandalik, yolg'onchilik, ichkilikbozlik, fohishabozlik, o'g'rilik, hasad, g'iybat, tuhmat, vatanfurushlik, e'tiqodsizlik va shular kabi barcha salbiy xislatlarning namoyon bo'lishi.

**ADOLAT** — yuksak ma'naviy tushuncha bo'lib, uning E. va Yo. hamda Ya. va Yo. dan asosiy asosiy farqi shundaki, A. ning o'zi birorqbir qadriyatni anglatmaydi, lekin qadriyatlar orasidagi nisbatni belgilaydi, ularni baholash maqomiga ega. Shu bois unda jamiyatni tartibga soluvchilik xususiyati bor; A. da ikki ma'naviy jihat – ham axloqiy, ham huquqiy talablar mujassamlashgan. Uni ma'lum ma'noda axloq sohasidagi miqdor o'lchovchi ham deyish mumkin: u talab b-n taqdirlashni o'lchab turadigan tarozidir. A. bor joyda ijtimoiy jabrga, beboshlikka yo'l yo'q. Eng oddiy, ibtidoiy fazilatlar, m., mehribonlik, shafqat, muruvvat hayvonlarda ham mavjud, lekin hayvonlarda ular o'z guruhiga, eng avvalo, o'z zurriyotiga qaratilgan bo'ladi.

**ANDISHA** —yuksak ma'naviyatga xos, axloqiy tarbiya natijasida shakllanadigan ma'naviy-axloqiy tushuncha, Amaliy etika fanining meyoriy tushunchasi, “Ma'naviyatshunoslik”, “Ma'naviyat asoslari” fanlarining asosiy kategoriyalaridan biri. Kishilar b-n bo'lgan munosabatda oqibatini atroflicha o'ylab munosabatda bo'lish, mulohaza qilish A.ning o'ziga xos xususiyatlaridandir. A.li inson o'z xatti-harakati, ma'naviy-ruhiy qarashlarida yuksak axloqiy tamoyillardan kelib chiqqan holda faoliyat yuritadi. Bunday inson o'zgalarni olijanob axloqiy me'yorlarga asoslangan holda qadrlaydi.

**BAXT**- ma'naviy axloqiy tushuncha. Kishi o'z faoliyati natijalaridan hayotda qo'lga kiritilgan yutuqlaridan to'la qoniqish, yashash tarzidan mamnunlik, muayyan maqsadga etganlik, orzu-umidning ushalishi, barmonlik holati sifatida namoyon bo'ladi. Baxt nisbiy tushuncha, mutloq baxt yo'q. Baxtni qanday ma'noda tushunishning shaxsning ijtimoiy o'rniga, bilimi, yoshi, dunyoqarashiga bog'liq. Baxt haqidagi kishilarning tasavvurlari ijtimoiy tuzim va undagi ijtimoiy munosabatlar majmuasi b-n uzviy bog'liq.

**BAG'RIKENGLIK**– mehr-muruvvat, g'amxo'rlik, himoya, panoh, makon, saxiy, eshigi hamma uchun ochiq, dargohi keng; kengfe'llik. Bag'rikenglik – o'zgalarning dunyoqarashi, diniy e'tiqodi, milliy va etnik xususiyatlari, an'ana-marosimlariga hurmat-ehtiromda bo'lish, muomala-munosabatda kamsitishlar, tahqirlashlarga yo'l qo'ymaslik, insoniylikni hamma narsadan ustun hisoblab, jamoada, ish joylarida, mahalla-kuyda bunga rioya etish. Xullas, turli dindagi, turli millat va elatlarga mansub kishilarning bir mamlakat doirasida, yagona davlat tarkibida bahamjihat, osoyishta yashashidir. Bag'rikenglik ayrim shaxslarga yoki butun bir xalqqa xos xususiyat bo'lishi mumkin. Bag'rikenglik – o'zbek xalqining eng olijanob fazilatidir.

**BARKAMOLLIK**– kamolot, balog'atga erishgan, bekamu ko'st, etuk, mukammal, nuq-sonsiz, kamoli xirad – aql komilligi, kamoli ma'rifat – ilmu ma'rifatda mukammallik, kamol ahli – ilmu hikmat egalari, olimlar. Barkamollik insonning aqliy axloqiy va bilimdonlik jihatidan etukligi, o'zi tanlagan kasbu hunarning ustasi bo'lishi, shaxs sifatida shakllanib, vatan taraqqiyoti, el-yurt farovonligi uchun jon kuydirishi, ezgu g'oya va niyatlar b-n bunyodkorlik va yaratuvchanlik qobiliyatiga ega bo'lishi.

**BIO ETIKA** –hozirgi zamon Amaliy etikasining muhim yo'nalishlaridan biri. B. inson hayotini eng oliy axloqiy qadriyat sifatida qaraydi, shu bilan birga, inson hayotini saqlash muammosini – yaxshilik va yomonlikni farqlashning muhim mezonini, deb hisoblaydi. Hoz. zamon fanida B. tirik mavjudotlar, shu b-n birga, insonga ham bo'lgan munosabatlarning ma'naviy-axloqiy reguliyativi, deb qaraladi. Insonning tabiat b-n uzluksiz aloqasini ma'naviy tahlil etish asosida, tabiatni muhofaza etishda ahloqiy javobgarlik B.ning madaniy negizini tashkil etadi. B., sotsial masalalar b-n birgalikda, qadriyatlar muammosini ham qamrab oladi. B. maqsadlaridan biri - shaxsni turli holatlarga solish imkoniyatlarini yaratuvchi, inson xatti-harakati, ruhiyatini o'zgartirish mumkin bo'lgan, uning ustidan o'tkazilayotgan xilma-xil tadqiqotlarni cheklash mezonlarini ishlab chiqadi.

**BOTINIYLIK VA ZOHIRIYLIK** — ma'naviy hodisalar bo'lib, insonning ichki, qalb, ko'nglidagi hissiyotlar va ularni sirtqi tomondan, tashqi ko'rinishda ifodalanishi. Inson tashqi tomonidan qanday ko'rinishidan qat'iy nazar, uning B. hissiyoti, qalbi, ko'ngli nihoyatda nozik va ma'naviy boy bo'lishi mumkin. Sirtidan qaraganda kam-ko'stsiz, salobatli ko'ringan kishi hissiyotsiz, qalbi ko'r bo'lishi ham mumkin. B. insonga baxsh etilgan ne'mat, u buyuk kishilarning zohiriy faoliyatlarida yorqin ifodasini topgan.

**BURCh** — jamiyat, davlat va shaxslarga nisbatan muayyan individdagi munosabat, ular oldidagi majburiyat. U vijdon, e'tiqod, mas'uliyat kabi tushunchalar b-n mustahkam bog'liq. Umuman, hayotda insonning har bir xatti-qarakati zamirida B. ga sadoqat yoki xiyonat yotadi. B. ning insonlik B.i, musulmonlik B.i, nasroniylik B.i, fuqarolik B.i, otalik B.i, onalik B.i, farzandlik B.i singari barcha davrlar uchun umumiy bo'lgan tushunchalari ham, jurnalistlik B.i, shifokorlik B.i, olimlik burchi kabi kasbiy odob doirasidagi tushunchalari ham mavjud. B. tushunchasining o'ziga xos jihatlaridan yana biri – uning vaqt va jamiyatda muayyanlashish xususiyati.

**VIJDON** — ma'naviyatdagi ta'sir doirasi nihoyatda keng tushunchalardan biri. V. – Z. Froyd ta'biri b-n aytganda, alo men, men ustidan nazorat o'rnatib, uni boshqarib turuvchi ikkinchi bir, yuqori darajadagi men. Agar uyat hissi insonning tashqi, jamiyatga bog'liqligidan kelib chiqsa, V. uning ichki o'z-o'ziga bog'liqligini namoyon etadi. Bu ichki bog'liqlik tashqi bog'liqlikka nisbatan teran va doimiydir: uyat ma'lum bir vaqt ichida odamning o'z nojo'ya harakati tufayli yuzaga kelgan o'ng'aysizligi bo'lsa, V. azobi, bu oddiy o'ng'aysizlik emas, balki qalbdagi, odamdagi odamiylikka e'tiqodning faryodi, talabi; uni qondirmas ekansiz, hech qachon azob to'xtamaydi.

**VATANPARVARLIK** -bir ijtimoiy guruhga mansub bo'lgan insonlarning o'z tarixini, tili, madaniyati, urf – odatlarini, milliy obro'si, qadr – qimmatini bilish, hurmat qilishi, ularga tayanishi, boshqa xalqlarning ham obro' – e'tiborini, manfaatlarini hurmat qila bilishini ifodalovchi ma'naviy fazilatdir. V. insonning o'z Vataniga muhabbatini, uni asrab-avaylashga bo'lgan ishtiyoqini anglatuvchi axloqiy tushuncha.

**VRACHLIK ODOBI** - vrach ma'naviyati va xulq-atvor me'yorlarining majmui. V.o. umumiy odobning tarkibiy qismi hisoblanadi, bunda vrachning faoliyati xususiyatlariga muvofiq holda xulq-atvori va ijtimoiy o'ziga xosliklari o'rganiladi. U vrachlikning ma'naviy-axloqiy masalalarini qamrab oladi, uning xulq-atvori, ma'naviyati, kasbiy burchini his etishi, nomusi, vijdoni va qadr-qimmati

me'yorlarini, bemorlar, ularning qarindosh-urug'lari, o'z hamkasblari, jamoasi va umu-man jamiyat bilan o'zaro munosabati masalalarini o'z ichiga oladi. V.o. tamoyillari ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlar, sog'liqni saqlash va jamiyatning unga bo'lgan munosabati holati, tibbiyot fanining rivojlanish darajasi bilan bog'liq.

**DIYONAT**– (arab. dindorlik, to'g'rilik, insof) Xudodan qo'rqish, gunoh qilmaslik, savob ishlarni amalga oshirish, imonli-e'tiqodli, sofdil va mard bo'lish, diniy qonun-qoidalarga qattiq rioya etish, dindorlik, taqvodorlik, vijdon, insoflilik. Diyonatli odam to'g'riso'z, haqgo'y bo'ladi, haromdan hazar qiladi, bironing zarariga ish qilmaydi, hamiyatli, nomusli, oriyatli bo'ladi

**DO'STLIK** — axloqiy tushuncha; o'zaro bog'liqlik, ma'naviy yaqinlik, manfaatlar umumiyliigi va h.k.ga asoslangan insonlar o'rtasidagi ijobiy munosabatni ifodalaydi. D.ga quyidagi xislatlar: shaxsiy xarakter, ko'ngilchanlik va individual tanlash, ichki yaqinlik, barqarorlik xosdir. D. mazmuni tarixiy taraqqiyot jarayonida o'zgarib boradi. Fal. tarixida D.ni ko'proq axloqiy jihatdan tahlil qilgan ba'zi mutafakkirlar uning emotsional jihatini alohida ta'kidlaganlar, boshqalari esa uni manfaatlar umumiyliigi va oqilona egoizmdan keltirib chiqarganlar. 19-a.ning oxirlarida D. psixolog va sotsiologlar tomonidan ilk empirik tadqiq etila boshlandi. D.ning mazmuni va funktsiyalari yosh o'tib borishi b-n sezilarli darajada o'zgarib boradi. Bolalar do'stligi, o'rtoqlik, hamkorlik faoliyatiga asoslangan emotsional-hissiy yaqinlikni o'zida aks ettiradi.

**IMPERATIV AXLOQ** -(lot.imperativus -farmon) Kant Amaliy etikasida axloqiy qonunni tavsiflovchi asosiy tushuncha. Kant falsafiy ta'limotida amaliy aqlni nazariy aqlga nisbatan ustun qo'yiladi. "Amaliy aql" deganda, keng ma'noda u Amaliy etika, davlat va huquq nazariyasini, tarix falsafasi va dinni, antropologiyani; tor ma'noda esa, axloqiy xulq atvor tamoyillari va qoidalarini yaratuvchi aqlni tushunadi. Kant "Amaliy aql tanqidi" asarida inson yaxshilik va yomonlik haqida qalbining hissiy ishtiyoqi va intilishlariga asoslanib emas, aql zakovati yordamida xulosa chiqarish kerak, degan nazariyani o'rtaga tashlaydi.

**KASBIY ODOB** - jamiyat tomonidan qabul qilingan ahloq qoidalarini kishilarning ixtisoslariga nisbatan amalda tatbiq qiluvchi aniq kasbiy burch, sha'n, or-nomus, qadr-qimmat kabi xatti-harakatlarning majmui, umumiy axloqning kishilar kasb-koridagi o'ziga xos ko'rinishidir. Odob (arab. adab so'zining ko'pligi) – jamiyatda e'tirof etilgan xulq normasi. Shaxs ma'naviy hayotining tashqi jihatini ifodalaydi va o'zgalar b-n munosabat (oila, mehnat jamoasi, turli marosimlar)da namoyon bo'ladi.

Odob negizida axloqning ba'zi tamoyil va me'yorlari, shuningdek, maqsadga muvofiqlik va go'zallik (estetika) talablari yotadi. Odob kishining jamoat orasida o'zini qanday tutishi, odamlar b-n qay yo'sinda muomala qilishi, o'z turmushi, bo'sh vaqtini qanday tashkil etishi, inson tashqi qiyofasi qanday bo'lishi lozimligiga tegishli qoidalar (masalan, sharm-hayo, kamtarlik, xushmuomalalik kabilar)ni o'z ichiga oladi.

**KAMTARLIK** – avvalo o'z – o'ziga talabchanlik, o'z harakatlariga, ishiga, bilimiga tanqidiy qarash, o'ziga, kuch – quvvatiga ortiqcha baho bermaslikdir. Kamtarlik kishilarga bo'lgan munosabatda namoyon bo'ladi. Inson odobli bo'lsa, u kishilar bilan shunchalik sodda kamtarona muomala qiladi, o'z ishlariga va harakatlariga kamtarlik bilan baho beradi. Boshqalarga nisbatan shirinsuhan bo'ladi. Kamtar inson boshqalardan o'zini ustun qo'ymaydi, o'ziga bino qo'yib, soxta shuxrat ketidan quvmaydi, yutuqlardan esankiramaydi. Kamtarlik - tortinchoqlik va haddan tashqari andishalilikdan farq qiladi. Ular orqasidan inson o'z qadr – qimmatini tushirib qo'yish mumkin. Kamtarlik tabiiylikdan kelib chiqadi. U kishilarga bo'lgan munosabatda ham yaqqol ko'rinadi. Kamtarlik inson ichki ma'naviy dunyosining tashqi ifodasi hisoblanadi.

**MA'NAVIY-AXLOQIY TARBIYA.** M.a.t. – yuksak ma'naviy-ahloqiy fazilatlarni shakllantirishga yo'naltirilgan tarbiya jarayoni. Ma'naviyat — tarbiyaning eng ta'sirchan quroli va ayni paytda uning natijasi. Axloq — ma'naviyatning o'zagi. Axloq — bu avvalo, insof va adolat tuyg'usi, imon, halollik degani. Qadimgi ajdodlarimiz komil inson tarbiyasi haqida butun bir axloqiy talablar majmuasini, zamonaviy tilda aytsak, sharqona axloq kodeksini ishlab chiqqanlar. M.a.t.da axloq b-n ma'naviyat mezonlariga asoslanib, insonda ma'naviyat hamda axloqni shakllantirish va rivojlantirish, takomillashtirish uchun ta'sirni kuchaytirishga e'tibor qilinadi.

**MAHALLA** (arab tilidan, ma'nosi – jamoat, joy, makon, qo'shnichilik) – O'rta Osiyo, xususan O'zbekiston qududida X asrlardan boshlab mavjud bo'lganligi to'g'risida tarixiy manbalar guvohlik beradi. Mahalla - bu jamiyatshunoslar ta'biri b-n aytganda, tayyor andozaga ega bo'lgan, «mahalliy boshqaruvda xalqchil demokratiya instituti» nomini olgan tashkilotdir. U o'zining asosiy vazifasi, «birdamlik», «jamoaviylik», «hamkorlik» asosida mahalliy aholini birlashtiruvchi, uyushtiruvchi tashkilot bo'lganligi bois, hamma davrlarning boshqaruv organlari unga nisbatan alohida munosabatda bo'lib kelganlar.

**MAHR** – (turk. teng huquqli nikoh tuzilgan paytda xotiniga ajratib beriladigan mulk) nikohning asosiy sharti, nikoh paytida kuyov tomonidan kelinga sovg'a qilinadigan, keyinchalik faqat xotonga tegishli bo'lgan mulk. Mahr faqat islomga xos, qalin tashqi tomondan mahrga o'xshasa ham, qadimdan qolgan urf-odatdir

**MUHABBAT VA NAFRAT** — M. va N. ko'pgina ma'naviy axloqiy tushunchalar kabi juftlik xususiyatiga ega. M. insoniy mohiyatning erkin tarzda namoyon bo'lishi, zo'ravonlik yoki zo'rmaqzo'rakilik b-n chiqisha olmaydigan hodisa. U me'yorlar, an'analar, qonunlarga bo'ysunmaydi, lekin yuksak axloqiylik ifodasi tarzida insonga ulkan mas'uliyat yuklaydi, uni jasoratga chorlaydi, u – insonni tashqi va transtsendental olam b-n bog'laydigan, uni yolg'izlikdan olib chiqadigan buyuk ma'naviy kuch. M. ning ob'ekti doimo go'zallik, manfaatsiz go'zallik. U – Allohmi, Vatanmi, yormi – M. egasiga undanda go'zalroq narsa yo'q. Ayni paytda bir ob'ektni sevgan kishi boshqa ob'ektlarni ham sevishi tabiiy. Deylik, yorga bo'lgan haqiqiy M. Vatanga, insoniyatga M.ni inkor etmaydi, aksincha, barqaror qiladi. Zero, «o'zqo'zicha», «yakka», «xudbin» M.ning bo'lishi mumkin emas. Inson o'zi o'zgaga aylanganida, o'zgani o'ziga aylantira olganida haqiqiy M. egasi hisoblanadi. Mana shu ob'ekt b-n sub'ekt orasidagi farqning «yo'qolishi» eng buyuk, eng mukammal ma'naviy lazzatdir.

**MUOMALA MADANIYATI** -insonlar, xalqlar, millat va elatlar, qavmlar orasida o'zaro ma'naviy aloqa, salomlashuv, so'zlashuv, kelishuv va boshka insoniy munosabatlardir. Muxim aloqa vositasi-M.m. ikki yoki undan ortiq kishilarning o'zaro suhbatini, munosabatini ko'rsatuvchi omil. M.m. nafaqat kishilar orasidagi aloqa vositasi, balki shu b-n birga dunyoning, olamning ma'naviy instrumenti hamdir. Sizning qanday shaxs ekaningizni, o'zaro muloqotda o'z ifodasini topadi.

**MURUVVAT** – insonparvarlik, biror kimsaga qilingan insoniy yordam, yaxshilik, sahovat, lutf. Muruvvat sahovat b-n uyg'un sifat, insoniy axloqiy fazilat bo'lib, xalqimizga xos bo'lgan xususiyat, milliy qadriyatdir.

**MILLATPARVARLIK** - bu vatanparvarlik tamoyilining yanada muayyanlashgan shakli. Zero, millatni sevish keng ma'noda Vatanni sevish degani. Vatanisiz millatning bo'lishi yoki rasmana erkin va baxtli yashashi mumkin emas. Asl millatparvar - milliy o'zligini anglab etgan inson. U o'z millati b-n faxrlanadi, o'z millati b-n butun jahonning faxrlanishini istaydi. Millatparvarlik tamoyili asosida milliy g'oya yotadi, u millatni sevish amaliyotining - millatparvarlikning ilmiy-nazariy asosi sifatida maydonga chiqadi.

**NOMUS** - mohiyatan shaxsning o'z qadr - qimmatini anglab etishi, shu qadr - qimmatning jamiyat tomonidan tan olinishi yoki olinmasligiga nisbatan bo'ladigan munosabatidir. Biroq, bu - nomus qadr - qimmat tushunchasi bilan bir xil ma'noga ega, degani emas. Chunki qadr-qimmat shaxsdan o'zining boshqa odamlarga nisbatan kamsitilmasligini, atrofdagilardan barcha insonning teng huquqliligi tamoyilini o'ziga nisbatan qo'llashlarini talab qiladi. Nomus esa o'z qadr-qimmatini bilishdan tashqari, har bir shaxsning jamiyatda alohida, o'ziga xos tarzda egallagan mavqei va shu mavqeni dog' tushirmay saqlash-saqlamasligi bilan bog'liq. Bu mavqe esa, shubhasiz, o'sha shaxsning ijtimoiy hayotdagi o'rni, kasbi, yoshi va unga nisbatan beriladigan axloqiy daraja bilan muayyanlashadi.

**ODOBLILIK.** Kundalik hayotdagi axloqiy qoidalariga rioya qilish – odob hisoblanadi. Odob axloqiy fazilatlar insonning kundalik faoliyatiga singib borayotganini ko'rsatuvchi mezondir. Odob – jamiyat qabul qilgan axloq normalarini inson faoliyatida, xatti – harakatida, muomala va muloqotida namoyon bo'lishidir. Muayyan odob doirasida bo'lish, yaxshi nom qoldirishga intilish insoniyat paydo bo'libdiki, mavjud. Insonning eng yaxshi fazilatlari nasl – nasabi, bilimi bilan emas, balki odobi bilan belgilanadi.

**OILA** – kishilik jamiyatining ijtimoiy poydevoridir. Unda jismonan sog'lom, ma'nan barkamol, axloqan pok va yuksak madaniyatli insonni voyaga etkaziladi. Oila hayotining asosiy maqsadi aholini qayta tiklash va bolalar tarbiyasidir.

**OILADA FARZAND TARBIYASI** - oila baxti, farzandlarning tarbiyali etuk inson bo'lib etishidagi ota-onaning sa'y harakati hisoblanadi.. Oiladagi farzand tarbiyasi uning kelajakda kim bo'lib etishishida muhim o'rin tutadi. Demak, bola oilada jamiyatning qiyofasini ko'radi, bo'lajak fuqaroning tabiati, dunyoqarashi va axloqiy qiyofasi oilada shakllanadi hamda shunga ko'ra kamol topib boradi. Axloqiy tarbiyaning mohiyati kishini hayotga tayyorlashdan iborat.

**OILANING MUSTAXKAMLIGI** – oiladagi tinchlik, xotirjamlik, bir- biriga bo'lgan samimiy munosabat hisoblanadi. U oila a'zolarining axloqiy tarbiyasiga ham bog'liq. Xalqimizda bejiz “Sog'lom turmush tarzi mustaxkam oilaning garovidir” deb aytilmagan. Sog'lom turmush tarzi deganda biz nafaqat oiladagi er va xotinning bir – biriga bo'lgan munosabati balki, ulardagi axloqiy fazilatlar, imonlilik, poklik, halollik, rostgo'ylik, shirinso'zlik, kabi axloqiy me'yorlarga amal

qilgan xolda urf – odatlarga asoslangan, zamonaviy oiladagi iqlimni tushunamiz. Bunday iqlimda tarbiya topgan bola ma'naviy va axloqan etuk inson bo'lib shakillanadi.

**OILA MADANIYATI** – jamiyatning muhim ijtimoiy instituti bo'lgan oilaning to'laqonli va mukammal faoliyat yuritishi uchun uning a'zolari (er va xotin, otalari va farzandlar) o'rtasida birgalikda hayot kechirish va zarur munosabatlar o'rnatish ko'nikmalarining majmuasi.

Oila madaniyati - Oilaning tarbiya muhiti sifatidagi xususiyati, uning o'ziga hosligi va tamoyilan muhimligi, undagi munosabatlarning bevositaligi va mustahkamligini umumiy muhitning emotsionalligi b-n uyg'unlikda ekanligi b-n shartlanadi. Faqat oilada farzandlar kattalardan malaka, bilimlarni o'zlashtiradilar, kattalar esa o'z hayotlarida bosib o'tgan yo'llarini farzandlari orqali qayta barpo etadilar. Oilaviy muhit o'ziga xos, unikal bo'lib, uning har bir a'zosi yangi avlodda mustahkam va barqaror sog'lom oilani barpo etishga mas'uldir.

**OILA MA'NAVIYATI** – oilaning to'laqonli va barkamol rivojlanishi va faoliyat yuritishini belgilab beruvchi axloqiy, ruhiy, psixologik va g'oyaviy omillarning birligi, oila a'zolari ichki dunyosining uyg'un tarzda namoyon bo'lishi.

Oila ma'naviyati - Jamiyatning asosiy ijtimoiy vazifalaridan biri bo'lgan sog'lom avlodni tarbiyalash, oilaning faoliyati b-n chambarchas bog'liqdir. Jismonan sog'lom, ma'nan kuchli va aqlan etuk sog'lom avlodni yaratish – oilaning eng asosiy ijtimoiy vazifalaridan biridir.

**OTALIKNI BELGILASH** – Bolaning onasi bilan nikohda bo'lmagan shaxsning otaligi o'zini bolaning otasi deb tan olgan shaxs va onaning fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd qilish organiga birgalikda topshirgan arizasiga binoan belgilanadi. Otalikni belgilash faktini mustahkamlash uchun bolaning (bolalarning) aynan shu otadan tug'ilganligini tasdiqlaydigan dalillar bo'lishi shart.

**NIKOHLANUVCHILARNI TIBBIY KO'RIKDAN O'TKAZISH** - O'zbekiston Respublikasi Oila qonunchiligida ilk bor nikohlanuvchi shaxslarni tibbiy ko'rikdan o'tkazish qonunlashtirilgan. Oila kodeksining 17-moddasi «Nikohlanuvchi shaxslarni tibbiy ko'rikdan o'tkazish» deb nomlangan.

**OILA** — tarixan tarkib topgan o'ziga xos va mos ijtimoiy guruh bo'lib, uning a'zolari bir-birlari bilan nikoh, qon-qarindoshlik, umumiy turmush va o'zaro huquqiy, axloqiy va boshqa munosabatlar bilan bog'langandir. Oila nikoh zaminida

vujudga keladi. Nikoh esa erkak va ayol orasidagi munosabatlarning jamiyat tomonidan tan olingan, ma'qullangan ifodasi hisoblanadi.

**SAMIMIYLIK** – “boshqalar gapini tinglaydigan, hamfikir bo'la oladigan, xabardor” degan ma'noni anglatadi. Samimiylik – to'g'riligiga o'zi ishongan, bu haqda o'ziga va boshqalarga iqror bo'la oladigan narsalarni qiladigan odamning ma'naviy ijobiy sifati. *Samimiy* – samimiyat b-n ish tutuvchi, muomala qiluvchi, sidqidillik b-n chin qalbdan qilingan, dildan chiqqan. *Samimiyat* – kishilarga qalban hayrixohlik, pokdillik, samimiylik, sidqidillik. S. insondagi eng yaxshi xislat, oliy insoniy fazilatlardan biri bo'lib, axloqning muhim me'yorlaridan hisoblanadi.

**TAKABBUR(LIK).** Takabbur – o'zini katta oladigan, kibr-havoli. Takabburlik – 1. Takabbur bo'lish. 2. Takabbur odamlarga xos xatti-harakat. T.lik – salbiy axloqiy sifat bo'lib, boshqalarga kibr-havolik b-n munosabatda bo'lish, ularning tajribasi va ma'naviy boyliklarni mensimaslik, o'zining jamiyatda tutgan o'rnidan, millatidan mag'rurlanishni anglatadi. T.lik – manmanlikning bir ko'rinishi bo'lib, kishining o'zini yaxshi ko'rish va imkoniyatlariga ortiqcha ishonishi asosida boshqalarga behurmatlikda bo'lishini ifodalovchi salbiy axloqiy sifat. T.lik – illat. T.lik kamtarlik va odamlarga hurmat sifatlariga ziddir. T.lik kibr, manmanlik, mag'rurlik, maqtanchoqlik, kekkayish, kaltabinlik, jamoadan o'zini yuqori qo'yish, boshqalardan ustunligini namoyon etish kabi illatlar yig'indisidan iborat.

**TARBIYA** – insonning shaxs bo'lib etishuvini ta'minlaydigan uzluksiz jarayonlaridan biri. Go'zal fazilatlar insonga xos narsa, faqat uning mulki emas. Yaxshi fazilat jamiyatning boyligi, umuminsoniy ma'noga ega. Ijobiy fazilatga ega bo'lgan kishilar jamiyatga ta'sir qiladi, uning rivojlanishini tezlashtiradi. Inson bolasi ham bu yorug' olamga shunchaki kelmaydi. Hazrat Navoiy ta'biricha, inson olamga kamolotga erishish uchun keladi. Inson to'g'ri tarbiya topmasa, uning xatti-harakatlari jamiyatga zarar keltiradi.

**ZINO**– buzuvchilik, fahsh. Shar'iy nikohda bo'lmagan erkak va ayolning jinsiy aloqada bo'lishi, islomda katta gunoh sanaladi. Zinokor odam jamiyat axloqini buzadigan odam qaralgan va tegishli jazo belgilangan. Shariatda zino haqida hukm chiqarish uchun shu ish b-n shug'ullangan har ikki tomonning iqoro bo'lishi talab qilingan. Tuhmat va yolg'on guvohlikka qarab hukm chiqarilmagan

**SEVGI** – 1) emotsional jihatdan ijobiy bo'lgan munosabatning yuksak ko'rinishi bo'lib, bunda sub'ekt o'z ob'ektini boshqalardan ajratib oladi va o'z hayotiy

extiyojlarining diqqat markaziga qo'yadi; 2) sub'ektning turg'un, intensiv va kuchaygan hissiyot bo'lib, bunda organizmning fiziologik jarayonlarida va xususan shaxsning jinsiy maylida faollik kuzatiladi. S.da bir shaxs boshqa insonning hayotida o'zligini butunlay namoyon qilish va bu orqali unda o'ziga nisbatan xuddi shunday hislarni uyg'otish niyatida bo'ladi. Bu hislar ham o'ziniki singari turg'un, intensiv va kuchaygan bo'lishini hohlaydi. S. hissi o'ta intim mazmunga ega bo'ladi.

**ShAXSNING AXLOQIY MADANIYATI**- individ tomonidan axloqiy ong orkali jamiyat madaniyatini idrok etish darajasi; axloq talablari inson xatti-harakatlari jamiyatning shakllantiruvchi ta'siri ostida qay darajada chuqur va uyg'un ekanligi ko'rsatkichidir. Turli omillar ta'siri ostida: hayotiy tajriba va tarbiya; bilim va san'at shaxs jamiyatning axloqiy madaniyati yutuqlarini turli darajada o'z ongi va xatti-harakatlarida jamlaydi. Sh.a.m. murakkab dastur bo'lib, o'z ichiga insoniyatning shunday tajribasini oladiki, unga ko'ra inson an'anaviy vaziyatlarda axloqan ish yuritadi, hamda ongning ijodiy elementlarini –axloqiy aql, intuitsiyani ham o'z ichiga oladi va ular yordamida muammoli vaziyatlarda ahloqiy qarorlar qabul qila oladi.

**ShARQONA AXLOQ**– xulq-atvor, yurish-turish, tarbiya, xushaxloqlilik, boadablilik, ota-onaga, ustozlarga hurmat-ehtirom, xushmuomalalik, ochiq yuzlilik, vazminlik, kamtarlik, va'daga vafodorlik, to'g'riso'zlik va h.k.

**FUQOROLIK JAMIYATINING MA'NAVIY AXLOQIY NEGIZI** - Fuqarolik jamiyati – ijtimoiy hayotning davlat ta'siri va aralashuvidan, ma'muriy tazyiqlardan holi bo'lgan hamda insonlarining hususiy turmush sohasini tashkil etuvchi munosabatlar majmuidir. Fuqarolik jamiyati chuqur ma'naviy, yuksak madaniy insoniy munosabatlar zahiriga tayanadi. Bu jamiyatning ma'naviy hayotida bir narsa ustuvorlik qiladi, ya'ni inson benihoya darajada ulug'lanadi, umumisoniy qadriyatlar e'zozlanadi, ular mo'tabar va muqaddas sanaladi. Bunda insonning qadr – qimmat, mehr – oqibat, ahloqiy poklik, adolatparvarlik va insonparvarlik kabi oliy qadriyatlar insonlar o'rtasidagi munosabatlarni belgilovchi mezondir.

**HALOLLIK** - sof, pokiza bo'lishni talab qiladigan axloqiy me'yordir. Dastavval u diniy tushuncha sifatida vujudga kelib, har bir musulmonning emak-ichmagi, jinsiy va iqtisodiy xatti-harakatlari sifatini belgilab beruvchi shar'iy me'yor bo'lib amal qilgan. Insonni ma'naviy, axloqiy jihatdan bezaydigan ajoyib fazilatlaridan biri - halol, pokiza yashash, birovlarining xaqiga zarracha bo'lsada hiyonat qilmaslikdan iboratdir.

**HAYO** – shaxsning axloqiy o'zini-o'zi anglashi ko'rinishlaridan biri; hayo tuyg'usida insonning o'z xatti-harakatlarini, axloqiy sifatlari va motivlarini anglashi tushuniladi. Inson o'z xatti-harakatlarining axloqqa zid ekanligini mustaqil ravishda yoki bo'lsamasa atrofdagilarning qoralashi natijasida anglab etishi mumkin. Hayo vijdon b-n bevosita bog'liq bo'ladi. Vijdonsiz odamlarda hayo bo'lmaydi. Shu b-n birga, hayoning vijdondan farq qiluvchi jihatlari ham mavjud. Hayo qo'proq tashqi muhit b-n bog'liq bo'ladi. Hayo tuyg'usi insonning o'z xatti-harakatlarini boshqalar nuqati nazaridan baholashi b-n bog'liq bo'ladi. Hayo tuyg'usi ma'naviyatli va ma'naviy yuksak insonlarga xos axloqiy fazilatdir.

**HASAD** - o'zida yo'q bo'lgan narsaning boshqalarda bo'lishini istamaslik, o'zgalarning yutuqlari va muvaffaqiyatlarini ko'ra olmaslik. Hasad tuyg'usi mavjud bo'lgan odam boshqalarning yaxshi turmush kechirishidan, o'qishda, mehnat faoliyatida erishgan yutuqlaridan qiyin ahvolga tushadi. Hasad turli olamshumul dinlarda qoralanadi. Masalan xristian dinida hasad ettita gunohi kabiralardan biri hisoblanadi. Chunki bu dinda aytilishicha, hasad qilish xudo tomonidan o'rnatilgan tartibdan norozilikni bildiradi.

**EZGULIK VA YoVUZLIK** — ma'naviy axloqiy tushunchalar orasidagi eng muhim juftliklaridir. E. insonni faoliyatning asl mohiyatini anglatadi – Tangri irodasining inson qalbidagi tajassumi sifatida namoyon bo'ladi. «Ezgu o'y, ezgu so'z, ezgu a'mol» uchligi «Avesto» dan tortib barcha muqaddas kitoblarda etakchi o'rinni egallashi ham shundan. E. insonga eng kuchli ma'naviy lazzat bag'ishlaydigan, uni ijtimoiy shaxsga aylantirib, haqiqiy baxtga olib boruvchi fazilat; shaxsni komillikka, jamiyatni esa yuksak taraqqiyotga etkazuvchi yuksak qadriyat. U insonning axloqiy faoliyati tufayli muayyanlashadi, yuzaga chiqadi.

**ETIKET** - takallufning mayda-chuyda jihatlarigacha ishlab chiqilgan odob qoidalarini sifatida ijobiy, kishining ko'zini quvontiradigan munosabat hodisasidir. Etiketning qamrovi keng, u ma'lum ma'noda xalqaro miqyosda qabul qilingan muomala qonun-qoidalarini o'z ichiga oladi. U ko'proq insonning tashqi madaniyatini, o'zaro munosabatlardagi o'zni tutish qonun-qoidalarining bajarilishini boshqaradi. Muomala odobida inson o'z munosabatlariga ijodiy yondoshsa, ya'ni bir holatda bir necha muomala qilish imkoniga ega bo'lsa, etiket muayyan holat uchun faqat bir xil qoidalashtirib qo'yilgan xatti-harakatni taqazo etadi.

**YAXSHILIK VA YOMONLIK** — asosiy ma'naviy axloqiy juft tushunchalardan. U yaqin yaqingacha E. va Yo. ning sinonimi tarzida qo'llanib kelinar edi, aslida ular

asos e'tibori b-n birqbiridan farq qiladi. E. va Yo. o'zini cheksizlikda, Ya. va Yo. o'zini chegaralanganlikda ifoda etadi. E. ijtimoiylik xususiyatiga ega, Ya. esa asosan shaxsning odobiga, xulqiga bog'liq bo'lgan ijobiy hodisa; unda mardlik, ochiqko'ngillilik, halollik singari axloqiy me'yorlar tajassum topadi. Biroq unga asos bo'lgan amaliy xattiqharakatlar qahramonlik, jasorat, vatanparvarlik kabi axloqiy tamoyillar darajasiga ko'tarila olmaydi.

**OMMAVIY MADANIYAT** – «Ommaviy madaniyat» G'arb dunyosida o'tgan asrning ikkinchi yarmida shakllandi. Uni G'arbda «populyar» yoki qisqartirilgan holda, «pop-kultura» (ya'ni «ommaviy madaniyat») deb atashadi. Garchi «madaniyat» deb atalsa-da, aslida, tub mazmun-ma'nosiga, maqsad-niyatiga ko'ra «ommaviy madaniyat» chinakam madaniyatning kushandasidir.

**GUMANIZM** – Gumanizm (lotincha-insoniy), insonni ulug'lovchi diniy-falsafiy ta'minot, "g'arb" timsolidagi, zamonaviy industirial-texnologik taraqqiyotning umum falsafiy va metodologik printsiplari bo'lgan. "Gumanizm"ning umum qabul qilingan aniq bir ta'rif yo'q. Gumanizm deganda insoniylikka, inson shaxsini qobiliyatlarining maksimal rivojlanishi uchun, shuningdek insonga loyiq hayot sharoitini yaratish tushiniladi.

**GEDONIZM** – amaliy etikaning huzurbaxshlik yo'nalishi bo'lib, unda hayotning maqsadi hayotning yuksak ne'matlariga intilish va undan lazzatlanib, zavqlanib yashash bilan belgilanadi. Shu jihatdan ham qadimgi davr faylasuflaridan bejizdan Antisfen: «mehnat orqasidan keladigan farog'atni talab qilish kerak, undan oldin keladiganini emas» degan fikrni aytgan emas.

**EVDEMONIZM** – (grech. - barqarorlik, huzurbaxshlik, baxt) - inson asosiy faoliyatining baxtga erishuvga intilishi bilan bog'liq bo'lgan axloqshunoslik yo'nalishlardan biri sanaladi.

**BIOETIKA** – bu amaliy etikaning yo'nalishi bo'lib, uning bosh maqsadi tug'ilmoq, hayot va o'lim, insoniyatning kelajagini davom ettirish kabi masalalarga fanning aralashuvini tahlil qilish, oqibatlarini baholash va ushbu jarayonlarning axloqiy qoidalarini ishlab chiqishdan iboratdir.

**PATERNALIZM** – tibbiyot etikasining dastlabki modellaridan biri. Bu shunday bir munosabatlar modeliki, unda vrach bemorga nisbatan nafaqat mehribon ota, balki podsho va xudo sifatida ham ishtirok etadi, zero, insonning hayoti, sog'lig'i, erkinligi va baxti uning qo'lida bo'ladi. Professional tibbiyot etikasining mazmuni

«foyda keltirish», «ziyon etkazmaslik», «bemorning ishonchini qozonish» singari printsiplar bilan belgilanadi, ya'ni vrach faoliyatini tartibga solishga yo'naltirilgan va «tibbiy deontologiya» deb ataladi.

**EVTONAZIYA** – totli o'lim ham biotibbiy axloqning global muammolaridan. Bedavo dardga chalingan bemorni azob-uqubatlardan qutqarish uchun uning o'limini qasddan tezlashtirishga munosabat yuzasidan tibbiyotchilar, yuristlar, sotsiologlar va psixologlar orasida ko'p sonli bahslar hanuz davom etmoqda. Ingliz faylasufi Frensis Bekon (1561-1626) engil og'riqsiz o'limni belgilash uchun «evtanaziya» (yunoncha «euthanasia», «eu» – yaxshi, «thanatos» - o'lim), ya'ni azob-uqubatlarsiz, yaxshi, oson va engil o'lim atamasini muomalaga kiritdi.

**KLONLASHTIRISH** – atamasi ingliz tilidagi “clone”, “cloning” so'zlaridan kelib chiqqan va hozirgi kunga kelib o'z yozilishi, o'qilishini biroz o'zgartirgan. Ingliz tilida bu so'z biologik termin sifatida yuz yillar oldin qo'llana boshlagan. Biroq shu qisqa vaqt ichida o'z ma'nosini bir necha marta o'zgartirishga ulgurgan. Dastlab klon so'zi vegetativ yo'l bilan, ya'ni bir o'simlik urug'idan olingan o'simliklar guruhiga nisbatan qo'llangan. Oradan bir muncha vaqt o'tib, ushbu atama bakteriyalar turkumini etishtirishga nisbatan ishlatilgan.

**TRANSPLANTATSIYA** – odam va xayvonlarda potologik jarayon natijasida shikastlangan yoki olib tashlangan to'qimalar va organlar o'rniga sog'lomini ko'chirib o'tkazish. Xirurgiya usuli sifatida qadimdan ma'lum. Teri, muskul, nervlar, ko'zning muguz pardasi, yog', va suyak to'qimasi, yurak, buyrak va boshqa organlar ko'chirib o'tkaziladi. Qon quyish-transplantatsiyaning alohida turidir. Ko'chirib o'tkaziladigan to'qima yoki organ kimdan olinganiga qarab quyidagicha farqlanadi. Autotransplantant - bemorning o'zidan, allotransplantat - odamdan odamga, ksenotransplantat - boshqa individdan.

Hozir buyrak transplantatsiyasi juda keng yo'lga qo'yilgan. Boshqa organlar, yurak, jigar, endokrin bezlar, o'pka va boshqa organlarni ko'chirib o'tkazish maxsus klinikalarda bajariladi.

**KSENOTRANSPLANTATSIYA** Transplantologiya- yashashga umid qolmagan, dori darmonlar foyda bermagan insonlarning so'ngi chorasi va yashash uchun so'nggi umidi bo'lib qolmoqda. Lekin ushbu muammo bugungi kunda ko'pgina jinoiy holatlarga ya'ni, inson organlarini sotish jarayonlariga olib kelmoqda. Ushbu muammolarni echimining bugungi kundagi yangi yo'llardan biri hioblangan, insonga xayvonning organi yoki to'qimasini ko'chirib o'tish – ya'ni ksenotransplantatsiyadir.

**BADIIY IJOD** - adabiyot va san'at fenomeni, ilhom bilan bog'liq ma'naviy hodisalardan biri, estetik ijod shakli. U tarixiy mazmunga ega bo'lib, san'at va adabiyot turlari yo'nalishlari bilan bog'liq. Insoniyat taraqqiyotining turli davrlarida klasitsizm, romantizm, tanqidiy realizm, naturalizm kabi yo'nalishlar hamda shunday badiiy ijod usullari shakllangan va rivoj topgan.

**GARMONIYA** (yun. Harmonia - aloqa, uyg'unlik) - ma'lum tizim elementlari, tarkibiy qismlari rivojlanishining muayyan davrida o'zaro muvofiq, mutanosib, uzviy bog'liqlik va aloqadorlik holatini anglatuvchi tushuncha.

**GO'ZALLIK** - estetika kategoriyasi bo'lib, narsa hodisalarning nafisligi va nafosatini ijtimoiy ma'naviy jihatdan baholovchi mezon, ijtimoiy ma'naviy hayotda biron bir narsa yoki kishiga xos xususiyatlarning shakl va mazmunan uyg'unligini anglatadigan, turli shakllarda namoyon bo'ladigan va insonda yoqimli tuyg'u, zavq, kuchli hayrat hissini hosil qiladigan tushuncha.

**SAN'AT** - ijtimoiy ong va inson faoliyatining o'ziga xos shakli. San'at inson mehnati, aql idroki, shuuri bilan yaratilgan ijod mahsulotidir. San'at asarida shaxsning o'ziga xos iste'dodi namoyon bo'ladi. San'at insoniyat ma'naviy madaniyatining tarkibiy qismi, dunyoni ma'naviy anglashning maxsus turidir. San'at tushunchasi keng ma'noda, badiiy qadriyatlar, ularni yaratish va iste'mol jarayonlarini qamrab oladi.

**ULUG'VORLIK** - tabiat, jamiyat, inson va uning faoliyati mahsulotlarida namoyon bo'ladigan ma'naviy ahloqiy tushuncha. Ulug'vorlik belgisiga ega bo'lgan barcha narsa va hodisalarga xos umumiylik me'yoriy barkamollikdir. Tabiatda ulug'vorlik baland tog'lar, qudratli sharsharalar timsolida namoyon bo'ladi. Ulug'vorlik hissi umuminsoniy, umumiy belgilari bilan birga ijtimoiy shartlangan, aniq tarixiy tabiatga ham molik qahramonlikda alohida nafosat va axloqiy birlikda to'liq hamda bevosita namoyon bo'ladi.

**FOJIAVIYLIK** - voqelikning eng muhim, chuqur ziddiyat va to'vnashuvlari hayot va o'lim, ozodlik va mutelik, aql va tuyg'u, qonun va burch shaxsiy va ijtimoiy munosabatlarni o'ziga xos tarzda ifoda etuvchi falsafiy tushuncha. San'atdagi fojealilik haqida fikr yuritganda san'at asarlaridagi fojeali ohanglar, fojeaviylik san'ati va nihoyat, fojeaviylik san'at turi kabi muammolar alohida mushohada qilinishi lozim. Har qanday fojea zahirida muayyan fojeali to'qnashuv, ziddiyat yotadi.

**KULGILILIK** haqidagi mavjud barcha nazariyalar kulgililikning predmetini ob'ektiv xususiyat sifatida yoki shaxsning sub'ektiv imkoniyatlari natijasi yohud sub'ekt va ob'ekt o'zaro aloqadorligining natijasi sifatida ko'rib chiqishadi. Mazkur uchta metodologik yondoshuv kulgililikdagi ko'pma'nolikning yuzaga kelishiga sabab bo'ladi.

**ESTETIKA** - (yun.aistethikos - hissiy idrok, sezgi) 1)voqelikni hissiy ta'sirchan,emotsional o'zlashtirish; 2) estetik faoliyat qonuniyatlari to'hriidagi fan,nafosatlik.estetikaga oid dastlabki ta'limotlar miloddan avvalgi 2-3 ming yil muqaddam Qadimiy Misr, Hindiston, Xitoyda Aflotun, Arastu, rimlik Lukretsiy, Goratsiy singari mutafakkirlarning asarlarida har tomonlama rivojlandi. XVIII asr o'rtalarida nemis ma'rifatparvari Aleksandr Baumgarten (1714-1762) estetikani alohida fan deb hisobladi va uning san'atda yorqin namoyon bo'lishini ko'rsatdi. Estetik fan sifatida estetik tafakkur tarixi, estetikaning metodologik muammolari va estetik tarbiya masalalarini o'z ichiga oladi.

**ESTETIK DID** - voqea hodisalarning estetik sifatlarini idrok etish va baholash jarayonida olinadigan qoniqlik yoki qoniqmaslik tuyg'usi, estetik mezon. Estetik did insonning fikr mulohazalari, xulq atvori, xatti harakatlari, moddiy va ma'naviy ijod mahsulotlarida o'z ifodasini topadi.

**ESTETIK MUNOSABAT** - sub'ekt bilan ob'ekt o'rtasidagi o'zaro harakat va o'zaro ta'sirning maxsus turini anglatuvchi falsafiy tushuncha. Estetik munosabat nafosatli ob'ektdir. Muayyan shart-sharoitda har qanday narsa, voqea-hodisa nafosatli tabiatga ega bo'lib, estetik munosabat va nafosatli baho ob'ektiga aylanishi mumkin. Lekin ular ma'lum bir talablarga javob berishlari kerak: birinchidan, aniq his tuyg'u, sezgi idrok qobiliyati va imkoniyatiga ega bo'lishi, ikkinchidan, u yoki bu voqea-hodisa insoniy aloqalar va munosabatlarga kirishib, ijtimoiy ahamiyat kacb etishi kerak. Shundagina muayn voqea-hodisa estetik munosabat ob'ektiga aylanadi, ya'ni u o'z qadrini topadi, baholash esa voqea-hodisalarning qadri yoki ijtimoiy ahamiyatini anglashning maxsus shaklidir.

**ESTETIK ANGLASH** - olamni estetik anglash, dunyoga inson munosabatining sub'ektiv tomoni. U ijtimoiy ong shakllaridan biri sifatida axloqiy, siyosiy, huquqiy, diniy, falsafiy anglash kabi ijtimoiy hodisalar bilan bir qatorda turadi. Estetik anglash ma'naviy ruhiy voqea-hodisalar majmui bo'lib, ular ijtimoiy hayot zaminida vujudga keladigan estetik his, estetik did, fikr, orzu qilish nazariy qismini anglatadi.

**SAN'AT FALSAFASI** - san'at bu fanning yagona tadqiqot ob'ekti emas. Hozirgi paytda texnika estetikasi va uning amaliyotdagi sohasi dizayn, atrof-muhitni go'zallashtirish, tabiatdagi nafosat borasidagi muammolar bilan ham shu fanimiz shug'ullanadi. Demak, uning qamrovini san'atning o'zi bilangina chegaralab qo'yishga haqqimiz yo'q.

**GO'ZALLIK FALSAFASI** - bugungi kunda inson o'zini o'rab turgan barcha narsa-hodisalarning go'zal bo'lishini, har qadamda nafosatni his etishni istaydi. Yuqorida aytilganlardan kelib chiqsak, «Go'zallik falsafasi» degan ibora bu fani mohiyatiga ko'proq mos keladi. Negaki, u faqat san'atdagi go'zallikni emas, balki insondagi, jamiyat va tabiatdagi go'zallikni ham o'rganadi. Shuningdek, go'zallikdan boshqa ulug'vorlik, fojaviylik, kulgililik, mo'jizaviylik, hayolilik uyg'unlik, noziklik singari ko'pdan-ko'p tushunchalar mavjudki, ularni tadqiq etish ham estetika fanining zimmasida.

**SAN'ATNING BILISH TABIATI**- Arastu u bilishning o'ziga xos turi ekanini ta'kidlaydi va bu bilan ustoz Aflotunga raddiya bildiradi. «Birinchi muallim»ning fikriga ko'ra, badiiy asarning mazmuni aniq-ravshan unda aks ettirilgan voqea-hodisa esa bilib olinishi oson bo'lishi kerak, xuddi hayotdagidek idrok qilinishi lozim. Biroq, badiiy idrok etish uchun estetik masofa zarur. Ana shu masofa tufayli badiiy reallik muxtor tarzda, amaliy hayotdagiga aynan bo'lmagan tarzda idrok etiladi. Bunday masofa badiiy til, musiqiy kompozitsiya v. h. vositasida yaratiladi.

**FORIG'LANISH-KATARSIS** - bu tushunchani mohiyatan diniy ma'noda qo'llagan edi. Arastu esa uni san'atga nisbatan ishlatadi. Forig'lanish, Arastu talqiniga ko'ra, san'at o'z oldiga qo'ygan maqsad, xususan, fojea (tragediya)ning maqsadi. U mohiyatan qo'rquv yoki achinish tufayli inson qalbini salbiy hissiyotlardan forig'lantiradi. Natijada inson, bir tomondan, taqdir ko'rgiliklariga xotirjam qaray boshlasa, ikkinchi tomondan, baxtsizlik girdobiga tushganlarga o'zida hamdardlik hissini tuyadi. Ya'ni, san'at insonni olijanob qilish, yaxshilash, go'zallashtirish xususiyatiga ega.

**DINIY-BADIIY ASARDA RAMZ** -. Ramzning o'ziga xos xususiyati shundaki, u o'z mazmuniga emas, butunlay boshqa mazmunni anglatadigan shakl, o'z mohiyatini emas, butunlay boshqa mohiyatni ifodalaydigan hodisa, qisqasi, butunlay boshqa botinni ifodolovchi zohirdir. Shu bois ham u sirli, yashirin hodisa: uni muayyan bilimga ega bo'lmay turib anglash mumkin emas.

**IDEAL** - Diniy-badiiy janrda o'ziga xos tarzda talqin etiladi. Umuman olganda, idealni ma'lum ma'noda, antiqa holat-paradoks deyish mumkin: unda bor narsa yo'q narsaning mezoni bilan o'lchanadi, ya'ni mavjud narsaga yoki hodisaga o'sha paytda mavjud bo'lmagan narsa yoki voqelik talablari bilan yondashiladi.

**DINIY-BADIIY QONUN** - me'morchilikda ham yaqqol ko'zga tashlanadi. Masalan, yirik masjid-jomening tashqi va ichki ko'rinishiga e'tibor qilaylik: kiraverishdagi peshtoqda Kalomullodan oyatlar, bir yonda mezona-minora, tomda gumbaz, hovlida tahorat uchun hovuz, ichkarida diniy va dunyoviy rahbarlarga atalgan maxsus joy-maqsura, fatvolar o'qiladigan, va'z aytiladigan minbar, qibla tomonda mehrob va hokazo. Bularsiz jome masjidni tasavvur qilish qiyin. Yoki nasroniylar cherkovida mehrob (altar), devor va shiftlarda Bibi Maryam, Iso alayhissalomning tasvirlari, gumbazlar, qo'ng'iroqxona singari unsurlar albatta bo'lishi kerak.

**NISBIY GO'ZALLIK** - G'azzoliy unga alohida to'htaladi. Faqat o'z kamolotining barcha qirralariga to'liq ega bo'lgan narsanigina u oliy darajadagi go'zallik deb ataydi. Bunday komillikni faylasuf faqat Allohda ko'radi va payg'ambarimiz Muhammad alayhissalomning «Allox go'zal va u go'zallikni sevadi» degan so'zlarini keltiradi. Shunday qilib, faylasuf mutlaq go'zallik faqat Allohga taalluqli bo'lishini, boshqa go'zalliklarning hammasi nisbiy ekanini aniq-ravshan bayon etadi.

**RUHIY TAXLIL ESTETIKASI** - Froyd inson ruhiy hayotida uch bosqichni ajratib ko'rsatadi; *ong*, *ongoldi* va *ongtubi* yoxud onglanmagan, ya'ni ongga aylanmagan holat. Onglanmaganlik va ongoldi ongdan nazorat (tsenzura) degan o'rta bosqich orqali ajralib turadi. Nazorat ikki vazifani bajaradi; birinchisi, shaxs o'ziga maqbul ko'rmagan va qoralagan his-tuyg'ular, fikrlar, tushunchalarni onglanmaganlik hududiga siqib chiqaradi; ikkinchisi, ongda o'zini namoyon etishga intilgan faol onglanmaganlikka qarshi kurashadi.

**NAFOSAT** - bir tomonlama, real voqelikni, ikkinchi tomondan ilmiy tushunchani anglatadi. U real voqelik sifatida inson hayotining barcha sohalarini nurlantirib turuvchi qamrovli ma'naviy hodisa, tushuncha sifatida esa estetika faniga oid yuzlab, ehtimol, minglab atamalarni o'z ichiga olgan eng yirik istiloh, ovro'pacha ta'rifda-metakategoriya. Boshqacha qilib aytganidan bo'lsak, nafosatning «hududi» nihoyatda keng, u ob'ektiv voqelik sifatida narsa-hodisalarning estetik xususiyatlarini anglatasa, sub'ektiv voqelik tarzida insonning ana shu estetik xususiyatlarini anglash va idrok etish borasidagi botiniy faoliyatidir

**ESTETIK ANGLASH** - va shu asosdagi faoliyat jarayonining ibtidosi estetik ehtiyojga borib taqaladi. Estetik ehtiyoj inson hayotida ro'y beradigan barcha estetik hodisalarning asosi sifatida ham tabiiy-biologik, ham ijtimoiy-ma'naviy mohiyatga ega; «go'zal nafs», nafosatga tashnalik, insonda estetik hissiyotni qo'zg'atish xususiyatini saqlab qolgan holda, keyinchalik uning butun umri mobaynida takomillashib boradi estetik muhokama, estetik baho, estetik did va estetik idealning shakllanishiga xizmat qiladi

**ESTETIK HISSIYOT** -. Ko'pincha adabiyotlarda estetik hissiyot «estetik tuyg'u» so'zida, birlik shaklida beriladi. Goh estetik kechinmaning, goh estetik hayajonning sinonimi tarzida talqin qilinadi. Bizningcha, bu unchalik to'g'ri emas. Chunki hayajon ham, kechinma ham bitta tuyg'udan emas, tuyg'ular silsilasidan iborat bo'ladi, shu sababdan uni ko'plikda-hislar yoki hissiyot shaklida qo'llash maqsadga muvofiq.

Endi estetik hissiyotni tashkil etadigan hislarning ba'zilarini qisqacha ko'rib o'taylik.

**ESTETIK QIZIQISH** - Ma'lumki, qiziqish hissi, sog'inch va qo'msashdan farqi o'laroq o'tmishda ro'y bergan hodisani emas, balki ko'p hollarda kelajakda, tez muddat ichida ro'y berishi lozim bo'lgan voqelikni nazarda tutadi, unga intiladi; intilish jarayoni esa-»uchrashuv»ga tayyorgarlik degani. Estetik qiziqish sub'ektning ob'ekt haqida, hali u bilan yuzma-yuz kelmasdan turib, muayyan bir umumiy tushunchaga ega bo'lishini, uni idrok etishga o'zini hozirlashini taqozo etadi.

**ESTETIK MUSHOHADA** - odatda biz «mushohada» deganimizda «kuzatish» so'zining sinonimini tushunamiz. Aslida esa bunday emas: kuzatish, falsafiy qilib aytganda, bilish munosabatining tajribaviy asosi, u ob'ektga yunaltirilgan bo'lib, qo'yilgan maqsad va ilmiy bilim mantiqi tomonidan boshqarib, tuzatilib boriladi, unga o'zgartirishlar kiritib turiladi, ya'ni u maqsad asosida ish ko'radigan fikriy faoliyat

**ESTETIK BAHO** - qadriyat deganda biz, odatda shaxs, millat, jamiyat tomonidan qadrlanadigan ma'naviy—moddiy ob'ektlarni tushunamiz. Har qanday qadriyat yoki qadriyat darajasiga ko'tarilgan har bir ob'ekt inson tomonidan baholanmay qolmaydi. Qadriyatlar sohaviylik tabiatiga ega (axloqiy, estetik, diniy va h.k.) bo'lishi barobarida darajalarga bo'linishi bilan ham ajralib turadi

**ESTETIK DID** - insondagi go'zallik, ulug'vorlik, fojiaviylik singari estetik xususiyatlarni, umuman, nafosatni idrok etish qobiliyatini nazarda tutiladi.

### **Foydalaniladigan adabiyotlar ro'yxati**

#### **Rahbariy adabiyotlar:**

1. Mirziyoev Sh.M. – Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston Davlatini birgalikda barpo etamiz.- T.,O'zbekiston. 2016.
2. Mirziyoev Sh.M. – Qonun ustivorligi va inson manfaatlarini ta'minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. – T., O'zbekiston. 2017.
3. Mirziyoev Sh.M. – Tanqidiy taxlil, qat'iy tartib intizom va shaxsiy javobgarlik – xar bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. T., O'zbekiston. 2017.
4. O'zbekiston respublikasi Vazirlar Mahkamasining Qarori “Davlat boshqaruvi organlari va mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari xodimlarining odob-axloq namunaviy qoidalarini tasdiqlash to'g'risida” (*O'zbekiston respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2016 y., 9-son, 94-modda*)lex.uz
5. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – engilmas kuch. -T., Ma'naviyat. 2008.
6. Karimov I.A. Eng asosiy mezon - hayot haqiqatini aks ettirish. -T., O'zbekiston. 2009.

#### **Me'yoriy-huquqiyhujjatlar:**

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – T.: O'zbekiston, 2014.
2. Ta'lim to'g'risida. O'zbekiston Respublikasining Qonuni. 1997 yil 29 avgust. G'G' Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. – T.:Sharq, 1997.
3. Kadrlar tayyorlash milliy dasturi. G'G' Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. – T.:Sharq, 1997.

#### **Darsliklar va o'quv qo'llanmalar:**

1. Abdulla Sher. Axloqshunoslik. Darslik. – T.: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati, 2010.
2. Pulatova D.A., Jalolova O'.K., Ro'zmatova G.M. Axloqshunoslik. O'quv qo'llanma – T.: Premier print, 2011.
3. Agzamova N. Etika. Uchebno-metodicheskoe posobie. – T.: OOO “NORI”, 2013.
4. Muhammadjonova L. Amaliy etika. Uslubiy qo'llanma – T.: Universitet.O'zMU, 2014.

5. Husanov B., Gulamov V. Muomala madaniyati. Darslik. – T.: Iqtisodmoliya, 2009.
6. Umarov E, Zagirtdinova F. Etika. Prikladnaya etika. – T.: Noshir, 2012.
7. Muhammadjonova L. Davlat xizmatchisi etikasi va imiji. O'quv qo'llanma – T.: Universitet, 2014.
8. Umarov E., Zagirtdinova F. Etika. Prikladnaya etika. – T.: Noshir, 2012.
9. Muhammadjonova L.A. Abidjanova F.A. Etiket. o'quv qo'llanma. –T., Universitet. 2012.
10. Muhammadjonova L.A., Ortiqova D.O., Abidjanova F.A., Masharipova G.K. Professional etika va etiket. Darslik. - T.: "Adabiyot uchqunlari" 2018.
11. Nurmatova M., Muhammadjonova L., Ma'naviyatning axloqiy asoslari. – T.: Unversitet, O'zMU. 2013.

### **Qo'shimcha adabiyotlar:**

1. Arastu. Poetika. Axloqi Kabir. Ritorika. – T.: Yangi asr avlodi, 2011.
2. Aliqulov H. Falsafiy meros va ma'naviy-axloqiy fikr rivoji. – T.: Falsafa va huquq, 2009.
3. Abdulla Avloniy. Turkiy guliston yoxud axloq. – T.: O'qituvchi, 1992.
4. Madaeva Sh. Milliy mentalitet va demokratik tafakkur. –T.: Falsafa va huquq, 2007.
5. Mahmudov T. Komillik asrorlari. Hayotiy hikmatlar. – T.: Adolat, 2006.
6. Ma'naviyat asosiy tushunchalar izohli lug'ati. – T.: G'.G'ulom nomidagi nashriyot – matbaa ijodiy uyi, 2009 yil.
7. Otamurodav S. Globallashuv va millat. – T.: Yangi asr avlodi, 2008.
8. Tillaeva G. Ma'naviyat va komil inson tarbiyasi. – T.: Falsafa va huquq, 2006.
9. Xolmatova M. Oilaviy munosabatlar madaniyati va sog'lom avlod tarbiyasi. – T.: O'zbekiston, 2000.
10. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Hadis va hayot. Adab. – T.: Sharq, 2008.
11. Jahon falsafasi tarixidan lavhalar. G' Q. Nazarov tahriri ostida. – T.: Sharq, 2004
12. Mamashokirov S. Usmanov E. Barqaror taraqqiyotning ekologik xavfsizlik masalalari. – T.: Fan, 2009.

13. Muhammadjonova L. Jadid mutafakkirlarining axloqiy qarashlari. – T.: Universitet, 2007.
14. Muhammadjonova L. Davlat xizmatchisi etikasi va imiji. O'quv qo'llanma – T.: Universitet, 2014.
15. Nurmatova M., Muhammadjonova L. Ma'naviyatning axloqiy asoslari. – T.: Universitet, 2013.
16. Umarov E., Zagirtdinova F. Etika. Prikladnaya etika. – T.: Noshir, 2012.

### **HORIJIY ADABIYOTLAR:**

1. Herbert Spencer. The principles of ethic. Spenser G. Nauchno'e osnovaniya nraavstvennosti: Induksii etiki. Etika individualnoy jizni. Per. s angl. Izd.2 2008.
2. Harald Hoffding. Ethick. Gyoffding G. Etika ili nauka o nraavstvennosti: Izlojenie eticheskix printsipov i ix primenenie k razlichno'm jiteyskim otnosheniyam. Izd.2 2007.
3. Ch. Letourneau. L'evolution de la morale. Leturno Sh. Progress nraavstvennosti. Perevod s frantsuzskogo. Seriya "Iz naslediya mirovoy sotsiologii". Izd.2. 2007.

|                                                  |         |
|--------------------------------------------------|---------|
| 1. AMALIY ETIKANING TABIATI-----                 | 4-20    |
| 2. HAYOTNING MA'NOSI-----                        | 21-27   |
| 3. MUNOSABATLAR AXLOQI-----                      | 27-33   |
| 4. OILAVIY MUNOSABATLAR AXLOQI-----              | 33-56   |
| 5. SAN'AT ETIKASI-----                           | 56-73   |
| 6. TA'LIM ETIKASI-----                           | 73-79   |
| 7. AXLOQ PSIXOLOGIYASI-----                      | 79-90   |
| 8. BIOETIKA MUAMMOLARI-----                      | 91-106  |
| 9. GLOBALLASHUV JARAYONI: AXLOQIY MUAMMOLAR----- | 107-121 |
| 10.EKOLOGIK AXLOQ. ETOSFERA MUAMMOLARI-----      | 122-125 |
| 11.KASB ETIKASI-----                             | 126-134 |
| 12.OAV ETIKASI VA ESTETIK MADANIYATI-----        | 134-140 |
| 13.NOSAN'AT OB'EKTLAR ESTETIKASI. -----          | 140-149 |
| 14.AXLOQIY VA ESTETIK MADANIYAT -----            | 150-164 |
| 15.JAMOA BILAN MULOQOT MADANIYATI-----           | 164-179 |
| 16.ETIKET-----                                   | 180-193 |
| 17.TASHKILiy MADANIYAT ETIKASI-----              | 193-211 |
| 18.IMIJ-----                                     | 211-221 |
| 19.BAXT VA INSON TABIATI.-----                   | 221-235 |
| 20.GLOSSARIY-----                                | 235-255 |
| 21.FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI-----       | 255-257 |

|                                                   |         |
|---------------------------------------------------|---------|
| 1. ПРИРОДА ПРАКТИЧЕСКОЙ ЭТИКИ -----               | 4-20    |
| 2. СМЫСЛ ЖИЗНИ -----                              | 21-27   |
| 3. ЭТИКА ОТНОШЕНИЙ -----                          | 27-33   |
| 4. ЭТИКА СЕМЕЙНЫХ ОТНОШЕНИЙ -----                 | 33-56   |
| 5. ХУДОЖЕСТВЕННАЯ ЭТИКА -----                     | 56-73   |
| 6. ОБРАЗОВАТЕЛЬНАЯ ЭТИКА -----                    | 73-79   |
| 7. НРАВСТВЕННАЯ ПСИХОЛОГИЯ -----                  | 79-90   |
| 8. БИОЭТИЧЕСКИЕ ПРОБЛЕМЫ -----                    | 91-106  |
| 9. ПРОЦЕСС ГЛОБАЛИЗАЦИИ: НРАВСТВЕННЫЕ ПРОБЛЕМЫ -- | 107-121 |
| 10. ЭКОЛОГИЧЕСКАЯ ЭТИКА. ПРОБЛЕМЫ ЭТОСФЕРЫ -----  | 122-125 |
| 11. ПРОФЕССИОНАЛЬНАЯ ЭТИКА -----                  | 126-134 |
| 12. МЕДИА-ЭТИКА И ЭСТЕТИЧЕСКАЯ КУЛЬТУРА -----     | 134-140 |
| 13. ЭСТЕТИКА АРТ-ОБЪЕКТОВ. -----                  | 140-149 |
| 14. НРАВСТВЕННАЯ И ЭСТЕТИЧЕСКАЯ КУЛЬТУРА -----    | 150-164 |
| 15. КУЛЬТУРА ОБЩЕНИЯ С СООБЩЕСТВОМ -----          | 164-179 |
| 16. ЭТИКЕТ -----                                  | 180-193 |
| 17. ЭТИКА ОРГАНИЗАЦИОННОЙ КУЛЬТУРЫ -----          | 193-211 |
| 18. ИМИДЖ -----                                   | 211-221 |
| 19. СЧАСТЬЕ И ЧЕЛОВЕЧЕСКАЯ ПРИРОДА.-----          | 221-235 |
| 20. ГЛОССАРИЙ -----                               | 235-255 |
| 21. СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ -----                       | 255-257 |

## CONTENT

|                                                      |         |
|------------------------------------------------------|---------|
| 1. THE NATURE OF PRACTICAL ETHICS -----              | 4-20    |
| 2. THE MEANING OF LIFE -----                         | 21-27   |
| 3. ETHICS OF RELATIONS -----                         | 27-33   |
| 4. ETHICS OF FAMILY RELATIONS -----                  | 33-56   |
| 5. ARTISTIC ETHICS -----                             | 56-73   |
| 6. EDUCATIONAL ETHICS -----                          | 73-79   |
| 7. MORAL PSYCHOLOGY -----                            | 79-90   |
| 8. BIOETHICAL PROBLEMS -----                         | 91-106  |
| 9. GLOBALIZATION PROCESS: MORAL ISSUES -----         | 107-121 |
| 10. ECOLOGICAL ETHICS. PROBLEMS OF THIS SPHERE ----- | 122-125 |
| 11. PROFESSIONAL ETHICS -----                        | 126-134 |
| 12. MEDIA ETHICS AND AESTHETIC CULTURE -----         | 134-140 |
| 13. AESTHETICS OF ART OBJECTS. -----                 | 140-149 |
| 14. MORAL AND AESTHETIC CULTURE -----                | 150-164 |
| 15. CULTURE OF COMMUNICATION WITH THE COMMUNITY ---- | 164-179 |
| 16. ETIQUETTE -----                                  | 180-193 |
| 17. ETHICS OF ORGANIZATIONAL CULTURE -----           | 193-211 |
| 18. IMIJ -----                                       | 211-221 |
| 19. HAPPINESS AND HUMAN NATURE .-----                | 221-235 |
| 20. GLOSSARY -----                                   | 235-255 |
| 21. REFERENCES -----                                 | 255-257 |